

17-57



N. MAHMUDOV, A. RAFIYEV,
I. YO'LDOSHEV

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH



11-37
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

N. MAHMUDOV, A. RAFIYEV,
I. YO'LDOSHEV

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH

Akademik liiseylar uchun darslik

Uchinchi nashri



*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2008*

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi
o'quv metodik birlashmalar faoliyatini
muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

Taqrizchilar:

*Y. Tojiyev – filologiya fanlari doktori, professor,
S. Usmonov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

SHARTLI BELGILAR:



– bilib oling



– esda tuting

«Davlat tilida ish yuritish» darsligi ushbu fanning namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan. Unda yozma nutq savodxonligini oshirish, matn yaratish va uni ijodiy o'zgartira olish yo'llari, o'zbek hujjatchiligi tarixi, hujjat turlarini tuzish, zaruriy qismlarni to'g'ri qo'yish, ish yuritish madaniyatiga oid nazariy ma'lumotlar, bu mavzularni mustahkamlashga oid mashq va topshiriqlar berilgan.

Darslikdan oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilar, ish yuritish xodimlari foydalanishlari mumkin.

M $\frac{2202070380-39}{360/84/-2007}$ – 2008

ISBN 978-9943-05-021-1

© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008- y.

Respublikamiz ijtimoiy hayoti va xalq xo'jaligining barcha sohalarida davlat tilida jahon o'lchovlariga mos tarzda ish yurita olish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni puxta egallash, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay bilish kabi talablar barkamol mutaxassislar tayyorlashning muhim shartidir. Shu maqsadda amaldagi o'quv dasturi asosida akademik litsey talabalari uchun ilk marotaba «Davlat tilida ish yuritish» darsligi yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni o'zbek tilining siyosiy-ijtimoiy maqomini ta'minladi va uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, ushbu qonunning 8, 9, 10- moddalarida hujjatlarning davlat tilida tayyorlanishi, boshqaruv organlari, muassasa, korxon va tashkilotlarda ish davlat tilida yuritilishi ta'kidlangan. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning o'zbek tilini milliy-ma'naviy qadriyat sifatida puxta egallashi, o'z fikrini yozma shaklda to'g'ri ifodalay olishi, nutqiy savodxonlikka erishish, hujjat matnlarini tuzish ko'nikmalarini shakllantiriladi. Jumladan, akademik litseylarda «Davlat tilida ish yuritish» darslari joriy etildi. Bu fandan namunaviy o'quv dasturi tuzildi va shu asosda «Davlat tilida ish yuritish» darsligi yaratildi. Darslikning mazkur kengaytirilgan nashri bu fanni o'qitish jarayonida to'plangan tajribalar, o'qituvchilarning taklif-mulohazalari nuqtai nazardan qayta ishlangan hamda to'ldirilgan.

Darslikning asosiy qismi va ilovasida berilgan ta'limiy o'quv materiallari mazmuni o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishga, yozma nutqini rasmiy-idoraviy uslub me'yorlari asosida to'g'ri shakllantirishga, hujjatchilik — munshaot ishini puxta egallashlariga qaratilgan. Ushbu maqsadda adabiy til me'yorlari, matn qurilishi, hujjat turlari va ularning tarkibiy qismlari, to'g'ri

hujjatlashtirish yo'llari kabi masalalar yuzasidan ixcham va tushunarli tilda zarur nazariy ma'lumotlar «Bilib oling», «Esda tuting» ruknlari ostida berilgan. Darslikdagi mashq va topshiriqlar orqali rasmiy-idoraviy uslubga xos turlicha qurilishdagi matnlar tuzish, uni ijodiy o'zgartira olish, ya'ni qisqartirish va kengaytirish, asosiy mazmuni saqlab qolish, to'ldirish, yangilash ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatiladi.

Nazariy mavzular sifatida ajratilgan «Til va nutq», «Yozma nutq savodxonligi», «Adabiy til me'yorlari», «Nutqning uslubiy shakllari», «Matn turlari va tarkibi», «Hujjat turlari va ish yuritish asoslari» qismlari darslikda yagona uslubiyotga bo'y-sundirilgan tarzda talabalarning ham nazariy bilimlarini oshirishga, ham nutqiy savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim. Talabalarning davlat tilida ish yuritish qobiliyatini o'stirishga qaratilgan nazariy-amaliy materialga turli shakl va mazmundagi matnlar, ish qog'ozlari, hujjatlar namunasini tuzish, ularda mantiqiy izchillikni ta'minlash hamda zarur leksik-sintaktik vositalardan o'rinli foydalanish usullarini o'rgatishda fan o'qituvchisi darslikdagi mashq va topshiriqlarni to'liq bajartirishi, ularni to'ldirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tegishli matnni hujjat turiga va uning zaruriy qismlari mazmuniga mos tarzda mustaqil ravishda tuza olish, jo'natilgan hujjatga tashkilot munosabatini aniq ifodalagan holda to'g'ri javob yozish, taklif yoki e'tiroz bildirish, o'z fikrini dalillar bilan asoslash, xulosalash, umumlashtirish va bunda kirish so'zlaridan, iqtibos, ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana bilish ko'nikmalarini o'stirishga oid uslubiy materiallarni talabaga qiziqarli tarzda yetkazish taqozo etiladi.

Darslik mazmunini takomillashtirish borasida bildiradigan taklif va mulohazalaringizdan minnatdor bo'lamiz. Ushbu darslik talabalarning mustaqil fikrlash, voqea-hodisalar to'g'risida chuqur mushohada yurita bilish, nutq namunalariga tafakkur hosilasi sifatida yondashish, ravon jumlar tuza olish, o'zaro muloqot va yozishmalarda nutq madaniyati me'yorlariga amal qilish kabi intellektual fazilatlarini o'stirishda amaliy yordam beradi deb o'ylaymiz.

- ◆ Tilning ijtimoiy-ma'rifiy vazifalari
- ◆ Tafakkur va til
- ◆ Til va nutq
- ◆ O'zbek tili taraqqiyoti

1- topshiriq. Matnni o'qing. Tilning ijtimoiy-ma'rifiy vazifalari ifodalangan gaplarni sharhlang.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishi-shi uchun juda ko'p narsalarni bilishi kerak.

U o'ziga kerakli bilimni ko'rib, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib, o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo'lmay, har bir kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy-ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lardi.

Tilning birligi, ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim omalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari, til tufayli bilim avloddan-avlodga og'zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

Til ilm olishda zamon va makon g'ovini o'rtadan ko'taradi. U tufayli eng qadimgi ma'lumotlarga ega bo'lamiz va hatto kelgusiga oid ma'lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a'zolari bilan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz. Ko'rinishi, shakli bir narsalarning aksi ongimizga o'rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so'z shaklida o'zlashtiramiz. Xuddi shuningdek, mavjudotning ko'rinmas ichki jihatlarini

ham soʻz shaklida oʻzlashtiramiz va til vositasi bilan oʻzgalarga tushuntiramiz.

Tilni oʻrganish va oʻrgatishni osonlashtiradigan yana bir jihati shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. Soʻz yordamida biz mavjudotni oʻrganib, umumiy tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiy xossalari oʻrganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tugʻdiradi.

Alibek Rustamov, «Soʻz xususida soʻz» kitobidan.

2- topshiriq. Matn asosida quyidagi savollarga javob bering:

1. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotida qanday oʻrin tutadi?
2. Til va madaniyat tushunchalari oʻrtasidagi bogʻliqlik nimaning iborat?
3. «Til robitalari vositalari olamiyondur» (Avaz Oʻtar) jumlasini izohlang.
4. Bilim egallashda til qanday vazifani bajaradi?
5. Fikrlash bilan soʻzlash oʻrtasidagi bogʻliqlik va farqni tushuntiring.

1- mashq. Gaplarni koʻchirib, ajratilgan soʻzlarning maʼnosini izohlang.

1. Har bir millatning tili ikki xil **ijtimoiy** vazifani bajaradi: bir tomondan, jamiyat aʼzolari orasida oʻzaro **aloqa** uchun xizmat **qilib**, ularni birlashtiradi, ikkinchi tomondan, bir millatni boshqasidan ajralib turishini taʼminlaydi. 2. Har bir millatning dunyoda borligʻin koʻrsatadurgʻon **oyinayi hayoti** til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak, millatning **ruhini** yoʻqotmakdur (*A. Avloniy*). 3. Tildagi har bir soʻz, uning har bir shakli inson **tafakkuri** va tuygʻusining natijasidir, oʻsha tafakkur va tuygʻular orqali soʻz yordamida mamlakat tabiati va xalq tarixi ifoda etilgan (*K.D. Ushinskiy*). 4. Ki har neni **bilmish** odamizot, Tafakkur birla qilmish odamizot (*Alisher Navoiy*). 5. Kim ravshan **fikrlasa**, u ravshan bayon etadi (*N. Bualo*). 6. Til fikrni yaratuv-

chi a'zodir. **Aqliy faoliyat** va til yaxlit butunlikni tashkil etadi (*V. fon Gumboldt*). 7. So'zlash **qobiliyati** hodisalar ichiga kirishning yagona va bebaho vositasidir (*L. N. Tolstoy*).



Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg'arilgan bilimlar qayd etiladi, saqlanadi va avloddan-avlodga yetkaziladi. Til millat ruhining ko'z-gusidir. Tilda millatning bor-yo'g'i, o'y-fikri, dunyo-qarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg'ulari gavdalalanadi. Tildagi har bir so'z, uning har bir shakli inson tafakkuri va tuyg'usining natijasidir.

Til yaxlit bir tizim sifatidagina ijtimoiy vazifani bajara oladi. Til asosiy birliklari: tovush, so'z, qo'shimcha, gaplar orqali grammatik jihatdan ohang vositasida va mantiqan o'zaro bog'lanishda borliq haqidagi hukmlarni ifodalaydi, nimanidir tasdiqlaydi yoki inkor qiladi.

Til insoniyat tomonidan yaratilgan, unga xizmat qiladigan va har qaysi millatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga mos tarzda rivojlanib boradigan ijtimoiy hodisadir.

3- topshiriq. Alisher Navoiyning til, so'z haqidagi hikmatlarini daftaringizga ko'chirib, ularning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan izohlang va hikmatlarni yod oling.

2- mashq. Matnni o'qib, ajratilgan so'zlar ishtirokida matn mazmuniga mos mustaqil gaplar tuzing.

Kishilar bir-birlari bilan til orqali o'zaro munosabatda bo'ladilar, bir-birlariga fikr va istaklarini yetkazadilar.

Alisher Navoiy tilning faqat insonlarga xos hodisa ekanligini ta'kidlab:

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin, —*

deganlar.

Tafakkur va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisalardir. Inson nutqi bo'lmasa, **til vositalari** bo'lmasa, fikrlash ham bo'lmaydi. Tafakkur bo'lmasa, til, nutqning ham bo'lishi mumkin emas. Tafakkur va til bir-birisiz mavjud bo'lmasa ham, ular aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur **botiniy olamning** inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalanadigan **in'ikosidir**. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni **qayd etish** va boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasidir. Boshqacha aytganda, til tafakkurning borliq shakli bo'lsa, tafakkur tilning **mazmunidir**.

Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning harakati, uning faoliyati natijasida yaratilgan **ma'naviy boyliklarni** zamon va makonda abadiylashtiradi: ular doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birining yashashiga va rivojlanishiga yordam beradi.

4- topshiriq. Tilning bilish jarayonidagi o'rni haqida ijodiy bayon yozing. Yozma ishingizda quyidagi fikrlardan foydalaning:

— Insonning borliqni anglash, yashash va ishlash jarayonida paydo bo'luvchi narsa, voqea-hodisalarni aks ettiruvchi barcha tushuncha va tasavvurlari tilda o'z ifodasini topadi.

— So'z bilan tushuncha o'rtasidagi birlik tafakkur jarayonining o'ziga xos va ijtimoiy-tarixiy ong mahsulidir.

— Tushuncha borliqni anglash, aks ettirishning shunday shakli, u narsa va uning xossalari haqida ma'lumot berib, hamma vaqt so'zda ifodalanadi.

— Inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib boradi.



Tafakkur faqat insonlarga xos bo'lgan mehnat va nutq faoliyati bilan bog'liq holda mavjuddir. Inson tafakkuri nutq bilan bevosita bog'langan holda yuzaga chiqadi va uning natijalari tilda qayd qilinadi. Demak, tafakkur jarayonining natijasi hamisha biron-bir fikrdan iborat bo'lib, bu fikr tushuncha, hukm, xulosa tarzida faqat til vositasida namoyon bo'ladi. Til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, fikrni reallashtiradigan, kishilarning fikr almashishlarini ta'minlab beruvchi quroldir.

1- **mashq.** Gaplarni ko'chiring. *Millat, til, ona tili* to'g'risidagi gaplarning mazmunini izohlang.

1. Nechunki har bir insonning jonidan aziz narsasi din va millatidir. Ul din va millatning muhofazati ham har afrod insonga vojibdur. Oni (millatni) muhofazati ona tilining muhofazati bilan bo'lur. Qachonki bir millat tilini yo'qotsa, u muqaddas dini va millatini ham yo'qotur (*Ashurali Zohiriy*). 2. Bobolardan biza meros ezgu til, avlodlarga xazinayi bebaho (*Mirtemir*). 3. Til millatning birinchi haqidir. Shu haq o'ksitilgan bo'lsa, demak, millat o'zini-o'zi o'ksitib kelgandir (*I. G'ofurov*). 4. O'z vataningga bo'lgan chinakam muhabbatingni o'z tilingga bo'lgan muhabbatingiz tasavvur etish mumkin emas (*K. Paus-tovskiy*). 5. Til g'oya, tuyg'u va tafakkurning jonli mujassamidir (*L. N. Tolstoy*).

2- **topshiriq.** Matni o'qing. Uni o'zbek tilining taraqqiyoti haqida bilganlaringiz bilan to'ldirib sharhlang.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni 1989- yil 21- oktabrda qabul qilindi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek tili — davlat tiliga e'tibor kuchaydi va ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O'zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1995- yilning 21- dekabrda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Davlat tili haqida»gi Qonuni e'lon qilindi. Bu qonun 24 maddadan iborat bo'lib, uning birinchi moddasida asosiy qonunimiz bo'lgan Konstitutsiyamizning to'rtinchi moddasida yozilganidek, «O'zbekiston Respublikasining Davlat tili — o'zbek tilidir» deb yozib qo'yilgan.

O'zbek tilida to'g'ri, ifodali so'zlash va yozish, ona tilimizning qolli va boyligi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilish, uning iste'mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh, o'quvchi va talaba ona tilidagi so'z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o'rinni foydalanishga doimo harakat qilishi foydalidir. So'z — fikrning qurolidir, kishi qanchalik ko'p so'z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo'ladi.

6- topshiriq. Til to'g'risidagi maqol va hikmatlarni yozing. Ularning ma'nosini izohlash asosida «*Tilga e'tibor — elga e'tibor*» mavzusida ijodiy bayon yozing.

4- mashq. Gaplarni o'qing, ularni til va yozuv taraqqiyoti nuqtai nazaridan tartib bilan ko'chiring.

1. VIII asrda O'rta Osiyoda islom dini bilan birga arab yozuvi ham tarqaldi. O'zbek xalqi bu yozuvdagi 28 harfga yana qo'shimcha to'rta harf kiritib, o'z tiliga moslashtirdi. 2. 1940- yil 8- mayda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» 1956- yil 4- aprelda tasdiqlangan edi. 3. 1993- yil 2- sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning ma'naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995- yil 24- avgustda tasdiqlandi. 4. O'zbek yozuvi dastlab 1929- yilda lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko'chirilgan edi. 5. Turkiy xalqlarning ko'plab bebaho yodgorliklari qadimgi turk va uyg'ur yozuvlarida bitilgan. O'rxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli bo'lib, har bir tovush uchun maxsus shakl qo'llangan. 6. O'rta Osiyo xalqlari eng qadimdan o'z yozuv madaniyatlariga ega bo'lganlar, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan so'g'd va xorazm yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.



O'rta Osiyoda quyidagi fonografik yozuv turlaridan foydalanilgan:

- oromiy yozuvi (miloddan avvalgi III—I asrlarda);
- so'g'd yozuvi (milodimizning I—VI asrlarida);
- xorazm yozuvi (II—III asrlarda);
- o'rxun-enasoy yozuvi (V—VIII asrlarda);
- uyg'ur alifbosi (VI—VII asrlardan XII asrgacha);

- arab alifbosi (VII—VIII asrlardan 1929- yilgacha);
- lotinlashtirilgan o‘zbek alifbosi (1929—1940- yillarda);
- rus-kirill yozuvidagi o‘zbek alifbosi (1940- yildan);
- lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosi (1996- yil sentabridan).

7- *topshiriq.* a) arab va kirill yozuvi asosidagi o‘zbek alifbolariga milliy tilimizning xususiyatlarini hisobga olgan holda kiritilgan qo‘shimcha harflarni tavsiflang;

b) berilgan matn asosida o‘zbek tilining rasmiy til sifatida amal qilinishi tarixi to‘g‘risida yangi matn tuzing.

Qadimdan har bir qabila, elat o‘z yozuvini muqaddas deb bilgan, o‘z tilini ulug‘lab kelgan. Ajdodlarimiz oromiy, so‘g‘d, run, uyg‘ur, arab yozuvlaridan foydalanib, boy tarixiy, madaniy meros qoldirishgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy tilda davlat yozishmalari olib borilgan, uning maqomi mustahkamlangan. Qoraxoniy podshohlar o‘z turkiy tillarini «hoqoniya tili» deb e‘lon qilishgan. Buyuk tilshunos Mahmud Qoshg‘ariy bu tilni uchqur tulporga, adib Yusuf Xos Hojib tog‘ o‘husiga qiyos qilishgan. Hazrat Alisher Navoiy turkiy tilni o‘n sakkiz ming olamdan ham oliy olamga o‘xshatganlar.

Savol va topshiriqlar:

1. Til jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
2. Dunyoni anglash hamda bilim olishda tilning o‘rnini asoslang.
3. Til va nutq o‘rtasida qanday farqlar bor?
4. O‘zbek tilining taraqqiyoti qanday omillarga bog‘liqligini izohlang.

YOZMA NUTQ SAVODXONLIGI VA NUTQ MADANIYATI ASOSLARI

- ◆ Yozma nutq
- ◆ Imlo qoidalari
- ◆ Nutq madaniyati
- ◆ Nutq odobi
- ◆ Nutq madaniyatini egallash omillari

8- topshiriq. Matnni o'qing va yozma nutqning mohiyatini ochuvchi so'z, atamalarni aniqlab, ma'nolarini izohlang.

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutq faoliyati kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki tarzda va yozma tarzda.

Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, balki u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta'minlaymiz.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, badiiy nutq, shuningdek, hujjatlar, ommaviy axborot vositalari uchun tuzilgan yozma matnlar kiradi. Yozma nutq savodxonligi har bir kishidan o'z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalariga, adabiy til me'yorlariga rioya qilgan tarzda ifodalashni talab qiladi.

5- **mashq.** Gaplarni o'qing. Yozma nutqqa xos atamalarni ko'chirib yozing va lug'aviy ma'nolarini izohlang.

1. Yozma adabiy tilning madaniyligi, adabiy me'yorlari alifbo va imlo qoidalarining mukammal va puxtaligiga ham bog'liq. 2. Yozma matnning mazmuni, ma'no qirralari, sintaktik va grammatik munosabatlarini aniqlashda tinish belgilari muhim o'rin tutadi. 3. Mustaqim Mirzayev fidoyi tilshunos sifatida har kuni ikki-uch soatlik ish vaqtlarini gazeta va jurnallar tilini o'rganish, ulardagi adabiy me'yor buzilishlarini aniqlash, bunday xatolarni guruhlash va bartaraf etish choralari bo'yicha tavsiya yozishga sarflar, bu ishdan hech erinmas edi. 4. Nutq madaniyatining saviyasi tilning talaffuz va imlo, grammatik, leksik va uslubiy me'yorlaridan to'g'ri foydalana bilish darajasi bilan belgilanadi. 5. Fikrdagi qusur, so'zdagi xatolarni vujudga keltiradi, so'zdagi kemtiklar esa ishdagi xatolarni keltirib chiqadi (*D. Pisaryev*). 6. Qalam — eng yaxshi muallim, qalamdan chiqqan nutq hozirgina o'ylanganidan ko'p yaxshiroqdir (*Sitse-ron*). 7. Daryodagi gavhar o'z jilvasini g'avvos tufayli namoyish qilganiday, til ham o'z qudrati va nafosatini nutq ahli vositasida zuhur etadi (*A. Navoiy*).



To'g'ri yozish qoidalari tilshunoslar tomonidan tuziladi va jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Imlo qoidalari hukumat tomonidan tasdiqlanadi. Kishilar o'zaro yozishmalarida, rasmiy ish yuritishda, ta'lim jarayonida, madaniy-ma'rifiy faoliyatda tilning imlo qoidalariga amal qilishga majburdirlar.

So'z va qo'shimchalarning yozilishi ma'lum bir qoidalarga asoslanmasa, yozuvda har xillik yuzaga chiqadi, natijada bir-birini tushunish imkoniyati yo'qoladi. Shuning uchun ham o'zbek tilining imlo qoidalarini har bir bo'limi bo'yicha puxta o'zlashtirish lozim. 1995- yilning 24- avgustida tasdiqlangan «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»da «*Harflar imlosi*», «*Asos va qo'shimchalar imlosi*», «*Qo'shib yozish*», «*Chiziqcha bilan yozish*», «*Ajratib yozish*», «*Bosh harflar imlosi*» va «*Ko'chirish qoidalari*» nomli bo'limlar bor.

9- topshiriq. Yozma nutq savodxonligiga erishish xususidagi o'z fikr-mulohazalaringizni bayon etib, matn yarating.

10- topshiriq. Matnni o'qing, nutq madaniyatiga oid gaplarni sharhlang.

Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgin, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan...

Odamlar to'rt xil bo'lganidek, so'z ham to'rt xil bo'lgay: biri, bilinmayturg'on va aytilmayturg'on, ya'ni aytishga zaruratsiz bo'lgan so'zlar; ikkinchisi, aytilaturg'on va bilinaturg'on; bunday so'zlarga ibratomuz va aytsa bo'ladigan so'zlarni kiritish mumkin. Masalan, odob-axloq, nasihat tarzida aytilgan so'zlar; uchinchisi, ham bilinaturg'on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo'laturg'on; to'rtinchisi, bilinaturg'on va aytilmayturg'on. Ammo aytilmayturg'on va bilinmayturg'on unday so'zdirki, ... dunyoning salohi unga bog'liqdir. Ul so'zdin aytguvchiga ham, eshitguvchiga ham ko'p naf yetar...

Kishining martabasini so'zi bilan bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bilan bilmaslar, chunki har kishining ahvoli undan chiqadigan so'zning ostiga yashiringandir, ya'ni bir so'zni bir ibora bilan aytilsa, eshitgan odamning ko'ngli undan xijolat tortgay va yana o'sha so'zni bir ibora bilan aytsa, eshitgan odamning joni undan rohatlanadi.

Kaykovus, «Qobusnoma»dan.



Tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, to'g'ri foydalanilgan holda tuzilgan nutq madaniy nutqdir. Nutq madaniyati esa ana shu tilni — aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir. Bu noyob qurolni ishlatishga bo'lgan munosabat qanchalik yomon bo'lsa, uni ishlatishga qanchalik befarqlik bilan qaralsa, nutqning madaniylik darajasi ham shunchalik past bo'ladi va aksincha, munosabat qanchalik yuqori bo'lsa, nutq ham, aloqa ham shunchalik madaniy bo'ladi.

So'zlovchi yoki yozuvchida til imkoniyatlariga munosabat, uning ishlatilishidagi boshqa omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo'lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo'lsa, nutq madaniyati ham yuqori saviyada bo'ladi va aks holda nutq madaniyati ham past saviyada bo'ladi.

Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok etish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahorati, tilning ifodaviy vositalaridan mazmun va uslubga ko'ra nutqiy vaziyatga qarab o'rinli foydalana bilishdir.

- 6- mashq. Nutq odobi haqida she'riy misralarni o'qing, ma'nosini o'z so'zlaringiz bilan yozing. Ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

So'zni ko'p so'zlamay, sizlab ayt, oz-oz,
Tuman **so'z tugunin** shu bir so'zda yoz.

* * *

Kishi so'z tufayli bo'ladi **malik**,
Ortiq so'z bu boshni etadi egik.

Yusuf Xos Hojib.

* * *

O'chukturma erni tilin, bil, bu til
Bashaqtursa, butmas, butar o'q boshi.

* * *

Nekim kelsa **erga** tilitin kelur,
Bu tiltin kim **ezgu**, kim oqir bo'lur.

Ahmad Yugnakiy.

* * *

So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
Ko'rma kim der ani, ko'rgilkim, ne der.

* * *

Kim oz dedi nuqta ayshu kom o'ldi anga,
So'z **qoidasida** intizom o'ldi anga.

* * *

Har kimki **chuchuk** soʻz elga izhor aylar.
Har nechaki **agʻyor** durur yor aylar.
Soʻz qatigʻi el koʻngligʻa ozor aylar,
Yumshogʻi koʻngullarni giriftor aylar.

Alisher Navoiy.

* * *

Bor soʻzni soʻz sanab tebranmasin til,
Koʻrib, oʻylab soʻzla, keragini bil.

Soʻfi Olloyor.

11- topshiriq. Matni oʻqing, soʻng adibning nutq madaniyati haqidagi fikrlarini sharhlab, ijodiy bayon yozing.

Har bir millatning dunyoda borligʻin koʻrsatadurgʻon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmaktur... Zigʻir yogʻi solub, moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur. Bobolarimizga yetushgʻon va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas...

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy ogʻiz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur. Chunki soʻz insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini oʻlchab koʻrsatadurgʻon tarozusidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini soʻzlagan soʻzidan bilurlar. «Quruq soʻz — quloqqa yoqmas», demishlar.

Agar soʻz aql va hikmatga muvofiq boʻlub, oʻziga yoki eshituvchiga bir foyda chiqaradurgʻon boʻlmasa, asalari orasida gʻungʻurlab yurgan qovoqari kabi quruq gʻungʻurlamoq, faqat bosh ogʻrigʻidan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattigʻ kulfatlarning koʻpi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Koʻp oʻyla, oz soʻyla», demishlar.

Tillarning eng yaxshisi soʻzga usta til, soʻzlarning eng yaxshisi bilib, oxirini oʻylab soʻylangan soʻzdur.

A. Avloniy, «Turkiy guliston yoxud axloq»dan.

12- topshiriq. Nutq odobi to'g'risida aytilgan hikmat va maqollarni daf'ingizga yozing hamda oxirgi ikkitasining ma'nosini izohlab bering.

1. Yaxshi so'zlashga o'rgan va muloyim so'zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki, qanday so'zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. *Kaykovus.*
2. So'zi hisobsiz — o'zi hisobsiz.
3. Chin so'z — mo'tabar, yaxshi so'z — muxtasar.
4. Takallum bila kimsa inson erur,
So'zi yo'q bahoyimg'a ne son erur.

Alisher Navoiy.



Ajdodlarimiz qadimdan to'g'ri, ta'sirchan, chiroyli gapirishga intilish va ularni odatga aylantirishga ma'rifiy-axloqiy talab sifatida qarab kelganlar. So'zni qadrlash, yaxshi so'zlay olish, so'zlaganda o'ylab, tushunib gapirish, chin so'zlash, tilni tiyish, suhbat sirlarini saqlash, ezma va vaysaqi bo'lmaslik kabilarga amal qilish nutq odobining asosiy talablari hisoblangan. Nutqiy muomaladagi bu odatlar xalqimizning o'ziga xos an'anasi sifatida yashab va takomillashib kelmoqda.

Nutq madaniyatini egallash birinchi galda hozirgi o'zbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta o'zlashtirish, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilish kabi lisoniy omillarga; ikkinchidan, so'zlashganda muayyan axloq-odob me'yorlariga rioya etish, o'z va o'zgalar gapiga e'tiborli bo'lish, o'rinli so'zlash, tinglash, suhbatlashish, munozara madaniyatini bilish kabi ijtimoiy-ruhiy omillarga bog'liqdir.

7- mashq. Gaplarni o'qing. Nutq madaniyatiga oid maqol va hikmatlarni ko'chirib oling, ma'nolarini izohlang.


1. O'zbek xalqi: «O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir» deb nutqqa nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishni xush ko'radi. 2. Abu Nasr Forobiy aql va mantiq ilmiga alohida e'tibor bergan, shuningdek, mantiq bilan grammatikaning o'zaro bog'liqligini



quyidagicha ta'kidlagan: «Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani singari mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yoʻldan olib borish uchun aqlni toʻgʻrilab turadi» 3. Oʻrta Osiyo xalqlarida notiqlik sanʼati «voizlik», notiq — «voiz», nutq — «vaʼz» atamalari bilan nomlangan. 4. Alisher Navoiy nutq va unga amal qilish haqida quyidagilarni taʼkidlaydi: «Vaʼz bir murshid va ogoh ishidir va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Avval bir yoʻldan bormoq kerak, andin soʻngra elni boshqarmoq kerak. Yoʻlni yurmay kirgan itar va gʻayrimaqsd yerga yetar». 5. Soʻzni koʻngulda pishirib toblamaguncha tilga keltirma. Dilda bor va fikrlarning hammasi aytgulik boʻlavermaydi. Ichda yotgan soʻzlaring — sening sirlaring. Sir esa nafasga oʻxshashdir. Chiqqan nafasday, uning ham sira qaytarilish imkoni boʻlmaydi (*A. Navoiy*). 6. Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir... Nutqni juda yaxshi va sanʼatkorona oʻrganib ol, doimo gapga chechan boʻlishga harakat qil. Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham koʻp boʻladi (*Kaykovus*).

Savol va topshiriqlar:

1. Kamolatga yetishishda yozma nutqning hissasi qanday?
2. Nutq savodxonligi nimalarda namoyon boʻlishini tushuntiring.
3. Turli vaziyatlarda nutq odobiga qanday rioya qilishingizni izohlang?
4. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati tushunchalarini farqlang.
5. Sizningcha, notiqlikni qanday egallash mumkin? Tavsiyalar bering.



- ◆ Imlo me'yorlari
- ◆ Talaffuz me'yorlari
- ◆ Grammatik me'yorlar
- ◆ So'z tanlash va qo'llash me'yorlari
- ◆ Uslubiy me'yorlar

I. IMLO ME'YORLARI

8- mashq. Gaplarni o'qing. Xato yozilgan so'zlarni aniqlab, to'g'rilari bilan almashtirib ko'chiring. Xato yozish sabablarini tushuntiring.

1. Til tafakkurning in'ikosi, uning hosilasidir. 2. Bu yerning iqlimi issiq siz mo'tadil havoga ko'nikgansiz. 3. Samarqanddan olgan taasurotlaringiz asosida insho yozing. 4. Bog'ga chiqib, qipqizil olmalarni tariflang, baxru dilingiz ochiladi. 5. Davo hujatlari tayyor bo'lguncha, ish joyingizdan tafsivnoma keltiring. 6. To'y boshi dev qomat bir yigitni saxnaga chiqardi. 7. Amudaryoning bu qadar shiddatli oqishini endi ko'rishim edida!



Imlo me'yorlari, ya'ni to'g'ri yozish me'yorlari nutqiy savodxonlikni belgilovchi asosiy mezon sanaladi. Imlo me'yorlari til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan holda yaratiladi. Bu me'yorlarning amal qilishi maxsus imlo qoidalari bilan tasdiqlanadi.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosidagi yozuv me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995- yil 24- avgustda tasdiqlangan «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ga tayanadi.

Unga harflar imlosi, o'zak va qo'shimchalar imlosi, bo'g'in ko'chirish, so'zlarni qo'shib va ajratib yozish kabilarga oid qoidalar kiritilgan. Yozma nutqda bu qoidalarga amal qilish majburiydir.

13- topshiriq. Boshqa tillarda o'zlashgan yangi so'zlar lug'atini tuzing. Harflaming lotin yozuvidagi yangi o'zbek alifbosida berilishini izohlang.

9- mashq. O', g' harflari qo'shiladigan belgi bilan tutuq belgisining ishlatilishiga misollar yozing. Ularni namunadagidek ikki ustunga ajratib yozing.

Namuna:

1- ustun

o'zbek

mablag'

2- ustun

ta'sir

mo'tabar

14- topshiriq. Matnni o'qing va shu asosda to'g'ri yozish uchun nimalarni bilish kerakligi to'g'risida taklif-tavsiyalarimgizni yozma ravishda bayon qiling.

So'z va qo'shimchalarni to'g'ri yozish, qo'shib va ajratib yoziladigan so'z va so'z shakllarini bilish, bosh harflar bilan yozilishi kerak bo'lgan so'zlarni farqlash kabi imlo amallarini o'zlashtirmasdan turib yozma savodxonlikka erishish mumkin emas. Imlo qoidalarini bilish faqat to'g'ri yozishni o'rganish uchungina zarur deyish xato bo'ladi. So'zlarni to'g'ri o'qish, nutq jarayonida to'g'ri talaffuz qilish, hatto so'zning matndagi ma'nosini to'g'ri anglash va o'rinli qo'llay bilish uchun ham imlo qoidalarini puxta egallash taqozo etiladi.

Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni chuqur o'rganish va yozma nutqda ularga to'la amal qilish har bir o'quvchi, qolaversa, barcha fuqarolarning burchidir. Afsuski, ko'zga tashlanib turgan ko'cha peshtoqlarida, idoralar nomi yozilgan lavhalarda *Yunus-obod, Yangi—bozor, orom—baxsh, ko'z oynak, elektro texnika* kabi xato yozuvlar uchrab turibdi.

Vatanini, millatini sevgan har bir kishi yozuv madaniyati azal-azaldan milliy qadriyatlarining ko'zgusi, ilmiy-ma'rifiy

salohiyatning belgisi bo'lib kelayotganini aslo unutmashligi lozim. Ulug'lanayotgan qadriyatlarimizdan biri bo'lgan milliy yozuvimizga hurmat va e'tiqodni to'g'ri va chiroyli yozish orqali tarbiyalashimiz maqsadga muvofiqdir.

10- mashq. So'zlarni ko'chirib yozing, qo'sh unli va undosh harflarning to'g'ri yozilishini esda tuting.

I. Matbaa, mutolaa, manfaat, mudofaa, murojaat, muta-assib, taassurot, taajjub, taassuf, shuur, vakuum, inshoot, badiiy.

II. Muqaddam, muddat, modda, moddiy, muqaddas, malla, metall, murakkab, mutafakkir, mukammal, tavakkal, tasarruv, tafakkur, tullak, taraddud, zukko, ziddiyat, Zahiriddin, gamma, grammatika, diagramma, hujjat, himmat, hammom, hurriyat, hakka, dukkak, lazzat, kollej, kakku, kalla, silliqlik, salla, sakkiz, sodda, jiddiy, go'mma, chappa, chillaki, xatti-harakat, qaddiqomat, achchiq, avvalo, omma, okkulist, yollanma.

ASOS VA QO'SHIMCHALAR IMLOSI

11- mashq. Gaplarni o'qing. Ajratilgan so'zlarning o'zgidagi o'zgarishlarni aniqlang va sababini izohlang.

1. **O'ynab** gapirsang ham o'ylab gapir. 2. Xalq botir **o'g'lonlarni** hech qachon unutmaydi. 3. **Og'zaki** nutq qisqa va ifodati bo'lishi kerak. 4. Qizcha erkalanib opasining **bo'ynidan** mahkam quehdi. 5. Bolaning ko'ngli o'ksimasin deb **yumshoq** o'rindiqqa o'tqazdi. 6. So'roq qilingan kishining ayblarini **sanab** berdik. 7. Sog'lom va zehni bo'lib **ulg'aygan** bola hayotda **qiynalmaydi**. 8. So'z bilan **o'ynovchilardan** yuragim bezillaydi. 9. Musavvirning **bo'yog'ida** hayot chizgilari aniq ifodalangan edi.



O'zakdagi unlining o'zgarishi:

- **a** unlisi bilan tugagan fe'llarga - **v**, - **q**, - **qi** qo'shimchalari qo'shilganda **a** unlisi **o** ga o'zgaradi va shunday yoziladi.

Masalan: sina > sinov, so'ra > so'roq, tira > tiroq, sayra > sayroqi kabi.

- **i** unlisi bilan tugagan fe'llarga qo'shilgan - **v**, - **q** qo'shimchalari **i** unlisini **u** ga aylantiradi. Masalan: *sovi* > *sovuq*, *to'qi* > *to'quvchi*, *o'qi* > *o'quv*. Lekin og'riq, iliq, qaviq so'zlarining o'zagidagi **i** o'zgaribmaydi.

- **illa** qo'shimchasi orqali taqlidiy so'zlardan fe'l yasalganda (*taqilla*, *chirilla* kabi) asos so'z tarkibida **v** yoki **y** tovushi bo'lsa, bu qo'shimcha -**ulla** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *gurulla*, *shovulla*, *lovulla* kabi.

Unli tovushlar bilan tugagan *parvo*, *avzo*, *obro'*, *mavzu*, *mavqe* kabi fors-arab tillaridan o'zlashgan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda quyidagicha yoziladi:

a) I va II shaxs qo'shimchalari qo'shilganda ushbu so'zlardan so'ng **y** tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim*, *avzoying*, *obro'yingiz*, *mavzuyim*, *mavqeying* kabi;

b) III shaxs egalik qo'shimchasi *parvo*, *obro'*, *avzo*, *mavqe* so'zlariga -**yi** shaklida qo'shiladi, *mavzu*, *orzu* so'zlariga -**si** shaklida qo'shiladi: *avzoyi*, *obro'yi*, *mavzusi*, *orzusi* kabi.

12- mashq. Quyidagi fe'llardan qo'shimchalar yordamida ot yoki sifat yasang va so'z o'zagidagi o'zgarishlarni ko'rsatib bering.

Ili, qayna, sovi, yumsha, qot, tin, yon, sana, to'qi, qizi, to'xta.

15- topshiriq. Matnni o'qing. Tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarni aniqlab, bu o'zgarishlarning sababini tushuntiring.

Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar **u** duo barakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va **u** odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan fe'l-atvori odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi.

Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo'lsa, kattalarga nechog'liq ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi.

Odob urug'ini ekan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqli odamlar ko'payaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.

Alisher Navoiy, «Mahbub ul-qulub»dan.



O'zak va qo'shimchadagi undoshning o'zgarishi:

-k, -q bilan tugagan so'zlarga egalik qo'shimchalari qo'shilganda «k» undoshi **g** ga, **q** undoshi esa **g'** ga o'zgaradi va shunday yoziladi. Masalan: *ohak* > *ohagi*, *bek* > *begi*, *tayoq* > *tayog'i*, *yo'q* > *yo'g'i* kabi.

Ammo *ishtirok*, *erk*, *huquq*, *ravnaq*, *yuq*, *haq*, *ishtiyiq* so'zlari bundan mustasno.

-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina kabi -g harfi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar qanday tovush bilan tugagan o'zakka qo'shilishiga qarab quyidagicha aytiladi va yoziladi:

a) **-k** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda yuqoridagi qo'shimchalarning bosh tovushi **-k** tarzida aytiladi va shu harf bilan yoziladi: *tok* + *ga* > *tokka*, *ek* + *gin* > *ekkin*, *kichik* + *gina* > *kichikkina* kabi;

b) **-q** undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu qo'shimchalarning bosh tovushi **-q** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: *soliq* + *ga* > *soliqqa*, *chiq* + *gani* > *chiqqani*, *yoq* + *gach* > *yoqqach*. *qo'rq* + *guncha* > *qo'rqguncha* kabi;

d) qolgan barcha hollarda so'z qanday tovush bilan tugashidan qat'i nazar (jumladan, **g, g'** bilan tugasa ham), ushbu qo'shimchalarning bosh harfi **g** bilan yoziladi: *barg* + *ga* > *bargga*, *dialog* + *ga* > *dialogga*, *bug'* + *ga* > *bug'ga*, *tog'* + *ga* > *tog'ga* kabi.

13- mashq. Lug'atdan **k, q, g, g'** undoshlari bilan tugagan 10 ta so'z toping va avval egalik, so'ngra **g** bilan boshlanuvchi boshqa qo'shimchalarni qo'shib, tovush o'zgarishiga uchrash hollarini sharhlang.

16- topshiriq. She'riy parchalami ifodali o'qing. Tovush o'zgarishiga uchragan so'zlarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yor durur yor aylar,
So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.

Alisher Navoiy.

Orzum shul, o'chmasin yongan charog'ing,
Yulduzday nur sochsin chashming-qarog'ing,
Magar chinor bo'lsang, chinorday yasha,
Bevaqt uzilmasin biror yaprog'ing.

Abdulla Oripov.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak.
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbekim.

Erkin Vohidov.



O'zak va qo'shimchadagi tovushning tushib qolishi:

— Ikkinchi bo'g'in yopiq bo'lgan otlarga egalik qo'shimchalari va shunday tarkibli fe'llarga **-il** nisbat qo'shimchasi qo'shilganda o'zakdagi ikkinchi unli aytilmaydi va yozilmaydi. Masalan: *og'iz > og'zim*, *shahar > shahring*, *o'g'il > o'g'li*, *ayir > ayiril*, *qayir > qayiril* kabi.

— Ikkinchi bo'g'ini ochiq unli bilan tugagan sonlarga **-ov**, **-ala** qo'shimchalari qo'shilganda ham o'zakdagi **-i** unlisi yozilmaydi: *ikkov*, *oltov*, *yettala* kabi.

— **men**, **sen** olmoshlariga **-ni**, **-ning**, **-niki** qo'shimchalari qo'shilganda qo'shimchadagi **-n** aytilmaydi va yozilmaydi. O'zagi **-n** bilan tugagan boshqa so'zlar bundan mustasno. Masalan: *meni*, *sening*, *meniki* va *o'rinni*, *nouning*, *matnniki* kabi.

14- mashq. Gaplardagi qaysi so'zlarning o'zak va qo'shimchasida tovush tushish hodisasi yuz berganligini aniqlang va shu so'zlarni daftaringizga ko'chiring.

1. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir (*Mark Tven*). 2. Har kimki atog'a

ko'p rioyat qilg'ay, o'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay (*Alisher Navoiy*). 3. Sening har bir ishing boshqalarga ibrat bo'lishini unutm. 4. Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi (*Alisher Navoiy*). 5. Ikkalasi ham shahrimizdagi o'zgarishlarni ko'rib lol qolishdi. 6. To'pidan ayrilganni bo'ri yer (*Maqol*). 7. Sening tug'ilib o'sgan qishlog'ingdan ayrilmasligingni bilar edim. 8. Meniki-seniki deb tortishib, necha marta burni qonadi hamki, og'zini tiyolmaydi. 9. Men ham bir o'g'lingman, ona sayyora. Bag'ring men uchun ham xoki pok bo'lsin (*A. Oriпов*).

17- topshiriq. Do'stlik va sadoqat mavzusidagi maqollardan ayting. So'zlarida tovush o'zgarishlari bo'lgan maqollarni yozib oling va bu o'zgarishlarni imlo qoidalari asosida izohlab bering.



Qaratqich kelishigi qo'shimchasi yozuvda **-ning** shaklida ifodalanadi: *O'zbekistonning iqtisodi, bilimning kuchi*. Bu kelishik ma'nosi jonli nutqda **-ni**, she'r tilida **-n**, **-im** shakllarida ifodalanishi mumkin: *Ukamni oldiga kirdim. O'zbekiston Vatanim manim*.

Tushum kelishigi doimo **-ni** shaklida yoziladi: *Lolani ko'rdim, mehrimni berdim* kabi. She'riy til va og'zaki nutqda **-n**, **-di**, **-fi**, **-i** shakllarida qo'llanishi mumkin: *Har fasl o'z ishin qilar. Adl qulog'i-la eshit holini (Muqimiy)*.

Qaratqich va tushum kelishiklari ba'zi o'rinlarda belgili (**-ning**, **-ni** qo'shimchasi bilan), ba'zan belgisiz (qo'shimchalarsiz) qo'llanadi.

Xususiylik, aniqlik ma'nosi ifodalanganda bu kelishiklar belgili ishlatiladi (*uyning eshigi, oq gulni uzatmoq* kabi), umumiylik, noaniqlik ma'nosi esa bu kelishiklarning belgisiz shakli orqali ifodalanadi (*shahar ko'chasi, olma yemoq* kabi).

15- mashq. Nuqtalar o'rniga kelishik qo'shimchalaridan qo'yib, gaplarni ko'chiring. **-ning**, **-ni** qo'shimchalarining qo'llanishini izohlang.

1. Mamlakat... kichik bir qismi bo'lgan oila..., un... tinchligi... asraylik. 2. Hayotda o'z o'rni... topishida odam... bolalikdagi

faoliyati, olgan bilimi va tarbiyasi katta o'rin tutadi. 3. Ba'zari o'ylab deyman, ne bo'lardi gar, qudrat... ko'rgizsa tabiat hasson. Va inson suvrat... u muqarrar, fe'l-u atrofiga aylab qo'ysa bu (A. Oripov). 4. Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi (Oybek). 5. Ko'p til... bilmoqlik... foydasi kattig, u inson... katta boyligi hisoblanadi. 6. Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila, Aylamak bo'lmas ado o... haq... yuz ganj ila (A. Navoiy). 7. Inson dunyo... qanchalik bilsa, o'zligi... ham shunchalik anglaydi (I. Gyote).

QO'SHMA VA JUFT SO'ZLAR IMLOSI

16- mashq. Gaplarni o'qing, ulardagi qo'shma va juft so'zlarning toping va alohida-alohida ustunlarga ajratib, dasturlarigizni ko'chiring.

1. Farg'ona vodiysi osmono'par tog'lar bilan o'ralgan. 2. Quyosh tog'-toshlarni qizdirgan payt, ertapishar olmalar qip-qizil. 3. G'o'zapoyasi yig'ib olingan daladan yoz-u qish hosil olinadi. 4. Yosh-qari, erkak-ayol aralash-quralash bo'lib ko'cha boshida to'planishdi. 5. «Qo'shariq» jamoa xo'jaligida g'o'za obihayotga qondirilmogda. 6. Ona-bola uy-joyini yig'ishtirib, sadarayhon atrofida dam olishdi. 7. Bu bodomqovoq qiz xushfe'l tabiati bilan katta-yu kichikning olqishiga sazovor bo'ldi.

18- topshiriq. Lug'atdan ikki va undan ortiq o'zakli qo'shma so'zlarga 10 ta misol toping va ularning 4 tasi ishtirokida gaplarni tuzing.



Quyidagicha tuzilishdagi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

- bir tushunchani bildiradigan va bir bosh urg'u bilan aytiladigan qo'shma so'zlar: *belbog', asalari, oshqozon, sheryurak, qashqargul* kabi;

- *xush, kam, ham, umum, bop, noma, xona, sifat, rang, baxsh* kabi so'zlar yordamida yasalgan qo'shma so'zlar: *xushxabar, kamhosil, hamfikir, umumxalq, hammabop, tavsiiyanoma* kabi;

- ikkinchi qismi **-(a) r, mas** qo'shimchalari bilan tugaydigan qo'shma so'zlar: *o'rinbosar, cho'lquvar, shyoqmas, qushqo'nmas* kabi;

- keyingi qismi turdosh ot yoki *obod* so'zi bilan tutashtirilgan geografik nomlar: *Amudaryo, Yangiyo'l, Kuyonsoy, Yunusobod* kabi.

11. **mushq.** Berilgan qo'shma so'zlarning tarkibini aniqlang va imlosini tushuntirib bering.

Qo'qo'rg'on, qushtili, tinchliksevar, umumjahon, baqate-ed, makka(jo')xori, Sirdaryo, sovuqmijoz, devqomat, pirpirak, sho'qo'qo'l, suvilon, bayramoldi, qo'lbola, sohibjamol, birpas, mingoyoq, xushhavo, qo'ziqorin, bodomnusxa, izzattalab.

12. **topshiriq.** Ruboiylardagi qo'shma so'zlarni aniqlab, tarkibini izohlang.

Shoho, fuqaroki munisi g'amduhlar,
Bedordil-u ko'zlari purnamdurlar
Zinhor alarni qilmag'il ozurda,
Otashdam-u barhamzani olamdurlar.

Shermuhammad Munis.

Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuzqarolig' bo'ldi.

Z. M. Bobur.

Quyidagi tuzilishdagi qo'shma so'zlar ajratib yoziladi:

- birinchi qismi sifat, ikkinchisi atoqli ot bo'lgan geografiyaviy nomlar: *Kichik Osiyo, Sharqiy Turkiston, Quyi Chitrehiq* kabi;

- qo'shma fe'lining qismlari ajratib yoziladi: *shifo topmoq, olib chiqmoq, yoza boshlamoq, aytib bermoq, ko'rgan edi* kabi;

- qo'shma ravishlar ajratib yoziladi: *har kim, hech bir, hamma vaqt, qay kuni* kabi. *Biroz, birpas, birato'la, htmuncha* so'zlari bundan mustasno;

• o'zaro **-dan** qo'shimchasi bilan bog'langan takror so'zli birikmalar: *kundan kunga, tomdan tomga, ochiqdan ochiq, ko'pdan ko'p* kabi.

20- topshiriq. Lug'atdan ajratib yoziladigan so'zlarga 10 ta misol toping va ularning 4 tasi ishtirokida gaplar tuzing.

18- mashq. Matnni o'qing. Ajratib yoziladigan so'zlarni aniqlab, tuzilishini izohlang.

— ... Maqsadlari juda ochiq! Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga minmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga **qaram qilmoqchi**. Xon ersa Musulmongulga bo'lgan adovatini qipchoqni qirib alamdan chiqmoqchi!

Menga qolsa o'rtada shundan boshqa **hech gap** yo'q, o'g'lim! Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning **osoyishi uchun** sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni nima ekanini bilmagan, yolg'iz **o'z manfaati**, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichgan mansabparast, dunyoparast muttahaamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim **yetmay qoldi**... Biz **shu holda** ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egal-lar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'liga qoldirgan bo'lurmiz.

O'z naslini kofir qo'liga tutqin qilib topshiruvchi — biz ko'r va aqlsiz otalarga xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning **muqaddas gavdasi** madfun Turkistonimizni kofirxona qilishga hozirlangan biz itlar, yaratuvchining qahriga albatta yo'liqarmiz!

Temir ko'ragon kabi dohiylarning, mirza Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning **o'sib-ungan** va nash'u namo qilganlari **bir o'lkani** halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, Tangrining qahriga sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalarini yetim, xonalarini **vayron qiluvchi** zolimlar — qurtlar

va qushlar, yerdan o'sib chiqqan gilyohlar qarg'ishiga nishonadir, o'g'lim!..

A. Qodiriy, «O'tkan kunlar»dan.

19- mashq. Juft so'zlarni ajratib oling va daftaringizga ko'chiring. Ularning ma'nosini tushuntiring.

Urf-odat, nim pushti, yarim orol, tez-tez, baxt-saodat, dori-darmon, toshko'mir, yalang oyoq, tasdiq etdi, uch-to'rt, yoza-yoza, o'g'il-u qiz, qosh-qovoq, olgan bo'ldi, qo'rqa-pisa, shu on, tokqaychi, yuzma-yuz, hovli-joy, so'ramay-netmay, olaqarg'a, asbob-uskuna, yer-u osmon, sap-sariq, hol-ahvol, ko'ksulton, keta ber, yoz-u qish.

21- topshiriq. Quyidagi so'zlar yoniga mos so'zlar qo'yib juft so'zlar yasang va yozilishini izohlang.

Qarindosh - ..., kuch - ..., qovun - ..., yo'l - ..., non - ...
osh - ..., o'yin - ..., bo'lar - ..., gul - ..., yer - ..., yor - ...
dor - ..., tepsa - ..., temir - ..., asta - ..., oq - ..., chora - ...
kim - ..., kirim - ..., mehr - ..., aytdi - ..., kecha - ..., uzoq - ...



Quyidagi so'zlar chiziqcha bilan ajratib yoziladi:

• juft va takror so'zlarning qismlari chiziqcha bilan ajratib yoziladi: *asta-sekin, uch-to'rt, kiyim-kechak, qop-qop, uy-uyiga* kabi;

• juft so'zlar orasida **-u (-yu)** bog'lovchisi qo'llansa, bog'lovchidan oldin chiziqcha qo'yiladi: *oq-u qora, kecha-yu kunduz* kabi;

• **-ma, -ba** yordamida birikkan so'z qismlari chiziqcha bilan yoziladi: *yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam* kabi;

• arab raqamlari bilan yozilgan tartib sonlar chiziqcha bilan yoziladi: *5- sinf, 6- «V» sinf, 1991- yil, 3- mart* kabi.

22- topshiriq. Lug'atdan 10 ta so'z tanlab, ularni yuklamalar bilan qo'llang va chiziqcha bilan yoziladiganlarini bir ustunga, qo'shib yoziladiganlarini boshqa ustunga yozing.

II. TALAFFUZ ME'YORLARI

23- topshiriq. Matnni o'qing, so'zlarning talaffuzi va yozilishidagi xatolarni aniqlab, o'zaro munosabatini izohlang.

— Modarni ko'rdilarmu? — so'radi Vafo attor kemshilik tishlarini ko'rsatib. — Xo'sh, qalaylar, kampir tuzuklarmu?

— Rahmat! — Bashirjon gapni qisqa qilib, o'tib ketmoqchi edi, lekin Vafo attor:

— Bir daqiqa! — deya uning yengidan tortdi.

— Xo'sh!

— Indi, uka o'rtoq Zaynishuv! — dedi u mitti ko'zlarini yiltiratib. — Biz o'zimiz betobdurmiz, hovlida nogiron kurra-chaning holi ne kechdi? Kecha o'g'ul kelib erdi, eshshak bolasiga yem va beda kerak deydur...

Bashirjonning jahli chiqib ketdi, attorning qo'lini qahr bilan siltab tashladi.

— Bas-da endi! — dedi u qip-qizarib. — Hozirga qadar o'ttiz so'm oldiyiz... O'sha kurrayiz ikki pulga qimmat!

— Mani, bemorni siltamang, uka o'rtoq Zaynishuv! — dedi Vafo attor yig'lamsirab. — Bobongiz tengiman, siltamang mani!

Ne'mat Aminov.

20- mashq. Berilgan so'z va so'z birikmalarini to'g'ri talaffuz qiling, ma'nosidagi farqlarning sababini tushuntiring.

Bir daf'a — daf etilmoq, man keldim — man qilinmoq, shox kesmoq — shohni surmoq, modda — moda, qattiq — qatiq, da'vo — davo, maqta — maqta', ta'rif — tarif, sur'at — surat, hil-hil pishmoq — xilma-xil tovlanmoq, tovlanmoq — toblanmoq, sillasi qurimoq, — silab qo'ymoq, tilla — tila.



Og'zaki nutq jarayonida til birliklarini adabiy til me'yorlariga muvofiq aytilishi **talaffuz me'yorlariga** asoslanadi.

Talaffuzda tovushlarning to'g'ri aytilishi muhim bo'lib, o'ziga xos qonuniyatlarga asoslanadi.

Nutq tovushlarining soʻz tarkibida alifboda belgilanganidek talaffuz qilinishi meʼyoriy sanalishi bilan quyidagi holatlar ham talaffuz meʼyoriga muvofiqdir:

1. Soʻz oxirida **b** tovushining jarangsizlanib, **p** tarzida aytilishi: *hisob > hisop, kelib > kelip*.

2. Soʻz oxirida **d** tovushining **t** tarzida talaffuz qilinishi, **d** yoki **t** tovushlarida tushib qolishi: *dard > dart, band > bant, goʻsht > goʻsh, past > pas* kabi.

3. Ayrim soʻzlarda **l** tovushining tushib qolishi: *boʻlgan > boʻgan, kelsa > kesa* kabi.

4. *Bank, tank, disk* kabi oʻzlashma soʻzlarga **a** tovushi qoʻshib aytilishi, baʼzi oʻzlashmalar talaffuzida **v** tovushining **f** tarzida oʻzgartirilishi meʼyordan chekinish hisoblanmaydi.

21- mashq. Soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilgan holda oʻqing. Tovushlar talaffuzida yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan holatlarning sababini izohlang.

Xursand, fikr, yuzsiz, tavsif, borarkan, sunbula, uchta, ketdi, boʻlsa, ravshan, boringiz, fabrika, buncha, taxt, oftob, borib, televideniye, avtomobil, qoʻshiq, manba, ketyapman, birla, yigitcha, tuzsiz, mazkur, oqshom, toʻqson, bizni, novvoy, seshanba, yutuq, yubordi, supra, birorta, marotaba, kabob, tebranmoq, yongʻir, Abdusalom, jabr-sitam, Xolida opa, konstitutsiya, boj, billur, hozir, soʻzsiz.

24- topshiriq. Tez aytishdagi tovushlar mosligini aniqlang, **ng, q, gʻ, j** tovushlarini aniq va toʻgʻri talaffuz qiling.

1. Zang bosganga rang yuqmas, rang yuqqanni zang bosmas.

2. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tubsiz dedingizmi?

3. Gʻozgʻonning marmari jahonga mashhur, bizning gʻozgʻonchilar shuning uchun magʻrur.

4. Simyogʻochdagi qaldirgʻoch qayragʻochdagi qora qargʻaga qayrilib qaraganda, qayragʻochdagi qora qargʻa qaragʻayga qaradi.

5. Sijjkdagi gʻijjakchi jiydadan gʻijjak yasarmish.

6. Jajji jibljajbon jajji Jo'ra bilan jo'ra, jajji Jo'ra jajji jibljajbon bilan jo'ra.

25- *topshiriq*. She'rni ifodali o'qing, unli tovushlarni to'g'ri talaffuz qiling. Misralar ohangiga e'tibor bering.

...Farog'at borligin unutib qo'ydim,
Bag'rim chaqinlar tegdi daf'atan.
Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin
sochim oqarganda angladim, Vatan!
Buncha kech angladim,
nega muncha kech...
anglasam loaqal o'ttiz yil avval,
Loaqal tug'ilmay turib anglasam...

Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.
Hali asl Vatan bo'lmog'ing uchun
ovozi toshlarni yorar kuychilar.
qanchalab sehrgar shoirlar kerak,
qancha bilim kerak,
qancha kuch-chidam.
Umrim ko'chkilarday jimjit, shiddatli,
butkul tinmoq uchun bir kun bemalol
faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,
juda kamlik qilar yashamoq halol.
Naqadar kechikib angladim seni,
chaqinlar yo'q qilsa meni daf'atan,
ayt, qandoq chidayman bunday xo'rlikka,
ayt, qandoq yotaman qa'ringda, Vatan!

Shavkat Rahmon.

III. GRAMMATIK ME'YORLAR

22- *mas'ala*. Nuqtalar o'rniga **-ning** yoki **-ni** qo'shimchalaridan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Kelishik qo'shimchasini olgan so'z qaysi so'z bilan bog'langanligini aniqlang.

1. Shevaga xos qo‘shimchalar... adabiy til qoidalariga mos holatda ishlatmaslik imlodagi xatolar... kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. 2. Aristotel har bir jumla... asosiy fikr... ifoda etishga qarati-lishi..., ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo‘lishi... talab etadi. 3. Safar aka... astoydil achchiqlangani ... sezgan imomi oraga tushdi (*A. Qod.*). 4. Yo‘lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo‘lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... uyanchli tovushi eshitildi (*O.*). 5. O‘rmonjon Qurbon ota... bu ish... bemaslahat, bemavrid boshlanganiga xafa bo‘ldi (*A. Q.*). 6. Elmurod... hammadan oldin yuborilgan razvedka... hadeganda qaytmayotgani tashvishlantirdi (*Sh.*). 7. Ona tilimiz... ijtimoiy hayot... barcha sohalaridagi mavqei... oshirish barcha... vazifasidir.

26- topshiriq. -li va -lik, -qaz va kaz, -dir va -tir, -chi va -(u)vchi qo‘shimchalari ishtirok etgan so‘zlarni topib, bir-biriga qiyoslang, farqlarini izohlang va qaysi biri to‘g‘ri qo‘llanganini ayting.

Namuna: Go‘shтли somsa — go‘shтлик somsa.

Buxoroli ustalar — buxorolik ustalar.



So‘z shakllari, qo‘shimchalar, so‘z birikmalarining yozilishi, gapda so‘zlarning tartiblanishi, moslashuvi **grammatik me‘yorga** asoslanadi. Nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi adabiy tilning asosiy talabidir. Gapda so‘z va qo‘shimchalarning to‘g‘ri bog‘lanishi, ega-kesim mosligi, gap bo‘laklarining tartibi grammatika qoidalari asosida shakllanadi.

Shuning uchun gap tuzishda, jumla qurishda quyidagilarga amal qilish lozim:

— kelishik qo‘shimchalarining ma‘no va vazifalarini farqlash hamda o‘rinli qo‘llash.

Masalan, **-ning** qo‘shimchasi ot bilan otni, **-ni** esa ot bilan fe‘lni o‘zaro bog‘laydi: *ukamning kitobi, kitobni olmoq* kabi;

— ot va sifat yasovchi qo‘shimchalarni farqlash:

— *tuzdon* (ot) *gapdon* (sifat), *kiyimlik* (ot) *yashil* — *kiyimli* (sifat), *tenglama* (ot) — *ko‘chma* (sifat) kabi;

— fe'l nisbatlarini hosil qiluvchi qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash: *tadbir o'tkazmoq* — *ko'chat o'tqazmoq, kuldur — keltir* kabi;

— ega va kesimning shaxs-sonda mosligini ta'minlash: *Ular o'qiydilar*. (*Ular o'qiydi* tarzida emas);

— gapda so'z tartibiga amal qilish:

Uyga shoshib kirdi. (*Kirdi shoshib uyga* emas).

Izoh: She'riy janrlar tilida nutq maqsadiga ko'ra misralarda so'zlar tartibining o'zgarishiga yo'l qo'yiladi.

27- topshiriq. Matnni o'qing, grammatik me'yorlarga amal qilingan holatlarni, so'zlar tartibidagi o'zgarishlarning mohiyatini izohlang.

...Nega buncha nola chekasan, o'g'lim Muhammad Humoyun podshoh? Bu cheksiz iztiroblar boisi ne?

Va shu ondayoq bu hadsiz-hisobsiz savollarga javob topgandek bo'ldi: iztiroblar boisi — tiriklikda, insonlikda. Faqat tirik odamgina iztirob chekmoqqa, iztiroblar ichra tobora tozarib, yuksalib, hayotning jamiki mashaqqatlarini yengib bormoqqa qodir.

Dunyodagi hatto eng ulug' o'lik ham iztirob chekmoqdan mahrum, zero, insoniy iztirob — tiriklik nishonasi, barhayot diyonat ovozidir. Demak, mehnat-u tarbiyalari zoye ketmabdi — Humoyun tegrasiga boqar ekan, yuragi dardga to'ladi, dard uni bezovta xayol bilan qadamini taftish etadi. Demak, uning ko'ksida vijdoni uyg'oq, adl-u insofi tirik. Balli, o'g'lim, deb shivirladi u, barakalla, bahodirim!.. Ammo shu zahoti ko'nglini muzlatib xavotir tuyg'usi bostirib keldi: bu yumshoqfe'llik bilan Humoyunning mamlakatdorlik qilmog'i qiyin, benihoyat qiyin!

Dili muztar bo'lib, o'g'lining maktubidan bir taskin-tasalli qidirdi. Humoyun xushxat edi, lekin maktubning ba'zi o'rinlarini qiynalib, tasmollab ma'nosini chaqdi.

«Yana men degandek, bu xatlaringni bitibsen va o'qumaysen. ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiyolmas eding», — deya tashvish bilan yoza boshladi u...

X. Sultonov, «Nuqta».

IV. SO'Z TANLASH VA QO'LLASH ME'YORLARI

23- *mashq*. Gaplarni o'qing, noo'rin ishlatilgan so'zlarni to'g'rilari bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.

1. Yigitcha raso charchagan ekanmi, ovqat yeb darrov uxlab qoldi. 2. Ko'lining zilol suvida tonggi quyosh nurlari toblanmoqda edi. 3. Asl shoyidan tikilgan kuylak bu qomatdor qizga yoqishini bilki. 4. Ishimiz shunday suratda davom etsa, qurilishni baymangacha tugatamiz. 5. Qara, o'g'lim, eshikka bir inson keldi. 6. Cho'pon ozg'in qo'ylarni yaylovga haydab, o'z makoniga qaytib keldi. 7. Nachalnikka uchrashsam, sudga davo qilishingiz mumkin, dedi.

28- *topshiriq*. Matnni o'qing. Yozuvchining fikrlariga munosabat bildirib, so'z qo'llashning ahamiyatini asoslang.

Gap shundaki, hozirgi vaqtda, tilimizning boyligini, uning qochiriqlarini o'rganishga eringan, so'z san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch so'zni yillar davomida aylantirib kun ko'rib yurgan bir turkum qalam uhlining «faoliyati», chala mulla ba'zi olimlarning «ilmiy xulosalari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan gapirish mumkin ham emas, faqat yozib o'qib berish mumkin. Bu tilda yozilgan narsani bir qiyomda o'qimasdan ham iloj yo'q. Bu tilning hech qayerga yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra «yaxshi ovqat yedin!» deb yozib bo'lmaydi, albatta, «sifatli ovqatlandim» deb yozish shart! «Papiros chekadigan kishi gugurtini olib yurishi kerak» deb yozish to'g'ri emas. «Papiros chekish odatiga ega bo'lgan kishi o'zini tegishli gugurt bilan ta'minlab yurishi kerak» deb yozilsa to'g'ri bo'ladi! Bu tilda latifa aytib bo'lmaydi, yozib bo'lmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xulq iboralariga o'rin yo'q. Bu til har qanaqa jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorni g'urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan hovliga aylantiradi!

A. Qahhor, «Quyushqon».



Adabiy tilda mavjud bo'lib, shu tilda gaplashuvchilarga tushunarli bo'lgan **so'zni qo'llash** nutqning muhimi me'yorlaridan sanaladi. So'zni to'g'ri qo'llashda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- so'zning nutqda ortiqcha takrorlanishiga yo'l qo'yilmamaslik uchun uning ma'nodoshlaridan o'rinli foydalanish;
- shakldosh va paronim so'zlarni ma'nolarini farqlagan holda ishlatish;
- so'zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo'lgan sheva so'zlari yoki ijtimoiy guruhlarga oid argolarni qo'llamaslik;
- o'zlashma so'zlarni no'rin qo'llashdan cheklanish, ularning milliy tildagi muqobillaridan foydalanish;
- so'z qo'llashda ixchamlik, tejamkorlikka erishish.

24- mashq. Gaplarni o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va ma'nodoshlarini toping.

1. Temur **tug'i** yetmagan joyni qalam bilan oldi, Alisher (*A.O.*). 2. **Tiliga kuchi yetadigan** kishi aql podshosidir; so'zga ahamiyat bermaydigan kishi la'natlangan, pastdir (*A. Navoiy*). 3. Xalq **oldida** gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin («*Qobusnoma*»). 4. Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun *nahv*, *aruz* va *mantiq* fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay qolmaydi (*Beruniy*). 5. Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar, aytgil: **men so'zniki va so'z menikidir**, chunki so'z insonlik daraxtining **mevasidir**, daraxtni mevadan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va Rasulning so'ziga **muvofiq** kelmaydigan so'z, deb javob bergil (*Koshifiy*). 6. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday **ma'noga** ega ekanligini bilmasang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deyдилar (*Kaykovus*).

29- topshiriq. Alisher Navoiyning «Hayratul abror» dostonidagi «So'z ta'rif» qismini o'qing va bu parchani nasrda yozing.

V. USLUBIY ME'YORLAR

30- topshiriq. Matn namunalarini o'qing va bir-biriga qiyoslang. So'zlar va ularning ma'nolaridagi farqlarni izohlang.

1. Texnika — yunoncha so'z bo'lib, san'at, mahorat degan ma'noni bildiradi. Texnika — inson faoliyati vositalari majmui. Ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va jamiyatning turmush talablarini qondirishga xizmat qiladi. Ba'zan biror holiyatdagi mahorat va usullar ham texnika deb ataladi. (Masalan, milliy kurash texnikasi). Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonida insoniyatning bilimi va ishlab chiqarish tajribasi texnikada mujassamlanadi. Texnika insonning og'ir mehnatini yengillashtiradi.

2. Shirin muomalada bo'lish har bir kishining burchidir. Odamlar bir-birlarining qalbiga yaxshi va shirin so'z orqali yo'l topadilar. Ammo inson qalbiga so'zni o'z holicha singdirib bo'lmaydi. Buning uchun o'zingizga libos tanlagan kabi so'zni ham pardozlaysiz. So'zingizga libos sifatida ohang kiydirasiz, gapingiz go'zal so'zlardan tashkil topsin. Ortiqcha har bir so'z noo'rin ichilgan dori kabi zararlidir. Har bir kishi so'zning qadrini baland tutsin, samimiy va jarangdor so'zni sog'inib yashasin.

31- topshiriq. Yuqoridagi matnlar asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring:

1. Mahorat, turmush, qondirmoq, yengillashtirmoq, inson, libos, so'z, qalb, qadr so'zlarining ma'nodoshlarini toping.

2. Matnlardagi fe'l shakllarini o'zaro qiyoslang, farqini tushuntiring.



So'zni matnning xususiyati, nutqning maqsadiga muvofiq ishlatish, ko'pchilikka tushunarli bo'lgan so'z shakllarini qo'llash, so'z va qo'shimchalar hamda gap tuzilishidan nutq uslubining turiga muvofiq foydalanish adabiy tilning **uslubiy me'yorlariga** tayanadi.

Uslubiy me'yorlarga amal qilishda quyidagilarni unutmash lozim:

- so'zning asl va ko'chma ma'nolarini farqlash;
- so'zning ma'nodoshlik, shakldoshlik, uyadoshlik, darajalanish imkoniyatlarini bilish va bulardan o'rinli foydalanish;
- so'z va iboralarni aniq, tushunarli tarzda qo'llash;
- nutq uslublarining o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutish;
- til vositalarining badiiy, ta'sirchan imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish;
- so'zlarning uslubiy farqlanishini hisobga olish.

25- mashq. Gaplarni o'qing. Ma'nosi o'zgargan so'zni ko'chirib yozing, ma'no farqlari va uslubiy vazifasini ko'rsating.

1. Mollarning narxi pasaysa, ishlab chiqarish pasayadi. — Samadboy shu qishloq odamlarining mollarini boqib yuribdi.
2. Fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra qonun doirasida o'ziga ma'qul ish bilan shug'ullanadi. — Ikkita doira chizing, ularning ichiga zid ma'noli so'zlarni yozib chiqing.
3. Eshitgan quloq nima deydi? — Quloq pardalari ehtiyotli muolajani talab etadi.
4. Yurak faoliyati insonning asab tizimiga bevosita bog'liqdir. — Yuragimga yaqin kishilar bilan ochiq gaplashib oldim.
5. Ma'lum bo'ldiki, yangi dastgohlar korxonada hisob-kitobida qayd etilmagan. — Ular qachonlardir o'z «ega»sini topib ketganini xodimlar yaxshi bilishadi.

32- topshiriq. She'rni o'qing, ajratilgan so'z va birikmalarning ma'nosini izohlang.

Men kimnidir kutgayman, mahzun

...Yiroqlarda ingranar List ham,
Qulog'imga bo'zlaydi Furqat.
Huzurimga chiqmas bir odam,
Men baribir kutgayman faqat.

Shilliqqurtday to'lg'anar ariq,
Suyanaman badburush tolga.
Osmon yuzi shundayin sariq,
Sovuqlikni qaylardan olgan?

Kular-da va qalqib borar oy.
U hayosiz shundoq yalang'och.
Kimni aldab balqib borar oy —
Tevarakda kecha qorasoch.

Tugab borar tun yanglig' toqat,
Saharlarga bergayman hisob.
Qayga ketdi, qayga muhabbat,
Yuragimda muqaddas azob.

Rauf Parfi.

Savol va topshiriqlar:

1. Qo'shimchalar imlosiga oid qoidalarni sharhlang?
2. Qanday so'zlar chiziqcha bilan yoziladi?
3. Kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llashga oid misollar keltiring.
4. So'z qo'llashda nimalarga e'tibor berish kerak?
5. So'zlarning uslubiy farqlanishini misollar bilan izohlang.

- ◆ **Nutq va notiqlik**
- ◆ **Nutq uslublari**
- ◆ **Rasmiy-idoraviy nutq uslubi**

33- topshiriq. Matn parchalarini o'qib, ularning qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang. Har bir matnning uslubiy o'ziga xosligini asoslab bering.

I. 7- modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.


Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasi-dan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi qonunidan.

II. Notiqlik qadimgi Sharqda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lib, umumdavlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. U bir necha turga ajratilgan:

1. Ilmiy-siyosiy ma'ruza.
2. Bahs-munozarali nutq.
3. Targ'ib va tashviq qilish ruhidagi nutq.
4. Marsiya nutqi.
5. Tabrik nutqi va boshqalar.

Notiqlik san'ati qadimda *voizlik san'ati* deb yuritilgan. «*Qomul usmoniy*» nomli lug'atda «*Va'z — kishilaming qalbini yumshutadigan pand-nasihatdir*», deya ta'riflanadi. Haqiqatan ham, voiz har bir so'zga chiqishda ma'lum bir g'oyani ilgari surishni maqsad qilib oladi.

 Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni nutq sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlicha nutq vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: **so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub va badiiy uslub.**

26- mashq. Gaplarni uslubiy shakliga ko'ra guruhlariga ajratib ko'chiring. Nuqtalar o'rniga nutq uslubiga xos so'z yoki fe'l shaklini qo'ying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo'q. Yozuvchi o'z ona tilisi ustiga o'z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog'lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ... ko'rishi... mumkin (J.Q.). 2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniqlash..., to'p..., uni o'rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtai nazar. 3. O'sha «masalang» o'rniga tushsa, dashnom...ga qalqon bo'lishi, lovilla... asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilliyohliklar... asrashi ham mumkin! (O'. Usmonov). 4. Men, Rasulov Anvar, «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovini o'tkazish... litseyimiz kutubxonasidan 10 (o'n) ta badiiy kitob ol... 5. Axir, talaba jamiyatning oldi qatlami sanaladi.... Shuni... kerakda, «o'qib uqmasa bekor»

34- topshiriq. O'qigan badiiy asaringiz, sevimli gazeta yoki jurnaligiz va qo'lingizdagi biror darslikdan bittadan ixcham matn tanlang. Ularni o'zaro qiyoslab, til xususiyatlariga ko'ra farqli jihatlarni tushuntiring.

35- *topshiriq*. She'ri ifodali o'qing. Uning mazmuni asosida badiiy uslubning nazm shaklida va rasmiy uslubning taqriz shaklida matnlar tuzing. Ulardagi o'xshash va farqli til xususiyatlarini izohlang.

TILLA BALIQCHA

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xor-u xas, xazonlar ustini yoptilar.

Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lماك hovuz deb bilar dunyoni...

Abdulla Oripov.



Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun xizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik xarakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e'lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so'zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda: *shunga ko'ra; ma'lum qilamizki; ...ni e'tiborga olib; ...ga ko'ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofiq); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin* kabi) hujjat matnining darak-hikoya xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi.

27- mashq. Gaplarni ko'chiring. Birinchi va uchinchi shaxs nomidan yozilgan rasmiy uslubga xos gaplarni ikki ustunga ajratib yozing. Qoliplashgan iboralar ma'nosini izohlang.

1. Sizning ko'rsatmangizga binoan, men o'quv bo'limi uslubiyotchisi S.Olimov bilan II bosqich talabalarining mart oyidagi davomatini tahlil qildim. 2. Ma'lumotnoma tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga ko'rsatish uchun berildi. 3. Ushbu da'vo bo'yicha sud qarorini tezlik bilan ijro ettirish haqida qaror qabul qilishingizni so'rayman. 4. Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart. 5. Ushbu bitim yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi. 6. Guroh rahbari T.Qodirovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin. 7. Arizaga nikoh guvohnomasining nusxasini ilova qilaman.

28- mashq. Matnlarni o'qing, uslubiy farqlarni dalillar asosida yozma ravishda izohlang.

1. Hasanali, Otabekning har bir siriga o'zini mahram hisoblaganlikdan, darhaqiqat, Otabekka mahram bo'lishga loyiq bir mehribonlikka ega bo'lganlikdan, bek bilan ochiq so'zlashish likriga keldi. Bir necha daqiqa muqaddima uchun reja qurib o'tirgandan so'ng, tilga keldi:

— O'g'lim, Otabek!

— So'zlangiz.

— Aytingiz-chi, men sizning kimingiz?

Otabek, Hasanalining maqsadiga tushunolmay majhul unga nazar tashladi.

— Sizmi? — deb kulimsiradi u. — Otam bo'lmasangiz ham, meni otalik muhabbati bilan sevgan sodiq va mehribon bir kishimsiz, ya'ni ma'naviy otam.

— Barakalla, o'g'lim! — dedi Hasanali. — Javobingiz o'z o'ylaganimchadir. Endi sizdan shuni ham so'rayin: xo'jasiga sodiq bir qul, sizning ta'biringizcha, ma'naviy bir padar,

o'z o'g'liga yomonlik sog'inarmi, bu to'g'rida javob beringizchi?

Otabek kutilmagan bu savoldan ajablandi:

— So'zingizga tushunolmadim, ota! — dedi. — Shunday bo'lsa ham javob beraman: bu kungacha siz yolg'iz mengagina emas — bizning oilamizga otalik mavqeyida turib, yaxshilikdagi boshqani sog'inmay kelasiz.

A. Qodiriy, «O'tkan kunlar»dan.

2. Husayn Voiz Koshifiy nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida uning o'g'li Fahriddin Ali Safiy «Latoyif ul tavoyif» nomli asarida quyidagilarni eslaydi: «Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G'iyosiddin degan mashhur so'fiy ustasi kechikib kelgan. Bu majlisga Abdurahmon Jomiy ham tashrif buyurgan ekan. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabdi:

— Nechuk kechikdingiz, mavlono G'iyosiddin?

— Meni ma'zur tuting, ustod, — debdi G'iyosiddin, — kelayotgan edim, masjidi jomeda Husayn Voiz Koshifiy nutq so'zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo'lib qolibman.

Husayn Voiz Koshifiyning nutqlari jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan.

Alisher Navoiy va sulton Husayn Boyqaro o'z she'rlarini xalq oldida rasmiy ijro etish lozim bo'lganida, bu ishga Koshifiyning munosib ko'rganlar.

Masalan, Alisher Navoiy o'zining Jomiyga bag'ishlangan marsiyasini o'qib eshittirishni Husayn Voizga topshirganligi bu fikrning isbotidir.

«Yuristning nutq madaniyati»dan.

36- topshiriq. Gazeta va jumaldan ta'lim yoki madaniyat mavzusi-dagi maqolani o'qing, til xususiyatiga ko'ra boshqa nutq uslubidan farqlanishini izohlang.



Yozma nutqning rasmiy uslubida, asosan, quyidagi munosabatlar doirasidagi hujjatlar tuziladi:

1. Huquqiy munosabatlarga oid: qonun fuqarolik va jinoyat aktlari, nizom, shartnoma va boshqalar.

2. Idoraviy-ma'muriy shaklga oid: dalolatnoma, buyruq va farmoyishlar, turli ish qog'ozlari (ariza, tavsiyanoma, tilxat, ma'lumotnoma kabi).

3. Diplomatik munosabatlarga doir: bayonot, nota, bitim, memorandum va boshqalar.

29- mashq. Gaplarni o'qing, uslubiy xatolarini tuzatib, daftarinigizga ko'chiring.

1. Ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash va boshqa xomashyolarning sarf-xarajat narxlari oshganligi bilan shahar yo'lovchi tashish transportida yangi yo'lkira haqlari belgilandi. 2. Yaqin kelganimda «Xush kelibsiz!» degan yozuv uzoqdan ko'zga tushlandi. 3. Eng avvalo, dalalar to'la, nihollar sog'lom bo'lishi kerak. 4. Mahalla ko'chalarida piyodalar yurish xavfsizligi oyligi o'tkazildi. 5. Naqqosh kuzning saxiy mo'yqalamida bahra olgan u'ozalar qulog'ida oltin baldoqlar selkillab turibdi. 6. Jamoa talsi bosh agronom bilan o'z xonasida uchrashdi.

37- topshiriq. «Darslik tilining uslubi» mavzusida ijodiy bayon yozing. Unda o'z taklif va istaklaringizni bildirishga harakat qiling.

Savol va topshiriqlar:

1. Notiqlikning qanday turiarini bilasiz? Misollar bilan izohlang.
2. So'zlashuv uslubining leksik va fonetik xususiyatlarini aytib bering.
3. Nima uchun badiiy uslubning til vositalaridan foydalanish imkoniyatlari keng?
4. Rasmiy-idoraviy uslubning asosiy belgilarini sharhlang.

- ◆ Matn turlari
- ◆ Dialogik matn
- ◆ Tavsifiy matn
- ◆ Matnni qisqartirish yo'llari
- ◆ Matnni kengaytirish yo'llari
- ◆ Matnga xos so'zni tanlash
- ◆ Matn tuzish

38- topshiriq. Matn namunalari o'qib, mazmuni va tuzilishiga ko'ra farqlanishini tushuntiring.

— Bizga yuborgan kitoblaringizni oldik, — dedi Navoiyga Badiuzzamon. — Itifotingiz uchun tashakkur. Sizing ash'oringiz va Jomiy hazratlarining asarlari mutolaasidan ko'nglimiz safoga to'ldi.

— Inson ruhi uchun haqiqiy zavq mutolaadir, — dedi Navoiy qiziqib. — Ammo yolg'iz ash'or o'qimoq kifoya qilmas. Tarix! Tarixni ko'zdan kechirmadingizmi?

— Ko'ngil ash'orga ko'proq moyil bo'ldi. Fursat bo'lsa, tarixni ham boshlagumdur, — javob berdi Badiuzzamon.

— Men sizga tarixga oid kitoblarni qasddan ko'p yuborgan edim. Balki xabaringiz bordir, otangiz podshoh hazratlariga ham hamma vaqt tarix o'qimoqni tavsiya qilamen. Davlatning butun mas'uliyati sizlarning zimmangizdadir. Obodonlik yoki inqiroz sizlarning tadbir va harakatingizga bog'liqdir. Shuning uchun siz tarix oynasiga qarab turmog'ingiz kerak...

Oybek, «Navoiy» dan.

II. «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini qo‘limga olib qarayman. «Buyuk» so‘zini o‘qiganimda yetmish yetti yillik g‘uboratlarni tarqab ketgandek bo‘ldi. Ko‘rgan jabr-u jafolar tumandek g‘oyib bo‘ldi.

Iz konlari tagida mis kukunlarini yutib, o‘pkasi zanglab olmandan o‘tgan, jasadlari zanglagan tuproqqa qo‘yilgan yurt-bodularim haqqi, Sibirning qahraton sovuqlarida muzlab qolgan, qurini o‘rmonlarda poyoniga yetkazgan beqiyos dono ustoz-ta’limiz haqqi, senga ta’zim qilaman, O‘zbekistonim!

Shu og‘ir yo‘llardan meni omon qaytargan sening mehring, sening issiq bag‘ring, mening e’tiqodim, Tangrining beaded melridir.

S. Ahmad, «Yo‘qotganlarim va topganlarim» dan.



Ma’lum voqelik haqida tasavvur (ma’lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik **matn** hisoblanadi.

Matn og‘zaki yoki yozma nutqqa xos bo‘lishidan qat’iy nazar, ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: dialogik va monologik. **Dialogik matn** ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat.

Ikki kishi o‘rtasidagi dialogik nutq **savol-javob**, **buyruq-javob**, **xabar-e’tiroz** kabi mazmunlarda bo‘lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko‘p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo‘lmay, o‘rtaga tashlangan savol, taklif, da’vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so‘roq olmoshlari, muomala odobiga oid so‘z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so‘zlar keng qo‘llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to‘liqsiz gaplar, so‘z-gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so‘zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

39- topshiriq. Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida Xisrav bilan Farhod o'rtasidagi munozarani rollarga bo'lib o'qib. Bu dialogni shakllantirgan lisoniy vositalarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

30- mashq. Dialogda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning uslubiy ma'no va vazifalarini aniqlang. Gaplarni tuzilishiga ko'ra guruhlab yozing.

— Siz... qochqoqsiz, — dedi.

— Siz...

— Men?

— Siz quvloqsiz.

— **Ajab qilaman.** — dedi Kumush va shapalog'i bilan erinaning yuziga sekingina urib qo'ydi.

— Bu yoqqa ham...

— U yoqqa Zaynab ursin.

— Zaynabning... urishga haqqi yo'q.

Kumushning ko'zida haligacha ko'ruilmagan bir shodlik o'ynadi:

— **To'g'ri aytasizmi?**

— To'g'ri aytaman!

— **Mana bo'lmasa,** — dedi Kumush. Otabekning ikkinchi yuzini ham silagandek qilib qo'ydi. Yana kulimsirashib termulishib qoldilar...

— Biravning g'amida kuyib qaridim, — dedi Kumush.

— **Bekor aytasiz...** Meni aytasangiz to'g'ri.

— Siznimi? — dedi Kumush.

A. Qodiriy, «O'tkan kunlar» dan.

40- topshiriq. a) matnni o'qib, dialogdan qanday farqlanishini aytin. Sifatlovchilarning ma'no va vazifasini izohlang.

... Ta'birimiz qo'pol tushmasa bu go'zal qiz och ra'no gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilgan edi. A'zoda o'skan tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladi. Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning

bu'zida ham buning asari ko'ruledir: mudavvarga moyil roq jodu
bu'zi kishiga qattiq qaraganda qoraliqdan boshqacha yana bir
turluk nur sochar erdi. Kipraklari ostida nafis bir surma doirasi
tur edi.

Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham ko'ndalang yotqan ikki
qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilish ajratib turar edi.
Ilumi hech bir munaqqidg'a berishmaslik mutanosib, har
samon uyalish tabassumiga hozir turg'an nafis irinlarining
yoqorig'i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko'kargan edi. Yuzi
cho'ziq ham emas, oy kulcha ham deb bo'lmas, kishiga kulib
qatag'anda qizil olma ostlarida ikkita zamma ravishlik shakl hosil
bo'lar, go'yo bizga chin ra'no guli ochilg'an holatda ko'rinar
edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillar Ra'noning orqa,
o'ngini tutib yotar, qaddi uzunliq bilan qisqaliqning o'rtasi,
do'ndiq barmoqlarining jimjilog'ida xina gullari, har holda bu
qiz yolg'iz Qo'qonningg'ina emas, umuman, Farg'onaning
kuylarga qo'shulib maxtaladirgan go'zallaridan edi.

A. Qodiriy, «Mehrobdan chayon»dan.

b) savollarga javob bering:

1. Matn qanday nutqiy vazifani bajarishga qaratilgan?
2. Matndagi uyushiq va ajratilgan gap bo'laklari nimaga xizmat qilgan?
3. Matnda qanday tasviriy vositalar qo'llangan?
4. Nima uchun matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlar ko'proq?
5. Matnda modal so'zlar qanday maqsadda qo'llangan deb o'ylaysiz?



Tavsifiy (monologik) **matn** so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi.

Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bun-

day matnda belgi-xususiyat ifodalovchi soʻzlar, atamalar, modal soʻzlar, feʼlning funksional shakllari, ravishlar faol qoʻllanadi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq boʻlaklar, ajratilgan gap boʻlaklari, atov gaplar, qoʻshma gap koʻrinishlarida ham keng foydalaniladi.

Tavsifiy matn ilmiy, publisistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

41- topshiriq. Oʻzingiz bilim olayotgan fan yoʻnalishini yoki yoqirtirgan mutaxassisligingizni taʼriflab matn yarating. Unda asosiy dalillar keltirishni unutmang.

31- mashq. Matn parchalarini oʻqing, asosiy mazmunni ifodalovchi gaplarni daftaringizning oʻng tomoniga, yordamchi qoʻshimcha mazmun bildiruvchi gaplarni chap tomoniga yozing va oʻzaro qiyoslang.

I. Gʻazal nihoyat taʼsirli. Ayniqsa, uch-toʻrt bolaning ovozi juda yoqimli, ohangdor. Hammamiz jim tinglaymiz. Men seboʻlib, erib ketaman. Fuzuliyning sheʼrlarini sevaman. Sheʼrlari nafis. Oʻzim gul va mahbub haqida goʻzal sheʼrlarni bilaman. Opam oʻrgatgan. (*Oybek, «Bolalik» dan*).

II. Beixtiyor oʻzining ana shunday saodatli onlari, Humoyun tugʻilganda qalbini toʻldirgan iftixor tuygʻulari yodiga tushdi. Oʻgʻli Qobul arkida tavallud topgan edi. Viloyat yoʻq, viloyat umidvorligi yoʻq, navkar parokanda, sargardon sargʻayib, Samarqand qamalida ochlikdan it etini, eshak etini yegan miskinlar bilan dahshatli uqubatlar chekib, Toshkanda va Andijonda mislsiz mashaqqat va xorliklar tortib, nihoyat, Qobulda bir muddat qoʻnim va osoyish topgan kunlari edi, shikasta koʻnglini quvonchga toʻldirib, Humoyun dunyoga keldi. (*Xayridin Sultonov, «Nuqta» dan*).

32- mashq. Gaplarni oʻqing, uyushiq va ajratilgan boʻlakli kiritmalarini qavs ichida qoldirib koʻchiring. Koʻchirma gaplarni oʻzlashtirma gapga aylantirib yozing. Asliyati bilan siz oʻzgartirgan gaplar oʻrtasidagi farqni izohlang.

1. Har birimiz o'z maktabimiz, sinfimizni esladik. 2. Bog'ning tulli joylarida har xil mevali daraxtlar: nok, o'rik, jiyda va hokazo uchagina. (O.) 3. Bir vaqtlar siz ham, Temir Akbarovich, suto qilishdan qo'rqmaslik kerak, deb gapirar edingiz (P.Q.). 4. Navbat o'ziga kelganda, ayvondan turib, mahdum baqirdi: Ra'no, akangning qo'liga suv quy! (A.Qod.) 5. To'g'risini aytgan, ustozimning nomlarini eshitganimda, ko'nglim ancha tashkin topdi. 6. Aftidan, u bizni ko'rmadi, shekilli (M.Ism.). 7. Ota kasbi ham qondan o'tadi shekilli, — derdi Abdulla aka. — Odam temirchi edilar (S.Ahm.).



Matnni qisqartirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

— matnning asosiy fikrni ifodalovchi gaplarni ajrata olish;

— gaplardagi uyushiq va ajratilgan bo'laklarni, kiritma va ilova qurilmalarni qisqartirish;

— birikmalarni ma'nodosh so'zlarga, sodda yoyiq gaplarni yig'iq gaplarga, qo'shma gaplarni sodda gaplarga, ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirish;

— matnning qo'shimcha fikr ifodalovchi gaplarini, sintaktik parallellar va takrorlarni qisqartirish;

— matnni qisqa mazmunli tarkibiy qismlarga ajratish;

— birikmali sifat-dosh, o'xshatish va boshqa tasviriy ifodalarni sodda va ixcham shaklga keltirish.

42- topshiriq. Matnni uning asosiy mazmunini saqlagan holda qisqartiring. Matnni qisqartirishda qanday usullarni qo'llaganingizni sharhlang.

Har qanday qilmishning aksi, qaytarma oqibati mavjud: shunday ekan, faqat o'z prinsipimni himoya qilaman deb, bir kun borib ko'pchilikni dog'da qoldirmaylik tag'in?!

Axir, mavjud nazariyalar qolipiga tushmaydigan faktlar. ayniqsa, fan uchun qimmatli emasmi? Chunki shu noma'lum faktlarni ishlab chiqish bilan yaqin oralarda fanning yangi yo'nalishlariga yo'l ochib berish mumkin-ku? Fan tarixida bun-

day misollar to'lib-toshib yotibdi. Fakti tan olmaslik...
hazm qilinmagan nazariyaning oqibati-ku!. Men nasihat
qilishni o'ylamagandim, ammo o'rni kelib qoldi. Kolm...
dan insonni zulmat bilan o'rgan. Fan esa odamzot q...
mangu mash'ala!

Zero fan — cheksizlikni o'rganar ekan, ayni paytda
o'zining ham had-chegarasi yo'q. Inson bilimi tuganmaydi,
abadiy yaratiladi, abadiy harakatda... Modomiki shunday
men ochgan kashfiyot uslubiga boshqa bir uslub qarama
chiqib qolsa, nima uchun endi men unga, albatta, tosh qo'y
kerak? Nima uchun?! Yo'q, aqlimiz bo'lsa, istiqbolimizga
nakam qayg'ursak, orzuni bo'g'maylik. Orzu har qanday ta
dan ham qudratli! Orzu bamisoli hayot ko'ksidagi mita
turgan buloq, gurkirab o'suvchi nihol...

O'ktam Usmonov, «Gardab»

33- mashq. Gaplarni asosiy mazmunini saqlagan holda ts...
lashtiring, ortiqcha leksik-grammatik vositalarsiz da...
ringizga ko'chiring.

1. Uning manfaatlarini, fikr-o'y doiralarini, g'oya va ma...
sadlarini yaxshi bilamiz (*Zulfiya*). 2. Gapni yana cho'zmo...
deb unga qarshi hech narsa demadi (*A. Q.*). 3. Menga qana...
ish buyursam, yo'q demaysanmi? (*S. Ahm.*). 4. Na mu...
chamanzorlar, na muhtasham ko'shklar, na kumushlangan b...
vuzlar, na chiroyli qafasdagi qushlar — hech nima uni q...
tirmadi (*O.*). 5. Kunduzi bo'lsa, o'zingizdan o'tar gap yo...
xunukroq ko'rinadi (*A. Q.*). 6. Kim maqtanchoq bo'lsa, u h...
maning oldida xijolat tortadi (*Maqol*). 7. Ko'z qayerda bo'...
mehr ham o'sha yerda bo'ladi (*Maqol*).

43- topshiriq. Darslik va jurnaldan yoqtirgan faningizga old...
tanlab, ixchamlashtiring. So'ng matnni qisqa tarkibiy qismlarga...
ting va har biriga mos sarlavha toping.

34- mashq. She'rni nasriy matnga aylantirib daftaringizga ko'ch...
Matn mazmunini o'z fikr-qarashlaringiz bilan to'ld...
va xulosa yozing.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,
 Hammasiga guvoh — yer osti.
 Lekin, do'stlar, she'r ahli aro
 Jahongiri kam bo'lar, rosti.
 Bosh uskim, nazmiy saroyini
 Titratadi zanjirband bir sher.
 Temur tig'i yetmagan joyni
 Qalam bilan oldi Alisher.
 Dunyo bo'ldi chamanim, manim,
 O'zbekiston, Vatanim manim.
 Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,
 O'tdi Budda, o'tdi Zardushti,
 Har uchragan nokas-u nodon,
 Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
 Seni Chingiz g'azabga to'lib
 Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan.
 Jaloliddin samani bo'lib
 Sukrab o'tding Amudaryodan.
 Sensan o'shal samanim manim,
 O'zbekiston, Vatanim manim.

Abdulla Oripov.

10. **moshiq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga fikrga mos tarzda
 Luilmalar, ilova birikmalar qo'shing, gap bo'lak-
 larini uyushiq yoki ajratilgan bo'laklar hisobiga
 kengaytiring.

1. ... men «muboraknoma»ni o'qitib ko'rgan ekanman
 (A.Q.). 2. Onajonim, ... men ham bir kun shavqqa to'lar-
 gan (A. O.). 3. Bir ko'rdim men uni — shunchalar go'zal,
 ... da go'zaldir, ... go'zal! (*Cho'lpon*). 4. Har birimiz o'z
 esladik. 5. Nahotki u erta-indin uzoq ayriliq
 yuragi ezilmaydi (O.). 6. Boyagi yigitning,
 ekan (P.Q.). 1. Biz Toshkentdan janubga — ...
 ... qurib yura boshladik.


Mutnuz kengaytirish quyidagi yo'l va vositalar bilan
 ... oshiriladi:

- matnning bosh fikri, g'oyasini shakllantiruvchi tayanch soʻz yoki gap, ifodani aniqlash va shunga bogʻliq holda oʻz mustaqil, ijodiy fikrini ifodalovchi gap, ifoda qoʻshish;
- matn mazmunini maqol, matal, hikmatlar bilan boyitish, dalillar bilan asoslash;
- gapni uyushiq boʻlaklar, kiritmalar, ajratilgan boʻlaklar hisobiga kengaytirish;
- soʻz va birikmalarni maʼnodoshlari — tasviriy ifodalar, frazeologik iboralar va boshqa badiiy tasvir vositalari bilan almashtirish;
- sodda gapni qoʻshma gapga, qoʻshma gapni alohida sodda gaplarga ajratish;
- asosiy fikrni ifodalovchi gapga qoʻshimcha fikr, izoh bildiruvchi sintaktik parallel gaplarni mantiqiy izchillikda bogʻlab kiritish;
- matnning kirish, xulosa qismlarini oʻz qarashlari, mulohazalari, ilovalari bilan toʻldirish.

36- mashq. Matnning tushirib qoldirilgan oʻrinlarini oʻz soʻzlaringiz bilan toʻldiring. Oʻz fikringizni matnning asosiy mazmuniga bogʻlovchi vositalarni ajratib koʻrsating.

Hayot goʻzal, yashash maroqli. Biroq inson uchun... Shu bois boʻlsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning goʻzalliklaridan koʻproq bahra olishga, u ... intilib yashaydi. Bu istak esa baʼzida odamzodga baxt keltirsa, Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha U amal qilayotgan koʻplab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsa-da,

Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. Eʼtibor bergan boʻlsangiz, yoshlarimiz ruju qoʻyayotgan sigareta tutunlari ... singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini oʻz iskanjasiga olmoqda.

Yurtimizda ... eʼtibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari boʻlgan oʻgʻil-qizlarimizning bu qadar oʻzlarini zaharlashlariga nima sabab boʻlmoqda? Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qoʻyishlarida, avvalo ... bosh omil boʻlib xizmat qiladi.

44- topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

O'zbekiston yer islohoti tizimida yer mulkchiligiga amal qilish iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi — yerda turli xil xo'jalik yuritish shakllarining teng huquqli rivojlanishi, ko'p **okladli iqtisodiyotni** shakllantirish, yerdan samarali va **oqilona** foydalanish hamda uni muhofaza etish uchun shart-sharoitlar yaratish manfaatlarini yo'lida **yerni qayta taqsimlashdan** iborat bo'lmoq' i kerak. Bunday maqsadga erishish, albatta, oson emas va u yer islohotining prinsipial **masalalarini** aniqlab olishni taqozo etadi.

Birinchidan, **yer resurslariga** egalik qilish, **tasarruf etish** va foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va asoslash lozim. Ayniqsa, yerdan foydalanuvchilarning manfaatlarini va mas'uliyatlarini uyg'unlashtirish, ularni amalga oshirishning samarali **mexanizmlarini** topish va amaliyotga tatbiq qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi vaqtda tub yer islohotini o'tkazish uchun davlatning yerga bo'lgan mutlaq **mulkiy huquqi** ta'minlangan holda yer resurslaridan foydalanish, egalik qilish va tasarruf etish bo'yicha iqtisodiy vazifalarni kuchaytirish nihoyatda zarur bo'lmoqda.

«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnalidan.

37- mashq. Gaplarni ko'chiring. Kasb-hunarga oid so'zlarning vazifasini aniqlab, qavs ichida ko'rsating.

1. Endigina tandirdan uzib olingan patir hidi insonga orom beradigan xushbo'y hiddir. 2. Manovi yakka ot-aravada ularga suv ham, yonilg'i ham, moy ham, yana boshqa balo-battarlarni yetkazib berishim kerak (*Ch. Ayt.*). 3. Binoning devorlariga ganj bilan ishlov berilgan, eshik va derazalari o'ymakorlik gullari bilan bezatilgan. 4. Tekis taxtaga quruq bo'r bilan yozsangiz, yozuvingiz aniq ko'rinadi. 5. O'rikning turli navlari, qanday payvand qilish, naycha payvand, kurtak payvandlar to'g'risida so'rab-surishtirib, ancha narsalarni bilib oldim (*S. Ahm*). 6. Yozganlaringizni disketga ko'chirgandan so'ng, matnni kompyu-

ter xotirasidan o'chirishingiz mumkin. 7. Avvalo shuki, kavush tikishga na charm bor, na sirach, na mix, na lok (G'. G').



Nutqda ishlatilish doirasi ma'lum kasb-hunarga ko'ra chegaralangan so'zlar **kasb-hunarga oid so'zlar** hisoblanadi. Bunday so'zlar qaysi hududda yashashidan qat'i nazar, bir xil kasb egalariga tushunarli bo'ladi. Masalan, **daska** (kulollar xom idishlar ichini dasmollashda suv quyib ishlatadigan sopol idish), **jo'sha** (tog'dan olinadigan qizil kesak), **volash** (loyni ochib-yorib tozalash) kabi so'zlar kulollargagina tushunarlidir.

Kasb-hunarga xos so'zlarning asosiy qismini shu sohaga oid atama (termin)lar tashkil etadi. **Atamalar** fan, texnika, madaniyat kabi sohalardagi aniq chegaralangan tushunchalarni ifodalaydigan bir ma'noli so'z va so'z birikmalaridir. Atamalar qo'shimcha ma'no jilolariga ega emas. Atamalarning ko'pchiligi boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan iborat. *Masalan: advokat, argon, dialog, debitor, grant, modul, metr, test, tormoz, marketing* kabilar.

45- topshiriq. Biror fan bo'yicha darsligingizdan muayyan parchani o'qing. Bevosita shu fanga oid atamalarni ajratib, ma'nosini lug'at asosida izohlang.

38- mashq. Matnni o'qing. Sohaga oid atamalar qo'llangan gaplarni ko'chirib oling, qavs ichida atamaning ma'nosini yozing.

Bir xil ma'noli ifodalarni nutqda ortiqcha kiritish mantiqlikning buzilishiga sabab bo'ladi. Bir xil ma'noli birdan ortiq ifodalar pleonazm deb yuritiladi: *men, o'zim; shu bugun, bugundan boshlab* kabi. Mantiqiy aloqalar va munosabatlarni ifodalashning muhim vositalaridan biri kirish so'z, kirish birikmalar, yordamchi so'zlar, bog'lovchilar, yuklamalar hisoblanadi. Ulardan to'g'ri foydalanish yaxshi nutq yaratishning garovi sanaladi. Gaplar orasida mantiqlikning buzilishiga sabab sifatida quyidagilarni ko'rsatsa bo'ladi:

1. Gaplarni bir-biriga bog'lashda yuz beradigan xatolar.
2. Bir fikrdan boshqasiga o'tishda yuz beradigan xatolar.

3. Matnni xatboshilarga ajratishda xatolarga yo'l qo'yish.

4. Matnni mantiqiy shakllantirish, sintaktik qurilmalarni tanlashda yuz beradigan xatolar.

Har bir gapda nisbatan tugallangan qandaydir fikr ifodalangan bo'ladi. Avvalgi gaplarda ifodalangan fikrni keyingi gapda ifodalangan fikr, odatda, yo rivojlantiradi, yoki ulardan kelib chiqadigan fikrlarni xulosalaydi. Shunday ekan, keyingi gapni oldingi gap bilan to'g'ri bog'lash muhimdir. Gaplar bir-biri bilan xilma-xil sintaktik vositalar orqali bog'lanadi.



Ixtisoslikka oid so'zlarni nutqda to'g'ri tanlash va qo'llash ham nutq madaniyatining, ham kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi.

So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:

— so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;

— tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;

— so'zning suhbatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;

— so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash;

— so'zni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;

— baynalmilal atamani adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq holda tanlash;

— so'z, atamani matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

39- mashq. Gaplarni diqqat bilan o'qing. Noto'g'ri qo'llangan so'zlarni aniqlab, ma'nosiga ko'ra mos so'z bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.

1. So'zlovchining o'z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga yetkazishi ham o'ziga xos san'atdir. 2. So'zga benazir kishi mayda bir maqsadni uzoq so'zlab bayon qiladi. 3. Nojo'ya so'z yurak ko'zgisini parchalashi, tag'in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4. Nutqi asal kishining mehribon odamizoti ham ko'p bo'ladi. 5. Shirin so'z, go'zal til inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so'z,

beso'naqay gap inson dilini shunchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 6. Mashq sababli so'zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san'atchiligini odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin. 7. Tilda uni nomlovchi suxan bo'lmasa, bunday so'zni hamsoya tildan olish mumkin. Ammo tilda turgan so'zlar o'rnida boshqa suxanni qo'llash falokatdir.

46- topshiriq. Quyidagi so'z, atama va so'z birikmalarining qaysi uslubga xosligini aniqlang. Rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lganlari ishtirokida gaplar tuzing.

Xalq sayli, bo'linmas fond, kirim, zarurat tufayli, taftish, so'zga chiqdi, infrastruktura, mehnat bitimi, ko'chmas mulk, topshirig'ingizga binoan, tebranish, hosila, sug'urta, zimmasiga yuklatilsin, elektromagnit maydoni, modellashtirish.

40- mashq. Matnlarni o'qing, ulardagi ixtisoslikka oid so'zlarni ajratib ko'chiring va matnlarda qanday uslubiy vazifani bajarayotganligini qiyoslab tushuntiring.

I. Rivojlangan davlatlarda auditni boshqarishda davlat faol ishtirok etadi, shuning uchun siyosat elementi bilan har bir audit firmalari davlat siyosatiga javob berishi va audit kompaniyasi shu siyosatga muvofiqlashirilishi kerak.

Davlat audit kompaniyalari majburiyatlarini belgilashda, iqtisodiy hamda moliyaviy qiyinchiliklarni hal qilishda, audit va auditorlar talablarini (ma'lumotini, klassifikatsiyasi, imtihon topshirish tartiblarini va h.k.) belgilashda o'z ta'sirini o'tkazadi.

Yunusobod tumani tijorat banki
boshqaruvi raisi *A. Rahmonovga.*
Auditor *S. Jumayevdan.*

II.

BILDIRISHNOMA

Sizning ko'rsatmangizga binoan men kassir-nazoratchi S.Olimov bilan shu yil 15-18- noyabr kunlari «Lazzat» korxonasida audit tekshiruvini o'tkazdim.

Korxonaning 3- choragidagi daromad ko'rsatkichi qoniqarli, soliqlar o'z vaqtida to'langan. Lekin mehnatni tashkil etishda qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Bu to'g'rida ilova qilinayotgan ma'lumotnomada batafsil yozilgan.

Auditor (imzo)

S. Jumayev.

2002. 20.11.

47- topshiriq. O'zingiz tanlagan fan yo'nalishidagi darslikdan bi-ror matn parchasini o'qing, so'ng undagi ixtisoslik atamalarini boshqa ma'nodoshlari bilan almashtirib, mustaqil ravishda matn yarating. Asl va ijodiy matn o'rtasidagi farqni izohlang.



Ixtisoslikka oid **matn tuzishda** quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

— matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;

— ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinli joylashtirish;

— so'z va atamalarni imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish;

— kasbdoshlarga unchalik tanish bo'lmagan yoki faol qo'llanmaydigan atama, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;

— ixtisoslikka oid atamalarni boshqa tillardan o'zlash-tirish va so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;

— kasb-hunar so'zlari va atamalarining o'rinsiz tak-rorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshi-riq maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish va boshqalar.

41- mashq. Berilgan gap qurilishlarini leksik, morfologik, sin-taktik sinonimiya imkoniyatlaridan foydalanib o'z-gartiring va ko'chiring.

1. Qish taraddudini ko'rishga to'g'ri keladi. 2. O'zbo-shimchalikka yo'l qo'yilmasin. 3. Xalq shevalarini jiddiy o'rganish

va tavsiflash lozim. 4. Ishda yo'l qo'yilgan xatolar uchun haylsan bilan ogohlantirishni taklif qilaman. 5. Saylov. Hamma o'nomzodlarini tanishtirish bilan mashg'ul. 6. Qabul vaqti tugadi. Ertaga kelasiz. 7. Ma'lum bo'lishicha, litsey o'qituvchisi tumanimizda ekologik muhitni yaxshilash ustida izlanishlar olib borilmoqda ekan.

48- topshiriq. Litseydagi o'quv xonangizni qayta jihozlash yoki «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovini o'tkazish yuzasidan o'z fikr-mulohazangiz va takliflaringizni yozing.

Matn tuzishdan oldin uni kimning nomiga yozishingizni, qanday fikrlar bildirishingizni, bu fikrlarni qaysi dalil bilan moslash mumkinligini o'ylab ko'ring. Qoralama tayyor bo'lgach, matnni qayta o'qing, ortiqcha so'zlarni qisqartiring, ayrimlarini ta'sirchan so'zlar bilan almashtiring, so'ng xatolarini yana bir bor tekshirib chiqing.

42- mashq. A. Oripovning quyidagi she'rini nasriy matnga aylantirib yozing. Matn mazmunini o'z so'zlaringiz bilan to'ldiring.

Dunyo bir gulzordir keng va betimsol,
Yulduzlar g'unchadir uning ichida.
Qo'g'irchoq ichida qo'g'irchoq misol
Gullar o'stiramiz xona ichida.

Dunyo bir boladir sho'x va betimsol
Uning axtargani shodlik va kulgu.
Qo'g'irchoq ichida qo'g'irchoq misol
Unga ermak bo'lib qolmasak bo'ldi.

49- topshiriq. Ixtisoslikka oid lug'atdan 10 ta so'z, atamani daftaringizga ko'chirib oling. Tanlagan so'zlaringiz qarshisiga ularning ma'nodoshlari yoki unga uyadosh so'zlarni topib yozing. So'ngra shulardan 4 tasidan foydalanib, uslubiy jihatdan farqlanuvchi gaplar tuzing.

Namuna: ro'yxatlash — ro'yxatdan o'tkazish.

1. Nazoratchi murojaat etayotgan kishilarni ro'yxatlashga
kiritishdi. 2. Shaxsiy avtomobilni ro'yxatdan o'tkazishingizni
o'rayman.

43- mashq. Hujjat matnini o'qing, undagi ko'makchi va fe'llarni
sinonimlari bilan almashtirib ko'chiring.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

1995- yil, 24- avgust 339- son

Toshkent shahri.

O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida.

O'zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan
o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunini bajarish
maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova
qilinadi).

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat
va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin
yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidagi qoidalarni joriy qi-
lish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga
oshirsinlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va
o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat mat-
buot qo'mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun
qo'llanma sifatida o'zbek tilining lug'atini, kishi ismlari va joy
nomlari lug'atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralari
ko'rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar
Mahkamasining Ta'lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va
madaniyat bo'limlariga yuklatilsin.

Savol va topshiriqlar:

1. Matnga ta'rif bering va uning turlarini farqlang.
2. Matni o'zgartirishning qanday yo'llarini bilasiz?
3. Matn tuzishda nimalarga e'tibor berish kerakligini izohlang.

HUJJAT TURLARI VA ISH YURITISH ASOSLARI

- ◆ Hujjatchilik tarixi
- ◆ Hujjat turlari
- ◆ Xizmat xatlari
- ◆ Murojaat xatlari
- ◆ Shaxsiy xatlar
- ◆ Hujjat tuzishda dalil va asoslar
- ◆ Ish yuritish asoslari
- ◆ Hujjatlarning zaruriy qismlari
- ◆ Hujjatda tinish belgilari

50- topshiriq. a) matni o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.

Bobilning miloddan avvalgi 1792—1750- yillardagi podshoni Xammurapining adolatpesha **qonunlar majmuyi**, undan ham qadimroq podshoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112—2094- yillar)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi «hujjatlar» deb ataladigan **tartibot** vositalarining nechog'li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko'rsatadi.

Albatta, kishilik jamiyatining taraqqiyoti, **ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning** almashina borishi, aniqrog'i, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi barobarida hujjatlar ham takomil topib borgan.

Bugungi kunda fanga tariximizning turli davrlarida O'rxun-Enasoy, so'g'd, eski uyg'ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan juda ko'plab hujjatlar, umuman, **yoziq manbalar** ma'lum.

Sharqda X—XIX asrlarda yorliq, **farmon**, noma, bitimlar, arznoma, qarznomalar, **vasiqa**, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan

silma-xil bo'lgan: xabar, **tavsif**, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k.

Bu o'rinda To'xtamishxonning 1393- yilda polyak qirolı Yag'aylaga yo'llagan **yorlig'i**, Temur Qutlug'ning 1397- yildagi yorlig'i, Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg'ilonlik Mir Sayid Ahmad ismli shaxsga 1469- yilda bergan yorlig'i, Toshkent hokimi Yunusxo'janing 1779- yil 2- iyunda Peterburgga — Rossiya podshosiga o'z elchilari orqali yuborgan yorlig'i va boshqalarni eslab o'tish mumkin;

b) savollarga javob bering:

1. O'rta Osiyoda X asr hujjatlari qaysi tilda yozilgan?
2. Qadimda hujjatlar qanday narsalarga yozilgan? Ulardan namunalar keltiring.
3. O'rxun-Enasoy bitiktoshlaridagi yodnomalar hujjat hisoblanadimi?
4. O'rta Osiyoda qaysi davrlarda o'zbek (turkiy) tilda ish yuritish yo'lga qo'yilgan?
5. O'zbek (turkiy) tildagi hujjat namunalari keltirilgan qanday tarixiy va badiiy asarlarni bilasiz?

44- mashq. Gaplarni o'qing, Eski uslubga xos lisoniy qoliplarning ma'nosini izohlang va hozirgi adabiy tildagi muqobillarini qavsda ko'rsatib ko'chiring.

1. Xoja Kalonga salom degach, so'z ulkim, Shamsiddin Muhammad Atovag'a keldi... Tengri taolodin umid andoqdurkim, bu oraning ishi Tangri taolo inoyati bila bot saranjom topgan («*Boburnoma*»dan). 2. Qulluq arzadosht ulkim, safardin salomatliq bila qaytib, maskanga tushulgan xabardin davlatxoh qullar shodmon bo'ldilar. Umid ulki, hamisha davlat bila sog' va salomat bo'lub olam ahlig'a komron bo'lg'aysiz (*Alisher Navoiy*, «*Munshaot*»dan). 3. Yer-u ko'kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo'lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kirgizdi va olim sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdilar («*Temur tuzuklari*»dan). 4. Biri ulkim, viloyat molin mashvaratsiz olib turursiz va bu ma'hud emas erdi... Chun

sizning tobug'ingizga ayturga davlatxohlig' so'zini ayturg'ni ma'murmen. Ul jihatdin go'stohliq bila arzadosht bitildi (*Alishev Navoiy, «Munshaot»dan*).

51- topshiriq. Ish yuritishda ilgari qo'llangan quyidagi so'zlarning hozirgi tilimizdan ma'nodoshlarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing:

munshaot, yorliq, patta, noma, chopar, munshiy, farmoni oliy, mirzaboshi, devonbegi.



O'rta Osiyo hududidan topilgan qadimgi madaniy obidalar, turli moddiy jismlarga bitilgan ma'lumotnomalar ajdodlarimizning qadimdan o'ziga xos hujjatchilik an'analariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi. O'rta asrlarda ish yuritish huquqiy maqomga ega bo'ldi, davlat mahkamasida munshaot tizimi shakllandi va qator hujjat turlari paydo bo'ldi.

O'zbek tilining rasmiy-idoraviy til sifatida qo'llanishi qoraxoniylar hukmronligi davrida boshlandi. XX asrdan so'ng o'zbek xonlari va amirlari saroylarida yozilgan turli xil hujjatlar o'ziga xos mazmuni, muayyan tartibi va nutqiy qolipi bilan ajralib turadi. Sho'ro hukmronligi davrida o'zbek va rus tillarida ish yuritish huquqi qonunlashtirilgan bo'lsa-da, amalda o'zbek tilining ijtimoiy mavqeyi past edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi rasman ish yuritish maqomi mustahkamlandi.

45- mashq. Matni o'qib, ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va shu so'zlar ishtirokida matn mazmuniga bog'liq gaplar tuzing.

Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur — bu tildir. Ayni paytda hujjatchilikda til axborotni faqat qayd etish vazifasinigina bajarib qolmasdan, boshqaruv faoliyatini izchil tartibga soluvchi vosita sifatida

ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, avvalo, o'z qadimiy an'analarimizdan kelib chiqib va dunyo hujjatchiligidagi ilg'or tajribalardan **ijodiy** foydalangan holda, hujjatchiligimizni ta-komillashtirish yo'lidan bormoq kerak.

Hujjatlarning sof o'zbek tilidagi yagona **andozalarini** yaratish, bular bilan bog'liq atamalarning bir xilligiga erishish bo-sisida ish olib borish lozim. Mukammal va oqilona tashkil etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi **ish yuritishning** asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy xodim zaruriy ma-xborotni **rasmiy ish tilining** tegishli shakllarida bemalol ifoda-lay olishi, idoraviy ish yuritish **malakalarini** puxta egallagan bo'lishi zarur.

52- topshiriq. Berilgan matnlarning hujjatning qaysi turiga kirishi-ni aniqlang, ular o'rtasidagi farqlarni izohlang.

I. Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqi-da yig'lagan Layli otidan — sizga boshimdagi sochlarimning tuk-laricha behad salom. Mendan — haddu-hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O'tgan ishga salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechir-gan qora kunlarni esga olish mening uchun o'sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting-unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so'zimni o'ziming oxirgi ham chin baxt islari hidlagan tariximdan bosh-layman...

Xatim oxirida shuni ham aytib qo'yay: o'ch qaytib, men ham ko'chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko'nglimda. Agar xudo yorlaqab eshigingizda o'rinlashib olsam, u yog'ini o'zim bilar edim...

3 hamal, Marg'ilon, Kumushingiz yozdim.

A. Qodiriy, «O'rkan kunlar»dan.

II. Men, Abdulla Islomov, kasalligim tufayli o'z akam Akmal Islomovga (SA seriyadagi 0612408 raqamli pasportga ega) «Cho'lpon yulduzi» mas'uliyati cheklangan jamiyat kassasi-dan 2002- yil oktabr oyi uchun yozilgan maoshimni olishga ishonch bildiraman.

III. Otamni ham xuddi bobom kabi Isroil degrez der edilard, Otam zahmatkash temirchi edi. O'sha vaqtda bolalarini boqish, ro'zg'or tebratish uchun odamlar juda ko'p mehnat qilishlari zarur ekanligiga sira aqlim yetmas ekan.

Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq va shavqni ko'rar edim. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edim.

Uning qo'llari cho'qqa aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo na iloj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi falanga oldirish har kimga ham muyassar bo'lavermas ekan...

Zulfiya, 1965- yil.



Ish yuritishda hujjatlar tuzilishiga ko'ra ichki va tashqi hujjatlar sifatida farqlanadi. Agar hujjat muayyan muassasaning o'zida tuzilib, undan shu muassasaning o'zida foydalanilsa, **ichki hujjat** hisoblanadi. Ayni muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlar esa tashqi hujjatlar sanaladi.

Tegishlilik jihati qarang qarab xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga ajratiladi. Biron muassasa yoki mansabdor shaxs tomonidan tayyorlanadigan hujjatlar **xizmat hujjatlari** (*buyruq, ko'rsatma, hayonoma* kabi)ga kiradi.

Shaxsiy hujjatlar alohida shaxslar tomonidan yoziqib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladi (*shaxsiy ariza, shikoyat, tavsiyanoma* kabi).

46- mashq. Quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing, so'ngira ularni rasmiy yoki shaxsiy munosabatni ifodalashiga ko'ra guruhlang, ular o'rtasidagi farqni izohlang.

O'qishga kirmoq, vazifasidan ozod etilmoq, salom yetkazmoq, belgilangan jadvalga muvofiq, ko'nglini ko'tarmoq, ko'rishganimizda aytib bermoq, zimmasiga yuklamoq, «Kamolot» yoshlar harakatiga qo'shilmog, vaqt topolmaslik, o'qituvchi ho'lib ishlamoq, harorat pasayishi oqibatida, xushxabar eshitgandan keyin.

53- topshiriq. Guruhingizning obodonlashtirish ishidagi ishtiroki to'g'risida litsey direktoriga xat yozing. Unga tegishli nom qo'ying. Yaratgan matningizning xususiyatlarini sharhlang.

54- topshiriq. Matoni o'qing. Ajratilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang, grammatik shakllarning vazifasini tushuntiring. Shaxsiy munosabatlarni ifodalovchi jumalarni shakllantirgan lisoniy vositalarni aniqlang.

«Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga!

Kinoya va achchiqlar bilan to'liq bo'gan **maktubingizni** oldim. Xatni yozgan chog'ingizda tamom bir o't ichida, g'azab dengizida suzganligingiz gavdalanib **ko'z o'ngimdan o'tdilar**. O'tdilargina emas, hatto menga shunchalik ta'sir etdilarki, go'yo malikasining g'azabiga uchragan qul qay **darajada** es-hushidan ayrilsa, qilar ishidan, o'ylar o'yidan yanglishsa, mening-da hozirgi **holim** buning yuz daraja yuqorisiga yetdi.

To'g'risi, zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim va tushunishga ham lozim ko'rmadim. **chunki** g'azab ustida aytilgan so'zlar aqli kishilarga loyig'i **muhokama** va **mutolaa** bo'lolmas, gulxandan so'ng alanga hisobini hech bir vaqtda olinmas...

Siz mening bu xatimni o'qib, gunohlarimni **yorlaqab** turgan kezlaringizda, albatta, men Marg'ilon yo'lida bo'lsam kerak. Onangizning o'qiydigan bayti mening sha'ninga tamoman teskari, chunki ota-ona orzusi hech bir vaqt yangi **yorlik** vazifasini o'tay olmas va hamisha boshqalarning orzu-havasi bo'lib qola berar. Siz o'zingizni tuproq bilan **tenglashtirmakchi** bo'lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay **Oltinbibi** deb atamoq fikriga tushdim...

Borlig' im muhabbatingiz alangasi bilan tutashgani holda zayjingiz Otabek.

26- javzo, 1265- yil. Toshkent.

A. Qodiriy, «O'tkan kunlar» dan.

47- mashq. Gaplarda tushirib qoldirilgan so'z va qo'shimchalarni o'miga qo'yib ko'chiring. Ushbu matnning oldingi matndan qanday farqlanishini tushuntiring.

Toshkent sharqshunoslik akademik litseyi 2- bosqich talabasi Ahror Rahmonov... shaxsiy a'zolik... ochishingiz... so'raymiz. A. Rahmonov o'qishni bitirgan taqdirda, hisob bo'limiga kutubxona ma'lumotnoma... topshirma... unga shahodatnoma bermas... kafolat bera... .

Ushbu majburiyat bajaril... holat... A. Rahmonov... dan kutubxonaga qaytarilmagan adabiyotlar... barcha moddiy javobgar... o'z zimmamizga... ola... .



Muassasalar o'rtasida xizmat aloqalari asosan xatlar orqali amalga oshiriladi. Bunday yozishmalar orqali turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabar, taklif, iltimos, kafolatlar beriladi va qabul qilinadi. **Xizmat xatlari** quyidagi vazifalarni bajarishiga ko'ra ikki turga ajraladi:

1. Javob xatni talab qiluvchi xatlar (*da'vo xatlar, so'rov xatlar, iltimos xatlar* kabi).

2. Javob talab qilmaydigan xatlar (*tasdiq xat, ilova xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat* kabi).

Barcha xizmat xatlari rasmiy yozishma bo'lgani uchun maxsus **bosma ish qog'ozlariga yoziladi**. Oddiy qog'ozga yozilgan taqdirda chap tomonining yuqori burchagiga muassasa nomi ko'rsatilgan **to'rtburchak muhr qo'yilishi lozim**.

Xizmat xatlar **ikki nusxada yoziladi** va imzolanadi. Lavozimi aniq ko'rsatilgan rahbar tomonidan imzolangan xatning birinchi nusxasi jo'natilib, ikkinchisi muassasada qoladi.

55- topshiriq. a) xat matnini o'qing, uning mazmunida nima ifodalanganini aniqlang.

A. Sirojiddinov nomidagi akademik litsey ma'muriyati va kasaba uyushmasi tashkiloti teatringizda 18- oktabr soat 19:00 da namoyish etiladigan «Zebuniso» spektaklini tomosha qilish uchun litseyimiz talabalariga 120 (bir yuz yigirma) ta chipta ajratishingizni so'raydi.

Chiptalar qiymati naqd pul bilan to'lanadi;

b) ushbu iltimos xatining kimga jo'natilganligini, kim tomonidan imzolangani kabi zaruriy qismlarini qo'yib daftaringizga ko'chiring.

48- mashq. Quyida berilgan zaruriy qismlarni tartib bilan joylashtirib, ular asosida so'rov xati namunasini yarating.

Bu qurilma bizni juda qiziqtirdi. Litseyingiz yosh olimlari tomonidan yaratilgan oqova suvlarni tozalash qurilmasi. «Ekolot» xalqaro jamg'armasi raisi A. Maqsudov. Bu haqda «Ma'rifat» gazetasida xabar chop etildi. Shu sababli Sizdan ushbu qurilmaning texnik tavsifi, yo'riqnomasi va modelini yuborishingizni so'raymiz. Iqtisodiyot litseyi direktori M.Saidovga.

56- topshiriq. Berilgan shakl asosida da'vo xati mazmunini to'ldiring. Tovar turi sifatida parta yoki yozuv taxtasini ko'rsating.

Parta (yoki yozuv taxtasi)
yetkazib berish kechiktirilgani
uchun jarima to'lash haqida

DA'VO

_____dagi _____raqamli shartnomaga binoan
(sana)

Siz _____ga bahosi _____bo'lgan
(tashkilot nomi) (so'm so'z bilan)

_____dona _____yetkazib berishingiz kerak edi.
(tovar nomi)

Biroq ko'rsatilgan shartnomaning shartlari buzilgan holda parta (yoki yozuv taxtasi) ___ kun kechikib yetkazib berildi.

Shartnomaning bandiga muvofiq, tashkilotingiz muddatida yetkazib bermagan ___ so'mlik parta (yoki yozuv taxtasi) bahosidan ___% miqdorida Sizning hisobingizga ___ so'm jarima yozildi.

Ko'rsatilgan jarima summasini 30 kunlik muddatda bizning hisob-kitob raqamimizga o'tkazishingizni so'rayman.

Mazkur summa belgilangan muddatda to'lanmagan taqdirda ish xo'jalik sudiga oshiriladi.

Litsey direktori _____

B. Karimov.

(imzo)

57- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Da'vo xatlari qanday maqsadlarda yoziladi?
2. Iltimos xati qanday zaruriy qismlardan tashkil topadi?
3. Kafolat xati bilan da'vo xatining zaruriy qismlari o'rtasidagi farqlarni izohlab bering.
4. Ilova xati qaysi holatlarda yoziladi?
5. Xizmat xatlarining qaysi turlari uchinchi shaxs nomidan yoziladi?



Xizmat xatlari **mantiqan izchil uch qismdan** iborat bo'ladi. **Kirish qismida** tegishli muassasaga murojaat qilishga asos bo'lgan sabab ko'rsatiladi. **Ikkinchi qismda** xatda ko'tarilgan masalani hal etish kerakligi dalil asosida bayon qilinadi. **Xulosa qismida** xat yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad aytiladi.

Rasmiy xat matnini yozishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- xat qisqa bo'lishi, qoidaga ko'ra bir betdan oshmasligi kerak;
- fikrlar aniq va ravshan ifodalanishi shart;
- matnda ko'chma ma'noli so'z va iboralar ishlatilmasligi zarur;

— gaplarning kesimi hujjat turi va mazmuniga muvofiq uchinchi shaxs birlik yoki birinchi shaxs ko'plik sonda shakllantirilishi lozim;

— matn sarlavhasi bir jumla shaklida ikki qatordan oshmasligi, «to'g'risida» yoki «haqida» ko'makchilari orqali tugatilishi kerak («Litsey oshxonasini ta'mirlash to'g'risida» kabi);

— matnda xizmat xatining turi, nomi yozilmaydi, xatning qandayligi matn mazmunida aks etishi zarur.

49- mashq. Gaplarda qanday fikr ifodalanganligini aniqlang, gaplarni ko'chirib, mazmuniga ko'ra qaysi xat turiga tegishligini qavsda ko'rsating.

1. Anjumanda quyidagi masalalar ko'rib chiqildi. 2. Ushbu qo'lyozmalarni muhokama qilish va tegishli xulosa berish uchun yo'llaymiz. 3. Ma'ruzachilarni taklif etish, kutib olish va turarjoy bilan ta'minlashni litsey ma'muriyati o'z zimmasiga oladi. 4. Mavjud buyurtmalarni bajarishga ulgurmayotganligimiz sababli iltimosingizni bajara olmasligimizni ma'lum qilamiz. 5. Birlashma tajriba-sinov o'tkazish uchun barcha sharoitlarni yaratishga kafolat beradi. 6. Hlovani ushbu shartnomaning ajralmas qismi deb hisoblashingizni so'raymiz. 7. Ro'yxatda ko'rsatilgan darsliklarni yetkazib berish uchun tegishli nusxada buyurtmalar qabul qilinadi.

50- mashq. Quyidagi javob xatida tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni to'g'ri qo'yib, daftaringizga yozing.

«Fidokor» gazeta...

bosh muharriri S. Safarov...

«Fidokor» gazetasi tahririyati tomoni... 2002- yil 3- martda yuborilgan I—01-90 raqamli so'rov xatingiz... javob.... Sizga shuni ma'lum qilamiz..., mahallamizda yashovchi bir guruh yoshlar... 14- turarjoy dahasida ommaviy sport turlari bilan shug'ullan... uchun yetarli sharoitlar yo'qligi to'g'risida... shikoyat xatida ko'rsat... kamchiliklar mahalla faollari yig'ilishi... shu yil 23- martda o'tkazilgan yig'inida ko'rib chiq....

Xat... ko'rsatilgan kamchiliklar asos... ekan... tan olin... Yunus-obod tumani... 14- dahasidagi qarovsiz qoldirilgan maydonlarni toza..., uylar hovlisidagi garajlar... oldirib, o'yingoh... aylan..., mavjud sport inshootlarini ta'mir... vazifalari «Hashar» kommunal xo'jaligi rahbari Q. Ochilov... topshirildi.

Ko'rilgan ushbu chora-tadbirlar... ijrosi haqida tahririyat-ingiz... qo'shimcha xabar qila...

«Yunusobod» mahalla qo'mita... raisi (imzo) S. Olimov.



Rasmiy xatlarda bayon qilingan fikr mantiqiy izchillikda ifodalinishi, yetarli dalillar bilan asoslanishi va xulosalanishi lozim.

Zarur holatlarda o'rinli taklif yoki e'tiroz bildirilishi mumkin. Ammo mutasaddi rahbarga nisbatan hurmat saqlanishi, **murojaat odobiga** amal qilinishi zarur. Shu maqsadlarda:

— rahbarga murojaat shakli «*Siz*» so'zini bosh harfda yozish orqali ifodalanaadi (*Sizga, Sizdan* kabi);

— fikriy bog'liqlik «*bu*», «*ushbu*», «*mazkur*», «*shu sababli*», «*shunga ko'ra (muvofiq)*» kabi so'zlar yordamida ta'minlanadi;

— taklif va e'tirozlar «*bizningcha*», «*shartnomaga ko'ra*», «*biroq*», «*shu bilan bir qatorda*», «*deb o'ylaymiz*» kabi so'z va so'z birikmalari orqali ifodalanaadi.

58- topshiriq. O'quv yurtiingizda «Alisher Navoiy ijodi — bebaho ma'naviy meros» mavzusida ilmiy-amaliy seminar o'tkazish haqida axborot xati tayyorlang. Zaruriy qismlari to'g'ri qo'yilganligini o'rtog'ingizga tekshirtiring.

59- topshiriq. a) xatni o'qing. Ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

Onajon! Kuyovingizning yozganlaridan tashqari, men sizga shu bilan oltinchi xat yozdim. Ammo sizdan uchta va dadamdan

ikkita xat oldim. **Ayniqsa**, dadamning keyingi xatidagi qora xabar bilan dori dunyo ko'zimga toraydi. O'lim haq, ammo **bechora** buvim jon berar ekan, yonida turib duosini olib qolmaganim uchun ko'p **hasrat chekdim**. Ayniqsa, **musofirchiligim** yomon asar qildi.

Ko'z yoshlarim bilan yuzimni yuvdim. Bugun beshinchi kundan beri **rahmatlik buvim** arvohiga atab qur'on boshladim. Xatm qilib bag'ishlayman, xudo g'ariqi rahmat qilsin, **sizga sahr bersin**. Endi musofir qizingizning baxtiga siz o'lmang, **omin**.

Va'da ma'lum bo'lsinki, alhamdulillah kuyovingiz va qudalaringiz salomatdirlar va **ulaming soyalarida** men qizingiz ham o'ynab-kulib yuribman. Sizni va otamni **juda sog'indim**...

Siz mening **telba so'zlarimdan** achchig'lanmang. Agar bu gapimning to'g'riligini bilmakchi bo'lsangiz, Toshkent kelganingizda qayin otamning nasihatini **o'z qulog'ingiz** bilan eshit-ing-da, undan keyin so'zimga qiymat bering!

Aza hamma vaqt topiladi **desangiz** qizingizning **ko'ngli uchun** hali ham kelganingiz **yaxshi**. Dadamga mening arzimni ayt-sangiz **albatta** qaytarmas. Mendan dadamga **behad** salom. Kelasi oydan qo'rqaman...

Ko'risholmasak mendan rozi bo'ling, dadam va boshqa yori do'stlar ham. Kumush yozdim.

Toshkent, 1269- yil I- qavs oyida.

A. Qodiriy, «O'tkan kunlar»dan.

b) ushbu xatning xizmat xatlaridan farqlovchi xususiyatlarini toping.

51- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'z yoki qo'shimchani qo'yib ko'chiring. Aynan shu so'z yoki qo'shimchani nega tanlaganingizni tushuntiring.

1. Ta'til boshlanishi... (*bilan, tufayli*)... (sen, siz)ning ketilish... (*-izni, -ni*) orziqib kutaman. 2. Mendan hamma-ga... (*ayniqsa, xususan*) sinfdoshlaringga... (*tegishli, ko'pdan-ko'p*) salom... (*-ni, -lar*) yetkaz... (*-ishingni so'rayman, -asan deb*

o'ylayman). 3. Ushbu... (*xat, maktub*) senga qaysi... (*kun, sana*)di yetib bor... (*-ishi bilan, -sa*) darrov javob yoz... (*-ishing kerak, -giri*), xo'pmi. 4. Yuborgan... (*mablag', pul*)laringizni oldim, katta... (*rahmat, tashakkur*). 5. Bo'sh qol... (*-dimmi, -gulaqda*) xayolimni sizdan uz... (*-ishim mumkin emas, — olmay qolaman*). 6. Menga ko'rsatgan... (*maxsus, katta*) yordamingiz... (*orqali, tufayli*) ishlarim... (*rivojlandi, yurishib ketdi*). 7. Siz bilan... (*tez muddatda, yaqin kunlarda*) ko'rishish... (*umiddaman, zarur*).



Shaxsiy xatlar vazifasi va mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi. Kundalik turmushda, asosan, oilaviy yoki do'stona munosabatlarni ifodalovchi xat, maktub keng qo'llanadi. Bunday xatlar rasmiy yozishmalardan hajmining cheklanmaganligi, shakliy mustaqilligi, matn mazmunining ichki kechinmalarga, hazil, qochiriq, gina, afsus, taklif, e'tiroz, minnatdorchilik kabilarning oddiy so'zlashuv yoki badiiy uslubga yaqin ifoda shakliga xosligi bilan ajralib turadi. Salomnoma xatlari, sevgi maktublari, do'stlik va hamkorlik munosabati yuzasidan yoziladigan xatlar ana shunday erkin uslubda yoziladi.

Shaxsiy xatning *diplomatik yozishmalarga* mansub turi ham mavjud. Bular yarim rasmiy tusda bo'lib, ularda davlat boshliqlari, diplomatik xodimlarning shaxsiy va oilaviy hayotidagi yangiliklar, sovg'a taqdim etish, minnatdorchilik bildirish, rasmiy uchrashuvlarda ko'rsatilgan masalalarni hal qilishga qaratilgan iltimoslar bildiriladi. Yuqoridagi shaxsiy xatlardan farqli ravishda bunda adabiy til me'yoriga to'la amal qilinadi.

60- topshiriq. Matnni o'qing. Xizmat darajasidagi nutqiy aloqaga xos jumalarni ajrating va oddiy so'zlashuv uslubidan farqini tushuntiring.

... Kerakli raqamni terdi-da, uch-to'rt signaldan so'ng kimdir trubkani olgach, ayol kishining ovozi eshitib, darrov o'zini tanitdi va:

- Aziz Qosimovich qachon keladilar, qo'ng'iroq qildilar-mi? — deb so'radi. — Rasul Olloyorovich qiziqyaptilar.
- Telefon qildilar! Indinga kelyaptilar, samolyotda! — dedi Saltanat entikib.
- Qaysi reysda?
- Nima?
- Reysini so'rayapman, qaysi reys?
- Saltanat bir dam jimib qoldi va oxiri gunohkorona tovush bilan:
- Esim qursin, so'ramabman-ku, — dedi.
- Kotiba qiz ishi oxirigacha bitmagani va ho'l tuflisi g'ashiga tekkanidan kayfiyati buzilib:
- Voy, reysini bilmasangiz kutgani qanday chiqasiz?! — deb achitib oldi.
- Kechirasiz... — Saltanat judayam xijolat bo'ldi. Kotiba qiz indamay trubkani qo'yib qo'ydi. Keyin Rasul Olloyorovich huzuriga kirib, surishtirib bilgan gaplarini aytdi.
- O' Usmonov, «Girdob» dan.*
- 52- mashq.** Telefonda rasmiy so'zlashuvga oid dialoglardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirib, daftaringizga ko'chiring, nutqiy qoliplar shaklining tuzilishiga e'tibor bering.
1. — Allo, Olim Rahimovich kerak edilar, nashriyotdan qo'ng'iroq qil... .
- Hozir chaqiraman.
- Alio, Rahimov... .
- Assalomu alaykum. Men «O'qituvchi» nashriyotining muharriri Ortiq Abdullayevman. Nashrga tayyorlanayotgan qo'lyozmangiz... nashriyotga kelib ketishingiz... .
- Yaxshi, erta... borsam bo'ladimi?
- Tushdan keyin kelganingiz... .
- Xo'p, albatta, bora... .
2. — Allo, litseylar boshqarma... Mo'minjon Mahmudovman.
- Eshita... Mo'minjon Qodirovich! Men xodimlar... boshlig'i Anvar Qosimovman.

— Sizdan iltimos, Anvarjon, direktor bilan kelishgan... o'limpiada hay'atiga kiritila... o'qituvchilar ro'yxatini yubor...

— Nechta kishini tavsiya etish... lozim?

— Beshta tajribali o'qituvchini yozsangiz, o'zimiz tanlab olamiz. Tushunar...?

— Tushundim, Mo'minjon Qodirovich.

— Yaxshi, soat olti... kutaman.

— Xo'p, hozir tayyor... yetkazaman.


61- topshiriq. Yuqoridagi dialoglarning oddiy so'zlashuv uslubi-dan farqini tushuntiring.

62- topshiriq. Matnni o'qing. Telefonda so'zlashish odobiga oid jum-lalarning ma'nosini izohlang.

Agar siz qo'ng'iroq qilsangiz, albatta, gapni **salom-alik-dan boshlang**. Shundan so'ng **o'zingizni taniting** (ish yuzasi-dan telefon qilsangiz xizmat vazifangizni ham aytganingiz ma'qul) va kerakli joyga tushdingizmi yoki yo'qmi shuni aniqlab oling. Kerakli joyga tushganingizga ishonch hosil qilganingizdan so'ng, sizga zarur bo'lgan kishini **chaqirib berishlarini iltimos qiling**. Hol-ahvol so'rab, asosiy maqsadga o'ting. Telefonda **qisqa, lo'nda gaplashishga** harakat qilishingiz lozim. Xayrlashib bo'lganingizdan **keyin** telefon dastagini **birinchi bo'lib siz qo'ying, chunki** telefon raqamini siz terngansiz.


Agar sizni telefonga chaqirishsa, «**Labbay**» yoki «**Eshitaman**» deb javob qiling. Boshqa joyga tushib, sizdan kechirim so'rasha, «**marhamat, hechqisi yo'q**», deb dastakni qo'ying. Telefon orqali muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri huzuringizga kelib muhim ishi borligini aytib qolsa, hamsuhbatingizdan **uzr so'rang** va ma'lum vaqtdan keyin unga o'zingiz qo'ng'iroq qilishingizni aytib, telefon dastagini **ohista qo'ying**. Telefonda gaplashayotganda o'tirgan joydan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib yoki boshni egib gaplashish kabilar odob doirasiga kirmaydi. Bu holatda gaplashsangiz atrof-dagi xodimlarning g'ashiga tegasiz.

53- mashq. Quyidagi qurilmalar asosida gaplar tuzing va shu gaplar asosida matn yarating.

Kim?  xabar yetkazadi.
Kimga?

Kim?  qabul qiladi.
Kimgan?

Qachon?  yig'ilish bo'ladi (o'tkaziladi).
Nima?

Kim?  qatnashishi (tayyorgarlik ko'rish) shart.
Nima uchun?

63- topshiriq. Telefonogrammani o'qing, shu asosda litseyingizda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining yillik hisobot yig'ilishi bo'lishi haqida telefonogramma namunasini yozing.

«Ustoz» jamg'armasi
Yetkazuvchi — kotiba
Salimova. Tel: 45-16-20

O'zMU qoshidagi
akademik litsey direktoriga
Qabul qiluvchi — kotiba
Turopova.
Tel: 46-36-95 soat 15:30

TELEFONOGRAMMA

2002. 18.04. Toshkent

№ 14

Respublika «Ustoz» jamg'armasi hay'at boshqaruvi yig'ilishi qaroriga ko'ra litseyingizga bir dona IBM PC—150 rusumli kompyuter ajratildi. Uni qabul qilib olish uchun Siz ishonchnoma bilan o'z vakilingizni yuborishingiz lozim.

Jamg'arma raisi

I. Shodmonqulov.



Telefonogramma orqali belgilangan joyga shoshilinch xabar matni yetkaziladi.

Bunday matn bir nusxada tayyorlanadi, rahbar yoki mas'ul shaxs tomonidan imzolanganach, tegishli joyga telefon orqali yetkaziladi.

Telefonga chaqirilgan shaxs telefonogramma berilishi haqida ogohlantirilishi, u qabul qilishga tayyor bo'lgach, qabul qiluvchi ulguradigan sur'atda yetkazuvchi tomonidan yozdirilishi lozim.

Matnning to'g'ri qabul qilinganligiga ishonch hosil qilish uchun qabul qiluvchi matnni yetkazuvchiga qayta o'qib eshittirishi shart. Qabul qiluvchi telefonogrammaning berilish vaqti va sanasini, yetkazuvchining ism-familiyasi, lavozimini qayd etadi.

Yetkazuvchi ham qabul qiluvchi haqida shunday ma'lumotlarni yozib qo'yishi lozim.

64- topshiriq. a) litseyingizda o'tkazilishi mo'ljallangan biror tadbir to'g'risida faks yoki elektron pochta orqali (e-mail) yuboriladigan xabar matnini tayyorlang. Faksogrammada telefonogrammadan farqli tarzda qanday zaruriy qismlar bo'lishi lozimligini aniqlang;

b) savollarga javob bering:

1. Faksogramma orqali xabar jo'natishdan oldin qanday tayyorgarlik ishlari bajariladi?
2. Faks orqali yo'llangan xabaringiz qabul qilinganligini nima bilan asoslash mumkin?
3. Faksogrammani to'g'ri qabul qilish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

54- mashq. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida telefonogramma matni tuzing.

Madaniyat saroyida, ish bilan ta'minlashga oid, tuman bandlik xizmati, yoshlar taklif etiladi, 5- may soat 16:30 da, korxon va tashkilot vakillari, O'zbekiston Milliy universiteti, talabalar shaharchasida yashovchi.

65- topshiriq. Telegramma matnini o'qing, telefonogrammadan farqli jihatlarini izohlang.

Farg'ona 16 Buvayda 8
Inomjon Qodirovga

Yigirma beshinchi martda uyimizga o'rtog'im Asadulla boradi. U bilan haydovchilik guvohnomamni berib yuboring, o'g'lingiz ilhom.



Telegramma shoshilinch xabar yetkazishning juda qisqa va ixcham shaklidir. Xabar mazmunini ifodalovchi telegramma matni bosh harflar bilan ikki intervalda yozilishi kerak. Qo'lda yozilgan taqdirda harflar yirik-yirik, so'zlar aniq ko'rinishi lozim. Matn tilida yig'iq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar ishlatiladi, tinish belgilari qo'yilmaydi. Xabar bayonida to'g'ri ma'noli ixcham so'zlardan, qisqartmalardan foydalaniladi. Bunday telegraf uslubida til birikmalari imkon qadar tejalishi talab qilinadi.

Telegramma matnida bo'g'in ko'chirilishiga yo'l qo'yilmaydi, gaplar barcha qatorlarga xatboshisiz yoziladi. Kunlar va raqamlarni so'zlar bilan yozish tavsiya qilinadi, murakkab sonlarni raqam bilan yozish mumkin. Telegramma so'ngida jo'natuvchining manzili, ismi-familiyasi va yuborgan sanasi kichik harflar bilan ko'rsatiladi.

66- topshiriq. a) quyidagi mazmunda muhim xabarlarini jo'natish uchun telegramma matnlari tuzing:

1) yaqin do'stingizni o'zingizning yoki qarindoshingizning to'yiga taklif qiling; 2) yuqori davlat hokimiyati idoralari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat hokimligi)ga erishgan katta yutug'ingiz to'g'risida xabar yozing;

b) quyidagi savollarga javob bering:

1. Yuqoridagi ikki telegrammaning qaysi birida pochta manzili ko'rsatilmaydi?

2. Telegramma bilan telefonogramma o'rtasida qanday farqlar bor?

3. Fototelegrammadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?

4. Telegramma tinish belgisi qo'yilishi mumkin bo'lgan holatni izohlang.

55- mashq. Berilgan so'z birikmalari va gaplarni ma'nodoshlari bilan yonma-yon qo'yib daftaringizga ko'chiring.

Yig'ilishda qatnashishlari shart, «*Milliy tiklanish*» partiyasi a'ziligiga qabul qilindim, 5218 raqamli joriy hisobingdan, bu to'g'rida takror xabar beriladi, jamg'arma qaroriga ko'ra, namunalni tashkil etilganligi sababli, majlisda bo'lishlari kerak, bu haqda qo'shimcha ma'lumot beriladi, 1018 raqamdagi o'z joriy hisobim mablag'idan, Meni «*Milliy tiklanish*» partiyasi safiga olishdi, yaxshi tayyorlanganligi tufayli, jamg'arma tomonidan chiqarilgan qarorga muvofiq.

56- mashq. Gaplarni o'qing, leksik-ustubiy xatolarni aniqlang va izohlang.

1. Litsey oshxonasida ovqatlanish xavfsizligi oyligini o'tkazdi.
2. Hamma qo'shimchasi bor o'quvchilar yig'ilishga.
3. Mavjud chora-tadbirlar belgilangandan avval intizom yaxshilandi.
4. Pedagogik katta stajga egaman.
5. Eshikni ochmasimdan kirishga taklif etdilar.
6. Bu yo'ldan yurish hozircha taqiqlanadi.
7. Ota vasiyatini quloqqa quyish, har qachon esdan chiqarmaslik kerak.

67- topshiriq. Quyidagi so'z birikmalaridan foydalanib, muayyan ish-harakatning qanday sabab bilan bajarilmaganligi yoki nima maqsadda bajarilganligiga oid gaplar tuzing.

Ma'nodosh so'zni topolmaganligi uchun, vergulni o'rin-siz ishlatganidan, fikrini asoslash maqsadida, muddati ko'rsatilmaganligi tufayli, telefon ishlayotganligi sababli, zudlik bilan yetkazish maqsadida, hisob raqami o'zgarganligi munosabati bilan, ko'chma ma'noni ifodalasin deb, tutuq belgisi teskari qo'yilganligidan, ishontirish maqsadida, bosh harf bilan yozmaganligi uchun.



Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga javob berishi lozim. Bu xususiyatlar hujjatchilik tilining o'ziga xos uslubi, so'z qo'llash yo'llari, morfologik va sintaktik belgilari orqali ta'minlanadi.

Xizmat yozishmalarida aniqlik va mazmuniy tugallik fikrni aniq dalillar bilan asoslashga bog'liq. Hujjatchilikda bunday dalil, asoslar quyidagicha bo'lishi mumkin:

— rasmiy qonunlar, bitim va shartnomalarning tegishli moddalari, bandlarini ko'rsatish. Masalan: «O'zR fuqarolik kodeksining 1135- moddasiga muvofiq», «Tuzilgan shartnomaning 3- bandiga asosan» kabi;

— qonunchilik yoki kelishilgan shartlar, manzilning o'zgarganligini ta'kidlash. Masalan: «boshqa shaharga ko'chishi munosabati bilan»;

— raqamli ko'rsatkich, hisob-kitoblar asosida. Masalan: «davlat raqami 10S6260 bo'lgan VAZ- 2107 rusumli yengil avtomobil bilan»;

— mantiqiy asoslarni ifodalovchi «shunga ko'ra», «munosabati bilan», «...ganligi sababli», «...ishi uchun», «oqibatida», «...masligi tufayli», «shu maqsadda», «guvohlik berishicha», «tekshiruv natijasiga binoan» kabi qoliplashgan so'z birikmalari va h.k.

68- topshiriq. Matnni o'qing, uning zaruriy qismlarini aniqlang va tavsiflang.

TARJIMAI HOL

Men, Sobirov Nodir Nozim o'g'li, 1985- yil 27- iyunda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug'ildim. Otam — Sobirov Nozim viloyat yo'l qurilishi boshqarmasining bosh muhandisi, Onam — Nomozova Nasiba 18- o'rta maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydilar. Oilada 4 kishimiz. Ukam — Nasim 7- sinfda o'qiydi.

1992- yildan 2002- yilgacha Buxoro shahridagi 18- maktabda o'qidim. Maktabda sinf devoriy gazetasi muharriri bo'ldim. Ona

tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Bu fan bo'yicha viloyat olimpiadasida 2- o'rinni egallaganman. Tennis bo'yicha respublika musobaqalarida faxrli o'rinlarni olganman.

9- sinfni tugatib, 2002- yilda Buxoro davlat universitetining akademik litseyiga o'qishga kirdim.

Mening turar joyim: Buxoro shahri, Yangiyer ko'chasi, 51- uy.

(imzo) *N. Sobirov,*
2002- yil 21- may.

57- mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini daftaringizga ko'chirib va ma'nolarini izohlang, so'ngra ular ishtirokida gaplar tuzing.

Dehqon oilasida tug'ildim, savdo uyushmasi raisi, bo'lim mudiri vazifasida ishlaydi, maktabni tamomladim, o'qishga kirdim, lavozimida ishladim, a'zosiman, qatnashaman, uylanganman, turmush o'rtog'im, jamoat ishi, saylanganman.

69- topshiriq. Ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy ahvoli birikmalarining ma'nosini izohlang. O'zingizning ijtimoiy kelib chiqishingiz va ijtimoiy ahvolingiz to'g'risida kichik matn tuzing.

58- mashq. Ariza namunasidagi bo'sh o'rinlarni to'ldirib, daftaringizga ko'chiring. Ajratilgan so'zlar ma'nosini izohlang.

Toshkent Davlat pedagogika universitet...
rektori prof. B. G'. Qodirovga
... fakulteti... II kurs talaba... Samad
Qosimovdan

ARIZA

Men «Umud» jamg'arma... **tanlovida** ... natijalarga erish... imtiyozli o'rinni **qo'lga kirit**... . Shuning ... «Umud» jamg'armasi men... Amerika Qo'shma ... ga o'qish uchun **yo'llanma berishga** ... qildi.

O'qishimni Amerik... Shtatlari... Kaliforniya universiteti... tarix fakultetida ... **ettirish uchun ruxsat... ni so'ray...**

(imzo) *S. Qosimov.*

2002- yil 28- may.



Ariza muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat sanaladi. Ish yuritishda faol qo'llanadigan rasmiy hujjat ham arizadir.

Arizalar mazmuni, uslubi, hajmiga ko'ra turlicha bo'ladi. Chunki o'quvchi yoki talabaning turli masalalar yuzasidan ta'lim muassasasi rahbariga yozadigan arizalaridan tortib ishchi-xizmatchining, fuqarolarning korruxona boshlig'i, hokimlargacha yozadigan arizalari bir-biridan farq qiladi. Bundan qat'iy nazar, har qanday arizada **quyidagi zaruriy qismlar** ifodalanishi lozim:

— ariza yo'llanadigan muassasa nomi yoki rahbarning vazifasi, unvoni, ismi, otasining ismi va familiyasi;

— ariza yozuvchining turarjoyi yoki vazifasi, ismi, otasining ismi va familiyasi;

— **hujjat nomi (Ariza);**

— ariza matni (**iltimos, taklif yoki shikoyat**);

— zarur bo'lgan holatda ilova qilinadigan hujjatlar nomi;

— qog'ozning chap tomonida ariza yozilgan vaqt (**yil, kun va oy**);

— qog'ozning o'ng tomonida ariza yozuvchining imzosi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi.

59- mashq. Berilgan gaplarni yuqorida ko'rsatilgan zaruriy qismlar tartibiga amal qilgan holda joylashtirib, daftaringizga ko'chiring.

Kasalligim tufayli qishki sinov va imtihonlarni o'z vaqtida topshira olmadim. Toshkent yuridik kolleji direktori M. Mirhamidovga. I. Abdullayev. Shu sinov va imtihonlarni topshirishga ruxsat berishingizni so'rayman. Ariza. 2002.23.02. Arizamga kasal-

ligim to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma ilova qilindi. 2- bosqich talabasi Ilhom Abdullayevdan.

70- topshiriq. Litseyingiz direktoriga o'quv (akadem) ta'til berishni so'rab ariza yozing.

60- mashq. Quyidagi birikmalarni daftaringizga ko'chiring va eslab qoling. Ulardan foydalanib to'rtta gap tuzing.

Boshqa shaharga ko'chishimiz munosabati bilan, mehnat ta'tili berishingizni so'rayman, ilova qilindi, ilova qilingan hujjatlar asosida, kasalligi tufayli, moddiy qiyinchiliklar sababli, ozod etishingizni so'rayman, o'zim haqimda quyidagilarni ma'lum qilaman, ijozat berishingizni so'rayman, yoshlar nomidan so'raymiz, yordam berishingizni so'raymiz, deb hisoblashingizni so'rayman, haqida qaror chiqarishingizni so'rayman, aytilganlar asosida, kelmayotganligi sababli, moddalariga rioya qilgan holda, muddatini uzaytirishingizni so'rayman. da'vo talablarini tasdiqlash uchun, ushbu hujjatlarga muvofiq.

71- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini izohlang.

Men 2002- yil 14- oktabrdan 6- noyabrgacha onamning qattiq betobligi sababli darslarga qatnasha olmadim.

Qoldirgan 48 soat mashg'ulotni mustaqil ravishda o'zlashtiraman.

Ilova: onamning kasalligi to'g'risida tibbiy ma'lumotnoma.

61- mashq. Berilgan tushuntirish xatidagi nuqtalar o'rniga mos qo'shimcha va so'zlarni qo'yib, daftaringizga ko'chiring.

S. Rahimov nomli litsey direktori T. Qodirovga.

3- bosqich talabasi A. Xotamovdan.

TUSHUNTIRISH XATI

Shu yil 15- dekabr kuni men fizika o'quv xonasida kursdosh ... E. Umarov ... mashg'ulot o'tkazayotgan edik. Men shoshilib ombir... olmoqchi bo'lib, stol... turtinib ket... Stol nosozligi ... uning usti... shisha idish sindi. Biz nojo'ya harakat qilgan... yo'q, tasodif... shunday bo'ldi.

(imzo) A. Xotamov.
2002- yil 15- dekabr.



Tushuntirish xati xizmat (*o'qish*)ga aloqador masalani, uning biror jihatini yozma izohlovchi hujjatdir. Shaxsiy tushuntirish xatlari xodim (*talaba*) tomonidan muassasa (*o'quv yurti*) rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (*o'qish*) jarayonida xodim (*talaba*) tomonidan sodir etilgan ayrim o'rinsiz xatti-harakatlar tafsiloti, ularning sabablari bildiriladi va dalillar bilan izohlanadi. Odatda tushuntirish xati mansabdor shaxs (*rahbar*) talabi bilan yoziladi.

Bu hujjat xodim (*talaba*) haqida biror qarorga kelish, unga nisbatan ma'muriy jazo chorasi qo'llash yoki qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'taydi.

Tushuntirish xati xodim (*talaba*)ning o'z dastxati bilan yozilib, yozuvchi shaxs nomi qaratqich kelishigida (*masalan: N. Sobirovning tushuntirish xati*) rasmiylashtiriladi. Matn mazmuni aniq va ixcham tuziladi, sana va dalillar aniq ko'rsatiladi, yetariicha izohlanadi, qo'shimcha asoslov hujjatlari ilovada beriladi.

62- mashq. Quyidagi qoliplashgan birikmalarni daftaringizga ko'chirib oling va xotirangizda saqlab qoling. Bu birikmalardan foydalanib, o'quv amaliyotida qatnashmaganingiz sababi to'g'risida tushuntirish xati yozing.

Zaruriyat tufayli, betoblighi sababli, shifoxonada davolanayotganligi uchun, nosozligi tufayli, yomon tashkil etilganligi sababli, joriy etilganligi munosabati bilan, imkoniyati yo'qligi tufayli, vafot etganligi sababli, ob-havo noqulayligi uchun,

o'zgarganligi munosabati bilan, xabar berilmaganligi sababli, e'tiborsizlik tufayli, ruxsat berilmaganligi sababli.

72- topshiriq. Matni o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nosini izohlab, matn mazmuni nimaga qaratilganligini ayting.

Men, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mahmuda Valliyeva, litsey kutubxonasidan **ijtimoiy** yo'nalish bo'limining 2-bosqich talabalari o'rtasida **mushoira o'tkazish uchun 10** (o'n) ta «She'r san'atlari» kitobini oldim.

Mashg'ulot tugagach, olgan kitoblarni **topshiraman**.

63- mashq. Nuqtalar o'miga tegishli qo'shimchalami qo'ying. So'ngra bu gaplarni tilxatning zaruriy qismlari tartibida joylashtirib, matn yarating.

Alisher Navoiy tavalludi... 552 yilligi munosabati bilan o'tkazil... anjuman oldi... kollej kutubxonasi ... R. Yunusov. Navoiyning hayoti va ijodiy merosini yorituvchi burchak tashkil et... maqsadida 50 (*ellik*) ta kitob ol... (*ro'yxat ilova qil...*). Tilxat. Men, o'zbek tili o'qituvchisi Rustam Yunusov. 2002.04.02. Kitoblarni 2002- yil 10- fevralda qaytarib topshirish majburiyat... zimmam... olaman.

Toshkent qurilish kolleji direktori M. Asqarov... .

73- topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Tilxatdagi yozuvlarni nega o'chirish yoki tuzatish mumkin emas?

2. Tilxat notarial idoralarida tasdiqlanishi shart bo'lgan holatlarni izohlang.

3. Buyum yoki pul miqdori tilxatda qanday ko'rsatiladi?

4. Qaysi holatda tilxat matnida guvohlar ko'rsatiladi?

74- topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birlikmalari yordamida 4 (to'rt) ta gap tuzing, ularni mantiqiy bog'lanishda joylashtiring.

Ishonchnoma tuzmoq, pul jo'natmasini olmoq, xizmat safari, mart oyi uchun, nomimga kelgan, ishonch bildirmoq,

vakolat bermoq, kursdoshimga, menga tegishli, huquqini bermoq, imzo qo'yishga, shartnoma tuzishga, uyushma kassasidan, pasportga ega, betobligim tufayli, imzosini tasdiqlamoq, bir yillik muddatga berildi.



Ishonchnoma muayyan muassasa yoki ayrim shaxs nomidan ikkinchi bir shaxsga uning nomidan ish ko'rish uchun yozma ravishda ishonch bildirilgan vakolatli hujjat sanaladi.

Mazmuni va vakolat egasiga ko'ra xizmat ishonchnomasi va shaxsiy ishonchnomalar farqlanadi.

Xizmat ishonchnomalari davlat idoralari, jamoat tashkilotlari tomonidan mazkur idoraning mansabdor shaxsiga uning shu idora tomonidan ish yuritishga vakil etilganligini tasdiqlash uchun beriladi. Bunday ishonchnoma idora rahbari tomonidan imzolanadi va tasdiqlanadi, shuningdek, amal qilish muddati ko'rsatiladi.

Shaxsiy ishonchnomalar ayrim shaxslar tomonidan o'ziga tegishli pul yoki qimmatbaho narsalarni borib olish uchun ishongan kishisiga ishonch bildirib yozgan hujjatidir.

Bunday ishonchnoma vakolat beruvchining ish joyi (ishlamagan taqdirda mahalla qo'mitasi) tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

64- mashq. Matnda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni to'g'ri topib qo'ying va shaxsiy ishonchnoma namunasini daftaringizga ko'chiring.

ISHONCHNOMA

Men, Kamol Yo'ldoshev, guruhdosh... Abdulla Ahmedovga Yakkasaroy tumanidagi 64- aloqa bo'lim... men... nom... kelgan 50000 (*ellik ming*) so'm miqdoridagi pul jo'natma... ol... uchun ishonch bildir.....

(imzo) *K. Yo'ldoshev.*
2002- yil 5- may.

K. Yo'ldoshev imzo... tasdiq... Litsey kadr... bo'lim... boshlig'i

(muhr)

(imzo) A. Shukurov

75- topshiriq. Berilgan so'z birikmalari va gaplarni tartib bilan joylashtirib, xizmat ishonchnomasi namunasini tuzing va zarurly qismlari o'rni chizmada ko'rsating.

Yunusobod tumanidagi 42- son madaniy mollar do'konidan shartnoma bo'yicha, Chilonzor tumanidagi M.Ulug'bek nomidagi litseyning xo'jalik ishlari mudiri Hasan Boboyevga, litseyimizga ajratilgan 78550 (*yetmish sakkiz ming besh yuz ellik*) so'mlik o'quv qurollarini olishga ishonch bildiradi. Litseyning to'rtburchak muhri. Litsey direktori B. Qodirov.

Ishonchnoma, Ishonchnoma 2002- yil 10- iyungacha amal qiladi. 2002.10.05. Tartib raqami: 18-104. Dumaloq muhr. Imzo.

76- topshiriq. Matnni o'qing. Atoqli adib Oybekka berilgan tavsifni o'z so'zlaringiz bilan kengaytiring. Belgi ifodalovchi so'zlar ma'nosini izohlang.

Talant qanchalik katta, qanchalik qudratli bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash yerning qa'rida bo'ladi. Bu kon — talantni qazib olish uchun avvalo katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch, g'ayrat, bularning ustiga dard bo'lishi kerak.

Katta talant egasi Oybekda mana shu xislatlarning hammasi mavjud. Oybek mana shu xislatlari bilan xalqimizning ma'naviy xazinasiga katta boylik qo'shdi.

Yozuvchining umri yil bilan o'lchanmaydi, ijodiy faoliyatining samarasi bilan o'lchanadi. Oybek 400 yilga teng keladigan 40 yillik ijodiy faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o'tkazgani yo'q. Oybek bu jihatdan ham hozirgi va kelajak adabiy avlod qarshisida ustod bo'lib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor.



Tavsifiy matnlarda shaxs, narsa, voqea-hodisaning muhim belgilari aniq ma'lumotlar, sifatlovchi ifodalar

orqali bayon qilinadi. Tavsiflashda shaxs yoki narsa-voqeani xolisona baholash bilan birga unga munosabat bildirish ham muhim hisoblanadi.

Bunday matnlar tilida xarakter-xususiyatni ifodalovchi sifatlar, belgining ortiqlik darajasini ifodalovchi leksik-grammatik vositalar, yasama sifatlar faol ishlatiladi. Shuningdek, shaxs harakat-holatining belgisini ifodalovchi ravishlardan o'rinli foydalanish talab qilinadi.

Shunga ko'ra tavsifiy matn yaratish zaruriy til vositalarni to'g'ri tanlash va qo'llashni, sifat va ravish yasalishi me'yorlarini, bunday so'zlardagi belgi ifodasi-ning darajalanishini puxta bilishni taqozo etadi.

65- mashq. Insonga xos belgi-xususiyatni ifodalovchi so'zlarni ijobiy va salbiy munosabat bildirishga ko'ra ikki ustunga ajratib ko'chiring.

Halol, g'amxo'r, maqtanchoq, samimiy, sipo, yuvosh, qo'pol, mas'uliyatsiz, e'tiborli, mehribon, loqayd, jamoat ishlari sust, to'g'riso'z, beparvo, dangasa, talabchan, ko'ngilchan, shirinso'z, janjalkash, tashabbuskor, andishali, indamas, odamovi, kishilarga aralashmaydigan, obro'li, ginachi, sovuqqon, qobiliyatli, bilimi bo'sh, iqtidorli.

77- topshiriq. Yuqorida keltirilgan sifatlarning zid ma'no bildiruvchi muqobillarini lug'at yordamida toping va ular ishtirokida 4 (to'rt) ta gap tuzing.

78- topshiriq. Tavsifnoma matnini o'qing. Fe'l shakllarini topib, ma'no va vazifasini izohlang.

Akbar Rasulov o'rta maktabni a'lo baholar bilan tugatgach, 2001- yilda O'zbekiston Milliy universitetining huquqshunoslik fakultetiga hujjat topshirdi va test savollaridan yuqori ball to'plab o'qishga qabul qilindi.

O'qishga kirgan dastlabki kunlardan boshlab o'z qobiliyati bilan boshqa talabalardan ajralib turdi. Jamoat ishlarida faol qatnasha boshladi. Universitet «Zukkolar klubi» a'zosi sifatida tala-

balar o'rtasida bir qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazdi. U ingliz tilini yaxshi biladi, erkin gaplasha oladi. Bu tildagi ilmiy ma'ruzalari bilan chet mamlakatlarda o'tkazilgan ikkita anjumanda qatnashdi. «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining huquqiy asoslari» mavzusidagi ma'ruzasi Buyuk Britaniyaning Manchestr universiteti rahbariyati tomonidan munosib taqdirlandi.

U — yaxshi sportchi. Milliy kurash bo'yicha bir qancha musobaqalar sovrindori.

Akbar Rasulov o'z ustida tinmay ishlaydi, a'lochí va iqtidorli talaba sifatida universitet talabalari orasida yaxshi obro'ga ega.

U doimiy ravishda o'z malakasini, siyosiy-ma'naviy va huquqiy saviyasini oshirish ustida qat'iyat bilan ishlaydi.

A. Rasulov — kamtarin, to'g'riso'z, do'stlarga nisbatan g'amxo'r va mehribon.

Tavsifnoma «Umid» jamg'armasi tashkil etgan Buyuk Britaniya Manchestr universitetiga talabalikka yuborish uchun o'tkazilayotgan tanlov tashkiliy hay'atiga taqdim etildi.

79- topshiriq. a) xodim (*talaba*)ning ish (*o'qish*)ga munosabatini ifodalovchi quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'z misollaringiz bilan to'ldirib, daftaringizga ko'chiring.

Vijdonli, mehnatsevar, tashabbuskor, ishni o'z vaqtida bajaradigan, ongli, dunyoqarashi keng, siyosiy yetuk, o'zi va o'rtog'lariga talabchan, o'z ishini yaxshi biladigan, intizomli, hozirjavob, mas'uliyatli

b) ushbu so'z va qoliplashgan so'z birikmalaridan foydalanib, guruhdoshingiz (*o'qituvchingiz*)ning o'z ishiga munosabatini yorituvchi tavsifnoma matnini tayyorlang.

66- mashq. Zarur so'z va so'z birikmalarini qo'shib, gaplarni to'ldiring. Fe'l shakllarining qo'llanishiga e'tibor bering.

1. Men Ilhom Shokirov... 2001- yildan ... taniy... . 2. Shu litsey... ingliz tili guruhi... birga o'qiy... . 3. I. Shokirov inti-

gomli... , ... talaba... tanilgan. 4. Litseyimizning jamoat ishlari... faol qatnash... . 5. U sport ... muntazam ahug'ullana... , shu yilgi respublika festivalida stol tennisi... faxrli uchinchi o'rin... egal... . 6. U ingliz til.....biladi, erkin so'z... ola... . 7. Ingliz tilidagi ko'plab badiiy kitob ... mustaqil o'qiy... . 8. Shun... ko'ra, men Ilhom Shokirovni Mirzo Ulug'bek nom... stipendiyani olish ... tanlovda qatnashish... tavsiya eta....

80- topshiriq. O'qish va jamoat ishlarida ijobiy ishlari bilan o'zini ko'rsata olgan guruhdoshingizni biror mukofot bilan taqdirlanishi uchun tavsiyanoma yozing.



Rasmiy-idoraviy hujjatlarni tayyorlashda uning zaruriy qismlari joylashishiga, matn mazmuni tarkibiy qismlarining ketma-ketligiga, tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga alohida e'tibor berish lozim.

Shu maqsadda quyidagilarga doimo amal qilishni unut-mang:

— bosma harflarda yoziladigan hujjat nomida barcha harflar katta harflar bilan yozilishi kerak.

Masalan: Tavsiyanoma emas, TAVSIYANOMA kabi;

— hujjat yuboriladigan muassasaning nomi qisqartirilmasdan to'liq, bosh harflar bilan yozilish qoidalariga amal qilgan holda yoziladi;

— hujjat matnining asosiy qismlari xatboshi bilan yozilishi lozim. Qo'shimcha qismlar asosiy fikrga bog'langan tarzda undan so'ng beriladi;

— shaxsiy hujjatlarda izohlanayotgan «Men» so'zidan va izoh so'z birikmasidan so'ng vergul qo'yiladi.

Masalan: Men, Mahmud Qodirov, ...

— tavsifnomada tavsiflanayotgan shaxs haqidagi ma'lumotlar bir-biridan vergul bilan ajratib yoziladi.

Masalan: ...ning 2- bosqich talabasi, 1988-yilda tug'ilgan, o'zbek... kabi.

67- mashq. Gaplarni o'qing. Majhul nisbat va buyruq-istak mayli shaklidagi fe'llarni aniqlab, ikki ustunga ajratib dafta-

ringizga ko'ndirg va ulardagi qo'shimchalarning ma'no vazifasini iztalog.

1. Bosh muhandis Shaxal Azimov 2002- yilning 16- mayidan 23- mayigacha Farg'ona shahriga xizmat safariga yuborilsin. 2. II bosqich talabalarining o'zlashtirish darajasini tekshirish uchun quyidagilardan iborat komissiya tuzilsin. 3. Yulduzxon Ibrohimjon qizi 2002.2.16 dan xodimlar bo'limi boshlig'i lavozimiga qabul qilinsin. 4. Ilmiy bo'lim bosh mutaxassisi L. Azizov navbatdagi mehnat ta'limidan qaytib, 2002.12.04 dan o'z vazifasini bajarishga tashabbus deb hisoblansin. 5. Litsey jihozlari va boshqa buyumlarini o'z qamadan o'tkazishda quyidagi muddatlar belgilansin. 6. Huquqni nazorat qilish o'quv bo'limi mudiri N. Usmonov zimmasiga yuklatilsin. 7. Lobar Abduroziq qizi 2002.28.09 dan 5000 so'mlik maosh bilan Yunusobod tumani xalq ta'limi bo'limining bosh metodisti lavozimiga tayinlansin.

68- mashq. Berilgan so'z birlamalari asosida shunday gaplar tuzinki, ularning keni majhul nisbatdagi fe'llardan iborat bo'lsin.

O'z roziligi bilan, yetakchi mutaxassis lavozimiga, mehnat shartnomasidagi muddat tuzishi munosabati bilan, moliyaviy yo'qlama o'tkazish uchun O'zR MK 12- moddasining 2- bandiga ko'ra, shtat jadvali bo'yicha, malaka oshirish kursida bo'lishi davrida, mashg'ulotda qatnashmaganligi sababli, oylik maoshi 30000 so'm miqdorida, sinash muddati bilan, taftish o'tkazish uchun.



Muayyan muassa tashkilot oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni bajarish qilish maqsadida buyruq, farmoyish, ko'rsatma kabi farmoyish hujjatlari tayyorlanadi. Buyruq loyihasi bosh mutaxassislar, huquq maslahatchisi, bosh hisobchi bilan kelishilgan holda tuziladi.

Buyruq matni muassa blankasida yozilib, asoslovchi (kirish) va farmoyish qanlardan tashkil topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan ma'nod, shart-sharoit ko'rsatiladi, asos

qilingan buyruq (*hujjat*)ga havola qilinadi. Asoslashga ehtiyoj bo'lmagan hollarda to'g'ridan-to'g'ri buyruqning farmoyish qismi beriladi.

Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan «BUYURAMAN:» so'zini bosh harflar bilan ikki nuqta qo'yib yozishdan boshlanadi. Shundan so'ng farmoyish yoziladi. Agar farmoyish bir nechta bo'lsa, bandlarga ajratilib, arabcha raqamlar bilan belgilanadi.

Farmoyishlarda biror vazifani kim, qanday va qachon bajarishi majhul nisbatdagi fe'lning buyruq (III shaxs, birlik) shakli bilan ifodalanadi (*tayinlansin, belgilansin, o'tkazilsin, qabul qilinsin* kabi).

Farmoyish oxirida buyruqni nazorat qilish kimga yuklatilgani, ba'zan esa ilgarigi joriy yoki boshqa hujjat bekor qilinganligi qayd etiladi.

Ba'zan farmoyishdan so'ng buyruqqa asos bo'lgan hujjat nomi ham ko'rsatiladi.

81- topshiriq. Quyida berilgan namunaviy buyruq shakli asosida litseyingizda o'tkazilgan ko'rik-tanlov g'oliblarini taqdirlash to'g'risidagi buyruq loyihasini tayyorlang.



Hujjat matnini tuzishda quyidagilarga amal qiling:

— hujjat jo'natilayotgan (yozilayotgan) tashkilot nomini, mansabdor shaxs ismi, otasining ismi va familiyasini rasmiy nomlanishlariga to'la muvofiq holda yozish;

— hujjat matniga aniq sarlavha qo'yib, sarlavhani bosh harflar bilan yozish; masalan: *Xizmat safari haqida*;

— hujjat turiga muvofiq uning zaruriy qismlarini o'rniga muvofiq joylashtirish, tartibi, harflar hajmini to'g'ri belgilash;

— gap qurilishida so'zlar tartibiga qat'iy rioya qilish;

— matnda ko'chma ma'noli so'z va iboralarni, qochiriq yoki kinoyaga ishora qiluvchi birikmalarni, mavhum ma'noli so'zlarni qo'llamaslik;

— murakkab tuzilishdagi jumladan, ritorik va hishayajon mazmunidagi gaplardan foydalanmaslik;

— norasmiy va asoslanmagan ma'lumat yoki shaxsni kiritmaslik;

— muayyan andozaga solingan, qoliplangan, belgilanib, shu shakl va o'lchamda qabul qilingan birikmalarni qo'llash;

— qabul qilinmagan qisqartma va belgilarni qo'llash;

— so'zlar va gaplarda imlo me'yorlariga amal qilinish belgilarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yish, tuzatish va o'chirishlarga yo'l qo'ymaslik;

— matnning yozilish sanasini, imzolovchi shaxsning lavozimi va ismi-familiyasini aniq ko'rsatish. Masalan: 1990-yilning 18- oktabri, «hashar» shirkati raisi Said O'zbekov kabi.

Vazirlik nomi

Muassasa nomi

SARLAVHASI

00.00.0

joyi

№ _____

BUYRUQ

Asoslovchi (kirish) qismi

BUYURAMAN:

2. _____

3. _____

4. _____

5. Buyruq ijrosini nazorat qilish _____
zimmasiga yuklatilsin (lavozimi va familiyasi to'liq yoziladi)

Direktor:

(imzo)

I.O. Familiyasi

20. topshiriq. Gaplarni o'qing. Bir ma'noli so'zlarni va fikrning aniq-
ligini ifodalovchi so'z birikmalarini ajratib ko'chirib
oling.

1. Buyruqdan ko'chirma buyruqning farmoyish qismidan ol-
inib boshqaruv qismlarini qamrab oladi. 2. Pattada ma'lum kishiga
yozilgan buyruqning miqdordagi pul, mahsulot, urug' (don) yoki boshqa
mablag' berish lozimligi haqida ma'lumot aks ettirilgan. 3. Bir-
inchi buyruqning 2002- yil 3- martdagi 03—58 raqamli buyrug'ini ba-
rning yozilgan chora-tadbirlar belgilandi. 4. Turkiston o'lkasining
2001- yildagi asosiy qonunida o'zbek va rus tillari davlat tili deb
qabul qilugan. 5. Xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kir-
ishgan ishlar yuklatilsa, katta harflar bilan yoziladigan «tav-
ajiz» so'zidan «tavan» so'zi qo'llaniladi. 6. Boshqarmaning 2001- yil 18-
iyuldagi 152- raqamli buyrug'i bilan litseyga 4 (to'rt) ta komp-
yuter o'rnatildi. 7. Binoni isitish quvurlarini almashtirish ishlari
2002- yilning 28- oktabrigacha bajarilsin.

21. topshiriq. a) matnni o'qing. Matnda ifodalangan ma'lumotning
asosiy tuzilishini izohlang.

Matn to'qqiz yuz o'ttiz sakkizinchi yilning avji bahor payti
Oybek bundan sakkiz oy oldin Yozuvchilar uyushmasidan
qabul qilgan.

Matnning birinchi qismida Samarqandda hibsga olishdi. U bir necha yildan beri
Samarqandda yotibdi. Sanjar Siddiqni Qibraydagi dam olish uyi-
da, Qarhon Beregin bilan Anqaboyni yozuvchilarning IV
sessiyasida prezidiumidan ijobiy ahlining ko'zi oldida qo'llariga kishan
qo'yib ketishdi. O'sha plenumda Oybek bilan Hamid Olimjon
sessiyasidan o'chirildi. Shu joyning o'zida a'zolik hujjatlari tortib
olindi.

Furat, Cho'lpon, Qodiriy, G'ozii Yunus, Elbek, Usmon
sessiyasida fosh qiluvchi maqolalarning keti uzilmaydi. Ular
sessiyada hujjatlardan qamalganlaridan keyin ham qutulishmadi.

Oybek o'sha paytlarda bolalari bilan tor bir uyda yashardi.
Matnning birinchi qismida mutlaqo sharoit yo'q edi. Er-xotin o'ylab-
qarab, yashab turgan xonaning shifti bilan poli oralig'ida
sessiyasida qilishdi. Oybek unga narvonda chiqar, to sahargacha

muk tushib yozardi. Yozib charchagan paytlarda qaddini rostlasa boshi shiftga tegardi. Kunduzlari ba'zan Eski Jo'vadagi «Oktabr» kutubxonasiga borib yozardi.

Bu kutubxona ilgari «Turon» nomi bilan atalgan. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemirlar bu yerga tez-tez kelib turishgan.

Said Ahmad, «Yo'qotganlarim va topganlarim» dan.

b) matndagi fe'l shakllarini majhul nisbatda qo'llang va mazmunidagi farqlarni ayting.



Bir voqea yoki holat (*shaxsning yashash joyi, vazifasi yoki muassasa faoliyati*) haqida axborot beruvchi hujjat ma'lumotnomadir.

Mazmuni va xususiyatiga ko'ra xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnoma farqlanadi.

Xizmat ma'lumotnomalarida muassasa yoki xo'jalik faoliyatiga bog'liq bo'lgan holat va voqea-hodisalar to'g'risida rahbarga yoki yuqori tashkilotga xabar beriladi. Bunday ma'lumotlarga matn mazmunini ochuvchi sarlavha qo'yilishi lozim. Masalan: «*Litsey o'qituvchilarining soni haqida*» kabi. Sarlavhadan so'ng (*ba'zan uning tarkibida*) xabarga oid sana ko'rsatiladi. Masalan: «*2002- yil 1-oktabrdagi holatga ko'ra*» kabi.

Shaxsiy ma'lumotnomalar muassasa, idoralar tomonidan fuqarolarning oilaviy yoki ish faoliyatidagi holatlarni tasdiqlovchi hujjat sanaladi. Xizmat ma'lumotnomalaridan farqli ravishda shaxsiy ma'lumotnomalarda ular yo'llangan idora yoki shaxs nomi ko'rsatilmaydi. Buning o'rniga matn so'nggida ma'lumotnomaning qayerga berilganligi yoziladi. Masalan: «*Uy-joydan foydalanish boshqarmasiga taqdim etish uchun berildi*» kabi. Asosiy matnda shaxs haqida barcha ma'lumotlar aniq nisbatdagi hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli orqali ifodalanishi lozim (*Ishlaydi, yashaydi, o'qiydi* kabi).

83- topshiriq. Ma'lumotnoma matnini o'qing, ajratilgan so'zlarning ma'nolarini izohlang.

Litsey direktori
S. Sobirovga

Yotoqxonada yashovchi talabalardan tushgan shikoyatlar haqida

MA'LUMOTNOMA

2001—2002- o'quv yilining ikkinchi yarmida litseyning ikkita yotoqxonasida yashovchi 324 ta talabadan 56 ta ariza va **shikoyat** tushdi. Bulardan 34 tasi ariza va 12 tasi shikoyat **hisoblanadi**.

Arizalar moddiy ehtiyoj hisoblangan narsa va turli jihozlar berilishini **so'rab yozilgan bo'lib**, bu **ehtiyotlar o'z vaqtida qondirilgan**.

Shikoyatlardan 10 tasi **ko'rib chiqilgan**, 2 tasi ko'rish jarayonidadir. Shikoyatlar yotoqxonaga **Nizomi qonun-qoidalariga muvofiq tarzda ko'rib chiqilgan**.

«Kamolot» yoshlar harakati

Shu'ba raisi (imzo)

N. Mahkamov.

70- inashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing, fe'llarni hozirgi-kelasi zamon shaklida qo'llang.

Talaba hisoblanmoq, iqtisodchi, lavozimida ishlamoq, yashamoq, ijarada yashagan, tikuvchi, ushlanib qolmoq, taqdim etish uchun, muhandis, maktab ma'muriyatiga, asos, topshirish uchun, qabul qilinmoq, tibbiy ma'lumotnoma, dori-shunos, ko'rsatish uchun, oylik maoshi, ijtimoiy ta'minot bo'limiga.

84- topshiriq. So'z va so'z birikmalarini quyidagi savollarga javoblar tartibida joylashtiring:

Kim?	Qayerda?	Kim bo'lib?	Nima qiladi?
------	----------	-------------	--------------

Tuman soliq nazorati idorasida, ishlaydi, Aziz Ibrohimov, iqtisodchi, o'qiydi, Farg'ona akademik litseyida, ikkinchi bosqich talabasi, «Sharq tongi» tikuvchilik fabrikasida, bosh muhandis, tadbirkor, Yunusobod savdo markazida, lavozimida, hisoblanadi, dorishunos bo'lib, 18-sonli dorixonada, Buxoro shahar To'qimachilar tumanidagi.

73- mashq. Berilgan so'z birikmalari ishtirokida namunadagidek gaplar tuzing. Ko'makchili birikmalarni ma'nodoshlari bilan almashtirib daftaringizga ko'chiring.

Namuna: Ma'lumotnoma talab etilgan joyga taqdim etish uchun berildi.

Ko'rsatish uchun, oliy o'quv yurtiga, topshirish uchun, kasaba uyushmasiga, berildi, Qo'qon shahridagi 18- o'rta maktab, taqdim etish uchun, ma'muriyatga, uy-joylardan foydalanish bo'limiga, 316- bolalar bog'chasiga, harbiy komissariatga, tuman ta'minoti boshqarmasiga.

85- topshiriq. Yaqin qarindoshlaringizning ish joylari haqida o'z tumaningizdagi biror yuqori idora nomiga ma'lumotnomalar namunasini tayyorlang.

86- topshiriq. O'z guruhdoshlaringizdan uchtasining yashash joylari to'g'risida ma'lumotnoma matnlarini tuzing.

87- topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini izohlang. Matnning qanday maqsadda yozilganini aniqlang.

Yosh xonimizga va padari orusi shahanshoh Musulmonquli bahodir huzurlariga. Yosh shohimizning baxt va tolelari ruhsiz tanlarimizga qayta boshdan ruh, ma'yus ko'ngillarimizga qaytib chiqmaslik umid bag'ishladi. Faqir qullari, bundan to'rt kunlar ilgari Toshkentdan sipohlar bilan umidsiz qaytishga majbur bo'lib, ul to'g'rida huzurlariga xabar ham yuborgan edim. Shu holda biz sipohlar bilan Kirovchi yaqiniga yetgan ham edik, orqamizdan bir chopar yetib, Toshkentda Azizekka qarshi isyon boshlanganini, bizni ko'mak uchun Yusuf-

bek Hojining Toshkentga chaqirganligini soʻzlab, uning ismidan bir maktub berdi. Men darhol sipohlarni Toshkent qaytishga buyurdim-da, xabar olganning ikkinchi kuni Toshkentga yetdim. Biz Toshkentga kirganda Yusufbek Hoji boshliq olomon Azizbekni oʻrda ichiga qamab yotar ekanlar. Olomon, ayniqsa, Yusufbek Hoji bizni juda yaxshi qarshiladilar...

Men Yusufbek Hojining bunchalik katta xizmati evaziga xon hazratlaridan ulugʻ bir martaba olib berishga vaʼda bergan edim. U bunga qarshi uzr aytib, Toshkentga insofli bir bek belgilansa, menim uchun kifoya, dedi.

Uning xon janobidan kutgan bir marhamati bor ekan: shu yaqinda savdo bilan Margʻilonda yurgan yolgʻiz oʻgʻlini nomaʼlum bir sabab bilan Oʻtabboy qushbегining qamaganligini eshitibdir. Uning bu xizmatini biror mukofotga arzigulik koʻrsalar, oʻsha qamoqda boʻlgan oʻgʻlini ozod etmak uchun xon hazratlarining qilaturgʻon inoyatlari har bir narsadan ham unga azizroq bir mukofot boʻlur...

A. Qodiriy, «Oʻtkan kunlar» dan.



Bildirish (bildirishnoma) muayyan idora, uning rahbariga biror voqea-hodisa yoki xizmat faoliyatiga tegishli masalalar yuzasidan axborot berish maqsadida taqdim etiladigan hujjatdir.

Bildirishnomalarni tayyorlashda faqat biror voqea, holat toʻgʻrisida xabar berish bilan cheklanish yetarli emas, ularning sabablari tahlil qilinishi, xulosa chiqarilishi, takliflar berilishi ham lozim.

Shuning uchun bildirishnomalarda xulosa va takliflar aniq va ishonarli yozilishi talab qilinadi.

Bunday hujjatlar matni ikki qismdan iborat boʻlib, birinchisida, yozilishiga sabab boʻlgan voqea, dalillar berilsa, ikkinchisida, shunga oid xulosa va aniq takliflar bayon qilinadi. Agar bayon qilinayotgan maʼlumotlar aniq sana yoki vaqtga tegishli boʻlsa, bu sana yoki vaqt matn oldidan koʻrsatilishi lozim.

Masalan: 2002- yil 1- oktabrdagi holatga koʻra kabi.

72- **mas HQ.** Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'yib, so'z birikmalarini daftaringizga ko'chirib oling va cs- lab qoling.

Masalan... o'rgan... chiqdim, sizning ko'rsatma... binoan, o'z vaqti... bajarildi, ahvol... haqida, chora ko'rish... so'rayman. qiyinchilik... duch kelmoqda..., masala... ijobiy hal etilishi... so'raymiz, zarur deb hisoblay..., qonun oldida javob berish... so'ray..., yotoqxona... tekshir..., qayta ko'r... chiq... taqozo et- moqda, sharoit yo'q... sababli, berilgan vazifa... muddat... oldin bajardim.

88- **topshiriq.** a) bildirishnoma shaklini to'g'ri to'ldiring.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro akademik litseyi direktor o'rinbosari B. Muqimova		
Kutubxona o'quv xonasining Ta'mirlanishi haqida		
BILDIRISHNOMA		
Bildirishnoma matni (yozilish sabablari, xulosa, talab va takliflar).		
Ilova: (zarur bo'lsa).		
Kutubxona mudirasi	(imzo)	S. Usmonova. 2002. 24. 08

b) savollarga javob bering:

1. Bildirishnoma qanday varaqqaga (bosma blanka yoki oddiy qog'oz) yoziladi?
2. Qanday bildirishnomalarda matn sarlavhasi qo'yiladi?
3. Qaysi holatlarda bildirishnomaga ilovalar berilishi mumkin?
4. Bildirishnomaning zaruriy qismlarini aytning.

73- **mas HQ.** Mattni o'qing, unda nimalar haqida ma'lumot berilganligini izohlang, bildirishnomadan qanday farqlanishini tushuntiring.

Hammaga ma'lumki, mavjud «F» navi, ayniqsa, keyingi yillarda vilt kasalligi bilan juda qattiq zararlana boshladi. Bu kasallik 1948—1949- yillardayoq yoyilgan edi. Buning sababi: paxta maydonlariga asosan bir turdagi nav ekilib, viltning tez yoyilishi va aytish mumkinki, ommaviy tus olishiga qulay sharoit yaratib berildi. Ayniqsa, Andijon va Buxoro viloyatlari dalalarida 1960- yillarda kasallik keng tarqaldi... Olimlar bunga javaban viltga qarshi turli zaharli dorilarni ishlab chiqdilar. Bu dorilar paxta maydonlariga havodan, yerdan turib sepiyapti. Lekin baribir kutilgan natija chiqmayapti.

Barcha yangi navlarga «F» g'o'zasiga o'xshash faqat madaniy urug'largina asos bo'ldi. Bir qarashda bu to'g'ri ham, axir seleksioner o'simlikdagi foydali xususiyatni igna bilan quduq qaziganday misqolab, pardozlab, avloddan-avlodga o'tkazib boradi. Shu sababli ham yangi nav yaratishda, asosan, madaniy navlar poydevor bo'ladi. Akademik Muhiddin Jabborovichning ma'lumotlariga ko'ra, izboskandagi tajriba uchastkasida o'n bir yil mobaynida viltga qarshi 250 dan ortiq yangi nav sinab ko'rilgan; G'jduvon, Andijon, Qo'qon va Chimboy uchastkalarida esa 150 dan ortiq nav tekshirilgan. Bu navlarning ayrimlariga viltga biroz chidamli bo'lib chiqqan. Fikrimizcha, buning sababi: o'sha onalik va otalik sifatida ishlatilgan urug'larning faqat bir-ikkita madaniy nav doirasida cheklanganligidir. Ularning hammasida so'zsiz «F» navi ishtirok etgan. Natijada geografik va genetik jihatdan bir-biriga juda o'xshash navlar o'zaro chatishtirilganda olingan natija ham deyarli bir xil, ya'ni topilgan yangi nav viltga chidamsiz bo'lib chiqqan. Demak, «F» navida kasallikning tug'ilishi yoki yoyilishining oldini oladigan himoya kuchi susayib ketgan. Biz mana shu tajriba natijalaridan saboq olib hamda seleksiya nazariyasining boshqa muhim yo'llariga tayanib turib, o'zimizdagi madaniy navni yovvoyi mexicanum naviga chatishtirish yo'lini tanladik.

O': Usmonov, «Girdob» dan.

74- mashq. Quyidagi soʻz va qoliplashgan birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Pedagogik kengash qarori bilan, joriy yilda, yillik hisobot, xizmat safari, davomat va oʻzlashtirish, guruh yigʻilishida, ishlab chiqarish amaliyoti, rahbarlik qilmoq, hisobot davrida, ish rejasi, 2002- yilning ...dan ...gacha, qarorga muvofiq, malaku oshirish, topshiriq, tajriba orttirmoq, bajarilmay qolmoq, yetarli shart-sharoit boʻlmagani uchun, jamoat ishlarida, madaniy-maʼrifiy ishlar boʻyicha.



Hisobot xizmat faoliyati yuzasidan muayyan ish, vazifa yoki topshiriqlarning bajarilishi haqida maʼlumot beruvchi hujjat sanaladi.

Hisobot shakli va mazmuniga koʻra bildirishnomaga oʻxshash boʻlsa-da, bunda qanday ishlar rejalashtirilgani, ularning bajarilish darajasi, bu yoʻldagi kamchiliklar va ularni bartaraf etishga oid takliflar kengroq beriladi.

Ish yuritishda rejalashtirilgan ishlar, xizmat safari yakuni yuzasidan hisobotlar yozish keng tarqalgan. Hisobot matni 1- shaxs nomidan yoziladi va hisobot beruvchi tomonidan imzolanadi.

75- mashq. Hisobot matnidagi nuqtalar oʻrnini tegishli soʻz va qoʻshimchalar bilan toʻldirib, matnni daftaringizga koʻchiring.

Sizning topshiriq... Binoan 10—15- sentabr kunlari Buxoro shahrida xizmat safari... boʻldim. Bundan maqsad viloyat gazlashtirish idorasi... xoʻjalik... xususiy xonadonlarga gaz oʻtkaz..... ellik kilometr (diametr 30 mm) truba yetkazib berish... shartnoma tuzish edi.

Shartnoma tuzildi. Unga... trubalar shu yil... 20- noyabriga... xoʻjaligimizga keltiriladi.

Illova: 2002- yil 15- sentabrda tuzil... shartnoma nusxa...

89- topshiriq. Guruh rahbaringiz nomiga mutaxassisligingiz bo'yicha amaliyot natijalari to'g'risida hisobot yozing.

90- topshiriq. Quyidagi matnni o'qing, uning mazmuniy tuzilishi hisobot matnidan qanday farqlanishini izohlab bering.

Litsey direktorining buyrug'iga binoan kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Z.Davronov, bosh hisobchi O.Komilov, taftish komissiyasi a'zolari R.Rasulov, O.Yunusovlardan iborat komissiya tomonidan tuzildi.

Komissiya litsey kasaba uyushmasi hisobida turuvchi talabalar yotoqxonasidagi barcha sport anjomlarining ahvoli va sifatini o'rganib chiqdi va quyidagi sport anjomlarini ishlatish uchun yaroqsiz deb topdi:

1. Voleybol to'ri, 1 ta, bahosi 3000 so'm.

2. Voleybol to'pi, 2 ta (1 tasining narxi 1400 so'm), umumiy bahosi 2800 so'm.

3. Shohmot (taxtasi bilan), 2 ta (1 tasining narxi 1600 so'm), umumiy bahosi 3200 so'm.

4. Futbol to'pi, 1 ta, bahosi 2500 so'm.

Komissiya yuqorida ko'rsatilgan va umumiy bahosi 11500 (o'n bir ming besh yuz) so'm bo'lgan sport anjomlarini hisobdan chiqarish zarur deb hisoblaydi.



Dalolatnoma muassasa yoki alohida shaxslar faoliyatiga tegishli harakat-holat, voqea, vaziyatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida ikkitadan ortiq kishilar tomonidan tuziladi.

Mavjud holat, voqeani haqqoniy aks ettirish maqsadida dalolatnomalar bir necha shaxsdan iborat komissiya, ayrim hollarda maxsus vakolatli yakka shaxs tomonidan imzolanadi.

Dalolatnomalar, asosan, moliya-xo'jalik ishlarini hisobga olish, taftish o'tkazish, baxtsiz hodisalarni baholash, turli tekshiruvlar o'tkazilganda tuziladi.

Dalolatnoma matnining sarlavhasi «...**haqida**» shaklida yoki bosh kelishikda («...-**ish ahvoli**») yoziladi. Asosiy

matn esa kirish va tasdiq (qayd) qismlaridan iborat bo'lishi lozim.

Kirish qismida hujjat tuzilishiga asos bo'lgan holat ko'rsatiladi, komissiya tarkibi to'liq yoziladi.

Tasdiq qismida komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlar qayd etiladi, aniqlangan holatlar yuzasidan taklif va xulosalar beriladi. Matn so'ngida dalolatnomaning necha nusxada (odatda uch nusxa) tayyorlangani ko'rsatilishi lozim.

76- mashq. Quyidagi so'z birikmalaridagi nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'ying va daftaringizga ko'chirib oling:

Ish... Topshirish haqida, buyruq... Asosan, ish haqi... Ushla... Qolin..., javobgarlik... Tortilsin, uch nusxa... Tuz..., quyida... Aniqla..., komissiya a'zo... Tomoni..., yangi tayinla... Xodim, ishtirok... Tuzildi, taftish o'tkaz..., ish... Qabul qil... Oldim, hisob... Chiqar..., yo'qlama daftar... Tekshir..., narsalar ro'yxat... Hova qil..., yetishmas... Aniqlan..., hujjatlar.. Saqlan... Ahvoli. taftish qilin... Haqida, kassa... Topshir... Taklif et...di.

91- topshiriq. O'quv xonasidagi darslik, qo'llanma kabi adabiyotlar hamda o'qitishning texnik vositalari ahvolini tekshirish bo'yicha guruh tuzing va buning natijalarini yozgan dalolatnomangizda aks ettiring.



Hujjat tayyorlash va ish yuritishda imlo me'yorlariga va tinish belgilarining to'g'ri qo'yilishiga qat'iy amal qilish lozim.

Hujjat matnida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs, tire nisbatan faol ishlatiladi.

Unutmangki, hujjat nomi va matn sarlavhasidan keyin nuqta qo'yilmaydi.

Vergul hujjat matnida qoliplangan kirish birikmalaridan so'ng, uyushiq va ajratilgan bo'laklar orasida, izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida qo'llanadi. Masalan: «*Shuni hisobga olib, ...*», «*Men, 2- bosqich talabasi Umida Ibrohim qizi, ...*», kabi.

Nuqtali vergul izohlanayotgan voqea-hodisa, narsalarning tartib raqami qavs bilan ajratilgan soʻz, birikma va gaplardan soʻng qismlari mazmunan farqlanuvchi qoʻshma gaplar tarkibida ishlatiladi.

Masalan: *Talabaning majburiyatlari:*

- 1) oʻquv yurti Nizomiga amal qilish;
- 2) dars va boshqa oʻquv mashgʻulotlarida faol qatnashish va boshqalar.

Ikki nuqta hujjatlar matnida quyidagi holatlarda qoʻyiladi:

— matn tarkibida izohlanayotgan, sanalayotgan boʻlaklardan oldingi umumlashtiruvchi «**quyidagilar**», «**shu haqda**» kabi soʻzdan oldin;

— farmoyish hujjatlarida «*Buyuraman*» soʻzidan, *bayonnomaning «Kun tartibi», «Eshitildi», «Soʻzga chiqdilar», «Qaror qilindi»* kabi zaruriy qismlaridan soʻng;

— matnning «*Asos*», «*Ilova*» kabi qismlaridan keyin.

77- mashq. Kerakli oʻrinlarga tinish belgilarini qoʻying va qoʻyilish sababini tushuntiring.

1. Men Fargʻona viloyati Qoʻqon shahridagi Fargʻoniy koʻchasidagi 44- uyda yashovchi Tolibjon Qodirov ushbu vasiyatnoma orqali quyidagi topshiriqni beraman. 2. Asos boshqaruv raisining 2002- yil 18- oktabrdagi 152- raqamli buyrugʻi. 3. Tekshirishda quyidagilar aniqlandi.

1) barcha stol va stullar hisob maʼlumotlariga mos keladi;

2) uzunligi 4 metrlik 4 ta deraza pardasi yetishmaydi.

4. Ushbu vakolatni bajarish uchun unga mening nomimdan har qanday tashkilotga ariza bilan murojaat qilish zarur boʻlgan har qanday hujjatni olish imzo qoʻyish oldi-sotdi shartnomasini imzolash kabi huquqlarni beraman 5. Qaror qilindi 2- bosqich talabasi Ahror Raupov M.Ulugʻbek nomidagi stipendiyaga tavsifa qilinsin.

92- topshiriq. Biror hujjat matnini oʻqing, undagi tinish belgilarining qoʻyilish sabablarini izohlang.

93- topshiriq. Quyidagi soʻz va soʻz birlikmalari yordamida gaplar tuzing, tinish belgilarini toʻgʻri qoʻyishga harakat qiling:

Qabul qilib olingan narsalar, ilova, bir tomondan, eʼtiborga olib, oʻquv yurtini tugatgach, koʻchib kelganligi sababli, soʻzga chiqdilar, aʼzolari, quyidagilar aniqlandi, shu haqdakim, tomonlarning huquqiy manzillari, oʻquv yurtining majburiyatlari, va boshqa buyumlari bilan taʼminlash, quyidagilar haqida tuzildi, daʼvogar, javobgar.



Qavs hujjat matnining biror boʻlagiga qoʻshimcha izoh berish zarurati boʻlganda qoʻllanadi. Bunda izohlovchi soʻz, manzil nomi, mablagʻ yoki miqdoriy koʻrsatkichni ifodalovchi raqam qavs ichida berilishi lozim. Masalan: 8500 (sakkiz ming besh yuz) soʻmlik.

Tire quyidagi holatlarda qoʻyiladi:

— izohlanmish bilan izohlovchi oʻrtasida. Masalan: *Javobgar — marhumning tugʻilgan singlisi.*

— ajratilgan gap boʻlaklari oʻrtasida. Masalan: *Onasi-nikiga — Buxoro shahar, Yangiyer koʻchasidagi 50- uyda yashovchi Muyassar Qayumovnikiga koʻchib ketgan.*

78- mashq. Quyidagi gaplarda qoʻllangan qavs va tirening ishlatilish sabablarini tushuntiring. Gaplarni sinonimlari bilan almashtirib, daftaringizga koʻchiring.

1. Rais — jamiyat bosh hisobchisi Ozoda Sobirova, aʼzolari — rejalash boʻlimi iqtisodchisi Aziz Hayitov, hisobchi Dilorom Ravshanovlardan iborat komissiya 2002- yil 3- martda taftish oʻtkazdi. 2. Muhandis O. Yoʻldoshevni hisoblash texnikasi boʻyicha malaka oshirish maqsadida 2 oy muddatga (2003- yil 15- yanvardan 2003- yil 15- martgacha) tajriba oʻtashga qabul qilishingizni soʻraymiz. 3. Qabul qilib olingan narsalar: 1) korxonada ishlovchi 128 xodimning shaxsiy hujjatlari (roʻyxatga ilova qilindi); 2002—2003- yillar uchun 54 hujjat (roʻyxat ilova qilindi). 4. Dalolatnoma 2 nusxada tuzildi: 1- nusxa — jamiyatning kadrlar boʻyicha nazoratchisiga, 2- nusxa — hujjatlar yigʻma jildiga solib qoʻyish uchun. 5. Ham-

masi bo'lib 14850 (o'n to'rt ming sakkiz yuz ellik) dona kitob olingan.

94- topshiriq. Qavs va tirening badiiy nutqda ishlatilishiga oid misollar toping, bu tinish belgilarining rasmiy ish uslubida qo'llanish holatlari bilan taqqoslab, farqini izohlang.

79- mashq. Matnni o'qing, qoliplashgan birikmalarni ajrating va daftaringizga ko'chirib oling.

Lekin ilmiy kengash yig'ilishlaridan birida Aziz axborot berayotgan paytda unga dabdurustdan luqma tashladi:

— Azizjon, siz, biologiya tarixidagi ayrim tajribalarni ro'kach qila turib, madaniy navni to'satdan yovvoyi, erkaklagan g'o'zaga chatishtiryapsiz. Shu paytgacha hali paxtachilik tarixida bunday tajriba qo'llanmagan. Vaholanki, bundan natija chiqishiga qat'iyon ishonasizmi yoki tavakkal qilib ko'ryapsizmi?

O'tirganlarning bari yalt etib Azizga qaradi. U avval ham ayrim olimlardan bu savolni eshitgan va qo'ldan kelgancha javobini bergan edi-yu, biroq hozirgi vaziyatda, ko'pchilikning ichida, yana o'z domlasidan bu savolni eshinishi Azizni dovdiratib qo'ydi. Nazarida hamma narsa, hatto hayot-mamoti ham o'zining bir og'iz javobiga bog'liqdek tuyuldi va dadil turib:

— Natija chiqadi! — dedi. — Asoslab bering-chi!

— Bu murakkab masalani bir og'iz gap bilan asoslab berish qiyin, Muhiddin Jabborovich. Lekin shundayam harakat qilaman... Ko'ryapmizki, vilt tobora kuchayayapti. Ishlab chiqilayotgan ayrim yangi navlar esa joriy etilishi u yoqda tursin, hatto Davlat sinovidan ham olib tashlanyapti. Buning sababi, bizningcha: nuqul geografik va genetik jihatdan bir-biriga yaqin navlarning o'zaro chatishtirilishida.

Ilmiy kengashdagi bu noqulay vaziyatni o'rtadan ko'tarish uchun Rasul Olloyorovich Azizga muloyim boqqancha buyurdi:

—O'tiring.

Keyin «yana gapingiz bormi» deganday Muhiddin Jabborovichga tikildi. Muhiddin Jabborovich o'tirgan joyidan qo'zg'almay, so'zini davom ettirdi:

Vaholanki... Men Azizjonning mehnatchanligidan sevingandim. Ilm kishisi shunday bo'lmog'i kerak. Ammo g'ayratni ham bilib ishlatish kerak.

Shu yerda Aziz nimadir gapirmoqchi bo'lgan edi, Rasul Olloyorovich unga «to'xtang» deganday qo'l silkib, Muhiddin Jabborovichga yuzlandi:

— Bu gapni keyinroq hal qilsak...

O'. Usmonov, «Girdob»dan.



Yig'ilish va boshqa shu turdagi anjumanlarning borishini, unda qatnashchilar bildirgan fikr va qabul qilingan qarorlarni aniq, ixcham qayd etuvchi rasmiy hujjat **bayonnomadir**.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan bildirilgan barcha fikr-mulohazalar, tanqid va takliflar bayonnomada yoritilishi lozim. Bu axborotlarning aniqligi, to'liqligi uchun mas'ul hisoblangan majlis raisi va kotibi bayonnomaga oxiriga imzo qo'yadilar.

Bayonnomalar qisqa, to'liq, stenografik, fonografik shakllarda bo'ladi.

Qisqa bayonnomada yig'ilishning kun tartibi, ma'ruzachi va muzokaralarda qatnashuvchilarning ismi, familiyasi hamda qabul qilingan qarorlar ko'rsatiladi.

To'liq bayonnomada esa majlisda so'zga chiqqanlarning barcha fikr-mulohazalari to'liq berilishi lozim.

Bayonnomaga kirish va uch asosiy qismdan tuziladi.

Kirish qismida yig'ilish o'tkazilgan tashkilot nomi, bayonnomaga sanasi, tartib raqami, yig'ilish joyi, rais va kotibning ismi, familiyasi, qatnashuvchilar ro'yxati va soni (15 kishidan oshmasa, ismi va familiyasi, lavozimi, ish joyi ko'rsatiladi) keltiriladi.

So'ngra **KUN TARTIBI** bosh harflar bilan yozilib ikki nuqta qo'yiladi va ko'riladigan masalalar tartib raqami bilan beriladi.

Asosiy matndagi uch qism: **ESHITILDI, SO'ZGA CHIQQILAR, QAROR QILINDI** so'zlari ham katta

harflar bilan yozilgach, ikki nuqta qo'yiladi va yangi satrdan ma'ruzachining ismi-familiyasi yoziladi.

95- topshiriq. Berilgan bayonnoma namunasini o'qing, turini aniqlang va kun tartibini o'zgartirib, asosiy qismlarini yangilang.

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
QOSHIDAGI XORIJIY TILLAR AKADEMIK LITSEYINING
2- BOSQICH «A» GURUHI TALABALARI YIG'ILISHINING
3- BAYONNOMASI**

2003- yil 10.02. Toshkent shahri.

Rais — I. Hasanov.

Ko'riba — M. Muslimova.

Qatnashdilar: 24 talaba.

KUN TARTIBI

1. Qishki imtihon sessiyasiga tayyorgarlik va talabalar oldida turgan asosiy vazifalar. Guruh yetakchisi N.Yusupov axboroti.

2. Navro'z bayramiga tayyorgarlikning borishi to'g'risida S.Hakimov axboroti.

1. ESHITILDI: N.Yusupov qishki imtihon sessiyasiga tayyorgarlik va talabalar oldida turgan galdagi vazifalar to'g'risida axborot berdi.

SO'ZGA CHIQQILAR: A.Safarov, M.Ravshanov, T.Umarova.

QAROR QILINDI:

1) qishki imtihon sessiyasi haqidagi N.Yusupov axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin;

2) talabalarning galdagi vazifalari belgilab berilsin.

2. ESHITILDI: S.Hakimov Navro'z bayramiga tayyorgarlikning borishi to'g'risida axborot berdi.

SO'ZGA CHIQQILAR: U.Usmonov, O.Rasulova, K.Azizova.

QAROR QILINDI:

1) S.Hakimov Navro'z bayramiga tayyorgariikning borishi haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin; 2) Navro'z bayramiga tayyorgarlik kuchaytirilsin.

Rais (imzo) *I. Hasanov.*

Kotib (imzo) *M. Muslimova.*

80- mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nolarini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing:

Axborot bermoq, bayonnoma, so'zga chiqmoq, so'z olmoq, so'z bermoq, ovoz bermoq, muhokama qilmoq, tavsiya etmoq, tayinlamoq, tasdiqlamoq, muhokamaga chiqmoq, faol qatnashmoq, hay'at saylamoq, zimmasiga yuklamoq, topshirmoq, ta'sis etmoq, qaror qilmoq, ma'ruza qilmoq, fikr-mulohaza bildirmoq.

81- mashq. Nuqtalar o'rniga tegishli so'z va qo'shimchalarni qo'yib, bayonnoma matniga xos tartibda ko'chirib yozing.

Hay'at..., yig'ilish... Bayonnoma..., eshit..., ozod qil..., mas'uliyat..., o'z... olmoq, ogohlan..., ma'lumot uchun..., ahvoli..., axborot, zimma... yukla..., maqsad... muvofiq, bayonnoma... ko'chirma, kun... e'tiboran, belgila... qo'y..., uzrli sabab....., e'tiboran kuch... kirit..., tavsiya...

Savol va topshiriqlar:

1. Hujjatning qanday turlari mavjud?
2. Hujjat tuzishda nimalarga amal qilinadi?
3. Yozgan hujjatingizning zaruriy qismlarini aytib bering.
4. Barcha harflari bosh harflar bilan yoziladigan so'zlar qaysi hujjatlarda qo'llanadi?

ILOVALAR

1. Ariza shakli

Qayerga yoki kimga	
Ariza yozuvchining turar joyi, lavozimi, to'liq nomi	
ARIZA	
Ariza matni (mazmuni)	
Ilova	
imzo	I. o. va familiyasi
sana (yil, kun, oy)	

2. Tarjimai hol shakli

TARJIMAI HOL	
Men, (familiyasi, ismi, otasining ismi), (tug'ilgan sanasi, joyi) _____ oilasida tug'ildim.	
(Oila a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, ish (o'qish) joyi, lavozimi).	
(O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati uchun olgan mukofotlari).	
Bo'ydoqman (turmushga chiqmaganman, ___ta farzandim bor)	
Mening turar joyim: _____	
imzo	ismi, familiyasi
sana	

3. Tushuntirish xati shakli

kinga
tashkilot nomi, rahbarning lavozimi,
ismi, familiyasi+ga.

kimdan
tushuntirish xati yozuvchining lavozimi,
ismi familiyasi+dan

TUSHUNTIRISH XATI

Matn

O'qish (ish)ga kelganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlarning sababi izohlanadi.

Asoslovchi hujjat bo'lgan taqdirda ilova etilganligi bildiriladi.

Ilova: _____

(imzo)

ismi, familiyasi

sana

4. Tilxat shakli

TILXAT

Men, (tilxat beruvchining lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi), (biror narsa beruvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasi) -dan (olgan narsasining nomi, miqdori, zarur bo'lganda bahosi, texnik holati) oldim.

(imzo)

ismi, familiyasi

sana

5. Shaxsiy ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA

Men, (ishonch bildiruvchining to'liq nomi), (ishonchli shaxsning to'liq nomi)-ga (qavsda pasportining ma'lumotlari) (ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati ham) ... uchun ishonch bildiraman.

(imzo)

ismi, familiyasi

yozilgan sanasi

Iшонch bildiruvchining imzosi tasdiqlanganligi
to'g'risidagi qayd

Imzoni tasdiqlagan shaxsning lavozimi, imzosi,
ismi va familiyas

yumaloq muhr

sana

6. Rasmiy ishonchnoma shakli

ISHONCHNOMA

Tashkilot, idoraning to'rtburchak muhri, ishonchnoma raqami va berilgan vaqti

Matn

Iшонchnoma berilayotgan shaxs lavozimi, to'liq nomi, narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma berilishi sababi;

Iшонchnoma (sana) gacha amal qiladi.

Oluvchining shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjat nomi va belgilari

rahbar lavozimi

(imzo)

(ismi, familiyasi)

(muhr)

7. Ilova xat shakli

... raqamli shartnomani imzolash haqida

Sizga ___ da biz tomondan imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan _____ raqamli shartnomadan _____ nusxa

yoʻllayapmiz.

Ushbu shartnomani rasmiylashtirib, bir nusxasini bizga qaytarishingizni soʻraymiz.

Agar Siz qaytargan shartnomada shartnoma rekvizitlari toʻldirilmagan holda boʻlsa, ushbu shartnoma Sizning aybingiz bilan rasmiylashtirilmagan hisoblanadi.

___ da tuzilgan raqamli shartnomani imzolab va muhrlab Sizga qayta yoʻllayapmiz, shuningdek,

_____ ni ham
(hujjat nomi)

ilova qildik, ushbuni shartnomaning ajralmas qismi deb hisoblashingizni soʻraymiz.

(lavozim) (imzo) (ismi, otasining ismi bosh harflari, familiyasi)

8. Dalolatnoma shakli

*Vazirlik, yuqori idora,
muassasa nomi*

TASDIQLAYMAN
(TASDIQLANGAN)
(imzo) familiya

DALOLATNOMA

sana

*Sana.
Matn sarlavhasi
(«...haqida»),
tuzilgan joyi*

Asos: *(muassasa rahbarining (sanadagi) — raqamli buyrug‘i yoki yuqori idoraning... — raqamli qarori).*

Raisi *(shaxs lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi).*

A‘zolari: *1. (lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi).*

2. (lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi).

3. (lavozimi, ismi va otasining ismi bosh harflari, familiyasi-dan iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar lavozimi, ismi, familiyasi) ishtirokida tuzildi.

ILOVALAR

Komissiya raisi (imzo)

Komissiya a‘zolari (imzolar)

Ishtirok etganlar (imzolar)

MATN

*Ismi va otasining ismining
bosh harflari, familiyasi.*

*Ismi va otasining ismining
bosh harflari, familiyalar.*

*Ismi va otasining ismining
bosh harflari, familiyalar.*

9. Telefonogramma shakli

Kinga:

(yo'llovchi tashkilot)

Telefonogramma yetkazuvchi

Qabul qiluvchi

(lavozimi, ismi, familiyasi)

(lavozimi, ismi, familiyasi)

tel.

(qabul qilingan vaqti)

TELEFONOGRAMMA

sana _____

joyi _____

matni _____

_____ imzo.

10. Tavsifnoma shakli

Tavsiflanayotgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi, tugʻilgan yili, millati, maʼlumoti, lavozimi

TAVSIFNOMA

Matn

Tavsiflanayotgan shaxsning oʻqish (mehnat) faoliyati, oʻz ishiga munosabati, kasbiy mahorati, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy ahvoli, mukofotlari haqida maʼlumot beriladi va xulosa chiqarilib, tavsifnoma nima maqsadda berilayotgani koʻrsatiladi.

tashkilot rahbari

imzo

ismi, familiyasi

muhr

sana

11. Tavsiyanoma shakli

TAVSIYANOMA

Matn

Tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari: kasbiy malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyati baholanadi; tavsiya etilayotgan lavozim, aʼzolikka munosibligiga ishonch bildiriladi.

Tavsiyanoma beruvchining lavozimi,
toʻliq nomi

imzo

sana

12. Buyruq shakli. A

Gerb, muassasaning ramziy belgisi

Vazirlik nomi
Muassasa nomi

Muassasa xos raqami
Hujjat shaklining xos
raqami

BUYRUQ

Sana N° _____
joyi _____
sarlavhasi (nima haqidaligi) _____

Asoslovchi (kirish) qismi

BUYURAMAN:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. Buyruq ijrosini nazorat qilish.....ga yuklatilsin.

(lavozimi va familiyasi to'liq yoziladi)

Direktor

(imzo) i. o. familiyasi

Muassasaning ramziy belgisi

Muassasa nomi _____

Kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid

Sana № _____

Joyi _____

BUYRUQ

Sarlavha _____

Matn

Buyruq mazmuni (ba'zan oylik maoshi ham ko'rsatiladi). Shaxsning familiyasi va buyurish mazmunini ifodalovchi majhul nisbatdagi so'z bosh harflarda yoziladi.

Asos:

Direktor (imzo) i. o. familiyasi.

Imzolar:

Kadrlar bo'limi,

Bosh hisobchi.

13. Ichki ma'lumotnoma shakli

Jo'natiladigan idora yoki mansabdor shaxs nomi (ga)

MA'LUMOTNOMA

*Matn sarlavhasi
(...haqida)*

Matn

Vogea, holat yoki vaziyatning aniq ma'lumot va dalillar asosidagi bayoni o'tgan zamon fe'l shakllari orqali beriladi. Ma'lumotnomaga asos bo'lgan narsa-holat ko'rsatiladi.

Kotib(a) (imzo) ism, familiyasi

(Moliyaviy ma'lumotlarda bosh hisobchining imzosi va muhri qo'yiladi)

14. Shaxsiy ma'lumotnoma shakli

Muassasa va u bo'ysungan yuqori idora nomi, manzili

No _____

sana

MA'LUMOTNOMA

Ma'lumotnoma berilayotgan shaxsning to'liq nomi, unga oid holat bayoni ixcham beriladi.

Ma'lumotnomaning maqsadi satr boshidan ko'rsatiladi. Ma'lumotnoma (qayerga) -ga ko'rsatish (taqdim etish) uchun berildi.

(Mansab, lavozimi nomlari) (imzo) (ismi, familiyasi)

15. Hisobot shakli

Hisobot sarlavhasi (idora, xo'jalik yoki shaxsning qachon, qanday faoliyati)... haqida

HISOBOT

Matn

Ma'lum muddatga belgilangan ish, vazifaning qay darajada bajarilganligi haqidagi axborot bayoni

(lavozim nomi)

(imzo)

(ismi, familiyasi)

sana

16. Bildirishnoma shakli

(kimga, kimdan)

Xabar yo'llangan idora, rahbarning lavozimi va to'liq nomi+ga yo'llovchi shaxs lavozimi, to'liq nomi+dan

BILDIRISHNOMA

Matn sarlavhasi ...haqida

Matn

Topshirilgan vazifa va unga aloqador masalalar haqida axborot bayoni, ilovasi bo'lsa, ilova ro'yxati beriladi.

Bildirishnoma tayyorlagan shaxs(lar) lavozimi

(imzo)

ismi, familiyasi(lari)

sana

17. Telegramma shakli

TELEGRAMMA

(yo'lovchi tashkilot)

Kimga: _____

Matn

ismi

Manzil, familiyasi, sana

18. Bayonnoma shakli

Muassasa nomi, yig'ilish nomi va tartib raqami

BAYONNOMASI

Sana

Joyi

*Yig'ilish raisi va kotibining ismi,
famiyalari*

Qatnashuvchilar soni yoki ro'yxati

KUN TARTIBI

Ko'riladigan masalalar tartib raqami bilan beriladi.

1. ESHITILDI:

SO'ZGA CHIQQILAR:

1. _____
2. _____

QAROR QILINDI:

1. _____
2. _____

2. ESHITILDI: *(yuqoridagi tartihda davom ettiriladi)*

Yig'ilish raisi

(imzo)

ismi, familiyasi

Kotibi

(imzo)

ismi, familiyasi

19. Ro'yxatga olish daftarlari shakllari

A. Hujjatlar kirish qayd daftari shakli

Tartib raqami	Hujjat kelgan sana va raqami	Qayerdan kelgan (sana va raqami)	Qisqacha mazmuni	Kimga yuborildi yoki rezolyut-siyasi	Ijro haqida belgi
1	2	3	4	5	6

B. Hujjatlar chiqish qayd daftari shakli

Tartib raqami	Hujjatning chiqish sanasi va raqami	Hujjat kimga yo'llangan	Qisqacha mazmuni	Ijrochi haqida belgi
1	2	3	4	5

D. Ichki hujjatlar qayd daftari shakli

Tartib raqami	Hujjatning sanasi va raqami	Kim imzo chekdi	Qisqacha mazmuni	Ijrochi haqida belgi
1	2	3	4	5

20. Ro'yxatga olish nazorat varaqasi shakli

Old tomoni

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31									
Korrespondent																			
Hujjat kelib tushgan					Hujjat indeksi					Sana					Hujjatning indeksi				
<i>Qisqacha mazmuni</i>																			
<i>Munosabat belgisi yoki hujjat kimga yuborilgan</i>																			
<i>Hujjatning bajarilganligi to'g'risidagi belgi</i>																			
<i>Bichimi A5 (210×148)</i>																			

Orqa tomoni

Hujjatni olganlik to'g'risida imzo															Sana				
<i>Nazorat belgilari</i>																			
- son fond _____ - son ro'yxat - son yig'majild																			

Kirish.....	3
Til va nutq.....	5
Yozma nutq savodxonligi va nutq madaniyati asoslari.....	12
O'zbek adabiy tili me'yorlari.....	19
Nutqning uslubiy shakllari.....	40
Matn turlari va tarkibi.....	46
Hujjat turlari va ish yuritish asoslari.....	62
Ilovalar.....	111

**NIZOMIDDIN MAHMUDOV,
ABDUROZIQ RAFIYEV,
IBROHIM YO'LDOSHEV**

DAVLAT TILIDA ISH YURITISH

Akademik litseylar uchun darslik

UCHINCHI NASHRI

*Muharrirlar Komila Usmonova, Ra'no Azimova
Badiiy muharrir Shuhrat Odilov
Texnik muharrir Yelena Tolochko
Musahhih Mahmuda Usmonova*

Bosishga ruxsat etildi 08.09.2008. Bichimi 60×90^{1/16} Tayms TAD gamiturası.
Shartli b.t. 8,0. Nashr b.t. 9,2. Shartnoma № 39-2008. 48753 nusxada.
Buyurtma № 08-867.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

65.050.2

M 37

Mahmudov N.

Davlat tilida ish yuritish. Akademik litseylar uchun darslik./ N. Mahmudov, A. Rafiyev, I. Yo'ldoshev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 — 128 b.

I. Rafiyev A. II. Yo'ldoshev I.

BBK 65.050.2ya722

FALSAFA
ASOSLARI

87
F-22

87

F-22

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MELIORATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FALSAFA ASOSLARI

o'quv qo'llanma

JIZZAX DPI
INV № 133764
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti
Toshkent — 2018

UO'K: 1(075)

KBK 87

F 22

Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma / Q.Nazarov [va boshq.]. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. — 380 b.


UO'K: 1(075)

KBK 87

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017-yilda tasdiqlangan yangi dastur asosida tayyorlangan mazkur qo'llanmada falsafaning umumnazariy masalalari, uning mantiq, etika va estetikaga doir yo'nalishlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar, ushbu sohadagi qonunlar va kategoriyalar, asosiy tushunchalar va tamoyillar haqidagi bilimlar muxtasar tarzda bayon qilingan.

Ushbu kitobning 1–7-mavzulari Q. Nazarov, «Mantiq» — D. Fayzixo'jayeva, «Etika» va «Estetika» qismlari M. Nurmatova, A. Sher va N. Abdullayevalar, 8–9-mavzulari E. Qalqonov va B. Qandovlar tomonidan tayyorlangan. Uni nashrga tayyorlashda «Falsafa», «Falsafa asoslari», «Mantiq», «Etika», «Estetika» fanlari, falsafa tarixi va taraqqiyoti, mantiqshunoslik, axloqshunoslik hamda nafosatshunoslik kabi yo'nalishlarda chop etilgan kitob, qo'llanma va darsliklardan ijodiy foydalanildi.

Mazkur kitob ijtimoiy fan sohalari uchun mutaxassis tayyorlamaydigan oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan. U haqdagi taklif va mulohazalarni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz: Toshkent shahar, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Tel.: 239-88-61.



ISBN 978-9943-4788-8-6

© «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018.

MUQADDIMA

Muhtaram kitobxon!

Mana, siz «Falsafa» fanini o'rganishga kirishdingiz. «Bu qanday fan?», «U nimalar haqida bahs yuritadi?» degan savollar bilan ushbu kitobni ochdingiz. «Falsafani nima uchun o'rganish lozim?», «Undan olingan bilimlarni hayotda qo'llash mumkinmi?» kabi savollar ham xayolingizdan o'tgan bo'lishi mumkin.

Haqiqatan ham, falsafa qanday fan? Uning mazmun-mohiyati nimadan iborat? Bu fanni o'rganish insonga nima beradi? Keling, birgalikda ushbu savollarga javob topishga harakat qilaylik.

Avvalo, ta'kidlash joizki, insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to'plangan hikmatlar xazinasi, atoqli allomalar merosi, ularning asarlari, g'oya va ta'limotlari muhim o'rin tutadi. Har bir davrning buyuk donishmandlari o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta'limotlarida ifoda etganlar, jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalarni o'rtaga tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bunday g'oyalarning muayyan davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, har qanday zamonda ham insoniyat mavjud ekan, olam va odam qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, degan savollarga javob izlaydi. Umrning mazmuni nimadan iborat, avlodlar ortidan avlodlar kelib-ketaverishida qanday ma'no bor kabi masalalar ham barchani o'ylantiradi. Ehtimol, o'zingiz ham shu singari bir-biridan murakkab savollarga duch kelgansiz, ularga javob izlagandirsiz? Bu masalalar haqida kimlar bilandir fikr almashib, bahslashgingiz ham kelar? Falsafa ana shunday masalalar bilan shug'ullanadi. U nihoyatda qadimiy fan. Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyot masalalari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi.

Ayni paytda ko'pchiligimiz «Inson – Yaratganning mo'jizasi, olamning gultoji, tiriklikning eng buyuk qadriyatidir», degan fikrga o'rganib qolganmiz. Har bir kishiga umr bir marta ato etilishi, avlodlar ortidan avlodlar kelishining abadiyat qonuni ekanligi ham barchamizga ayon. Shunday ekan, hayotning ma'nosi va umrning mazmuni nimadan iborat? Sermazmun va baxtli ya-

shashning barchaga mos keladigan hammabop modeli, maxsus usullari bormi? Nima uchun ba'zi insonlarning hayoti, faoliyati boshqalarga namuna, ibrat bo'ladi-yu, boshqalardan tuzukroq iz, biror-bir yaxshilik ham qolmaydi? Falsafaning azaliy muammolari bo'lgan bu kabi savollarga javob topish uchun o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan ne-ne buyuk zotlar mutafakkirlar, allomalar o'tganlar.

Bunday masalalar yechimini topishda falsafiy tafakkur uslubining boshqa soha bilimlaridan farqi va samaradorligi ma'lum. Falsafiy bilimlardan bexabar, undan yiroq bo'lgan inson tevarakatrofdagi, jamiyatdagi, narsa-hodisalardagi, tabiatdagi o'zgarishlar, yangilanishlarning asosan, tashqi tomonini sezgi a'zolari vositasida idrok qiladi. Lekin, nima uchun bu hodisa sodir bo'ldi? Nima uchun aynan shunday holatda, aynan shu vaqtda va makonda ro'y berdi? Bu tasodifiy hodisami yoki zaruriymi? Voqealar rivoji qanday davom etadi? Kelajakda qanday o'zgarishlarga olib keladi? kabi savollar ustida bosh qotirmaydi. Ushbu savollarga javob berishga imkon yarata-digan falsafiy bilimlar esa odamni fikrlashga majbur qiladi, olam va yashash sirlarini anglashga yordam beradi.

Qolaversa, biz yashayotgan olam turli-tuman darajada yaralgan: jonsiz narsalar, o'simliklar va hayvonot dunyosi, kishilik jamiyati. Tashqaridan qaraganda bular har qaysisi o'z qonun-qoidalariga ega bo'lgan alohida bir sistemalaridir. Ammo ularni yaxlit bir tizim sifatida bog'lab turuvchi, o'zaro taqozo qiluvchi qandaydir bir bog'liqlik, sababiyat, qonuniyat mavjudmi? Narsa-hodisalarning ichki, tub mohiyatini bilish mumkinmi? Va bu bilimning xolis, obyektiv ekanligiga kim kafolat beradi? Shu va shu kabi savollarga javob berish uchun ham falsafiy bilimlar yordamga keladi, albatta. Falsafadan boshqa bilim sohalari yordamida bu savollarga javob berish biroz mushkul-lik tug'dirishi mumkin.

Alohida ta'kidlash joizki, juda ko'plab tabiatshunoslar, adabiyot, san'at va boshqa ijtimoiy sohalar vakillari, matematik, fizik, injener olimlar faoliyatida voqea-hodisalardagi o'zgarishlarning sababini, o'zaro aloqadorligini va ta'sirini ilg'ay olishdek yetuk falsafiy tafakkur va mushohada namoyon bo'ladi. Narsalarning tashqi tomoni, ko'rinishi emas, balki uning ichki tub mohiyatiga yetish, o'zgarishining sababini aniqlash hamda kelajagi to'g'risida fikrlar

bildirish falsafa mutaxassisi bo'lmagan ko'pchilik olimlarga ham xos fazilatlaridir.

Lekin shu narsa aniqki, falsafiy bilimlar insonni hayotda o'z o'rnini topishi, tom ma'noda o'z e'tiqodiga, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishida, maqsadiga erishishida beqiyos rol o'ynaydi. Albatta, faylasuflar olamni xilma-xil izohlaydilar, har bir kishining hayoti ham turlicha kechadi. Bu boradagi eng asosiy masala, umrni mazmunli o'tkazish, yaxshi nom qoldirish, el-yurt koriga yarab, odamlarga doimo kerak bo'lib yashash tuyg'usini o'ziga saodat deb bilishdir.

Shu bilan birga, hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan muammolarga falsafiy munosabatda bo'lib, ularning yechimini topishga harakat qilish umrni mazmunli o'tkazishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bu borada oddiy tilda yozilgan falsafiy qo'llanmalar, xalqchil kitoblar hali ham yetarli emas.

Odatda, mutaxassis bo'lmagan ba'zi kishilar falsafani eng qiyin va eng mavhum fan deb hisoblaydilar. Buning sababi nimada? Buning boisi shuki, falsafa ko'p yillar mobaynida oddiy va ravon tilda tushuntirilmas, aksincha, turli qonun va qoidalar, xilma-xil ta'limot va g'oyalar majmuyidan iborat murakkab bir fan sifatida talqin etilar edi. U yoki bu falsafiy qoida nega kerak, ularni o'rganishning qanday ahamiyati bor, muayyan faylasuf aynan biror-bir g'oya yoki ta'limotga ko'proq ahamiyat berganining sababi nimada, nima uchun uning qarashlarida aynan ana shu muammo ustuvor bo'ldi, degan masalalar ko'p hollarda nazardan chetda qolar edi. Falsafa tarixiy voqelik bilan bog'lab tushuntirilmas, falsafiy ta'limotlar o'z asoschilari hayotining uzviy qismi ekani yoddan chiqarilar edi.

Oqibatda nima bo'lar edi? Falsafa mutaxassisi bo'lmagan talabalarining nihoyatda oz qismigina bu fanning asl mohiyatini tushunib olardi, xolos. Aksariyat yoshlar esa, falsafa olamiga kirib bora olmasdan, go'yoki katta shahar boshlanadigan joyda qolib ketardi. Kun sayin chuqurlashib, fan sirlarini bor murakkabligicha tushuntirishda davom etayotgan o'qituvchi sanoqli talabalar bilan birga o'sha shaharga kirardi, ko'chalar, mahallalarni – falsafa dunyosini kezishda davom etardi. Lekin qolgan talabalar esa bu xazinadan behabra bo'lib, shaharga kirmasdan o'tadigan aylanma yo'ldan borishga majbur bo'lar va shu tariqa falsafaning mohiyatini durustroq tushunmay, diplom olardi hamda amaliyotga ketardi.

Bundaylar nazarida falsafa tushunarsiz, mavhum va ortiqcha fan bo'lib qoladi, faqat baho olish uchun yodlangan qonun va qoidalar tez orada unutiladi. Ularda falsafa qonunlarini hayotga tatbiq etib bo'lmaydi, bu — foydasiz bilim sohasi, binobarin uni o'rganishga ketgan vaqt bekorga o'tdi, degan alamli qarash shakllanib qoladi. Agar falsafadan bilim beruvchi o'qituvchining o'zi ham bu sohani bir mahallar chetlab o'tgan sobiq talabalardan biri bo'lsa, masala yanada chigallashadi.

Aslida, falsafaning asosiy vazifasi inson ongida ezgu intilishlar, yuksak ma'naviy qadriyatlarga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bunday dunyoqarash biron-bir g'oyani zo'rlab singdirish yoki quruq yod oldirish orqali emas, balki ishontirish, xilma-xil fikrlarni o'rtaga tashlash, muhokama qilish, zarur tushuncha, tamoyillarni aniqlash jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Ana shularni hisobga olgan holda, mazkur kitobda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

— falsafani jahon madaniyati va sivilizatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganish;

— falsafiy g'oyalar, muammolar, oqim va yo'nalishlarni tavsiflashda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning uyg'unligi tamoyiliga amal qilish;

— har bir mavzuni istiqlol va O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda tushuntirish.

Biz bu jarayonda biror-bir g'oya, oqim, yo'nalish yoki falsafiy ta'limotni mutlaqlashtirib, boshqalarining ahamiyatini kamsitish fikridan yiroqmiz. Aksincha, maqsadimiz ularning barchasini xolis talqin etish, talabalarda falsafa fani, xilma-xil falsafiy oqimlar, atoqli faylasuflar va ularning ta'limotlari haqida to'g'ri va xolisona tasavvurni shakllantirishdan iboratdir.

BIRINCHI BO'LIM. FALSAFA

1-mavzu. Falsafa fanining mazmun-mohiyati, mavzulari va jamiyatdagi o'rni

«Falsafa» atamasining kelib chiqishi va ushbu fanning mazmun-mohiyati. «Falsafa» tushunchasining asoslari bayon qilingan aksariyat darsliklarda ushbu atama qadimgi yunon tilidagi «filosofiya» so'zidan olingani va u «donishmandlikni sevish» («filo» — sevaman, «sofiya» — donolik) degan ma'noni anglatishi ta'kidlanadi.

Shu ma'noda, falsafa barcha fanlar rivojlanishiga asos bo'ladigan va ulardan oziqlanadigan, ayni paytda ularning rivojlanish yo'llarini belgilab beradigan umuminsoniy va universal ilm sohasidir. U qadim zamonlardayoq «barcha ilmlarning otasi» deb ta'riflangan. Uning hayotiyliги xalq tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'liq mos ekani, jamiyat manfaatlarini va ezgu intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq.

«Falsafa» atamasi «filosofiya» so'zining Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Sharqning atoqli faylasufi, mashhur mutafakkir Abu Nasr Forobiy filosofiya so'zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan.

Hayot qonuniyatlarini yaxshi biladigan, umrning o'tkinchi ekani, abadiyat insonga emas, olamga xosligini yaxshi anglab yetgan, o'zi va o'zgalar qadrini to'g'ri tushunadigan kishi hech qachon «Men — donishmandman» deya ochiq e'tirof etmaydi. Ayniqsa, Sharq xalqlari hayotida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi. Ammo, Forobiy ta'kidlaganidek, hikmatni qadrlash, olam va odam hamda hayotning qadriga yetish — boshqa gap. Shu ma'noda, bizda qadim zamonlarda faylasuf deganda, ko'pdan-ko'p ilm sohalarini egallagan, ustoz va muallim sifatida shuhrat qozongan alloma va mutafakkir kishilar tushunilgan.

«Filosofiya» atamasini dastlab, matematika fani orqali barchamizga yaxshi ma'lum bo'lgan, alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa, u yunon faylasufi Aflotun asarlari orqali kirib kelgan. Asrlar davomida filosofiyaga nisbatan xilma-xil qarashlar shakllangan, uning jamiyat, inson va fanlar tizimidagi o'rniga nisbatan turlicha munosabat va yondashuvlar dunyoga kelgan, bu atamaning mohiyat-mazmuni ham o'zgarib borgan. Shu tariqa, u avvalo, qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga, to'g'rirog'i, «fanlarning otasi», ya'ni asosiy fanga aylangan.

Qadimgi Yunonistonda fanlarning barchasini, ular qanday ilmiy masalalar bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, filosofiya deb ataganlar. U ham ijtimoiy borliq, ham tabiat to'g'risidagi ilm hisoblanar edi. Shu ma'noda, dastlabki filosofiya olam va unda insonning tutgan o'rne haqidagi qarashlar tizimi bo'lib, dunyoni ilmiy bilish zaruratidan vujudga kelgan edi. Uning eng asosiy qadriyati erkinlik tushunchasi ekanini, ana shu erkin hayot to'g'risidagi qarashlar buyuk madaniy yuksalishga asos bo'lganini aksariyat olimlar alohida ta'kidlaydilar.

Ushbu fanning shakllanishini faqatgina qadimgi Yunoniston va Rim bilan bog'lash ham bu borada yetarli tasavvur bermaydi. Chunki ushbu hududning dastlabki faylasufi Fales ko'p yillar Osiyoda bilim olib qaytganidan so'ng falsafiy fikrlarni alohida ilm sohasi sifatida talqin eta boshlagani ma'lum. Alloma Beruniyning «Hindiston» asarida hindlarning dastlabki qarashlari qadimgi yunonlarniki bilan o'xshash edi, degan fikri ham bejiz aytilmagan, albatta. Bu o'z navbatida, falsafiy dunyoqarashning qadimgi shakllari barcha xalqlar tarixiga tegishli umumiy hodisa ekanini isbotlaydi.

Aslida esa, Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII–III asrlarda ushbu fan endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi, olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylangan edi. Ushbu fan dastlab saroy ilmi sifatida shakllangan va asosan mulozimlarning tafakkur tarzini ifodalagan. Bu fan bilan ko'proq aslzodalar shug'ullangan, uning asosan ular uchun tushunarli bo'lgan muayyan tushunchalari va atamalari, o'ziga xos fikrlash uslublari va bayon qilish tili ham shakllangan.

Falsafiy bilimlar rivoji uzluksiz jarayon bo'lib, u insoniyatning tafakkur bobida ilgari erishgan yutuqlarni tanqidiy baholashni taqozo etadi. Biroq bu — ularni tamoman rad etish, ko'r-ko'rona tanqid qilish lozim degani emas, balki ularga xos barcha xato va kamchiliklarni anglab, yaxshi va ijobiy jihatlaridan foydalanish demakdir. Ana shunday tanqidiy yondashuv va vorislik falsafaning muhim xususiyatlaridan biridir.

Bu fanning oldiga qo'yilgan vazifalarga va uning hayotdagi o'rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib borgan. Bu munosabatlar dastlabki fanlar paydo bo'lib va ularning ba'zilari falsafadan ajralib, alohida mustaqil fan sohasiga aylana boshlagan davrlardayoq shakllana boshlagan.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masala hamma davrlarda ham dolzarb bo'lgan. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida falsafaning asl mohiyatini bilish, uning usul va g'oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq rivojlanmagan. Taraqqiyot ortidan inqirozlar, yutuqlar ketidan mag'lubiyatlar, farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar ta'qib etgan. Muayyan jamiyat iqtisodiy-siyosiy, axloqiy-diniy, badiiy-estetik taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg'or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezadi.

Shuning uchun ham buyuk falsafiy ta'limotlarni, bir tomondan, madaniy-intellektual rivojlanish samarasi, ikkinchi tomondan, tub ijtimoiy o'zgarishlar taqozosi deyish mumkin. Muayyan tarixiy burilish davrida «Falsafa nima o'zi?» degan masala dolzarb ahamiyat kasb etishi ham shundan. Ana shunday davrlarda kishilar falsafaning mohiyati, uning maqsad va vazifalarini yangicha idrok etganlar.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buyon o'tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ko'p bo'lgan. Lekin zamonlar o'tishi bilan odamzod baribir falsafaga

ehtiyoj sezgan va u insonning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Bu jihatdan quyidagi rivoyat juda ibratlidir. Miloddan oldingi birinchi asrda yashab o'tgan buyuk faylasuf Lukretsiyning shogirdlaridan biri unga qarab: «Ustoz, fanning boshqa sohalariga oid ilmlar juda ko'payib ketdi. Endi falsafani o'rganishning hojati bormikan?» – debdi. Shunda ulug' faylasuf bamaylixtir gap boshlab: «Falsafani Suqrot, Aflotun, Arastu kabi buyuk allomalar yaratgan. Lekin endilikda insoniyatning ana shunday buyuk mutafakkirlari yaratgan bu fanni o'rganmaslik har qaysi nodonning ham qo'lidan keladigan ish bo'lib qoldi», – degan ekan.

Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Bu sohaga oid fanlar ushbu yo'nalishdagi jarayonlarning ba'zi xususiyat va jihatlarini chuqurroq tadqiq etishga harakat qiladi. Bino-barin, biolog har qanday rivojlanish jarayoni bilan emas, balki faqat jonli tanadagi rivojlanish jarayoni bilan qiziqadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo'yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi. Ya'ni, shu tariqa muayyan mavzu oddiy ilm sohasidagi yo'nalishdan falsafiy muammo tusini oladi.

Endi Faylasuf kim, degan savolga javob beraylik. «Filosof» so'zini ham yuqorida aytganimizdek, ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo'llagan. Bu tushunchaning ma'nosini u Olimpiya o'yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya'ni o'zi va o'zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh – savdo-sotiq qilish, boyligini ko'paytirish uchun, uchinchi esa, o'yindan ma'naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi. Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko'ra, faylasuflar edi.

Bu, bir qarashda, oddiy va jo'n misolga o'xshaydi. Ammo uning ma'nosi nihoyatda teran. Chunki, inson umri ham shunday. «Dunyo teatrga o'xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga

chiqadi va o'z rolini o'ynab dunyoni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari to'g'risida bosh ham qotirmasdan kelib ketadi, umrini yeyish-ichish, uy-ro'zqor tashvishlari bilan o'tkazadi. Boshqasi — nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qo'yadi. Uchinchisi esa, olam hikmatlarini o'rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo'larli hayot kechiradi.

Qadimgi davrlarda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, inson ma'naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlarga falsafa bilan shug'ullanganlar. Aslida, o'sha davrlarda falsafani o'rganish deyilganda, ilmning asoslarini egallash ko'zda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520—460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Do'stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o'tkazmay desang, falsafani o'rgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan.

Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470—399-yillarda yashagan) bu haqiqatni quyidagicha ifoda etgan: «O'z-o'zingni yerga urish, tubanlashish nodonlikdan boshqa narsa emas, o'zligingdan yuqori turish esa — faylasuflikdir».

Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfutsiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, imom Buxoriy va imom Termiziy, Beruniy va ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o'z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlashtirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirish orqali faylasuf darajasiga ko'tarilganlar.

Umuman olganda, bilimdon kishilarning barchasini ham donishmand yoki mutafakkir deb bo'lmaydi. Haqiqiy faylasuflar hayotda nihoyatda kam bo'ladi. Ular o'z davri va millatining farzandi sifatida insoniyat tarixiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xudoning o'zi aql-zakovat, iste'dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin talakkurga ega bo'lgan bunday buyuk shaxslar umumbashariy taraqqiyot miqyosida tanilgan, teran insoni / g'oyalar, ma'naviy boyliklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo'lgan.

Kezi kelganda shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi davrda bizda falsafa ixtisosligi bo'yicha ma'lumot olgan mutaxassisni faylasuf deyish odat tusiga kirib qoldi. Aslida, faylasuf so'zi ana shu tarzda ishlatilganida ushbu sohaning zamonaviy mutaxassisi, uning asoslarini egallagan, mazkur yo'nalishda tadqiqot olib boradigan yoki ilmiy darajaga ega bo'lgan kishilar tushuniladi, xolos.

Falsafaning umumbashariy fan ekani, uning bahs mavzulari va asosiy muammolarini belgilab beradi. Shu ma'noda odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari falsafa uchun azaliy muammolardir. Shu bilan birga, muayyan davrda tug'iladigan va hal etiladigan o'tkinchi muammolar ham bo'ladi. Ular abadiy muammolar darajasiga ko'tarilmasa-da, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun, muhim ahamiyat kasb etadi.

Falsafa yangi g'oyalarning tug'ilishiga imkon beradi. Hayot, ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. U tarixiy davr bilan mustahkam aloqadorlikda taraqqiy etadi. Har bir tarixiy davr, uning oldiga yangi masala va muammolarni qo'yadi. Falsafiy muammolar bevosita hayot zaruratidan tug'iladi. Aynan ular orqali falsafada davrning taraqqiyot tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. Masalan, hozirgi zamonda yurtimiz falsafasi uchun istiqloq davriga xos qonuniyatlar va xususiyatlarning falsafiy asoslarini izohlash zarurati shu bilan belgilanadi.

Falsafiy ta'limotlarda jamiyat hayotining barcha sohaları tarixiy jarayonga xos tamoyillar, ijtimoiy guruhlarining manfaat va kayfiyatlari, tafakkur usullari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy kuch, sinf, guruh, partiya va oqimlar o'z maqsad-muddaolari va g'oyalarini ilmiy asoslashda falsafadan foydalanadi. Falsafadagi ustuvor qarash va qoidalar davr mahsuli bo'lgani uchun, zamonning taraqqiyot tamoyillari va muammolari unda o'z ifodasini topadi.

«Dunyoqarash» tushunchasi, uning shakllari. Falsafiy dunyoqarashning yo'nalishlari va vazifalari. Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu tasavvurlar, tushuncha-

lar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi. Shu ma'noda, dunyoqarash — insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to'g'risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o'zining undagi o'rni haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir. Dunyoqarash — olamni eng umumiy tarzda tasavvur qilish, idrok etish va bilishdir.

Dunyoqarashning bir kishiga yoki alohida shaxsga xos shakli individual dunyoqarash deyiladi. Guruh, partiya, millat yoki butun jamiyatga xos dunyoqarashlar majmuasi esa, ijtimoiy dunyoqarash deb yuritiladi. Ijtimoiy dunyoqarash individual dunyoqarashlar yig'indisidan dunyoga keladi, deyish mumkin. Bunda ijtimoiy dunyoqarashning umumiy va xususiy shakllarini hisobga olish lozim.

Kundalik hayotiy tajribalar asosida jamiyatda, odamlarda oddiy, o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) mohiyatga ega bo'lgan qarashlar, tushunchalar, g'oyalar shakllanadi. Bu — dunyoqarashning o'z-o'zicha rivojlanuvchi (stixiyali) shakli hisoblanadi. Uni ko'pincha hayotiy falsafa, deb ham ataydilar.

Hayotiy falsafaning doirasi juda keng bo'lib, ongning sodda namoyon bo'lish shakllarini ham, oqilona va sog'lom fikrlarni ham o'z ichiga oladi. Hayotiy falsafa yoki oddiy amaliy dunyoqarashning o'ziga xos turini inson faoliyatining turli sohalari-dagi bilim va tajribalar ta'sirida shakllanayotgan qarashlar tashkil etadi. «Har kimning o'z falsafasi bor» deyilganida ana shu hol anglaniladi. Demak, dunyoqarash o'zining kundalik om-maviy shakllarida chuqur va yetarli darajada asoslanmagan stixiyali xarakterga ega. Shuning uchun ham ko'p hollarda kundalik tafakkur muhim masalalarni to'g'ri tushuntirish va baholashga o'qizlik qiladi. Buning uchun olamni ilmiy tahlil qilish va bilish zarur.

Dunyoqarashning tarixiylik tamoyili. Dunyoqarash muayyan davrda shakllanadi. Shu ma'noda, har qanday dunyoqarash ij-timoiy-tarixiy mohiyatga ega bo'lib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Har bir davrda ijtimoiy guruh, jamiyat va avlodning o'z

dunyoqarashi mavjudligi ham bu tushunchaning tarixiy mohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Dunyoqarashning tarixiyligi yana shundaki, u ma'lum bir jarayonda takomillashib boradi. Uning shakllari o'zgaradi, tarixiy ko'rinishlari muttasil yangilanib turadi.

Ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida dunyoqarash nihoyatda oddiy bo'lgan. Agar shunday bo'lmaganida, har qanday jism o'z hajmiga teng suyuqlik miqdorini siqib chiqarish xossasiga ega ekanini kashf etgan qadimgi zamonning buyuk olimi Arximed hammomdan yalang'och holda chiqib, «Eвриka!», ya'ni «Topdim!», deya qichqirmagan bo'lar edi.

Dunyoqarash jamiyat rivojiga mos ravishda asta-sekin takomillashib borgan. Taraqqiyotning keyingi davrlarida fan sohasida qilingan kashfiyotlar inson dunyoqarashi naqadar chuqurlashib, uning bilimlar doirasi kengayib ketganini ko'rsatadi. Bunda vorislik an'anasi yaqqol ko'zga tashlanadi: har bir davrning dunyoqarashi, g'oyasi o'tmishda yaratilgan ma'naviy qadriyatlarning eng yaxshilarini, ilg'or va ijobiylarini o'zida saqlab qoladi. Shu asosda yangi tamoyillarga ega bo'lgan dunyoqarash ham takomillashib boradi. Oddiy bug' mashinasidan kosmik raketalarigacha bo'lgan fan-texnika taraqqiyoti bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Falsafiy dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi hamda rivojlanadi. Inson ongli ijtimoiy mavjudot bo'lgani bois, uning dunyoqarashi muayyan ehtiyoj va manfaatlarga asoslanadi. Demak, har qanday dunyoqarash muayyan inson, ijtimoiy guruh yoki tabaqaning o'z ehtiyoj, manfaatlaridan kelib chiqqan holda borliqqa munosabatini ifodalovchi g'oyalar, nazariyalar, bilimlar majmuasi, ruhiy holat va e'tiqod mujassami hamda ularning namoyon bo'lishidir.

Falsafiy dunyoqarash, mohiyat-mazmuniga ko'ra, ma'naviy faoliyat bo'lgani bois, u borliqqa bo'lgan ongli, insoniy munosabatning muayyan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari — axloqiy dunyoqarashlarida, huquqiy munosabatlari — huquqiy, siyosiy munosabatlari — siyosiy, diniy munosabatlari — diniy, ekologik munosabatlari — ekologik

dunyoqarash shakllarida o'z ifodasini topgan. Buni tizim tarzida izohlaydigan bo'lsak, quyidagicha ko'rinish kasb etadi:

1. Axloqiy.
2. Diniy.
3. Huquqiy.
4. Siyosiy.
5. Ekologik.
6. Estetik.

Bu tizimni tashkil qilgan nisbatan mustaqil dunyoqarash shakllari o'zaro bog'liqlikda, aloqadorlikda harakat qiladi.

Dunyoqarash tizimining rivojlanish darajasi jamiyat taraqqiyotiga mos keladi va uni ifodalab turadi. Bundan tashqari, har bir tarixiy davrda millatning rivojlanishi, uning mentaliteti va dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, dunyoqarash tizimi va ularning xususiyatlari muayyan inson, ijtimoiy guruh, tabaqa va butun millatning ma'naviy qiyofasini belgilab beradi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'u va tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Chunki, dunyoqarash aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo'lagiga aylanadi.

Falsafiy dunyoqarashning tarixiy shakllari insoniyat taraqqiyotining qonuniy natijasi bo'lib, jamiyat rivojlanishining ma'naviy mezon sifatida namoyon bo'lgan. Taraqqiyotning dastlabki bosqichlarida kishilarning tabiatga, o'zlarining ijtimoiy hayotiga bo'lgan munosabati turli rivoyat va afsonalarda o'z ifodasini topgan. Ular shu tariqa mifologik dunyoqarashni shakllantirgan. Yovuzlik va ezgulik o'rtasidagi kurashda yaxshilikning mudom tantana qilishi mifologik dunyoqarashning gumanistik mazmundan dalolat beradi. Xususan, o'zbek xalqi sivilizatsiyasi janrionida yaratilgan rivoyat, afsona va boshqa janrlardagi og'zaki ijod namunalari millatimiz tarixda qanday ma'naviy qiyofaga ega bo'lganini hanuz ko'rsatib turadi. Ular bugungi kunda jahon ahlini hayratga solmoqda.

Mifologik dunyoqarash qadimgi zamon kishilarining o'zlariga munosib hayot sharoitlarini yaratish ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ezgulik va haqiqat uchun kurash g'oyalarining ifodasi bo'lgan afsona va rivoyatlarda millatning muayyan ruhiy holati, kelajakka ishonchi, vatanga muhabbati, insoniy kamolotga intilishi badiiy vositalar, afsonaviy qahramonlar timsolida ifoda etilgan.

Muayyan dunyoqarash tarkibida diniy-ilohiy qarashlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular insonning ilohga bo'lgan e'tiqodi bilan bog'liq bo'lib, vujudga kelishiga ko'ra, boshqa dunyoqarash shakllari kabi, muayyan asoslarga ega. Jamiyat hayotida har qanday, shu jumladan, diniy dunyoqarashning o'rni va ahamiyatini ham sun'iy ravishda mutlaqlashtirish, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hol ayniqsa, diniy fundamentalizm va ekstremizm insoniyat uchun jiddiy xavfga aylangan hozirgi davrda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Diniy dunyoqarashni teologiya deb ataladigan falsafiy fan o'rganadi. Teologiya olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'lab tahlil qiladi hamda o'ziga xos mukammal tizimini yaratgan. Bugungi kunda diniy dunyoqarashning bir talay asosiy vazifalari orasida, uning hayot ziddiyatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq regulyativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati benihoyat ulkan va u tobora ortib bormoqda.

Taraqqiyot jarayonida falsafadan tabiatshunoslik fanlari bilan birga psixologiya, etika, estetika kabi ijtimoiy fanlar ham ajralib chiqdi. Keyinchalik madaniyat, qadriyatlar va huquq kabi sohalarni o'rganadigan alohida yo'nalishlar ham paydo bo'ldi. Ular olamni o'z predmeti doirasida yaxlit bilish, uning xususiy qonuniyatlarini o'rganishga yordam beradi.

Falsafiy yo'nalishlar, tadqiqot olib boradigan sohasiga ko'ra, o'ziga xos bo'lib, asosiylari quyidagilardir:

Ontologiya — olam, inson va jamiyatning obyektiv-universal mohiyati to'g'risidagi falsafiy ta'limotdir. Boshqacha aytganda, u borliq to'g'risidagi, insonning olamga bo'lgan munosabati haqidagi falsafiy bilim sohasidir.

Gnoseologiya — bilish falsafasi bo'lib, olamni anglash, bilish nazariyasi, bilishning shakli, usullari va imkoniyatlari to'g'risidagi ta'limotdir.

Aksiologiya — qadriyatshunoslik yoki qadriyatlar to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

Praksiologiya — insonning predmetli-o'zgartiruvchan, amaliy faoliyati to'g'risidagi falsafiy ta'limot.

Metodologiya — bilish va o'zgaruvchan faoliyat usullari to'g'risidagi ta'limot.

Logika — tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa) va tafakkur vositalarini (ta'rif, qoida, muhokama, tafakkur qonuniyat-lini), ularning mazmunidan qat'i nazar, xolis o'rganuvchi ta'limot.

Etika — axloq falsafasi, insoniyatning axloqiy tamoyillari, ta-lab va tartib-qoidalari to'g'risidagi fan.

Estetika — nafosat falsafasi, jamiyat va inson hayotida go'zallikning o'rni, qonun-qoidalari to'g'risidagi qarashlar maj-muyi.

Bundan tashqari, inson falsafasi (antropologiya), ijtimoiy fal-safa, tabiat falsafasi, madaniyat falsafasi (kulturologiya), san'at falsafasi, mafkura falsafasi (ideologiya), din falsafasi (teologiya), siyosat falsafasi (politologiya), huquq falsafasi, texnika falsafasi kabi sohalar ham mavjudki, ular bir so'z bilan ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimi deyiladi.

Ikkinchi xil klassifikatsiya falsafiy fanlar tasnifida olam va odam, borliqning asosi bilan bog'liq masalalar qanday usulda hal qilinishiga qarab belgilanadi. Bunday tasniflash natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, materializm, idealizm, teizm, ateizm kabi ko'plab yo'nalishlar ko'zga tashlanadi. Falsafani o'rganish jarayonida bu tushunchalarga hali ko'p duch kelamiz va o'rni kelganda ularga zarur izoh va ta'rif berishga harakat qilamiz.

Bu tizimda falsafa tarixi bilimning muhim tarmog'i hisobla-nadi. Bunda tadrijiy taraqqiyot tamoyili asosida falsafiy tizimlar o'rtasidagi tarixiy izchillikka tayaniladi. Mazkur qo'llanmada falsafa tarixi ana shunday tamoyil asosida o'rganilgan.

Falsafiy bilimlar tizimining o'zgarishi va mazmunan boyib borishi obyektiv ijtimoiy-tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, u iami-

yatning rivojlanish darajasiga mos keladi va uni o'zida ifoda etadi. Falsafiy bilimlar tizimidagi alohida yo'nalish har bir tarixiy davrda o'ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlansa ham, ularning umumiy tamoyillari mavjud. Ya'ni, birinchidan, har bir falsafiy bilim yo'nalishi jamiyat rivojlanishida o'ziga xos determinant (sabab) vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, falsafiy bilimlar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi subyektiv omil bo'lsa ham, vujudga kelish asosi — genezisi nuqtayi nazaridan obyektiv hodisadir. Uchinchidan, falsafiy bilim yo'nalishlarining o'zaro bog'liqlik, aloqadorlik munosabati, ularning dunyoni bilishdagi yaxlitligini ta'minlaydi.

Falsafiy dunyoqarashning bu umumiy tamoyillari har qanday konkret dunyoqarash shakllari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

1. Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, Chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli obyektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi.

2. Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchilligi tamoyili har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Agar mantiqiy izchillik buzilsa, dunyoqarashning tashqi olamni xolis, ilmiy, aniq-ravshan va izchil aks ettirishiga putur yetadi.

4. Falsafiy dunyoqarashning universalligi boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga ega.

5. Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq bo'lib, inson manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu-umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. Falsafiy dunyoqarashning g'oyaviylik tamoyili, uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Xususan, bugungi o'zbek milliy falsafiy dunyoqarashi milliy mustaqillik, o'zlikni anglash, millatimiz kelajagini belgilaydigan istiqlol g'oyasiga tayanishi bilan

xarakterlidir. Falsafiy dunyoqarash shu g'oyani e'tiqodga aylantiradi va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. Falsafiy dunyoqarashning eng muhim tamoyillaridan biri nazariya va amaliyot birligidir. Dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, tafsih va rejalari belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi. Shuningdek, dunyoqarashning amaliyotga joriy etilish jarayonida olingan usul va vositalari muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko'rsatilgan funksiyalarning o'zaro ichki bog'liqligi falsafaning mushtarak umumnazariy va uslubiy ahamiyatini belgilab beradi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ahamiyatini har tomonlama o'rganish inson va jamiyatning ma'naviy karnavoliga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, falsafiy bilimlar tizimini takomillashtirish yo'llarini topish imkonini beradi. Masalaning bu tarzda hal etilishi umuminsoniy sivilizatsiya tamoyillariga ham mos keladi.

8. Falsafada milliylik va umuminsoniylik, milliy falsafani rivojlantirish zarurligi. Falsafa umuminsoniy fan sifatida bashariyatga doir umumiy muammolarni qamrab oladi, albatta. Ma'lumki, olam va odam munosabatlari, jamiyat va tabiatni asrash, umrni mazmunli o'tkazish, yaxshilik va yomonlik kabi qadriyatlar bilan bog'liq masalalarning barchasi insoniyat uchun umumiy. Ammo falsafada muayyan milliy xususiyat, maqsad va intilishlar ham o'z ifodasini topadi. Aslida, yuqorida zikr etilgan umuminsoniy mavzu, masala va muammolarning barchasi avval-boshda xususiy, milliy, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar tarzida namoyon bo'ladi. O'z yurti, millati, ota-onasi va yor-birodarlarini sevgan vatanparvar inson, avvalo, ana shularning kamoli uchun qayg'uradi, ularni o'ylaydi, ularga xizmat qilishni oliy saodat deb biladi. Bunday shaxs dunyoqarashida ana shu jihat va xususiyatlar albatta aks etadi. Bu esa, o'z navbatida, umuminsoniy fan bo'lgan falsafada milliylikning aks etishiga asos bo'ladi. Umuminsoniylik — vatansizlik (kosmopolitizm) bo'lmagani singari, milliylik ham — milliy qobiqqa o'ralish, milliy mahdudlik degani emas.

Lekin sizning xayolingizda beixtiyor «Milliy falsafa bo'lishi mumkinmi? Axir, yuqorida falsafaga o'z mohiyati bilan umum-

insoniy fandır, degan ta'rif berildi-ku?» — degan savollar charx urishi mumkin. Bu — o'ziga xos milliy taraqqiyot yo'lidan ketayotgan barcha xalqlar falsafasi uchun daxldor bo'lgan savollardir. Agar biz yuqorida qayd etilgan muammolarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, O'zbekistonda bu yo'nalishni rivojlantirish zarurati yetilganini anglaymiz.

Falsafiy adabiyotlarda milliy falsafa mavzuida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim faylasuflar, aslida milliy falsafa bo'lishi mumkin emas, bunday yondashuvning o'zi etnik mahdudlikka olib keladi, deb hisoblaydi. Boshqalari esa, modomiki, milliy falsafa milliy g'oya va mafkurani shakllantirishning nazariy asosi ekan, har qanday umumiy qonuniyatlar muayyan ijtimoiy makon va tarixiy zamonda xususiy holda namoyon bo'ladi, deya milliy falsafani yoqlab chiqadi.

Biz millat bor ekan, milliy madaniyat, til va adabiyot ham mavjud degan fikrga o'rganib qolganmiz. Aslida, ularning barchasi nafaqat bir millatga, balki butun insoniyatga xos-ku! Bizning nazarimizda, milliy falsafa millat mentalitetini belgilaydigan muhim omildir. Umumbashariy sivilizatsiyaga uzviy qo'shilish jarayoni milliy falsafani yaratish orqali sodir bo'ladi. Eng muhimi — falsafadagi milliylik umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi.

Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayrim milliy falsafalarning umuminsoniy ma'naviyat xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shilganini ko'ramiz. Masalan, Rim imperiyasi zavolga yuz tutganidan keyin o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida, o'rta asrlarga kelib, milliy falsafa yaratish imkoni tug'ildi. (O'rta asr Yevropa madaniyatiga bag'ishlangan mavzuda bu haqda atroflicha fikr yuritamiz). To'g'ri, ular umumyevropa hududida, qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati negizida shakllandi. Ularda Yevropa xalqlariga xos umumiy jihat va xususiyatlar, umumetnik mentalitet aks etgan edi. Bu jarayon avvalo, Italiya va Angliyada, so'ngra Fransiyada yuz berdi. Bu falsafiy maktablarning F. Bekon va R. Dekart, B. Spinoza va J.J. Russo kabi atoqli namoyandalari nafaqat o'z mamlakatlari, balki Yevropa va jahon falsafasi tarixida o'chmas nom qoldirdi.

Ular, avvalambor, o'z yurti, o'z millati sha'nu sharafini yuksaklikka ko'tarish, taraqqiyotga olib chiqish uchun ilg'or g'oyalarni o'rtaga tashlagan, davr taqozo etgan mafkuraning shakllanishiga hissa qo'shgan.

Xuddi shunday, XVIII–XIX asrlarda milliylik va jahon falsafasining taraqqiyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatgan hudud Prussiya bo'ldi. Uzoq vaqt Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibida bo'lgan bu o'lka mustaqillikka erishib, milliy davlatchiligini tiklaganidan keyin, milliy ozodlikning falsafiy in'ikosi o'laroq I. Kant, I. Hegel, Fixte, Shelling, Feyerbax kabi donishmandlar tomonidan asoslangan nemis falsafasi shakllandi. Keyinchalik bu falsafa Nishshe, Freyd kabi ko'plab faylasuflar tomonidan rivojlantirildi. Ushbu falsafa maktabining atoqli namoyandasi hisoblangan Hegel ta'limoti esa, Pruss monarxiasining davlat mafkurasi maqomini oldi. Hamma narsaning o'tkinchi ekanligini nihoyatda yaxshi biladigan, yangi zamonning Arastusi nomini olgan Hegel Pruss monarxiasining o'tkinchi ekanligini bilmasmidi? Nima sababdan u dialektik ta'limoti emas, balki monarxiyaga xizmat qilgan falsafiy sistemasining mukammalroq bo'lishi uchun ko'proq kuch sarfladi? degan savollar haligacha faylasuflarni o'ylantirib keladi.

Xo'sh, nima sababdan Hegel bu yo'ldan bordi? Chunki, Hegel o'z davrining, o'z xalqining farzandi edi. U mustaqil nemis milliy davlati — Pruss monarxiasini davrining mahsuli, o'sha davr falsafasining namoyandasi edi. U «Faylasuflar osmondan yomg'ir kabi yog'ilmaydilar yoki yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek yerdan o'sib chiqmaydilar, balki ularni xalq yaratadi» deganida aynan ana shuni nazarda tutgan edi. Hegel o'z ijodi va faoliyati bilan Pruss monarxiasini, garchand monarxiya shaklida bo'lsada, nemis davlati ekanligini o'z millatining ongi va dunyoqarashini tarkibiy qisminiga aylantirib keta olgan buyuk faylasuf edi. Uning «Aqlga muvofiq narsalarning barchasi voqedir, voqe bo'lgan narsalarning barchasi esa aqlga muvofiqdir», degan so'zlarini ham ana shu ma'noda tushunish lozim. Hegelning bu masalada dialektik emas, balki metafizik usulga ko'proq e'tibor berganligining sababi ham ana shunda.

O'sha davrgacha, Rim imperiyasi qulaganidan keyin ko'proq tarqoq hududlarga bo'linib, Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibida yashab kelgan nemis millati uchun Pruss monarxiyasi — milliy davlat edi. Uning shakli-shamoyili kelajakda o'zgarishi boshqa masala bo'lgani holda, bu davlatning Yevropada nemis milliy davlati tarzida saqlanib qolishi, uning millat falsafasiga aylanishi bilan bog'liq edi. Millat falsafasiga, uning dunyoqarashiga aylangan milliy davlatchilik g'oyasi hech qachon so'nmaydi, garchand yurtni yovlar asrlar davomida bosib tursalarda, qachondir baribir qad rostlaydi va millatning davlati tarzida yana qayta namoyon bo'ladi. Hegel o'z millatining falsafasi va dunyoqarashiga o'sha davlatning shakli-shamoyilini va mazmun-mohiyatini singdirib keta olgan faylasuf darajasiga ko'tarilgani uchun ham bu millat tarixida va u orqali, jahon falsafasi tarixida abadiy qoladi. Milliylik va umumyevropa madaniyatidan bahra olgan bu falsafa haligacha o'z jozibasini yo'qotmaganligining sabablaridan biri ham ana shunda.

Shunga o'xshash vazifani, o'z davrida, millatimizning asl farzandi Alisher Navoiy ham bajargan. U ozodlikka erishgan millat falsafasini adabiyot falsafasiga, mustaqil davlat tilini adabiyot tiliga aylantira olgan, o'z xalqining bu sohadagi dahosi buyuk ekanligiga, nafaqat zamondoshlari, balki kelajak avlodlarni ham ishontirib keta olgan edi. Navoiy va uning zamoniga, o'sha davrga xos o'zgarishlarning boshida turgan Amir Temur faoliyatiga qayta-qayta murojaat etilishining sabablaridan biri ham ana shunda. Zero, har bir xalq, avvalo, o'zining tarixidan bugungi kun uchun tashbehlar izlaydi va ijtimoiy taraqqiyoti uchun asos bo'ladigan ma'naviy tamoyil, an'ana va qadriyatlarga murojaat qiladi.

Bugungi kunda bashariyat milodiy XX asr bilan xayrlashib, uchinchi ming yillikka qadam qo'ydi, hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishdi. Fan va texnika, madaniyat va maorif beqiyos rivojlandi. Odamzod o'zining aql-zakovati va mehnati bilan juda ko'p yangiliklar yaratdi. Dunyoning ko'plab sir-asrori kashf etildi, buyuk ixtirolar qilindi.

Biz yashayotgan dunyo so'nggi yillarda nihoyatda o'zgarib ketdi. Xususan, Vatanimiz tarixida XX asrning 90-yillarida

olanishumul voqealar yuz berdi: mamlakatimiz mustaqillikka erishib, tub islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Xalqimizning huquqiy demokratik jamiyat barpo etish zarurati dunyoqarashni tubdan o'zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqbol mafkurasini shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirishni taqozo etmoqda. Bunda ijtimoiy fanlar, ayniqsa falsafiy bilimlarni egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi dunyoda o'z milliy falsafa maktabini yaratgan xalqlar bor. Chunonchi, «hind falsafasi», «xitoy falsafasi», «nemis falsafasi», «ingliz falsafasi» kabilar shular jumlasidandir. Milliy adabiyot, milliy madaniyat, san'at va hokazolar bo'lgani kabi, milliy falsafaning ham bo'lishi tabiiy. Ammo bu — falsafa milliy qobiqqa o'ralib qoladi, degani emas. U umuminsoniy fan sifatida, bir tomondan, umumbashariy muammolarni qamrab olsa, ikkinchi tomondan, shu masalalar bilan shug'ullanayotgan aniq klass — faylasuf mansub millatning muayyan manfaatlarini ham ifodalaydi. Millat ozod bo'lsa, o'z turmush tarziga mos fikrlasa, olamni, uning muammolarini dunyoqarashiga xos holda idrok eta olsa, uning o'z falsafasi shakllanadi. Bunday falsafa xalq manfaatlarini aql-idrok, mafkura yo'li bilan himoya qilishga, uning ongi, dunyoqarashi va ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shu bois Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng milliy falsafani rivojlantirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Busiz millatning haqiqiy farzandi bo'lgan, uning kamolini o'ylaydigan chinakam ozod, hur fikrli, barkamol insonni tarbiyalab bo'lmaydi. Shu sababli biz o'rganadigan falsafa umumbashariy muammolar bilan birga, Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, huquqiy demokratik jamiyat barpo etish jarayonidagi ma'naviyatning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy tamoyillarini aks ettirmog'i lozim.

Bugun ulug' ajdodlarimiz tamal toshini qo'ygan o'zbek milliy falsafasini rivojlantirishning barcha shart-sharoitlari mavjud va bunda quyidagi jihatlar alohida o'rin tutadi:

- xalqimizning o'z milliy an'alariga sodiqligi;
- mamlakatimizning buyuk kelajagiga ishonchi;
- muqaddas qadriyatlarimizga ishonch-e'tiqodi;

– mehnatsevarligi, intellektual salohiyati va boshqalar.

O'zbek falsafasini yanada taraqqiy ettirish vazifalarini amalga oshirish quyidagi muammolarning yechimini topishga bog'liq:

– birinchidan, mustamlakachilik sharoitida soxtalashtirilgan tariximizni haqqoniy yoritish falsafiy g'oyalar, qarashlar tarixini ham xolis ko'rsatib berishni taqozo qiladi. O'z davrida qimmatli tarixiy manbalarning yo'q qilingani yoki ayovsiz talon-taroj etilgani bu ishni qiyinlashtirmoqda;

– ikkinchidan, mavjud manbalar arab yoki fors tillarida ekanligi, ularni biladigan faylasuf olimlarning, malakali tarjimonlarning kamligi umuminsoniy ma'naviy merosdan bahramand bo'lish va ulardan ijodiy foydalanishga to'siq bo'lmoqda;

– uchinchidan, odamlar ongidan mustabid tuzumning soxta g'oyalarini, ular qoldirgan asoratlarni siqib chiqarish, mafkuraviy bo'shliqni yangi g'oyalar bilan to'ldirish, istiqlol mafkurasini shakllantirish muayyan vaqtni taqozo qiladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bugungi falsafa masalalari bilan shug'ullanuvchi olim va tadqiqotchilar zimmasiga nihoyatda katta mas'uliyat yuklaydi. Bunda, eng avvalo, mazkur sohaga aloqador har bir yurtdoshimiz dunyoqarashining milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan o'zgarishi nihoyatda muhimdir. Mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etilayotgan hozirgi davrda bu jarayonning qanday borishi yangi falsafiy ongning shakllanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davr falsafasining dolzarb masalalari va uni o'rganish vazifalari. Falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqea-hodisalarning barchasi ijtimoiy ongda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davrlar o'zgarishi bilan unga xos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Ammo bu o'z-o'zidan yuz bermaydi. Ayniqsa, inson tafakkurining o'zgarishi, dunyoqarashining yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu hol bizning kunlarimizda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimizda istiqlol g'oyalariga asoslanadigan yangi dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifa bo'lib turibdi. Zero,

inson dunyoqarashini, uning asosiy tamoyillarini o'zgartirmasdan, yangi jamiyatni qurish qiyin. Istiqlol talablari darajasida falsafiy tafakkurni yangilash vazifalarini bajarish g'oyat murakkab bo'lib, quyidagi bir qator muammolarni hal qilishni taqozo etmoqda:

— kishilar ongi va turmush tarzidan sobiq tuzumga xos g'ayriinsoniy tamoyillarni siqib chiqarish;

— O'zbekiston falsafasida jahon falsafiy tafakkuri yutuqlaridan yanada kengroq foydalanish;

— bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida nafaqat oddiy fuqaro, balki ziyoli va falsafa mutaxassislarining ongida hamon saqlanib kelayotgan loqaydlik va mutelik kabi kayfiyatlarga barham berish;

— ma'naviy merosimizni qayta tiklash va ijodiy rivojlantirish jarayonida buyuk ajdodlarimiz falsafiy merosini yanada keng va chuqurroq o'rganish;

— falsafiy adabiyotlarni milliy manfaatlarimizga yanada ko'proq moslash, qo'llanma va darsliklarimizda milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini aks ettirish;

— istiqlol talablariga mos keluvchi sog'lom g'oyali ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash zaruratiga mos tadqiqotlar olib borish, ular asosida ta'lim-tarbiyaning samarali usul va imkoniyatlarini izlab topish;

— jahon va Sharq xalqlari falsafiy merosini puxta va chuqur o'rganish, bu jarayonda turli g'oya va mafkuralarning davlatlar va xalqlar taqdiriga ta'sirini aniq ko'rsatish va shu asosda istiqlol mafkurasining tamoyillarini kishilar ongiga singdirish.

Ana shu masalalarni uyg'un holda hal qilish falsafiy dunyoqarashimizni yangilashga yordam beradi.

Bunda, avvalo jamiyatning siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy hayotida yuz beradigan ijobiy o'zgarishlar uni harakatlantiruvchi, taraqqiy ettiruvchi asosiy omil — inson tafakkuri, ruhiyati, his-tuyg'ulariga samarali ta'sir etadi. Shu bilan bog'liq ravishda, Vatan va xalq tarixi, ma'naviy-madaniy meros, ona tili, din, milliy turmush tarzi, milliy urf-odatlarini yangi davrning mohiyat-mazmunidan kelib chiqqan holda tiklash, boyitish va milliy g'urur-iftixorning yuksalishida juda ulkan o'rin tutadi.

Falsafiy dunyoqarashni yangilash zarurati bir qator yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

1. Avvalo bu kelajagi buyuk davlatni barpo etish bilan bog'liq. Bunda ana shu yaratilajak yangi jamiyat haqida, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qaror topa borishi, islohotlarning inson manfaatlariga xizmat qilishi, milliy uyg'onish ijtimoiy taraqqiyot taqozosi, komil insonni voyaga yetkazish davr talabi ekani kabi dasturiy vazifalarning hayotiyliigi to'g'risidagi g'oyalarni odamlar dunyoqarashida qaror toptirish zarur.

2. Falsafiy ongning yangilanishi mohiyat e'tibori bilan fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish borasida iqtisodiy mustaqillikka erishish orqali siyosiy mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va aloqalarining o'sib borishi, tinchlik, osoyishtalik, milliy totuvlik, bahamjihatlikka xizmat qiluvchi g'oyalarga tayanadi. Uning hayotiyliigi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg'ulari, orzu-intilishlariga mosligi bilan belgilanadi.

3. Albatta, falsafadagi yangilanish millat va Vatan manfaatlarini, istiqbol rejalarini, milliy qadriyatlarimiz ruhiga mos holda kechadi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayonini, davlatimizning siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar to'g'risida xalqimizda to'g'ri tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko'rsatadi.

4. Falsafiy tafakkur yangilanishi taqozo etadigan eng muhim vazifa poklanish jarayoni odamlar ruhiyati va tafakkurida amaliy tus olishi uchun O'zbekiston Konstitutsiyasida mujassam etilgan maqsad va g'oyalarni amalga oshirish yo'lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g'oyalar omma manfaatlarini aks ettirgani bois ularni ma'naviy hayot tarzining tarkibiy qismiga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Mamlakatimiz mustaqilligi, tinchligi, uning fuqarolari totuvligi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning qadriga yetish, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi ogohlilikni kuchaytirishda falsafa va umuman, ijtimoiy fanlarning ahamiyati beqiyos. Shu bois o'z xalqi tarixini, o'z mil-

liy madaniyatini, urf-odat va an'analarini yaxshi biladigan, milliy g'ururi yuksak avlodni tarbiyalash falsafaning muhim vazifasidir.

6. Falsafiy dunyoqarashning yangilanishi, mohiyat e'tiboriga ko'ra, insondan, uning ijtimoiy xususiyatlari takomillashuvidan chetda kechadigan jarayon emas. U nafaqat umumjamiyat miqyosidagi, balki har bir inson kamoloti uchun ham zarur shart-sharoit yaratadigan jarayondir. Shu ma'noda, u ham, jamiyatdagi boshqa o'zgarishlar kabi, avvalo, inson uchun, uning kamoli va hayot farovonligini ta'minlaydigan islohotdir.

Mamlakatimizda bu borada juda keng ko'lamlı ishlar boshlab yuborildi. Bugun ijtimoiy fanlar rivojini zamon talablari darajasiga yetkazish borasida davlat va jamoat tashkilotlari, olim va ziyolilar oldida g'oyatda mas'uliyatli vazifalar turibdi. Birgina «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishning o'zi bir necha yillarga mo'ljallangan keng ko'lamlı faoliyat yo'nalishlarini nazarda tutadi. Bugungi kunda siyosiy, mafkuraviy va ma'naviy sohalaridagi taraqqiyot vazifalari o'zaro uyg'unlashib bormoqda, ta'sir doirasi ancha kengaymoqda. Ayniqsa, mafkura borasidagi nazariy faoliyat, targ'ibot va tashviqotni har tomonlama kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zaruratga aylanib bormoqda. Guldagi vazifalar esa, ana shu imkoniyatlarni amaliy ishga aylantirishda har birimiz o'z mas'ulligimizni qay darajada sezishimiz va qanday faoliyat yuritishimizga bog'liq.

XXI asrga kelib, insoniyat g'oyat murakkab, olamshumul muammolar qarshisida turganligini anglay boshladi. Xususan, yadro urushi xavfi, keskinlashayotgan ekologik muammolar, xomashyo va energetika resurslari, Yer shari aholisining shiddat bilan o'sib borayotgani, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash, maorif va madaniyatni, fan-texnika va texnologiyani rivojlantirish muammolari yangicha tafakkurni taqozo qilmoqda. Bu masalani milliy va umuminsoniy falsafiy g'oyalarni, nazariyalarni ishlab chiqmasdan hal qilish mumkin emasligi esa tobora aniq bo'lib bormoqda.

Falsafa ijtimoiy hayotda insonning mohiyati, yashashdan ko'zlagan maqsadi, oliy qadriyat ekani, ma'naviy omillari (ideal-lari), borliqdagi o'rni, munosabatlari sabablari, ruhiy va mod-

diy ehtiyojlarini qondirish usul va vositalari — barcha-barchasini ko'rsatib beradi.

Jamiyat taraqqiyoti va falsafaning rivojlanishi dialektikasi ana shu xususiyatlarga asoslanib, o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, jamiyatning o'zgarib borish tamoyili falsafiy g'oya, nazariya va ta'limotlar o'zgarishini taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan, o'zgarayotgan falsafa jamiyat moddiy-ma'naviy hayot tarzini ilg'ab olib, uning istiqbollarini belgilash, mafkurasini shakllantirishda nazariy, uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tgan bugungi kunda kishilar tafakkuri va ongida saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash qoliplarini bartaraf etish, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rag'batlantirish, milliy o'zlikni anglash, istiqloq mafkurasini shakllantirishda shoshilmay, behuda his-hayajonlarga berilmasdan, aql-zakovat bilan ish tutishda falsafaning o'rni va ahamiyati g'oyatda ulkandir.

Falsafa har qanday murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyatda ham kishilarni yuksak g'oyaviylik, mustahkam e'tiqod, kelajakka ishonch ruhida tarbiyalash bilan birga, ularga murosa va hamkorlik qilish, chigal muammolarni ham umummilliy, umuminsoniy manfaatlarni nazarda tutgan holda madaniy va ma'rifiy hal etish imkoniyatlarini topishga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar: falsafa, faylasuf, falsafiy muammolar, falsafaning milliyligi, falsafaning umuminsoniyligi, dunyoqarash, dunyoqarashning vazifalari, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, falsafaning vazifalari, tafakkurning o'zgarishi, dunyoqarashning yangilanishi.

Takrorlash uchun savollar

1. «Falsafa» tushunchasining mohiyatini qanday tushunasiz?
2. Falsafaning bahs mavzulari nima?
3. Falsafaning umuminsoniyligi deganda nimani tushunasiz?
4. Falsafa milliy bo'lishi mumkinmi?
5. «Dunyoqarash» tushunchasi, uning mohiyati va tarixiy shakllari.

6. Falsafiy dunyoqarashning vazifalari nimalardan iborat?

7. O'zbekistonda yangi dunyoqarashni shakllantirish vazifalari.

2-mavzu. Falsafiy tafakkur tarixi. Sharq falsafasi

Tarixni bilish, undan to'g'ri va xolis xulosalar chiqara olish inson ma'naviy kamoloti uchun nihoyatda muhim. Tarix — buyuk muallim, o'tmishdan saboq beradigan tarbiyachidir. Gap eng qadimgi davr falsafasi haqida borar ekan, bu haqiqat yanada katta ahamiyat kasb etadi. Ayrimlar «Bizga ming yillar qa'rida yotgan madaniyat va falsafadan nima foyda, yaxshisi, bugunning gapidan gapiring?», «O'tmish qa'ridan tashbeh izlagandan ko'ra, bugungi muammolar ustida bosh qotirgan ma'qul emasmi?» degan xiyollarga borishi mumkin. Bir qarashda ularning gapida ham jon borgan o'xshaydi. Ammo bir narsa aniq: o'tmishni bilmasdan turib, kelajakni to'g'ri tasavvur etish mumkin emas. Zero, o'tmishsiz kelajak yo'q.

Shu ma'noda, biz falsafa tarixini azbaroyi o'tmishga qiziqqanimiz uchun o'rganmayapmiz. Biz uni turli zamonlarda ro'y bergan xilma-xil voqea va hodisalarning falsafiy fikr va ongida qanday aks etgani, ularni qanday g'oyalarning tug'ilishiga sabab bo'lgani, qaysi ta'limotlar insoniyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgani, qaysi mafkura odamzodni ko'proq rivojlanish yoki tanazzul tomon yetaklagani kabi haqiqatlarni bilib olish uchun o'rganamiz. Tarixni o'rganmoq va undan saboq olmoq har bir inson uchun zarurdir. Bu — falsafa bilan shug'ullanayotgan mutaxassis uchun ham, uni o'rganayotgan talaba uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega. Tarixni falsafasiz to'g'ri tushunib bo'lmagani kabi, falsafani ham tarix haqiqatisiz to'g'ri anglab bo'lmaydi.

Qadimgi Sharq falsafasi va uning milliy yo'nalishlari. Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta'riflanmagan. Zero, Sharqning o'ziga xosligi, unga mansub bo'lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo'shilgan munosib hissa ekani ham sir emas.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko'pgina mutaxassislar bizning Vatanimiz o'tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo'lgan Shumer davrlarini, qadimgi Xitoy va Hindiston diyorida yashagan xalqlarning ma'naviy merosini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o'ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o'choqlari haqida maktab ta'limi jarayonida «Eng qadimgi tarix» darsliklari orqali ma'lumot berilgan. Zukko talabalar o'sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo'lganini yaxshi biladi. Biz bugun o'sha davrlardagi falsafiy dunyoqarash, qadimgi ajdodlarimizning fikr-mulohazalari, o'ziga xos ta'limotlarining asosiy tamoyillari bilan yaqinroq tanishmoqchimiz.

Qadimgi Misr va Bobil falsafasi. Ko'xna Sharq sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan Misr, qadimgi zamonda ilk o'troq hayot va o'ziga xos dehqonchilik an'analari boshlangan Nil daryosi bo'ylaridagi madaniyat dunyo olimlari diqqatini tortib keladi. Eramizdan avvalgi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj topa boshlagan edi. Tabiiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yo'nalishda borgan. Birinchi yo'nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, riyoziyot fanlari rivoji bilan bog'liq ekanini, ikkinchi yo'nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea-hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o'rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu — o'sha davr uchun tabiiy hol edi, ya'ni u — davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy tarzda ifodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo'lsa-da, aksariyat hodisalarning falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo'lgan odamzod, albatta, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko'nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o'sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo'q edi. Bu — o'sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbat», «Mug'anniyning qo'shig'i», «O'z hayotidan xafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbat» kabi bitiklarda aks etgan.

Qadimgi Misr va Bobilda shakllangan falsafaning eng asosiy xususiyati shundan iborat ediki, ularda, bir tomondan, ilohiy kuchlarga ishonch, ularning tabiat va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, afsona va rivoyatlar tarzida bo'lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Umuman, bunday xususiyatni, qadim zamondagi barcha sivilizatsiyalarga xos deyish mumkin.

Qadimgi Hindiston falsafasi. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta'limotlar yozma manba — «Veda»larda o'z aksini topgan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo'lib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so'zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan. «Veda»lar bizgacha to'rtta to'plam (samxitlar) shaklida yetib kelgan. Bular — «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adharvaveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo'lgan manbalarda ham o'z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma'noni anglatib, «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob yoki falsafiy risola bo'lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma'lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har

xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir. «Upanishadalar»dagi falsafiy mavzular, asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari, axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtayi nazardan bayon etilgan.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo'linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sankhya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa — astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablardir. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-lokayata tarafdorlari materialistik ta'limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta'kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo'lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankhya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo'lib, olam asosida moddiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) yotadi, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unurning turli teng miqdorda (proporsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab, aloqador bo'lmagan sabab. Bu falsafiy maktab haqida buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy «Hindiston» asarida atroflicha fikr yuritgan.

Qadimgi Xitoy falsafasi. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o'ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o'rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo'jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo'lga o'tgan. Bu hokimiyat eramizdan avvalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo'lishini o'ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g'oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551–479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy ta'limotida insonshunoslik qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Bu ta'limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g'oyalar majmuyi, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma'naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. U hozirgi Xitoyda ham o'zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi — taqdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Konfutsiy ta'limotida insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalariga ham ravo ko'rishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g'oyalari ta'kidlanishida muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko'tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri Lao-Szidir (VI–V asrlar). Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmogi lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni — tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir. Bu qonunga ko'ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Si», ya'ni beshta unsur — olov, suv, havo, yer va yog'och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Lao-Szining

ta'kidlashicha, olamda hech bir narsa doimiy va o'zgarmas, harakatsiz holda bo'lishi mumkin emas.

Daosizmga binoan, dunyodagi hamma narsa bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turadi. Qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurash, ya'ni In va Yan orasidagi munosabat — bizni o'rab turgan olamni harakatga keltiruvchi kuchlar manbayidir. In va Yan o'rtasidagi kurash daoni anglatadi. Odamzod bu kurash jarayonida doimo yaxshilik tomonida turishi, o'zini qurshab turgan tabiat va atrofdagi olamga mehr ko'rsatishi lozim. Bo'lmasa, Dao qonuni buziladi va bunday joyda baxtsizlik, fojia yuz beradi. Lao-Szi bu o'rinda ekologik falokatni nazarda tutgan. «Kishilar Dao qonunini buzmasliklari kerak, aks holda tabiat ulardan albatta o'ch oladi», degan edi Lao-Szi. Buni ekologik falokatlarning avj olib borayotgan bugungi kun voqeligi ham tasdiqlaydi.

Umuman, tabiat, jamiyat va insonga nisbatan ehtiyotkor munosabatda bo'lish, Ona zamin va Vatanni asrab-avaylash, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yaxshilik tomonida turish — qadimgi xalqlarga xos bo'lgan falsafaning bosh g'oyalaridir. O'sha, hamma narsa oddiy tushunilgan qadim zamonlardayoq buyuk aql egalari odamlarni tabiatni asrashga, insonni qadrlashga chaqirgani bejiz emas. Ular insoniyat hayotiga xavf soladigan darajaga yetmay turib, u boradagi muammolarning oldini olish to'g'risida juda ibratli o'gitlar bergan. Qadimgi dunyo falsafasini chuqurroq o'rgangan odam o'sha davr mutafakkirlari hozirgi zamon sivilizatsiyasi qarshisida turgan barcha umumbashariy muammolardan odamlarni ogohlantirganligining guvohi bo'lishi mumkin. Gap bu ogohlantirishni eshitish, ularni o'zlashtirish va hayotning qonuniga aylantirishda edi, xolos. Afsuski, odamzod nasli o'zi yaratgan buyuk daholarning barcha o'gitlariga hamma vaqt ham quloq solavermagan. Ilm va fanda necha-necha kashfiyotlar qilingan, ammo ulardan o'z vaqtida kerakli tarzda foydalanilmaganiga ko'hna tarix guvoh. Bugun ham ajdodlarimizning Vatan, tabiat, jamiyatni asrash, undagi tartib va qoidalarni buzmaslik to'g'risidagi da'vatlari eskirgani yo'q. Yillar, asrlar o'tishi ularning qadrini tushirmaydi. Zero, bu ta'limotlar insoniyatning o'tda yonmas va suvda cho'kmas umuminsoniy qadriyatlarini to'g'risidadir.

O'zbekiston hududidagi qadimgi falsafiy qarashlar. Zardushtiylik ta'limoti. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri zardushtiylikdir. Bu ta'limotga Zardusht asos solgan bo'lib, Sharq va G'arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birlinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanligi haqida aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. Zardushtiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari — yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Avesto»da, Shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Shox Filippning o'g'li Aleksandr (eski o'zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Aleksandr «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma'lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmaganini, uni o'qiy olmaganini sababli bu kitobning qadr-qimmatini tushunmagan va uni yoqish to'g'risida ko'rsatma bergan, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida unday emas. Bu — tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir iborati bo'lsa-da, xaspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Nopaki, Aleksandr o'z zamonida fanlarning otasi deb nom olgan falsafani fan darajasiga ko'targan, buyuk donishmand sifatida yetti iqlimda tan olingan Arastudan ta'lim olgan edi. Binobarin, Aleksandrni savodsiz, kitobning qadrini tushunmaydigan kimsa deb ta'riflash tarix haqiqatiga to'g'ri kelmaydi.

To'g'ri, u «Avesto»ni o'tda kuydirgan bo'lishi mumkin. Lekin buni kitobning qadrini tushunmagani uchunmas, balki yerli xalqlarni birlashishga da'vat etib turuvchi, ular e'tiqod qo'ygan milliy g'oyalar timsoli bo'lgan va o'z saltanatiga qarshi muttasil kurash olib boruvchi vatanparvarlarni tarbiyalaydigan manba ekanini nazarda tutib, shu ishni amalga oshirgan. U, yuqorida ta'kidlanganidek, mazkur kitob omon tursa, u ushbu zamin farzandlari uchun o'zlikni anglash, binobarin, kuch-qudrat manbayi bo'lib qolaverishini nihoyatda yaxshi tushungan. Aleksandr dan keyin yashagan Rim imperatorlari ham Misr va Vizantiyaga qarshi urush qilib, yahudiylarning yerini bosib olganida tub aholining madaniy boyliklarini yo'q qilgani, «Zabur» va «Tavrot»ning qadimgi nusxalarini kuydirib yuborgani yuqoridagi misolning tasodifiy emasligidan dalolat beradi.

Umuman, har qanday sharoitda ham istilochilarning birinchi ishi xalq va millatlarni zo'rlik bilan bosib olish, boyliklarini talash bo'lsa, keyingi asosiy faoliyati — millatni o'z tarixi va an'analaridan uzib qo'yish, madaniy merosini talon-taroj qilish, uning ma'naviyatini yo'qotishdan iborat bo'ladi. Tarixning bu achchiq sabog'i mustamlakadan ozod bo'lgan, o'z mustaqilligini saqlab qolish va mustahkamlashga intiladigan har qanday xalq taraqqiyoti uchun eng muhim xulosa bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda buddaviylik ham o'z o'rniga ega. U diniy-falsafiy ta'limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu ta'limotga asos solgan donishmand Sidharta urug'idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchalik u «Budda», ya'ni nurlangan degan laqabga ega bo'lgan. Buddaviylik Islomga qadar O'rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o'rin tutadi. Bu ta'limot O'rta Osiyoga eramizdan avvaigi II—I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, uni Toharistonga balxlik savdogarlar olib kelishgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi.

Buddaviylikning O'zbekiston va Hindiston xalqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'prik bo'lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do'stlik va birodarlikning ildizlari ham o'sha davr-

ga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uning madaniyati va san'atiga qiziqishli tasodifiy emas.

Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan. Moniy hatto «Moniylik yozuvi» nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi — yaxshilik va zulmat dunyosi— yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsur (ruh — nur farzandi, jism — zulmat mahsul)dan iborat. Moniylik xalq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta'limot bo'lgani sababli hukmron mafkura qarshiligiiga duch kelgan.

Moniylik ta'limoti asosida Mazdak ta'limoti yuzaga kelgan. U eramizning V–VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470–529-yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida xalq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo'lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning maslakdoshlari, izdoshlari ko'payib ketgan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo'lida kurashga da'vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Unda asosiy yovuzlik-boylikka hirs qo'yish va o'ta kambag'allik qoralanadi. Bu insonparvar harakatdan cho'chigan shox Mazdakni turli hiylalar bilan o'limga mahkum etadi. Mazdakiylar haratlari, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta'limotlar, ular ilgari surgan g'oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Vatanimizning o'sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyati, milliy ma'naviyatimiz, falsafamiz jahon sivilizatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatgan. Afsuski, Vatanimizning ana shu davr tarixi nihoyatda kam o'rganilgan. Bu davrga oid manbalarning aksariyati esa yo'q qilib yuborilgan. Bu vayronkorlikning boshida miloddan avval makedoniyalik Aleksandr turgan bo'lsa, mamlakatimizni zabt etgan keyingi bosqinchilar ham ana shu yo'ldan

borgan. Ular xalq ongidan mustaqillik va erkin hayot to'g'risidagi maqsad-muddaolarni butunlay yo'qotib yuborishga urinishgan. Buning natijasida ma'naviy qashshoq va tarixiy xotirasiz kishilar tarbiyalanishi lozim edi. Bosqinchilar Movarounnahrda nihoyatda boy madaniyat shakllanganini e'tirof etgan. Ammo uning bosqinchilik g'oyalari mos kelmaydigan juda ko'p namunalari ayovsiz yo'q qilishgan.

Arab xalifaligi va Islom falsafasi. Movarounnahr arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi arafasida Turk qog'onoti tizimiga mansub edi. U mayda amirliklardan iborat bo'lib, ular o'rtasida tinimsiz to'qnashuvlar ro'y berib turar edi. Ayniqsa, Turk qog'onoti bilan sosoniylar Eroni o'rtasidagi to'qnashuvlar o'ta shiddatli tusda yuz berar edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida bu hudud arab xalifaligi tomonidan bosib olindi. Bunga Movarounnahr hududida yashovchi xalqlar, ijtimoiy kuchlar orasida siyosiy hamjihatlikning yo'qligi, o'zaro qirg'in-barotlarning avj olishi sabab bo'ldi.

Movarounnahrda arab xalifaligi bilan birga Islom dini ham kirib keldi. Ushbu dinning nazariy asoslari musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'on va Hadislarda aks etgan bo'lib, Islom asrlar davomida yurtimiz tarixi va xalqimiz tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu haqda manbalar ko'p va biz shu sabab bu to'g'rida keng to'xtalmaymiz. Islom falsafasi va uning nazariy hamda amaliy masalalari haqida ham yurtimizda manbalar bisyor.

Islomda kalom ilmi shakllangan va u islom ilohiyotining o'ziga xos falsafiy ta'limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishda Qur'onga tayanadi va Ollohning haqligi, uni olamning yaratuvchisi ekanligi, olam va insonning Olloh tomonidan yaratilgani va odamzodning Tangri oldida mas'ul ekanligini ta'kidlaydi.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom vafotlaridan buyon o'tgan asrlar davomida Islomda turli mazhablar va oqimlar shakllandi, kalom bilan yonma-yon ma'naviy jarayonlar silsilasida mashshoiyunlar va tabiiyunlarning (Arastu falsafasi va tabiatni o'rganishga ahd qilganlarning) falsafiy qarashlari ham namoyon bo'ldi.

Qadimgi Yunon falsafasi an'analarida siyosiy faoliyat va donishmandlik ko'p hollarda bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan bo'lsa, Islom falsafasida siyosatga, aksincha, inson faoliyatining yuksak bir shakli sifatida qaraladi. Islomda davlatni boshqarish — bu san'at, ammo u «Olloh hammani teng qilib yaratgan» degan ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilmog'i zarur, ijtimoiy adolat esa teng huquqlilikka amal qilish tufayli barqaror bo'la oladi, deb hisoblanadi.

Diniy bag'rikenglik va dunyoviy bilimlar takomili. Musulmon Sharqi, jumladan islom joriy etilganidan keyin Vatanimiz hududidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar ijodida Olloh, inson va tabiat masalalari ilohiyot va dunyoviy falsafaning muhim muammolaridan biri bo'lib kelgan. Bironta buyuk alloma va mutafakkir islomiy qadriyatlar mavzuini chetlab o'tmagan.

Diniy ilmlar sohalarida imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturidiy va imom Burxoniddin Marg'inoniylar peshqadamlik qilganlar. Imom Buxoriy (810—870-yillar) yirik ilohiyotchi, muhaddis sifatida 60 mingga yaqin hadis to'plagan, ulardan ishonchli deb topganlarini maxsus to'plam holiga keltirgan. Bu to'plam «Saxixi Buxoriy» nomi bilan mashhurdir. Imom iso Termiziydan (824—892) «Sunani Termiziy meros bo'lib qolgan. Bu mazhabning muhim jihatlari kalom va ilohiyot sohalarining piri Abu Mansur Moturidiy (vafoti 944-y.)ning «Tavhid» va «Ta'vilot» asarlarida va Burhoniddin al-Marg'inoniy (1123—1197)ning «Hidoya» to'plamida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Dunyoviy ilmlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy (783—850) va Ahmad al-Farg'oniy (taxm. 797—865) butun musulmon Sharqi va jahonda tabiiy va aniq fanlar rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk allomalardir. Muhammad al-Xorazmiy arab xalifaligining poytaxti Bag'dodda «Donishmandlik maskani» («Bayt ul-hikma») ga rahbarlik qilgan. Uning «Astronomiya jadvali», «Hind hisobi to'g'risida risola», «Quyosh soati to'g'risida risola», «Musiqqa haqida risola», «Tiklash va qarshi qo'yish hisobiga oid muxtasar kitob» kabi asarlarida algebra sohasiga asos solindi.

Sharq xalqlari orasida «Buyuk matematik» unvoniga sazovor bo'lgan Ahmad al-Farg'oniy (taxm. 798-y.da Quvada tug'ilgan)

astronomiya va matematika sohalarida nom taratdi. Uning «Samoviy jismlar harakati va yulduzlar fanining majmuasi haqida kitob», «Astronomiya asoslari» asarlarida koinot xaritasi tuzildi. Yer va fazoviy sayyoralar hajmi, iqlimlar, jo'g'rofiy kengliklar to'g'risida kuzatuvchilar orqali asoslangan yangi ma'lumotlar berilgan, ilm-fanning yangi yo'nalishlariga asos solingan. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni umumlashtirish, tadqiqotda hissiy va aqliy mushohada mushtarakligi allomaga xos xususiyatlar sifatida dunyoqarashni shakllantirishning muhim omillari bo'lib keldi va undan keyin yashagan ilm ahliga ta'siri sezilib turdi.

Falsafa, tabiatshunoslik va tibbiyot tarixini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Abu Nasr Forobiy (873—950) — musulmon Sharqida Arastudan keyin «ikkinchi ustoz» unvoniga muyassar bo'lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalamiga 160 dan ziyod asar mansub bo'lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlaridagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarining dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Mutafakkir olamni ikki ko'rinishda: «Vujudi vojib» (Olloh) va «Vujudi mumkin» (barcha moddiy va ruhiy narsalar) misolida talqin qiladi, barcha narsalar «vujudi vojib» tufayli yashash huquqiga ega bo'ladi. Ular o'zaro bir-biri bilan sababiy tarzda bog'lanadi. Sababsiz oqibat bo'lmaganidek, oqibatsiz sabab ham bo'lmaydi, deydi Forobiy. Olam sifat, miqdor, javhar, aksidensiya (muhim bo'lmagan xossa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifiyat, makon va zamon, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalanadi. Bilish jarayoni aql va sezgilar orqali yuzaga keladi. Bilishda aql va mantiq ilmining maqomi beqiyosdir. Aql vositasida inson ilm-fanni yaratadi. Mutafakkir o'z asarlarida komil inson, fozil fuqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo'llari, davlatning xususiyatlari, axloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to'g'risida ilg'or g'oyalarni ilgari surgan. Forobiyning Sharq xalqlari falsafiy tafakkuri rivojiga bo'lgan ta'siri sezilarli bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy (973—1048) deyarli barcha fan sohalarida ijod etgan buyuk qomusiy alloma va mashhur mutafakkirdir. U yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Uning

tabiatni o'rganishdagi xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojlanish anomaliyasi, Yer qa'rida ro'y beradigan geotektonik siljishlar, Yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib turishi, xilma-xil olamlar to'g'risida ilmiy bashoratlarni ilgari surgan. Uning falsafiy qarashlari tabiiy-ilmiy qarashlari ta'sirida shakllandi. U modda va zamon, qonuniyat, zaruriyat va tasodifiyat, harakat va rivojlanish, ziddiyat, sabab va oqibat kabi falsafiy muammolarga katta e'tibor bergan.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqomga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar yetkazib bergan ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimning chinligi kuzatuv va sinov-tajriba orqali belgilanadi. Ular tufayli ashyolarning muhim jihatlari o'rganiladi, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi.

Beruniyga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvorining sohibidir. Jamiyat tadrijiy o'zgarishlar orqali rivojlanib boradi. Adolat, fuqaro uchun g'amxo'rlik, zulmni bartaraf etish, jamiyatni aql va adolat tug'i ostida boshqarish mutafakkirning idealidir.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) buyuk alloma va mutafakkir. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadonda vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy meros taxminan 280 nomdan ziyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, asloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Oltinining «Shifo kitobi», «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarlari mashhurdir. Borliqni talqin etishda Abu Sino Forobiy izidan borib, uni «vujuci vojib» va «vujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabbab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir.

Yaratilishi doimiy bo'lganligi uchun yaratilgan «vujudi mumkin» ham abadiydir. Olimning sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog'langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir. Ibn Sino Zakariyo ar-Roziy va Beruniy kabi jahon falsafiy tafakkuri tarixida birinchilardan bo'lib kuzatuv va tajribaga muhim e'tibor qaratdi. Masalan, alloma ular ko'magida xastaning holati, kelajakda kutilayotgan kayfiyati, dori-darmonlar tarkibi, inson va atrof-muhit o'zaro munosabati muammolarini hal etishga urindi.

Xullas, Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida keng tarqalgan islom dini, islomiy ta'limotlar, tasavvuf falsafasi, imom Abu Hanifa, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Moturidiy va imom Burxoniddin Marg'inoniylar g'oyalari, Muso al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy tadqiqotlarida ilgari surilgan tabiiy-ilmiy g'oyalar, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning tabiiy-ilmiy qarashlari, fandagi yangi yo'nalishlar birinchi galda musulmon Sharqi, qolaversa, butun jahon tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkurining ravnaqiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi.

Tasavvuf va uning tariqatlari. Tasavvuf falsafiy oqim va diniy-ma'naviy hodisa sifatida islom dini doirasida (ko'pgina ichki sabablar va ba'zi tashqi unsurlar — buddaviylik va hindiylikning ilk diniy tasavvurlari, sharqiy xristian tarkidunyochiligi, neoplatonizm kabilarning ta'siri ostida) paydo bo'ldi. Tasavvuf uchun vahdoniyat — Olohning birligi, Oloh va olamning porlab turishi, fano bo'lish, orif shaxsining Tangri taolo bilan ruhan birlashib ketishi kabi mushohadalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oqim namoyandalari va tarafdorlarini so'fiylar deb ataganlar va «so'fizm» atamasi shundan paydo bo'lgan. Rasmiyatchilik, aqidachilikni tasavvuf ahli qabul qilmagan. Ularning fikricha, iymon-e'tiqodning mohiyati Olohdan boshqa narsaga muhtoj bo'lmaslik, hech qanday mulkning quliga aylanmaslik, boriga sabr-qanoat qilib yashashdir. Olohga yetishish uchun qalbni poklash, nafs balosidan ozod bo'lish darkor. Ana shundagina inson

dili nur bilan to'лади, nuqsonlarni boshqalardan emas, o'zidan izlaydigan darajaga ko'tariladi, Haq sari yaqinlashadi, bema'ni qarash va tushunchalarning qullik kishanidan o'zini ozod qiladi, Chunki inson qalbi hurdir.

Butun islom olamida keng tarqalgan tasavvufning yurtimizdagi eng keng tanilgan yo'nalishlari kubraviya, yassaviya, naqshbandiya tariqat-suluklaridir.

Kubraviya tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro (1154–1226) Xevada tug'ilgan, asarlari orasida «Sharxus-sunna val-masolix», «Ubuli ashara», «Favoixul-jamol» kabilar mashhurdir. Kubraviya tariqatining mohiyati o'nta usulda mujassamlashgan. Bular — Tangri-ga o'z xohishi bilan yuzlashish, zuxd fi dunyo — har qanday laz-zatdan o'zini tiyish, tavakkul — Ollohga e'tiqodi pokligi uchun barcha narsalardan voz kechish, qanoat, uzlat — xilvatni ixtiyor qilish, mu'lozamat az-zikr — uzluksiz zikr, tavajjuh — Haqqa muhabbat qo'yish, sabr — nafs balosidan ozod bo'lish, muroqaba — tafakkurga qarq bo'lish, rizo — Tangri xushnudligini qozonishdan iborat.

Kubro mo'g'ullar bilan bo'lgan janglarda jasorat ko'rsatgan va shahid bo'lgan. Mo'g'ullar Kubroning nomi ulug'ligi, obro'si balandligini hisobga olib, unga ozod bo'lishi, omon qolishi mumkinligini, buning uchun esa qamal qilingan qal'adan chiqib ketishi kifoya ekanini bildirgan. Ammo Kubro bunday jon saqlagandan ko'ra, o'z xalqi bilan birga yurt himoyasi yo'lida jon berishni afzal ko'rgan. Rivoyat qilishlaricha, ul zot qartayib qolganiga qaramay, jangchilarga faol ko'mak bergan. Buni ko'rgan shogirdlaridan biri «Ustoz, anchadan beri bayroq ko'tarib charchadingiz, uni menga bering», deganida, u «Agar kuchim bo'lganida qilich yoki kamon olgan bo'lar edim. Bayroqni bizga qo'yingda, siz yo qilich yoki nayza bilan yog'iyga qarshi kurashing», degan ekan. U bayroqni shunchalik mahkam ushlagan ekanki, halok bo'lganidan keyin, qo'lidan bayroqni olishning iloji bo'lmaganidan, bir mo'g'ul Kubroning qo'lini kesib olgan ekan.

Yassaviya tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy (1166-yilda vafot etgan). Turkistonning Sayram nuzofotida tug'ilgan, mashhur mutasavvif Yusuf Hamadoniyning (1140-yilda vafot etgan) ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga yetgan, orif maqomiga

erishgan. Yassaviy ustozining vafotidan keyin muayyan bir muddat uning maqomida turgan, so'ng esa bu maqomni Abduxoliq G'ijduvoniya qoldirib, Yassi — Turkiston shahriga qaytadi va o'z tariqati, yo'l-yo'riqlarini tashviq etish bilan mashg'ul bo'ladi.

Yassaviyning oddiy xalq tushunadigan uslubda yozilgan, tasavvufiy qarashlarini aks ettirgan hikmatlari devonida o'z akisini topgan. Unda ilohiy ishq, Haq vasliga yetishish, uning ishqida parvona bo'lish, undan boshqa narsaga ko'ngil qo'ymaslik haqida fikr yuritilgan. Yassaviy riyozat, chilla, zikrga alohida ahamiyat berib, hayotining aksariyatini chillaxonada o'tkazgan. Yassaviy tariqati Turkiston o'lkasi, Ozarboyjon, Turkiya, Shimolda — Qozon shahrigacha, G'arbda — Bolqongacha keng tarqalgan.

Mashhur mutasavvif Yusuf Hamadoniyning (1140-yilda vafot etgan) ta'lim-tarbiyasi bilan voyaga yetgan yana bir ulug' zot — Bahouddin Naqshband (1318—1389-yillar) naqshbandiya tariqatining asoschisidir. Bu ta'limotning mohiyati «Dil — ba yoru dast — ba kor» shiorida yaqqol ifodasini topgan. Unga ko'ra inson Oллоh inoyati natijasi bo'lib, bu dunyoni unutib qo'ymasligi lozim, uning qalbi doimo Oллоhda, qo'li esa mehnatda bo'lmog'i lozim. U tasavvufning barcha tariqatlari singari shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlarini e'tirof etadi.

Naqshbandning ta'kidlashicha, shariat — ahdga vafodir, islomning beshta asosiy talabiga rioya qilish, dil va til birligi. Tariqat esa, o'zidan kechish, fano bo'lishdir. Haqiqat — behuda ishlardan uzoqlashish, haq ishlarga bog'lanish. Demak, shariat — qonun, tariqat — yo'l, qonun vujud va qalbni tarbiyalaydi. Yo'l esa ko'ngilni poklab, ruhni ilohiy quvvatdan bahramand qiladi.

Kubraviya, yassaviya va naqshbandiya ta'limotlari ma'naviyatimiz tarixida juda katta o'rin tutgan va o'z ta'sirini haligacha saqlab kelmoqda.

Vatanimiz sivilizatsiyasining sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga ta'siri nihoyatda katta bo'lgan. Uning hududida arab xalifaligidan nisbiy mustaqillikka erishgan davlatlarning tashkil topishi, xalqimizning bag'rikengligi tufayli yangi marralarga erishildi. Dunyoviy va diniy sohalardagi madaniy-

ma'naviy yuksalish mazkur uyg'onish davrining yorqin timsolidir. «Avesto» an'analari, tabiatni o'rganishdagi yutuqlar, gumanitar sohadagi ijobiy siljishlar, Sharq xalqlari, arab madaniyati va islom falsafasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatdi. O'sha davrda jahon miqyosida Vatanimizning ma'naviy-intellektual nufuzi ortib bordi. U jahondagi yirik madaniyat va ilm-fan markaziga aylandi.

Afsuski, bu madaniy uyg'onish mo'g'ul bosqini tufayli tanazzulga yuz tutdi. Amir va sultonlar o'rtasidagi o'zaro ixtiloflar, noahillik Chingizxon bosqiniga qo'l keldi. Bu bosqin mo'g'ullarning 1218-yilda O'tror shahrini bosib olishi, uning hokimi, Xorazmshohning qaynog'asi, Inolchiqni bandi qilishi va qulog'iga qaynab turgan kumushni quyib yuborishdek xunrezlikdan boshlandi. Mo'g'ullarning hukmronligi davrida ana shunday qonxo'rlik tinimsiz davom etdi. Ko'rkam shahar va qishloqlar vayronaga aylandi, iqtisodiyot tanazzulga yuz tutdi. Ilm-fan, madaniyat, jumladan falsafa ilmi ham inqirozga uchradi.

Garchand uquvsiz hukmdor Muhammad Xorazmshoh saltanatni saqlab qola olmagan bo'lsa-da, xalqimizning bosqinchilarga qarshi kurashi aslo to'xtagani yo'q. Ba'zi tarixiy manbalarga ko'ra, o'sha davrda nihoyatda katta hududdan 600 mingga yaqin qo'shin to'plash mumkin edi. Bu qo'shin to'planganida va tajribali lashkarboshiga topshirilganida Chingizxon saltanatni bosib olishi gumon edi. Insoniyatning o'tmishini yaxshi biladigan ba'zi olim va mutaxassislarning fikricha, agar shoh o'zining yovqur o'g'li Jaloliddinni avval boshdanoq taxt vorisi etib tayinlaganida va qo'shinining ixtiyorini unga topshirganida, nafaqat Osiyo tarixi, balki jahon tarixi boshqacharoq yo'ldan ketishi mumkin edi.

Afsuski, tarix «Agar unday bo'lmaganida edi...» qabilidagi tamoyillarni tan olmaydi. Chingiziylar bosqini Vatanimiz madaniy taraqqiyotini bir necha asrlar orqaga surib yubordi. O'sha davrda bosqinchilarga qarshi kurashning eng atoqli vakili Jaloliddin Manguberdi esa millatimiz ozodligi uchun olib borgan kurashining timsoli sifatida tariximiz sahifalarida al adiy qoldi.

Amir Temur va temuriylar davri falsafasi. Insoniyat tarixida shunday davrlar borki, unda buyuk ishlarga tayyor millatlar,

o'zining yo'l boshchilari yetakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo'lga kiritish mumkin bo'lgan natijalarga erishganlar. Aynan ana shunday davrlar insoniyat tarixiga shu millatga mansub buyuk kishilarning o'chmas nomini bitadi, jahon madaniyatini boyitadi, umumbashariy taraqqiyotga katta hissa bo'lib qo'shiladi.

Temur va temuriylar davri xuddi ana shunday, mo'g'ul bosqinchilaridan ozod bo'lgan xalqimizning milliy dahosi eng yuksak cho'qqiga ko'tarilgan davrdir. Bu davr falsafasi xalqimizning sohibqiron Temur boshchiligida ozodlikka erishgan va mustaqillikni saqlash hamda mustahkamlash uchun amalga oshirgan buyuk ishlarining ifodasidir. Bu xalqimizning markazlashgan davlat tuzish, milliy davlatchiligini tiklash va barqaror qilish, mustaqil yashash orzularining ushalgan davridir.

Mo'g'ullar o'rnatgan mustabid tuzumning Amir Temur dunyoga kelgan davrida yerli aholi o'rtasida chuqur ijtimoiy va ma'naviy uyg'onish jarayoni borayotgan edi. Bu jarayon, «Tarixi, o'sha davrdayoq, ming yilliklar qa'riga ketgan buyuk xalq mustamlakachilik azobida yotaveradimi?» yoki «Mustaqillik uchun kurash olib borishda davom etadi va ozodlikka erishadimi?» degan asosiy savollar atrofida ro'y berayotgan edi.

Mo'g'ullar mamlakatimizni siyosiy va harbiy jihatdan istilo qilgan edilar, ammo uni ma'naviy bo'ysundirish, madaniy jihatdan mo'g'ullarning ustunligi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Ko'chmanchilik va shaharlarni g'orat qilishdan boshqasiga yaramaydigan, o'troq hayotga mensimay qaraydigan Chingiz avlodlari ma'naviy va madaniy jihatdan o'zlaridan ustun bo'lgan xalqqa nima ham bera olar edilar? Ular o'z hukmronligining oxirigacha ham Vatanimizda birorta tuzukroq yashash mumkin bo'lgan yangi shahar barpo etmadilar, madaniyat o'choqlarining yuksalishi uchun imkon bermadilar, yerli aholi orasidan chiqqan barkamol kishilarni qilichdan o'tkazib turdilar. Ammo xalq irodasini buka olmadilar, uning ozodlik va mustaqillikka intilishini to'xtatib qo'ya olmadilar. Amir Temur ana shu harakatning natijasi, xalqining milliy g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun tarixiy shakllangan zaruriyat, o'sha paytda har-

biy uyushqoqlik, siyosiy hushyorlik, fidokorlik jihatidan jahonda tengi yo'q millatga aylangan xalq dahosi yaratgan buyuk jahongir edi. Xalq jahongirga aylanganida o'zining jahongirini yaratadi. Qolida bir jahongir millat boshqasini uyg'otib yuboradi. Bu esa tarixning muayyan hududdagi eng burilish nuqtalariga to'g'ri keladi.

Ba'zilar Temur falsafiy asarlar yozmagan-ku, uning falsafaga aloqasi bormi, deb o'ylaydi. Aslida Temurning hayoti va faoliyati falsafadan iborat emasmi? U falsafiy xulosalar chiqarish uchun boshqa kishilarning hayoti va asarlaridan ham mazmunliroq hayot emasmi? Falsafani faqat kitoblardagina o'rganish mumkinmi? Aslida, falsafani to'la-to'kis kitobga tushirib bo'lmaydi. Kitobga tushirilgan falsafa muayyan tizimga keltirilgan falsafiy bilimlar sistemasi xolos. Temur va temuriylar davrini tarix falsafasi va falsafa tarixini uyg'un tarzda yozish orqali nisbatan to'g'ri ifodalash mumkin. Amir Temurning hayoti, uning faoliyati, temuriylar davridagi madaniy jarayonlar, ilm-fan rivoji kabi masalalar esa bir necha falsafiy kitoblar, o'nlab tadqiqotlar uchun mavzu ekanligi aniq. Qolaversa, Temur va temuriylar kabi ilm-fan, madaniyat va san'atni, falsafa va adabiyotni nozikta'b tushungan, o'zlari ham bu sohalarda ajoyib yutuqlarga erishgan siyosiy sulolalarni jahon tarixidan topish qiyin. Bu sulola vakillari orasida she'r yozmagan, adabiy mashqlar qilmagan, fan-madaniyatga qiziqmagan biror temuriyzoda bo'lmasa kerak. Tarix shundan dalolat beradiki, yurt boshliqlari fan va madaniyatga qiziqqan, ma'naviyatni yuksaklikka ko'tarish uchun kurashgan o'lkada bu sohalar haqiqiy yuksalish bo'ladi. Siyosiy ta'minlanganlik, boshqa sohalar bilan birgalikda, madaniy taraqqiyotning eng asosiy omili ekanligini rad qilish unchalik o'rinli emas. Madaniyatparvar va millatparvar Amir Temur va temuriyzodalar o'sha davr ma'naviy taraqqiyoti uchun siyosiy va iqtisodiy asoslarni to'la-to'kis yaratgan arboblardir. Xalqimizning asrlar osha ular ruhiga minnatdorlik tuyg'usi bilan yondashuvi, haligacha o'z farzandlariga bu sulola vakillari nomlarini qo'rib yurishi, bugungi kunda ham o'sha zamondan tashbehlar izlayotganining sabablaridan biri ham ana shunda.

Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir (1336–1405) Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja ilg'or qishlog'ida dunyoga keldi. Uning eng asosiy tarixiy xizmatlari shundan iboratki, u mo'g'ullarning bosqinchilik va vayronkorliklariga qarshi kurashib, O'rta Osiyoni ulardan xalos etdi. Mayda feodal va mulkdorlarning o'zaro nizolariga barham berib, kuchli markazlashgan davlat barpo qildi. Mamlakatda tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta'minladi. Uning davrida «Kuch — adolatda» tamoyili amalga oshdi, iqtisod va madaniyat yuksaldi, o'zga mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi.

Amir Temur mohir harbiy sarkarda sifatida nom qozondi. U o'z hayotini Movarounnahr xalqining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go'zal bog'lar bunyod qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi, mamlakatimiz Sharqning go'zal hududiga aylandi.

Temurning yana bir ulkan xizmati shuki, u madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olimu fuzalo va din arboblari to'pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldilar. Bobur Mirzoning xabar berishicha, o'sha davrda Samarqand eng go'zal shahar edi. Ispan sayyohi R. G. Klavixo Samarqandning go'zalligiga qoyil qolgan edi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi. Islom dini o'sha davrda asosiy mafkura bo'lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Temur o'z faoliyatida unga tayanib ish ko'rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloqch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. Temur tasavvufdagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish,

shir va fahsh ishlar bilan shug'ullanmaslik, harom-xarish ishlar-
dan qochish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtoj-
larga mehr-shafqat ko'rsatish kabi g'oyalarni xalqqa singdirish
rejalari kurash olib bordi. Naqshbandlik tariqatining yirik shayx-
lari bo'lmish Sayyid Amir Kulol, Shayx Abu Bakr Tayobodiy,
Mir Sayyid Barakalar Temurning pirlari bo'lib, sohibqiron ular
bilan tez-tez muloqot qilib turgan.

Temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Xusayn Boyqaro, Bo-
bur Mirzolar davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidala-
riga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda
uning an'analarini izchil ravishda davom ettirdilar. Bu davrda
me'morchilik san'ati yuksak darajaga ko'tarildi. Amir Temur
Ko'ksaroy masjidi, Shoxizinda, Bibixonim madrasasini qurdirdi.
Kashda (Shahrisabz) Oqsaroy barpo qila boshladi. Mirzo Ulug'bek
davrida 1417–1420-yillarda Registonda, keyinchalik Buhoroda,
1432–1433-yillarda G'ijduvonda madrasalar qurildi, Bibixonim
masjidi, Go'ri Amir maqbarasi qurib bitkazildi. 1429-yili esa
Ulug'bekning falakiyot rasadxonasi nihoyasiga yetdi. Xirotda
ham ko'plab me'morchilik binolari barpo qilindi. Ular jumlasiga
mosjid, madrasa va xonaqohlardan iborat bo'lgan Gumbazi sabz,
Alisher Navoiy qurdirgan «Ixlosiya», «Nizomiya», «Shifoia»
madrasalari, Marv shahridagi «Xusraviya» madrasasi va boshqalar
kiradi. Navoiy yashagan zamonda Xirotda «Sharq Rafaeli» deb
nom olgan Kamoliddin Behzod (1456–1535) va shoh Muzaffar
kabi dunyoga mashhur rassomlar ijod qildi. Behzod «Zafarnoma»
kitobiga, Xusrav Dehlaviyning «Xamsa», Sa'diyning «Bo'ston»
manzariga naqsh bergan va Xusayn Boyqaro, Xotifiy, Jomiy va
boshqalarning rasmini chizgan, xalqning mehnatini, tabiat man-
zaralarini haqqoniy tasvirlagan.

XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning
ko'p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar,
tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot,
hondasa, tarix, adabiyot, jo'g'rofiya, pedagogika, mantiq, fal-
safa, axloqshunoslik va boshqalarga e'tibor berildi. Ayniqsa, ba-
diiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi, ularda
o'z davrining muhim ijtimoiy muammolari va insonparvarlik

g'oyalari olg'a surildi. «Gul va Navro'z» muallifi Lutfiy (1366–1465), «Bexro'z va Bahrom» asarini yozgan Binoiy (1453–1512), «Tazkirat ush-shuaro» (shoirlar haqida tazkira)ning muallifi Davlatshoh Samarqandiy, «Yusuf va Zulayho», «Maxzan ul-asror» (Sirlar xazinasasi) asarlarining mualliflari Durbek (XIV–XV asrlar), Haydar Xorazmiy hamda Kamol Xo'jandiy (1402-yilda vafot etgan), Hofiz Xorazmiy (XIV–XV asrlar), Ismat Buxoriy (1365–1436), Yaqiniy (XV asr), Hiloliy (XV asr), Atoiy (XV asr) va boshqalar o'sha davrda yashab ijod etdilar.

Bu davrda tarix faniga e'tibor kuchaydi, yirik tarixnavislar paydo bo'ldi. Temuriylar davrida Abdurazzoq Samarqandiyning (1413–1482) «Matlaa as-sa'dayn va majma' al-baxrayn» («Ikki dengizning qo'shilishi»), Hofizi Abruning (1361–1430) «Zubdat at-tavorix» («Tarixlarning sarasi»), Muyiniddin Isfizoriyning (1494-yilda vafot etgan) «Ravzat al-jannat fi avsof madinat», Fosix Havofiyning (1375–1442) «Mujmali fosixiy», Sharafiddin Ali Yazdiyning (1454-yilda vafot etgan) «Zafarnoma»si, Nizomiddin Shomiyning (XIV asr XV asrning boshi) «Zafarnoma»si va boshqalar mashhur edi.

O'sha zamonning eng mashhur tarixchilari Mirxond (1433–1498) va Xondamir (1475–1535) edilar. Mirxond Xirotda tavalud topib, shu yerda ijod qilgan. Uning asosiy tarixiy asari 7 jilddan iborat bo'lib, «Nabiralar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollari haqida poklik bog'lari» deb ataladi. U olti jildini yozib vafot etadi, yettinchisini nabirasi Xondamir yozib tugatadi. Xondamir ham Xirotda tug'ilib, yoshligidan tarixnavislikka havas qo'yadi. U Agrada vafot etadi. Uning muhim risolalari «Makorim ul-axloq», «Habib us-siyar», «Vazirlar uchun qo'llanma» va boshqalardir.

XIV–XV asrlarda mantiq, tabiiy-ilmiy fanlar, ayniqsa falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e'tibor berildi. Mantiq ilmi-ning yirik vakillaridan biri Sa'diddin Taftazoniydir (1322–1392). U Niso viloyatiga qarashli Taftazon qishlog'ida dunyoga keladi. Yoshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san'ati va mantiq bilan shug'ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi. Turkiston, Hirot, Jom, G'ijduvon madrasalarida talabalarga dars berdi.

Taftazoniy shuhrati, ilmiy ishlari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng tarqaldi. Temurning taklifi bilan alloma Samarqandga kelib, shu yerda umrining oxirigacha yashadi. Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir. Muhimlari: «Taxzib al-mantiq val-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish») «Muxtasar al-ma'oni» (Ritorikaga oid «qisqacha ma'nolar»), «Al-irshod ul-xodiy», (Arab tili grammatikasiga oid «Yo'l boshlovchi rahbar»), «Al-maqosid at-tolibin» (Falsafa va kalomga oid «Toliblarning maqsadlari») va boshqalar. Taftazoniy o'tmish olimlarining juda ko'p asarlariga sharhlar ham bitgan.

O'sha davrning yana bir atoqli allomasi Mir Sayyid Sharif Jurjoniy Astrobod shahri yaqinida tug'ilgan. Jurjoniy Istanbul, Qohira, Xirot, Sheroz shaharlarida bo'lib, ulardagi olimlardan ilm-sularini o'rganadi. 1387-yildan boshlab Samarqand madrasalarida mantiq, falsafa, falakiyot, fiqh va adabiyot, munozara ilmi va boshqalardan dars beradi. Jurjoniy 50dan ortiq risolalarning muallifi bo'lib, ularning aksariyati mantiq, fiqh, falsafa va tabiiy-ahliyatning muhim muammolariga bag'ishlangan. Olimning «At-ta'rifot» («Ta'riflar»), «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishning qoidalari haqida risola»), «Suqro» («Kichik dalil bo'la oladigan hukm»), «Kubro» (Katta dalil bo'la oladigan hukm»), «Ayyat dar mantiq», («Mantiqda o'rta xulosa»), «Risolayi vujudiyot» («Borliq haqida risola») va boshqa asarlari mavjud. Bulardan tashqari, Jurjoniy salaflarining, xususan ibn Sino, Chaqminiy va Nasiriddin Tusiyning asarlariga sharhlar yozganligi ma'lum.

Umuman olganda, Taftazoniy va Jurjoniyning falsafiy va mantiqiy qarashlari ilm-fan rivojida katta hissa bo'lib qo'shildi va keyingi davrlarda yashagan mutafakkirlarning dunyoqarashiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Iltimon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo'shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394—1449) matematika va falakiyot sohasida barkamol ijod qilgan. Uning otasi, Amir Temurning o'g'li Shoxruh Mirzo edi. Ulug'bek yoshligidan ilm bilan qiziqdi. Unga taniqli olimlar qozizoda Rumiy va G'iyosiddin Jamshid ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi bo'lsa ham, madaniyat va ilm-fan ravnaqiga ko'p

kuchini sarfladi, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olimning dunyoqarashida Aflotun, Arastu, Ptolemey, Muhammad Xorazmiy, al-Fargʻoniy, Forobiy, ibn Sino, Beruniy va boshqalarning asarlari muhim oʻrin egalladi.

Ulugʻbekning ulkan ishlaridan biri uning Samarqandda, Koʻxak tepaligida, Obi Rahmat arigʻining boʻyida, rasadxona barpo etganligidir. Ushbu rasadxona qurilishi 1424-yilda boshlanib, 1429-yilda tugallandi. Olimning eng muhim asari «Ziji jadidi Koʻragoniy» deb ataladi. Undan tashqari, Ulugʻbek matematikaga oid «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», astronomiyaga bagʻishlangan «Risolayi Ulugʻbek» va tarixga oid «Toʻrt ulus tarixi» kitoblarini yozdi. Ulugʻbek mantiq ilmi, fiqhshunoslik, musiqa va adabiyot nazariyasini yaxshi bilar edi. Olimning «Ziji» ikki qism, muqaddima va 1118 yulduzning oʻrni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

Ulugʻbek oʻz atrofiga qobiliyatli olimlarni toʻpladi, oʻzga mamlakatlardan iqtidorli allomalarni taklif etdi. Ana shunday olimlardan biri Gʻiyosiddin Jamshid al-Koshiy (1430-yilda vafot etgan) boʻlib, u yirik riyoziyotchi va falakiyotchidir. Uning asarlari «Miftox ul-hisob» («Hisob kalidi»), «Risola al-muhitiya» («Doira haqida risola») va boshqalardir. XVI asrdan boshlab Yevropa mamlakatlarida uning kashfiyotidan foydalana boshladilar.

Tarixda Ali qushchi nomi bilan mashhur boʻlgan Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1403–1474) Ulugʻbekning shogiridir. U ilmiy ishlarini falakiyot va riyoziyot sohasida olib bordi. Uning asarlari: «Arifmetika ilmi haqida risola», «Mantiq risolasi», «Astronomiyaga oid risola» va boshqalardir. Ali Qushchi «Astronomiyaga oid risola»sida Oy va Quyosh tutilishi qonuniyatlarini ilmiy asoslab berdi. Olim tabiat sirlari va uning qonuniyatlarini oʻrgandi, jismlar harakati va ularning oddiydan murakkabga oʻtishi toʻgʻrisida oʻz fikrlarini ilgari surdi.

Umuman shuni taʼkidlash lozimki, Ulugʻbek va u asos solgan astronomiya maktabi koinotdagi hodisalarni oʻrganishda muhim rol oʻynadi, oʻsha vaqtgacha fanga maʼlum boʻlmagan

hodisalarni idrok qilib, inson aql-zakovatining bilish imkoniyatlarini kengaytirdi, keyingi davrlarda yashagan olimlarga samarali ta'sir ko'rsatdi. Ulug'bekning astronomiya sohasidagi g'oyalari Yevropada XVI asrdan boshlab Kopernik, Galiley va boshqalar rivojlantirdilar.

Ulug'bek Islom diniga chuqur e'tiqod qo'ygan, ilohiyot rivojiga munosib hissa qo'shgan, maktab va madrasalar qurishga e'tibor bergan shoh va jahonga mashhur olim edi. Lekin sobiq sho'rolar davrida uning tabiiy-ilmiy qarashlari Islom diniga qarshi qaratildi, hatto uni ateist darajasiga ko'tarishga urinishlar ham bo'ldi. «Ulug'bek Mirzo, — deb ta'kidlagan edi Alisher Navoiy, — donishmand podshoh edi. Kamoloti bag'oyat ko'p erdi». «Temurxon naslidin Mirzo Ulug'bek, Ki dunyo ko'rmadi podshoh aningdek» misralari ham Navoiyga tegishlidir.

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hirot madaniy va ilmiy markazga aylandi. Ayniqsa, Temuriylardan Husayn Boyqaro hukmronligi davrida bu yerda ilm-fan, adabiyot sohasida yuksalish yuz berdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi jahonga mashhur mutafakkirlar yetishib chiqdi. O'rta asr mumtoz adabiyotining vakili, ulug' shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414–1492) Navoiy ustoz deb hisoblar edi. Uning qalamiga mansub asarlar «Nafahot ul-uns», «Hujjat ul-asror», «Musiqqa haqida risola», «Naqshi fusus», «Vohid atamasi haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Bahoriston» va boshqalardir. Jomiyning eng yirik asari «Haft avrang» bo'lib, unga «Tuhfat ul-ahror», «Suhbat ul-abror», «Yusuf va Zulayho», «Suhbat ul-asror», «Layli va Majnun», «Salamon va Absol», «Xiradnomayi iskandariy» dostonlari kiradi.

Barcha musulmon mutafakkirlari kabi Jomiy ham Xudo abadiy, mutlaq va dunyodagi hamma narsalarning sababchisidir, Xudo mavjud bo'lganda, borliq yo'q edi, dunyo o'zining boshlang'ichini Ollohdan olgan, demak, Xudo hamma narsaning yaratuvchisidir, deb hisoblaydi. Jomiyning falsafiy qarashlari uning insonparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Mutafakkirning ko'pgina asarlarida inson, adolat, muhabbat, ezgulik g'oyalari tasvirlanadi. Jomiy naqshbandiylik ta'limotiga e'tiqod qilib, uning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantiradi.

Jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan siymolardan biri, ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiydir (1441–1501). Uning otasi G'iyosiddin kichkina Shahrisabzdan **Hirotda borib qolgan barlos beklaridan edi**. Navoiy **Hirotda Husayn Boyqaro saroyida turli lavozimlarda ishladi**, 1472-yildan boshlab **vazir etib tayinlandi**. Mamlakat obodonchiligi, xalq ravnaqi va osoyishtaligi yo'lida **ko'p ishlar qildi**.

Navoiy ijodi boy bo'lib, asarlari turli mavzularga bag'ishlangan. «Xamsa» ya'ni «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari hamda «Xazoyin ul maoniy» («Ma'nolar xazinasi»), «Lison ut-tayr», «Majolis un nafa'is», «Mahbub ul qulub», «Mezon ul-avzon», «Muhokamat ul-lug'atayn» va boshqalar.

Navoiyning ijodi falsafiy fikrlarga boy bo'lib, unda jamiyat va inson munosabati, insonning baxt-saodati, komil inson va fozil jamoa, ta'lim-tarbiya haqidagi fikr-o'ylari o'z ifodasini topgan. Shoir ijtimoiy-falsafiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, unda falsafiy fikrlar majoziy tarzda, badiiy o'xshatish va ramziy iboralar yordamida, zohiriy va botiniy ma'nolarda bayon qilinadi. Navoiyning ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g'oyasi muhim o'rinni egallaydi. Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do'stlik, adolat, tinchlik, osoyishtalik va boshqa go'zal fazilatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar to'g'risidagi qimmatli fikrlari, nasihatimiz so'zlari respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

O'sha davrning ko'zga ko'ringan mutafakkirlaridan biri Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy (taxm. 1440/1450 — 1505-yillarda yashagan) bo'lib, O'rta Osiyo va Xurosonda axloq falsafasi rivojiga hissa qo'shgan. Koshifiy Sabzavor shahrida tavallud topadi, keyinchalik Abdurahmon Jomiyning taklifi bilan Xirotda ko'chib keladi. U qolgan umrini Hirotda o'tkazadi va shu yerda vafot etadi. Olimning muhim risolalari «Axloqi muxsiniy» «Futuvvatnomayi sultoniy», «Anvari Suxayli», «Maxzanul-insho», «Risolayi xotamiya» va boshqalardir. Koshifiy katta olim va mudarris bo'lib yetishadi, butun umrini ilm-fan va nasru-nazm ravnaqiga bag'ishlaydi. U

Navoiy va Jomiy bilan do'stona aloqada bo'ladi. «Mavlono Husayn Voiz Koshifiy taxallus qilur, sabzavorlikdur. Yigirma yilqa yaqin borkim, shahardadur va mavlono zufundun va rangin va purkor voqe' bo'lubtur. Oz fan bo'lg'aykim, daxli bo'lmag'ay. Xususan, va'z, insho va nujumki, aning haqqidur va har qaysida mashhur ishlari bor...» — degan edi Navoiy uning haqida.

XV asrning oxiridan boshlab Temuriylar davlati sekin-asta inqirozga yuz tuta boshladi. Bunga temuriy shahzodalarning o'zaro urush-janjallari, tarqoqlikning kuchayishi, o'zaro nizolar, taxt uchun kurashlar natijasida mamlakatning bo'linib ketishi, iqtisodning tushkunlikka uchrashi sabab bo'ldi. Natijada Movarounnahr Shayboniyxon tomonidan bosib olindi.

Bobur va boburiylar davri falsafasi. Temur avlodidan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) o'sha davrning eng ma'rifatli podsholaridan biri edi. Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tug'ilgan Bobur keyinchalik Hindistonda ulkan sultanatga asos soldi. Bobur davrida hind diyori gullab-yashnadi, undagi madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi. Hindistonning XX asrdagi eng atoqli kishilari Maxatma Gandi va Javoharlal Neru ham Bobur va boburiylar — Shoh Jahon, Avrangzeb va Akbar kabi temuriyzodalarga juda katta baho berganlar.

Ichki kelishmovchiliklar natijasida o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan Bobur avval Qobulda, so'ngra esa 1526-yilgi Panipat jangida Ibroxim Lo'di ustidan g'alaba qozonib, Hindistonda o'z hukmronligini o'rnatdi. «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300 yildan ortiq hukmronlik qilib, temuriylar davlati va madaniyatining davomchisi sifatida mashhur bo'ldi.

Boburning xizmati shundaki, u Hindistonni markazlashgan davlatga aylantirdi, mamlakatda tinchlik o'rnatdi, obodonlashtirish va qurilish ishlarini rivojlantirdi, karvonsaroylar, me'moriy yodgorliklar, bog'chalar, kutubxonalar barpo qildi, madaniyat, san'at, adabiyot va ilm-fanni yuksaltirdi. Bobur ilm-fan, san'atga katta qiziqish bilan qaragan, yuksak aql egasi, qomusiy bilimga ega bo'lgan davlat arbobi, olim va shoirdir.

Boburiylarning ko'pchiligi ma'rifatchilik bilan mashg'ul bo'ldilar, olimu fuzalolar bilan maslahatlashib turdilar. Ularning

yana bir xizmati islom va budda diniga e'tiqod qiluvchi musulmon va hindularni kelishtirishga, ahil yashashga chaqirishda bo'ldi.

Boburning mashhur tarixiy asari «Boburnoma»dir. Bulardan tashqari, u huquqshunoslikka oid «Mubayyin», aruz ilmiga oid «Mufassal», musiqa bo'yicha «Musiqiy», harbiy ishlarga oid «Harb ishi» risolalarini yozgan. «Boburnoma» o'sha davrdagi Markaziy Osiyo, Hindiston, Afg'oniston, Eronning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotini, savdo munosabatlari, jug'rofiyasi, hayvonot va nabotot olamini, iqlimi, qabila va elatlarning urf-odatlarini, marosimlari, turmush tarzini va marosimlarini aks ettirgan asardir.

Bobur o'zining lirik she'rlarida ishq, muhabbat, Vatan sog'inchi, mehr, vafo, insoniylik, do'stlik, yaxshilik va mehr-oqibatni kuyladi.

Javoharlal Neru Boburning Hindistondagi faoliyatiga katta baho bergan edi. Neru Boburning dilbar shaxs ekanligi, mard va tadbirkorligini, san'atni sevganini va umuman, Hindiston uchun ko'p ish qilganligini ta'kidlagan edi. Bobur va boburiylarning siyosiy, madaniy faoliyatlari Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik rishtalarini mustahkamlashda hozir ham muhim rol o'ynamoqda.

Shunday qilib, XIV–XV asarlarda Movarounnahr va Xurosonda madaniy yuksalish yuz berdi. Buni olimlar Renessans davri ham deb atamoqdalar. Ba'zi olimlar esa, bu atamaning Sharq mamlakatlariga to'g'ri kelmasligi to'g'risida o'z fikrlarini aytmoqdalar. Nima bo'lganda ham Yevropada XV–XVI asarlardagi ko'tarinkilik, Renessansning muhim xususiyatlari Markaziy Osiyoda ro'y bergan madaniy yuksalish bir-biriga ko'p tomonlari bilan o'xshab ketadi. Bular orasida mushtarakliklar ko'p.

XIV–XV asrlar moddiy va ma'naviy yuksalishining muhim xususiyati yana shundan iboratki, bu davrda ishlab chiqarish o'sdi, ichki va tashqi savdo, hunarmandchilik, dehqonchilik rivojlandi, xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik va madaniy aloqalar o'rnatildi, inson aql-zakovati va uning eng yaxshi fazilatlariga e'tibor kuchaydi, ilm-fan va san'at rivoj topdi, qomusiy olimlar yetishib chiqdi, madaniy merosni o'rganishga qiziqish ortdi. Temur va temuriylar davridagi madaniy yuksalish hozir

ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular mustaqil davlatimizni mustahkamlashda, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda ma'naviy ozuqa vazifasini o'tamoqda.

Temuriylardan keyingi ijtimoiy jarayonlar va falsafiy tafakkur. XVI asrdan boshlab Movarounnahrda o'zaro urushlar, nizolar avjga chiqdi, Temuriylar davlati inqirozga yuz tutib, mayda davlatlarga bo'linib ketdi. Natijada Shayboniylar davlati tuzildi, 1510-yilda Shayboniyxon Ismoil Safaviy lashkarlari tomonidan o'ldirilganidan so'ng, markazlashgan davlat inqirozga yuz tutdi.

Shayboniylardan Abdullaxon va uning o'g'li Abdulmo'min vafotidan so'ng, XVI asr oxirida bu davlat barham topib, hokimiyat ashtarxoniylar sulolasiga o'tdi. Imomqulixon (1611–1642) davrida davlat birmuncha mustahkamlangan bo'lsa-da, keyingi davrlarda taxt uchun kurashlar davom etdi. Bu esa iqtisod, madaniyat, ilmlar, adabiyot, san'at ravnaqiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ayniqsa, tabiiy-ilmiy fanlar rivoji zaiflashdi, dunyoviy bilimda tanazzul ro'y berdi.

XVI–XVII asrlarda falsafiy va axloqiy fikr sohasida Poshshoxo'ja, Mirzajon ash-Sheroziy al-Bag'naviy, ibn Muhammadjon Yusuf al-Qorabog'iy, Muhammad Sharif al-Buxoriy va boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin. Bundan keyinroq xalqimiz falsafiy tafakkuri tarixida Boborahim Mashrab, So'fi Olloyor, Turdi Farog'iy va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari muhim o'rinni egalladi.

Ular orasida Mashrabning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy fikrlari e'tiborga sazovordir. Boborahim Mashrab (1640–1711) Namanganda tavallud topadi. U Mulla Bozor Oxunddan diniy-tasavvuliy ta'limot sirlarini o'rganadi. Keyinchalik esa Ofoq Xo'jaga muridlik qiladi, 1675-yilda Namanganga qaytadi. Mashrab o'zining ma'naviy ustozlari sifatida Boyazid Bistomiy va Mansur Hallojlarni e'tirof etadi, keyingi hayotida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarning ko'p joylarida xususan, Toshkent, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Andijon, Xo'jand, Badaxshon va boshqa yerlarda bo'ladi. U umrining oxirida Balxo bo'lib, Qunduzda Mahmud Qatag'on tomonidan qatl qilinadi.

O'zining ijtimoiy-falsafiy fikrlari bilan Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan shoir va faylasuf Mirza Abdulqodir Bedildir (1644–1721). Bedil ilmning ko'p sohalari, xususan falsafa, adabiyot, san'atshunoslik bo'yicha ijod qildi. U hind, arab, eron, ko'plab Osiyo xalqlarining ilmiy merosini chuqur o'zlashtirgan yetuk olimdir. Bulardan tashqari, Bedil Sa'diy, Attor, Jomiy, Hofiz, Navoiylarning she'riyati, dunyoqarashini puxta bilgan. Vaxdati-mavjud oqimi tarafdorlari sirasiga kirgan. Uning muhim asarlari «Chor unsur», «Irfon», «Ruboiyot», «G'azaliyot» va boshqalardir.

Mirza Bedil ijtimoiy-siyosiy qarashlarida jamiyat, inson, davlat va uning kelib chiqishi, uni boshqarish yo'llari, dehqonchilik va uning foydasi haqida fikr yuritdi. Ayniqsa, u insonni yuksak darajaga ko'tardi, uning irqi, dini va millatidan qat'i nazar hurmatga sazovor ekanligini uqtirdi. U odamlardagi vatanparvarlik, mehnatsevarlik, vafodorlik, sahiylik, samimiylikni qadrladi, dangasalik, takabburlik, ochko'zlik, yolg'onchilik, makkorlikni qoraladi. Bedilning insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ijtimoiy va falsafiy g'oyalari o'sha davrda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Olim o'zining falsafiy qarashlari bilan O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi madaniy, ilmiy va do'stlik aloqalarini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi.

Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonligi davridagi ijtimoiy tafakkur. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda uch davlat — Qo'qon va Xiva xonligi hamda Buxoro amirliklari paydo bo'ldi. Ular davrida ham ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirgan ba'zi mutafakkirlar yashadilar.

Bu davrda Xorazmda Komil Xorazmiy, Ogahiy va Munis kabi shoirlar ijod qildilar: Ogahiy — Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li 1809-yilda Qiyot qishlog'ida tug'ilib, 1874-yilda vafot etgan. Shoirning muhim asarlari «Gulshani davlat», «Riyozi ud-davla», «Jome' ul voqeoti Sultoni», «Zubdat ut-tavorix», «Shoxidi iqbol», «Bayozi mutafarriqai forsiy», «Firdavs ul-iqbol» va boshqalardir. Bulardan tashqari, Ogahiy, Sa'diy Sheroziy, Nizomiy, Kaykovus, Jomiy va Koshifiyning badiiy, tarixiy, falsafiy, axloqiy-didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Oqahiy o'zining «Qasidai nasihat» nomli asari va boshqalarda davlatni boshqarish yo'llarini ko'rsatadi, Xiva xoni Feruzga mamlakatni odilona boshqarishning yo'l-yo'riqlarini aytadi. Oqahiy o'zining ijtimoiy qarashlarida insonparvarlik g'oyalarini ilgari surdi, odamlarni yaxshilik va ezgulikka, xayrli ishlar bilan shug'ullanishga, ma'rifatparvarlikka da'vat etdi. Uning tarixiy risolalari haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Mutafakkir Xiva xonligining 1813–1873-yillar tarixini yozib qoldirgan. Hozirgi vaqtda, tariximizni xolisona yaratishga intilish kuchaygan bir sharoitda, Oqahiy asarlarining ahamiyati oshib bormoqda.

Qo'qon xonligi hududida yashab ijod etgan o'sha davr ma'rifatparvarlik harakatining yirik namoyandalari Nodira (1792–1843), Uvaysiy (1789–1850), Dilshod Barno (1800–1906), Muqimiy (1850–1903), Furqat (1859–1909), Zavqiy (1853–1921), Anbar Otin (1870–1914) ijtimoiy ziddiyatlar kuchaygan davrda yashadilar. Ular falsafiy fikr rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

O'sha davr falsafiy tafakkuri nuqtayi nazaridan otasi Uvaysiyning jiyani bo'lgan Anbar Otinning «Qarolar falsafasi» («Risola falsafai siyohon») risolasi muhim ahamiyatga molik asardir. Asar kichik muqaddima va to'rt fasldan iborat bo'lib, unda shoirning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, o'zi yashagan davr va uning muammolari haqidagi fikr-mulohazalari aks etgan. Muallif risolada zamona adolatsizligi va mehnatchi xalqning og'ir ahvolidan noliydi, mustamlakachilik zalolatlarini ko'rsatadi, mavjud muammolarni hal qilish yo'llarini qidiradi, ma'rifatni ulug'laydi, falsafiy tafakkurni yuksaltirish haqidagi xulosalarini bayon qiladi.

Risoladagi xulosa va mulohazalar o'sha davr ma'rifatparvarlari dunyoqarashini, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar kabi alomalar peshqadam bo'lgan hurfikrli o'zbek ziyolilarining falsafiy talakkuri, undagi ustuvor g'oya va qarashlarni ham o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Ana shunday hassos fikrlar bilan nihoyalangan bu asarning har bir faslida shoiraning she'rlari va g'azallari berilgan, ular asar mazmuniga mos holda joylashtirilgan. Risola Anbar Otin qo'lyozmalari tarkibida O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi (inv №1647). U shoiraning 1970-yilda G.G'ulom nashriyotida «She'rlar. Risola» nomi bilan chop

etilgan to'plamiga kiritilgan. Asarda umrining oxirgi yillaridagi «qaro»liklar zahmatini boshidan kechirayotgan shoironing davr va uning zalolatlari haqidagi fikrlari nihoyalangan, bu boradagi g'oya va qarashlariga xulosalar qilingan. Afsuski, asar falsafiy nuqtayi nazardan nihoyatda kam o'rganilgan, holbuki unda shu sohadagi tadqiqotlar uchun obyekt bo'ladigan qiziqarli mavzular borligi shubhasiz.

O'sha davrda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi. Ma'rifatparvarlik mafkurasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Buxora amirligida katta mavqega ega bo'lgan alloma Ahmad Donish (1827–1897) bo'lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan. U mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurligini uqtiradi. Davlat, olimning nuqtayi nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa, bilimdon, aqli bo'lib o'z atrofida gilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar olimning «Navodirul-vaqoe» va boshqa risolalarida o'z ifodasini topgan. Olimning asarlari o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmida ijod etgan qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Berdaq (1827–1900) «Omongeldi», «Xalq uchun», «Ahmoq podsho», «Yaxshiroq», «Bo'lgan emas», «Ernazarbiy» kabi asarlarning muallifidir. Ushbu asarlarda mutafakkir qoraqalpoq xalqining turmush tarzini, o'sha zamondagi hayotini mohirona tasvirlaydi. Berdaq asarlarida axloq va xulq-odob, nafosat va go'zallik, vatanparvarlik, insonparvarlik, tenglik, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, haqiqat uchun kurash kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar keng o'rin olgan. Uning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari yoshlar ongida ma'naviyat va milliy mafkurani shakllantirishda muhim tarbiyaviy kuchga ega.

XIX asr oxiri va XX asr boshidagi falsafiy tafakkur. Mintaqamiz XIX asr oxirlarida Chor Rossiyasi tarkibiga zo'rlik bilan qo'shib olindi va bu ijtimoiy tafakkurda chuqur iz qoldirdi. Turkistonda ma'rifatchilik harakatining avj olishi jadidchilik g'oyalarining vujudga kelishida muhim o'rin egalladi. Lekin Sho'rolar davrida jadidchilik ko'pincha bir tomonlama talqin qilindi, uning g'oya va maqsadlarini soxtalashtirish va hatto

uni millatchilik harakati deb baholash hollari ham bo'ldi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng bu harakatni xolisona va ilmiy muqtabni nazardan tadqiq qilish imkoniyati tug'ildi. Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik harakatining muhim xususiyati uni milliy-ozodlik harakati va Turkistonda milliy burjuaziyani vujudga keltirishi bilan chambarchas bog'liqligi edi.

O'sha davrda jadidchilik harakatining qator vakillari yetishib chiqdi. Bular **Munavvar qori**, **Avloniy**, **Behbudiy**, **Fitrat**, **Cho'lpon** va boshqalardir.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo'lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmli qilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo'shgan mutafakkirdir. Behbudiy yangi maktablar uchun «Risolayi asbobi savod», «Risolayi jug'rofiyai umroniy», «Kitobat ul-atfol», «Amaliyoti islom», «Risolai jug'rofiyai rusiy» va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari «Padarkush» dramasi. Bulardan tashqari, Behbudiy ko'plab publitsistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g'oyasi, axloq va ta'lim-tarbiya va boshqa masalalar o'rin olgan.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri **Abdulla Avloniydir (1878–1934)**. U pedagogik faoliyat va badiiy ijodni qo'shib olib bordi. Avloniy ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni bolalarga o'qitish yo'lga qo'yildi. Mutafakkir «Ikkinchi muallim», «Birinchi muallim», «Alifbedan so'nggi o'quv kitobi» kabi darsliklarni yaratdi. Ayniqsa, olimning «Turkiy guliston yoxud axloq» darsligi bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda bolalarga ilmfan sirlarini o'rgatish, yaxshi xulq-odob qoidalarini singdirish, Turkiston xalqini asriy qoloqlikdan qutqarish yo'llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatni xonashyo qaramligidan xalos etish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan. Avloniy «Advokatlik osonmi», «Biz va Siz», «Portugaliya

inqilobi», «Ikki sevgi» va boshqa dramatik asarlar yozib, o'zbek teatri va dramaturgiyasi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884–1939) bo'lib, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim «Sayxa» («Bong»), «Hind sayyohining qissasi», «Uchqun» to'plami, «Chin sevis», «Hind ixtilochilari», «O'zbek tili grammatikasi», «Chig'atoy adabiyoti» va boshqa ko'plab asarlar yozdi. Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnaq toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

Xullas, O'zbekiston hududidagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixini qisqa yoritish shundan dalolat beradiki, u bizning davrimizgacha uzluksiz ravishda madaniyat, inson tafakkuri va aql-zakovatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Lekin mustabid tuzum davrida ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga bir tomonlama, sinfiy nuqtayi nazardan yondashildi, faqat kommunistik partiya mafkurasini talablariga to'g'ri keladigan g'oya va fikrlarga e'tibor berildi. 1917-yildagi Oktyabr to'ntarishidan so'ng asta-sekin o'tmish ma'naviyati, falsafiy fikri o'rnini markscha-lenincha mafkura egallay boshladi. Oliy o'quv yurtlari, keng xalq ommasi orasida dialektik va tarixiy materializm va ilmiy ateizm targ'ib qilindi, ularga to'g'ri kelmaydigan ta'limotlar qattiq tanqid ostiga olindi. Eng achinarlisi shuki, o'z milliy madaniyati, urf-odati va an'alariga sodiq bo'lgan, ularni saqlab qolishga intilgan ziyolilar, shoirlar va yozuvchilar quvg'inga uchrab, qatag'on qilindi.

Lekin yuqoridan bo'lgan tazyiqlarga qaramay, madaniy-ma'naviy va ijtimoiy-falsafiy merosimizni o'rganish, tadqiq qilish tamoman to'xtab qolmadi. 60–70-yillarda I.M. Mo'minov, V.Zohidov, keyinroq esa, O.Fayzullayev, E.Yusupov,

M. Xayrullayev, J. Tulenov, H. Po'latov kabi olimlarning ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlari o'sha davr tafakkurini aks ettirishda ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi falsafiy merosimizni solisana, haqqoniy va yangicha tafakkur asosida tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Endigi vazifa sobiq mafkura-niing asoratlarini bartaraf qilib, milliy mafkuramizga tayanib, boy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy falsafiy tafakkur ta-rixini chuqur va har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Tayanch tushunchalar: zardushtiylik, «Avesto», Konfutsiylik, «Veda»lar, buddaviylik, ilk o'rta asrlar falsafasi, «Qur'on», Ha-dislar, islom falsafasi, tasavvuf, temuriylar davri falsafasi, «Temur tozuqlari», «Ziji Ko'ragoniy», «Xamsa», « Boburnoma», xonlik va amirliklar davri falsafasi, «Qarolar falsafasi», jadidchilik, jadidlar falsafasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Sharq — insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy o'chog'i.
2. «Avesto» to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Zardushtiylikning mohiyati nimadan iborat?
4. Islom dini va falsafasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Temur va temuriylar davri falsafasi.
6. Amirlik va xonliklar davri falsafasi.
7. XIX asr oxiridagi millatning tarqoqligi va ma'naviy tanaz-zul oqibatlari.
8. Jadidchilik — milliy taraqqiyot uchun kurash falsafasi.

3-mavzu. Falsafaning taraqqiyot bosqichlari. G'arb falsafasi

Qadimgi Yunoniston va antik davr Rim falsafasi. Qadimgi davr falsafasining bir silsilasi Yunoniston va Rimga tegishlidir. Bu davrdagi falsafiy qarashlar — antik davr falsafasi deb yuritiladi. Unda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Fales, Zenon, Genaklit, Pifagor, Suqrot, Aflotun, Arastu, Demokrit, Epikur va boshqalarning falsafiy, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-axloqiy ta'limotlari muhim o'rin egallaydi.

Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII–VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Milet maktabi vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624–547-yillarda yashagan). U Yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U «Tabiat haqida» asarini yozgan, biroq asar bizgacha yetib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazzimon apeyrondan iborat, is-siqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (eramizdan avvalgi 588–525-yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyushishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Yana bir yunon faylasufi Geraklit (eramizdan avvalgi 520–460-yillar) Kichik Osiyoning G'arbiy qirg'og'idagi Efes shahrida zargar oilasida dunyoga kelgan. U stixiyali dialektikaga asos solgan, olov — olamning asosi, deb bilgan. Uning fikricha, olamda hamma narsa harakatda. «Oqar suvga bir soniyada ikki marta tushish mumkin emas, Chunki suv har daqiqada yangilanib turadi». Olamda turg'unlik yo'q. Geraklitning fikricha, doimiy o'zgarish, harakat va o'zaro qarama-qarshi tomonlarga o'tish — jismlar sifatining nisbiyligi bilan bog'liq. Masalan, dengiz suvi inson iste'moli uchun yaroqsiz bo'lsa, baliqlar uchun ayni muddaodir. Geraklitning qarashlari falsafiy tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Pifagor (eramizdan avvalgi 580–500-yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan faylasuflardan biridir. U qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Po-

liket bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni, avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashtirilgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynan ana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi Ksenofan (eramizdan avvalgi VI—V asr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Tarixchi Diogen Laertskiyning yozishicha, Ksenofant «Tabiat haqida» asarining muallifidir. Afsuski, ushbu asarning yarmigina omon qolgan, xolos. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat — o'zgarmas va harakatsizdir, «Hamma narsa yerdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi». Biz hammamiz yerdan tug'ilganmiz va yerga aylanamiz». Ksenofan qadimgi yunon faylasuflaridan birinchi bo'lib, bilishning imkoniyati va chegarasi haqida fikr yuritgan. Bu qadimgi yunon gnoseologiyasining rivojiga turtki bo'ldi.

Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalariidan biri, eramizdan avvalgi 504-yili tug'ilgan Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490—430-yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya (bilish to'g'risidagi fan) muammolari bilan shug'ullangan. Sofistlar yangi kasblarning mohir ustalari, ya'ni o'qituvchilar, diplomatlilar, notiqalar, sud mahkamalarida ishlovchi mutaxassislardan iborat bo'lib, haqiqat, osoyishtalik, adolat o'rnatishga xizmat qilgan. Ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

Suqrot (eramizdan oldingi 469—399-yillar) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi, u kambag'aldan chiqqan, tosh

yo'nuvchining o'g'li, Afina hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan. Uning hayoti fojiali tugagani to'g'risidagi misol falsafiy afsonaga aylanib ketgan. O'z davrida Afinadagi hukmron tartib-qoidalarga qarshi chiqib, yangi fikrlarni ilgari surgani uchun uni dahriylikda hamda yoshlarni axloqan buzishda ayblaganlar. Unga shunchaki ayb emas, siyosiy ayb qo'yilgan. Garchand qutulish imkoni bo'lsa-da, qonun va jamiyat tartiblarini nihoyatda qattiq hurmat qilganligi bois, u jazodan qochishni istamagan va bir qadah zahar ichib o'lgan. Suqrot va uning tarafdorlari jamiyat qonunlariga, ular qanday bo'lishidan qat'i nazar, so'zsiz itoat etishni targ'ib etganlari g'oyatda ibratlidir. «Aflotun mening do'stim, ammo qonun do'stlikdan ustun turadi» degan hikmatli ibora o'sha davr ma'naviyatining yaqqol ifodasidir.

Suqrot o'z ta'limotini og'zaki ravishda ko'cha-ko'ya, maydonlarda, xiyobonlarda shogirdlari va izdoshlari bilan birga shakllantirgan va xalq ongiga singdirishga harakat qilgan, lekin bironta ham asar yozmagan. Uning falsafiy, axloqiy ta'limotlari mohiyatini shogirdlari Ksenofant, Aristofan va Aflotunlarning asarlaridan bilib olishimiz mumkin. Ksenofant «Suqrot haqida esdaliklar» asarida o'z ustози haqida iliq so'zlar aytib, uni olijanob, axloq-odob borasida haqqoniy fikr yuritgan inson sifatida ta'riflagan. Yoshlarning axloqini buzgan deb unga siyosiy ayb qo'yish — tuhmat ekanini alohida ta'kidlagan. Aflotun esa uni chuqur mulohazali, insonni ulug'lovchi donishmand, deya ta'riflagan, uning falsafiy qarashlarini o'z asarlarida Suqrot nomidan bayon etgan. Suqrotning fikricha, falsafaning markazida axloq masalalari turmog'i lozim. Jamiyatning ravnaqi, tinchlik va osoyishtaligi, farovon hayoti axloq va odobning ahvoliga bog'liq. Bu masalalar Sharq falsafasida ham katta o'rin tutgani bois xalqimiz, buyuk allomalarimiz Suqrot nomini benihoya hurmat bilan tilga olgan, uning axloq-odob haqidagi pand-nasihatlariga amal qilgan.

Suqrotning shogirdi Aflotun (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf

olim, balki san'atkor, shoir va dramaturg bo'lgan, o'z g'oyalarini dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflotun 428-yil 21-mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shaklidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi ma'lumotlarini bundan bir to'g'ri dalil deb qarash mumkin. Chunki Arastu Aflotunning eng yaqin do'sti va shogirdi bo'lgan.

Aflotun «G'oyalar dunyosi va soyalar dunyosi» ta'limotining asoschisidir. Uningcha, g'oya haqiqiy borliq, biz biladigan va uchraydigan dunyo esa uning soyasidir. Haqiqiy o'zgarish va taraqqiyot g'oyalar dunyosiga xos, soyalar dunyosidagi harakat esa uning aksidir. G'oyalar dunyosining qonuniyatlarini hamma ham bilolmuydi. Ularni biladigan zotlar nihoyatda kam uchraydi, ular ulkan nql egasi bo'ladi va tarixda chuqur nom qoldiradi. Aksariyat kishilar esa, soyalar dunyosi bilan kifoyalanadi.

Aflotunning shogirdi va safdoshi Arastu (384—322-yillar) (asli — Aristotel) qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi, o'zining betakror, jahonni lol qoldirgan ilmiy merosi bilan mashhurdir. O'n yetti yoshida o'z ilmini oshirish maqsadida Afinaga kelib, Aflotun asos solgan akademiyaga o'qishga kirgan va 20 yil davomida (Aflotunning o'limiga qadar) shu yerda tahsil olgan. Keyinchalik Makedoniya podshosi Filipp II ning taklifiga binoan, uning o'g'li Aleksandrga 3 yil muntazam ustozlik qilgan. Shunincha, keyinchalik dunyoni zabt etib, jahongirlik maqomiga ko'tarilgan Iskandarning kamolotida Arastuning xizmatlari beqiyos bo'lgan.

Keyinroq Arastu Afinaga qaytib kelib, 50 yoshlarida «Likey» nomli maktab ochgan. Ilmiy faoliyatining samarali bo'lishida, umuman, Yunonistondagi ilm-fan rivojida Aleksandr tomonidan ko'rsatilgan himmat va rag'batlar muhim ahamiyat kasb etgan. Iskandar vafotidan keyin unga qarshi kuchlar bosh ko'tarib, Arastuni dahriylikda ayblashgan va sudga tortishgan. Suddan oldin Lybey oroliga ko'chib ketgan Arastu ko'p o'tmay o'sha yerda vafot etgan.

Arastu zabardast qomusiy olim bo'lib, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, notiqlik san'ati, tabiiy fanlar bo'yicha o'lmas, bebaho asurlar yozib qoldirgan. Arastuning g'oya va qarashlari

Sharqda keng yoyilgan va u «Birinchii muallim» deya e'tirof etilgan.

Yunon falsafasida Demokritning qarashlari ham muhim o'rin tutadi. U haqiqiy borliq — moddiy dunyo, abadiy va poyonsiz, cheksiz-chegarasiz reallikdir, olam mayda moddiy zarrachalardan, ya'ni atomlardan va bo'shliqdan iborat deya ta'lim beradi. Atomlar va bo'shliq o'zaro yaxlit abadiy ibtidodir. Atomlar — bo'linmas va o'zgarmas, sifat jihatdan bir xil, uning miqdori shakli singari behisobdir. Harakat, degan edi Demokrit, atomlardan iborat moddanning abadiy, tabiiy holatidir. Demokrit tasodifiyatni inkor etgan. U «na tabiatda, na jamiyatda hech bir narsa tasodifan paydo bo'lmaydi», deb yozgan. Demokritning falsafiy qarashlarida axloqiy ta'limot muhim o'rin tutadi. Uning bu boradagi qarashlari siyosiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir. Yaxshi boshqarilayotgan davlat — buyuk qo'rg'ondir. Davlat manfaatlari qolgan barcha narsalardan ustun turmog'i lozim.

Qadimgi Yunon mutafakkiri Epikur (341–270-yillar) Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar — bo'linmas, olam — jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo'lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. Uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim. Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari hamda XX asr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan.

Epikur ta'limotini rimlik Lukretsiy Kar (eramizdan avvalgi 99–55-yillar) davom ettirgan. U «Narsalarning tabiati to'g'risida»

nomli usari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, soddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning fikricha, modda (materiya) — abadiy, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib, shaklini o'zgartirib yashash — uning xossasi. Olamdagi barcha narsalar ikkiga — oddiy va murakkab turga bo'linadi. Lukretsiy Kar atom harakatining uchta turini sanab o'tgan. Bular — narsaning og'irlikka ega bo'lgani uchun to'g'ri chiziqli harakati, narsaning o'zicha og'ish harakati, narsaga turtki bo'lgan asosga qaratilgan harakat. Lukretsiyning nazariyasi mo'tiyatan sodda bo'lsa-da, tabiatshunoslikka ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Rim imperiyasi davri va o'rta asrlarda Yevropa falsafasi. Yevropada qadimgi Yunon va Rim davridan o'rta asrlar falsafasigacha, ya'ni miloddan ilgarigi I asrdan milodning XIV asrigacha, bir yarim ming yil davomida bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va amal qildi. Bu davr falsafasida ikki xil jarayonni ko'rish mumkin: 1. Xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi. 2. O'rta asrlarga kelib inkvizitsiyaning ustuvor yo'nalishga aylanishi. Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

Gnostiklar. Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150-yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihati bilan Xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostitsizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354-yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

Dualizm — gnostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidladilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo hech mahal mod-

diy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi «himoya qilish» — demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o'z asarlarida mushriklik (ko'p xudolik) adabiyotlaridan olingan bahslashish (dialog) shaklidan, yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar. Apologetlar asarlarida ikki an'ana yaqqol sezilib turadi. Ya'ni inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriklar tomonidan xristianlikka qo'yilgan ayblar — g'ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning «Birinchi apologeya», «Ikkinchi apologeya» asarlarini, Tulean va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta'kidlash lozim.

«Patristika» so'zi «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347—407) edi. Uning 640 ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida Injilni amaliy qo'llash sof axloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri «Pok» degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354—430) bo'lib hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi bo'lgan. Avgustin o'z hayotini yepiskoplikka, tadqiqotchilikka, adabiyotga bag'ishlaydi. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da'vat va 200 ga yaqin nomalar yozadi. Uning o'sha davrdagi eng mashhur asarlaridan biri «Sig'inish» 401-yilda yozilgan. Bu asarda u o'zining xristianlikkacha bo'lgan hayotini yozadi. Unda Tavrot oyatlari ramziy — timsoliy bayon qilinadi. U mushriklik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar ham yozgan.

«Sxolastika» so'zi yunoncha «shkola»dan («shola») olingan bo'lib, «o'qish joyi», «maktab» ma'nolarini anglatadi. Buyuk Karl

saroyida o'qituvchilik qilganlarni, yoki umuman saroy maktabidagi o'qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o'rganishda falsafani tatbiq qilgan o'rta asr olimlarini ham sxolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo'lgan intilish deb ham baholash mumkin. O'sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish taqozo qilinardi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi degan savolga javob berish bo'lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberiy (1038–1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093-yilda Ketterberiy shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o'zining ikki asari bilan mashhur. Birinchisi «Monopoliya» — Xudoning borligini sabab oqibat munosabatlari tizimida isbot qilish. Bu isbot — kosmologik isbotning shakli sifatida shunday talqin qilinadi: inson hayotda ko'p ne'matlardan foydalanadi. Bu ne'matlar esa eng oliy ilohiy ne'matlarning aksidir. Ular orqali hamma narsalar mavjuddir. Uzlüksiz tanazzulni tasavvur qilib bo'lmagani sababli, hamma narsaning bir sababchisi bo'lishi kerakki, biz uni Xudo deb ataymiz.

Angelmning ikkinchi asari «Prologion» Xudo borligining deduktiv isbotidir. Uning ta'kidlashicha, har bir odam uchun oliy va komil mohiyat haqida g'oya mavjuddir. Bu g'oya esa obyektiv mavjudlikka ega bo'lgan reallikka mos keladi. Chunki agar borliq mavjud bo'lmaganda edi, narsa komil bo'lmas edi. Agar Xudodan yuqoriroq oliy narsani tasavvur qilish mumkin emas ekan, demak, Xudo reallikda mavjuddir.

Arastu ta'limotining ko'p tomonlarini qabul qilgan o'rta asr sxolastlarini mo'tadil realistlar deb atalgan. Ularning yirik vakillari Pyer Abelyar va Akviniyalik Fomlar bo'lgan. Britaniyada tug'ilgan P. Abelyar (1079–1142) juda yoshligidanoq o'z bilim bilan mashhur edi. Abelyar — mo'tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universal yod dastlab Xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o'zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar «Men e'tiqod qilish uchun bilaman» degan g'oyani ilgari surgan. Ya'ni bilmaydigan,

bilimsiz kishidan ko'ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o'rgangan kishi afzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o'zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta'kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta'kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yo'llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o'limi Xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni Xudoga bo'lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga axloqiy ta'sir ko'rsatish maqsadida sodir bo'ladi. Bu bilan odamlar o'z hayotini Xudoga bo'ysundiradilar. Bu qarash axloqiy ta'sir qilish nazariyasi deb ataladi.

Akviniyalik Foma (1224–1292) mo'tadil realizmning yana bir yirik vakili bo'lib hisoblanadi. Foma o'sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo'tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo'lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta'limoti yordamida Xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin.

Fomaning «Ilohiy summalar» asari 3000 maqoladan iborat bo'lib, 600 masalani yoritishga bag'ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. «Ilohiy summalar»ning birinchi qismi Xudoning mavjudligi va borlig'i masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi «Xudoga qarab harakat» haqida hikoya qiladi. Foma ta'limotidan keyinchalik «tomizm» oqimi shakllandi va u «neotomizm» tarzida G'arbda hozir ham saqlanib qolgan.

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri Vilyam Okkamdir (1309–1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari ratsional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Tavrot nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, Shuningdek, universaliylarning obyektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universaliylar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjer Bekon (1214–1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan.

Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XVII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qitama-qarshilik o'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun o'rta asrlarda sxolastikaning bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastikaning avjga chiqqan davri — 1150 va 1300-yillarda — Foma Akviniyskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan g'alaba qozondi. Lekin 1300-yildan keyin eherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeni egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (ratsionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi.

Yevropa falsafasining rivojida universitetlar muhim o'rin tutadi. Ular bilim va ma'rifatning o'chog'i sifatida 1200-yillarda vujudga keldi. 1400-yillarga kelib, Yevropada 23 ta universitet mavjud bo'lgan. Universitet dasturining juda katta qismini sxolastika bilan shug'ullanish tashkil etar edi. Universitetlarning vujudga kelishining sababi mashhur olimlarning faoliyatidir. XII asrda Iteriy Rim huquqining buyuk tadqiqotchisi sifatida mashhur bo'ladi va talabalar uni eshitish uchun Bolonya shahriga oqib kela boshlaydilar. Natijada Bolonya shahri universiteti muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata boshlaydi. Abelyarning o'qituvchi sifatidagi shuhrati ko'p jihatdan Parij universitetining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Universitetlar, Shuningdek, talabalarning chiqishlari natijasida ham vujudga kelgan. Masalan, XII asrda Angliya va Fransiya qirollari orasidagi nizo oqibatida, Angliya talabalariga yaxshi munosabat bildirilmaganligi ularning Parijdan Angliyaning Oksford shahriga ko'chib o'tishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida mashhur Oksford universiteti tashkil topdi. Kembridj universiteti esa Oksford universiteti talabalarining qo'zg'olon ko'tarishi va 1209-yilda ularning Oksforddan Kembridjga ko'chib o'tishlari natijasida vujudga keldi.

Universitetlar qadimgi Yunoniston va Rimda, shu bilan birga bizning mamlakatimizda ham mashhur bo'lgan ustoz va shogird-

lar to'planib ilm o'rganadigan, o'rgatiladigan va ilmiy bahslar olib boriladigan maktablar tarzida shakllangan bo'lsa-da, ammo fan sohalarining ko'pligi tufayli alohida ilm o'chog'iga aylanib qoldi. Ularning tajribasi keyinroq butun dunyoga tarqalib ketdi.

— **Uyg'onish davri falsafasi.** Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

— Uyg'onish davrida Yevropada falsafaning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlardan biri nemis Nikolay Kuzaniydir (1401—1464). Kuzaniy ta'limoticha, Xudo hamma narsalarda mavjud, Shuningdek, hamma narsalar Xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

— U Xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzaniy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma'lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o'tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar bo'yicha Kuzaniy tomonidan ilgari surilgan g'oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

— Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo'shgan uyg'onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir (1473—1543). Ma'lumki, fan tarixida Kopernik o'zining fanda tub o'zgarish yasagan geliotsentrik ta'limoti bilan mashhur bo'lgan. Uning ta'limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida Yerning o'z o'qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi Yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfiyoti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to'ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o'zgarmas deb tanilgan ta'limotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo'lsa, unda

dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq Xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi ta'limot asossiz bo'lib qolardi.

Kopernikning geliotsentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik Jordano Brunodir (1548–1600). U Neapol yaqinida tug'ilgan. O'zining ilg'or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydalanadi. Italiyadan qochishga majbur bo'ladi. Uzoq vaqt Shvetsariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592-yilda Bruno Italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o'zining ta'limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga hukm qilinadi, 1600-yil 17-fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o'ldiriladi.

Uyg'onish davrining natijasi sifatida namoyon bo'lgan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar Niderlandiyada XVI asrning 60–70-yillarida, Angliyada XVII asrning 40–50-yillarida bo'lib o'tdi. Bu davrga kelib, Yevropada alohida millatlarning shakllanishi yuz berdi, milliy davlatlar paydo bo'ldi. Endi monarxiya tuzumi jamiyatning ilg'or tabaqalari nazarida faqat tarixan o'z umrini o'tab qolmasdan, balki g'ayritabiiy, g'ayriqliq bo'lib ko'rinish boshladi. O'sha davrning ideologlari ilgari tan olinmagan insonning tabiiy huquqlari masalasini o'rtaga qo'ydilar. Ular ijtimoiy tartiblar inson tabiatiga mos kelishini talab qila boshladilar. Bor-yo'g'i 50–60 yil ilgari inkvizitorlar Jordano Brunoni yoqib yuborganlarida lom-mim demagan Yevropa, endi o'zining hayotida markaziy o'rinni inson huquqlari egalashi kerakligini his eta boshladi. Hatto Rim papasining nomidan bo'lsa-da, inson umriga zomin bo'lishga hech kimning haqqi yo'qligi, odamzodning yashash, fikr yuritish erkinligining tabiiyligi anglay boshlamdi. Albatta, bungacha inkvizitsiya bir necha asrlar bu hududni aqidaparastlik changalida ushlab turgan, ne-ne aqlli kishilarni o'z domiga tortib ulgurgan edi.

Ma'naviy uyg'onayotgan millat va hududda hech qachon aqidaparastlik o'z ta'sirini to'la-to'kis saqlab qola olmaydi. Yevropada ham xuddi shunday bo'ldi. Ma'nan kamolga yetgan, milliy davlatchiligiga ega bo'lgan va ana shu mustaqil davlatlarini

kamolga yetishi uchun qarzdor ekanligini anglab olgan Yevropa millatlari o'zlarining komil insonlarini endi inkvizitsiyaning, aqidaparastlarning hukmiga topshirishga sira ham haqlari yo'q ekanligini angladilar. Yevropa uyg'ondi.

Yevropada aynan ana shu davrda ilgarigi, butun mintaqa hayoti uchun xristianlik va uning xilma-xil oqimlari umumiy va yagona mafkura rolini o'tab kelgan davr tugadi. Endi diniy oqimlararo kurash, xristianlikning sofligini saqlashga urinishning mutlaqlashtirilishi natijasida vujudga kelgan inkvizitsiya ham o'z davrini o'tab bo'ldi. Butun Yevropani boshqarib kelgan qon-qardosh va bir-biriga dushman qirollar davri ham o'tmishga aylana boshladi. Ilm-fan sohasida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Odamlarning dunyoqarashi keskin o'zgara boshladi. Endilikda milliy davlatlarning har biri uchun muhim bo'lgan mafkuraning shakllanishi zaruriyatga aylanib qoldi. Albatta bunda biz sanab o'tgan omillar, ya'ni qirollik an'analari, xristianlik va uning oqimlari ta'siri, umumyevropaga xos xususiyatlar, Rim imperiyasi davrida bir oila bo'lib yashagan xalqlar o'rtasidagi hududiy va ma'naviy yaqinlik o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo, asosiy-si, bu davrda milliy g'oyalar to'la-to'kis amalga oshishi uchun ijtimoiy sharoit yetildi, italiya, ingliz, fransuz va boshqa xalqlar o'z davlatchilik an'analarni to'la-to'kis tikladilar. Bu davlatlarda shakllangan falsafiy maktablar faqat milliy qobiqqa o'ralib qolmadilar, balki umumyevropa va butun jahon taraqqiyotining umumbashariy muammolarini falsafiy jihatdan izohlash, ilmiy o'rganish va asoslashga harakat qila boshladilar. Ushbu davr falsafasi ham oldingiga nisbatan katta qadam tashladi. Falsafiy qonunlarni fanning turli sohalarida sinab ko'rilishi o'sha davr faylasuflari uchun odatiy holga aylandi. Bu tamoyillar esa milliy chegaralarni bilmaydigan, umuminsoniy qadriyatlar xususiyatiga egadir. Uyg'onish davri Yevropa fani va falsafasi ham insoniyat tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.

Ingliz falsafasi. O'sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561–1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo'lgani holda insonlarning ma'naviy dunyosini eski chega-

mlar bilan o'rab qo'yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o'rta asrdagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo'shgan olimlardan biridir. Uning ta'limoticha, fanning yangi binosini ko'rish uchun, to'g'ri fikrlashga o'rganish kerak. Bekon ta'limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga xalaqit beradi. Ular inson aqlini o'rab tushlaydi. Ular asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzluq ko'rsatadi. Ikkinchisi, qor idollari. Bu har bir odamning o'z spetsifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtayi nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchisi, maydon idollari bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq termonologiyalarga tanqidiy yondashmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalamaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar.

Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metodologik ahamiyatga ega. U ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

Uning ta'limotini Tomas Gobbs (1588–1679) takomillashtirgan va rivojlantirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtayi nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlariga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti

va unda davlatning o'ri hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha, davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida Jon Lokk (1632–1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690-yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tug'ma g'oyalari» to'g'risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Ijtimoiy-siyosiy qarashlariga ko'ra Lokk davlatning o'ziga xos quyidagi tamoyillarini ta'riflaydi: 1. Hokimiyatni qonun chiqaruvchi tizimi. 2. Hokimiyatning ijro etuvchi organlari. 3. Ittifoq federativ hokimiyati. Ana shu tamoyillar uyg'un bo'lganida davlatning faoliyati samarali amalga oshadi.

Fransuz falsafasi. O'rta asrlardagi Yevropa falsafasi taraqqiyotida Fransiyada shakllangan milliy falsafa maktabi nihoyatda katta o'rin tutadi. Bu borada R. Dekart, Volter, Lametri, Gelvet-siy, Didro, Golbax va Russolarning qarashlari nihoyatda muhim.

R. Dekart (1596–1650) falsafasida dualizm asosiy o'rin tutadi. Uning fikricha materiya va ruh borliqning asosida yotadi va xudoga bo'ysunadi. Olam, Dekart fikricha cheksiz va abadiy, u inson tafakkuriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi va takomillashadi. R. Dekartning «Men fikr qilayapman, demak men mavjudman» degan fikri faylasuflar orasida mashhurdir. Bilishda fikr va sezgilarning ahamiyatini nihoyatda ortiqcha deb bilgan R. Dekart ratsionalizm ta'limotining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Uningcha insonning fikrlashi va mulohaza qilishi shubha ostiga olib bo'lmaydigan jarayondir, undan boshqa hamma narsani tekshirish shubha ostiga olish mumkin. Dekart o'sha zamonning eng buyuk matematiklaridan biri bo'lib, o'z davrida aniq fanlar sohasida katta ahamiyat kasb etgan deduksiya usulini falsafaga kiritgan olim hisoblanadi.

Lametri va Gelvetsiy, Didro va Golbax o'z davrida fransuz hayotida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan milliy davlatchilik, inson erkinligi va haq-huquqlari muammolariga alohida e'tibor qaratganlar. Fransuz millatini ma'naviy jihatdan yuksaklikka ko'tarish va ma'rifatli xalqqa aylantirish uchun o'z asarlarida ana shu qadriyatlarga erishishning yo'llari va usullarini ko'rsatib berganlar.

Ular tomonidan yaratilgan ko'p tomlik «Ensiklopediya» o'sha zamonning ma'naviy muammolarini ma'rifatli yo'l bilan hal qilish usullari va imkoniyatlari ko'rsatib berilgan «Yevropa qomusi» darajasiga ko'tarilgan edi. Bu kitobni yaratishda boshqa ko'pgina ma'rifatparvar fransuz olim va mutaxassislari ham qatnashgan bo'lib, o'zining ahamiyati, muammolarining umuminsoniy muqtabi nazaridan yechilishi, xalqchilligi va tilining fransuz millati hayot tarziga yaqinligi bilan ensiklopediya XVIII asr Yevropushning tengi yo'q kitobi edi. Aynan ana shu kitob mualliflari o'zlarining boshqa asarlari va faoliyatlari bilan 1789–1884-yillardagi Fransuz inqilobi qabul qilgan «Inson va grajdanlar huquqlar deklaratsiyasi»da ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni jamiyat taraqqiyotining eng ustuvor ma'naviy mezonlariga aylantirdilar.

Nemis mumtoz falsafasi. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida Germaniya boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlariga nisbatan iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq edi. Ammo fransuz inqilobining kuchli ta'siri ostida shunday falsafiy ta'limot vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning rivoji asosiy o'rinni egalladi.

Nemis falsafasining asoschilaridan biri Immanuil Kant (1724–1804) faqat mashhur faylasufgina bo'lib qolmasdan, yirik tabiatshunos olim hamdir. Kant tomonidan yaratilgan gaz holatidagi ulkan tumanlikdan quyosh sistemasining kelib chiqishi haqidagi nazariya hozirgi davrda ham astronomiya sohasidagi eng muhim ta'limotlardan biridir. Kantning tabiiy-ilmiy qarashlari tabiat hodisalarini metafizik ruhda tushuntiruvchi ta'limotlarga zohira berdi. Kant o'z davri tabiatshunosligi erishgan yutuqlarni faqat Koinot tuzilishi masalasiga emas, shu bilan birga Koinot

genezisi va rivojlanishi masalalariga ham tatbiq qildi. Kantning inson irqalarining tabiiy kelib chiqishi haqidagi nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega.

Kant falsafada katta o'rin qoldirdi. Uning vafotidan keyin nemis falsafasining rivoji Hegel (1770–1831) ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi. Hegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirdi. Falsafa tarixida birinchi marta bir tizimga solgan holda dialektik logikaning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi. O'sha davrlarda hukmron bo'lgan metafizik fikrlash uslubini tanqid qildi. Hegelning ta'kidlashicha, kategoriyalar borliqning obyektiv shakllaridir. Borliqning asosida esa, «dunyoviy aql», «mutlaq g'oya» yoki «dunyo ruhi» yotadi.

Rivojlanish g'oyasi Hegel falsafasini qamrab olgan. Uning ta'kidlashicha, rivojlanish tor doira ichida emas, doimiy, quyidan yuqoriga qarab boradi. Mana shu jarayonda miqdor o'zgarishlarining tub sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Rivojlanishning manbai esa har qanday o'z-o'zidan harakatning sababi bo'lgan qarama-qarshilikdir. Hegel falsafasida borliq dialektik o'tishlar zanjiri sifatida bayon qilingan. Hegel fikricha, tarix dunyoviy ruhning yoki mutlaq g'oyaning rivoji sifatida namoyon bo'ladi. Umuman tarix bu mohiyatan fikrning, aqlning o'z-o'zidan rivoji tarixidir. Hegel ta'limoticha, aql tarixda shunday namoyon bo'ladiki, unda har bir xalq ruh o'z-o'zini anglab, tobora yuqorilab borishiga o'z hissasini qo'shish huquqini oladi. Lekin bu jarayon qandaydir tartibsiz (xaotik) amalga oshmaydi. Hegel umumjahon tarixini to'rt bosqichga bo'ladi: 1. Sharq dunyosi. 2. Yunon dunyosi. 3. Rumo dunyosi. 4. German dunyosi: Hegelning da'vosicha, faqat german xalqlarida to'liq erkinlik bo'lgan. Bu xalqlar o'z tarixiy rivojlanishlarida isloxotchilik (reformatsiya), 1789-yil Fransuz inqilobi mevalaridan bahramand bo'lganlar. Faqat ulargina umumiy fuqarolik va siyosiy erkinlikka erishganlar. Hegelning ta'kidlashicha, aqlga muvofiq davlatchilikni o'rnatgan faqat german xalqigina umumjahon — tarixiy jarayonining haqiqiy timsolidir. Hegel umumiy falsafiy sistemasi ham, uning yaratgan metodi ham boshqa kamchiliklardan, ichki qarama-qarshiliklardan xoli emas edi.

XX asr va hozirgi zamon falsafasi. Ma'lumki, hamma zamonlarda ham falsafa o'z davrining dolzarb muammolarini hal etish yo'llarini topishga harakat qilgan. XX asrga kelib insoniyat fan va texnika taraqqiyoti sohasida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Lekin shu bilan birga, aynan ushbu asr ijtimoiy silsilalar, ikkita jahon urushi, ekologik inqiroz, og'ir yo'qotishlar davri ham bo'ldi. U o'z falsafiy fikrning taraqqiyotida o'z aksini topdi, uning turli yo'nalishi va oqimlari shug'ullangan muammolarning salmog'i, maqad-muddaosini aniq belgiladi. Buning natijasi sifatida, hozirgi davr falsafasida nihoyatda xilma-xil oqim va yo'nalishlar mavjud. O'z navbatida bu ilm-fan va amaliyotning hamda XIX asrning ikkinchi yarmi va hozirgacha bo'lgan falsafa ilmi rivojining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

XX asrga kelib ko'pgina falsafiy oqimlar o'zlarining an'anaviy falsafaga aloqador ekanliklarini hamda ulardan farq qilishlarini ta'kidlash maqsadida, nomlariga «neo», ya'ni yangi, zamonaviylashtirgan degan ma'noni anglatuvchi qo'shimchani qo'shganlar. Masalan, neopozitivizm, neotomizm va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Fanning jamiyat hayotidagi o'rnini belgilash va unga nisbatan munosabatga qarab, zamonaviy falsafiy ta'limotlarni asosan ikki yo'nalishga ajratish mumkin. Ulardan biri — stsientizm (lot. scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi.

Ikkinchisi — antistsientizm, ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistensializm, Frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi. Antistsientizm ilm-fan taraqqiyotining natijalarini nazorat ostiga olish, bu masalada jamiyat hayotini xavf ostiga qo'yimaslik talabi bilan bog'liqdir. Antistsientizmning ayrim o'ta ashaddiy namoyandalari fan-texnika taraqqiyotini tamoman to'xtatib qo'yish g'oyasini

ham ilgari suradilar. Umuman olganda, XX asr falsafasida bir-biriga muqobil bo'lgan yo'nalishlar ratsionalizm va irratsionalizm, antropologizm va naturalizm, stsiyentizm va antistsiyentizm, materializm va idealizm o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Yangicha falsafiy tafakkurga asos solgan olimlar orasida ko'pchilik nemis olimi Artur Shopengauer (1788—1860) qarashlarini tilga oladi. Shopengauer olamdagi barcha mavjud narsalarni irodaning namoyon bo'lishi, irodani esa ongsiz ko'r-ko'rona intilish tarzida tushunadi. Maxluqotlarning instinktlari, xatti-harakatlari — irodaning namoyon bo'lishidir. Inson faoliyati ham aqldan begona bo'lgan irodaning natijasidir. Shuning uchun inson mohiyati irratsional asosga ega. Aql esa tasodifiydir. Inson hayoti doimo aylanib turgan iroda g'ildiragiga bog'liqdir.

Shopengauer ta'limotini davom ettirgan nemis faylasufi Fridrix Nitsshe (1844—1900) fikricha, «borliqning eng chuqur mohiyati hokimiyatga erishish uchun bo'lgan irodadir». Nitsshe inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlikni birlashib ketganini asoslab berishga harakat qildi. Uning diyorumizda bundan ikki yarim ming yil muqaddam shakllangan zardushtiylik ta'limotini o'rganib yaratgan «Zardusht tavallosi» asarida kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari surilgan. U o'z ortidan irodasiz kishilar ommasini yetaklashga qodir bo'lgan irodasi kuchli shaxslarni tarbiyalash tarafdori bo'lgan. Nitsshening sivilizatsiya va madaniyatning so'nishi va barham topishi to'g'risidagi g'oyasiga asoslanib, 1918-yilda G. Shpengler «Yevropaning so'nishi» degan asarini yozadi.

O'tgan asr oxiri olimlari ijtimoiy inqiroz va ma'naviy turqunlikdan chiqishning yo'lini g'arbda klassik falsafiy merosga murojaat etishda va uni qayta tiklashda ko'rdilar. Shu zaylda «Orqaga Kantga» shiori ostida neokantchilik, «Orqaga Hegelga» shiori ostida esa neohegelchilik paydo bo'ldi. Shu bilan birga, falsafaning klassik ildizlarini saqlab qolishni diniy oqim bo'lgan neotomizm ham yoqlab chiqdi. Neotomizm shu bugunga qadar ham o'z mavqegini yo'qotmagan bo'lib, katolik cherkovi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Bunda ayniqsa Rim papasi rahbarlik qiladigan Vatikaning faoliyati muhim o'rin tutadi.

Neotomizm — XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo'lib, o'rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta'limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiya-da «tona» bo'lib o'zgargan) Foma Akviniyning yangi, zamonaviy ta'limoti demakdir. Bu ta'limotga ko'ra, ilm va e'tiqod o'rtasida to'la muvofiqlik, uyg'unlik bor. Ular bir-birini to'ldirib turadi, har ikkisi ham Xudo tomonidan berilgan haqiqat. Neotomizm vakillari fikricha, ilm yetmagan joyda e'tiqod qo'llanishi kerak. Lekin bu e'tiqod ko'r-ko'rona, shunchaki ishonch bo'lmay, balki mantiqan teran anglangan e'tiqod bo'lishi kerak. Xudoning mavjudligini falsafa turli mantiqiy usullar orqali isbot qilishi lozim. Neotomizm hozirgi dunyoda sivilizatsiyalashgan ta'limot sifatida maydonga chiqmoqda. O'z navbatida bu demokratiya ustuvor bo'lgan hayot tarziga muayyan darajada mos keladi.

Neokantchilik XIX asr o'rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan ta'limotdir. Uning vakillari I. Kant o'z davrida qo'ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar. Bu ta'limotga ko'ra, inson dunyoga bir marta keladi, shuning uchun har bir insonning hayoti o'zi uchun eng oliy maqsaddir. Shunday ekan, inson hayotidan kimdir o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun vosita sifatida foydalanishi mumkin emas. Erkin mavjudot deganda, Kant izdoshlari o'zi xohlagan ishlarni qiluvchi kishini emas, balki jamoatchilik manfaatiga qarshi yurmaydigan, to'g'ri zid ish qilmaydigan, ammo o'z haq-huquqlarini yaxshi biladigan insonni nazarda tutadilar.

XX asrga kelib, fan va texnika taraqqiyoti bilan ilmiy tafakkur va til muammolarini falsafiy tahlil qilishga qiziqish nihoyatda ortdi. Bu yo'nalishda ishlayotgan eng yirik oqimlarga neopozitivizm, strukturalizm va germenevtika kabi falsafiy qarash namoyandalari misol bo'ladi.

Neopozitivizm oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — tabiiy degan ma'noni anglatadi. Neopozitivizm G'arbda XIX asrning 20-yillarida paydo bo'lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Oqyust Kontdir. Neopozitivistlar verifikatsiya prinsipini ilgari su-

radilar (lot. Veritas — haqiqat). Ularning fikricha, faqat tajribada o'z tasdig'ini topgan bilimgina haqiqiydir. Lekin nazariy, mavhum bilimlarning hammasini ham tajribada ekvivalentini topish, aynan shunday ekanligini isbot qilish mumkin emasligi tufayli bu prinsip keyinchalik inkor etildi.

Shundan so'ng postpozitivizm (ya'ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper falsifikatsiyalash metodini ilgari surdi. Bunga ko'ra, inson ba'zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning haqiqiyligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar. XX asrning 60—70-yillariga kelib, neopozitivizmning mavqeyi kamayib, asosiy o'ringa strukturalizm va hermenevtika chiqdi.

Strukturalizm (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasi bilish uning obyektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar. Masalan Levi-Stross mifologik tafakkurni tahlil etib, turli joylarda yashagan qadimgi qabilalar va xalqlar yaratgan afsonalarning umumiy strukturaga ega ekanligini isbot qildi. Uning fikricha, bu afsonalarning asosiy mazmuni bir-biriga to'la muvofiq keladi. Insoniyatning ilmiy tafakkuri ham bu ta'limotga ko'ra shunday prinsipga, umumiy mantiqqa ega.

Germenevtika — qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, hermenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalariga asosiy diqqatini qaratadi. Jamiyat, bu ta'limotga ko'ra, kishilar o'rtasidagi muloqotga asoslanadi. Muloqot jarayonida madaniy, tarixiy va ilmiy qadriyatlar yaratiladi. Shuning uchun falsafaning asosiy vazifasi hayotning ma'nosini, mohiyatini kishilar o'rtasidagi muloqotdan qidirishdan iborat. Bu oqim vag'illari Shleyermaxer va Diltey fikricha, biror-bir tarixiy manbaning to'g'ri tahlil etilishi tadqiqotchining davr xususiyatlarini to'la his etishi, tushunishi bilan bog'liq. Hozirgi davrda bu ta'limotning ko'plab tarafdorlari mavjud.

XX asrning 30-yillariga kelib «ekzistensial falsafa» rivojlandi. Ekzistensializm tom ma'noda mavjud bo'lmoq demakdir. Ekzistensializm nihoyatda xilma-xil yo'nalishdagi ta'limotlarni insonning ma'naviy dunyosi, inson taqdiri, erkinligi g'oyalari asosida ommalashtirdi. Bu muammolarning talqini, ayniqsa, ijodkor ziyolilar o'rtasida ommaviy tus oldi. Shuning uchun ekzistensial falsafa bu davrda eng keng tarqalgan oqim bo'lib qoldi. Ekzistensializm vakillari asosan ikki yo'nalishga bo'linadilar. Biri — dunyoviy (Xaydeger, Sartr, Kamyu) va ikkinchisi diniy (Yaspers, Marsel) bo'lib bunday bo'linish nisbiydir.

Xaydeger, Sartr, Kamyularning ta'limotiga ko'ra, inson o'zining yaratish jarayonini o'zi erkin amalga oshiradi. Insoniyat oldida ulkan imkoniyatlar mavjud bo'lib, ulardan qaysi birini tanlashda u erkindir. Demak, inson o'z mohiyatini o'zi erkin belgilaydi, uning kim bo'lib yetishishi faqat uning o'ziga bog'liq. Bu ma'noda, inson doimo rivojlanib boradigan, tugallanmagan to'rtburchak o'xshatiladi. Erkinlik insonning o'zi tomonidan yaratilgan ichki ruhiy holati tarzida talqin etiladi. Insonga berilgan imkoniyatlarni tanlash nihoyatda mas'uliyatlidir, Chunki bunda inson o'zi, boshqalarni hamda uni o'rab turgan olamni ham qayta yaratadi.

Diniy ekzistensializm vakillari Yaspers va Marsel fikricha, inson o'z erkin faoliyati davomida Xudoga qarab unga yetishish uchun, kamolot tomon harakat qiladi. Haqiqiy erkinlik insonga tahlikali onlarda, tashvishda, yolg'izlikda namoyon bo'ladi. «Axlika, mas'uliyat sof erkinlikning o'zidir, faqat shunday sharoitda inson o'zini to'laligicha angelaydi. Hayot va o'lim, qo'rqinch, dahshat tushunchalari bu ta'limotning markaziy tushunchalaridir. Ekzistensialistlar fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir.

Yangi zamon falsafasining yana bir oqimi pragmatizm AQSH-da keng tarqalgan. Umuman olganda, «pragmatizm» foydali faoliyatga undovchi, «foydaga» qanday qilib erishish yo'llari va usullari haqida mulohaza yurituvchi ta'limotdir. Bunda «foйда» tushunchasi «tajriba», «haqiqat» tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Pragmatizm ta'limotining yirik namoyandalari Ch. Pirs, U. Djems, J. Dyui va boshqalardir. Ularning ta'limotida olamning o'zgaruvchanligi o'z ifodasini topgan. Ular tajribani turli tasodif va kutilmagan vaziyatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ongimizdan tezkor qarorlarni qabul qilishni talab etuvchi hodisalar majmuyi sifatida ta'riflaydilar. Insonning xatosiz faoliyat ko'rsatishi uchun uning xatti-harakatlarini boshqarib turuvchi vosita — intellektdir. J. Dyui fikricha, intellekt insonni o'rab turgan olamdan nusxa oladi, hamda unga muhitga moslashishga yordam beradi. Pragmatizm falsafasining maqsadi insonga olamda o'z o'rnini topishga yordam berishdan iborat. Dyui tajriba natijasining «foydali» tomoniga e'tiborini qaratadi. Jems fikricha, haqiqat foydali bo'lgan narsa yoki hodisadir.

Pragmatizm AQSH ijtimoiy-madaniy hayotining qadriyatlarini ifoda etib, u yerdagi ishbilarmonlar, menejerlar, siyosatchilar va davlat arboblari o'rtasida keng tarqalgan. Amerikaliklar bu ta'limotning nazariyotchilarini xalqning dunyoqarashi o'zgarishida, hozirgi amerikacha hayot tamoyillarini keng omamaga singdirishda katta xizmat qilgan faylasuflar sifatida qadrlaydilar. Masalan, J. Dyuini «Amerikaning Arastusi» deya hurmat bilan tilga oladilar.

Jamiyat taraqqiyotiga oid g'oyalar tahlili falsafada antik davrlardan, Suqrot va Aflotun zamonlaridan boshlab shakllana boshlagan. Bu g'oyalarning rivojida XVII–XVIII asrlarda yashagan italiyalik faylasuf Dj. Viko, XVIII asrda yashagan I.G. Gerder va ayniqsa, nemis falsafasining yirik namoyandasi Hegel katta hissa qo'shganlar. Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotlar orasida tadrijiy taraqqiyot va inqilobiy sakrashlar yo'lidan borishni ilgari suradigan ta'limotlar talaygina. Ko'pchilik tadrijiy yo'lni ma'qul ko'radi va biz yuqorida tilga olgan faylasuflarning aksariyati ana shunday qarash tarafdorlaridir.

Afsuski, boshqacha qaraydigan ta'limotlar ham bor. Yangi davr falsafasida tarqalgan ana shunday nazariyalardan biri marksizm bo'lib, keyinchalik sobiq ittifoqda hukmron mafkuraga aylangan bu ta'limotning asoslari K. Marks (1818–1883) va F. Engels (1820–1895) asarlarida ta'riflab berilgan va keyinchalik hayotda

salbiy oqibatlarga olib keldi. Uning K. Kautskiy, V. Plekhanov boshchiq mo'tadil tarafdorlari sotsial-demokratiyaga ko'proq moyil bo'lishdi. Rossiyada V. Lenin boshchiligidagi tarafdorlari esa sinfiy kurash va proletariat diktaturasini mutlaqlashtirish yo'lidan bordilar. Bu o'z navbatida, inqilobiy sakrash usulini tanlashga olib keldi va Rossiyaning terror yo'liga boshladi. Oqibatda esa bu tipdagi dunyoqarash jamiyat va xalqlar taqdirida g'oyat salbiy o'rin tutishi ma'lum bo'ldi.

G'arbda Marksning hozirgi davrdagi tarafdorlari «neomarkazizm» oqimini tashkil etadilar. Ko'pgina neomarksistlar sinfiy kurashni mutlaqlashtirmaslik, inqilobiy emas, tadrijiy sakrash yo'lidan borish ustuvor bo'lishi lozimligini e'tirof eta boshladilar. Ammo ularning asl qarashlariga ko'ra jamiyat, millat emas, sinf va ular o'rtasidagi kurash taraqqiyotni belgilaydi, degan o'sha ta'limotga bog'liqligicha qolmoqda.

Alohida ta'kidlash lozimki, yaqinlasha sobiq Ittifoq va uning ittifoqchilari hududida mutlaq hukmron bo'lgan ushbu mafkuraning taqdirini va oqibatini o'rganish, uning tarixidan xolisona xulosasi chiqarish, bu ta'limotning qanday ayanchli natijalarga olib kelganini bilib qo'yish ham foydadan xoli emas. Bu borada lozimni demaslik foyda bermaydi. Zero, ta'limotlar tarixi — insonlar, xalqlar va ularning taqdiri, jamiyat va davlatlar yuksalishi yoki tanazzuli tarixidir. Bu yuksalish yoki tanazzul ko'p holda muayyan g'oyalar, mafkuralar ta'sirida ro'y beradi. Gohida minglab, millionlab kishilarni maftun qilgan ba'zi g'oyalar yoki mafkuralar oxir-oqibat ana shu millionlarning zavoliga sabab bo'lishi ham mumkin. Biz qisqa tahlil qilgan marksizm va keyinroq u paydo bo'lgan hududda shakllangan natsional sotsializm (fushizm) nazariyalari ana shu tarixiy haqiqatni isbotlaydi. Bu haqiqatning ostida esa, biror ta'limot qadriyatlarini mutlaqlashtirish, albatta, muayyan «izm»ga, aqidaparastlikka olib keladi, bu o'z navbatida jaholat va qabohatga eltuvchi yo'ldir, degan umuminsoniy tamoyil yotadi.

XX asrga kelib jamiyat tarixiy taraqqiyotiga oid ta'limotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy taraqqiyotning plyuralistik modeli, «lokal madaniyatlar» hamda «sivilizatsiyalarning xilma-

xilligi» konsepsiyalari shakllandi. Ularga ko'ra, jamiyat tarixi — o'ziga xos madaniyatlarning birligi emas, xilma-xilligidan iborat. Shu ma'noda u organik tabiatdagi hayot shakllarining rang-barangligiga qiyoslanadi. Demak, tabiat qanday xilma-xillikning birligi bo'lsa, jamiyat ham ana shunday rang-baranglikning uyg'unligidir. Jamiyatda ham hamma va har bir narsaning o'z o'rnini bor.

Bu g'oyalar nemis faylasufi va sotsiologi O. Shpengler (1880—1936) va ingliz tarixchisi A. Toynbi (1889—1975) ta'limotlarida har tomonlama asoslab berishga harakat qilindi. O. Shpengler o'zining «Yevropaning so'nishi» nomli asarida tarixni bir-biridan mustasno bo'lgan madaniyatlar majmuyidan iborat, deb hisoblaydi hamda mukammal rivojlangan 8 xil madaniyatni ko'rsatadi. Bular: arab, hind, vavilon, xitoy, yunon-rim, vizantiya-arab madaniyatlari, mayya va russ-sibir madaniyatlaridir. Madaniyatlar o'ziga xos diniy asosga ega bo'lib, ularning har biri qat'iy biologik maromga (ritmga) bo'ysunadi. Va quyidagi asosiy davrlarni bosib o'tadi: tug'ilish va bolalik, yoshlik va kamolot, qarilik va so'nish. Buning asosida madaniyatlar rivojining ikki bosqichi mavjud, deb ko'rsatiladi. Birinchi bosqich — madaniyat ravnaqi (sof madaniyat) va ikkinchisi — uning tanazzuli («sivilizatsiya»). O. Shpengler yevropotsentrizmga, ya'ni barcha madaniyatlarni yevropalashtirish g'oyasiga qarshi chiqdi. Har bir madaniyatning o'ziga xosligi, bir-biridan mustasno holda rivojlanish g'oyasini mutlaqlashtirdi. Ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ham mavjudligiga kam e'tibor qaratdi.

Yana bir olim A. Toynbi esa o'zining 12 jildlik «Tarixni o'rganish» asarida madaniyatlarning hududiy rivojlanish g'oyasini davom ettirdi. Biroq uning ta'limoti Shpengler konsepsiyasidan o'zining ikki jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, insonda o'z hayotini erkin belgilash imkoniyati mavjudligini, tarixiy taraqqiyot zaruriyat va erkinlikning o'zaro birligidan iborat ekanligini nazarda tutsa, ikkinchidan, tarixiy taraqqiyotning davriy modeli dunyoviy dinlar (buddizm, xristianlik, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil g'oyasi bilan boyitilgan. Toynbi G'arb xristian sivilizatsiyasining tanazzulga qarab borayotganligini ko'rsatib, uning oldini olish yo'lini

ma'naviy birlikda, jahon xalqlarining yagona dinni qabul qilishlarida, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, hozirgi paytda jamiyat taraqqiyotining sivilizatsion konsepsiyasi ko'pchilik faylasuflar tomonidan tan olinmoqda. Xususan, industrial va postindustrial jamiyat g'oyalari, ayniqsa, ommaviylashib bormoqda. Unga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining bosh mezon — sanoatning rivojlanish darajasidir.

Shunday qilib, XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib rang-barang falsafiy ta'limotlar shakllandi. Ularning barchasini mazkur mavzuda ko'rib chiqish imkoniyati bo'lmasa-da, yuqorida hayon etilgan ma'lumotlardan falsafiy plyuralizm haqida, falsafa zamon va makon bilan bog'liq murakkab fan ekanligi to'g'risida muayyan xulosaga kelish mumkin. Bu sohadagi bilimlarimiz, o'z navbatida bizning milliy g'oya va mafkuramizni shakllantirishga, ma'naviyatimizning boyib, mustahkamlanib borishiga, intellektual kamolotimizga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar: Rim imperiyasi, xristianlik dini, sxolastika, apologetika, realizm, nominalizm, uyg'onish davri falsafasi, ingliz falsafasi, fransuz falsafasi, nemis mumtoz falsafasi, XX asr falsafasi, tarix falsafasi.

Takrorlash uchun savollar

1. Rim imperiyasi va undan keyingi davr falsafasi.
2. Xristianlik va Yevropada ijtimoiy tafakkur.
3. Inkvizitsiya nima, uning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
4. «Uyg'onish davri» tushunchasini qanday talqin etasiz?
5. XX asr falsafasining asosiy oqim va yo'nalishlari.
6. Hozirgi zamon falsafasini o'rganishning ahamiyati.

4-mavzu. Borliq — falsafaning fundamental kategoriyasi

Olam va odam munosabatlari. Siz bilan biz yashayotgan shu dunyo o'zining barcha murakkabligi va muammolari, jozibadorligi va butun go'zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi. Olam

tushunchasi, eng avvalo, odam va uning faoliyati kechadigan makonni aks ettiradi. Agar odam bo'lmaganida edi, bu olam haqidagi tasavvurlar ham bo'lmas edi. Demak, olam odam bilan mazmundordir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Hech narsasi yo'q olam yo'qligidir. U mavhum tushuncha, ya'ni abstraksiyadir.

Qadimgi davrlardan buyon odam o'zini anglagach, olamning tarkibiy qismi ekanligini tushuna boshladi. Dastlab, uning hayotini ta'minlovchi tirikchilik vositalarining ahamiyatini tushunib yetdi va ularni e'zozlash, avaylab-asrash tuyg'usi shakllana boshladi.

Shu tufayli, olam asosida yotuvchi to'rt elementni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g'oyalar vujudga keldi hamda olam to'g'risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo'lgan.

Olam, eng avvalo, tor ma'noda bu odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va hayvonot olami, o'simlik va hasharotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy olam va boshqa shu singari ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi. Masalan, odamning ruhiy olami uning bilim, tajriba va xayolotini o'z ichiga oluvchi o'ta keng qamrovli tushunchadir. Bunda biz olam odam yashaydigan joy, degan ma'noga qaraganda yanada kengroq mazmunga ega bo'lamiz.

«Ontologiya» atamasi. Falsafaning ko'plab sohalari va turli yo'nalishlari bor. Ular orasida borliq to'g'risidagi fan «Ontologiya» muhim o'rin egallaydi. Ontologiyaning predmetini borliq tashkil etadi. Uning mazmuni borliq va yo'qlik, me'yor va sifat, miqdor va o'lchov, makon va zamon, harakat va o'zgarish kabi tushunchalar orqali yoritiladi.

O'z o'рни va ahamiyatiga ko'ra asl falsafani o'rganish aynan ontologiyadan boshlanadi. Shuning uchun ham o'tmishda yashagan faylasuf va mutafakkirlar ijodida ontologiya qamrab oladigan borliq va mavjudlik, koinot va olam, botiniylik va zohiriylik, borlik va yo'qlik, materiya va harakat, makon va zamon, cheklilik va cheksizlik, inson va jamiyat borlig'i bilan bog'liq masalalarga alohida ahamiyat berilgan. Falsafa tarixida ushbu sohaga doir turli oqimlar va yo'nalishlar shakllangan.

«Ontologiya» atamasi borliq haqidagi ta'limot ma'nosida ilk bor R.Cioklenius (1636-yil) va I.Klauberg (1646-yil) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Lug'aviy ma'noda u yunoncha «on-tos» — borliq va «logos» — ta'limot degan mazmunni anglatadi. Ularb faylasufi X.Volf tadqiqotlari bu atamaning keng tarqalishi-ga asos yaratdi va u falsafaning asosiy mazmunini tashkil etuvchi mohim bo'limini ifodalay boshladi.

«Borliq tushunchasi»¹. Faylasuflar qadim zamonlardan buyon «borliq» va «yo'qlik» haqida bahs yuritishgan. Ular borliqning vu-judga kelishi, mohiyati, xususiyatlari va shakllari haqida ko'plab asarlar yozishgan. Xo'sh, borliq nima? Bu savol bir qarashda juda oddiy ko'ringani bilan unga shu choqqacha barcha kishilarni bir-bir qanoatlantiradigan javob topilgani yo'q. Bu holat bor-liqqa turlicha nuqtayi nazarlardan qarashlarning mavjudligi bi-lan izohlanadi. Masalan, ayrim faylasuflar borliqni moddiylik, moddiy jismlar bilan bog'lab tushuntirishadi. Ularning nuqtayi nazarlaricha, borliq — obyektiv realliknigina qamrab oluvchi tu-shunchadir. U holda fikr, inson tafakkuri, o'y-xayollarimiz borliq tushunchasidan chetda qolar ekanda, degan savolga ular, bunday tushunchalar obyektiv reallikning hosilasidir, deb javob berishadi.

Falsafaning borliq haqidagi ta'limotni izohlaydigan qismi — ontologiya deb ataladi (bu tushunchani falsafada birinchi bor X.Volf qo'llagan). Olam va borliq masalalarini falsafaning ana shu sohasi o'rganadi.

Yo'qlik hech nima demakdir. Hamma narsani hech narsa-ga aylantiruvchi, hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo'qlikdir. Bu ma'noda yo'qlik cheksizlik, nihoyasizlik va man-gulik bilan birdir. Yo'qlik chekingan joyda borliq paydo bo'ladi. Demak, borliqning bunyodkori ham, kushandasi ham yo'qlikdir. Borliq yo'qlikdan yo'qlikkacha bo'lgan mavjudlikdir. Yo'qlikni hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Fanda yo'qlik nima, degan savolga javob yo'q.

Hozirgi zamon fanlarining xulosalariga ko'ra, atrofimizdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar esa

¹ Ushbu qism f.f.d., prof. B. Turayev asarlari asosida tayyorlandi.

atomlardan tuzilgan. Atomlar murakkab tuzilgan yadro va elektron qobiqlardan iborat. Atomning elektron qavatlarini bir-biridan va atom yadrosidan muayyan uzoqlikda joylashgan bo'ladi. Eng sodda atom hisoblanuvchi vodorod atomining yadrosi bitta protondan, murakkabroq atomlarning yadrosi esa, proton va neytronlardan tashkil topadi, proton va neytronlar kvarklar va ularni tutashtirib turuvchi glyuonlar (glyuon — yopishtiruvchi degan ma'noni beradi)dan tashkil topgandir. Proton va neytron nuklonlar (lot. nucleus — yadro, o'zak) hisoblanadi, nuklonlar va xiperon (yun. hiper — ustida, yuqoridan tashqari)lar, barionlar (yun. barys — og'ir) deyiladi. Bular og'ir zarrachalar sifatida kuchli o'zaro ta'sirlar maydonida bo'lib, adronlar (yun. adros — kuchli) gruppasiga mansub.

Organik va anorganik moddalar molekula tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Jonli organizmlar organik moddalardan tashkil topgan bo'ladi. Jonli organizmlarning tarkibi asosida hujayralar va hujayra sistemalari yotadi. Yer shari atrofini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli sistema deb olish mumkin. Mikroorganizmlar, o'simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va insonning o'zaro aloqadorliklari bu biosferaning mavjudligini ta'minlab turadi.

Ma'lumki, Yer shari va o'z atrofida harakatlanuvchi Oy bilan birga yilda bir marta quyosh atrofini aylanib chiqadi. Bu sistema ham biosferaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yer yuzida mintaqalarning farq qilishi, fasllarning almashinuvi ana shu sistema harakati bilan bog'langandir. Quyosh va uning atrofida harakatlanuvchi sayyoralar, ularning yo'ldoshlari, asteroidlar, meteoritlar, kometalar va kichik planetalar birgalikda quyosh sistemasini tashkil etadi. Quyoshdan eng uzoqda joylashgan planeta Pluton uning atrofini 247 yarim yilda bir marta to'liq aylanib chiqadi, ya'ni Yer yili — 365,25 kunga teng bo'lsa, — Pluton yili 247ta Yer yiliga tengdir.

Quyosh sistemasi millionlab yulduzlarni o'z ichiga oluvchi Galaktika (Somon yo'li) tarkibiga kiradi. Uning diametri 94,6 mln. yorug'lik yiliga teng. Undan keyingi sistema galaktikalar to'pi bo'lib, uning diametri 1 megaparsekka teng, u 30 tagacha galaktikani o'z ichiga oladi (1 parsek (3,26 yo. y.). Keyingi sistema — galaktikalarning mahalliy to'pi, unga 2 ta gipergalaktika va 27 ta

mitti galaktikalar kiradi. Majmuada 500 tagacha galaktika bo'ladi, uning diametri – 5 megaparsek. Galaktikalar majmuasi galaktikalarining o'ta majmuasiga birlashadi, uning diametri 40 megaparsek bo'lib, o'zida 10 mingdan ziyod galaktikani birlashtiradi. O'ta yirik majmualar koinotning boshqa strukturaviy birliklariga kiradi. Koinotning radiusi esa 15–20 mlrd. yo.y. tengdir.

Bu sistemalarni falsafiy jihatdan umumlashtirib, borliqning moddiy ko'rinishlarini turli xil struktura darajalariga ajratish mumkin.

Sifatijihatdan materiya ikki xil shaklda, ko'rinishda uchraydi: moddasimon va nomodda ko'rinishida. Materiyaning moddasimon ko'rinishdagi shakllari ikkiga, modda va antimoddaga ajraladi. Bular bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifatijihat o'zgarish ro'y beradi, ya'ni moddaning moddaviy ko'rinishi nomoddaviy ko'rinishga aylanadi. Materiyaning nomoddaviy ko'rinishi ham ikki xil shaklda uchraydi: maydon va nurlanish. Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda (fizik vakuum fizik jismlardan xoli bo'lgan joy) moddiy zarrachalarning hosil bo'lishiga imkon beradi. Xullas, bular ham bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Materiyaning biz yuqorida qayd etgan ko'rinishlaridan boshqacha ko'rinishdagi turlari ham bo'lishi mumkin. Ularning tabiati hali fanga ma'lum emas. Agar biz borliqning moddiy ko'rinishlarini tuzilishi jihatidan turkumlashtirsak, borliqning struktura darajalari haqidagi xulosa hosil bo'ladi.

Borliqning strukturaviy tuzilishini uning sifatijihat rivojlanishi nuqtayi nazaridan olib qarasak, moddiy olam bu holda ham uchta darajaga ajraladi. Uning tashkiliy struktura darajalarini: anorganik dunyo (notirik tabiat), organik dunyo (tirik tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat)ga ajratiladi. Ular bir-biridan xilma-xilligi, uyushganligi, nisbiy mustaqilligi va faolligi bilan farq qiladi.

Anorganik dunyo yoki notirik tabiatda fizikaviy va kimyoviy aloqadorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli notirik tabiatdagi qonuniyatlar shu tabiat fanlari doirasida cheklangan bo'lib, tirik dunyoga nisbatan passiv va tashkiliy uyushganligi past darajada bo'ladi.

Tirik tabiatda ya'ni organik dunyoda esa biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriroq, faolroq va murakkabroq tuzilgan bo'ladi.

Ijtimoiy dunyo darajasida esa, yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy aloqadorliklar ham ishtirok etadi. Bunday dunyoning tuzilishi nihoyatda murakkab bo'lib, borliq bu darajada o'zining o'ta uyushganligini, nisbiy mustaqilligini va yuqori darajada faolligini namoyish qiladi. Bu dunyoning strukturaviy elementi bo'lgan har bir inson jamiyatga xos bo'lgan barcha aloqadorliklarni o'zida aks ettiradi va ijtimoiy munosabatlarda, aloqadorliklarda ongli ravishda, maqsadga binonan, muayyan mo'ljallarni oldindan belgilagan holda harakat qiladi.

Bu borada oddiy bir misol keltiraylik. Masalan, qo'lingizdagi kitobni ham har xil, bir-biriga o'xshamaydigan, ammo bir kasbdagi olim va mutaxassislar yozishgan. Agar siz, masalaga ijtimoiy dunyoning tuzilishi nuqtayi nazaridan baho bermog'chi bo'lsangiz, unda mazkur kitobning qaysi qismi qanday yozilgani, kimning qanday fikrlashi, mavzuni sodda va xalqchil tushuntira olishi yoki murakkab tilda bayon qilishiga e'tibor bering. Shunda masala biroz oydinlashadi. Xuddi shunday holni sizga turli fanlardan dars berayotgan o'qituvchilar misolida ham kuzatishingiz mumkin. Keyin esa, o'zingiz va o'rtoqlaringizning darslarga, kitoblarga, ularni o'zlashtirib, o'qib va uqib olishga, hayotga munosabatingizga vijdonan baho bera olsangiz, bu boradagi murakkab jarayonlarni muayyan darajada to'g'ri anglab olishingiz mumkin. Holbuki bu — bor-yo'g'i siz, o'qituvchilaringiz va mazkur kitobni yozgan kishilar hayotining kichik bir qismidagi jarayonlar, xolos. Hayot esa nihoyatda murakkab, unda bir vaqtning o'zida, birvarakayiga qanchadan-qancha voqea va hodisalar kechadi. Masalan, siz hozir ana shu satrlarni o'qiyapsiz, jismingiz va xayolingizda, atrofingizda, siz bilan birga yashayotgan, siz biladigan va bilmaydigan odamlar jismi, ongi va qalbida ne-ne o'zgarishlar, jarayonlar kechmoqda... Demak, tabiat doimiy o'zgarishda va harakatda, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishda, rivojlanishda va taraqqiyotda. Siz va bizning umrimiz

ana, ana shu cheksizlikning bir lahzasi, jismimiz va jonimiz ham azaliy va abadiy o'zgarishlar jarayonidagi olamning mo'jizasidir. U olamda aynan siz va bizning dunyoga kelganimiz ham Yaratganing ana shunday mo'jizasi va biz esa mana shu yorug' olamda o'tganlarning kelajakdagi avlodlar bilan bog'lanishida bir holqimiz, xolos. Va aynan ana shunday bo'lganligi uchun ham tabiat, jamiyat, rivojlanish va taraqqiyot qarshisida doimiy qarzdormiz. Bu qarzdorlik dunyoga bizgacha kelganlar va ketganlar, keladiganlar va kelmaydiganlar, kela olganlar va kela olmaganlar turli qarshisidagi chuqur mas'uliyat hissidir.

Inson tomonidan nom qo'yilgan dunyolar hech qachon bir-biridan ajralib, alohida holda mavjud bo'lmagan. Ular ham biri-biri bilan uzviy aloqadorliklarda bo'ladi va ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Odatda, kamroq aloqadorliklarga ega bo'lgan sistema unga nisbatan ko'proq aloqadorliklarga ega bo'lgan sistemaga qaraganda murakkabroq va tashkiliy jihatdan uyushganroq bo'ladi. Bu yerda ham ana shu qoida amal qiladi.

Anorganik dunyoda in'ikosning eng sodda va quyi shakli — mexanik in'ikos faoliyat ko'rsatsa, organik dunyoda unga nisbatan murakkabroq ko'rinishdagi biologik in'ikos namoyon bo'ladi. Bunday in'ikosning o'ziga xos bo'lgan tomoni tanlovchanlik, seskanuvchanlik va maqsadga muvofiq harakat qilishdir, jamiyatda esa, in'ikosning eng oliy shakli sotsial in'ikos faoliyat ko'rsatadi. Bu in'ikos o'zida in'ikosning boshqa shakllarini ham qamrab olgan bo'ladi. Ongli va yuqori doirada uyushgan faol in'ikos, aloqadorlik, xatti-harakatlar ijtimoiy dunyoga xosdir.

Borliq shakliy struktura darajalarining balki biz hali bilmaydigan yanada murakkabroq turlari ham bordir, lekin ular hali bizning tushunchalarimiz doirasiga sig'maydi. Xullas, borliqning tashkiliy struktura darajalari bir-biridan aloqadorliklarining soni va sifati jihatidan, energiya va informatsiya almashish xususiyati bilan, faolligi va uyushganligi darajasi bilan farq qiladi.

Tarixdan ma'lumki, faylasuflar borliq haqida turlicha g'oyalarni ilgari surishgan. Markaziy Osiyo tuprog'ida vujudga kelgan zar-dushtiylik ta'limotida borliq quyosh va olovning hosilasidir, alan-galanib turgan olov borliqning asosiy mohiyatini tashkil etadi,

deb hisoblangan. Chunki bu g'oya bo'yicha, har qanday o'zgarish va harakatning asosida olov yotadi va u borliqqa mavjudlik bahsh etadi. Qadimgi yunon faylasufi **Suqrot** borliqni bilim bilan qiyoslaydi va uningcha, biror narsa, biz uni bilsakkina bor bo'ladi, insonning bilimi qancha keng bo'lsa, u shuncha keng borliqni qamrab oladi, deb hisoblaydi. Qadimgi dunyoning atomist olimi **Demokrit** borliq atomlar majmuasidan iborat deb tushuntirgan. Uning fikricha, borliqning mohiyati uning mavjudligidadir. Mavjud bo'lmagan narsa yo'qlikdir.

Islom ta'limotida esa borliq **Oloh** yaratgan mavjudlikdir. Bu borada vahdati vujud va vahdati mavjud ta'limotlari shakllangan. Islom diniga mansub mutafakkirlar borliq haqidagi ta'limotni har tarafлама rivojlantirganlar. Masalan, **Forobiy** fikricha, ilk borliq azaliy **Olohning** o'zidir. **Beruniy** fikricha, **Oloh**dan boshlanguvchi borliq shunday umumiylikki, u hamma narsaning asosida yotadi, demak, borliq hamma narsaning asosidir.

Yevropada o'tgan olimlar **David Yum** va **Jorj Berkli** borliqni sezgilarimiz majmuasi deb talqin etishgan. **Hegel** esa borliqni mavhumlik, mutlaq ruhning namoyon bo'lishi, deb ta'riflaydi. **Ko'pgina** naturfalsafiy qarashlarda borliqni hozirgi zamon bilan, ya'ni shu aktual olamga bog'lab tushuntirdilar.

Aslida, borliq keng falsafiy tushuncha bo'lib o'ziga butun mavjudlikni, uning o'tmishi, hozir va kelajagini ham qamrab oladi. Faylasuflar borliqni tushuntirish uchun yo'qlik tushunchasini unga antipod qilib olishgan va shu asosda borliqning zaruriy mohiyatini ochishga intilganlar. Materialistik adabiyotlarda borliqni obyektiv reallik bilan, materiya bilan aynanlashtirib tushuntirishadi.

Borliq o'ziga obyektiv va subyektiv reallikni, mavjud bo'lgan va mavjud bo'ladigan olamlarni, moddiylik va ma'naviylikni, o'tmish va kelajakni, o'limni va hayotni, ruh va jismni qamrab oluvchi umumiy tushunchadir.

Borliq va mavjudlik. Atrofimizdagi odam, olam, tabiat, jamiyat, tafakkur, g'oyalar, o'y-xayollarimiz barchasi birday mavjuddir, ular turli tarzda va shakllarda namoyon bo'lib, hammasi mavjudlik belgisi ostida umumlashib, borliq tushunchasiga kiradi.

Materialistik mazmundagi borliq tushunchasi ta'rifiga faqat obyektiv real olam, ongdan tashqaridagi, unga bog'liq bo'lmagan jamoniy mohiyatga ega bo'lgan narsalargina kiritiladi. Borliqning ideal, virtual, potensial, abstrakt, ma'naviy shakllari bu ta'rifdan tashqarida qoladi.

Aslida esa, borliq kategoriyasi umumiy abstraksiya bo'lib, mavjudlik belgisi bilan barcha narsa va hodisalarni o'ziga qamrab oluvchi o'ta keng tushunchadir. U o'ziga nafaqat obyektiv reallikni, balki subyektiv reallikni ham qamrab oladi.

Borliq mavjudlik va reallik tushunchalariga qaraganda ham kengroq tushunchadir. Mavjudlik — borliqning hozirgi paytda namoyon bo'lib turgan qismi bo'lib, o'tgan va mavjud bo'ladigan narsa va hodisalar ham borliq tushunchasiga kiradi. Reallik esa, mavjudlikning hammaga ayon bo'lgan, ular tomonidan tan olingan qismi. Borliq o'ziga reallikni ham, mavjudlikni ham qamrab oladi. An'anaviy falsafiy qarashlarda borliqning uchta sohasi ajratib ko'rsatiladi. Ularga: tabiat borlig'i, jamiyat borlig'i, ong borlig'i kiradi. Bular uchun eng umumiy belgi, ularning mavjudligidir.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. Tabiat borlig'i odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ya'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

— inson borlig'i (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);

— ma'naviy borliq (individuallashgan va obyektivlashgan ma'naviy borliq);

— sotsial borliq (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Keyingi yillarda virtual borliq (lot. virtus — ehtimol tutilgan, mumkin bo'lgan; realis — haqiqiy, mavjud) — zamonaviy texnika vositalari va informatsion kommunikatsiyalar yordamida yaratiladigan va insonga olamni o'ziga xos idrok etish va anglash

imkonini beradigan sun'iy dunyo shakli haqida ham ko'plab fikrlar bildirilmoqda. Borliqning turli kompyuter modellari va elektron borliq uning sinonimlaridir. XX asrning 60-yillari oxirida Mayron Kryuger tomonidan «Sun'iy borliq» tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lsa, Jaron Lanyer hozirgi kunda keng tarqalgan «vertual borliq» atamasini 1989-yilda ilmiy muomalaga kiritgan edi. U 1984-yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda olam, borliq shakllari va insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi.

Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois unda mavjud barcha narsalarning manbayi inson ongidir. Binobarin, u obyektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'i nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga – bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab, har xil idrok etiladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir yo'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish yo'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, substansiyani aniqlash yo'lidir. Ikkinchi yo'l esa – moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini» – substratni axtarish yo'li. Uchinchi yo'l – hamma narsaning vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ya'ni pramateriyani axtarish yo'li. Mana shu yo'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Olamning substansiyasini axtarishning bu usuli go'yoki meva iste'mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so'ngra uning guliga, bargiga, ko'chatiga va urug'iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o'zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ya'ni ilk materi-

yani, azaliy materiyaning «bobokalonini», «pramateriyani» axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish jihatida materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy narsang nisbatan ham, atomga nisbatan ham, pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy obyektlarni, butun obyektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiy tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning mahsuli va abstraksiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy obyektlarga xos eng umumiy tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

Borliqning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi ham faning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Masalan, qadimgi Hindiston va Xitoyda, Misr va Bobilda, qadimgi O'rta Osiyo va Yunonistonda ba'zi faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki muayyan unsur yotadi, deb hisoblashgan. Ularning ba'zilari bu unurni olov, boshqalari suv yoki havo, ayrimlari esa — tuproqdan iborat deb hisoblashgan. Ba'zi bir falsafiy ta'limotlarda esa, olamning asosida — olov, havo, suv va tuproq yotadi, barcha narsalar ana shu to'rtta unsurning birikishidan hosil bo'lgan, deyilgan.

Olamning asosida yotuvchi substansiyani axtarishning yana bir yo'li narsalarning tarkibidagi bo'linmas eng kichik unurni, ya'ni narsalarning tarkibidagi umumiy substrat (lotincha substratum — mos ma'nosini anglatadi)ni axtarishdir. Bunday yo'nalishga mansab oqimlardan biri atomistik oqim hisoblanadi. Masalan, qadimgi Yunon faylasuflari Levkipp, Epikur, Demokrit va Lukretsiylar narsalarning va butun olamning asosida eng kichik bo'linmas unsurlar atomlar yotadi, ular o'zlarining shakli, harakatlanishi va vaznlari bilan bir-birlaridan farq qiladi, deb hisoblashgan.

Albatta bu ta'riflarni bir yoqlama mutlaqlashtirib tushunmaslik lozim. Bu ta'riflarda ko'proq sezgi a'zolarimizga bevosita ta'bir etishi mumkin bo'lgan reallik nazarda tutilgan. Nimaiki

mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda siz bilan biz mansub bo'lgan dunyoni ifodalaydi. Ammo tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u obyektiv olamning mazmunini ifoda etadi. Bunday tushuncha haqidagi tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu umumlashtiruvchi tushuncha, narsalarning asosida nima yotadi, degan nuqtayi nazardan kelib chiqib, substansiya (lotincha, substantia — nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat degan ma'noni beradi) deb ataldi.

Substansiya — muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma-xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir. Olamning asosida bitta mohiyat — substansiya yotadi, deb hisoblovchi ta'limotni monizm deb atashadi. Faylasuflar substansiya sifatida biror jismni, hodisani, materiyani, g'oyani yoki ruhni olishgan. Substansiya sifatida moddiy jismlarni, materiyani oluvchilar — materialistik monizm tarafdorlari. g'oyani, ruhni oluvchilar esa — idealistik monizm tarafdorlari hisoblanadilar. Shuningdek, olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g'oya yoki ruh yotadi deb hisoblovchi faylasuflar dualistlar (dualizm lotincha; dualis — ikkilangan degan tushunchani anglatadi) deb hisoblanadi. Arastu, Moniy, R. Dekart va boshqalar dualistlardir. Olamning asosida ko'p substansiyalar yotadi deb hisoblovchilarni esa plyuralizm (lotincha pluralis — ko'pchilik so'zidan olingan) tarafdorlari deb atashadi.

Olamning namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Faqat moddiy jismlarnigina o'ziga qamrab oluvchi olamni moddiy olam deyishadi. Ayrim kishilar uni jismoniy, ya'ni fizik olam deb atashadi. Odamning ma'naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni ma'naviy olam deyishadi. Aynan shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo'lgan olam aktual olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lish imkoniyati bor va bo'lishi mumkin bo'lgan olam potensial olam deyiladi. Masalan, sizning bugungi kundagi talabaligingiz aktual olamga mansub bo'lsa, kelajakda mutaxassis bo'lib yetishishingiz esa potensial olamga mansubdir.

Odamning mavjudligi shubhasiz bo'lgan va barcha e'tirof etadigan qismi real olam deyiladi. Kelajakda mavjud bo'lishi ehtimoli bo'lgan olam virtual olam deb ataladi (virtual so'zi lotincha virtualis — ehtimoldagi degan ma'noni beradi). Aniq ma'lum bo'lgan olam konkret olam deyiladi, xayoldagi, tasavvurdagi, idealdagi olam obrazi abstrakt olam deyiladi.

Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma'lum bo'lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo'lsa, uning xayoliy rejalari virtual olamga, uning o'zi va atrofida gilar konkret olamga, ke- lajakka yo'nalgan orzu-umidlari esa abstrakt olamga mansubdir. Odam o'z rejalarni real olamga asoslanib tuzsa, potensial ola- mning konkret reallikka aylanish ehtimolligi oshadi.

Odam olamda boshqalardan ajralib, yakka-yu yagona bo'lib emas, balki ijtimoiy hayot kechiradi va jamoa bo'lib yashaydi. Odamlar jamoasi jamiyatni tashkil etadi. Odamlar jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, faoliyatlari, o'y-xayollari, ideallari, maqsad va maslakhlar bilan birgalikda ijtimoiy olamni tashkil etishadi. Odamning jamiyatdagi boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati, ularning har biriga xos bo'lgan takrorlanmas individual olamlariga bog'liqdir. Individual olam, ayni paytda tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi, o'zida ifodalaydi. Bular bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir.

XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yu- tuqlar kishilarning obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishining imkonini bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

Odamning klassik mexanika nuqtayi nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi o'rnini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Bu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sha- roit tug'dirdi. Bu o'zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta'rifga sezgilarimizga bevosita yoki bilvosita (ya'ni turli asbob- lar; qurilmalar vositasida) ta'sir etuvchi, degan qo'shimcha kiri- tishdi. Shunday qilib, bu ta'rif go'yo materiyaning moddaviy va

nomoddaviy shakllarini, ya'ni modda va antimodda ko'rinishlarini qamrab oluvchi ta'rifga aylandi.

Materialistlar materiyani obyektiv reallik, deb ta'riflashadi. Obyektiv reallik inson sezgilariga bog'liq bo'lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo'lgan voqelikdir. Bu butun mavjudlikning subyektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Obyektiv reallikning mavjudligi qanday namoyon bo'ladi? Bu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o'rganishga to'g'ri keladi. Har qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha «atribut» so'zi bilan ataladi.

Borliqning atributlari. Muayyan jismning aynan shu jism ekanligini belgilovchi xususiyatlari uning atributlari deyiladi. Borliqning ham bir qancha atributlari mavjuddir. Ular: harakat, fazo, vaqt, in'ikos, ong va boshqalar. Borliq o'zining xossalari, xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Endi borliqning atributlari, ya'ni ajralmas tub xususiyatlari haqida to'xtab o'taylik.

Harakat. Borliqning atributlari ichida uning asosiy mavjudlik usulini ifoda etuvchi xususiyati harakat hisoblanadi. Chunki borliq harakatsiz o'zining strukturaviy yaxlitligini saqlay olmaydi.

Buni moddiy borliq misolida qarab chiqaylik. Faraz qiling, qarshimizda biror jism turibdi. Agar harakat bo'lmaganida edi, yorug'lik nurlari shu jismga urilib bizga qaytmagan bo'lar edi, ya'ni biz uni ko'rmagan bo'lar edik. Shuningdek, bu jismning yaxlitligini saqlab turgan molekulalar, atomlar, elementar zarrachalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar ham bo'lmasdi. Natijada bu jismning strukturaviy birligiga putur yetgan bo'lar edi. Tevarakatrofimizdagi predmetlar va hodisalar harakat tufayli o'zining muayyan tartibini va birligini saqlab turadi, shu tufayli, o'sish, ulg'ayish, ravnaq topish, rivojlanish mavjuddir.

Harakat, bir tomondan, moddiy jismlar o'rtasidagi va ularni tashkil etuvchi elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarning natijasi, boshqa tomondan esa, ulardagi o'zgarishlar sifatida sodir bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ham falsafaning harakat bu umuman har qanday o'zgarishdir, deyilgan ta'rifi juda o'rinlidir. Harakatning manbayi haqida gap ketganda, ana shu o'zgarishlarning asosida

yoʻlovchi oʻzaro taʼsirlar va ular orasidagi munosabatlar nazarda tutiladi.

Demak, har qanday harakatning manbayi shu sistemadagi ichki oʻzaro taʼsirlar ekan, har qanday jismning mavjudligini, eng avvalo, uning ichki aloqadorliklari taʼminlaydi.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza, asosan, oʻzgarishlarning xususiyatiga asoslangan. Oʻzgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy oʻzgarishlargacha takomillashib borgan. Shu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtayi nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda oʻzgarishning xilma-xil koʻrinishlari mavjud boʻlib, ular bir-biridan sifatiiy farq qiladi.

Mexanik, kimyoviy, biologik, fizik oʻzgarishlar bilan ijtimoiy oʻzgarishlarni aslo taqqoslab boʻlmaydi. Toʻgʻri, bu oʻzgarishlar uchun umumiy boʻlgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu koʻrinishda namoyon boʻlishi mumkin. Lekin hamma oʻzgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb boʻlmaydi. Masalan, Yerning Quyosh atrofidagi, Oyniing Yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol koʻrinishi deyishimiz mumkin. Lekin Yer bagʻrida roʻy berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Yer sirtidagi biosferaning yashash usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab boʻlmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab boʻlsa, u bilan bogʻliq boʻlgan oʻzgarishlar ham shu qadar murakkab boʻladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada boʻlsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

Rivojlanish. Oʻzgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. Rivojlanish bu — muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yoʻnalishga ega boʻlgan, miqdoriy va sifatiiy oʻzgarishidir.

Shu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilindi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turgʻunligini saqlagan holda roʻy beradigan ichki oʻzgarishlarni oʻz ichiga oladi. Yaʼni har qanday jismda betoʻxtov ichki oʻzgarishlar roʻy berib

turadi, **lekin** bu o'zgarishlar shu **jismning tashqi** sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekulalardan, molekulalar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham beto'xtov o'zgarishlar ro'y berib turadi. Shuningdek, har bir jism o'zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan tarqalayotgan nurlanishlarning ta'siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta'sirlarni o'zida in'ikos ettirish jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg'unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta'sirlar oqibatida ro'y beruvchi o'zgarishlar asta-sekin to'planib, keyinchalik jismda keskin sifatiiy o'zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish, ya'ni jismning sifatini o'zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Rivojlanish jarayoni ham ikki turda bo'ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo'yicha, jismda har qanday sifatiiy o'zgarish ro'y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materiyaning sifatiiy tuzilish darajasi o'zgarmasdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo'lgan quyoshdagi rivojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko'ra, hozir sirtida 6 ming, ichida esa bir necha mln. darajali haroratga ega bo'lgan quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya'ni quyoshning markazidagi termoyadro energiyasi so'ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda quyosh shisha boshlaydi va Yer orbitasini ham o'z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so'ngra esa «qora karlikka», keyin bo'lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o'zgarishlar natijasida borliqning tashkiliy struktura darajasi o'zgar olmaydi, ya'ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o'simliklar va hayvonot olaminin paydo bo'lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vu-

juda kelishi singari sifatliy o'zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatliy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o'rganiladi.

Materialist bo'lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlashda, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritadilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo'ladi;

2) materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jihatdan ketma-ket bog'langan, ya'ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir;

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o'zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir. Shu mulohazalarga tayangan holda, harakatning beshta shaklini ajratib olish mumkin. Ular — mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakatlardir.

Harakat shakllari. Falsafada harakat shakllarini turkumlashning bir qancha boshqa ko'rinishlari ham bor. Ayrim olimlar harakat shakllarini har bir fanning nomi bilan bog'lash kerak, deb hisoblashadi. Bunday qarashning xatoligi shundaki, fanlarning ko'pchiligi harakat shaklini emas, balki miqdoriy munosabatlar va holatlarni aks ettiradi. Masalan, geodeziya yoki geometriya, trigonometriya yoki topografiya, chiziqli algebra qanday harakat shaklini o'rganadi? Kibernetika esa ham tabiatda, ham jamiyatda amal qiluvchi boshqarish jarayonlarini o'rganadi, ya'ni bu fan bitta emas, balki bir qancha harakat shakllarini qamrab oladi.

Harakat shakllarini turlash bo'yicha quyidagi tabiiy-ilmiy konsepsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur konsepsiya bo'yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (elementar zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), kimyoviy harakat (atomlar va molekulalarning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo'nalishga ajraladi: 1) harakat rivojlanishining yuqori yo'nalishida biologik harakat shakllanadi; 2) harakat rivoj-

lanishining quyi yo'nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatga olib boradi.

Yana bir boshqa konsepsiyada esa harakat borliqning tashkiliy tuzilish darajalariga mos ravishda turlangan. Bu konsepsiyada harakat shakllari uchta sinfga ajratiladi: notirik tabiatda — elementar zarrachalar va maydon harakati, tirik tabiatda — hayotning namoyon bo'lishi, jamiyatda — odamning faoliyati.

Ijtimoiy harakat bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarining faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlardan mutlaqo taqqoslab bo'lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o'ta murakkabdir.

Fazo va vaqt, makon va zamon. Borliqning asosiy yashash shakllariga makon va zamon, ya'ni fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma'lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko'lamga, hajmga ega. Fazo — vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o'zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fazoning muayyan nuqtasida ro'y beruvchi hodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi.

Fazo va vaqt tushunchalari, ko'p hollarda, fors tili ta'sirida yozilgan adabiyotlarda makon va zamon, deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi, xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma'nosida, vaqt esa hodisalar bo'lib o'tadigan muddat ma'nosida ishlatiladi.

Fazo va vaqtni tushunish bo'yicha substansial va relyatsion yondashishlar mavjud. Substansial konsepsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo'shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o'ziga narsalarni sig'diruvchi substansiya. Hech narsasi yo'q, ya'ni narsalar solinmagan fazo ham bo'lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion konsepsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o'lchamga ega, deyishadi.

Hech narsasiz fazoning bo'lishi mumkin emas. Bu farqni relyativistik fizika asoschisi Albert Eynshteyn shunday tushuntirgan edi. Faraz qilib, bir kazarma soldatlarni ko'z oldingizga keltiring. Hagarigi, Nyuton fizikasiga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma bo'sh qoladi, ana shu substansial konsepsiyadagi fazodir. Yangi fizikaga ko'ra, soldatlar chiqib ketishi bilan kazarma ham yo'qoladi. Bu relyatsion konsepsiyadagi fazodir.

Fazo va vaqtning xususiyatlari. Fazo va vaqt borliq miqdoriy va sifatliy jihatlarni ifodalashiga qarab, metrik va topologik xususiyatlarga ega. Fazo va vaqtning metrik xususiyatlari borliqning miqdoriy munosabatlarini aks ettirib, o'lchanadigan, ko'zga tashlanadigan va nisbiy tabiatli xususiyatlaridir. Ularga ko'lam, bir jinslilik, izotroplik (anizotroplik) kabi xususiyatlar kiradi.

Fazo va vaqtning topologik xususiyatlari esa, borliqning tub sifatliy jihatlarni ifodalaydi. Bunday xususiyatlarga uzluksizlik, bog'langanlik, o'lchamlilik, kompaktlik, tartiblanganlik singari xususiyatlar kiradi. Vaqtning topologik xususiyatlariga orqaga qaytnaslik, bir o'lchamlilik kabi xususiyatlar qo'shiladi.

Fazo (vaqt)ning metrik o'zgarishlari borliq strukturasi jiddiy o'zgartira olmaydi, topologik o'zgarishlar esa borliqning sifatliy o'zgarishiga sababchi bo'ladi. Masalan, bir bog'langan sistema-ning ko'p bog'langan sistemaga o'tishi fazo topologiyasini tubdan o'zgartiradi, ya'ni fazoning ikki nuqtasini tutashtiruvchi turlicha yo'llar paydo bo'ladi. Bunday fazoda katta idishning ichiga kichik idishni sig'dirish mumkin bo'ladi. O'lcham darajasi ko'p bo'lgan sistema o'lchov darajasi kam bo'lgan sistemaga nisbatan ko'rinmas va murakkab bo'ladi. Shuningdek, fazo va vaqtning metrik xususiyatlarini kuchli o'zgarishi topologik xususiyatlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Masalan, fazoning egri-lik darajasi kuchli o'zgarsa, bir bog'langan fazo ko'p bog'langan fazoga aylanishi mumkin.

Hayot — borliqning namoyon bo'lish shakli. Tabiat va jamiyat hayotidagi konkret fanlar borliqning muayyan xususiyatlarinigina o'rganadi. Borliqning umumiy xossalari hacida esa, falsafa fani tadqiqot olib boradi. Bu jihatdan falsafada hayot muammosiga nisbatan muayyan yondashuv shakllanganini alohida qayd etish

lozim. Xo'sh, hayot nima? Borliqning eng murakkab shakllaridan biri hayot va uning mohiyati haqida to'xtalaylik. Biz hayot ekanmiz, olamni bilamiz. Hayotning xilma-xil turlari, shakllari borki, ular borliqning moddiy shaklini harakatga keltirishda, boshqarishda asosiy o'rin tutadi. Hayotning eng murakkab shakli inson hayotidir. Bu inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Har bir odamga bir marotabagina hayot kechirish imkoniyati berilgan. Insonning qadr-qimmatini shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi.

Odamning tabiati va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog'liq. Farovon jamiyatda insonlar ham farovon hayot kechirishadi. Qashshoq jamiyatda esa qashshoqlik tomir otadi. Demak, jamiyatimizni qanchalik farovon qilsak, unda yashaydigan insonlarning, kelgusi avlodlarimizning hayoti ham shunchalik baxtli va farovon bo'ladi.

Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtayi nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas va o'ziga xosdir. Balki stanokning bir detali o'rniga boshqa detalni qo'yish bilan natija o'zgarmas yoki bir ishchining o'rniga boshqa ishchini qo'yish bilan stanok to'xtab qolmas. Ammo bir otaning o'rnini boshqa ota, bir do'stning o'rnini boshqa do'st bosa olarmikin? Shunday ekan, har bir odam takrorlanmas va o'z o'rnida qadrlil. Insonni, uning hayotini qadrlash muhim ijtimoiy vazifadir.

Inson tabiiy muhitsiz, suv, havo, quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi. Bu unsurlar uning tirikchiligini ta'minlaydi. Bunday qulay sharoit inson uchun faqat Yer sharida mavjuddir. Yerning hayot tarqalgan qismi biosfera deb ataladi. Biosfera tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Yer shari quyoshga yaqinroq joylashganida, yer yuzasidagi harorat ko'tarilib ketgan bo'lar edi va oqibatda yerdagi namlik, suv yo'qolar edi. Agar u quyoshdan uzoqda joylashganida, yer yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar edi. Har ikkala holatda ham yer yuzasida hayotning paydo bo'lishiga imkoniyat yo'qolgan bo'lardi. Yana boshqa holni olaylik: Quyosh sistemasi Galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganda

edi, yer yuzasida kuchli gravitatsiya ta'sirida narsalarning vazni og'irlashib, insondek murakkab jonzodning, balki umuman hayotning paydo bo'lishiga sharoit bo'lmagan bo'lar edi. Aksincha, Quyosh sistemasi Galaktikamiz markazidan hozirgiga nisbatan chetda joylashganda ham, gravitatsiya kuchining zaifligi ayrim kimyoviy va biologik jarayonlarning ro'y berishiga xalaqit bergan bo'lar edi. Buning oqibatida yer yuzasida hayot paydo bo'lmas edi.

Demak, inson olamning eng ajoyib mo'jizasi, Yaratganning in'omi, o'zi uchun eng qulay bo'lgan joyda, Yer sayyorasida yashaydi va bunga shukur qilsa arziydi. Inson aql-idrokining olamga ta'sir ko'rsatish chegarasi «Noosfera» deb ataladi. Qadimda insonning tabiiy muhitga ta'siri o'ta kuchsiz bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan inson qo'lida qudratli kuch va quvvat manbulari to'plangach, uning tabiatga ta'siri o'zgardi, atrof-muhitni ifloslantirib, biosferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladi.

Bugungi inson o'zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta'siri kuchaygandan kuchayib, oxir-oqibatda uning o'zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlardan bor. Haqiqatan ham inson faoliyati aql-idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u Yer yuzining halokatini tezlashtirishi muqarrardir.

Hozirgi zamondagi ekologik muammolardan biri ham inson tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va bu halokatni to'xtatib qolishdan iborat. Bu olamni qay darajada yaxshi bilib olishimiz va uning hayotiga nisbatan mas'uliyatni anglashimizga bog'liqdir. Har bir inson jamiyatda va tabiatda tutgan o'z o'rnini, umrining ma'nosi va bu hayotdagi mas'uliyatini to'g'ri anglasa, atrof-muhitni avaylab-asrashi, Yer yuzini gullatib yashatishga harakat qilishi shubhasiz.

Tayanch tushunchalar: olam, ontologiya, borliq, borliq shakllari, individual borliq, ijtimoiy borliq, real borliq, virtual borliq, yo'qlik, mavjudlik, reallik, materiya, harakat, rivojlanish, fazo, vaqt, tabiat, tabiiy muhit, biosfera, noosfera, hayot.

Takrorlash uchun savollar

1. Olam nima va unda odamning o'rnini qanday?
2. Borliq va yo'qlik tushunchalari to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Borliqning murakkab tuzilishi deganda nima tushuniladi?
4. Real, konkret va virtual borliqning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Mavjudlik va reallik nima?
6. Harakat va uning asosiy shakllari to'g'risida so'zlab bering.
7. Fazo va vaqt, makon va zamon qanday ma'nolarni anglatadi?
8. Hayot nima va uning mazmuni nimadan iborat?

5-mavzu. Olamning universal aloqalari va rivojlanish.

Falsafaning qonun va kategoriyalari

Olamdagi aloqalar, o'zgarish va rivojlanish. Bog'lanishlarning turlari. Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turishi, rivojlanishi, ular o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sir kabi masalalar qadimdan mutafakkirlar, olimlar, faylasuflar o'rtasida turli bahs, munozara, tortishuvlarga sabab bo'lgan. Chunki ular to'g'risida aniq bilimga ega bo'lmasdan turib, olam va uning taraqqiyoti, rivojlanish manbai, harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida hamda, eng asosiysi, kelajak haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish qiyin.

Atrofimizdagi jamiki narsa-hodisalar, ya'ni eng mayda zarrachalardan tortib to Yer, quyosh, Koinotgacha barchasi, shu jumladan, kishilik jamiyati ham, doimo harakat, o'zgarish va rivojlanishdadir. Ular o'rtasida abadiy o'zaro bog'liqlik, o'zaro ta'sir va aloqadorlik mavjud. Olamda o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda hech qanday harakat ham, o'zgarish ham yuz bermaydi.

Biz narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi va rivojlanishiga ular o'rtasidagi bog'lanish va aloqadorlik, ta'sir va aks ta'sir asos bo'ladi, deymiz. Albatta, olamdagi har qanday bog'lanish ham rivojlanishga sabab bo'lavermaydi. Chunki bu bog'lanishlarning ko'lemi, mohiyati, ta'sir kuchi va doirasi turlicha. Bog'lanishlarning ana shu xususiyatlariga qarab, zaruriy va tasodifiy, ichki va

tashqi, bevosita va bilvosita, muhim va muhim bo'lmagan va hokazo bog'lanishlarga ajratish mumkin.

Shuningdek, olamda boshqa voqea yoki hodisalardan alohida, ular bilan bog'liq, o'zaro aloqadorlikda va ta'sirda bo'lmagan turortta ham voqea yoki hodisa mavjud emas. Demak, o'zaro bog'lanish va ta'sir natijasida narsa-hodisalarda o'zgarish sodir bo'ladi. Lekin, barcha o'zgarishni har doim ham birdaniga, yaqqol sezish mumkin emas. Chunki olamning namoyon bo'lishi turli darajada bo'lganligi sababli, o'zgarishlar ham turlichadir.

Masalan, yangi tug'ilgan chaqaloqning bir hafta, bir oy, yarim yil mobaynidagi o'zgarishini, ya'ni ulg'ayishini yoki bo'lmasa, tahlildagi qish faslidan bahor fasliga o'tishdagi o'zgarishlarni oddiy ko'z bilan yaqqol sezish mumkin. Lekin biron jonsiz predmet, masalan, Yer qa'ridagi ichki jarayonlarni ma'lum davrdan keyin sezish mumkin. Ana shu sababdan ham odamlar zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi ofatlar qarshisida lol, gohida esa g'afolatda qolib kelmoqdalar. Ya'ni tashqi faktorlar (inson faoliyati, yorug'lik, issiqlik, namlik, atmosfera bosimi) natijasida ro'y bergan o'zgarishlarni ko'z ko'radi, quloq eshitadi. Xullas, ular oson anglab olinadi, ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Ulardagi o'zaro bog'liqlikni ham oson ko'rish, ilg'ash mumkin. Ana shunday oson ko'rish va ilg'ash mumkin bo'lgan, ochiq-oydin ro'y beradigan voqea, hodisa, natijaga nisbatan «zohiriylik» tushunchasi, mohiyatini ilg'ash qiyin bo'lgan va murakkab ichki sabablar natijasida kechadigan jarayonlar va o'zgarishlarga nisbatan «botiniylik» tushunchasi qo'llaniladi. O'rta asrlarda, ayniqsa tasavvuf falsafasida bu ikki tushunchaga alohida e'tibor berilgan.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu yerda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har qanday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalar-

ning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Ba'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgariidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzda takrorlanishdir.

Hech qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o'sha quyosh chiqadi, o'sha tog'u toshlarni, bog'u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o'sha-o'shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o'qishga, kimdir yana ilgari kundedek bekorchilikdan zerikadi... Ammo dunyo o'zgarimadimi bu bir kunning ichida? Unda minglab bolalar tug'ilmadimi, son-sanoqsiz jaryonlar ro'y berib, Yer sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimi? Ona zamin o'z o'qi va quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimi? Bularning barchasi bir kunu-tunda ro'y bergan botiniy va zohiriy o'zgarishlarning namoyon bo'lishidir.

Qonun tushunchasi. Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy o'zgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa o'z mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Masalan, biz Nyuton tomonidan kashf etilgan butun olam tortishish qonunini o'rganganimizda ana shunday holni idrok etganmiz. Bu qonunning asosiy mohiyati butun olamdagi narsalarning bir-biri bilan aloqadorligi tamoyilining doimiy takrorlanishi, har soniya va har daqiqada bu holatning sodir bo'lib turishini isbotlaydi.

Xo'sh, qonun o'zi nima? U kishi va umuman, jamiyat hayotida qanday ahamiyatga ega? Qonunni bilmasdan, o'rganmasdan turib yashash mumkinmi? Qonun tushunchasi kundalik hayotimizda nisbatan tez-tez ishlatib turiladigan tushunchadir. Xususan, fizika yoki kimyo qonunlari deymiz, tabiat qonuni yoki bo'lmasa, iqtisodiy qonunlar, yuridik qonunlar va h.k. Bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarining uchinchisi ham qonun to'g'risida bo'lib, unda barcha sohada qonunning ustuvorligi ta'minlanishi ta'kidlanadi. Yuqoridagilarni birlashtirib turadigan, barchasi uchun ham umumiy bo'lgan xossa, xususiyatlar bormi?

Eng avvalo, shuni aytish kerakki, olamdagi barcha narsa — tabiiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ma'lum qonunlar asosida amalga oshadi. Fanlarning (ijtimoiy, gumanitar, tabiiy va h.k.) asosiy vazifasi har bir soha bo'yicha tadqiqot o'tkazib, qonunlarni kashf qilish yoki ularning amal qilish xususiyatlarini o'rganish va ochib berishdan iborat.

Qancha ko'p qonun kashf qilinsa, taraqqiyot shuncha tez bo'ladi. Taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, rivojlanishga erishish qiyin. Yaqin o'tmishda iqtisodiyotning o'ziga xos qonunlarini pisand qilmay, turli xil syezd, plenum, konferensiya qarorlari asosida eksperimentlar o'tkazib, barcha uchun farovon hayot — kommunizm jamiyatini barpo qilmoqchi bo'lishganini va bunday siyosat qanday oqibatlariga olib kelgani barchaga ma'lum.

Hozir mustaqil O'zbekiston barcha rivojlangan mamlakatlar singari ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo qilish yo'lidan bormoqda. Bunda umumbashariy qonunlar va mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan.

Endi shunday savol: Nima uchun inson qonunni bilishi kerak? Bunda oddiy misollarga murojaat qilamiz: yoz oylarida barcha odamlar issiq kiyimlar (etik, palto, qo'lqop va h.k.) sotib olishadi, o'tin yoki ko'mir g'amlab qo'yishadi va h.k. Nima uchun? Chunki ular tabiatning bitta qonunini, ya'ni fasllarning o'zgarishi, yozdan keyin kuz, undan keyin qish kelishini juda yaxshi bilishadi.

Yoki yana bir, jo'nroq bo'lsa-da, misol: sizga birov uyning 3-qavatidan tashlasang, falon pul beraman desa, rozi bo'lmaysiz. Nima uchun? Chunki siz I. Nyuton kashf qilgan «Butun olam tortishish qonuni»ni yaxshi bilasiz. Balki bilmassiz ham, havoning o'z jismingizdan zichligi kamligiga e'tibor qilmassiz ham, deylik. Ammo siz bu holda omon qolishingiz qiyinligini, mayib bo'lishingizni yaqqol tasavvur qilasiz.

Inson qonunlarni bilishi, ularga amal qilishi doirasida erkinlikdir. Erkinlik nima? Erkinlik anglab olingan zaruriyatdir. Har qanday qonunga xos belgilardan biri zaruriylik, ya'ni obyektiv tarzda amalga oshish, o'z-o'zidan namoyon bo'lishdir. Erkinlik

esa ana shu zaruriylikni anglab olish va unga amal qilishdan iborat faoliyatni anglatadi.

Yuristlarda shunday ibora bor: «Qonunni bilmaslik javobgarlikdan xolos qilmaydi». Ana shu tufayli siz yuridik qonunlarni qancha yaxshi bilsangiz, o'zingizning faoliyatingizni shunga moslab olib borasiz. Demak, shuncha erkin bo'lasiz. Bu holda siz nima qonuniy, nima esa qonuniy emasligini yaxshi bilasiz, qonunga xilof qadamlar qo'ymasiz.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib, qonunga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Qonun olamdagi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy va takrorlanib turuvchi bog'lanishlari, o'zaro aloqalari va munosabatlarining namoyon bo'lishidir. Endi qonunning belgilariga to'xtalamiz:

– qonun turli-tuman aloqadorliklar, bog'lanishlardan faqat muhimlarini, ya'ni shunday bog'lanishlarni ifodalaydiki, bu- lar olamning mavjudligi, o'zgarishlari va undagi narsa hamda hodisalarning mohiyatidan kelib chiqqan bo'ladi;

– qonun zaruriy bog'lanishlarni ifodalaydi, ya'ni tasodifiy bog'lanishlar, goh paydo bo'lib, goh yo'qolib ketadigan bog'lanishlarga asoslanmaydi;

– qonun narsa va hodisalarining umumiy bog'lanishlarini ifodalaydi.

Qonun nisbatan barqaror, takrorlanib turuvchi bog'lanishlarni (munosabatlarni) ifodalaydi, ya'ni bir safar yuz berib, ikkinchi safar yuz bermaydigan bog'lanishlarni qonun qamrab olmaydi. Masalan, 2019-yili qishdan keyin bahor kelib, 2020-yilda qishdan keyin birdaniga yoz kelishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, bu tabiat qonuni — fasllar o'zgarishi qonuni doirasiga kirmaydi.

Tabiat qonunlarining yana bir eng muhim xususiyati — u obyektiv xarakterga ega, ya'ni u insonga ham, insoniyatga ham bog'liq emas. Biror kishi, hatto millatning irodasi bilan ham, tabiat qonuniga tub o'zgartirish kiritish yoki uni butunlay yo'q qilish mumkin emas. Chunki bu qonunlarning asosini tashkil qilgan bog'lanishlar, munosabatlar obyektiv xususiyatga ega.

Ayniyat va ziddiyat bilan bog'liq qonuniyat. Olamdagi har bir narsa va hodisa bir-birini taqozo qiladigan va shu bilan birga, bir-

turli istisno qiladigan qarama-qarshi tomonlar birligidan iborat. Demak, voqelik va o'zgarish jarayonida ayniyat va ziddiyatning bo'ladini ham odatiy hol. Masalan, issiq va sovuq, oq va qora, kecha va kunduz, elektrning musbat va manfiy zaryadlari, yaxshilik va yomonlik, adolat va jaholat va h.k. qarama-qarshi tomonlar bir-birini inkor etadi va shu bilan birga biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Faraz qilaylik, magnitning manfiy zaryadi bo'lmasa, u holda ushbu narsa magnit bo'lolmaydi.

Borliq narsa, voqea-hodisalarning turli-tumanligidan iborat. Lekin narsalar qanchalik xilma-xil, turli-tuman bo'lmasin, ular o'rtasida yaqinlik, aynanlik mavjuddir. Masalan, stol va stul sifat jihatidan turli narsalardir. Lekin baribir ular o'rtasida o'xshash tomonlar, belgilar bor. Aytaylik, ularning yo rangi yoki bir xil materialdan yasalganligi yoki bo'lmasa, vazni o'xshash bo'lishi mumkin va h.k.

Ayniyat tushunchasi narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo'lgan narsaning o'zi yo'q. Hatto daraxtning bir shoxida yonma-yon turgan 2 barg ham bir-biridan farq qiluvchi ba'zi jihatlarga ega. Hech bo'lmaganda, ular bir-biridan makondagi o'rni bilan farq qiladi.

Hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, bir-biriga tashqi tomondan tamomila o'xshash bo'lgan Hasan va Husanlarda ham juda ko'p farq qiluvchi xususiyatlar bor. Masalan, ularda te'l-atvor, qiziqish turi, dunyoqarashlar har xil bo'lishi, ya'ni ularning ichki dunyolari farq qilishi mumkin. Demak, tafovut narsa-hodisalarning farq qiluvchi tomonlarini ifodalovchi tushunchadir.

Qarama-qarshilik deb esa, narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining o'zaro munosabatiga aytiladi.

Qarama-qarshiliklar o'rtasidagi munosabatni ziddiyat degan tushuncha ifodalaydi. Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning ziddiyligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli

rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. **Taraqqiyot** shu ma'noda ayniyat, tafovut va ziddiyatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hal qilinishidan iborat bo'lgan abadiy va azaliy murakkab jarayondir.

Sobiq Ittifoqning mafkurasi darajasiga ko'tarilgan mark-sizmda asosan ziddiyatga ko'proq e'tibor berilar edi. U mutlaqlashtirilar va jamiyatga ko'chirilib, asosan, antogonistik ziddiyatlar to'g'risida gapirilar va ularning yechilishi insoniyatni baxtli hayotga olib boradi, deya xayol qilinar edi. Holbuki, insoniyat paydo bo'libdiki, uning hayotida ayniyat va tafovut ham, ziddiyat va qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'lib kelmoqda. Odamzod ziddiyatlar kamroq bo'lgan, kishilarning xilma-xil intilish va maqsadlari, bir-biridan farq qiladigan g'oyalari uyg'unlashgan, barqarorlik ustuvor bo'lgan jamiyatni qurish uchun bosh qotirib kelmoqda.

Ana shunday intilishlar fanda «Konfliktologiya» (konflikt — ziddiyat, logos — ta'limot) deb ataladigan falsafiy yo'nalish paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu soha bilan shug'ullanadigan olim va mutaxassislar konfliktologlar deb ataladi. Ular konfliktlarni keltirib chiqarish emas, balki ularning oldini olish va jamiyat uchun foydali tarzda hal qilish yo'llari va usullari ustida bosh qotirishadi.

Har bir ziddiyatning aniqlanishi, hal qilinishi o'zgarishga, yangilanishga, bir sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o'tishga sabab bo'ladi. Olam turli-tuman bo'lganligi uchun ziddiyatlar ham xilma-xildir. Masalan, ichki va tashqi ziddiyatlar, asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyatlar mavjud. Ular o'rtasida farq bo'lgani bilan birga, mutlaq chegara ham yo'q. Chunki amalda, hayotda ular bir-biriga o'tishi, birgalashib ketishi va taraqqiyotda turli xil o'rin tutishlari mumkin.

Miqdor va sifatning bog'liqligi qonuni. Olamning mavjudligi — miqdor va sifat voqeligi tarzida ham namoyon bo'ladi. Buning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo'lmagan miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin to'plana borib, taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida me'yorni buzadi va sakrash yo'li bilan tub sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagi xilma-xil narsa va hodisalar bir-biridan o'z sifati bilan ajralib turadi. Sifat — narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarini bog'liqlikda namoyon qiladi.

Demak, sifat narsaning umumiylikini, yaxlitligini, uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligi yoki o'xshamasligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir. Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi, muqarrar sur'atda, xossaning o'zgarishiga olib keladi. Biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga ta'sir etavermaydi, ayrim xossalar narsalarning sifatiga ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin. Sifat predmetning doimiylikini, nisbiy barqarorligini ifoda etadi.

Narsalar sifat muayyanligidan tashqari, bir-biridan miqdoriy tomonlari bilan ham farq qiladi. Miqdor predmetning hajmi, o'lehoivi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidangina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi. Har qanday narsa miqdor va sifat birligiga ega. Tabiatda faqat miqdorga yoki sifatga ega bo'lgan, ya'ni sifati bo'lib miqdori, miqdori bo'lib aksincha, sifati bo'lmagan narsaning o'zi yo'q.

Miqdor va sifatning birligi, o'zaro bog'liqligi me'yor tushunchasida ifodalanadi. Me'yorning buzilishi predmet mavjudligi mumkin bo'lmagan holatga olib keladi.

Har qanday narsa va hodisaga miqdor va sifat o'zgarishlari xosdir. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'rtasida qat'iy qonuniyat mavjud bo'lib, bu qonuniyat quyidagicha ifodalanadi: miqdoriy o'zgarishlar sifat o'zgarishlarini tayyorlab, har bir aniq holatda muayyan tub sifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi va shu holatda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi sodir

bo'ladi. Olamdagi barcha o'zgarishlar asta-sekin sodir bo'ladigan miqdor o'zgarishlaridan boshlanadi. Miqdor o'zgarishlari muayyan chegarada sifatning barqarorligiga ta'sir etmaydi. Miqdoriy o'zgarishlar chegaradan chiqishi bilan sifatning barqarorligi buziladi. Natijada sifat yo'qolib, yangi sifat yuzuga keladi. Taraqqiyot jarayonida miqdor o'zgarishlari tub sifat o'zgarishlariga o'tishi bilan birga sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga ham o'tadi. Miqdor o'zgarishlari bilan sifat o'zgarishlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lishiga qaramay, ular ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Chunonchi:

— birinchidan, miqdor o'zgarishlari doimo yuz berib turadi. Hatto hodisalar sifatining nisbiy barqarorligi davrida ham miqdoriy o'zgarishlar asta-sekin yuz beradi. Sifat o'zgarishlariga o'tish faqat ma'lum bir davrda boshlanadi;

— ikkinchidan, miqdor o'zgarishlari ma'lum vaqtgacha narsalarga muhim ta'sir ko'rsatmaydi. Suv normal atmosfera bosimida 100° gacha suyuqlik holatini yo'qotmaydi, keyin esa bug'ga aylanadi, sifatini o'zgartiradi. Demak, sifat o'zgarishlari hodisalarni tubdan o'zgartirib, uning boshqa hodisaga aylanishini taqozo qiladi;

— uchinchidan, miqdor o'zgarishlari asta-sekin amalga oshadi va ko'p hollarda sezilmasdan o'tadi. Sifat o'zgarishlari esa ancha tez, ayrim holatda to'satdan sodir bo'ladi;

— to'rtinchidan, sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga qaraganda tub o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Sakrash nima? Sakrash tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlarini anglatadigan falsafiy tushuncha bo'lib, taraqqiyotning uzluksiz ko'rinishiga qaraganda ancha tez o'tadigan jarayondir.

Sakrash miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tishda uzluksizlikning uzilishini bildiradi. Sakrash narsa va hodisalarning uzluksiz rivojlanish davomida tayyorlanib, shu uzluksiz rivojlanish momenti tugab, uzilish sodir bo'lishi bilan zaruriy ravishda yuz beradi. Sakrash birdaniga, to'satdan bo'ladigan holatgina emas, balki yangi sifat elementlari ko'payishi orqali yuz beradigan tadrijiy jarayon hamdir.

Sakrashning turlari o'z xarakteriga ko'ra tabiat va jamiyatda silma-xil bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Jamiyat taraqqiyotidagi sakrashlarning o'ziga xos tomoni shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo'q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o'rnatadigan ijtimoiy jarayonlar, tadrijiy rivojlanish orqali amalga oshadi. Bunday sakrashlarni ikki turga bo'lish mumkin: birinchisi — portlash yo'li bilan bo'ladigan sakrashlar, ikkinchisi sekin-asta, tadrijiy yo'l bilan bo'ladigan sakrashlar. Birinchi tur sakrashlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda narsa va hodisalarning yangi sifatga o'tishi nihoyatda tezlik bilan yuz beradi va kutilmagan natijalarni, tasodifiy jarayonlarni boshlab yuborishi, hatto salbiy holatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Sakrashning ikkinchi turida esa, eski sifat elementlarining asta-sekin yo'qolib borishi va yangi sifat elementlarining asta-sekin to'planishi natijasida yangi sifat paydo bo'ladi.

Shunday qilib sakrash quyidagi jihatlarga ega:

— birinchidan, sakrash taraqqiyot natijasida amalga oshadigan obyektiv va qonuniy jarayondir;

— ikkinchidan, sakrash tadrijiylikning uzilib, miqdor o'zgarishlaridan tub sifat o'zgarishlariga o'tishidir;

— uchinchidan, sakrash eskini tugatish va yangi sifatga mos keladigan holatlarning vujudga kelishi tufayli paydo bo'ladigan ziddiyatlarni hal qilishdir;

— to'rtinchidan, sakrash olamning rivojlanib, ilgarilab borishidir.

Hodisalarning sifat xususiyatlariga va ularning rivojlanish sharoitiga bog'liq ravishda eski sifatdan yangi sifatga o'tish turli shakllarda sodir bo'ladi. Har bir narsa, hodisa o'zining aniq inkor qilish usuliga, o'z navbatida aniq sakrash shakliga egadir.

Demak, har qanday o'zgarish, har qanday rivojlanish miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bir-biriga o'tishi orqali sodir bo'ladigan jarayonlardan iborat.

Inkorni inkor qonuni. Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning barham topishi, yangi narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bunday eskining yangi bilan almashinishi inkor deb ataladi.

O'zgarish va rivojlanish jarayonida o'z-o'zini inkor etish tamoyili nihoyatda muhim. Bunda vorislik — eskining inkori va yangilikning shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu jarayonlarning doimiy takrorlanishi inkorni inkor qonunining mohiyatini bildiradi.

Inkor tushunchasi kundalik ongda «yo'q» so'zi bilan qo'shilib ketadi, inkor qilmoq — «yo'q» demakdir, biror narsani rad etmoqdir. Lekin dialektikada inkor kundalik ongda ishlatiladigan tushunchadan farq qiladi. Dialektikada inkor qilish to'g'ridan to'g'ri «yo'q» degani emas, ya'ni narsani mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmasdan, balki eskining bag'rida vujudga kelib, undan foydalanib, qaror topishini tan olishdir. Dialektik inkorning muhim ikki jihati mavjud: birinchisi, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy-tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyotning muhim sharti hisoblansa; ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.

Inkorni inkor qonunini tushunish uchun uni nega shunday deb atalishini izohlamoq lozim. Falsafaning bu ta'limotini ikki marta takrorlanuvchi inkorda ifodalanishi olamdagi narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda, rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib chiqadi.

Bu qonunga ko'ra, har bir mavjud bo'lgan narsa va hodisa o'zigacha bo'lgan sifat va miqdor inkor etilishining mahsuli, shu bilan birga, ana shu narsa va hodisalarning o'zi ham sharoitning o'zgarishi, vaqtning o'tishi bilan inkor etilishga mahkumdur. Demak, har bir narsa va hodisaning o'zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko'proq inkor etishlar bilan amalga oshadi. Insoniyat tarixi — avlodlar almashinuvi tarixidir, deyilganida ham ana shunday hol nazarda tutiladi.

Inkorni inkorning yana bir muhim belgisi shuki, taraqqiyotdagi davriylikning muayyan halqasida, ya'ni navbatdagi inkor bosqichida uning oldingi bosqichidagi ba'zi belgilar takrorlanadi.

Masalan, don o'simlikdan yana donlarga aylanadi, keyinroq yana o'simlikka va hokazo.

Inkorni inkorning amal qilishi tufayli taraqqiyot to'g'ri chiziq shaklida emas, doira shaklida bo'ladi, uning oxirgi nuqtasi boshlang'ich nuqtaga yaqinlashadi. Lekin bu yaqinlashuv uning oxirgi nuqta bilan tutashishi bo'lmasdan, balki yuqori bosqichda sodir bo'lishi sababli taraqqiyot spiral shaklga ega bo'ladi. Bu spiralning har bir yangi o'rami oldingi o'ramiga nisbatan yuqoriroq bosqichda yuzaga keladi.

Dialektik inkor yangi bilan eski o'rtasidagi bog'lanishni butunlay rad qiladi, deb tushunmaslik kerak. Yangi qanchalik ilg'or bo'lmasin, u yo'q joydan paydo bo'lmaydi, balki eskining qobig'ida asta-sekin shakllanadi. Shuning uchun ham ko'p hollarda eskidan yangiga o'tilayotganda eski butunlay tashlab yuborilmaydi, balki uning ijobiy tomonlari saqlanib qoladi va rivojlanish davom ettiriladi. Demak, yangi bilan eski o'rtasida vorislik mavjuddir. Inkorni inkor qonuni taraqqiyotda vorislik va qaytariluvchanlikning birligini tavsiflaydi. Dialektik inkorning muhim xususiyati ana shundan iborat.

Inkorni inkor qonuni mustaqillik va bozor iqtisodiyoti jarayonida ro'y berayotgan hodisalar mohiyatini ilmiy anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi jamiyatni barpo etishga qaratilgan o'zgarishlar hamma narsani butunlay yo'q qilishni bildirmaydi. Aksincha, bu — xalqimiz taraqqiyoti jarayonida erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yutuqlarni saqlab qolib, ularni yanada boyitib, rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur jarayonning asosiy tamoyili Islom Karimovning yangisini qurmasdan, eskini buzmaslik lozimligi to'g'risidagi xulosasida yaqqol o'z asosini topgan.

Har qanday fanning o'ziga xos qonunlari va asosiy tushunchalari bo'ladi. Masalan, fizikada fizik qonunlar, og'irlik, tezlik, kuch kabi tushunchalarga juda ko'p duch kelish mumkin. Ularning aksariyati bu fan tarixida chuqur iz qoldirgan mashhur olimlarning nomi bilan bog'langan. Masalan, fizikada Nyuton, Faraday, Avagadro qonunlari va hokazo. Matematikani esa Pifagor, al-Xorazmiy, Karl Gausning qonunlarisiz tasavvur qilish qiyin.

Xuddi shunday falsafaning fanlik maqomini belgilaydigan asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi ham bor. Ularni o'rganishdan avval, qonun va kategoriya tushunchalarining mazmunini aniqlab olish zarur. An'anaviy tavsiflarga ko'ra, «qonun» falsafiy kategoriya sifatida narsa va hodisalar rivojlanishi jarayonidagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, doimiy takrorlanib turuvchi, ichki o'zaro bog'lanishlar, aloqalar, munosabatlarning mantiqiy ifodasi ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Endi kategoriyalarning mohiyati va mazmuni bilan qisqa tanishaylik.

Kategoriya nima? Bu so'z qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish» degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan oq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan.

Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni obyektiv voqelikning umumlashgan in'ikosi sifatida qarab, turkumlashtirishga harakat qilgan. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turkumlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

Umuman, kategoriyalarni falsafa tarixida ilmiy mavzu sifatida o'rganishni aynan Arastu boshlab berganligi e'tirof qilinadi. Ma'lumki, ungacha Yunonistonda ko'proq politika va ritorika (notiqlik san'ati) fanlari sistemalashgan, ya'ni fan sifatida tizimga tushirilgan edi. Chunki o'sha davrda qo'shinni, mamlakatni va odamlarni boshqarish uchun siyosat va nutq madaniyati sirlarini bilish katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ammo o'sha davrlarda falsafaning qonunlari, kategoriyalari va asosiy tayanch tushunchalari muayyan tizimga tushirilmagan, izchil bayon qilingan bilimlar sistemasi sifatida shakllantirilmagan edi. Hatto Yunonistonning mashhur olimi va mutafakkiri Suqrotni ham ana shunday, hali go'yoki shakllanmagan fan bilan shug'ullangani va yoshlarni bu ilm yo'liga boshlab, ularning noto'g'ri tarbiyasiga sabab bo'lganlikda ayblagan ham edilar. Bu hol Suqrotning buyuk

shogirdi Arastuning mazkur fanni aniq sistema tarzida ifodalashga kirishishi uchun turtki bo'lgan. Olim falsafaning qonun va kategoriyalarini birinchi marta sistemalashtirgan, ta'riflagan va falsafani fan darajasiga ko'targan. O'sha davrdan boshlab falsafa o'z qonunlari, tamoyillari, kategorial tushunchalariga ega bo'lgan fanga aylangan. Sharqda bu masalaga Forobiy, Beruniy va ibn Sinolar ham katta ahamiyat berganlar.

XVII–XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Hegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, hodisa, mavjudlik), «tushuncha» (obyektiv, subyektiv, absolyut g'oya) tarzida izohlagan.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor: 1) obyektiv voqelikning in'ikosi; 2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli; 3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha; 4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy-mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «juft kategoriyalar» deb ataladigan; umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jara-

yonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Alohidalik, xususiylik, umumiylik. Ular narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon-zamon munosabatlarini konkret tarzda namoyon qiladi. Umumiylik – olamdagi alohida, individual tarzda namoyon bo'layotgan narsa-hodisalarning turfa, xilma-xil umumlashtiruvchi xossa hamda xususiyatlarining mushtaraklashgan holda namoyon bo'lishidir. Alohidalik va umumiylik o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabat «xususiylik» kategoriyasi orqali ifodalanadi. Birinchidan, bu kategoriyalarning mazmuni olamning birligi, ularning mantiqiy ifodasi konkretlik bo'lib hisoblanadi. Ikkinchidan, «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalarning makon-zamon konkretligini ifodalaydigan, nisbatan mustaqil mantiqiy tushunchalar tarzidagina namoyon bo'lishi mumkin. Zero, ularning nisbatan mustaqilligi, ichki birligining namoyon bo'lish shaklidir.

Falsafiy adabiyotlarda, bilishning umumiy tendensiyasini alohidalikdan xususiylikka va shu bosqich orqali umumiylikka o'tish tarzida yoki aksincha, izohlash keng tarqalgan. Vaholanki, falsafiy bilishning asosiy xususiyati va maqsadi har qanday alohidalikning individual xususiyatlarini umumiylikdan farqlashdan iboratdir. Masalan, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyati bo'lsa ham, bu jarayon turli ijtimoiy-tarixiy makon va zamonda har bir davlat uchun o'ziga xos bo'lgan modelni taqozo qiladi. Alohidalikning umumiylikdan farqini aniqlash asosida, maxsus usul va vositalarini qo'llash bozor strategiyasi va taktikasining milliy xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Alohidalik yoki, ba'zi falsafiy adabiyotlarda ko'rsatilganidek, yakka-likni muayyan xossa hamda xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalarning makon va zamondagi chegaralangan konkret holati, boshqacha qilib aytganda, har qanday hodisa va narsaning ichki sifat muayyanligi, individualligi deyish mumkin.

Antik falsafada alohidalik kategoriyasining mazmuni muayyan turg'unlikka ega bo'lgan birlik sifatida qaralgan (Aflotun,

Arastu). Hegel, alohidalikni voqealarning zaruriy shakli, makon va zamondagi tafovutlarning namoyon bo'lish momenti sifatida qaraydi.

Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasida alohidalikning umumiylikdan farqini mutlaqlashtirish natijasida muayyan qarashlar vujudga kelishi mumkin (bu haqda «Osiyotsentrizm» va «Yevropatsentrizm» to'g'risida eslash kifoya).

Vaholanki, umuminsoniyat sivilizatsiyasining tadrijiy rivojlanişida muayyan ichki birlik mavjud bo'lib, madaniyat tarixida har bir xalq, millat o'z o'rnini va ahamiyatini namoyon qiladi. Shuning uchun umuminsoniyat sivilizatsiyasi tarkibidagi milliy madaniyatni mutlaqlashtirish, muayyan siyosiy manfaatlarga asoslangan bo'lib, buyuk davlatchilik, shovinistik qarashlardan boshqa narsa emas. Bu XX asrning 30-yillarida fashizm mafkurasini shakllantirgan asosiy sabablardan biri edi.

Alohidalikni, umumiy qonuniyatlar tarkibidagi, elementlarning individual rivojlanish jarayoni sifatida olib qarash kerak. Chunki har qanday umumiylik, dastlab voqelikning alohidaligi tarzida vujudga keladi. Shunga ko'ra, har qanday sistema o'z tarkibidagi nisbatan yangi, alohida hodisalarning individual rivojlanishisiz sodir bo'la olmaydi. Shunday qilib, alohidalik voqelik rivojlanishining xilma-xil shakllarini vujudga keltiradi.

Narsa va hodisalarda alohidaliklarning konkret xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlar, bir tomondan, umumiylikni namoyon qilish bilan bir qatorda, ularning muayyanligi va mazmunini ham belgilaydi. Ikkinchi tomondan esa, umumiylikning konkretligi alohidaliklar sistemasi tarzida namoyon bo'ladi. Bu sistemaga strukturali yondashish bilishning nisbatan to'laqonli bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, muayyan jamiyatdagi kishilarning ijtimoiy munosabatlari o'ziga xos bo'lgan yo'nalishlarini vujudga keltirgan. Ya'ni, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, diniy, ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy munosabatlar umumiy madaniyat tarkibida «iqtisodiy madaniyat», «huquqiy madaniyat», «siyosiy madaniyat», «ekologik madaniyat» va boshqa nisbatan mustaqil yo'nalishlarga asos bo'lgan. Bu madaniyat yo'nalishlari nisbatan mustaqil bo'lsa ham, bir-birini taqozo qiladi. Ularning ichki birligi va rivojlanish

tendensiyasi umuminsoniyat sivilizatsiyasi manfaatlaridan kelib chiqqan bo'lib, umumiy taraqqiyot darajasiga mos keladi.

«Butun», «qism», «struktura», «sistema», «element» kategoriyalari. Falsafaning «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» kategoriyalari bilan «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element» kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element» kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. Shu nuqtayi nazardan, butunni – umumiylik, qismni yoki elementni – alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi. Shuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmuyi ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni tarkibiy jihatdan «butun», «qism», «element»larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. Shunga ko'ra, yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki usuli sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema – grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi.

Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilgan elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, bilish jarayonidagi sistemalashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan tarkibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izohlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra turkumlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, Chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasiidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi obyektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga

qaratilgan. Ya'ni, insonning obyektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan umumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa-hodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilgan elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturaning sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollari belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning tarkibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNK larning o'zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning obyektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasi ega bo'lgan sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga, makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura»ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilgan strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil tarkibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning o'zaro munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'raligicha bilish, uning strukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra yondashi-shiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasi-da, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko'ramiz. Shunga ko'ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil usullarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi.

Elementlarni sistemani tashkil qilishdagi strukturaviy ahamiyatiga ko'ra: muhim va muhim bo'lmagan, asosiy va asosiy bo'lmagan elementlarga ajratib o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday konkret element, muayyan sistemada makon-zamon xususiyatlariga ko'ra, o'z ahamiyatiga ega bo'ladi. Biroq, ularning ahamiyatini, yuqorida ko'rsatilganidek, turkumlashtirish mutlaqo nisbiy hamda shartli xarakterga ega bo'lib, muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishdan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, konkret makon va zamonda sistemani tashkil qilishdagi elementlarning ahamiyati strukturaviy funksiyasida muqobilliklar vujudga kelib turishi bilan izohlanadi. Ya'ni, sistemadagi uning xarakterini belgilab turgan muhim element, ma'lum vaqtga kelib muhim bo'lmagan elementga aylanishi yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi.

Falsafa fanidagi an'anaviy tarzda yozilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalaridan farqli o'laroq, bu kategoriyalarni qiyosiy tahlil qilishimizdan maqsad, boshqa juft kategoriyalarning mazmunini ochib berish imkoniyatini yaratishdir. Chunki, «mohiyat va hodisa», «mazmun va shakl», «sabab» va oqibat», «zaruriyat va tasodif», «imkoniyat va voqelik» kategoriyalarining mazmuni,

yanqorida ko'rsatilgan «alohidalik», «xususiylik» «umumiylik», «butun», «qism», «struktura», «element» kategoriyalari mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun biz falsafa kategoriyalarini bir-birini taqozo qiluvchi, nisbatan mustaqil bilish usullarining yaxlit sistemasi tarzida olib qarashni lozim topdik. Lekin, buning uchun har bir kategoriyaning mazmunini alohida tahlil qilish zarur.

«Mohiyat va hodisa» kategoriyasi ham shunday tahlilni talab qiladi. Mohiyat — o'zida alohidalik, maxsuslik, umumiylikning mazmunini, sababini, zaruriyatini, imkoniyatini, butun, qism, sistema, struktura, element tarzida namoyon qiladi. Hodisa esa, ularning bog'lanishi, aloqadorlik va munosabatlarning namoyon bo'lishidir. Mohiyatni alohidalik, maxsuslik, umumiylik, butun, qismga mos kelishiga qarab, turkumlashtirib o'rganish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, subyekt nazarida ahamiyatiga va funksiyasiga ko'ra, asosiy va asosiy bo'lmagan, nisbatan barqaror yoki o'zgaruvchan mohiyatlarga ajratib, ularning rivojlanishi jarayonida o'rnini almashtirib turishlarini e'tiborga olish zarur.

Narsa va hodisalarning mohiyatini bilish ularning inson ehtiyojlarini qondirish vazifasi va maqsadlarini konkretlashtirishdan iborat. Masalan, jamiyat ustqurmasining siyosiy elementi bo'lgan davlatning maqsadi va vazifasi, ularni amalga oshirish usul hamda vositalari mamlakat hududida yashayotgan kishilarning muayyan hayot sharoitlarini ta'minlashdan iborat bo'lib, uning mohiyatini tashkil qiladi. Shunga ko'ra, har qanday mohiyatni odamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga, sivilizatsiya kelajagiga bog'lab tahlil qilgandagina, u ahamiyatga ega bo'ladi.

Narsa va hodisalarni bilish hamda o'zgartirishga inson muayyan ehtiyojlar asosida yondashadi. Bu yondashish subyektiv xarakterga ega bo'lib, uning konkret ehtiyojlari va manfaatlari muqoyasi nazaridan baholanadi. Masalan, chanqagan kishi uchun suv uning chanqog'ini qondirish, fizik uchun agregat holati, elektr tokini o'tkazishi yoki optik xususiyatlari, ximik uchun, uning H₂O kimyoviy birikma sifati, tegirmonchi uchun-tegirmon partagini aylantirish xususiyatlari asosiy mohiyat hisoblanadi.

Narsa va hodisalar doimiy rivojlanib turishi jarayonida, ularning mohiyati ham, shunga mos tarzda hodisa ham o'zgarib tura-

di. Mohiyatdagi har qanday juziy o'zgarish ham, uning muqarrar o'zgargan hodisasida ifodalanadi. Masalan, suvning elektr tokini o'tkazish xususiyati, uning temperaturasiga bog'liqligi aniqlangan. Agar biz suvning temperaturasini ma'lum darajada ko'tarsak, uning elektr tokini o'tkazish xususiyatini o'lchaydigan asboblarni bu o'zgarishlarni qayd qilmasligi mumkin. Lekin, bundan suvning mohiyatini ifodalaydigan elektr tokining o'tkazuvchanlik xususiyati yo'qolgan, degan xulosa kelib chiqmaydi.

Narsa va hodisalarning mohiyat va hodisa tarzida bog'lanishlari makon va zamondagi muayyan konkretligi bilan ajralib turadi. Mohiyat va hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra sistema, struktura va elementlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shuning uchun har qanday hodisani va mohiyatni tahlil qilishda aniq tamoyillarga asoslanish lozim.

Mazmun va shakl. Falsafada mazmun va shakl kategoriyasi narsa, hodisalarning mavjudligi va rivojlanish jarayonini bilish usuli sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazmun — narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishi bo'lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Shakl esa — sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog'lanishlari, aloqadorliklari, munosabatlarining ifodalanishidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotlarda mazmun va shakl o'rtasidagi bog'lanishlarni bir-biridan ajratib tahlil qilish an'anaviy xarakterga ega. Ya'ni, mazmunning o'zgarishi shaklning o'zgarishiga olib keladi, degan xulosa ustuvor bo'lgan. Vaholanki, sistemaning elementlari strukturaviy bog'lanishlarsiz, aloqadorliklarsiz mavjud bo'lishi mumkin bo'lmaganligidek mazmun va shakl ham bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Biz faqat nisbatan mustaqil bo'lgan mazmun va shaklni bilish xususiyatiga qarab, shunday mantiqiy xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakldagi har qanday juziy o'zgarish ham bir-biridagi o'zgarishlarni taqozo qiladi, faqatgina biz ularni bilib olgan yoki bilmagan bo'lishimiz mumkin. Masalan, suvning agregat holati, shakli o'zgarishi bilan uning

mazmunini ham o'zgaradi. Ya'ni, suv bug' holatida chanqoqni qondirmaydi, o'simliklarni sug'orish uchun yaramaydi. Bundan tashqari, elementlarning strukturaviy bog'lanishlari sistemaning xarakterini belgilashidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, strukturaviy bog'lanishlar shakl sifatida sistemaning mazmunini ham belgilab turadi. Shunga ko'ra, shaklni mazmunga nisbatan «tkkilamchi» deyish noo'rindir. Bunga ijtimoiy hayotdan misol keltiradigan bo'lsak, demokratiya boshqarishning shakli sifatida jamiyatning mazmunini belgilab turadi.

Falsafada mazmun va shakl kategoriyasini boshqa kategoriyalar tizimidan ajratib olib, nisbatan mustaqil tahlil qilganda, unga imonlarning muayyan manfaatlar va ehtiyojlar asosida yondashishlarini alohida e'tiborga olish kerak. Bu umuman mazmun va shaklning obyektiv xarakteriga putur yetkaza olmasa ham, ularni baholashdagi subyektiv, muqobil qarashlarda o'z ifodasini topadi.

Sabab va oqibat. Narsa va hodisalarning ichki birligi, yaxlitligi va tarixiy-tadrijiy rivojlanish tamoyiliga ko'ra, ularning mazmuni va shakli o'zgarib turadi. O'z navbatida, har qanday sistemaning elementlari o'rtasidagi strukturaviy bog'lanish konkret mazmunga ega bo'lib, unga mos mazmunlarda o'z ifodasini topadi. Boshqacha qilib aytganda, mazmun va shakl o'rtasidagi aloqadorlik, bog'lanish, munosabatning xakteri muayyan sababga asoslanadi. Ya'ni, narsa va hodisalarning sistema shaklida namoyon bo'lishi, muayyan sabab oqibatidir. Demak, narsa va hodisalarning tadrijiy rivojlanishi sabab-oqibat munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, sabab – biror narsa va hodisa rivojlanish jarayonining oqibatidir.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi jarayonidagi sabab va oqibat munosabatlarini bilishda, ularning makon va zamondagi tarixiy va mantiqiy izchilligi muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, bir tomondan, har qanday sabab avvalgi hodisalar yoki ularning rivojlanish oqibati tarzida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan esa, bu oqibat keyingi rivojlanishning sababi bo'lib hisoblanadi.

Narsa va hodisalarning rivojlanishi asos bo'lgan sabablar tizimi mavjud. Ularni shartli ravishda: asosiy va asosiy bo'lmagan, muhim va muhim bo'lmagan sabablarga ajratish mumkin.

Sababning mohiyati avvalgi hodisalarning oqibati sifatida vujudga kelayotgan hodisalar uchun sababligidadir. Shunga ko'ra, sababni bir vaqtning o'zida oqibat tarzida qarash mumkin. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, har qanday oqibat sabab tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, sababni narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi makon va zamondagi davriy takrorlanishdan farqlash kerak. Chunki, sabab mavjudlikning genetik bog'lanishlarini, aloqadorliklarini ifodalashi bilan birgalikda, ularning istiqbollari ham belgilab beradi. Hegel tili bilan aytganda, sabab-mohiyatning harakatdagi mavjudlik holatidir. Sabab falsafiy kategoriya sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1) uning obyektiv xarakteri narsa va hodisalarning ichki, tarkibiy elementlari munosabatlariga xos bo'lib, mohiyatning real mavjudlik holatini ifodalaydi;

2) sababning konkretligi narsa-hodisalarning xususiyatlaridan kelib chiqadi, hamda uning individualligini ta'minlaydi;

3) sabab umumiy xarakterga ega bo'lib, hech qanday narsa va hodisaning rivojlanishi sababsiz sodir bo'lmaydi;

4) sabab zaruriy bo'lib, muqarrar ravishda, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi;

5) sababning uzluksizligi, bir tomondan, turli sabablarning izchil bog'lanishlarini, munosabatlarini, ikkinchi tomondan, har bir sababning oqibat tarzida oldingi sabab bilan bog'liqligini xarakterlaydi.

Zaruriyat va tasodif. Obyektiv olamni bilishda zaruriyat va tasodif kategoriyasi muhim falsafiy-metodologik ahamiyatga ega. Zaruriyat – narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa – zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir. Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, zaruriyatni turkumlashtirganda, uning makon va zamondagi strukturaviy tuzilishini tashkil qilgan elementlarini sistemali-strukturali tahlil qilish lozim. Shuningdek, zaruriyatni sabab-oqibat munosabatlari tarzida tushunish lozim. Zaruriyat narsa va hodisalarning muqarrar rivojlanish qonuniyatidan kelib chiqadi hamda obyektiv sabablar tizimiga asoslanadi.

Masalan, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi tarixiy obyektiv zaruriyatdir, uning «o'zbek modeli» asosida amalga oshirilishi zaruriyatning konkret namoyon bo'lishidir. Bunda tasodif «subyektivlashtirilgan» jarayon sifatida ko'zga tashlansa ham, obyektiv hodisadir. Chunki, O'zbekistonning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanishining milliy xususiyatlari, bozor munosabatlariga o'tishning xarakterini belgilab beradi.

Zaruriyatlar tabiiy-tarixiy rivojlanishning obyektiv qonuniyatlardan kelib chiqib, doimiy o'zgarib turadi. Zaruriyatlarning tasodiflar tarzida namoyon bo'lishi, o'z navbatida, boshqa hodisalar uchun zaruriyat maqomiga ega bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, zaruriyat va tasodif o'rtasidagi bog'lanishlar sabab-oqibat munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Zaruriyat va tasodif kategoriyasiga boshqa kategoriyalar kabi, uni aniqlash va baholashga muayyan subyekt ehtiyojlari, manfaatlari nuqtayi nazaridan yondashiladigan bo'lsa, muqobil qarashlar vujudga keladi. Masalan, sobiq Ittifoqning parchalanib, mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, ayrim nazariyotchilar tomonidan tasodifiy hodisa deb baholanib, uning zaruriy, obyektiv qonuniy xarakteri inkor etilmoqda. Vaholanki, jamiyat taraqqiyotida hech qanday imperiyaning abadiy bo'lmasligini tarixiy tajribalar doimiy isbotlab kelgan. Demak, bunda biz zaruriyatni ko'rib turibmiz.

Zaruriyat va tasodifning aloqadorligi, bog'lanishi shundaki, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, ya'ni zaruriyatning muqarrarligi tasodifga ham xosdir. Shuning uchun falsafiy adabiyotlarda tasodiflarning muqarrarligi, tarixiyligi, sababiyligini, qonuniyligini inkor qiluvchi qarashlar g'ayriilmiydir.

Imkoniyat va voqelik ham falsafaning muhim kategoriyalari-dir. Falsafaning sabab va oqibat, mazmun va shakl, zaruriyat va tasodif, mohiyat va hodisa singari kategoriyalari voqelikdagi o'zgarish, yangilanish holatlarining muhim tomonlari, bog'lanish holatlari va asosiy tamoyillarini ifodalasa, imkoniyat va voqelik uzluksiz rivojlanish jarayonidagi narsa va hodisalarning, ikki xil bosqichi, davri, holatini hamda bu davrlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalaydi.

Imkoniyat bu yangi narsa, hodisa va tamoyillar kelib chiqishini ifodalovchi muayyan shart-sharoit va vaziyat majmuidir. Narsa hamda hodisaning ichki tabiatiga ko'ra zaruriy ravishda reallashishi lozim bo'lgan, biroq hali yuzaga chiqmagan voqelikdir. Voqelik esa imkoniyatning nisbatdoshi bo'lib real holat va mavjud bo'lib turgan hodisalarni ifodalaydigan kategoriyadir.

Imkoniyat va voqelik o'zaro bog'liqlikda mavjud bo'ladi, ular bir-birini ham taqozo qiladi, ham istisno etadi. Amaliy faoliyatda doim imkoniyat va voqelikdan hamda imkoniyatsizlikdan ajrata bilishga o'rganish kerak. Mumkin bo'lmaydigan narsani mumkin bo'ladigan narsa yoki hodisa qilib ko'rsatish yaramaydi yoki aksincha, mumkin bo'ladigan narsani mumkin bo'lmaydigan narsa qilib ko'rsatish ham imkoniyat va voqelikning mohiyatini, noto'g'ri tushunish asosida kelib chiqadi. Bu hol g'ayriilmiy qarash va noto'g'ri xulosaga olib keladi.

Imkoniyat va voqelik muayyan mazmunga ega bo'lgan olam hodisotlarining ikki tomoni, rivojlanishning boshlanish momenti va nihoyasi, uzluksiz taraqqiyot jarayonining bir-biri bilan bog'liq, bir-birini tavsiflaydigan halqalari, deb atash mumkin. Rivojlanish uzluksiz imkoniyatlarning vujudga kelishi, ularning voqelikka aylana borishidan iborat jarayondir. Bunda imkoniyat endigina kurtak otayotgan, ro'yobga chiqishi lozim bo'lgan hodisa bo'lsa, voqelik esa ba'zi hollarda o'z umrini tugallayotgan, eskirish jarayonida o'z intihosiga qarab borayotgan hodisadir.

Imkoniyat narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir. Imkoniyat va voqelik kategoriyasini ham, bilishning umumiy mantiqiy tamoyillariga ko'ra, boshqa kategoriyalar bilan bog'liqlikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Imkoniyat narsa va hodisalar rivojlanish jarayonining ichki birligini ifodalaydi va ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, sabablarini, zaruriy qonuniyatlarini, mohiyatini o'zida mujassamlashtirgan.

Imkoniyatning voqelikka aylanishi qonuniy hodisadir. Uning real, formal, mavhum imkoniyat deb ataladigan shakllari bor.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin demokratik huquqiy jamiyat qurishi uchun real imkoniyatlar vujudga keldi.

Imkoniyat kategoriyasini, uning shart-sharoiti bilan aralashtirmaslik kerak. **Shart-sharoitlar** oqibat, tasodif, hodisa sifatidagina imkoniyatga ta'sir qiladigan omillar majmuasidan iborat. Mavjud voqelik tarixiy genezisiga ko'ra, o'zida boshqa voqelikning imkoniyatlarini mujassamlashtirgan bo'ladi. Masalan, bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichi real voqelik sifatida, uning keyingi rivojlanish imkoniyatlarini namoyon qiladi.

Zamonaviy falsafa imkoniyat va voqelikni ilmiy tushuntirib bir kategoriyalar dunyodagi aloqadorlik va rivojlanishning muhim xususiyat, tomonlarini ifodalaydi. Olamdagi narsalarning bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishini, taraqqiyotning oddiydan murakkabga qarab yo'nalishini, eskilik bilan yangilik o'rtasidagi qarama-qarshi munosabatlarni bildiradi, deb hisoblaydi.

Tayanch tushunchalar: bog'lanish, aloqadorlik, takrorlanish, qonun, qonuniyat, ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat, miqdor, sifat, inkor, inkorni inkor, vorislik, yangilanish, kategoriyalar, alohidalik, umumiylik, sabab va oqibat, mazmun va shakl, sistema va element, butun va bo'lak, mohiyat va hodisa, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

Takrorlash uchun savollar

1. Qonun nima?
2. Tabiat va jamiyat qonunlarining qanday xususiyatlari bor?
3. Olamdagi ayniyat va ziddiyat holatlariga misollar keltira olasizmi?
4. Miqdor va sifat nima? Me'yor-chi?
5. Inkor nima? Inkorni inkor-chi?
6. Falsafiy kategoriyalar tizimi, ularning mazmuni.
7. Juft kategoriyalar mazmunidagi ichki birlikning asosi nimda?
8. Hozirgi davrda taraqqiyot va o'zaro bog'liqlik tamoyillari qanday namoyon bo'lmoqda?

6-mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari

Bilish va uning shakllari. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi — «Gnoseologiya» vujudga keldi va u qadimgi lotincha «gnosis» — bilish va «logos» — fan, ilm ma'nolarini anglatadi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Buyuk nemis faylasuf (I. Kant) bilish natijalarining haqiqiyliги xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida bahs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldi.

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi to'g'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turi. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insonning xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida **orttirgan bilimlarini** umumlashtirib va **keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli** ham o'zi uchun qator **qulayliklarni yaratgan**. Inson faoliyatining har **qanday** turi muayyan **ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar** hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilinadi butun insoniyatga xos bo'lgan **bilish usulidir**. **Bilimlar bevosita** tajribaviy ehtiyojdan, **farovon hayot kechirish** zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. **Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti** davomida **ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh** vujudga keldi. Bular **ilm-fan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug'ullanadilar**.

Bilishning ikki shakli: kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish bir-biridan farqlanadi.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasida xalqlarning **kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha — etnometodologiya fani** vujudga keldi. **Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.** **Nazariy bilishning obyekti, subyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.**

Bilish obyekti. **Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi.** **Bilish obyektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin.** **Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi.** **Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.**

Bilish subyekti. **Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi.** **Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir.** **Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini**

bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan — fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgan sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti subyektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obyektining ayrim sohaları va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohaları vujudga kelgandır. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning-quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, hissiy bilish deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muxitga moslashish va himoyalanişi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir hodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham hodisa aldanchi

va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki hodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari hech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to'plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilishdir. O'zining butun borlig'ini fan, din, siyosat va san'at sohasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayyanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilishning metodlari mavjud va ularni o'rganadigan maxsus soha — metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z xarakteriga ko'ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modelashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so'rovi, hujjatlarni o'rganish sotsiologiya faniga xos bo'lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish

metodi boshqa fanda shunday samara bermasligi mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o'rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o'rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ilg'or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgari ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tanqidiy nuqtayi nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa sohasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona sig'inish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptitsizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptitsizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezon bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi, A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada haqiqat tushunchasi muhim o'rin tutadi. Haqiqat inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutlaq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha obyektivdir. Ya'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi obyektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolave-

radi. Haqiqatni atayin buzish yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda to'liq bo'ladi va o'z qadrini yo'qotadi. Shuningdek, haqiqat hech qachon mavhum emasdir. U hamisha konkretidir. Hegel so'zlari bilan aytganda, nimaiki voqe bo'lsa, u haqiqatdir, haqiqat — voqelikdir. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo'lgan obyektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezonlari deb hisoblab kelindi. Biroq XX asr o'rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qo'ya boshladi. Aqlli mavjudot bo'lgan inson har qachon tabiatni o'rganishda hamisha o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degan bir yoqlama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XX asr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo'lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi.

Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi: insoniyat o'z tarixini yaratuvchi va o'z-o'zini biluvchidir.

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va hodisalar tadqiqotchiga hech qanday qarshilik ko'rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o'zgaruvchi sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo'lgan muhim xususiyat shundaki, u moddiy ishlab chiqarish sohalarinigina emas, balki jamiyatning ancha murakkab ma'naviy hayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g'oyalarni ham o'rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllanti-

rishda alohida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Bilish va til. Til ong va tafakkur, bilish jarayonining insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Xo'sh, til deganda o'zi nima tushuniladi? Til, bu eng avvalo, muayyan belgilar tizimi demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to'g'ri emas. Negaki, muayyan belgilar tizimi hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzotlar o'rtasida muayyan axborot almashinuvi sodir bo'ladi.

Aytaylik, kabutarlarining «muhabbat» raqsi, jonzotlarning xavf-xatar paydo bo'lganda turli tovush — belgilar yordamida bir-birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning o'zi yashaydigan hududni turli yo'llar bilan «chegaralab» chiqishi ana shunday belgilar tizimining o'ziga xos ko'rinishlaridir. Lekin, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, bu belgi — signallar tizimi uzoq davom etgan evolyutsiya davomida hosil qilingan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Demak, til belgilar tizimi sifatida kelib chiqishidan qat'i nazar faqat insongagina xos va u ong bilan uzviy bog'liqdir. Negaki, tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o'zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Tilda ifodalanayotgan ma'no-mazmunning anglanishi insonning umumiy bilim darajasi, qiziqishi, qobiliyati, konkret sharoitdagi kayfiyati kabi omillarga ham bog'liq bo'ladi. Til fikrlash quroli, muloqot vositasi sifatida doimiy takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Ayni paytda insoniyat biz kundalik hayotda qo'llaydigan tabiiy til bilan bir qatorda muloqotning rang-barangligini ta'minlaydigan, fikrni ifodalashga xizmat qiladigan o'ziga xos imo-ishoralar raqs, musiqa «tiliga» ham ega. Shunday bo'lsa-da, ular so'zga ko'chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo'ladi.

Shu bilan birga milliy tillar bilan bir qatorda ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishida muhim rol o'ynaydigan internatsional til – fan tili, uning tushunchalari va formulalari ham borligini unutmaslik kerak. XX asrda qo'llanish doirasi tobora kengayib borayotgan elektron hisoblash mashinalarining «beysik», «fortan» kabi tillari yaratildi. Kompyuterlarning ijtimoiy hayotdagi roli tez o'sib borayotgan hozirgi davrda bu «til»lar axborotlarning uzatilishi hamda qabul qilinishida katta ahamiyat kasb etmoqda va vaqt bu jarayonlarning yanada tezlashayotganligini ko'rsatmoqda.

Til o'ziga xos tarixiy xotira rolini o'tashini ham unutmaslik kerak. Bu milliy tillar misolida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Zero, millat tilida uning o'zligi, bosib o'tgan tarixiy yo'li, tafakkur tarzi aks etadi, mustahkamlanadi. Shunday ekan, mustaqillik sharoitida milliy tilimiz rivojiga alohida e'tibor berilayotganligi milliy o'zligimizni anglashimizning o'tish jarayonida milliy istiqbolimizni belgilashning uzviy qismi sifatida qaralmog'i lozim.

Bilish va o'z-o'zini anglash. Inson voqelikni aks ettirish bilan bir qatorda o'zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, xatti-harakatlarini boshqarishdek qobiliyatga ham ega. O'zini o'zgalardan ajrata bilish, o'ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash o'z-o'zini anglash sifatida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglashda o'zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin. Bu unsurlar o'z-o'zini anglashning sohibiga — subyektiga ko'ra farqlanuvchi muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatga xosdir.

Shaxsning o'z-o'zini anglashi haqida gap ketar ekan, u o'zini alohida organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat'i nazar alohida va betakror «Men» sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o'tishini ta'kidlash zarur.

Insonning kamol topish jarayoni, o'z-o'zini anglashning rivojlanishi o'ziga xos xarakter kasb etadi. Masalan, dastlabki davrda bolada avvalo, boshqalar tomonidan berilgan tasavvur va baholar ustunlik qiladi. Bolaning tafakkuri o'sishi bilan, u olamni mustaqil anglay boshlaydi va o'zining imkoniyatlarini o'zi baholashga

o'rganib boradi. Aynan mana shu davrda to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, aynan mana shu tarbiya ta'sirida bolada o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash ham yoki unga ortiqcha baho berib yuborish holati ham shakllanib qolishi mumkin.

Shaxsning o'z-o'zini anglash jarayonida u mansub bo'lgan madaniyat, turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ana shunday xilma-xil ta'sirlar mavjudligi shaxsning o'z-o'zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta'minlaydi. Aks holda ozgina iqtisodiy qiyinchilik, kichkinagina ijtimoiy muammo shaxs hayotini izdan chiqarib yuborishi, turli xil ta'sirlar domiga tortishi mumkin. Buni tushunib olish bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash tobora keskinlashib va intensivlashib borayotgan bir sharoitda ayniqsa muhimdir.

Bilish va axborot. Keyingi yillarda «Axborot», «Axborotlashgan jamiyat», «Informatsion portlash» tushunchalari tez-tez ishlatilmoqda. XX asrning eng muhim yutuqlaridan biri bu kompyuterlarning yaratilganligidir. Ularning yaratilishi bir tomondan inson ongi, tafakkuri, kuch-qudratining, ikkinchi tomondan, ana shu kuchga tushadigan yukning yengillashishiga xizmat qiladigan vositani yaratish yo'lidagi urinishlarning natijasi bo'ldi. Asrimizning o'rtasida paydo bo'lgan bu vosita shiddatli rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Dastlab sekundiga minglab operatsiyalar bajara oladigan kompyuterlar bo'lgan bo'lsa, ularning bugungi avlodi 10 millionlab murakkab operatsiyalarni qoyilmaqom qilib uddalaydi.

Xo'sh, bularning inson ongi, bilishi va tafakkurining mohiyati bilan nima aloqasi bor? Gap shundaki, kompyuterlar ham inson tafakkuriga xos bo'lgan xususiyatlarga ega. Ammo ular qanchalik murakkab operatsiyalarni bajarmasinlar, inson tomonidan programmalashtirilgan jarayonlarnigina amalga oshiradilar, undan tashqariga chiqa olmaydilar. Insonning fikrlash jarayoni ongsizlik, onglik, kechinmalar, ijod kabi hodisalarni qamrab oladi. Kompyuter esa bunday xususiyatlarga ega emas. Shunday ekan, kompyuterlar insonning muayyan yo'nalishlardagi aqliy faoliyati-

ni yengillashtirishga xizmat qiladi va o'zining yaratuvchisi ustidan hukmron bo'la olmaydi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hozirgi davrda fan sohasida erishilgan natijalar har o'n yilda, informatsiya olish esa har 3-4 yilda ikki barobarga oshmoqda. Ana shunday sharoitda inson ongi, uning xotira qudrati bu axborotlarni o'zlashtira oladimi, degan savol ko'ndalang bo'lmoqda. Yangi bilimlar, axborot oqimi unchalik kuchli bo'lmagan yaqin o'tmishda tirishqoq kishi insoniyat bilimi erishgan asosiy natijalarni o'zlashtira olar edi. Bugungi kunda faqat fanning turli yo'nalishlari bo'yicha yiliga bir necha million kitob nashr etilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, inson eng yangi adabiyotlarni o'rganib borishga harakat qilganda ham, uning har bir o'qigan betiga o'n ming o'qilmagan sahifa to'g'ri kelar ekan.

Kishilarning paydo bo'lgan yangi kitoblarning aksariyatini jismonan o'qib ulgurmaganligi «informatsion portlash» keltirib chiqarayotgan oqibatlarning bir ko'rinishi, xolos. Masalaning yana bir jihati borki, bu inson to'plagan bilim, axborotning ma'naviy eskirishi, keraksiz bo'lib qolayotganligidir. Bunday eskirish sur'ati tobora tezlashib bormoqda. Masalan, oliy ta'lim sohasida bu jarayon olti-yetti yil, kompyuter texnologiyasi sohasida esa bir yil davomida sodir bo'layotganligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Bu agar siz oliy o'quv yurtini bitirganingizga yetti yil bo'lgan bo'lsa, o'z vaqtida olgan bilimlaringizning aksariyati bugungi kun talabiga javob bermasligini bildiradi. Ana shunday sharoitda kishilarning o'z bilimlarini yuqori darajada ushlab turishlari ulardan doimiy diqqat-e'tiborni, o'z ustida ishlashni talab qiladi. Aks holda, ta'lim dargohini eng yuqori natijalar bilan bitirgan mutaxassis ham tez orada chalasavod bo'lib qolishi mumkin.

Umumlashtirib aytganimizda, bilishning mohiyatini tushunish, u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni ilmiy talqin etish olam va odam birligini anglash imkonini beradi. Ayni paytda, bilish mohiyatini anglash insonning o'zligini, yashashdan maqsadi, hayotining ma'no-mazmuni kabi masalalarni chuqurroq tushunishga yo'l ochadi. Bu bilish va u bilan bog'liq masalalar har bir inson hayotida nihoyatda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tayanch tushunchalar: dunyoni anglash, ong, in'ikos, bilish, gnoseologiya, bilim, kundalik (empirik) bilim, nazariy bilim, bilish obykti, bilish subyekti, bilish metodlari, haqiqat, o'z-o'zini anglash, axborot.

Takrorlash uchun savollar

1. Ong nima?
2. Gnoseologiya nimani o'rganadi?
3. Bilish nima?
4. Bilish obykti, subyekti, predmeti tushunchalarini izohlang.
5. Bilishda haqiqatga erishish yo'lini izohlang.
6. Bilimlar va axborot omili ta'siri ortishini qanday tushunasiz?
7. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyati nimada?

7-mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi

«Jamiyat» tushunchasining mazmun-mohiyati. Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushiga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi. Har bir jamiyatning o'z qiyofasi, tuzilishi, tarkibiy qismlari mavjud bo'lishi tarixiy zaruratdir. Muayyan jamiyat hayotiga xos bo'lgan yashash va taraqqiy etish sohalarining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu masalani o'rganish ayniqsa dunyo hamjamiyati va O'zbekiston hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgani hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat bilan bog'liq masalalar azaldan ko'plab mutaxassis-
larning diqqatini tortib keladi. Fan tarixida bu mavzuga doir
turlicha qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar mavjud. Bu masalalar
qadimgi avlodlarimizdan qolgan «Avesto» va «O'rxun-Yenesey
toshbitiklari»da, Al-Xorazmiy, Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Najmid-
din Kubro, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa
allomalarimiz merosida yorqin ifodasini topgan. Sharq siyosat-
shunosligida jamiyat bilan bog'liq masalalar Konfutsiy, Kaykovus,
Nizomulmulk, Mirxond, Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi
ko'plab allomalar ijodidan o'rin olgan.

Ijtimoiy taraqqiyot davomida jamiyat to'g'risidagi qarash-
lar, g'oyalar va ta'limotlar rivojlanib takomillashib borganli-
gini, xususan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-
falsafiy qarashlari tizimida hamda Amir Temur va temuriylar
sulolasining jamiyat rivoji masalalariga oid nazariy va amaliy
jihatdan yondashganligida ko'rish mumkin. Xususan, «Temur
tuzuklari»da qayd etilgani kabi: «... saltanat qurish, davlat tu-
tish ishlarini bir tuzukka bog'ladim va saltanatni boshqarish
haqida qo'llanma (dasturulamal) yozib qoldirdim, toki far-
zandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri unga muvo-
fiq ish yuritsin, mehnatu mashaqqatlar, ko'p harbiy yurishlar,
urush-talashlar bilan, Tangrining inoyati va hazrati Muham-
madning, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin,
tolei baland millatning sharofati, onhazratning ulug'vor avlodi
va qimmatli sahobalariga qilgan muhabbat va do'stligim orqali
qo'lga kiritgan saltanatni saqlagaylar»¹. Shuningdek, mazkur
mavzuga Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mu-
tafakkirlarimiz ijodida ham alohida ahamiyat berilgan. Hozirgi
davrda ham ushbu masalaga doir ko'plab kitoblar, risolalar va
qo'llanmalar chop etilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, jamiyatning mohiyatini, tuzilishini, qo-
nuniyatlarini bilish, ularga tayangan holda boshqaruv va rahbar-
lik faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning

¹ Temur tuzuklari. — T.: «G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nash-
riyoti», 1996. 68-6.

uchun «Jamiyat» tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tuzilishi, ijtimoiy qonunlar — jamiyat taraqqiyoti va islohotlar jarayonini bilishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada Sharq va G'arb falsafasidagi jamiyatga doir ayrim xususiyatlar, umumiy mushtarak nuqtalar, unda shakllangan va qaror topgan g'arbona va sharqona qadriyatlar, shaxs erkinligi, individuallik va jamoaviylik uyg'unligi kabi hodisalarning mohiyati nihoyatda muhim. Hozirgi zamonda jamiyatga doir plyuralizm hamda sinergetik qarashlarning uning taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish orqali ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tashkil etishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berish lozim.

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa zid. Shuning uchun ham hozirgi davrda xalq ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini mustahkamlashga katta e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'lishi mumkin. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi, bir so'z bilan, ijtimoiy munosabatlar

deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlar inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyatning moddiy-ma'naviy hayoti. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura, go'zallik, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi;
- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar,

mafкура, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhim. Kishilar tomonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatni kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi, ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rin egallaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shadi.

Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotinning mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlicha. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgan. Ona va ayol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanishini alohida

ta'kidlagan. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liq. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei hamda rolini kuchaytirishga qaratilgan.

Oila muammolarini ilmiy asosda o'rganish, ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilgani ham davlatimizning oilaviy munosabatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o'rni. Davlat — jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida muassasa. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyat ma'naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakl va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan.

Demokratik jamiyat. Demokratik jamiyatni barpo etish — O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Bu jamiyat kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'p qirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi

elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Yurtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Bugun bizning bosh strategik maqsadimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan, qonun ustuvorligiga tayangan, erkin, demokratik jamiyat barpo etishdir. Undagi «erkinlik», «demokratiya», «qonun ustuvorligi» so'zlariga e'tibor qaratish kerak. Bu tushunchalar O'zbekiston qurayotgan jamiyatning qanday umuminsoniy tamoyillarga, qadriyatlarga asoslanishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yashaydigan barcha insonlar uchun milleti, tili va dinidan qat'i nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik davlatlar kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining falsafiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Bu — xalqimizning asriy an'analariga, insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda rivojlangan davlatlar tajribalaridan shuncha-ki nusxa ko'chirmasdan, o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'lni izchil davom ettirishni anglatadi. Bu jamiyat hayotini demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurishni erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'p partiyaviylikni qaror toptirishni bildiradi. Bu mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeini oshirishni ko'zda tutadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonlarining huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'ramiz. Konstitutsiya o'ziga xos falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning ustuvor maqsadlari, tamoyillari, inson huquq va erkinliklari o'zining yaqqol ifodasini topgan.

Mustaqillik mamlakatimizga jahon sivilizatsiyasining eshigini ochdi, uning teng huquqli a'zosi bo'lish va dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallash imkonini yaratdi. Hugungi kunda xalqimizning ana shu yo'lda amalga oshirayotgan ulkan bunyodkorlik faoliyati sivilizatsiyalashgan mamlakatlarga xos hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan.

«Sivilizatsiya» tushunchasi. Ma'lumki, lotin tilidagi «civilis» so'zi asosida shakllangan, fuqaroviy, ijtimoiy degan ma'nolarni anglatadigan mazkur tushunchani ilm-fan tarixida dastlab shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723—1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari esa aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat, degan ma'noda ishlatgan edilar. Undan keyin ham sivilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi. Ayrim holda uni madaniyatning, ba'zan faqat moddiy madaniyatning sinonimi sifatida ishlatgan bo'lsalar, nemis faylasufi O.Shpengler esa, aksincha, uni madaniyatning antipodi ma'nosida, ya'ni madaniyatning halok bo'lish jarayoni bosqichini xarakterlash uchun, ingliz antropolog va tarixchisi A.Toynbi esa o'ziga xos va nisbatan yopiq bo'lgan jamiyatlarni ifodalash uchun ishlatgan.

Sivilizatsiya tushunchasining mazmunini belgilashda turfa xillik hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda. Bu tushuncha: 1) ijtimoiy rivojlanishning yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini; 2) umuman kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichini (masalan, neolit, nokapitalistik yoki hozirgi zamon sivilizatsiyasi); 3) ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani; 4) geografik jihatdan farqlanuvchi birliklarni (masalan, Yevropa yoki Osiyo sivilizatsiyasi); 5) diniy mansubligiga ko'ra, farqlanuvchi madaniy birliklarni (masalan, xristian yoki islom sivilizatsiyasi); 6) kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko'ra farqlanuvchi birliklarni (masalan, Yer sivilizatsiyasi, Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar); 7) etnik asosga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birliklarni (masalan, qad. Misr yoki Bobil sivilizatsiyasi) va shu kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanib ke' moqda.

Sivilizatsiya tarixning, jamiyatning sifatiy o'ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish

kuchlari, inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spetsifikasini ifodalaydi. Bularning barchasi sivilizatsiyani yaxlit birlik sifatida mavjud bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu sifatiy xususiyatlarning yo'qolishi sivilizatsiyaning halokatini anglatadi.

Ushbu mulohazalardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, sivilizatsiya tushunchasi muayyan xalq, mamlakat (jamiyat)ga yoki uning rivojlanishining sifatiy jihatdan farqlanuvchi ayrim bosqichlariga nisbatan ishlatilgandagina, u aniq ilmiy mazmunga va demakki, metodologik ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan etnik birliklar, mamlakatlar darajasida sivilizatsiyaning o'ziga xosligi, asosiy xarakteristikalari o'zini yaqqol namoyon etadi.

Jahon sivilizatsiyasi. Jahon sivilizatsiyasi deganda Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, mintaqaviy va hududiy sivilizatsiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo'lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyat tushuniladi. Bu tushuncha, umumiy ma'noda, zamini-mizda yashagan barcha odamlarning umumiy makoni bo'lgan Yer yuzidagi hayot, tarixning hamma davrlarida mavjud bo'lgan davlat, jamiyat, xalq va millatlarning umrguzaronlik qilishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasini o'zida aks ettiradi.

Insoniyat taraqqiyotining bugungi holati zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari bilan uzviy aloqador ekan, Respublikamizning umuminsoniy sivilizatsiya bilan uyg'unlashuvi ham ko'p jihatdan ana shunga bog'liq. Hozirgi paytda insoniyat o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tarildi. U o'zida moddiy ishlab chiqarish yutuqlarini, insoniyat tomonidan orttirilgan tajribalarni, jahon miqyosida paydo bo'lgan muammolarni oqilona hal etish yo'llari va usullarini mujassamlashtiradi.

O'zbek xalqi Sharq sivilizatsiyasi bag'rida kamol topdi. Vatan va onaning muqaddasligi, jamoaviylik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, kattalarga hurmat, kambag'alparvarlik va boshqalar. Sharq sivilizatsiyasiga xos belgilardir. O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ilm-fan, axloq, din, san'at va madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shmoqda. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekiston o'z milliy qadriyatlarini, ma'naviy merosi va

hoy madaniyatiga tayanib, Sharq va G'arbning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, dunyoviy sivilizatsiya yo'lidan bormoqda.

Bugungi tahlikali dunyoda insoniyatning eson-omon yashab qolishi va kelajakda baxtiyor bo'lishi jahon sivilizatsiyasi-ning asosiy maqsadi va yo'nalishiga aylanib qoldi. Shu ma'noda, Yer yuzidagi har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasi deb ataladigan yaxlit tizimning turli tarkiblari bo'lib, ularning o'zaro ta'siri, hamkorligi sivilizatsiyaning takomillashuvi, barqaror yashashiga imkon beradi.

To'g'ri, bu tizim tarkibida Amerika, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi salmoqli tarkiblar ham bor. Ular ko'p jihatdan jahon tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi, muayyan jarayonlarning yo'nalishlarini belgilaydi. Ammo bu tizimda har bir davlatning, kichkina Vatikan yoki Lixtenshteyndan tortib Germaniyagacha, Andorra yoki Monakolan toki Fransiyagacha o'z o'rnini, o'ziga xos ta'sir kuchi va doirasi bor. Shu ma'noda, ularning har biri, hududining katta-kichikligi, aholisining soni qanchaligidan qat'i nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotida teng ovozga ega. Demak, tarkiblar tizimda muayyan tarzda amal qilgani singari har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasiga teng huquqli a'zo va muhim element sifatida kirib borgan.

Jahon hamjamiyati o'zida umumiylikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Bu holda Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiylikni aks ettirsa, O'zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga ko'p bo'lmaganiga qaramay, jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega. Uning Markaziy Osiyodagi mavqei esa bu mintaqaning asosiy taraqqiyot yo'nalishlarini ko'p jihatdan belgilaydi.

Har bir xalq, millat o'zining betakror, noyob xususiyatlarini saqlagan holda mustaqil rivojlanadi va jahon hamjamiyatiga qo'shilib boradi. Bunday qo'shilish ko'p qirrali, rang-barang bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy, davlatlararo munosabatlarni qamrab oladi.

Jahon hamjamiyatiga qo'shilish tabiiy-qonuniyatli jarayon bo'lib, har bir mamlakatning har tomonlama taraqqiy etishi, yer

yuzida umumiy xavfsizlik, tinchlik va farovonlikni ta'minlashga, tabiiy resurslar, ilm-fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga, ekologik muvozanatni ta'minlashga imkon beradi. Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan xalqlarning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini e'tirof etish, xalqaro huquq me'yorlariga amal qilish, inson huquqlarini himoya etish, demokratiya tamoyillariga amal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Sivilizatsiyaning mohiyatini tushunishda unga mansub bo'lgan madaniyatning rolini anglash muhimdir. Agar ishlab chiqarish kuchlari sivilizatsiyaning moddiy asosini tashkil etsa, madaniyat ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, uning qiyofasini, o'ziga xos rangini belgilab beradi. Hatto ishlab chiqarish kuchlariga ham o'ziga xos xarakterlilik, ahamiyatlilik beradi. Bu bilan madaniyat ijtimoiy hayotning tashkillashuvini, ya'ni sivilizatsiyaning shakllanishini, mavjud bo'lishi va rivojlanishini belgilab beruvchi o'ziga xos negiz vazifasini o'taydi. Demak, sivilizatsiya madaniyatning konkret namoyon bo'lishini, uning real mavjud hayotini aks ettiradi.

«Madaniyat» tushunchasi. Bu tushuncha (arabcha shaharga oid, farovon maskan, taraqqiyot o'chog'i) tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o'ziga xos shaklini ifodalaydi va individning hayotiy faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruh yoki jamiyatning faoliyat usuli (ijtimoiy madaniyat)ni aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq tarzda ta'siri (yerga ishlov berish, tabiiy boyliklardan foydalanish va h.k.) hamda insonning o'zini tarbiyalashi va bilim olish ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyinchalik turli xalqlar madaniyatining o'zaro yaqinlashuvi, munosabatlarning ifodasi o'laroq jahon madaniyati, tamaddunlar madaniyati tushunchalari paydo bo'ldi.

Inson faoliyatining ikki asosiy turi — moddiy va ma'naviy yaratuvchanlikka ko'ra, madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohaları hamda ularning har birida erishilgan natijalar — mehnat qurollari, turar-joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy madaniyatga aqliy va ma'naviy yaratuvchanlik sohalari — bilim, odob-axloq, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, din, nafosat, fan, san'at, adabiyot, folklor, asotirlar va shu kabilar kiradi.

Uyg'onish va ma'rifatparvarlik davrlarida madaniyat yetukligi deganda inson va jamiyat hayotida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyalari ustuvor o'rin tutishi lozimligi tushunilgan. Jamiyatdan tashqarida madaniyat mavjud. Masalan, Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o'zgarish madaniyatga ta'sir etadi va unda bu munosabatlar qanday natijalarga olib kelishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Shu bois madaniyat nafaqat o'tmish yoki bugungi kun, balki kelajakka nisbatan munosabatning ifodasi hamdir. Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi. Insoniyat o'zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi. Madaniyatning ijodkori, eng avvalo, xalq. Xalq madaniyatida ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Ularni o'zlashtirmay, bilmay turib, madaniyatli kishi bo'lish mumkin emas, madaniyat rivojida noyob iste'dod sohiblari: fan, adabiyot, san'at ahli ham katta o'rin tutadi. Ular tufayli madaniyatda yangi yondashuv, ijod turlari, badiiy-estetik qarashlar yuzaga keladi. Bugungi kunda jahon miqyosida keng tarqalgan ayrim kasb turlari madaniyatning alohida shakli sifatida e'tirof etiladi. Masalan, kitobat madaniyati, kulolchilik madaniyati, binokorlik, mashinasozlik, temirchilik, ipakchilik madaniyatlari va h.k. Bundan tashqari, fanda madaniyatning barcha xalqlar hayotida alohida o'rin tutadigan turlari ham qayd etiladi. Masalan, qishloq xo'jaligi madaniyati, texnologik madaniyat, mintaqaviy madaniyat va h.k. Bu hol madaniyat turlarini alohida-alohida hamda qiyosiy o'rganish yondashuvining shakllanishi, fanning alohida tarmog'i sifatida ajralib chiqishiga olib keldi.

Madaniyatshunoslik. Hozirgi vaqtda madaniyat va madaniy hodisalar «Madaniyatshunoslik» («Kulturologiya») fanining asosiy obyekti sifatida oliy o'quv yurtlari doirasida keng miqyosda o'rganiladi. Madaniyatshunoslik mustaqil yillarida mamlakatimizda keng taraqqiy etayotgan falsafiy fan sohaslaridan biridir. Sobiq ittifoq davrida bu fan umuminsoniy ma'noda o'qitilmas

edi. Aslida esa, jahon falsafasida madaniyat to'g'risidagi alohida bir fanning vujudga kelgani madaniyatning inson va jamiyat hayotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Madaniyatshunoslik madaniyatdagi rang-baranglikni e'tirof etadi, madaniyatning universal xarakterga ega bo'lgan tarixiy namunalarni bir-biridan farqlaydi.

Madaniyat falsafasi. Madaniyatning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari va istiqbollarni yaxlit, bir butun hodisa sifatida o'rganuvchi falsafiy fan «Madaniyat falsafasi»dir. Falsafiy qonun va kategoriyalarni bilish madaniyat va uning rivojlanish muammolarini nazariy-metodologik jihatdan to'g'ri yechish uchun zamin yaratadi. Ayni paytda madaniyat falsafasi madaniyatning xilma-xil ko'rinishlarini tahlil qilish asosida falsafiy qonunlar va tushunchalarning mazmunan boyishi, falsafaning ijtimoiy amaliyot bilan aloqasining kengayishi va chuqurlashuvi, u ilgari surayotgan xulosa va qoidalarning boyishi va takomillashuviga xizmat qiladi. Madaniyat falsafasi ijtimoiy taraqqiyotning subyektiv, ya'ni kishilar faoliyati bilan bog'liq jihatlarga alohida e'tibor beradi. Madaniyat falsafasining predmeti doirasi madaniyat masalalari bilan cheklangan. Shu bois madaniyat tushunchasi keng talqin qilingan taqdirda ham butun jamiyatni qamrab ololmaydi. Madaniyat falsafasi boshqa fanlar ma'lumotlaridan foydalanish bilan birga o'zining empirik materiallarini yig'adi va tahlil qiladi. Madaniyat falsafasi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, ularning kategoriyalaridan faol foydalanadi. Bundan tashqari, madaniyat falsafasi semiotik, strukturaviy, postmodern, antropologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan o'rganilishi mumkin. Shunday qilib, madaniyat falsafasining talqin etilishi borasida turli-tuman yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, bu tushuncha va hodisaga yaxlit, umume'tirof etilgan konsepsiya nuqtayi nazaridan yondashish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Madaniy meros. Avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy hamda ma'naviy boyliklar «Madaniy meros» tushunchasida ifodalanadi. Har bir

davr madaniy meros rivojiga o'ziga xos hissa qo'shadi. Masalan, qadimgi nodir asarlar va yodgorliklar hozirgacha insoniyatni hayratga solib kelmoqda. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmabaho asarlar, o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt ming yildan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining namunasifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Mustaqillik yillarida ana shu bebaho Madaniy merosni tiklash, uni asrab-avaylash va boyitgan holda kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo'lida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, izchillik bilan davom ettirilmoqda. Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Toshkent, Qarshi, Termiz, Xiva, Marg'ilon, Shahrisabz kabi ko'hna shaharlarimizdagi tarixiy yodgorliklar, masjidular, maqbaralar, qadamjolar ham Madaniy merosning ajralmas qismidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, mustabid tuzum davrida taqiqlab qo'yilgan urf-odat, marosim va an'analar, islomiy qadriyatlar, milliy bayramlar qayta tiklandi, o'zbek tili davlat tili maqomiga ega bo'ldi, jahon va milliy madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarning nomlari tiklanib, asarlari har tomonlama o'rganilmoqda, qadamjolari obod etilmoqda. Bunday ezgu sa'y-harakatlar boy madaniy merosimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, boyitish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazib berishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

«Madaniy boyliklar» tushunchasi. U ajdodlardan avlodlarga vorisilik asosida yetib kelgan, insoniyatning buguni va kelajagi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar, butun insoniyat mulkini tashkil etuvchi buyuk madaniy va tabiiy yodgorliklarni ifodalaydi. U xalqning, millatning asrlar mobaynida yozma manbalar va xalq og'zaki ijodida ifodalangan,

obyektivlashgan va subyektivlashgan narsa va buyumlarda aks ettirilgan **moddiy**, ma'naviy faoliyat mahsulidir. Unda **bilim**, tajriba, dunyoqarash, ma'naviyat va ma'rifat **uyg'un** tarzda muhrlangan. YUNESKO tashkiloti 1972-yilda jahon madaniy va tabiiy yodgorliklarini saqlash to'g'risidagi konvensiyani **qabul qilgan** (1975-yildan kuchga kirgan). Jahon Madaniy boyliklari ro'yxatiga jami 721 ta madaniy va tabiiy yodgorliklar kiritilgan. Ular orasida O'zbekistondagi Xiva (Ichan qal'a), Buxoro, Shahrisabz va Samarqandning tarixiy markazlari ham bor.

Madaniyatning umuminsoniyligi va milliyligi. Bu sohada umumbashariyatga xos bo'lgan jihatlarni **biz** madaniyatdagi umuminsoniylik, millatning o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarni esa madaniyatning milliyligi deb ataymiz. Aslida esa milliylik va umuminsoniylik bir butun madaniyatning ikki tomoni, bir-birini taqozo etuvchi jihatlardir. Madaniyat ana shu ikki jihatning uzviy aloqasi va bir butunligi orqali namoyon bo'ladi. Milliylik — madaniyatning joni, uning **millat** bilan bog'liq yashash usuli, millatning unda namoyon bo'ladigan ruhidir. Umuminsoniylik esa madaniyatning butun jahonga xosligi, ana shundan kelib chiqadigan umumbashariy xususiyatlari, jamiyat rivojining **barcha davr** va hududlarga xos umumiy tamoyillaridir.

Milliy madaniyatlar bir-birini boyitadi. Ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir tabiiy ravishda xalqlar va millatlarning bir-biri bilan iqtisodiy, siyosiy, axloqiy sohalaridagi hamkorligi uzviy bog'liqdir. Biroq bir milliy madaniyatni boshqa xalqlarga zo'rlab targ'ib etish, joriy qilish ijobiy natijalarga olib kelmaydi. Milliy madaniyatning gullab-yashnashi xalqlarning sivilizatsiyalashgan taraqqiyot yo'lidan borishi va o'ziga xos sivilizatsiya yaratishida muhim ahamiyatga ega.

Istiqlol va madaniyat. O'zbekistonning o'tgan asrning 80-yillari oxirida mustaqillik tomon qadam tashlashi bilan, barcha sohalar qatori, madaniy hayotda ham o'zgarish va islohotlar olib borish uchun muayyan zamin hozirlana boshladi. Jumladan, Navro'zni umumxalq bayrami sifatida nishonlash va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berish haqidagi Qonunning qabul qilinishi bu yo'ldagi eng dadil qadamlar bo'ldi. Shundan so'ng birinchi navbatda mil-

liy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish, so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini ta'minlash, ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ma'naviy boyliklarni yaratuvchi olimlar va ijodkor xodimlarga e'tiborni kuchaytirish, o'sib kelayotgan avlodga, uning madaniy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish vazifalari belgilandi.

Vatanimizning yorug' kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta'minlaydigan omillar orasida ta'lim-tarbiya sohasi alohida o'ringa ega. Chunki har bir millatning, xalqning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Istiqlolimizning ilk yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasi eng ustuvor vazifa sifatida belgilanib, ushbu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Falsafada qadriyatlar muammosi takror va takror murojaat qilib turiladigan azaliy mavzulardan biri sifatida qaraladi. Bu mavzu, ayniqsa, tarixda tub burilishlar ro'y berayotgan, jamiyat rivoji bir bosqichdan boshqasiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblar, kishilar ko'nikib qolgan mezonlar o'zgarib borayotgan davrlarda nihoyatda dolzarb muammoga aylanadi. Bunday davrlarda jamiyat a'zolarining qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari, qarash va tasavvurlari o'zgarib ketadi. Jamiyatda eski tizim va unga asoslangan ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy mezonlar o'rniga yangi qadriyatlar tizimiga ehtiyoj tug'iladi, uni shakllantirish zaruratga aylanadi.

XX asr oxirida sobiq ittifoqning barham topishi va O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ana shunday davr boshlanganini yaqqol ko'rsatdi. Bu esa yuqoridagi xulosaning tarixiy jarayonlar natijasida isbotlangan hayot haqiqati ekanidan dalolat beradi.

Istiqlol yillarida xalqimiz hayotida muhim o'zgarishlar ro'y berdi, davlat va jamiyat qurilishida tub islohotlar amalga oshirildi. Umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hayot qurish, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, jahon sivilizatsiyasi andozalariga mos keladigan qadriyatlar tizimini shakllantirish ushbu jarayonning tarkibiy qismiga aylandi.

Aynan ana shu davrda mamlakatimizda qadriyatlar va inson qadri masalasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bir-biri bilan uyg'un va chambarchas aloqador bo'lgan bunday jarayonlar umuminsoniy va milliy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar to'g'risidagi fan — «Aksiologiya» (aksio — qadriyat, logos — fan, ta'limot ma'nosini anglatadi) falsafaning shu masalani o'rganadigan va u bilan shug'ullanadigan sohasi hisoblana-di. Sobiq ittifoq davrida bu to'g'rida nihoyatda kam ma'lumotlar bor edi. Istiqlol tufayli qadriyatlar to'g'risidagi qarashlarimiz shitob bilan o'zgardi. Sobiq ittifoqning ilgari ulug'langan parti-yaviy-sinfy qadriyatlari sarobga aylandi, zamona realliklari ta-lablariga javob bera olmay, o'tgan o'n yilliklardan iborat tarix sahifalari bilan birga yopilib ketdi. O'zbekistonda qadriyatlarga e'tibor kuchaydi, uning turli qirralari olim va mutaxassislar to-monidan tahlil etilmoqda. Qadriyatlar falsafasi — aksiologiya-ning ko'pdan ko'p mavzulari mutaxassislarimizning ilmiy izla-nishlarida o'ziga xos o'rin tutmoqta.

«Moziyga qaytib ish ko'rmoq xayrlidir», — deb yozgan edi Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida. Xuddi shunday, «Qadriyat o'zi nima?» savoliga javob berishdan oldin mavzuning tarixini, qisqa bo'lsa-da, o'rganmoq lozim. Busiz qadriyatlarning bugun va kelajakdagi ahamiyatini tushunib bo'lmaydi.

Qadriyatlar mavzuining tarixi. Qadriyatlar mavzuining tarixi, ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o'tmishga ega. G'arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g'oyalariga tayanadilar, ko'plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G'arbda qadriyatlar bilan shug'ullanadigan falsafiy soha — aksiologiya fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo'ladi. Biz Suqrot va Aflotun, Aristotel va Gegellar katta e'tibor bergan bu mavzuning G'arb falsafasida o'z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz.

Ammo ushbu mavzu ko'hna va navqiron Sharq, xususan O'zbekiston uchun begona emas! Uning eng teran jihatlarini faqat G'arbdan emas, balki Sharqdan qidirish ham foydadan xoli bo'lmasa kerak. Nomlari sivilizatsiyamiz tarixiga abadiy bitil-

gan Xorazmiy, Forobiy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Beruniy, ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Ulug'bek, Navoiy, Mashrab, Bedil, Behbudiy, Avloniy kabi mutafakkirlar ijodida ham bu mavzuning izlari bor, teran qirralari ochilgan. Gap ana shu izlarni izlab topishda, ularni unutmashda, sayqallab turishda, zamona realliklari nuqtayi nazaridan xolisona talqin qilishdadir.

Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi — «Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy g'oyalar yorqin ifodalangan.

Qadrlash to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom hukmron dinga aylangan edi. E'tirof etish kerakki, Qur'on va Hadislarda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, arab istilosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimizning yo'qotib yuborilganligini ham qayd qilmoq kerak. Bu to'g'rida Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Sivilizatsiyamiz qadriyatlari va xalqimizga xos qadrlash me'yorlari musulmon Sharqi va arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham nihoyatda katta aks ta'sir ko'rsatgan. Tarixda nomlari saqlangan allomalarimiz o'z navbatida butun jahon, Sharq madaniyatiga g'oyat katta hissa qo'shganlar. Bunday fikrni Abu Hanifa, al-Buxoriy, at-Termiziy, Kubro, Ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari to'g'risida ham aytish joiz. Ularning har biri o'z zamonasida islomni sivilizatsiyamizning yuksak madaniyati nuqtayi nazaridan targ'ib va tashviq etdilar, islom falsafasini yuksaklikka ko'tardilar, mazkur dinning butun jahonda katta mavqega ega bo'lishida muhim

faoliyat ko'rsatdilar. Ularning islom falsafasi va ilohiyotiga, uning zamona za'llari orasidan o'tish jarayoniga ko'rsatgan nihoyatda katta ta'siri to'g'risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Afsuski, manbalar yetarli bo'lishiga qaramasdan, yurtimiz sivilizatsiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlari-ning madaniyati taraqqiyotiga ta'siri to'g'risida yozilgan asarlar haligacha kam, bu to'g'rida keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zaruriyati allaqachon yetilgan.

Masalaning muhimligi atoqli qomusiy olimlar — Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, al-Farg'oniy, Ulug'bek, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi sivilizatsiyamizning zabardast namoyandalari ijodi va merosi ko'zgu-sida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Zero, ular nafaqat Markaziy Osiyo, arab-musulmon sivilizatsiyasi, balki jahon madaniyati taraqqiyotiga nihoyatda katta hissa qo'shganlar, yurtimiz qadriyatlari ta'sirining butun olamga yoyilishida xizmat qilganlar.

Afsuski, dunyoning oltidan bir qismini egallab turgan sobiq ittifoqda qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini barqaror qilish u yoqda tursin, haqiqiy qadriyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotlar olib borishga ham izn berilmas edi. Faqat o'tgan asrimizning 60-yillariga kelib, qadriyatlar muammosi ba'zi mutaxassislar tomonidan tahlil qilina boshlagan bo'lsa-da, 90-yillargacha falsafa darsliklarida alohida mavzu sifatida o'z o'rniga ega bo'lmadi. Hukmron mafkuraning tarkibiy qismiga kirmaganligi, mavzularining juda kam tadqiq qilinganligi va nihoyatda oz ahamiyat berilganligidan maxsus falsafiy tadqiqotlar sohasiga aylana olmadi. Aksiologiya nomi bilan sobiq ittifoqda birorta ham darslik yoki o'quv qo'llanma chop etilmagan, hatto universitetlarning faylasuf, jamiyatshunos, tarixchi kabi mutaxassislar tayyorlaydigan ijtimoiy bo'limlarida ham bu sohaga oid maxsus bilimlar berilmas edi.

«Qadr» va «qadriyat» tushunchalari, qadrsizlanish muammosi. Qadriyatlar to'g'risida G'arbda keng tarqalgan «Aksiologiya» (aksio — qadriyat, logos — fan, ta'limot) fani rivojlangan mamlakatlarda inson qadri va haq-huquqlariga doir ko'pgina tamoyillarning amaliyoti uchun nazariy asoslardan biri bo'lgan ilmiy sohalar qatoriga kiradi.

U borada «Qadr» tushunchasiga katta ahamiyat qaratish lozim. U muayyan qadriyatning, ya'ni biron-bir narsa, voqea, hodisa yoki biror idealning inson va jamiyat uchun qadri va ijtimoiy ahamiyatini anglatadigan tushunchadir. «Qadr» tushunchasi o'zbek tilida serqirra ma'no va mazmunga ega, u tilimizdagi ba'zi ibora va so'zlarda o'ziga xos sharqona falsafiy mazmun bo'lgidan dalolat beradi. Ana shu sababdan ham o'zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, qadrning ma'nosini bilish orqali boradi. Insonning insonga ibrati, tarbiyadagi ta'sirini uning o'zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi. Demak, qadriyat sifatidagi inson ta'sirida uning qadri va ahamiyati namoyon bo'ladi, boshqa kishi esa ana shu bevosita ta'sir natijasida uning ahamiyatini baholaydi, qadriga baho beradi.

Qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan ilmiy-falsafiy ma'lumotlarning ko'pchiligida qadriyatni «baho» tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko'lamdagi tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Ayni paytda qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog'onasiga chiqadi, boshqalari siqilishgandek tuyuladi. Masalan, yurtni yov bosganda — ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida — istiqlol, urush davrida — tinchlik, tutqunlikda — erkinlik, xastalik va bemorlik paytlarida — sihat-salomatlikning qadri ortadi, ularga intilish kuchayadi.

Qadriyatlarning asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar o'arasida bir xil va hamma e'tirof etgan yagona nuqtayi nazar yo'q. Ularni moddiy va ma'naviy, umumbashariy va umuminsoniy turlarga bo'lish mumkin. Bu shakllar ham ularga mos ravishda tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar o'zaro uyg'unlikda, qonuniy bog'lanishda, umumiy aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Bunday hollardagi tahlil jarayonida ilmiy bilishning tizimlilik usuli, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bo'lak kategoriyalarining dialektikasiga asoslanish qo'l keladi.

Qadrsizlanish — muayyan qadriyat yoki qadriyatlar tizimining o'z qadriini yo'qotishi yoki pasaytirishi jarayonini, insonning o'z

obro'-e'tiborini, mavqeini yo'qotishi, nazardan qolishi ma'nosini anglatuvchi tushunchadir. Jamiyat taraqqiyotida sodir bo'ladigan umumiy qadrsizlanish birdaniga, bir kunda yoki to'satdan emas, balki tadrijiy ro'y beradigan jarayondir. Insoniyat tarixida qadriyatlar tizimi qadrsizlanib ketgan davlatlar va imperiyalarning tanazzulga yuz tutgani, yo'q bo'lib ketgani ma'lum. Masalan, sobiq ittifoq hayotining oxirida, 80-yillarning oxirlarida ilgari zo'rlik bilan ushlab turilgan qadriyatlar tizimining butunlay qadrsizlanishi yaqqol ko'rinib qolgan edi. Oxir-oqibat, bu tuzum tanazzulga yuz tutdi va halokatga uchradi.

Qadrsizlanish jarayoniga sabab bo'ladigan ko'plab omillar mavjud. Muayyan qadriyat yoki bir necha qadriyat shakllarining haddan ortiq bo'rttirib yuborilishi, mutlaqlashtirilishi yoki siyqalashtirilishi, ularga noto'g'ri munosabatning muttasil siyosat usuliga aylantirilishi bunga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holda qadriyatlar o'z mazmun-mohiyatini, odamlarning hayoti va faoliyati uchun umumiy mezon, ularning intiladigan ideal yoki ularni muayyan maqsadlar sari birlashtiruvchi va safarbar qiluvchi mezon sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi.

Qadrsizlanish muayyan qadriyat, milliy manfaatlar, davlat siyosatiga ishonchsizlik, odamlarning «nimalar»dandir hafsalasi «pir» bo'lishi, ko'pchilikning ko'ngli «qolishi» tarzida ham namoyon bo'lishi mumkin. Har bir shaxs uchun jamiyatda o'z atrofidagilar o'rtasida o'z qadrini yo'qotish odamiylikni yo'qotish bilan barobar bo'ladi. Shuning uchun har bir shaxs qadrsizlanish so'zi anglatadigan ma'nodagi xususiyat o'zida shakllanib qolmasligiga intilishi zarur bo'ladi.

Qadrsizlanish faqat shaxslar o'rtasidagina bo'lib qolmasdan, balki boshqa sohalarida ham ro'y berishi mumkin. Masalan, qimmatli qog'ozlar, pullar, ashyolar ham qadrsizlanishi mumkin. Bunday holatni dunyo davlatlarida ishlatiladigan mablag'lar va qimmatli qog'ozlar misolida ko'rish mumkin. Ba'zan qadrsizlanish oqibatida ma'lum bir mamlakatlarda pullar va qimmatli qog'ozlarni isloh qilishga zarurat seziladi. Qadrsizlanish iqtisodning barcha sohalarini qamrab olishi, muayyan davlat yoki butun jahon inqirozi tarzida ro'y berishi mumkin. Bunday hol iqtisodiy

bo'limiga olib keladi va butun dunyoda umumiy muammolarni keltirib chiqarishi shubhasiz.

Mustaqillik va qadriyatlar tizimi o'zgarishi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishi aniq. Faqat mustaqillikka ushbu holatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi.

Shu sababdan ham istiqolol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni tubdan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta'lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda.

O'zbekistonning milliy istiqloliga asoslanadigan yangi qadriyatlar tizimi shakllanish jarayonlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar, respublikamizda qadriyatlar omili samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatning asosiy yo'nalishlari ham ilmiy o'rganishni talab qiladi. Ushbu masalani oydinlashtirish uchun tarixga murojaat qilish, undan tashbehlar izlash mumkin. Holbuki dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biriga mansub bo'lgan, o'z ildizlari bilan asrlar qo'riga borib taqaladigan va uch ming yildan ko'proq davrni qamrab oladigan xalqimiz tarixi, mustaqil O'zbekistonda shakllanayotgan yangi qadriyat tizimi va unga munosabatimizning tamal toshlarini qo'yadigan ma'naviy asosdir.

Mustaqil O'zbekistonning rivoji qanchalik yuqori pog'onalarga ko'tarilib boraverar ekan, tarix sahifalariga murojaat qilish, undan tashbehlar izlash ehtiyoji shunchalik ortib boraveradi. Ammo

hayot faqat tarixdan iborat emas. Tarix naqadar serqirra va serma'no bo'lmasin, bugungi va kelajakdagi o'zgarishlarni to'lato'kis qamrab ololmaydi, balki kelajakda tarixga aylanadigan jarayonlarga asos bo'ladi, xolos.

Ijtimoiy taraqqiyot esa tarix silsilalari, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar orasidan o'ziga yo'l ochib boradi. Uning zamondagi bunday ilgarilanma harakati jamiyat taraqqiyotini umumijtimoiy qonuniyatidir. Bu qonuniyat qadriyat tizimlari, ularni tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar dialektikasi uchun ham umumiydir. Qadriyat tizimlarining zamona zayllari ta'sirida o'zgarishi va davr realliklariga mos holatga kelishi ham ana shu jarayonga bo'ysunadi. Bu jarayonda o'zgarishlar voqea va hodisalarni zamondagi ketma-ketligi tarzida ro'y beradi. Dialektik tafakkur esa ana shu davomiylikning in'ikosi, uni anglab olish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. U qadriyatlarni o'zgarishi va yangi qadriyat tizimlari vujudga kelishi jarayonini anglab olish imkonini beradi. Hozirgi davrdagi turli nomutanosibliklar, zamona silsilalari va muammolari orqali shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelish jarayonini tasavvur qilmoq u uchun ham dialektik tafakkur va ilmiy bilish usullariga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

Jamiyatning tub burilish bosqichlarida qadriyatlar tizimi, kishilarni ularga munosabati o'zgarishi shunchalik shiddatli tus oladiki, bu jarayonning tezkor sur'atlarini anglash, izohlash va asoslashga eng dialektik tafakkur usuli ham ulgura olmay qoladi. Biz tadqiqotlarimiz davomida bu fikr to'g'riligiga ishonch hosil qildik. Bu davrda sobiq ittifoq tizimi bilan bog'liq davr o'tmishga aylandi.

Xullas, O'zbekistonni mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganligi yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Mustaqillik tufayli dunyoga eshik ochish, jahon maydoniga, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga sobitqadamlik bilan kirib borish, o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy, savdo va boshqa sohalarda qizg'in hamkorlikni yo'lga qo'yish, O'zbekistonni, uning boy o'tmishini, madaniyatini, hozirgi kunini va bu yerda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonini dunyoga tanitish imkoniyatlari ochildi.

Hugungi kunda zaminimizda yashayotgan va bizga zamondosh bo'lgan kishilar hayotida yangi davr boshlandi. Ya'ni mustaqil O'zbekistonimizning milliy istiqboliga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini barqaror qilish, bu tizimda qadriyat shakllarining dialektik uyg'unligiga erishish, inson qadri, qobiliyati, iste'dodini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish borasidagi dolzarb vazifalar hozirgi avlod umrining mazmuniga aylandi.

Muzkur sohada zimmamizdagi vazifalarni bajarishda ma'naviy-ma'rifiy vositalar hamda targ'ibotning ta'sirchan usullarini qo'llash, faoliyatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Hozir har birimizni ushbu yo'nalishda faol va omilkor bo'lishga undaydi hamda barchamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Taymch tushunchalar: jamiyat, jamiyatning tuzilishi, oila, demokratik jamiyat, fuqarolik jamiyati, taraqqiyot, sivilizatsiya, jahon sivilizatsiyasi, madaniyat, qadriyatlar, qadrlash va qadrsizlanish mezonlari.

Takrorlash uchun savollar

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatga xos belgilarni sanang.
3. Sivilizatsiya nima?
4. Madaniyat nima?
5. «Qadr» va «Qadriyat» tushunchalarining mazmunini qanday izohlaysiz?
6. Qadrsizlanishni qanday tushunasiz?

8-mavzu. Falsafiy antropologiya. Inson falsafasi

Inson — Yaratganning mo'jizasi, falsafaning bosh mavzusi. Inson muammosi falsafaning azaliy mavzularidan biridir. Odam zo'rining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o'rni, insoniy fazilatlarini, shaxsiy xususiyatlari to'g'risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida turgan. Fan sohasida odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o'rganish hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, ijtimoiy, ma'naviy qiyofasi bilan bog'liq ji-

hatlari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzod uchun o'zi va o'ziga o'xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari, jamiyatdagi o'rni, qadri, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq muammolar azal-azaldan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obyekti bo'lib kelmoqda.

Suqrotning «O'zligingni angla», «O'zingni bilsang, olamni bilasan» degan hikmatli so'zlari har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq G'ijduvoni insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita daxldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og'irini yengil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma'noda, inson, avvallo, o'zi uchun zarur bo'lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan.

Bu borada «Odam», «inson», «shaxs» tushunchalari qo'llaniladi va ularni kundalik hayotda qariyb bir xil ma'noda ishlatish hollari uchraydi. Ammo ular orasida ilmiy jihatdan muayyan farqlar ham yo'q emas. «Odam» tushunchasi biologik va ijtimoiy jihatlarni o'zida mujassamlashtiradigan tirik jonzotga, odam zotiga nisbatan ishlatiladi. Odam zotini boshqa jonzotlardan farq qiluvchi eng muhim belgilari ong, axloq, xulq, bilim, ijtimoiy mehnat qila olish qobiliyati va boshqalardir. «Inson» tushunchasi esa odam zotini muayyan darajadagi ijtimoiy xususiyatlar va jihatlarni o'zlashtirib olganligi bilan bog'liq kamolot darajasini ifodalaydi. Ijtimoiylik «shaxs» tushunchasi uchun ham asosiy xususiyatdir, ammo bunda ijtimoiy jihatdan ma'naviy-axloqiy kamolotga yetganlik tushuniladi. Ilmiy adabiyotlarda inson va shaxsga nisbatan rang-barang ta'riflarni, turli xil talqinlarni uchratish mumkin.

«Inson» tushunchasi va uning falsafiy talqini. Inson avvalo tiriklikning eng oliy mo'jizasi, boshqa jonzotlardan ajralib turuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida, tabiiy-tarixiy qadriyatdir. Insonni ontologiya /grekcha – borliq, nazariya, ta'limot/ va antropologiya /grekcha – inson, ta'limot/ nuqtayi nazaridan, ya'ni insonni borliqning bir qismi sifatida talqin qilish /ontologiya/ va uni vujudga kelishi, ijtimoiy xususiyatlarining shakllanishi bilan bog'liq tad-

qabulur /antropologiya/ hamon davom etmoqda. Inson – tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xislatlar, sifatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, ma'naviy-axloqiy jihatlarni qiyofasida aks ettirgan ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatdagi asosiy qadriyatdir. Shu bilan birga u olamga ijtimoiy munosabatda bo'lish, odamlar bilan munosabatlarda va aloqaga kirishish, mehnat qilish asosida moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirish, tafakkuri, his-tuyg'ulari, fikrlarini tili vositasida ifodalash kabi xususiyatlarga ega bo'lgan umumijtimoiy vujud hamdir.

Inson jamiyatsiz yashayolmaganidek, jamiyat ham insonsiz mavjud bo'lmaydi. Har qanday jamiyat o'zini tashkil qilib turgan kishilar faoliyati, o'zaro munosabati va umrguzaronligi bilan tashkil topadi. Shu ma'noda inson – har qanday jamiyat bor bo'lishini ta'minlab turadigan asosiy ijtimoiy elementdir. Bunday ta'minlab turadigan insonni individual – shaxsiy ishtiroki orqali, ya'ni biror guruh, qatlam, sinf, qavm, elat, xalq yoki millat doirasidagi faoliyati, oila va turmushdagi xatti-harakati, amalga oshirgan ishlari, yaratgan boyliklari, o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabati orqali namoyon bo'ladi.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda insonning tabiiy-ijtimoiy borlig'i mavjudligi tan olinadi. Bu borada biologik yondashuv insoniy munosabatlar me'yorlarining evolyutsion-biologik asoslariga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra odamzotining shaxsga aylanishi, o'z qadriini va o'zgalar qadriini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi. Dastlab, norasida go'dak uchun Ona ko'kragi, suti, allasi eng buyuk qadriyat bo'lsa, ona qo'lidan tushgan, Ona ko'krigidan ajralgan bola uchun esa, asta-sekin atrof-muhit, o'zi yashayotgan makon, o'zga kishilar va o'zi ham qadriyatga aylanib boradi. Bu davrda u o'z shaxsiy ehtiyoji va maqsadlarini o'ziga xos qadriyat ko'zgusi orqali ko'radi, o'ziga kerakli va zarur narsalarni muhayyo qilishlarini ko'proq xohlaydigan, talab qiladigan bo'lib qoladi. Bolalar hayotini ko'pgina tadqiqotchilari kamolotning bu muhim davrida /3-6 yosh/ o'z qadriini oshirish va shaxsini ko'proq sevish /bolalik egoizmi/ mavjud bo'lishini ta'minladilar.

Albatta inson ilk bolalik davrida qolib ketmaydi, ota-ona, qardosh-urug', dastlabki o'qituvchilar uni qadriyatlar mezonini

anglashida muhim o'rin tutadi, shu tariqa inson kamolot sari boradi. Bu jarayonda yetuk shaxsga aylanish imkoniyati bo'lgan odamzod naslining har bir vakili oilaviy, ma'naviy-axloqiy, milliy, ijtimoiy qadriyatlar ta'sirida tarbiyalanadi, shu bilan birga, shaxsiy jihatlari, qadrlanadigan sifatleri va xususiyatlari kamolotga yetib boradi. Bu jarayonda shaxsning o'zi ham ijtimoiy qadriyat sifatida shakllanib, o'z qadrini namoyon qilib boradi.

Inson tabiati bilan bog'liq bu jarayonni sotsial yondashuv tarafdorlari ijtimoiy ahamiyatga molik sabablar bilan tushuntiradi va insonning ijtimoiy funksional, «qandaydir genlar»ga e'tibor bermasdan foydalanish mumkin bo'lgan davlat mashinasi unsuri sifatidagi obrazini yaratadi. «Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuyidir» degan shior aynan ijtimoiylik inson hayoti substansiyasi, negizini tashkil etishini tushunish imkonini beradi.

Hozir G'arb adabiyotlarida «mind – bodi» (aql – tana), «nature – nurture» (tabiat – tarbiya) muammosi muhokama qilinmoqda. Ammo asosiy muammo ko'rsatib o'tilgan mohiyatlarni mufassallashtirishda emas, balki insonning yagona obrazini yaratishdadir. Bu esa ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy sohalardagi bilim yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan kompleks yondashuvni taqozo etadi. Homo sapiens evolyutsiyasi to'g'risida so'z yuritganda, oddiy biologik yoki ijtimoiy mezonlarga emas, balki biologik-ijtimoiy mezonlarga suyanish lozim.

Inson ongli mavjudot. Bir zamonlar faylasuflarning ustози Suqrot «O'zingni bilsang, olamni bilasan», – degan edi. Falsafiy hikmatga aylanib ketgan bu fikr ortida olam kabi inson ham sir-u sinoatlarga boy, u o'zini bilish orqali olam mohiyatini anglashga yo'l ochishi mumkin, degan g'oya yotibdi. Shu ma'noda, inson o'zini tashqi olamdan ajratib, alohida bir mo'jiza va tadqiqot mavzui sifatida o'rganishga harakat qila boshlagan paytdan buyon uni o'ylantirib kelayotgan muammolardan biri ongning mohiyati, tafakkurning kelib chiqish masalasidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ongning tabiatini anglash masalasi – eng qadimiy falsafiy masalalardan biri, deyish mumkin. Garchand ong va uning turli xususiyatlari insonga xos hodisa sifatida psixologiya, adabiyot, sotsiologiya kabi fanlarning tadqiqot

muayyan doirasiga kirgan bo'lsa-da, ongning mohiyati, uning turli ko'rinishlari o'rtasidagi munosabat kabi masalalarni o'rganish bilan aynan falsafa shug'ullanadi.

Ongning mohiyati masalasi eng qadimiy muammolardan biri ekan, uni anglash jarayonida turli xil javoblar bo'lganligi tabiiy. Bu savolga eng qadimiy javob diniy va mifologik qarashlar doirasida berilgan.

Ongni diniy tushunish uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi Xudoning, buyuk ilohiy aqlning mittigina aks etishi, uning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimiy bo'lsa-da, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, u olam va odamning yaratilganligi masalasi bilan bevosita bog'liqdir. Kimda-kim olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham Yaratganning qudrati ekanligini tan olishi tabiiy. Barcha dinlar kabi islom dinida ham ana shunday qarash e'tirof etiladi va ong, tafakkur Yaratganning ta'omiga in'omi, ilohiy mo'jizalar sifatida tavsiflanadi.

Bunday qarashlardan farq qiladigan va ong muayyan moddiylikning miyada aks etishi deb tushunishda, uning mohiyati inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etiladi. Bunday qarashlar ham qadimiy ildizlarga ega. XVIII asrga kelib ongni bevosita inson iniyasi faoliyati bilan bog'lashga harakat qilgan qarashlar inson shakllandi. Ayni paytda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'lgan. Falsafa tarixida «Vulgar materializm» deb nom olgan oqim namoyandalarining qarashlari bunga misol bo'la oladi. Ularning fikricha, xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday yondashuv natijasida ong ma'naviy emas, balki moddiy hodisa, degan xulosa chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham, o'lchab ham bo'lmaydi.

Moddiylikka asoslangan qarashlarga ko'ra, ong in'ikosning oliy shaklidir. Xo'sh, in'ikos deganda nima tushuniladi. In'ikos muayyan ta'sir natijasida paydo bo'ladi. Buning uchun esa, hech bo'lmasganda, ikkita narsa, jonzotlar, ya'ni obyektlar bo'lishi

va ular o'rtasida o'zaro ta'sir sodir bo'lishi lozim. Eng umumiy ma'noda, har qanday narsalarning u bilan ta'sirlashuvda bo'lgan boshqa narsalarning ta'sirini muayyan tarzda aks ettirishi bilan bog'liq xossasiga in'ikos deyiladi.

Shu ma'noda in'ikos hamma joyda mavjud. Ayni paytda har bir holatda u o'ziga xos xususiyatga egadir. Chunonchi, notirik tabiatdagi in'ikos bilan tirik tabiatdagi in'ikos bir-biridan tubdan farq qiladi. Notirik tabiatda in'ikos oddiyligi bilan ajralib tursa, tirik tabiatda u murakkab xarakter kasb etadi.

Shu bilan birga, notirik tabiatda in'ikos passivligi, tirik tabiatda esa, faolligi bilan ajralib turadi. Tirik tabiatda in'ikos tashqi ta'sir natijalaridan faol foydalanishni keltirib chiqaruvchi axborotli in'ikos shaklini oladi. Ayni paytda axborotli in'ikosning o'zi tirik tabiatning har bir darajasida yanada murakkablashib, o'ziga xoslik kasb etadi. Mana shunday murakkablashuv jarayoni psixik in'ikosning shakllanishiga zamin yaratdi. Aynan psixik in'ikos darajasida voqelikka aktiv munosabat ham shakllanadi, in'ikosning ilgarilab borishidan esa, o'z navbatida, uning o'ziga xos, yuqori shakli bo'lgan ongning paydo bo'lishiga imkoniyat yaratdi.

Odatiy ong hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuyidan iborat bo'lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqealarni aks ettiradi va rivojlanadi. Uning sohiblari — subyektlari alohida olingan shaxslarning hayotiy tajribasi, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilimlari, hayotda egallangan mavqelari hech qachon bir xil bo'lmaydi.

Odatiy ongda nazariy bilimlarga dalil va asos bo'lib xizmat qiladigan elementlar bo'ladi. Olimlar, san'atkorlar turli nazariyalar, badiiy obrazlar yaratishda hayotiy-kundalik ongga asoslana-dilar, undan ma'naviy oziq oladilar.

Odatiy ongda xalq donishmandligi, an'ana va urf-odatlar, kundalik turmush qoida va talablari, tabiat haqidagi bilimlar, Shuningdek turli uydirmalar, noto'g'ri qarashlar ham o'z ifodasini topadi. Ko'p asrlik hayotiy tajribani ixcham shaklda o'zida mujas-samlashtirgan xalq maqollari bunga misol bo'la oladi. Odatiy ong sof holda uchramaydi. Chunki, inson farzandi murg'aklik davri-

dan o'z atrofidagilar, so'ngra kitoblar, ta'lim tizimi yordamida inson zakovati erishgan ilmiy bilimlarni ham o'zlashtirishga kirishadi. Boshqacha aytganda, sodir bo'layotgan voqealarga nafaqat o'z tajribasi, balki ilmiy bilimlar nuqtayi nazaridan ham baho bera boshlaydi, nazariy ong ta'sirida bo'ladi.

Xo'sh, nazariy ong deganda nimani tushunish kerak?

Nazariy ong deganda nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o'laroq nazariy ong o'zgaruvchan xarakterga ega. Bu o'zgaruvchanlik ilmiy bilimlarning shiddatli rivojlanishi, voqelik haqidagi bilimlarning doimiy chuqurlashib va kengayib borishi bilan belgilanadi. Shuningdek, odatiy ongga voqealarning tashqi tomonini ifodalash xos bo'lsa, nazariy ong voqealarning mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham u odatiy ongga faol ta'sir qila oladi va kundalik tajriba asosida hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam beradi.

Ushbulardan xulosa shuki, ong va tafakkur insonga olam va odam, voqea va hodisalar sirlarini bilish, ular bilan bog'liq tushuncha va tamoyillar, qonunlar va o'ziga xos jihatlar, masala va muammolarni anglash, bu yorug' dunyoda mazmunli hayot kechirish uchun ato etilgan.

Insonning biologik va ijtimoiy tabiati haqidagi falsafiy asarlarda jins, jinsiy munosabatlar, erkak va ayol o'rtasidagi farq, avlodlar o'rtasidagi munosabatlar, o'lim muammolari deyarli yoritilmagan. Vaholanki, insonning real hayoti — tug'ilish va o'lish bilan bog'liq biologik vaqt doirasi bilan chegaralangan. Mazkur chegaralarda hayot kontinual va avlodlar o'rtasidagi munosabatlarga ham, jinslar o'rtasidagi munosabatlarga ham bog'liq bo'lgan o'zgarishlarga to'la. Hozirgi zamon falsafasi va fani insonni o'rganishda uning yaxlit ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi talqinidan kelib chiqadi.

Inson va uning qobiliyati muammosi shuning uchun ham alohida o'rin egallaydiki, tabiiy ilmiy bilimning bu muammoni o'rganish imkoniyatlari ancha cheklangan. Falsafiy va ijtimoiy bilim ham insonni mukammal bilishni da'vo qila olmaydi. Demak, bunda kompleks yondashuvgagina umid qilish mumkin.

Bu yondashuv inson tabiatini tushunishning butun ratsionalistik an'anasi hamda ezoterik tafakkur imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga insonni o'rganish chegaralarini ancha kengaytirish imkonini beradi.

Hozirgi zamon fani inson hodisasini o'rganishga tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikka oid bilimlar sintezi asosida yondashishni taklif qiladi. Bunda inson ijtimoiy xulq-atvorining ijtimoiy-biologik asoslarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Hozirgi fanlarda inson va oliy hayvonlar xulq-atvori o'rtasidagi o'xshashliklarning samaraliligi keng muhokama qilinmoqda. Ijtimoiy biologiya darvinizm prinsiplari va tushunchalari, chunonchi, tabiiy tanlanish, evolyutsiya jarayonini populyatsion genetika qonuniyatlari universalligining adaptogenezi sifatida tushunishni qabul qilish zarurligini qayd etmoqda. Insonni bilishning tabiiy-ilmiy metodlariga yon bosish insonshunoslikning biologiyaga bog'lanib qolishiga olib kelishi mumkin. Tabiiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlarga e'tiborsizlik esa insonni real o'rganishda uncha foydali bo'lmagan abstrakt va spekulyativ modellarning tuzilishiga olib keladi.

Inson haqidagi fikrlar inson tabiati va mohiyatini farqlash zarur, degan xulosaga olib kelgan. Bu yerda aniq chegara bo'lishi mumkin emas, Chunki inson doim olam jumbog'i, uning ochilmagan siri bo'lib kelmoqda. Lekin, shunga qaramay, fanda inson qobiliyati va sifatleri majmuyini uning tabiati bilan bog'lab o'rganish qabul qilingan. Aqllilik, muomala qilish va ijtimoiy hayot kechirish qobiliyati insonning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Inson mohiyati esa, o'z tabiatining teran o'zagi, faqat «inson-gagina xos bo'lgan» jihatlar yoki insonni oliy hayvondan farqlash imkonini beruvchi sifatler bilan bog'liq. Inson mohiyati nimada, degan savolga mutafakkurlar har xil javob beradi. «Inson mohiyati ayrim individga xos bo'lgan mavhum narsa emas. Amalda u barcha ijtimoiy munosabatlar majmuyidir», degan ta'rif insonning ijtimoiyligini odamzodning eng muhim va asosiy negizi sifatida qayd etadi. Bu yondashuv butun insoniyatning yagona teran mohiyati va aniq qayd etiladigan inson tabiati mavjudligini inkor etuvchi falsafiy antropologik relyativizmning amaldagi muqobilidir.

Inson haqida oddiy odamlar orasida soʻz yuritilganida, odatda, mohiyat — tugʻma, shaxsiyat — oʻzlashtirilgan sifat ekanligi qayd etiladi. Shaxsiyatdan farqli oʻlaroq, mohiyatni osongina yoʻqotish, oʻzgartirish yoki buzish mumkin emas. Shart-sharoitlarni oʻzgartirish orqali shaxsiyatni deyarli toʻliq oʻzgartirish mumkin. Shaxsiyat yoʻqolishi yoki oʻzgarishi mumkin. Mohiyat inson jismoniy va aqliy holatining negizi hisoblanadi. Shaxsiyat oʻzlashtirilgan sifatlardan tashkil topadi. Shaxsning shakllanishida imitatsiya — taqlid yoʻli va tasavvur muhim ahamiyatga ega. Mohiyat shaxsiyatdan ustun boʻlsa, odam oʻzi uchun foydali narsalarni afzal koʻradi, shaxsiyat mohiyatdan ustun boʻlgan holda esa oʻzi uchun zararli narsalarni afzal biladi, degan gʻayrioddiy yondashuv ham mavjud.

«Inson» tushunchasining talqinlari. Dunyo markaziga insonni qoʻyuvchi yondashuv doimo *antropotsentristik* yondashuv deb atalgan. Qadimgi sofist Protagorning «Inson barcha narsalarning mezoni», degan mashhur iborasi antropotsentrizmning aniq ifodasidir. Bunda jonsiz va jonli tabiatning oʻzaro taʼsiri inson meʼyorlari, ideal hamda daʼvolari nuqtayi nazaridan qaraladi. Inson dunyoning asosiy va eng katta boyligi sanaladi.

Ammo insonni bilish sohasida antropotsentrizmdan tashqari boshqa yondashuvlarga ham duch kelish mumkin. Tabiatni hamma narsadan ustun qoʻyuvchi naturalistik yondashuv — *tabiiy sentrizm* va u bilan uzviy bogʻliq boʻlgan *naturalizm* prinsipi shular jumlasidan. Bu yerda inson — tabiat farzandi. Uning barcha xato va kamchiliklari boshqa har qanday tabiiy jarayonlar singari oʻrinli hamda tabiiy. *Kosmotsentrizm* — kosmosning hamma narsani, shu jumladan, insonning mohiyati va tabiatini ham belgilovchi taʼsiriga ishora qiluvchi dunyoqarash hisoblanadi.

Tarixiy-sivilizatsion jarayonda *teotsentrizm* taʼlimoti ham muhim rol oʻynagan. U oliy, gʻayritabiiy mavjudotni dunyoning asosiy va eng muhim omili deb eʼlon qilgan. Bu borada tarixda juda chiroyli, ezgu niyatli va kuchli odamlar yashagan Atlantida haqida oʻta jozibali afsona mavjud. Bu afsonada aytilishicha, Atlantida jannatmakon bir joy boʻlgan, unda odamlar baxtiyor yashar ekanlar. Afsuski, atlantlarning har biri oʻzini oʻylab, oʻz

farovonligi haqida qayg'urib, o'zlashtirgan bilimlaridan shaxsiy maqsaddagina foydalanib, olamda insondan ulug'roq jonzot yo'q va har kim o'ziga o'zi qonun, deb hisoblay boshlagach, Atlantida inqirozga yuz tutgan emish.

Platon bu ideal davlatga Atlantika okeanidan geografik o'rin va tarixdan muayyan vaqt berdi – u 11500 yil oldin mavjud bo'lganini qayd etadi. Platon 70 yoshga to'lgach, Atlantida haqidagi afsonani eslash fursati yetdi. «Timey» va «Kritiy» dialoglarida Atlantida tarixi hikoya qilinadi. Platon o'z bobosi Timeydan, Timey – otasining Solon ismli yaqin do'stidan, Solon esa – davlat ishlari bilan Misrda bo'lgan paytida shu yerlik kohindan eshitgan rivoyat to'g'risida so'z yuritiladi: «To'qqiz ming yil muqaddam sizlar Gerakl ustunlari (Gibraltar bo'g'oz) deb ataydigan bo'g'oz ortida Atlantida degan katta orol bo'lgan. Bu orolda qirollarning qudratli va ajoyib sulolasi yuzaga kelgan. Bu sulola juda ko'p mamlakatlarni o'ziga bo'ysundirishga harakat qilgan. Ammo bir nechta kuchli zilzilalar bu orolni qismlarga bo'lib tashlagan, keyinchalik u suv ostida qolgan va butunlay yo'q bo'lgan».

«Kritiy» dialogi manzarani quyidagicha to'ldirish imkonini beradi. Xudolar Yerni o'zaro bo'lib olganlarida, donishmandlik ilohasi Afinaga Gretsiya, Atlantida dengiz xudosi Poseydonga tekkan. Poseydon orolda yashaydigan Kleyto ismli qizni sevib qolgan. Kleyto unga o'nta o'g'il tug'ib bergan. Bu o'g'illarning har biri keyinchalik orolning o'z qismida hokimlik qilgan va faqat oliy hukmdor Atlas yoki yunoncha Atlantga bo'ysungan. Atlantida aholisi yuksak axloqiy me'yorlarni asrlar davomida saqlab kelgan. Lekin vaqt o'tishi bilan ular juda izzattalab va ochko'z bo'lib qolganlar. Shunda Zevs ularni jazolashga qaror qilgan va orolni suvga g'arq qilgan.

Atlantida haqidagi afsona katta ma'naviy mazmunga ega. U axloqiy nopoklikdan saqlanishga chaqiradi, ayni vaqtda, inson o'z millatdoshlari va butun dunyo taqdiri uchun mas'ul ekani haqida ogohlantiradi.

Hozirgi adabiyotlarda kosmos tafakkuri yoki kosmik aqlni anglatuvchi *teokosmizm* atamasiga ham duch kelish mumkin. Ba'zan inson, umuman, insoniyat rivojlanishining yangi darajasi

zarurligini asoslash uchun ayni shu kosmik aqlga murojaat qilish talab etiladi. Oliy kosmik aql faollik, cheksiz harakat va rivojlanishning bosh negizi sifatida qabul qilinadi.

Sotsiotsentrizm ta'limoti madaniy-sivilizatsion omillarga suyanadi. Bu yerda inson o'zi yashaydigan ijtimoiy-madaniy muhit mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Sotsiotsentrizmga eng yaqin tushuncha sifatida amal qiluvchi kulturotsentrizm inson madaniyat mazmuni orqali o'z ma'nosini kasb etadi, degan tezisni hi-moya qiladi.

Antropotsentrizmning ziddi – insonga geologik kuchlardan biri sifatida qaraydigan yondashuv *dezantropotsentrizm* deb ataladi. Hozirda ancha mashhur bo'lgan bu yondashuv insonni uning ustun mavqei va o'rnidan mahrum etadi, hech narsa bilan cheklanmagan o'zboshimchalik oqibatlarini haqida o'ylashga majbur qiladi. Insonni o'zi yaratgan texnokratik, sun'iy dunyo bilan universal evolyutsion rivojlanishga bog'lashdan iborat bo'lgan masala koevolyutsiya muammosi sifatida namoyon bo'ldi.

Falsafiy qiziqishlari markazida tabiat va inson mohiyati to'g'risidagi masala turuvchi fan «Falsafiy antropologiya» deb ataladi. U ekzistensiya g'oyalariga qarab mo'ljallanuvchi faylasuflarning fikr-mulohazalariga juda boy. Antropologik yondashuv inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, insonning ekzisensial tahlili bilan shug'ullanadi. «Ekzistensiya» tushunchasi tadqiqotchining fikrini, avvalo, inson qilmishlari va azob-uqubatlarida namoyon bo'luvchi inson hamda dunyo aloqalarini izlash, aniqlash tomonga yo'naltiradi.

Hozirgi zamon G'arb falsafasining yo'nalishi sifatidagi falsafiy antropologiya dastlab nemis faylasufi va sotsiologi M.Sheler (1874–1928) asarlarida ishlab chiqilgan va germaniyalik faylasuf X.Plesner (1892–1985), nemis mutafakkiri A.Gelen (1904–1976) asarlarida rivojlantirilgan.

Shaxsni umumbashariy rivojlanishning asosiy mazmuni deb e'lon qiluvchi personalizm uni o'rganishga nisbatan ancha murakkab yondashuvlarni taklif qiladi. Shaxs o'z mohiyatini muqarrar tarzda o'zidan tashqarida ko'radi, bu – eksteriorizatsiya, u te-ran ichki me'yor va mo'ljallardan oziqlanadi, bu – interiorizatsiya.

Nihoyat, shaxs o'z real empirik mavjudligining tor chegaralaridan o'tib, oliy qadriyatlar: haqiqat, ezgulik va go'zallikka intiladi, bu — transtsendensiya.

Ekzistensializm insonni ilmiy metodlar yordamida bilib bo'lmazligi haqidagi g'oyani qattiq himoya qiladi. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda Yevropa sivilizatsiyasida insonparvarlikning taqchilligi fanga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keldi. Insonning haqiqiy mavjudligi, ya'ni ekzistensiya uning obyekt tarzidagi haqiqiy borlig'iga teng emas. Atamalar, tushuncha va abstraksiyalar bilishning ilmiy obyektivligini insonning haqiqiy borlig'idan uzoqlashtiradi. Inson doim hayotida muayyan yo'lni tanlash holatida bo'ladi, u o'zlikni anglash yo'lida ko'p karra o'zgaradi. Ekzistensializm asoschisi S.Kerkegor an'anaviy fandan voz kechib, haqiqiy ekzistensiya sari yuksalishning ancha izchil uch bosqichli nazariyasini taklif qildi. Tashqi borliqni aniqlash bilan bog'liq birinchi — estetik bosqichda lazzatlanishga intilish yetakchilik qiladi. Ikkinchi — axloqiy bosqichda burch hissi va axloq qonuni me'yorlari hukm suradi. Uchinchi — diniy bosqichda ongli ravishda qabul qilingan azob-uqubat mavjudlik prinsipi hisoblanadi. Bu o'z kechinmalarini xayoldan o'tkazish borliqning yangi «transsendent» mezonini tushunib yetish imkonini beradi.

Yuqoridagi qarashlar inson mavzuining nihoyatda serqirra ekanini, u bilan bog'liq muammolarga nisbatan rang-barang yondashuvlar mavjudligini yaqqol namoyon qiladi. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat hozirgi davrda, balki kelajakda ham inson bilan bog'liq muammolar falsafaning asosiy masalalaridan biri bo'lib qolaverishini ko'rsatadi.

Turli zamonlarda mutafakkirlar insonni turlicha ta'riflaganlar. *Homosapiens* — «aql-idrokli odam» eng ko'p qo'llaniladigan ta'rif. *Animalrationale* — «oqil hayvon» ta'rif K.Linneyning zoologik tasnifida keltirilgan; *atoolmakinganimal* — «qurol yasovchi hayvon» — Franklin taklif qilgan ta'rif; *Animalsymbolicum* — «ramziy hayvon sifatidagi odam» Kassirer chiqargan xulosa. Kerkegor g'oyalarini quyidagicha talqin qilish mumkin: «inson — tanlash qobiliyatiga ega jonzot», Nitsshe insonni va'da berishga

qodir, bizni axloq qoidalari dunyosiga olib kiruvchi jonzot sifatida ta'riflagan. Russo «Fikrlovchi inson – yo'ldan ozgan jonzot», degan. Inson yangilikka intiluvchi jonzotga tenglashtiriladi. Ba'zan unga o'z hayotiga mutlaqo asketik yondashishga qodir jonzot sifatida qaraladi. M.Sheler fikriga ko'ra, inson haqida fikr yuritayotgan o'qimishli yevropalikning ongida g'oyalarning uch doirasi to'qnashadi. Birinchisi – yahudiy va xristianlarning Odam Ato va Momo Havo, yaralish, jannat va gunohga berilish haqidagi an'anaviy tasavvurlari doirasi. Ikkinchisi – qadimgi yunonlarning insonni inson qilgan narsa uning aqli, nutqi va oqilligidir, degan tasavvurlari doirasi. Uchinchisi – hozirgi tabiatshunoslikning inson Yer rivojlanishining ancha kechki mahsuli, o'zidan oldin hayvonot dunyosida mavjud bo'lgan shakllardan energiya va qobiliyatlari birikuvining murakkablik darajasi bilangina farq qiluvchi jonzot, degan yondashuvlari doirasi.

Aytib o'tilgan va boshqa shunga o'xshash ta'riflar insonning umumiy obrazini yaratadi. Shunga qaramay, inson barcha zamonlar va xalqlarda dunyoning eng buyuk siri bo'lib qolayotir. Bu ta'riflarni falsafa tarixida insonning mavjudligi yagona ishonchli dalil asosida aniqlangan davrda dunyoga kelgan ta'riflar bilan tenglashtirish mumkin. Masalan, F.Dekartning «Cogitoergosum» – «fikr layapman, demak, mavjudman» yoki J.Berklining «Mavjud bo'lish – idrok etilish demak», Men de Biranning «Voloergosum» – «Xoh layapman, demak, mavjudman», A.Kamyuning «Isyon qilyapman, demak, yashayapman» kabi fikrlari ham inson tabiati va mohiyatining yangi-yangi qirralarini namoyon etadi. Bunga F.Nitsshe insonning bosh g'oyasi deb e'lon qilgan hokimiyatga intilishni yoki Z.Freyd ilgari surgan yashirin jinsiy mayl – libido g'oyasini qo'shib, iqtisodiy materializmning iqtisodiy omili ahamiyatiga e'tibor qaratsak, falsafiy antropologiyaning muammolar doirasi ayon bo'ladi. G'oyalar va yondashuvlarning bu antagoinizmida inson tabiatining bir xilligi hamda yagonaligi namoyon bo'lmaydi, balki yanada mavhumlashadi. Insonning o'zi uning uchun eng asosiy muammoga aylanadi.

Tana va ruh, yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat insonning azaliy siri va jumbog'ini yechish yo'lidagi izlanishlar-

ning mohiyatini belgilaydi. Insonni uning muayyan ko'rinishlari, fazilat va kamchiliklari nuqtayi nazaridan tushunib yetish, inson to'g'risidagi masalani falsafiy ijodning bosh masalasiga aylantirish mutafakkirlarning ko'plab avlodlari oldida turgan muhim vazifa-dir.

Individ va individuallik, inson va shaxs. Individlik — bir narsa haqidagi tasavvur bo'lsa, o'z qiyofasi, dastxati, mezonlariga ega bo'lgan, qonunga, bir xillashtiruvchi me'yorga bo'ysunmaydigan, alohida tahlilni taqozo etadigan narsa individual hisoblanadi. Individuallik g'oyasi o'ziga xoslik va o'z nomiga egalik ruhi bilan sug'oriladi. Individuallikning ro'yobga chiqishi — yangi va be-takror narsaning tug'ilishi. Individuallikka u o'z ish qobiliyatiga qaytaruvchi mavjudlik xos. Unda lozimlik andazasiga bo'ysunish majburiyati yo'q. «Men» o'z-o'zi sifatida faoldir.

Insonning erkinlikka intilishi uning hozirgi talqinida o'ziga xos tarzda saqlanib qolgan. Insonning evolyutsiya «kvanti» si-fatidagi talqini taklif qilingan. Bu inson nafaqat o'ta faol, balki ancha nomuayyan jonzot ekanligini anglatadi. Inson yashaydigan ma'naviy muhit kengayishi bilan uning qiyofasi o'zgarib boradi. Inson, rus «sobor» falsafasi an'analari qayd etilganidek, nafaqat shaxsiy, balki umuminsoniy hamdir.

«Shaxs» tushunchasi inson o'z harakatlari va hissiyotlarining mas'ul subyekti sifatida amal qilishi mumkinligini, u o'zi idrok etayotgan narsalarni anglashi va o'z tashabbuslarining ahamiyatini tushunishini anglatadi. «Shaxs» tushunchasi odatda ikki xil ma'noda ta'riflanadi. Birinchi ma'noda, shaxs — inson individi munosabatlar va ongli faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunga lotincha persona atamasi mos keladi. Ikkinchi ma'no, in-sonning ijtimoiy-psixologik qiyofasi ancha barqaror tarzda namo-yon bo'lishini ko'rsatadi. Bu o'rinda shaxs individni tavsiflovchi doimiy va muayyan ijtimoiy ahamiyatga molik jihatlar majmuyi si-fatida amal qiladi, hamisha empirik insondan farq qiladi, Chunki u o'z qilmishi va qarorlarida o'zi qabul qilgan muayyan qadriyatlar tizimiga rioya etadi. Shaxs verbal jihatdan ham, obyektiv jihatdan ham moddiylashuvchi qadriyatlar tizimining tashuvchisidir. Shu bois shaxs o'zini o'zi «yaratishi», ya'ni ideal reja-mo'ljalga mu-

voliq, o'z hayotini yo'lga qo'yishi va shart-sharoitlarni muayyan darajada o'ziga bo'ysundirishi mumkin, deb hisoblanadi.

Shaxs doim o'zini o'zi namoyon etishga intiladi, u o'zgarmas va taniqlidir. Shu ma'noda, shaxs tasodifiy tarzda namoyon bo'luvchi sifatlar va xususiyatlar majmuyi emas, balki yaxlit va uyg'un jonzot, degan fikr o'rinli.

Hozirgi zamon falsafasining yo'nalishlaridan biri — personalizm shaxsda kishilik taraqqiyotining eng muhim yutug'ini va uning asosiy ma'nosini ko'radi. Shaxs dunyoni o'zlashtiruvchi o'ziga xos betakror subyektivlikdir. U butun vujudi bilan barkamollikka intiladi va har tomonlama uyg'un shaxslar jamiyatida yashashga haqlidir.

Shaxs kechinmalari muqarrar tarzda u qabul qilgan qadriyatlar bilan belgilanadi. Individga esa hayot faoliyatining instinktiv omillari ko'proq xosdir. M.Sheler individning bunday mayllari qatoriga ochlik, jinsiy mayl va hokimiyat instinktni kiritadi. Ammo faol inson hayotining har bir hodisasi vital va ma'naviy asoslar birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Individ omma vakili sifatida amal qiladi. Uning hammaga o'xshashligi uning muqarrar xossasidir. Bunda individning shaxsizlashuvi shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, u nom o'rniga tartib raqami yoki ko'rsatish olmoshi bilan «u, bu, boshqa» deb atalishi mumkin. Industrial standartlashgan dunyoda ijtimoiy vazifa va funksiyalar individual xulq-atvorda yo'l qo'yiladigan satti-harakatlarni ancha qattiq tartibga soladi. Tizim qabul qilingan andazadan har qanday tarzda chetga chiqish hollari bilan murosa qila olmasligini ochiq-oydin namoyish etadi. Raqobatga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida «ishlab chiqarish — ayirboshlash — iste'mol» tizimiga mukkasidan ketgan odam o'zi ham tovarga — yaxshi narxga pullash mumkin bo'lgan tashqi sifatlilar majmuyiga aylanadi. Narx baland bo'lishi uchun esa qabul qilingan andazaga rioya etish va Erix Fromm ta'biri bilan aytganda, «chiroyli o'ram»ga ega, xushchaqchaq, sog'lom, izzattalab va faol bo'lishi kerak. Buni bugungi sportchilar, ayniqsa mashhur futbolchilar misolida yaqqol ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Ronaldu, Messi, Neymar kabi futbolchilarning bir necha

yuz million dollarga, boshqa futbolchilarning esa bir necha o'n million dollarga baholanishi bugungi kunda hech kimni ajablantirmaydi.

Xullas, odamzod tarixida qachon «inson», «shaxs», «individuellik» tushunchalari paydo bo'lgani bahsli masaladir. Bu masalaning Sharq va G'arbda o'ziga xos talqinlari mavjud bo'lib, ular ko'p hollarda insonga xos muayyan xususiyatni ustuvor deb bilish asosida shakllangan. Ushbu talqinlarni hozirgi zamon nuqtayi nazaridan o'rganish inson borlig'i masalasining tarixi uzoq ekanini, bugungi kunda ham uning falsafiy nazariyalar uchun qiziqarli ekanini anglab olish imkonini beradi.

Ekosofiya va insonni asrash muammolari. Ma'lumki, inson tana va ruhdan iborat. Ruh va tananing bir-birini taqozo etishi, ayni vaqtda, bir-birini inkor etishi, har safar yangi va yangi kuch bilan namoyon bo'luvchi ziddiyat sifatida, o'z yechimini faqatgina ma'naviy va jismoniy bo'lmagan boshqa bir narsa vositasida topishni taqozo etadi. Shu ma'noda, o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish, o'zlikni anglash va asrash muammosi doim inson ekologiyasining bosh muammosi bo'lib kelgan. M.Monten o'z vaqtida «Dunyoda eng muhimi o'zlikni saqlashdir», deb bejiz yozmagan.

Binobarin, biz o'z manfaatlarimiz sohasini o'rganishimizga qarab, asosan shaxsiy mo'ljallarimiz chegarasidan chetga chiqamiz va o'zimizdan boshqa narsalarni, bizni qurshagan muhitni ko'ra boshlaymiz. Inson ekologiyasi to'g'risida so'z yuritganda, inson populyatsiyalarining real turmush tarzini o'rganishni nazarda tutish lozim. Bu yerda nafaqat insonning jismoniyligi, u yashaydigan moddiy muhit, balki ma'naviyat ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy fanlarda bu borada «Ekosofiya» atamasi qo'llanmoqda. U yangi atama bo'lib, shaxs xulq-atvorini belgilaydigan va uning o'zligini saqlash xususiyatini ta'minlovchi shaxsiy qadriyatlar majmuyi hamda shu asosdagi dunyoqarashni anglatadi. Ekosofiyaning kategoriyalar tizimiga o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish va qadriyatlar tizimidan tashqari, o'z-o'zini tinimsiz o'rganish ham kiradi. Uning eng yetuk shaklini

I. Kantning mashhur savollarida ko'rish mumkin: «Inson nima? Men nimani bilishim mumkin? Men nimaga umid qila olaman? Men nima qilishim kerak?» Bular umuminsoniy muammolar to'yxatiga kiritilgan umumiy olamshumul savollardir. Ammo yashash jarayonida vaziyatga qarab muayyan savollar tug'ilishi ham mumkin.

Inson har safar o'z ahamiyatini teran his etganida muayyan qobiliyatlarini faollashtiradi. Inson mohiyati befarqlik holatida bo'lganida (inson ko'pincha bu holatni o'zi xohlagan holat sifatida qabul qiladi), ongning barcha imkoniyatidan foydalanilmaydi. Har qanday tanglik yoki mushkul muammo soat bongi sifatida yangrab, odamni mudroq uyqudan uyg'otadi. Insonning «uxlab yotgan» psixik qobiliyatlarini «uyg'otish» muhim vazifa. Ko'pgina odamlar shu asosda «o'z ichidagi xira tortgan chiroqni qayta va yorqinroq yoqishni o'rganadi». O'z qobiliyatlarini mumkin qadar kengaytirish uchun zarur darajasiga erisha olmaslik insonning asosiy muammosi hisoblanadi.

Inson evolyutsiyasi muammosi uning qobiliyatlarini kengaytirish va axloqiy qadriyatlarini takomillashtirish sohasiga tatbiqan hal qilinadi. Inson o'z ichki birligi, doimiy egasini anglab yetishi lozim. Evolyutsiya yo'lidagi birinchi qadam — o'z-o'zini o'rganish. Bunda salbiy emotsiyalarga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, toki insonda salbiy emotsiyalar mavjud ekan, uning birligi, ongi, irodasi rivojlana olmaydi. O'z-o'zini rivojlantirish uchun inson o'zini kuzatishni, o'zining foydali va zararli jihatlarini farqlashni o'rganishi lozim. Shaxsda yuzaga keluvchi qiziqishlar, xuddi magnetik markaz kabi, insonning rivojlanishini yo'lga soladi va nazorat qiladi.

Xullas, odam zotining ona zamindagi hayoti, inson umri, uning ma'nosi, shaxs kamoloti bilan bog'liq masalalar tavsifi va ularga nisbatan yondashuvlar xilma-xilligi davom etmoqda. Insonning imkoniyatlari, qobiliyatlari va qator sifatleri to'g'risida yangi qarashlar paydo bo'lmoqda. Lekin bir narsa aniqki, haligacha hech kim bu masalalarda nima asl haqiqat, nima ikkilamchi, nimaning ahamiyati boshqasidan ko'p yoki kamligi haqida mutlaq to'g'ri va hamma tan oladigan xulosaga erisha olgani

yo'q. Balki buning iloji ham yo'qdir va bunday haqiqat kerak ham emasdir. Agar bunday haqiqatlarga erishilsa doimo yangilikka, kashfiyotlarga intiladigan inson uchun bu dunyoning qizig'i ham qolmasligi mumkin. Bu esa odam zoti mavjud ekan uning uchun o'zi va boshqa odamlar, ularning hayoti, faoliyati, insonlar orasidagi munosabatlar, aloqalar, shaxsning olamdagi va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq masalalar azaldan to abadgacha mavjud va dolzarb bo'lib qolaverishidan dalolat beradi.

Istiqolol va inson kamoloti. Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o'rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'yorlarni poymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar yo'lida hatto jinoiy guruhlarga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladilar. Shuningdek, ular milliy totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma'naviy-axloqiy muhitni buzadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga yetkazishga qarshilik ko'rsatadi. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, hokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korrupsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyohvand, poraxo'r, terrorchi va shuhratparastlar kabi jamiyat uchun noxush odamlardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor beradi.

Shaxs erkinligi va tarixiy zarurat bir-biri bilan uzviy bog'liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot yo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o'z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g'oyalarga sodiq

bo'lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi. Buzor munosabatlariga o'tish sharoitida inson qobiliyatlari to'laroq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning boy va qashshoq guruhlarga ajralishi tabiiy qonuniy jarayondir. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati — aholining muayyan qismining ijtimoiy himoyalanihida, ko'p bolali oilalar, nafaqaxo'rlar, talabalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalanihida, ijtimoiy adolatning qaror topishida yaqqol namoyon bo'lyapti. Kishilarning boqimandalik kayfiyati, tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o'z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik yo'nalishga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarini egallash orqali O'zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezoni va uning oldida turgan muhim vazifadir.

Tayanch tushunchalar: inson, shaxs, individ, antropologiya, inson ongi, inson — biologik mavjudot, inson — ijtimoiy mavjudot, inson faolligi, Ekosofiya, insonni asrash, istiqlol va inson kamoloti.

Takrorlash uchun savollar

1. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzusi deb qaraladi?
2. Shaxs, individ deganda nimalarni tushunasiz?
3. Antropologiya fanining ma'nosi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Inson tanasi va ruhining bog'liqligi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Ekosofiya nima? «Insonni asrash» deganda nimani tushunasiz?
6. Istiqlolning insonparvarlik mohiyati nimalarda ko'rinadi?

9-mavzu. Globallashuv va umumbashariy muammolarning falsafiy jihatları

«Globallashuv» (lot. globus – shar, Yer sayyorasi) – XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy hodisa bo‘lib, hozirgi davrdagi xalqaro tartibotlar, davlatlar va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta’sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushunchadir.

«Globallashuv» atamasi dastlab amerikalik olim T. Levittning 1983-yili «Garvard biznes revyu» jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi (u yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini globallashuv, deb atagan). 1985-yilda esa taniqli amerikalik olim R. Robertson «Globalization» iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani «odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi»ni aks ettirib, «dunyoning birlashuvi va kishilar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishini» ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi.

Mazkur atamaning mazmun-mohiyati xususida bahs-munozara hamon davom etayotgan hamda bu borada yagona umumiy qarash shakllanmagan, yaxlit konsepsiya yaratilmagan bo‘lsa-da, gumanitar ilmning turli sohalarida, chunonchi, ijtimoiy fanlarda ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari, namoyon bo‘lish shakllari har tomonlama o‘rganilmoqda. Jumladan, iqtisodiyot fanida diqqate’tibor asosan moliyaviy globallashuv, global transmilliy korporatsiyalarning (TMK) shakllanishi, iqtisodiyotning mintaqaviylashuvi, jahon miqyosida savdoning jadallashuvi kabi masalalarga qaratilgan. Tarixiy asarlarda esa globallashuv jarayoni insoniyatning ko‘p asrlik taraqqiyot bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi. Siyosatshunoslikda transmilliylashuv jarayonining tezlashuvi, dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtirokida yangi umumsayyoraviy

butunlikning shakllanishi tadqiq etilmoqda. Sotsiologiya sohasi mutaxassislari sivilizatsiya va madaniyatning universallasuvi ta'sirida turli mamlakat va mintaqa xalqlari turmush tarzining yaqinlashuvi haqida bir xillashuvini tasdiqlaydigan dalillarni izlamoqda. Ba'zi faylasuflar XXI asrda dunyoda yagona axloq, umumiy ma'naviyat, global madaniyat qaror topishini bashorat qilmoqdalar. Boshqalari esa, Kantning yaxlit abadiy dunyo hamda umumdunyoviy hukumat haqidagi g'oyasiga tayanib, turli millat va xalqlar qadriyatlarining uyg'unlashuvini asoslashga intilmoqda. Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlarda turli fan yutuqlarini uyg'unlashtirish asosida hamda insoniyatning birlashuvi, ijtimoiy voqelikning universallasuvi va kishilar dunyoqarashining kengayishi tendensiyalariga tayanib, globallasuv jarayonining umumiy nazariyasini yaratish borasida tutilishlar ko'zga tashlanmoqda.

Shu bilan birga, globallasuv jarayonining turli davlatlar va xalqlarning milliy davlatchiligi va o'ziga xos qadriyatlariga, ma'naviy taraqqiyotiga salbiy ta'sirini ilmiy tadqiq etishga e'tibor kuchayib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, globallasuv jarayonining ijobiy jihatlarini e'tiborga olgan holda, uning g'oyaviy-mafkuraviy ta'siridan ogoh bo'lish, aholi, ayniqsa, yoshlarimizni bunday xurujlardan asrab-avaylash muhim ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

Umumbashariy muammolar. Odamzod nasli XX asrning ikkinchi yarmida globallasuv natijasida shunday muammolar domiga tortildi, endilikda ularning iskanjasidan qutulib ketish yoki ketmaslik bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylandi. Agar XX asrning birinchi yarmi oxirlarida insoniyat qarshisida asosan bitta umum-bashariy muammo — yadro halokatining oldini olish ko'ndalang bo'lib turgan bo'lsa, endi o'zgardi. Aholi tabiiy o'sishining yuqori darajasi saqlanib qolishi, fan-texnika yutuqlaridan tor manfaatlar yo'lida foydalanishga ruju qilinishi va bir qator mintaqalarda murakkab ekologik vaziyatning vujudga kelishi masalani chigallastirib yubordi. Oqibatda insoniyatning kelajagi to'g'risida turli tipdagi bashoratlar kelib chiqdi. Ana shunday sharoitda har bir aqil-zakovatli odam «Bunday yo'lda qanday muammolar, qiyinchiliklar, sinovlarga duch kelishimiz mumkinligini yetarli darajada

aniq tasavvur qilayapmizmi? degan savolni o'z oldiga ko'ndalang qo'yishi va unga javob topishi zarur bo'lib qoldi. Bu savolni butun jahon xalqlarining ishtirokisiz hal etib bo'lmaydi.

Tabiatga kishilarning zug'umi kuchaya borgan sari tabiiy muvozanatning buzilishi oqibatida kishilarning yashash tarzi, sog'lig'i, ijtimoiy muhitga bo'lgan aks ta'siri tobora halokatli tus ola boshladi. Insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan ta'sirli choralar qo'llash orqaligina qutulishi mumkin. Shu ma'noda butun dunyo yagona va o'zaro bog'liqdir. Bizning mushtarak burchimiz yer yuzini bolalarimiz va nabiralarimizga obod va baxtiyor yashashlari uchun munosib qilib qoldirish ekanligi shubhasiz.

Hozirgi paytda insoniyatga xavf solib turgan umumbashariy muammolar deganda butun dunyo, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolar tushuniladi.

Bunday muammolar quyidagilardir:

- termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartaraf etish;
- jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotning o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratish;
- iqtisodiy qoloqlikni tugatish; yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
- tabiiy boyliklardan oqilona va kompleks yondashgan holda foydalanish;
- insoniyatning baxt-saodati yo'lida fan-texnika yutuqlaridan foydalanish uchun xalqaro hamkorlikni yanada faollashtirish (eng xavfli kasalliklarga qarshi kurash, koinotni o'zlashtirish);
- dunyo okean boyliklari va imkoniyatlaridan unumliroq foydalanish; ozon qatlami yo'qolishi xavfining oldini olish va h.k.;
- insoniyat va uning kelajagi to'g'risidagi o'zaro hamkorlikda jiddiy tadqiqotlar olib borish; kishi organizmining tobora tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan sun'iy va tabiiy muhitga moslashish jarayonini ilmiy tahlil qilish.

Insoniyat oldida ana shu xildagi muammolarning ko'ndalang tutilib qolishining o'ziyoq kishilik sivilizatsiyasi o'ta murakkab, o'tu qaltis bir jarayonni boshidan kechirayotganligidan darak beradi. Umumbashariy muammolarning ba'zi bir guruhlar mavjudki, ularni hal qilishning o'zidayoq butun planetamizdagi ijtimoiy hayotning keyingi ming yillikdagi aniq manzarasini chizib berish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday muammolar shartli ravishda uch guruhga ajratiladi:

Birinchi, hozirgi paytdagi mavjud ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar (ijtimoiy-iqtisodiy sistemalar o'rtasidagi, mintaqaviy ziddiyatlar, davlatlar, milliy va diniy nizolar va h.k.) bo'lib, bular shartli ravishda «intersotsial» muammolar deb hisoblanadi. Ular urush va tinchlik, mehnat resurslaridan foydalanish darajasi va shu kabilarni ham qamrab oladi.

Ikkinchi, «inson va jamiyat» o'rtasidagi munosabat bilan bog'liq muammolar bo'lib, bularga ilmiy-texnika taraqqiyoti (ITT); maorif va madaniyat; aholi ko'payishining tez sur'atlar bilan ildam ketishi — «demografik portlash», kishilar salomatligini saqlash, kishi organizmining nihoyatda tez o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitga moslashishi, Shuningdek, insoniyatning kelajagi kabi masalalarni kiritish mumkin.

Uchinchi, «inson — tabiat» munosabatlariga esa xom ashyo resurslarini tejash, aholini oziq-ovqat va ichimlik suvi bilan ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish kabi muammolar kiradi. Bu guruh muammolar ijtimoiy omillar ta'sirida vujudga keladi, ularni hal qilishda esa ijtimoiy omillarning o'rnini va ahamiyatini to'g'ri anglagan holdagina masalaning tub mohiyatini tushunish mumkin.

Xuddi Shuningdek, sof ijtimoiy umumbashariy muammolarning yechimida tabiiy omillarning bu jarayonga bevosita ulanib ketishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Ham ijtimoiy, ham tabiiy omillar asosida yuzaga chiqadigan umumbashariy (global) muammolar bir butunlikni tashkil etib, ularga har tomonlama (kompleks) yondashish kerakligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa, o'z navbatida, falsafa fani zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Insoniyatning kelajagi to'g'risida tarixda turli-tuman bashoratlar mavjud, ular bir necha xillarga bo'linadi. Masalan, xalqimizning ilk tarixiy qadriyatlaridan bo'lgan muqaddas «Avesto» yozma yodgorligi ham umumiy bir tarzda insoniyatning kelgusi istiqbolini bashorat qilib, kishilarni mushtarak maqsadlar tomon yo'naltirishga harakat qilgan. Bunday bashoratlar diniy mazmunga asoslangan bo'lib, o'z davri uchun katta ahamiyat kasb etgan edi. «Avesto»da Zardusht o'limidan so'ng 3000 yil o'tgandan keyin, erkin farovonlik zamoni keladi, Axura Mazda qudrati Axriman yovuzligi ustidan to'la g'alaba qozonadi, deya ishonch bildirilgan edi.

Ikkinchi xil bashoratlar o'rta asrlarda keng tarqalgan, hozirda ham G'arb mamlakatlarida shuhrat qozonayotgan bir qator G'arb futurologiyasi mazmuniga ega. G'arb futurologiyasining mashhur namoyandalaridan Fon Karman, Ye.Shervin, G.Kan va boshqalar insoniyatning kelgusi istiqbolini, asosan, yadro halokati yoki boshqa bir umumbashariy muammolar bilan bog'lab pessimistik manzaralarni chizib ko'rsatishga urinadilar.

Kishilik jamiyatining kelgusi istiqboli to'g'risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida 1968-yilda A. Pechchei tomonidan asos solingan «Rim klubi» a'zolari bo'lgan J. Forrester, D. Medouz, Ya. Tinbergan, A.King va boshqalar tayyorlagan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumbashariy muammolar ko'lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilina-yotgan zug'umning mudhish oqibatlari qanday bo'lishi to'g'risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. «Rim klubi» a'zolari tomonidan qilingan bashoratlar ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda asosan tajriba sinovidan o'tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan holda insoniyatning kelajagi to'g'risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan.

Demak, insoniyat taraqqiyotining kelgusi istiqbolini belgilashdagi eng muhim belgilar sirasiga umumbashariy muammolar tabiatini chuqur anglash, bu muammolarning yechimi umuminsoniy mushtarak manfaatlar yo'lida hamjihatlikda qilingan sa'y-harakatlar ekanini alohida ta'kidlash lozim. Ana shunday misollar

anchaгина. Masalan, 1955-yil 31-yanvarda Frederiko Julio Kyuri tomonidan paytda jahon ilmiy xodimlari federatsiyasi tashkilotining prezidenti edi) Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda to'rtkut qilishi lozimligini bildiradi. B. Rassel F. Kyuri taklifini qo'llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdorlari bo'lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq, jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta'kidlaydi.

Masalaga bunday yondashish falsafiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan edi. Bu esa ilmiy-siyosiy adaloyatlarda «yangicha tafakkur uslubi» deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A. Eynshteyn, F. Julio Kyuri, M. Born, L. Poling va boshqalar tomonidan imzo qo'yilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955-yil 9-iyul kuni B. Rassel tomonidan o'tkazilgan matbuot konferensiyasida «Rassel-Eynshteyn manifesti» nomi bilan shuhrat qozongan, butun Yer yuzi aholisiga, siyosat va davlat arboblari qaratilgan mashhur chaqiriq e'lon qilindi. U hozirgi paytda tinchlik va quolsizlanish uchun kurashuvchi Paguosh harakatini boshlab bergan edi. Manifestda: «Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o'z-o'zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarning harbiy g'alabasini ta'minlash uchun nimalar qilish zarur, deb emas, balki yadro falokati va uning dahshatli oqibatlarini qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilding, deb so'rashimiz kerak», — degan so'zlar bor edi.

«Rassel-Eynshteyn manifesti» chop etilganiga ham mana 60 yilga yaqin vaqt o'tdi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlatib chiqish va sinab ko'rish ko'lemi bir necha barobar ko'paydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tgan vaqt mobaynida qurollanishga 18—20 trln. dollar mablag' sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalarda uchun har yiliga 1,4 trln. dollar miqdorida mablag' ajratilmoqda. Bir kunda qurol-yaroqqa ajratiladigan mablag' 3,4—3,5 mlrd. dollarni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz. Jahon sog'liqni saqdash tashkilo-

ting bezgakka qarshi kurash tadbirlari uchun bir yilda 28—30 mln. dollar ajratishini, xalqaro nufuzli tashkilot YUNESKOning bir yillik budjeti 950—980 mln. dollar miqdorida ekanligini hisobga olsak, masala oydinlashadi.

Harbiy sanoat o'z domiga tabiatning shunday noyob boyliklarini tortayaptiki, bu sarf-xarajatlar o'sish sur'atining tezligiga qarab beixtiyor o'z kelajagimiz to'g'risida xomush xayollar og'ushida qolmasdan iloj yo'q. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'ta kamyob aql egalari, talantli kishilarning aqliy faoliyatini ham o'z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo'nalishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Energiya va yoqilg'i resurslaridan foydalanish muammosi. Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jahon iqtisodiyotining sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar jahon iqtisodiyoti hozirgi sur'atda davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg'i talab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025-yilda 35—40 mlrd., XXI asr oxiriga borib 80—85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujudga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo'li esa bita, u ham bo'lsa, yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va h.k.)dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalari, Quyosh energiyasi, vodorod, geliy va h.k.)dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalari 2025-yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan ko'paytirib borish ko'zda tutilmoqda. Butun jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyb 34% ana shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Elektr energiyasining shu qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GESlarning qurilishi.

O'z navbatida ana shu regionning iqlim sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning sho'rlanishi va ishdan chiqishiga olib kelishi) mumkin. Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning yechilishi murakkab muammolariga aylandi. Ayniqsa, 1986-yil 26-aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi natijasida juda katta miqdordagi radiatsiyaning havoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar sirasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Xomashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash muammosi. Jahon statistik axborot markazlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80% keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holatni xomashyoning boshqa turlari to'g'risida ham gapirish mumkin. Tahlillarga qaraganda, o'tgan asrning 90-yillarida ishlab chiqarilgan xomashyo miqdori 60—70-yillardagiga qaraganda 1,5—2 barobar ko'paygan.

Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xomashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, Shuningdek boshqa xomashyo zaxiralarining kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Vujudga kelgan ekologik vaziyat tabiiy muhitning inson organizmiga va uning ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir etmasdan

qolmaydi. Boshqa tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining ko'lamida asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasini xomashyo resurslari, foydali qazilmalar bilan yetarli miqdorda ta'minlash muammosini ham nazardan soqit qilmaslik kerak. Mazkur muammoni ijobiy hal qilish uchun, iqtisodchilarning tahlillariga ko'ra, jahon mamlakatlarining har biri o'zi ishlab chiqargan yalpi milliy mahsulotning 3—5% miqdorida mablag' ajratishi zarur, deyilmoqda. Demak, har yili o'rta hisob bilan 650—850 mlrd. dollar hajmida mablag' ajratilishi talab etiladi.

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan qiyinchiliklar yuzaga chiqmoqda. Ayni shu mamlakatlardan 42—45% km³ hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqova suvlar suv havzalari, ko'l, dengiz, okean suvini o'zining zaharli tarkibi bilan bulg'amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suviga bo'lgan ehtiyoj dunyo miqyosida o'tgan asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3—2,5 barobar oshdi.

Har yili okeanlarga 12—15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmoqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab gektar yer maydonlari ajratib berilmoqda, o'rmonlar kesilib, yashil yerlar kamaymoqda. Bu tendensiya, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda xavfli tus olmoqda. Dunyoda har yili 0,8% tropik o'rmonlar yo'qolib bormoqda, 200 ming km² territoriyadagi tropik o'rmonlar kesilib, qayta tiklanmay qolmoqda. Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln. gektar yoki minutiga 16 gektar o'rmon yo'qotilmoqda. Tabiiy muvozanatning dunyo miqyosida tez o'zgarishining oqibati hozirning o'zidayoq insonning yashashi va faoliyati uchun o'ta zarur bo'lgan mo'tadil muhitning buzilishiga olib kelmoqda.

Davrimizning yana salbiy belgilaridan biri shundaki, inson faoliyati ko'lamining miqyosi tobora biosferani to'la egallab, endilikda koinotga ham ta'sir eta boshladi.

Oziq-ovqat muammosi. Bugungi dunyo aholisi 7 millionga yetdi va uning soni ortib bormoqda. Tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining 2/3 qismi

doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqalarda ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan kamayib, 0,2 ga ni tashkil etmoqda. Holbuki, 1950-yilda bu ko'rsatkich 0,5 ga ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zaxiralarining o'sishini, bir tomondan, ishlana-digan yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan ekilayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi paytlarda hosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, o'tgan asrning 80-yillari oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishtirilgan mahsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qattiq zug'um natijasida erishildi. Juda ko'p yerlar bunday tazyiqqa dosh bera olmasdan ishdan chiqa boshladi. Bugungi kunda ana shu yerlarni tabiiy holatiga qaytarish uchun imkoniyat qolmadi.

Bunday tahlikali holatning sabablarini aholining tabiiy o'sishi nihoyatda tez sur'atlar bilan ko'paygani, ularning ish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi bilan tabiiy muhitning ekologik muvozanatini saqlash uchun yetarli mablag'ni topa olmayotganligidan izlash kerak.

Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni yo'qotish ham davrimizning eng chigal jahonshumul muammolari qatoridan o'rin oldi. Rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy texnologiya, ilg'or ishlab chiqarish malakasi va insoniyatning ilmiy-texnika yutuqlari sistemalashtirilgan bilimlar zaxirasi to'planib, shu bilan birga aholining tabiiy o'sish darajasining pastligi boshqa mamlakatlarga nisbatan o'z mamlakati aholisining iqtisodiy yashash tarzining beqiyos darajada yaxshilanishiga olib keldi. Bu mamlakatlarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning o'ziga xos tomonlari shundaki, mazkur mamlakatlarda industrilashtirish jarayoni o'tgan asrimizning 70-yillari boshidayoq tugallanib, eng avval AQSH, keyinchalik Germaniya, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish taraqqiyotining yanada yuqoriroq bosqichiga o'ta boshladi. Bunda ilmiy-

texnika yutuqlari ko'proq talabga mos va yuqori texnologiyani rivojlantirishga ko'p e'tibor berdi, tabiiyki, oqibatda juda katta foyda olina boshlandi. Bunday ishlab chiqarish jarayonida malakasiz yoki kam malaka va bilimga ega bo'lgan ishchi kuchlariga ehtiyoj keskin kamayib ketadi.

Bunda iqtisodiy taraqqiyot darajasi tabiiy resurslar yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-bilim, texnologiya, murakkab mashina va uskunalar bilan o'lchanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bu darajaga yetishish uchun bir qator jarayonlardan o'tgan.

Birinchidan, bu mamlakatlar tabiiy boyliklari hisobiga o'tirilgan milliy daromad miqdorining mamlakat aholisi jon boshiga tushadigan salmog'i keskin darajada ko'paydi.

Ikkinchidan, mamlakat aholisining tug'ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag'ni yuqori texnologiyani egallashda zarur bo'lgan mutaxassislar yetkazish uchun sarflash ko'zda tutildi.

Uchinchidan, ilmiy tadqiqot, oliy o'quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy manba sifatida qarab, birinchi darajali ahamiyat berildi. Chunki yuqori texnologiyani egallash yuqori malakali ilm egalarini tafaqqul qiladi. Ijtimoiy taraqqiyot darajasini belgilovchi eng asosiy omil — ilmiy tafakkur esa jamiyat a'zolarining ma'rifatlilik darajasini belgilab beradi. Bu sohada, butun jahon miqyosida fan va ta'limga 3–4% yalpi milliy mahsulotning miqdorida mablag' ajratilayotgan bir paytda, O'zbekistonda bu ko'rsatkich bir necha marta ko'p miqdorda ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug'diradi.

XX asrning so'nggi o'n yilligida ba'zi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy ko'rsatkich orasidagi tafovut tobora kuchayib bordi. Agar XX asrning 60-yillarida Hindistonda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50–70 dollarni tashkil etgan bo'lsa, Afg'onistonda 60–70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQShda 3600–3800 dollar bo'lgan. 1994 yilgi ma'lumotlarga muvofiq, yalpi milliy mahsulot jon boshiga Hindistonda 370 dollar, Afg'onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshda 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar,

Italiyada 14,8 ming dollar, AQShda 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo'lgan.

Demak, kambag'al davlatlarning kambag'allashishi yanada kuchayib bormoqda. Buning bosh sababchisi, shu mamlakatlardagi demografik jarayon ekanligi ta'kidlanmoqda. Aholining faqat miqdoriy o'sishining o'zi ko'r-ko'rona yaxshi yashash tarziga olib kelavermaydi. Buning uchun mamlakat aholisining e'tiqodi, milliy psixologiyasi, qadriyat va an'analarini hisobga olgan holda faol demografik siyosat olib borish zarur.

Demografik muammolar. XX asr o'zining bir qator belgilari bilan oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni «demografik portlash» davridir, degan qarashlar ham keng tarqalgan. Bunda qolgan barcha jahonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan yer yuzida aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi bilan bevosita bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. «Demografik portlash» tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qisqa bir davrida, muayyan mintaqa yoki mamlakatda va Shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tug'ilish hisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi.

Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766—1834-y.) ogohlantirgan edi. U o'zining «Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar» nomli kitobida aholining geometrik progressiya bo'yicha ko'payishini, uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik progressiya bo'yicha ro'y berishini aytgan edi. Maltus bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar masshtabda, tabiiy muhit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez sur'atlarda ko'payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Darhaqiqat, bundan 6—8 ming yillar oldin yer yuzida 5 mln. atrofida odamlar istiqomat qilishgan, deb taxmin qilinadi. Bu ko'rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1-ming yillikning oxiri 2-ming yillik boshlarida, ya'ni Beruniy zamonida 305 mln., 1500-yilda 440 mln., 1800-yilda 952 mln., 1900-yilda 1656 millionni, 2012-yilda esa 7 mln.ni tashkil etgan. XVI asr boshidan

XIX asr boshigacha, ya'ni uch asr mobaynida bu ko'rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900-yildan to 2016-yilgacha esa bu nisbat salkam 5 barobar oshganligini kuzatamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida yer yuzi mintaqalarida aholining tabiiy ko'payish sur'atlari turlicha bo'lib, bu o'z navbatida, Yer yuzida mintaqalar, mamlakatlar, xalqlar salmog'ining keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Masalan, 1800-yilda (Napoleon zamonida) Fransiya aholisi 27 mln. kishi — Yer yuzi aholisining 3 foizini tashkil etgan bo'lsa, Filippin orollarida yashayotgan aholi 1,6 mln. kishi miqdorida bo'lib, planeta aholisining umumiy salmog'iga nisbatan 0,16 foizni tashkil etardi. 1999-yil 13-oktabr kuni Yer yuzi aholisi olti milliardlik dovonni bosib o'tdi. Fransiya aholisi 56,2 mln.ni, Yer yuzi aholisi salmog'ining 0,94 foizini, Filippin aholisi ham 65 mln. kishini tashkil etib, jahon aholisidagi salmog'i (1,05%) bo'yicha Fransiyadan o'zib ketdi. Bu borada milliarddan ko'p aholi yashaydigan Xitoy va Hindiston alohida o'rin tutadi. Xullas, bu masala bir mamlakat doirasidan chiqib, jahon muammosiga aylandi. U bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun ham butun jahonda mushtarak faoliyat olib borish zarur.

Umumbashariy muammolar O'zbekistonni ham chetlab o'tgan emas. Albatta, mamlakatimizda sobiq ittifoqdan meros qolgan eng global muammo Orol fojiasi ekanligini bilamiz. Bu borada respublikamiz mintaqadagi davlatlar orasida ko'pdan-ko'p tashabbuslarni o'rtaga tashlab kelmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz aholisi ham muttasil o'sib bormoqda.

O'zbekiston o'z aholisi o'sishi bilan bog'liq masalalarni, aytish mumkinki, muvaffaqiyatli hal qilishga kirishdi. Keyingi paytlarda respublika hukumati inson sog'lig'ini muhofaza qilish, tug'ilgan har bir chaqaloq oldida ota va onaning, qolaversa, jamiyatning javobgarlik hissini oshirish borasida, Shuningdek, farzandning ota-ona va Vatan hamda xalqi oldidagi burchlarini chuqur anglashlari uchun juda katta ma'naviy rag'batlantiruvchi tadbirlar ishlab chiqqanligi o'ta muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda «Sog'lom avlod» jamg'armasining tuzilishi, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi ham fikrimizning dalili bo'ladi.

Bugungi kunda ajdodlarimizning o'z Vatani, tabiiy muhitga mehr-muhabbatli bo'lish kabi muqaddas tuyg'ulari avlodlardan-avlodga meros bo'lib o'tayotganligi bejiz emas. Zero ona Vatanimiz Yer yuzining eng obod va ozod go'shalardan biriga aylanishi shuk-shubhasizdir.

Tayanch iboralar: umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy muammolar tushunchalari; energetika masalalari, oziq-ovqat muammosi, demografiya; ekologiya; ekologik tanazzul; ekosistema; demografik siyosat.

Takrorlash uchun savollar

1. Umumbashariy muammolarning vujudga kelish sabablari ulmada?
2. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning sotsial oqibatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?
3. Energetika va oziq-ovqat muammosi.
4. Urush va tinchlik muammosi. Jahonda barqarorlikni ta'minlash masalalari.
5. Umumbashariy muammolarda demografik omilning o'rnini qanday?

IKKINCHI BO'LIM. MANTIQ FALSAFASI (LOGIKA)

10-mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari.

Tushuncha tafakkur shakli sifatida

Mantiq ilmi o'rganadigan masalalar va uning asosiy qonunlari. Mantiq ilmi jamiyat tarixida ikki ming yildan ko'proq davr mobaynida o'rganib kelinadi. Uni o'rganish insonga olamni bilish, bilimlarini ko'paytirish, atrofidagi odamlar bilan muloqotini to'g'ri tashkil qilish uchun xizmat qiladi. Fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan inson to'g'ri tafakkur shakllari va ular bilan bog'liq qonun-qoidalarini bilib olar ekan, o'z fikrini mantiqan to'g'ri qurishga, asoslangan bo'lishiga, nafaqat o'zining balki boshqalarning ham fikrlaridagi noaniqliklarni aniqlashga va tuzatishga o'rganadi. Bu ish uzoq tarixga ega bo'lgan mantiq ilmini chuqur bilishni taqozo etadi.

Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi Qadimgi Yunon faylasufi Aristotel (er. av. 384–322-yy.) nomi bilan bog'liq. U birinchi bo'lib, ushbu ilm o'rganadigan masalalar doirasini aniqlab berdi. Aristotelning «Kategoriyalar», «Talqin haqida», «Birinchi analitika», «Ikkinchi analitika», «Sofistik raddiyalar haqida» nomli asarlari bevosita mantiq masalalariga bag'ishlangan. Uning «Ritorika», «Poetika» asarlari ham mantiqiy ta'limotining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. «Metafizika», «Ruh haqida» asarlarida esa mantiq masalalari ma'lum darajada bayon qilingan. Aristotel o'z ta'limotini «logika» emas, «analitika» deb atagan. Logika termini er.av. III asrdan boshlab, fanni ifodalovchi termin sifatida qo'llanila boshlagan.

«Mantiq» so'zi yunon tilidagi «logika» so'zining arabcha tarjimasidir. «Logikos» – so'z, aql, aql yuritish, qonun ma'nolarini beruvchi keng qamrovli termindir. «Mantiq» istilohining qamrovi ham «logos»niki kabi bo'lib, uning o'zagi «so'zlashuv» ma'nosini beradigan «nutq» so'zidir¹.

Biz «mantiq» istilohini fanni ifodalash uchun qo'llaymiz. Mantiq shakllari orasida quyidagilar muhim o'rinni egallaydi:

¹ Muhammad Fazlul-imom Xayriobodiy. Mirqotul mantiq. – T.: Toshkent islom universiteti, 2011. 3-bet.

Formal mantiq — mulohazalar va isbotlashning strukturasi analiz qilish, o'rganish bilan shug'ullanuvchi fan bo'lib, unda asosiy e'tibor mazmunga emas, shaklga qaratiladi.

Noformal mantiq (informal logic) — tabiiy tilda argumentlashni qurish va baholashning noformal standartlarini, uni talqin qilishning usullari va mezonlarini ishlab chiquvchi normativ fandır.

Nazariy mantiq — muayyan bilimlarning mantiqiy sistemasi yoki mantiqiy nazariyalar yig'indisi bo'lib, ular tabiiy va maxsus formallashgan (sun'iy) til vositasida, ma'lum bir prinsip va aksiomalarga asosan qurilgandır.

Amaliy mantiq — 1) insonlarning tabiiy tafakkurlash jarayonini; 2) nazariy mantiqdan konkret holatlarda foydalanishni, ya'ni dalillash va rad etishni; 3) faoliyat mantig'i, qaror qabul qilish mantig'i, tanlash mantig'i, evristika, prakseologiya, konfliktologiya va boshqa shu turdagi mantiqiy nazariyalar va tadqiqotlarni ifodalaydi.

Eramizdan avvolgi IV asrdan boshlangan va XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida yakunlangan (formal) mantiq rivojlanishining birinchi bosqichi **an'anaviy (klassik) mantiq** deb ataladi. An'anaviy mantiq to'g'ri tafakkurlashni asosan tabiiy tilga tayangan holda o'rgangan.

Noan'anaviy (noklassik) mantiq — klassik mantiqni tanqid qilish va takomillashtirish bilan birga, uni mukammallashtirish, to'ldirish va undagi zamonaviy mantiqning asosini tashkil etuvchi g'oyalarni yanada rivojlantirish natijasida vujudga kelgan mantiqiy nazariyalarning majmuyidir.

Zamonaviy mantiq atamasi XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida mantiq ilmi rivojining hozirgi bosqichini ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu bosqich yana matematik mantiq va simvolik mantiq terminlari bilan ham ataladi. **Matematik mantiq** terminining qo'llanishi uning zamonaviy mantiq bilan qo'llaydigan usullariga ko'ra o'xshashliklarini bildiradi. «Simvolik mantiq» termini esa zamonaviy mantiqda mantiqiy tahlil qilish maqsadida maxsus yaratilgan formallashgan tillar qo'llanishini ko'rsatadi.

Biz formal mantiqni o'rganamiz. **Formal mantiqning o'rganish predmetini** quyidagilar tashkil etadi:

– tafakkurlash shakllari, ularning tabiati va ularning tuzilmasi (strukturasi) bilan bogʻliq qonuniyatlari;

– fikrlar oʻrtasidagi aloqalarning qonunlari;

– bu qonunlarning buzilishi bilan bogʻliq boʻlgan xatolar.

Tafakkur va uning xususiyatlari. Tafakkur bilishning yuqori bosqichi ratsional (lotincha ratio – aql) bilish boʻlib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular oʻrtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, yaʼni qonuniy bogʻlanishlar aks ettiriladi.

Aqliy bilish, tafakkurlash voqelikni abstraktlashgan (mavhumlashgan) va umumlashgan holda aks ettiradi. Tafakkurlash til bilan uzviy aloqada, yaʼni til fikrning voqe boʻlish shakli hisoblanadi. Sharq mutafakkirlari tilga katta eʼtibor berganlar.

Tafakkur (aqliy bilish) hissiy bilish bilan uzviy bogʻliq. Tafakkur yordamida buyum va hodisalarning mohiyatini tushunishga erishiladi.

Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, yaʼni tushuncha, mulohaza va xulosa chiqarish hamda ular oʻrtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, maʼlum mantiqiy qonun-qoidalarni vujudga keltiradiki, toʻgʻri, aniq, izchil, ziddiyatlardan xoli fikrlash ana shu qonun-qoidalarga amal qilishni taqozo etadi. Bu qonun-qoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlash yoki rad etish, ularning toʻgʻriligi yoki xatoligini tasdiqlash yoxud inkor etishga xizmat qiladi.

Tafakkur qonunlari. Inson bilish jarayonida buyum va hodisalar, ularning sifat, xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qiladi, fikr-mulohaza yuritadi, ularni mantiqiy bogʻlab, xulosalar hosil qiladi. Bu jarayonni tushunish uchun tafakkur shakli va tafakkur qonuni nima ekanligini bilib olish zarur.

Tafakkur qonunlariga amal qilish toʻgʻri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli boʻlish va asoslanganlik toʻgʻri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar boʻlganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida koʻrib chiqamiz.

Ayniyat qonuni. Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati Ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A—A» formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba'zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Tilda mavjud bo'lgan omonim va sinonim so'zlarning qo'llanishi ham ba'zan turli fikrlarning o'zaro aynanlashtirilishi-ga, ya'ni noto'g'ri muhokamaga olib keladi. Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo'lsa ham raqibini aldash va yutib chiqish maqsadida Ayniyat qonuni talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi, ularning ta'limoti esa sofistika deyiladi.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan askiya san'atida Ayniyat qonuni talabining ataylab buzilishini so'zlarning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda qo'llanishini kuzatish mumkin. Bu o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, unda qo'llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo'ladi. Aytish mumkinki, hayotda, amaliyotda tushunchalarning turli ma'nolarda qo'llanilishi g'arazli yoki beqaraz, yaxshi yoki yomon maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi.

Nozidlik qonuni. Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'lishi bilan birga, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafak-

kuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligi, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, yolg'on bo'lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham B ham B emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo'llanadi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda yolg'on bo'lishi mumkin; o'zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda yolg'on bo'lmaydi, ulardan biri yolg'on bo'lsa, ikkinchisi albatta chin bo'ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo'lmaydi, ya'ni ulardan birining yolg'onligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: «Aristotel — mantiq fanining asoschisi» va «Aristotel — mantiq fanining asoschisi emas» — bu o'zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda yolg'on bo'lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo'lganligi uchun, ikkinchisi yolg'on bo'ladi. O'zaro qarama-qarshi bo'lgan «Bu qog'oz oq rangda» va «Bu qog'oz qora rangda» mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda yolg'on bo'lishi mumkin. Chunki qog'oz oq ham, qora ham bo'lmasligi, balki sariq, qizil yoki boshqa rangda bo'lishi mumkin.

Ba'zida ikki qarama-qarshi fikr aytilganda mantiqiy ziddiyat bo'lmasligi mumkin. Bunda bir masala yuzasidan bayon qilingan qarama-qarshi fikrlar turli vaqtda va turli nisbatda aytilgan

to'ladu. Masalan: «Akmal musobaqada qatnashmadi» va «Akmal musobaqada qatnashdi». Bu mulohazalar turli vaqtga nisbatan (bir oy avval yoki keyin), turli munosabatda (suzish yoki shaxmat bo'yicha) bayon qilingani tufayli bir-birini inkor etmaydi. Demak, fikrlash jarayonida vaqt, munosabat va obyekt birligining saqlanishi Nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni taqiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Formal mantiq mantiqiy ziddiyatlar bilan real hayot ziddiyatlarini chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ziddiyat bo'lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi subyektiv, ikkinchisi obyektiv ziddiyatdir.

Uchinchisi — istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab olib, bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi yolg'on, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligini ifodalaydi.

Bu qonun fikrlar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agar da zid munosabatlar fikrning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda «Uchinchisi — istisno» qonuni amal qilmaydi.

Istisno qonuni quyidagi holatlarda qo'llanadi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid fikr bildirilganda. Masalan:

Toshkent — O'zbekistonning poytaxti.

Toshkent — O'zbekistonning poytaxti emas.

2. Son va sifatiga ko'ra o'zaro zid mulohazalar bayon qilinganda, buyum va hodisalarning sinfi haqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan, shu sinf buyum va hodisalar ning bir qismi haqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi yolg'on, uchinchisiga o'rin bo'lmaydi.

Masalan:

Hamma san'atkorlar qo'shiqchidir.

Ba'zi san'atkorlar qo'shiqchi emas.

Bu ikki mulohaza bir vaqtda chin ham, yolg'on ham bo'la olmaydi. Ulardan biri (**Ba'zi san'atkorlar qo'shiqchi emas**) albatta chin, ikkinchisi yolg'on, uchinchi mulohazaga o'rin yo'q.

Demak, **Uchinchisi – istisno qonuni:**

1. **Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.**

2. **Umumiy tasdiq va juziy inkor etuvchi mulohazalarga nisbatan.**

3. **Umumiy inkor va juziy tasdiq mazmunidagi mulohazalarga nisbatan qo'llanadi.**

«Uchinchisi – istisno» qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, obyekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar yetadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

«Uchinchisi – istisno» qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki yolg'onligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o'z bilimlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki yolg'on ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Yetarli asos qonuni. To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri asoslilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun uni asoslash, isbotlashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. **Tafakkurning** bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun

yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak.

Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Shunday qilib, to'g'ri tafakkurning yuqorida ko'rib o'tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Bu qonunlarning talablari bir-birini to'ldirgan holda mantiqiy tafakkurning chin bo'lishini ta'minlaydi.

1. Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari

Tushuncha tafakkur shakllaridan biri sifatida til orqali ifodalanadi. Tushunchaning mohiyatini bilish uchun uning nom va so'z bilan qanday bog'liqligini aniqlab olamiz.

Inson buyum va hodisalar haqida tushunchaga ega bo'lish uchun ularning nomlarini bilishi zarur. Olamdagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlarning, voqea va hodisalarning nomi bor. Nomlar bilish va muloqotning zaruriy vositasidir. Buyum va hodisalar-ning nomi tilni mavjud voqelik bilan bog'lab turadi. Faraz qiling, olamdagi hech bir narsaning nomini bilmasak, ular haqida tushunchaga ega bo'lishimiz, fikr yuritishimiz mumkinmi?

Nom nima? U tushuncha bilan aynanmi? Nom alohida predmetni yoki predmetlar guruhini belgilovchi til ifodasidir. Masalan: «Amur Temur» so'zi temuriylar davlatining asoschisi bo'lgan buyuk bobokalonimizning nomini bildiradi; «o'qituvchi» so'zi bilim beruvchi insonni, «qizil» so'zi esa barcha buyumlardagi qizil rangni ifodalaydi. Buyum va hodisalarga inson nom qo'yadi va nom tufayli ular haqida tushunchaga ega bo'ladi. Bundan

ma'lum bo'ladiki, nom til ifodasi bo'lsa, tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha buyum va hodisalarning umumiy, muhim va farq qiluvchi belgilarini bir butun, yaxlit holda aks ettiruvchi tafakkur shaklidir. Buyum va hodisalarning belgilari muloqot va fikr yuritish jarayonida biror predmetning vakili sifatida xizmat qiladigan belgilardan farq qiladi. Buyum va hodisalarning belgilari predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi xususiyatlar va munosabatlarni ifodalovchi belgilardir. Masalan, savdo-sotiq bilan shug'ullanish faqat insonga xos belgidir. Boshqa tirik mavjudotlar bunday faoliyat bilan shug'ullanmaydilar.

Buyum va hodisalarning belgilari umumiy, muhim, farq qiluvchi turlarga bo'linadi. Bir sinfga mansub bo'lgan hamma predmetlarga xos bo'lgan belgilar – umumiy belgilardir. Insonlar sinfi uchun qaddini tik tutib yurish, kulish va boshqa shunday belgilarga misol bo'ladi. Biror belgining o'zgarishi yoki yo'q bo'lishi tushunchaning ham o'zgarishi yoki yo'q bo'lishiga olib keladigan belgi muhim hisoblanadi. Inson uchun aqllilik (tafakkur qilish) muhim belgidir. Farq qiluvchi belgi predmetni o'ziga o'xshash boshqa predmetlar orasidan tanib olishga imkon beruvchi belgidir. Masalan, har bir inson o'ziga xos individual belgilari bilan boshqalardan ajralib turadi. Demak, tushuncha ma'lum belgilariga ko'ra bir to'plamga birlashgan predmetlarning birligini ifodalaydi.

Tushuncha so'z bilan uzviy bog'liq. Ular o'rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o'rtasidagi bog'lanishning konkret tarzda namoyon bo'lishidir. Tushunchalar so'z (talaba, universitet, qog'oz) va so'z birikmalari (O'zbekiston Milliy universitetining talabasi, O'zbekiston Milliy universiteti, rangli qog'oz) yordamida ifodalangani. Lekin buandan tushuncha va so'z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Ba'zi so'zlar (ammo, Chunki, uchun va h.k.) hech bir tushunchani ifodalamasligi ham buning sabablaridan biridir. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba'zan bir tilda ham turli xil so'zlar bilan ifodalanadi. Tildagi omonim va sinonim so'zlarning mavjudligi esa so'z va tushunchaning aynan

emasligidan dalolat beradi. Ayrim soʻzlarning koʻp maʼnoliligi baʼzan tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shu sababdan kundalik hayotda qoʻllanadigan til bilan ilmiy til bir-biridan farq qiladi. Ilmiy til tabiiy til, sunʼiy til va maxsus termin (atama)lardan tashkil topadi.

Termin (atama) ilmning har bir sohasida predmetlarni belgilash uchun faqat bir maʼnoda qoʻllaniladigan soʻz yoki soʻz birikmasidir. Ilmiy tilda termin va tushuncha bir maʼnoda qoʻllanadi.

Tushuncha va soʻz shakllanishiga koʻra ham bir-biridan farqlanadi. Soʻzning shakllanishida soʻz yasovchi qoʻshimchalar ishtirok etadi. Shuningdek, oʻzlashtirma (boshqa tillardan kirib kelgan) soʻzlar ham milliy tillarda yangi soʻzlarning shakllanishiga sabab boʻladi. Tushuncha esa quyidagi mantiqiy usullardan foydalangan holda hosil qilinadi:

Taqqoslash usulida predmetlarning sifat va xususiyatlari oʻzaro solishtirilib, tushuncha hosil qilinadi.

Analiz – tahlil yordamida predmet uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga fikrda ajratilib, har qaysinisi haqida alohida tushuncha hosil qilinadi.

Sintez usulida tahlil davomida ajratilgan qismlar, tomonlar fikran birlashtirilib, predmet haqida tushuncha hosil qilinadi.

Abstraksiyalash, yaʼni mavhumlashtirish usuli yordamida predmetning sifat, xususiyatlari fikran ajratib olinib, tushunchada ifodalalanadi.

Umumlashtirish usulida predmetlar umumiy, muhim xususiyatlariga koʻra sinflarga birlashtirilib, tushuncha hosil qilinadi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi. Tushunchaning turlari. Har bir tushuncha muayyan hajm va mazmunga ega. Tushunchaning hajmi unda fikr qilinayotgan predmetlar yigʻindisini aks ettiradi. Masalan, «orol» tushunchasining hajmi Yer yuzidagi mavjud barcha orollarni oʻz ichiga qamrab oladi. Tushunchani ifodalovchi soʻzda koʻplik qoʻshimchasi «lar» boʻlmasa ham, u umumiy hajmga ega boʻlishi mumkin. Masalan, inson, uy, davlat tushunchalari kabi.

Hajmiga ko'ra yakka va umumiy, ayiruvchi va to'plovchi, Shuningdek bo'sh hajmli tushunchalar farqlanadi:

Hajmiga ko'ra tushuncha turlari	Misollar
Yakka tushunchaning hajmida bit-ta predmet fikr qilinadi.	«O'zbekiston Respublikasi», «Ko'kaldosh madrasasi».
Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. Umumiy tushunchalarni aks ettiruvchi predmetlarning miqdori sanaladigan va sanalmaydigan bo'lishi mumkin.	Inson, stol, shoir – sanalmaydigan umumiy tushunchalar. XIX asr o'zbek shoiralari, Nobel mukofotini olganlar – sanaladigan umumiy tushunchalar.
Ayiruvchi tushuncha shunday sinf (umumiy) tushunchasiki, unda aks etgan belgilar shu sinfning har bir predmetiga xosdir.	Fan, non.
To'plovchi tushuncha ham sinf (umumiy) tushunchasi bo'lib, u aks ettirgan belgilar shu sinfni (umumiylikni) tashkil etuvchi har bir predmetga taalluqli bo'lmaydi.	Qo'shin, o'rmon.
Bo'sh hajmli tushuncha real voqelikda mavjud bo'lmagan, lekin tushunchada ifodalanadigan buyum va hodisalarni aks ettiradi.	Uchar gilam, kentavr, simob dengizi.

Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari to'g'risidagi axborot tashkil etadi. Masalan, «imij» tushunchasining mazmunini – odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot yoki boshqa ijtimoiy obektga mos keladigan, idrok etilayotgan obyekt haqidagi axborotni o'zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvorga da'vat etadigan muayyan sintetik obraz haqidagi ma'lumot tashkil qiladi.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar olti turga (konkret, abstrakt, musbat, manfiy, nisbatdosh, nisbatsiz) bo'linadi:

Mazmuni bo'yicha tushunchalarning turlari	Misollar
Konkret (aniq) tushunchalarda predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi.	«uy», «guldon», «traktor»
Abstrakt (mavhum) tushunchalarda predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi.	«oq», «bosim», «qo'rquv»
Musbat (ijobiy) tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lgan belgilar orqali fikr qilinadi.	«aqlli», «uyli», «hunarmand»
Manfiy (salbiy) tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi.	«aqlsiz bola», «hayosiz odam», «kuchsiz jangchi», «foydasiz ish»
Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan, biri orqali boshqasini bilish mumkin bo'lgan predmetlarni yoki ularning belgi va xususiyatlarini aks ettiradi.	«ustoz va shogird», «qattiq va yumshoq», «sevinch va qayg'u»
Nisbatsiz tushunchalar zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qilmaydigan, nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi.	«ustoz va shogird», «qattiq va yumshoq», «sevinch va qayg'u»

Mazmuni noaniq tushunchalar. Kundalik hayotda va ilmiy bilishda qo'llaniladigan shunday tushunchalar bor-ki, ularning mazmunini aniqlab bo'lmaydi. Buning bir necha sabablari bor:

1. Voqelikdagi buyum va hodisalar, ularning xususiyatlari ko'p qirrali va murakkabdir. Masalan, «sevgi», «haqiqat» shunday tushunchalar jumlasidandir. Bu tushunchalarni har bir inson o'zicha talqin qiladi.

2. Olamdagi barcha narsa va hodisalar doimiy o'zgarishdadir. Ba'zan bu o'zgarishlarning vaqt chegarasi noaniq bo'ladi. Masalan, «yosh yigit», «qari odam» tushunchalarida «qachondan boshlab?» «qay vaqtgacha?» kabi savollarga aniq javob bo'lmagani uchun, bu tushunchalarning mazmuni noaniqdir.

3. Odamlar bir xil bo'lgan obyektlarni har xil baholaydilar. Masalan, «zerikarli film», «qiyin vazifa», «yoqimli kuy» va h.k. Shunday tushunchalarga nisbatan «nima uchun?» degan savolni

qo'ysak, hamma har xil javob beradi, natijada bu kabi tushunchalarning aniq mazmunini bilib bo'lmaydi, lekin tasavvur qilish mumkin. Bunday tushunchalar ilmiy adabiyotlarda yoki normativ hujjatlarda qo'llanilganda ularning mazmuni qat'iy aniqlab olinadi. Masalan, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi dasturda «yoshlar», «yosh oila», «yosh mutaxassis» kabi tushunchalarning mazmuni qat'iy belgilangan¹.

Tushunchalarning mazmuni va hajmiga ko'ra turlarini bilish fikrlash jarayonidagi noaniqliklarni bartaraf etishga, fikrni aniq va to'g'ri bayon qilishga yordam beradi. U yoki bu tushunchaning mazmuni va hajmiga ko'ra qaysi turga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish deyiladi. Masalan:

Universitet – umumiy sanaladigan, to'plovchi, aniq, musbat, nisbatsiz tushuncha.

Kentavr – bo'sh hajmli, aniq, musbat, nisbatsiz tushuncha.

Bilimsiz – umumiy sanalmaydigan, mavhum, manfiy, nisbatdosh tushuncha.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik teskari nisbat qonunida ifodalanadi. Bu qonunga ko'ra tushunchaning hajmi keng bo'lsa, uning mazmuni tor bo'ladi va aksincha, tushunchaning hajmi tor bo'lsa mazmuni keng bo'ladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuni tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

2. Tushunchalar o'rtasida munosabatlar

Avval ko'rib o'tganimizdek, tushunchalar hajmiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ba'zilarining hajmi keng, boshqalariniki tor, ba'zilarining hajmi boshqalarining hajmiga kiradi va h.k. Shuningdek, mazmuniga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan («talaba» va «hunarmand») yoki juda uzoq bo'lgan («qalam» va «tog'») tushunchalar ham bor. Mazmuni biror umumiylikka ega bo'lgan tushunchalarni o'zaro taqqoslash mumkin, mazmuni bir-birdan

¹ Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. /O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 34-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda.

uzoq bo'lgan tushunchalarni esa taqqoslab bo'lmaydi. Aytish mumkinki, ba'zi tushunchalar mazmuni va hajmiga ko'ra yaqin bo'lsa, boshqalari uzoq bo'ladi.

Umumiy belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalarga taqqoslanadigan tushunchalar deyiladi. Masalan, «kvadrat» va «romb», «muhandis» va «olim» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'p hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiy belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalar taqqoslanmaydigan tushunchalardir. «Planeta» va «daraxt», «baxt» va «non» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar hisoblanadi. Taqqoslanmaydigan tushunchalarni taqqoslash albatta fikrning xato bo'lishiga, noto'g'ri xulosalarga olib keladi. Noto'g'ri, xato fikr xatti-harakatlarning ham noto'g'ri bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, «baxt» va «qimmatbaho taqinchoq» tushunchalarini taqqoslab bo'lmaydi. Shuning uchun insonning baxtli yoki baxtsiz bo'lishi uning qimmatbaho taqinchoqqa ega ekanligiga bog'liq emas.

Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar o'rganiladi. Taqqoslanadigan tushunchalar hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi. Hajmi umumiy elementlarga ega bo'lgan tushunchalar sig'ishadigan tushunchalar bo'lib, ularning hajmi bir-biriga butunlay, to'laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o'rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo'ysunish.

Moslik munosabati	A – A.Navoiy. B – «Mahbub ul-qulub» asarining muallifi. A=B
Qisman moslik munosabati	A – deputat. B – huquqshunos.
Bo'ysunish munosabati	A – tarix. B – O'zbekiston tarixi

Sig'ishmaydigan tushunchalar hajmi jihatidan umumiylikka ega bo'lmagan tushunchalardir. Bu tushunchalar o'rtasida ham uch xil: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik munosabatlari mavjud.

Birga bo'ysunish munosabati	A – shifokor B – kardiolog C – endokrinolog
Qarama-qarshilik munosabati	A – ta'm B – achchiq C – shirin A
Zidlik munosabati	A – urush. B – adolatti urush.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni bilish ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, aloqadorlik tomonlarini topishga yordam beradi. Masalan, «talaba» va «yoshlar yetakchisi» tushunchalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Ba'zi talabalar yoshlar yetakchisidir» degan mulohazani hosil qilish mumkin.

3. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish. Tushunchani **chegaralash** – jins (hajmi keng) tushunchadan tur (hajmi tor) tushunchaga fikran o'tishdan iborat. Tushuncha chegaralanganda jins tushunchaning mazmuniga tur tushunchani hosil qiluvchi belgilar qo'shiladi. Masalan:

Inson → ayol → o'zbek ayoli → o'zbek shoirasi → shoira
Uvaysiy. Chegaralash amali yakka tushunchada to'xtaydi.

Tushunchani umumlashtirish tur (hajmi tor) tushunchadan jins (hajmi keng) tushunchaga fikran o'tishdan iborat. Bunda berilgan tushuncha tur tushuncha deb qabul qilinib, uning mazmunidan tur hosil qiluvchi belgilar chiqarib tashlanadi. Natijada, mazmun jihatidan unga nisbatan torroq, lekin hajmiga ko'ra kengroq bo'lgan jins tushuncha hosil bo'ladi. Masalan: Olma daraxti → mevali daraxt → daraxt → o'simlik.

Umumlashtirish amali eng umumiy tushuncha – kategoriyaalarda to'xtaydi.

Tushunchani chegaralash va umumlashtirish amallari ilmiy tafakkulda va kundalik turmushda keng qo'llaniladi.

Ta'riflashning strukturalari	<p>Aniqlanuvchi qism – mazmuni ochib berilishi lozim bo'lgan tushuncha.</p> <p>Aniqlovchi qism – aniqlanuvchi tushunchaning mazmunini ochib beruvchi tushunchalar.</p>
Ta'riflashning turlari	
<p>Nominal ta'rif – predmetni ifodalovchi tushunchaning ma'nosini aniqlovchi ta'rif.</p>	
<p>Aniq real ta'rif – predmetning muhim belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash.</p>	<p>Aniq real ta'rifning 2 turi mavjud:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yaqin jinsi va tur belgisini ko'rsatish orqali ta'riflash. 2. Genetik ta'rif.
<p>Noaniq real ta'rifda tushunchaning mazmuni yordamchi vositalar orqali ochib beriladi.</p>	<p>Noaniq real ta'rifning 3 turi mavjud:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Aksiomatik ta'rif. 2. Kontekstual ta'rif. 3. Induktiv ta'rif.
Ta'riflashning qoidalari	
<ol style="list-style-type: none"> 1. Ta'rif teng hajmli bo'lishi kerak, ya'ni aniqlanuvchi va aniqlovchi tushunchalarning hajmlari o'zaro teng bo'lishi shart. 2. Ta'rif aniq bo'lishi kerak, unda obrazli iboralar, mazmuni noaniq so'zlar ishlatilmasligi kerak. 3. Ta'rif aylana shaklida bo'lib qolmasligi kerak, ya'ni aniqlovchi tushunchaning mazmunini aniqlash uchun aniqlanuvchi tushunchaning o'ziga murojaat qilish mumkin emas. 4. Ta'rif iloji boricha inkor shaklida bo'lmasligi kerak. 	

Tushunchalarni ta'riflash (definitsiya). Har bir inson hayoti davomida tushunchalarning aniq ta'riflanishiga ehtiyoj sezadi, tushunchaning ta'rifiga asoslanib bilimga ega bo'ladi, voqea va hodisalarga nisbatan o'z munosabatini belgilaydi. Masalan, Majid Navoiyning: «Sahiylik – bu (biror narsani) boshqa kishiga hech

qanday yomonlikni niyat qilmay va tamagirlikni o'ylamay hamda shu narsaning qaytarilishiga umid bog'lamay tuhfa qilishdir», – degan fikrini o'qib, sahiylik tushunchasining mazmunini bilib olamiz. Tushunchaning mazmunini aniqlash, unga ta'rif berish demakdir.

Ta'riflash – **definitsiya** tushunchaning mazmunini ochib beruvchi mantiqiy amaldir.

Ta'riflashga o'xshash mantiqiy usullar:

1. **Tushunchani** unga qarama-qarshi bo'lgan tushuncha orqali ta'riflash.
2. **Tasvirlash** – tushunchaning mazmunini u aks ettiruvchi predmetning ba'zi tashqi belgilarini ko'rsatish orqali aniqlash.
3. **Tavsiflash** – predmetning ba'zi bir munosabatdagi muhim tur belgilarini ko'rsatish.
4. **Ko'rsatish** (ostensiv ta'riflash) – predmetning o'zini yoki suratini ko'rsatish orqali ta'riflash.
5. **Misol keltirib ta'riflash.** Bunda ta'riflanayotgan predmetning mazmuni uni boshqa predmetga o'xshatish, tafovutlash orqali aniqlanadi.

Biz kundalik hayotda va ilmiy bilishda qo'llaydigan tushunchalarning ta'riflari yuqoridagi usullar orqali hosil qilingan.

Har bir fan doirasida qo'llaniladigan atamalar qat'iy ta'riflangan bo'lib, ilmiy jamoat tomonidan qabul qilingandir. Bu ta'riflarni subyektiv xohishga ko'ra o'zgartirish mumkin emas. Kundalik hayotda qo'llaniladigan tushunchalar ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, insonning yoshi, shaxsiy tajribasi, bilimi, dunyoqarashi, ruhiy holati va boshqalar ta'sirida o'zgarib turadi. Shu bois odamlar bir-birlarini tushunmasliklari, bir hodisaga nisbatan turli nuqtayi nazardan yondashishlari mumkin. Bunday holatlarda tomonlar avvalo bahsga sabab bo'layotgan tushunchalarning mazmunini, ya'ni ta'rifini aniqlab olishlari zarur.

Tushunchalarni bo'lish.

Har bir inson atrofidagi odamlar, voqea-hodisalar, buyumlar va boshqalarga o'z munosabatini belgilar ekan, ularni toifalarga, qismlarga, turlarga bo'ladi. Bunday bo'lish uning tushunchalar olamida amalga oshadi. Inson fikr yuritish jarayonida tushunchalarni turli asoslarga ko'ra bo'ladi.

Tushunchani bo'lish. deb, tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlarga (ayrim predmetlarga) ajratish yo'li bilan aniqlashga aytiladi.

Bo'lishning strukturalari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Bo'linuvchi tushuncha – hajmi aniqlanishi lozim bo'lgan tushuncha. 2. Bo'lish asosi – predmetning tushunchada fikr qilinadigan birorta umumiy belgisi. 3. Bo'lish a'zolari – bo'lish natijasida hosil qilinadigan tur tushunchalar.
Bo'lishning turlari	
1. Asos bo'lgan belgining o'zgartirishiga qarab bo'lish	Masalan: Burchaklar – to'g'ri, o'tkir va o'tmas burchaklarga bo'linadi.
2. Dixotomik bo'lish	Masalan: Burchaklar o'tkir yoki o'tkir bo'lmagan turlarga bo'linadi.
Tushunchalarni bo'lish qoidalari.	
<ol style="list-style-type: none"> 1. Bo'lish teng hajmli bo'lishi, ya'ni bo'lish a'zolari hajmining yig'indisi bo'linuvchi tushuncha hajmiga teng bo'lishi shart. 2. Bo'lish bir asos bo'yicha amalga oshirilishi shart, ya'ni asos qilib olingan belgi bo'lish davomida o'zgartirilmayligi zarur. 3. Bo'lish a'zolari hajmi bo'yicha bir-birini istisno qilishi shart. Ular o'zaro birga bo'ysunish munosabatida bo'lishi zarur. 4. Bo'lish uzluksiz amalga oshirilishi, ya'ni jins tushunchaga eng yaqin bo'lgan bir tartibdagi tur tushunchalar olinishi shart. 	

Tasniflash (turkumlash, klassifikatsiya) tushunchalarni bo'lishning o'ziga xos turi bo'lib, unda bo'lish izchillik bilan amalga oshiriladi va bo'lish a'zolarining har biri yana boshqa bo'linmalarga ajratiladi. Bunda bo'lish a'zolarining har biri boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qat'iy o'rniga ega bo'ladi. Tasniflash natijalari har xil jadvallar, kataloglar va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Tasniflash predmetlarning muhim belgisiga ko'ra amalga oshirilsa, **tabiiy tasniflash** deyiladi. Tabiiy tasniflash predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy

bog'lanishlarini aniqlash imkonini beradi. Mendeleev tuzgan kimyoviy elementlarning davriy jadvali tabiiy tasniflashning klassik namunasi.

Sun'iy tasniflash predmetlarning birorta nomuhim, umumiy belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Kutubxonadagi kitoblar katalogi, lug'atlarda so'zlarning muayyan tartibda berilishi sun'iy tasniflashga misol bo'ladi. Sun'iy tasniflash bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Tasniflashda ham tushunchani bo'lish qoidalariga amal qilish zarur. Tasniflar bilish va kundalik turmush jarayonida uzoq yillar davomida ishlatiladi, mavjud bilimlarimizni tizimga solish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Fikr yuritishda tushunchalar bilan bog'liq xatoliklar

Fikrning to'g'ri qurilishi va xatosiz, ya'ni chin bo'lishi tushunchalarni o'z o'rnida, faqat bir ma'noda qo'llashga bog'liq. Tushunchalarni noto'g'ri qo'llash fikr mazmunining o'zgarib ketishiga va turli mantiqiy xatolarga olib keladi.

Quyidagi holatlarda tushuncha noto'g'ri qo'llanilgan hisoblanadi:

1. Bir tushuncha bir necha ma'noda qo'llanilsa (yulduz – ism, mashhur inson, koinotdagi jism).

2. Tushuncha o'z ma'nosida qo'llanilmasa (uchar yigit, tulki-ayyor inson).

3. Tushunchada predmetga xos bo'lmagan belgilar qayd etilsa (jimsiz jism, temir odam, kulayotgan fil, bir asrda uch yuz yil yashagan odam).

4. Urg'u noto'g'ri qo'yilsa ham tushunchaning ma'nosi o'zgarib, fikrda noaniqlik vujudga keladi.

Tushunchalarni qo'llash bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Fikrlash jarayonida har bir tushuncha faqat bir ma'noda qo'llanishi shart.

2. Tushunchaning ma'nosi noaniq bo'lsa, savol berib uni aniqlab olish zarur.

3. Ko'chma ma'noda qo'llanilgan tushunchalarni aynan siz nodungan ma'noda qo'llanilganini aniqlab olish shart.

4. Tushuncha ifodalagan predmetga xos belgilarni to'liq bilish shart.

Tayanch tushunchalar: aql, tafakkur, mantiq, tafakkur shakli, tafakkur qonuni, nom, termin, tushuncha, oddiy tushuncha, murakkab tushuncha, jins, tur, tushunchani chegaralash, tushunchani umumlashtirish, tushunchani ta'riflash, tushunchani ba'lish.

Takrorlash uchun savollar

1. Bilish jarayoni qanday amalga oshadi?
2. Tafakkur nima va u qanday xususiyatlarga ega?
3. Mantiq atamasi qanday ma'nolarni ifodalaydi?
4. Fikrdagi izchillik deganda nimani tushunasiz?
5. Tafakkur qonunlarini bilmasdan ham to'g'ri fikrlash mumkinmi?
6. Tushunchaning mazmuni va hajmining ta'rifini ayta olasizmi?
7. «E'tiqod» tushunchasiga ta'rif bering. O'z ta'rifingizni guruhingiz a'zolarining ta'riflari bilan solishtiring.

11-mavzu. Mulohaza va xulosa chiqarish

Oddiy mulohazaning kompleks tahlili: tarkibi, ifodalanishi, etimologik qiymati, turlari. Klassik formal mantiqda mulohaza tafakkur shakllaridan biri sifatida tushunchadan keyin o'rganiladi. Mantiqdan yozilgan xorij adabiyotlarining ba'zilarida esa tafakkur shakllarini o'rganish mulohazadan boshlanadi. Mulohaza bilan bog'liq masalalar doirasida tushunchalarga oid ma'lumotlar beriladi. Xulosa chiqarish alohida o'rganiladi¹. Tafakkurlash jarayonini bunday tartibda o'rganish insonning bolaligidan boshlab

¹ Morris R.Cohen Ernest Nagelan introduction to logic and scientific method New Dehli, 2007. Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006.

mulohaza ko'rinishida fikr yuritishi, uning tushunchalar olami keyin shakllanishi bilan asoslanadi. Shuningdek, faqat mulohazalargina «chin», «yolg'on» qiymatlariga ega bo'ladi. Tushunchalarga esa bunday qiymatni berib bo'lmaydi. Masalan, «yo'lbars yirtqich hayvon» mulohazasini «chin» deb baholaymiz. «Yo'lbars» tushunchasini esa «chin» yoki «yolg'on» deb ayta olmaymiz, Chunki unda biror fikr tasdiqlanmagan ham, inkor qilinmagan ham.

Demak, mulohaza chin yoki yolg'on bo'lishi mumkin bo'lgan fikr yuritish shaklidir. Uning asosiy vazifasi narsa bilan uning xususiyati, ular o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo'ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog'lanishlarini hamda munosabatlarini bilib boramiz. Bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun ularni ifodalaydigan mulohazalar ham har xil bo'ladi. Ba'zi mulohazalarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida belgining predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya'ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Mulohazalar voqelikka mos kelish darajasiga ko'ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo'ladi. Chinligi isbotlangan fikrni chin deb tasdiqlovchi mulohaza chin bo'ladi. Yolg'onligi isbotlangan fikrni yolg'on deb tasdiqlovchi mulohaza chin bo'ladi. Chinligi isbotlangan fikrni yolg'on deb tasdiqlovchi mulohaza yolg'on bo'ladi. Yolg'onligi isbotlangan fikrni chin deb tasdiqlovchi mulohaza yolg'on bo'ladi. Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan mulohazalar – noaniq bo'ladi.

Mulohazalar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Mulohaza mantiqiy kategoriya bo'lsa, gap grammatik kategoriyadir. Mulohazalar, asosan, darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor shaklda bo'ladi va ular chin yoki yolg'on qiymatlari bo'yicha aniqlanadi.

Masalan, «Til insonlar o'rtasidagi muloqot vositasidir», «Hiyonatkorlarning hech biri vijdonli emas» kabi gaplar mulohazani ifoda qiladi. Demak, mulohaza – predmetga ma'lum bir belgining (xossaning, munosabatning) xos yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Mulohaza tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko'rsatish mumkin. Mantiqiy ega — fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi va fanda subyekt degan termin bilan ifodalanadi (simvolik belgisi — S). Mantiqiy kesim predmet xususiyatini, munosabatini bildiradi va fanda predikat degan termin bilan ifodalanadi (simvolik belgisi — P). Mulohazaning subyekt va predikatining terminlari deb ataladi. Mulohazaning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog'lamadir. U subyekt va predikatni bir-biri bilan bog'laydi, natijada mulohaza hosil bo'ladi. Mulohazaning simvolik ifodalanishi:

$S - P$ (tasdiq mulohaza), $S - \bar{P}$ emas (inkor mulohaza)

Mulohazalar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi.

Oddiy mulohaza tarkibidan yana bir mulohazani ajratib bo'lmaydigan mulohazadir yoki bir subyekt va bir predikatdan tashkil topgan mulohazadir.

Tarkibidan ikki yoki undan ortiq mulohazani ajratish mumkin bo'lgan mulohaza murakkab mulohaza deyiladi. Masalan, «Mantiq ilmini o'rganish to'g'ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi», degan fikr oddiy mulohazani ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi» — bu murakkab mulohazadir.

Oddiy mulohazalar ikki tamoyilga, ya'ni miqdori va sifatiga ko'ra tasniflanadi. 1-tamoyil. Miqdoriga ko'ra oddiy mulohazalar yakka, umumiy va juziy bo'ladi.

Oddiy mulohazalarni tasniflashning ikkinchi tamoyili bu ularning sifatidir, ya'ni tasdiq yoki inkor mazmunga ega bo'lishidir. Mulohazaning sifatini mantiqiy bog'lama belgilaydi. «Hamma ilonlar zaharlidir» mulohazasining predikatida subyekt haqidagi fikr tasdiqlanadi. Bunday mulohaza tasdiqlovchi deyiladi. «Hech bir riyo amal maqbul emas» mulohazasida subyekt haqida nimadir inkor qilinadi. Bu inkor mulohaza deyiladi. Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda va ularni mantiqiy tahlil qilishda oddiy mulohazalarning miqdor va sifati bo'yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq mulohazalar. Ular bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hamma

talabalar mantiq ilmini o'rganadilar». Bu mulohaza lotin alifbosidagi **A** harfi bilan belgilanadi va «Hamma **S – P** dir» formulasi orqali ifodalanadi.

2. **Umumiy inkor mulohazalar** bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi». Bu mulohaza «Hech bir **S – P** emas» formulasi orqali ifodalanadi va lotincha **E** harfi bilan belgilanadi.

3. **Juziy tasdiq mulohazalar** bir vaqtning o'zida ham juziy, ham tasdiq fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar mas'uliyatli». U lotincha **I** harfi bilan belgilanadi va «Ba'zi **S–P**dir» formulasi orqali ifodalanadi.

4. **Juziy inkor mulohaza** bir vaqtning o'zida ham juziy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba'zi talabalar tartibli emas». Uning formulasi «Ba'zi **S–P** emas» bo'lib, lotincha **O** harfi bilan belgilanadi.

Ajratib ko'rsatuvchi va istisno qiluvchi mulohazalar. Shunday mulohazalar borki ularda nimadir ajratib ko'rsatiladi yoki istisno qilinadi. «Guruhimiz talabalaridan faqat 4 kishi musobaqada qatnashadi». Bu ajratib ko'rsatuvchi mulohazadir. «Davrada yaqinlarimdan boshqa hamma bor edi». Bu istisno qiluvchi mulohazadir.

Predikatning mazmuniga ko'ra oddiy mulohaza turlari. Ular quyidagilardan iborat: atributiv mulohazalar, mavjudlik (ekzistensial) mulohazalari va munosabat (relyativ) mulohazalari. **Atributiv (sifat va xususiyat) mulohazalarda** biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi aniq, qat'iy ko'rsatiladi. Shuning uchun atributiv mulohazalarni birorta predmetning sinfga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) haqidagi mulohaza deb ta'riflasha bo'ladi. Masalan, «Hamma daraxtlar o'simliklardir» va «Hech bir o'simlik hayvon emas».

Ikki, uchta va hokazo predmetlar o'rtasida muayyan munosabatlarning bo'lishi yoki bo'lmasligini ifodalagan mulohazalarga **munosabat (relyativ) mulohazalari** deyiladi. Masalan: «Butun bo'lakdan katta». «Ikki – uchdan kichik son». Birinchi mulohazada «kattalik» munosabati butun va bo'lak o'rtasida bo'lishi tas-

diqlansa, **ikkinchi mulohazada** «uch» soni bilan «ikki» sonining munosabati haqidagi fikr tasdiqlangan.

Atributiv va munosabat mulohazalari bilan bir qatorda yana mavjudlik (ekzistensial) mulohazalari (Kutubxonada mantiq darsligi bor), ayniyat mulohazalari («Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarining muallifi» ko'rishda bo'lgan) va modal mulohazalar (Ehtimol, yomg'ir yog'adi)ni ko'rsatish mumkin.

Mulohazalar o'rtasidagi munosabatlar. Mulohazalar ham turlar kabi taqqoslanuvchi (umumiy subyekt va predikatga ega bo'lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo'linadi. Taqqoslanadigan mulohazalar sig'ishadigan yoki sig'ishmaydigan bo'ladi. Mantiqda ikki mulohaza (x va q)dan birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi zaruriy kelib chiqadigan bo'lsa, ular o'zaro sig'ishmaydigan mulohazalar deyiladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar qarama-qarshilik (kontrar) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatida bo'ladi. Sig'ishmaydigan mulohazalar bir vaqtda chin bo'la olmaydi. Sig'ishadigan mulohazalar aynan bir fikrni to'liq yoki qisman ifodalaydi. Sig'ishadigan mulohazalar o'zaro ekvivalentlik, mantiqiy bo'ysunish va qisman mos kelish (subkontrar) munosabatida bo'ladi. Bu munosabatlarni quyidagi misollarda tahlil qilamiz:

Masalan, 1-misol. A_1 . «Hamma o'simliklar shifobaxshdir».

Bu umumiy tasdiq mulohaza bo'lib, uni umumiy inkor, juziy tasdiq va juziy inkor mulohaza ko'rishlarida quyidagicha ifodalaymiz:

E_1 . Hech bir o'simlik shifobaxsh emas.

I_1 . Ba'zi o'simliklar shifobaxshdir.

O_1 . Ba'zi o'simliklar shifobaxsh emas.

Tajribamiz va bilimimizga asoslanib, yuqoridagi mulohazalardan faqat I va O mulohazalarni chin deb baholashimiz mumkin.

Mantiq ilmida mulohazalarning chinligini aniqlash uchun ular o'rtasidagi munosabatlarga asoslaniladi:

1. **Qarama-qarshilik munosabati** mazmuniga ko'ra turlicha bo'lgan umumiy mulohazalar o'rtasida mavjud bo'lib, bu munosabatga ko'ra ularning har ikkisi bir vaqtda chin bo'la olmaydi.

Bu mulohazalar (A_1 va E_1) bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; agar ulardan birining chinligi aniq bo'lsa (A_2), unda boshqasi xato bo'ladi (E_2).

2. Zidlik (kontradiktor) munosabati mazmuni va hajmiga ko'ra turlicha bo'lgan mulohazalar (1-misolda: A_1 va O_1 , E_1 va I_1 ; 2-misolda: A_2 va O_2 , E_2 va I_2 .) o'rtasida mavjud bo'ladi. Ya'ni bir narsa yoki voqea haqida bir vaqtda aytilgan ikkita zid fikrning ikkalovi ham chin bo'lmaydi, ularning biri chin, ikkinchisi xato yoki ikkalasi ham xato bo'lishi mumkin.

3. Bo'ysunish munosabati sig'ishadigan mulohazalardan mazmuni bir xil, hajmi turli xil bo'lgan mulohazalar o'rtasida bo'ladi. Bunda umumiy mulohazalar bo'ysundiruvchi, juziy mulohazalar bo'ysunuvchi bo'ladi. Bo'ysunish munosabatida umumiy mulohazalar chin bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juziy mulohazalar ham chin bo'ladi. Lekin juziy mulohazalar chin bo'lganda, umumiy mulohazalar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi. Agar umumiy mulohazalar xato bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juziy mulohazalar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi.

Yuqoridagi 1-misolda A_1 — xato, I_1 — chin; E_1 — xato, O_1 — chin bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, umumiy mulohazalar xato bo'lsa, juziy mulohazalar chin bo'lishi mumkin.

2-misolimizda A_2 mulohaza chin bo'lgani uchun unga bo'ysinuvchi I_2 mulohaza — chin; E_2 mulohaza xato bo'lgani uchun unga bo'ysunuvchi O_2 mulohaza ham xato bo'ldi.

4. Qisman moslik (subkontrar) munosabati mazmuni har xil bo'lgan juziy mulohazalar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu mulohazalar bir vaqtda chin bo'lishi mumkin, lekin har ikkisi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Agar ulardan birining xatoligi aniq bo'lsa, unda boshqasi, albatta, chin bo'ladi. Yuqoridagi 1-misolimizda I_1 va O_1 mulohazalar bir vaqtda chin bo'lsa, 2-misolimizda O_2 mulohazaning xatoligi aniq bo'lgani uchun I_2 mulohaza chindir.

Ekvivalentlik munosabatidagi mulohazalar hamma vaqt chin bo'ladi, Chunki ularda aynan bir fikr turli shaklda ifodalanadi. Masalan, «A. Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifi» va «A. Oripov — O'zbekiston Qahramoni» mulohazalari

o'zaro ekvivalentdir, ya'ni ular bir xil subyektga, lekin har xil predikatga ega bo'lgan mulohazalardir.

Mulohazalarning chinligiga ko'ra munosabatini ifodalovchi yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar bilishda va xulosa chiqarishda katta ahamiyatga ega.

Murakkab mulohazalar, ularning turlari va chin bo'lish shartlari. Mulohazalarni inkor qilish. Mulohaza tarkibidagi mantiqiy ega va/yoki mantiqiy kesimni ifodalovchi terminlar soni birdan ortiq bo'lsa, murakkab mulohaza deb ataladi. Murakkab mulohazalar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog'lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo'llash orqali ikki va undan ortiq oddiy mulohazalarning o'zaro birikishidan hosil bo'ladi. Mantiqiy bog'lovchisining mazmuniga ko'ra murakkab mulohazalar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi: birlashtiruvchi (konyunktiv), ayiruvchi (dizyunktiv), shartli (implikativ) ekvivalent.

Birlashtiruvchi mulohazalar ikki va undan ortiq oddiy mulohazalarning «va», «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog'lovchilar vositasida birikishidan hosil bo'ladi. Masalan, 1. Ustozining bergan topshiriqlarini bajardi va a'lo baho oldi. 2. Yaxshi niyat va yaxshi so'z insonni saodatga yetaklaydi. 3. Mantiq ham amaliy, ham nazariy fandır.

p	q	$p \wedge q$
chin	chin	chin
chin	yolg'on	yolg'on
yolg'on	chin	yolg'on
yolg'on	yolg'on	yolg'on

O'zbek tilida birlashtiruvchi mulohazalar «ammo», «lekin», «biroq» kabi bog'lovchilar va bog'lovchilarsiz ohang vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog'lamalar konyunksiya belgisi « \wedge » (&) orqali ifodalanadi. Formulasi: Konyunktiv (birlashtiruvchi) mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalarni «p» va «q» shartli belgilari bilan belgilasak, ular orasiga konyunksiya belgisini « \wedge » (&) qo'ysak, unda bu mulohaza $p \wedge q$ ($p \& q$) formulasi orqali ifodalanadi. Konyunktiv mulohaza tarkibidagi oddiy mulohazalar chin yoki

yolg'on bo'lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy mulohazalar chin bo'lsa, birlashtiruvchi mulohaza ham chin bo'ladi. Boshqa hamma holatlarda esa yolg'on bo'ladi. Masalan, «Yolg'on gapirish va o'g'irlik qilish jinoyatdir» mulohazasidagi birinchi oddiy gap «Yolg'on gapirish jinoyatdir» chin bo'lmaganligi uchun bu mulohaza chin bo'lmaydi.

Ayiruvchi mulohaza deb «yo», «yoki», «yoxud» mantiqiy bog'lovchilar vositasida bog'langan oddiy mulohazalarga aytiladi. Bu bog'lovchilar ikki oddiy mulohaza, bir qancha predikatlarni yoki bir qancha subyektlarni bir-biridan ayirib turadi. Masalan: «Nodira ingliz tilini yoki nemis tilini yoki ispan tilini o'rganadi». «Konsertda birinchi yoki ikkinchi qatorda o'tiramiz». Ayiruvchi (dizyunktiv) mulohazalar oddiy va qat'iy turlarga bo'linadi. Oddiy ayiruvchi mulohaza tarkibidagi mulohazalardan biri yoki hammasi chin bo'lishi mumkin, qat'iy ayiruvchi mulohazada esa tarkibidagi mulohazalardan faqat bittasi chin bo'ladi. Masalan: «A. Avloniy shoir yoki dramaturgdir». Bu — oddiy ayiruvchi mulohaza. «Abdullayev musobaqada yo yutadi, yo yutmaydi». Bu — qat'iy ayiruvchi mulohaza. Oddiy dizyunksiya «v», qat'iy dizyunksiya «y» belgisi bilan ifodalanadi. Oddiy dizyunktiv mulohaza $p \vee q$ formulasi bilan, qat'iy dizyunktiv mulohaza $p \underline{y} q$ formulasi bilan belgilanadi.

p	q	$p \vee q$	$p \underline{y} q$
chin	chin	chin	yolg'on
chin	yolg'on	chin	chin
yolg'on	chin	chin	chin
yolg'on	yolg'on	yolg'on	yolg'on

Shartli mulohaza ikki oddiy mulohazaning «agar... unda» mantiqiy bog'lovchi orqali birikishidan tashkil topadi. Shartli mulohazaning mohiyatini aniqlash uchun «zaruriy va yetarli shart» tushunchalarini farqlash zarur. Hodisaning zaruriy sharti deb, uning mavjudligini ta'minlaydigan holatga aytiladi. Agar hodisaning sharti zaruriy bo'lmasa, hodisa ham bo'lmaydi. Masalan, «Agar o'simlik suvsiz qolsa, u quriydi».

Shartli mulohaza tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. Shartli mulohazaning «agar» va «unda» soʻzlari oraligʻidagi qismi — asos (antecedent), «unda» soʻzidan keyingi qismi — natija (konsekvent) deb ataladi. Mulohaza qismlarining bunday nomlanishi-ga sabab ularning turli vazifalarni bajarishlari bilan bogʻliq. Agar bu qismlarning oʻrni almasha, mulohaza ham oʻzgaradi¹. «Agar yongʻir yogʻsa, unda uylarning tomi hoʻl boʻladi» mulohazasida «yongʻir yogʻsa» — asos, «uylarning tomi hoʻl boʻladi» — natija hisoblanadi.

Demak, asosda koʻrsatilgan hodisa, natijada qayd etilgan hodisaning kelib chiqishi uchun yetarli shartni ifodalagan mulohaza shartli mulohaza deyiladi.

Implikativ mulohazalardagi «agar ... unda» mantiqiy bogʻlanmasi « \rightarrow » belgi bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon mantiq ilmidan esa baʼzan (\supset) simvoli bilan belgilanadi. Bu simvollar maʼmudiy implikasiya belgisi deb ataladi. Implikativ mulohaza-niing formulasi: $p \rightarrow q$. Implikativ mulohaza asosi — chin, nati-ja — yolgʻon boʻlgan holatdan boshqa hamma koʻrinishlarda chin boʻladi.

Implikativ mulohazaning chinlik jadvali

p	q	$p \rightarrow q$
chin	chin	chin
chin	yolgʻon	yolgʻon
yolgʻon	chin	chin
yolgʻon	yolgʻon	chin

Ekvivalentlik mulohazalari «agar va faqat agar ... unda» man-tiqiy bogʻlovchisi yordamida ikki oddiy mulohazaning oʻzaro bogʻlanishidan hosil boʻladi. Tabiiy tilda ekvivalentlik muloha-zasi shartli mulohaza koʻrinishida ifodalanadi. Bunday holatlarda shartli mulohazaning ekvivalent mulohaza ekanligini aniqlash zarur boʻladi. Agar shartli mulohazaning asosi natijada qayd etil-

¹ Luck; Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.17.

gan fikr uchun zaruriy va yetarli shart hisoblansa, unda bu mulohaza ekvivalent mulohaza bo'ladi.

Ekvivalent mulohazaning mantiqiy bog'lovchisi bog'lovchisi (\equiv) yoki (\leftrightarrow) simvoli, ya'ni (moddiy) ekvivalentlik belgisi bilan ifodalanadi. Ekvivalent mulohazaning formulasi quyidagicha yoziladi: $p \leftrightarrow q$. Bu mulohazani ikki qismga ajratish mumkin: $p \rightarrow q$ & $q \rightarrow p$. Masalan, Agar berilgan butun son juft son bo'lsa, unda u ikkiga qoldiqsiz bo'linadi.

Ekvivalent mulohazaning asosi va natijasi chin bo'lganda yoki asosi ham, natijasi ham yolg'on bo'lganda, u chin hisoblanadi. Shartli va ekvivalent mulohazani bir-biridan farqlash uchun asos va natijaning o'rnini almashtirib ko'riladi. Agar natija bo'lgan mulohaza asos mulohaza uchun sabab bo'lmasa, u holatda ekvivalent mulohaza bo'lolmaydi¹.

Quyidagi shartli mulohazaning asos va natija qismlarini o'zgartiramiz: «Agar insonning fikr doirasi keng bo'lsa, unda u ko'p mutolaa qilgan bo'ladi». «Agar inson ko'p mutolaa qilgan bo'lsa, unda uning fikr doirasi keng bo'ladi». Inson fikr doirasining keng bo'lishi faqat ko'p mutolaa qilishiga emas, balki hayot tajribasiga, tafakkurlash qobiliyatiga ham bog'liq. Demak, berilgan mulohaza ekvivalent mulohaza emas.

p	q	$p \leftrightarrow q$
chin	chin	chin
chin	yolg'on	yolg'on
yolg'on	chin	yolg'on
yolg'on	yolg'on	chin

Murakkab mulohazalarning chin bo'lish shartlarini bilish, fikrlarning chin yoki xatoligini aniqlash bilan birga, bu mulohazalar asosida to'g'ri xulosa chiqarishga hamda xulosa chiqarishda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashga imkon beradi.

¹ Look: Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.18.

Mulohazalarning inkor qilinishi. Mulohazalarni inkor qilish mulhim mantiqiy amallardan bo'lib, u orqali yangi mulohazalar (inkor mulohazadan tasdiq mulohaza va tasdiq mulohazadan inkor mulohaza) hosil qilinadi.

Ikki mulohaza bir-biriga zid bo'lib, ulardan biri albatta chin, boshqasi yolg'on bo'lsa, bu mulohazalar bir-birini inkor qiluvchi mulohazalar bo'ladi. Inkor qilinayotgan mulohaza chin bo'lsa, inkor qilayotgan mulohaza yolg'on bo'ladi. Inkor qilinayotgan mulohaza (p) yolg'on bo'lsa, inkor qilayotgan mulohaza (p) yolg'on bo'lsa, inkor qilayotgan mulohaza ($\neg p$) chin bo'ladi¹ (\neg – inkor belgisi).

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.

Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi. Mantiqiy ergashish tushunchasi. Voqelikni bilish jarayonida inson yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish – bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqaruvchi tafakkur shaklidir. Xulosa chiqarish asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tish jarayonidan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalardan iborat bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak. Masalan, «Ibn Sino «Donishnoma» asarini yozgan» va «Pifagor matematik bo'lgan» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalari qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, «Do'stlarim sport bilan shug'ullanadilar» degan mulohazadan «Do'stlarim sport masteri» deb, xulosa chiqarib bo'lmaydi.

¹ Look: Restall G. Logic. An introduction. Published in the Taylor & Francis e-Library, 2006. p.18.

Demak, xulosa chiqarishning tuzilishi uch elementdan iborat: xulosa asoslari, xulosa va mantiqiy ergashish (xulosa asoslarining o'zaro mantiqiy aloqadorligi va xulosa asoslari bilan xulosaning mantiqiy aloqadorligi).

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra zaruriy va ehtimoliy; xulosa asoslarining soniga ko'ra bir asosli (bevosita) va ko'p asosli (bavosita); fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra deduktiv, induktiv, analogiya kabi turlarga bo'linadi.

Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq induksiyaning hisobga olmaganida) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

Deduktiv xulosa chiqarish. Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati — unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asostangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, ya'ni subyekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. **Aylantirish** (lot. — obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o'zgartirish bilan yangi mulohaza hosil qilinadi¹. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo'sh inkor sodir bo'ladi, ya'ni avval asosning predikati, keyin bog'lovchisi inkor etiladi. Bu usul bilan quyidagi ikki formula asosida xulosa chiqarish mumkin:

¹ Look: Morris R. Cohen Ernest Nagelan introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. P59.

$\frac{S-P}{S-\overline{\overline{P}}}$	$\frac{S-P}{\overline{\overline{S-P}}}$
---	---

Inkor qilish jarayonida (-ma; -siz; -mas) kabi qo'shimchalar yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo'lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat'iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi.

No	Xulosa asosi bo'lgan mulohaza	Xulosa bo'lgan mulohaza
1	A. Hamma S-P	E. Hech bir S-Psiz emas
2	E. Hech bir S-P emas	A. Hamma S emas P dir
3	I. Ba'zi S-P	O. Ba'zi S-P siz emas
4	O. Ba'zi S-P emas	I. Ba'zi S - P sizdir

Aylantirishga misol:

A. Hamma shifokorlar oliy tibbiy ma'lumotga ega.

E. Shifokor bo'lganlarning hech biri oliy tibbiy ma'lumotsiz

emmas.

E. Hech bir yolg'onchi rostgo'y emas.

A. Hamma yolg'onchi bo'lmaganlar rostgo'ydir.

I. Ba'zi suralar uzundur.

O. Ba'zi suralar qisqa emas.

O. Ba'zi jummlar tushunarli emas.

I. Ba'zi jummlar tushunarsizdir.

Almashtirish (lot.-conversio) shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi subyekt va predikatning o'rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi¹.

Turli mulohazalardan bunday usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

No	Xulosa asosi	Xulosa	Almashtirish turi
1	A. Hamma S-P	A. Hamma P-S	Sof almashtirish

¹ Look: Morris R. Cohen Ernest Nagelan introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. P 58.

2	E. Hech bir S-P emas	E. Hech bir P-S emas	Sof almashtirish
3	I. Ba'zi S-P	I. Ba'zi P-S	Sof almashtirish
4	A. Hamma S-P	I. Ba'zi P-S	Toraytirilgan al- mashtirish
5	I. Ba'zi S-P	A. Hamma P-S	Kengaytirilgan al- mashtirish

Juziy inkor mulohazadan (0) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Almashtirishga misol:

1-misol. A. Hamma shifokorlar oliy ma'lumotlidir.

I. Ba'zi oliy ma'lumotlilar shifokorlardir.

2-misol. E. Hech bir inson tosh emas.

E. Hech bir tosh inson emas.

3-misol. I. Ba'zi yoshlar tadbirkordir.

I. Ba'zi tadbirkorlar yoshlardir.

4-misol. A. Hamma odamlar jonli mavjudotdir.

I. Ba'zi jonli mavjudotlar odamlardir.

5-misol. I. Ba'zi san'atkorlar qo'shiqchidir.

A. Hamma qo'shiqchilar san'atkordir.

Demak, almashtirish usuli qo'llanganda mulohazadagi subyekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlar o'рни almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta'riflarning to'g'riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo'yish (lot.— *contrapositio*) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo'lib, bu usul qo'llanganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so'ngra almashtiriladi. Natijada hosil bo'lgan mulohazaning (xulosaning) subyektiga asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning subyektiga mos bo'ladi. Bu usul bilan quyidagi ikki formula asosida xulosa chiqarish mumkin:

$\frac{S-P}{\neg P-\neg S}$	$\frac{S-P}{P-\neg\neg S}$
-----------------------------	----------------------------

Masalan:

A. Hamma musulmonlar Islom diniga e'tiqod qiladilar.

B. Islom diniga e'tiqod qilmaydiganlarning hech biri musulmon emas.

Juziy tasdiq mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo'yish orqali bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki, juziy tasdiq mulohazani aylantirsak juziy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

IV. Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat'iy mulohazalarning o'zaro munosabatlarini (quring; mantiqiy kvadrat) e'tiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o'rtasidagi ziddlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo'ysunish munosabatlariga asoslanadi. Bu munosabatlarining tahliliga ko'ra xulosa chin bo'lgan quyidagi holatlarni ko'rsatish mumkin.

1. Asos mulohaza va xulosa chin bo'lgan: $A \rightarrow I$, $E \rightarrow O$.

2. Asos mulohaza xato va xulosa chin bo'lgan: $A \rightarrow O$, $E \rightarrow I$

Masalan: A. Hamma daraxtlarning ildizi bor.

1. Ba'zi daraxtlarning ildizi bor.

B. Hech bir faylasuf matematik emas.

1. Ba'zi faylasuflar matematikdir.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilish jarayonida mavjud fikrni aniqlab olish, uning mohiyatini to'g'ri tushunish, Shuningdek, bir fikrni turli xil ko'rinishda bayon qilish, yangi bilimlar hosil qilishga imkon beradi.

Sillogizm. Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. «Sillogizm» so'zi qo'shib hisoblash, degan ma'noni beradi. Bu termin mantiq fanida, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifodalashda qo'llaniladi.

Sillogizm o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan ochluchi – yangi qat'iy mulohazani zaruriy tarzda keltirib chiqaruvchi xulosa chiqarish usulidir. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilingan yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan

umumiyroq bo'lmaydi. Shunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hamma baliqlar suvda yashaydi.

Sazan – baliq.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – Sazanlar suvda yashaydi, degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conclusio)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar terminlar deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S – kichik termin (terminus minor), mantiqiy kesimi – R – katta termin (terminus major) deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo'lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – M – (terminus medius) o'rta termin deb ataladi. Asoslarda katta terminni o'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik terminni o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi. Demak, asoslarning katta yoki kichik asos deb ajratilishi ularning qanday ketma-ketlikda kelishiga bog'liq emas.

S – kichik termin;

M – o'rta termin;

R – katta termin.




O'rta termin katta va kichik terminni bog'lovchi mantiqiy element hisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar isbot talab qilmaydigan, isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning

lehdida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasi mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Demak, sillogizm aksiomasining mohiyati quyidagicha: buyum va hodisalarning sinfi to'g'risida bildirilgan tasdiq yoki inkor fikr shu sinf tarkibidagi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrimlari ham taalluqli fikr hisoblanadi.

Masalan:

Hamma odamlar tirik mavjudotdir.

Hamma talabalar odamlardir.

Hamma talabalar tirik mavjudotdir.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi: biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum, hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo'lgan narsalar buyum, hodisaning o'ziga ham ziddir.

Sillogizm figuralari va moduslari.

Sillogizmlar bir-biridan 1) o'rta terminning joylashishiga qarab va 2) asoslar va xulosadagi mulohazaning miqdori va sifatiga ko'ra farq qiladi. O'rta terminning o'rnini sillogizmning figurasini belgilab beradi.

I figurada o'rta termin katta asosning subyekti, kichik asosning predikati bo'lib keladi. II figurada o'rta termin katta va kichik asoslarning predikati bo'lib keladi. III figurada o'rta termin har ikki asosning subyekti bo'lib keladi. IV figurada o'rta

termin katta asosning predikati, kichik asosning subyekti bo'lib keladi¹.

I figura	II figura	III figura	IV figura
M — P	P — M	M — P	P — M
S — M	S — M	M — S	M — S
—	—	—	—
S — P	S — P	S — P	S — P

Sillogizm asoslari oddiy qat'iy mulohazalardan iborat. Bu mulohazalarning ikki asos va xulosada o'ziga xos tartibda (to'plamda) kelishi modus deb ataladi. «Modus» shakl degan ma'noni anglatadi. Sillogizm figuralarining o'ziga xos shakllari mavjud. Har bir figuraning to'g'ri shakllarini aniqlab, to'g'ri xulosa chiqarishda sillogizmning umumiy qoidalari bilan birga har bir figuraning maxsus qoidalariga ham amal qilinadi. Figuralarning maxsus qoidalari sillogizm terminlarining o'ziga xos bog'lanishi asosida aniqlanadi.

Entimema (qisqartirilgan qat'iy sillogizm)

Insonning fikr yuritish jarayoni ko'proq entimema ko'rinishida amalga oshadi. Masalan, «U talaba bo'lgani uchun, stipendiya oladi», «Birodarim e'tiqodda sobit, shuning uchun unga ishonsa bo'ladi». Entimema deb, asoslaridan biri yoki xulosasi tushirib qoldirilgan sillogizmga aytiladi. Entimema so'zi — aqlda, fikrda degan ma'noni anglatadi. Entimemada sillogizmning tushirib qoldirilgan qismi yodda saqlanadi. Zarur bo'lganda uni topib, o'rniga qo'ygan holda entimemadan to'la sillogizmni tiklash mumkin.

Entimemalar uch turli bo'ladi:

- 1-tartibli, ya'ni katta asosi tushirib qoldirilgan.
- 2-tartibli, ya'ni kichik asosi tushirib qoldirilgan.
- 3-tartibli, ya'ni xulosasi tushirib qoldirilgan².

¹ Look: Morris R. Cohen Ernest Nagelan introduction to logic and scientific method New Dehli. 2007. p.82

² Look: Morris R. Cohen Ernest Nagelan introduction to logic ... New Dehli. 2007. p.78.

Bizga quyidagi sillogizm berilgan bo'lsin:

Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to'g'ri topadi.

Bu o'quvchi matematikani biladi.

Bu o'quvchi masalaning javobini to'g'ri topadi.

Endi bu sillogizmni entimema ko'rinishiga keltiramiz:

1. Bu o'quvchi matematikani bilgani uchun, masalaning javobini to'g'ri topadi (katta asos tushirib qoldirildi).

2. Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to'g'ri topadi, shuning uchun bu o'quvchi masalaning javobini to'g'ri topadi (kichik asos tushirib qoldirildi).

3. Matematikani bilganlar bu masalaning javobini to'g'ri topadi, jumladan bu o'quvchi ham (xulosa tushirib qoldirildi).

Entimemalar bahs-munozara yuritish jarayoni va notiqlik san'atida keng qo'llaniladi.

Induktiv xulosa chiqarish. Yakka mulohazalarni umumlashtirib xulosa chiqarish kundalik hayotda, ilmiy bilishda ko'p qo'llaniladi. Inson hayotiy tajriba natijalarini, kuzatishlarini umumlashtirib, aynan shu usul asosida xulosa chiqaradi. Fikrning yakkalikdan umumiylikka qarab harakatlanishini ifodalovchi bunday xulosa chiqarish turi induksiya (lot. «inductio» — yagona asosga keltirish) deb ataladi. Induktiv xulosa chiqarishda kuzatish va tajriba natijalari muhim ahamiyatga ega. Induktiv xulosa chiqarish bivosita xulosa hisoblanadi. Induktiv xulosa chiqarish asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladi. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy mulohaza tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Induktiv xulosa chiqarishda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.

Induktiv xulosa chiqarishning tarkibi xulosa asoslari, tekshirilayotgan belgi va xulosadan iborat. Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi mavjud: to'liq va to'liqsiz induksiya.

To'liq induksiyada birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub har bir predmetga xosligi aniqlanib, shu belgining berilgan sinf

predmetlari uchun umumiy ekanligi haqida xulosa chiqariladi. To'liq induksiya miqdori cheklangan va aniq bo'lgan (sanaladigan) predmetlar sinfi haqida empirik materiallarni umumlashtirish yo'li bilan xulosaviy bilim olishning samarali vositasi bo'lib, uning xulosasi doimo aniq bo'ladi.

To'liqsiz induksiyada birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga (bir nechtasiga) xosligini (yoki xos emasligi) aniqlash asosida shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida xulosa chiqariladi.

Ilmiy induksiya

Ilmiy induksiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgining mavjudlik sababi o'rganiladi. To'liqsiz induksiyaning bu turi hodisalarning sababini aniqlash va ularni ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun ham ilmiy induksiya deb ataladi.

Sababiy aloqadorlikni aniqlash ilmiy induktiv xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Sababiy aloqadorlikni aniqlash va o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

– ikki hodisa o'rtasidagi zaruriy aloqadorlik muayyan sharoitda ularning biridan (sabab) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradi. Sabab-hodisaning yo'qligi oqibat-hodisaning ham yuzaga chiqmasligini bildiradi;

– sabab-oqibat munosabatlari umumiy xarakterga ega, olamdagi hech bir hodisa sababsiz mavjud bo'lmaydi;

– sabab va oqibat vaqtda ketma-ket keladi. Lekin, oldinmakin kelgan hodisalarning hammasi ham sababiy aloqadorlikda bo'lavermaydi;

– sabab-oqibat munosabatlari bir ma'noli bo'lib, muayyan sabab o'ziga muvofiq keladigan muayyan oqibatni keltirib chiqaradi.

Sababiy aloqadorlik murakkab strukturaga ega. Xususan, sabab-hodisa turli xil sharoitlarda turli oqibatlarni keltirib chiqarishi yoki aksincha, bir oqibat turli sharoitlarda har xil sabablar ta'sirida paydo bo'lishi mumkin.

Sababiy aloqadorlikni aniqlashning bir qancha metodlari mavjud bo'lib, ular ilmiy induksiya metodlari deb yuritiladi. Bularga

o'xshashlik, tafovut, yo'ldosh o'zgarishlar va qoldiqlar metodlari bo'ladi. Ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Yagona o'xshashlik metodi. Unda o'rganilayotgan hodisaning sababi haqidagi xulosa shu hodisaning kuzatilayotgan tomonlarini solishtirish, ularning o'xshash tomonini aniqlash asosida hosil qilinadi. Bu metoddan foydalanib xulosa chiqarilganda, hodisaning kuzatilayotgan hollari uchun faqat bitta holatgina umumiy bo'lsa, ana shu holat mazkur hodisaning sababi deb olinadi. Yagona o'xshashlik metodining formulasi:

1. ABC _____ a
2. ADE _____ a
3. AGF _____ a

Demak, A holat ma'lum darajada a hodisaning sababidir.

Yagona tafovut metodi. Bu metod faqat ikki holatda, ya'ni hodisaning vujudga kelgan va kelmagan hollarini taqqoslash asosida hodisaning sababini aniqlash usuli bo'lib, unda mavjud holat bir-biridan faqat bitta holati bilan farq qiladi. Shuning uchun ham mazkur holat kuzatilayotgan hodisaning sababi bo'lsa kerak, deb taxminiy xulosa hosil qilinadi.

- ABC _____ a
BC _____ a emas.

Demak, A holat a hodisaning sababi bo'lishi mumkin.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi. Yo'ldosh o'zgarishlar metodiga muvofiq, bir holatning o'zgarishi hodisaning o'zgarishiga ham olib kelsa, shu holat kuzatilayotgan hodisa o'zgarishining sababidir.

1. ABC _____ a
2. A₁BC _____ a
3. A₂BC _____ a
- ...
n. A_nBC _____ a_n

Ehtimol, A holatning o'zgarishi unga mos holda a ning o'zgarishiga sababchidir.

Qoldiqlar metodi. Bu metod tatbiq etiladigan obyekt murakkab hodisadan iborat bo'lib, bittasidan boshqa qismlarining sabablari aniq bo'lganda, ana shu qolgan qismni vujudga keltiruvchi sababni topish maqsadida qo'llaniladi.

ABC _____ abc

B _____ b

C _____ c

Demak, a ning sababi A bo'lishi mumkin.

Qoldiqlar metodiga ko'ra, agar o'rganilayotgan murakkab hodisani tashkil etuvchi hodisaning (yoki hodisa qismining) bitta holatdan boshqa holatlar bilan aloqasi zaruriy tavsifga ega bo'lmasa, ana shu qoldiq holat mazkur hodisaning (hodisa qismining) sababi bo'lishi mumkin.

Ilmiy induksiyaning boshqa metodlari singari qoldiqlar metodi ham ehtimoliy bilim olish vositasi hisoblanadi.

ANALOGIYA – (grek. – moslik, o'xshashlik) bivosita xulosa chiqarishning bir turidir. Deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juziylikka qarab, induksiyada juziylikdan umumiylikka qarab harakatlanadi, analogiyada bir juziy holatdan boshqa juziy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obyektiv o'xshashlik ham mavjud. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o'tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo'ladi. Masalan, Imom G'azzoliy «Kimiyo saodat» asarida dil (ko'ngil)ni badan mamlakatining podshohi, aqlni esa uning vaziriga qiyoslab, «podshoh – Dil vazir – Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g'azabni vazir Aqlga bo'ysundirsa, badan mamlakati (inson) saodatga erishadi. Agar Dil vazir Aqlni shahvat va g'azab ilgida asir qilsa, badan mam-

holati vayron bo'lib, podshoh Dil ham asir bo'lib, badbaxt va halok bo'lg'usidir»¹, — deb yozadi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asos, xulosa va asos bilan hamda xulosa o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba'zan aniq, ba'zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o'zining obyektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o'rtasidagi aloqa va munosabatlardir. Modeldan prototipga o'tkazilayotgan axborotning tabiatiga ko'ra analogiyaning ikki turi farqlanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o'xshash belgilariga ko'ra o'zaro taqqoslanadi. O'xshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo'lgan belgining boshqasida ham bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi.

O'xshatilayotgan predmetlarni A va B harflari bilan, belgilarni a, b, c harflari bilan ifoda qilsak, xususiyatlar analogiyasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$S_1 - P_1, P_2, P_3, P_4$, belgilarga ega.

$S_2 - P_1, P_2, P_3$, belgilarga ega.

Demak, $S_2 - P_4$ belgisiga ega.

Misol:

Oiladagi kelishmovchiliklar mehrni yo'qotadi, oila a'zolarini bebro' qiladi, ro'zg'orni bebaraka qiladi, bolalar tarbiyasiga e'tibor kamayadi.

Bu oila a'zolari bir-biri bilan doimo janjallashadi. Ular bir-biriga mehrsiz, mahallada obro'yi yo'q, ro'zg'ori bebaraka.

Demak, ular bolalar tarbiyasiga e'tiborsiz.

Munosabatlar analogiyasida ikki predmet o'xshashligi asosida emas, ikki predmet o'rtasidagi munosabatni o'rganish asosida

¹ Abu Xomid G'azzoliy Kimiyoi saodat. — T.: Adolat, 2005. — 37-6.

boshqa ikki predmet o'rtasidagi munosabat haqida xulosa chiqariladi. Munosabatlar analogiyasini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$A - B$ ga, $C - D$ ga bo'lgandek munosabatda.

Bunda $A - B$ model, $C - D$ prototip bo'ladi. Model va prototip o'rtasidagi munosabat asimmetrikdir, ular turli predmet so-halariga taalluqlidir. Masalan, imom G'azzoliy inson jismi va ruhi o'rtasidagi munosabatni ot va chavandoz o'rtasidagi munosabatga taqqoslab, ruh tanani boshqarishi va har ikkisining yemishi bir-biridan farq qilishi haqida xulosa chiqaradi.

Fikr yuritishda mulohazalarni qurish va xulosa chiqarish bilan bog'liq xatolar. Mulohazalar bilan bog'liq xatolar. Mulohazalarni tushunchalarning mantiqiy bog'lanishi deb qarash mumkin. Mulohazalar tarkibidagi tushunchalarning aniq bo'lishi ularning to'g'ri va chin bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, mantiqiy ega va mantiqiy kesim mulohazalarning tarkibiy qismlari bo'lib, ularning o'zaro mantiqan to'g'ri bog'liqligi ham fikrning to'g'ri va chin bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi holatlarda mulohaza yolg'on hisoblanadi:

1. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo'lmagan xususiyat tasdiqlansa (masalan, uchburchak burchaklarining yig'indisi 360° ga teng).

2. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo'lgan xususiyat inkor qilinsa (masalan, mevali daraxtlar bahorda gullamaydi).

3. Juziy chin bo'lgan mulohaza ba'zi holatlarda umumiy deb qabul qilinsa (masalan, «Ba'zi o'quvchilar mas'uliyatsiz» mulohazasini «Hamma o'quvchilar mas'uliyatsiz» mulohazasi bilan almashtirilsa).

Xulosa chiqarish bilan bog'liq xatolar.

Fikr yuritish jarayonida eng ko'p uchraydigan mantiqiy xatolar xulosa chiqarish bilan bog'liq. Bunga sabab xulosa chiqarishning har bir turiga xos bo'lgan qoidalarni bilmaslikdir. Shunday xatolardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Umumiy mulohazalarga asoslanib (sillogistik) xulosa chiqarishda keng tarqalgan xatolardan biri sillogizm I figurasining qoidasi buzilishining natijasida vujudga keladi. Bunga ko'ra I figura

to'yiha kichik asos inkor mulohaza bo'lganda hosil qilingan xulosa noaniq (ko'pincha xato) bo'ladi. Masalan:

Hamma advokatlar yuristdir.

Bu kishi advokat emas.

Bu kishi yurist emas.

Xulosaning noaniq bo'lishiga sabab, yuristlar faqat advokat emas, balki o'qituvchi yoki olim bo'lishlari ham mumkin.

Yana bir xato sillogizm II figurasi qoidasi buzilishining natijasida vujudga keladi. Masalan:

Hamma okulistlar shifokordir.

Bu ayol shifokor.

Bu ayol okulistdir.

Shifokorlar faqat okulist (ko'z shifokori) emas, balki stomatolog, kardiolog, xirurg bo'lishlari ham mumkin.

Yakka mulohazalarni umumlashtirib (induktiv) xulosa chiqarishda eng ko'p uchraydigan mantiqiy xato «undan keyin, demak, shu sababga ko'ra» deb ataladi. Bu xato oldinma-ketin kelgan hodisalarning hammasida avvalgisi sabab, keyingisi oqibat bo'ladi, degan fikrga asoslanish natijasida yuzaga keladi.

O'xshatish (analogiya)ga asoslanib xulosa chiqarilganda, taqqoslanayotgan hodisalarning nomuhim belgilari asos qilib olinsa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan:

Aziza va Robiya bir sinfda o'qiydi, yoshlari va bo'ylari teng.

Aziza ingliz tilini yaxshi biladi.

Demak, Robiya ham ingliz tilini yaxshi biladi.

Yuqorida ko'rsatilgan mantiqiy xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo'lgan xususiyat doimo tasdiqlanishi shart.

2. Mantiqiy kesimda mantiqiy egaga xos bo'lmagan xususiyat doimo inkor qilinishi shart.

Tayanch tushunchalar: mulohaza, subyekt, predikat, umumiy mulohaza, juziy mulohaza, oddiy mulohaza, murakkab mulohaza, birlashtirivchi mulohaza, ayiruvchi mulohaza, shartli mulohaza, ekvivalent mulohaza, chin mulohaza, yolg'on mulohaza, xulosa

asosi, xulosa, mantiqiy ergashish, deduktiv xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish, analogiya, dilemma, trilemma.

12-mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari

Asosli muhokama yuritish (argumentlash)ning mantiqiy asoslari: isbotlash va rad etish.

Inson kundalik muloqotida dalillash, isbotlash tushunchalarini ko'pincha bir xil ma'noda, sinonim tushunchalar sifatida qo'llaydi. Aslida ular mazmuniga ko'ra o'zaro yaqin bo'lgan va hajmiga ko'ra bo'ysunish munosabatidagi tushunchalardir. Dalillash hajmiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, isbotlash tushunchasi unga bo'ysunadi. Dalillash argumentlash tushunchasi bilan ekvivalentdir.

Argumentlash – (lot. *argumentatio* – dalil, argument keltirish) ilgari surilgan fikrga nisbatan boshqa tomon (auditoriya, yakka shaxs va b.)ning ijobiy munosabatini (ma'qullashi, qabul qilishi) shakllantirish maqsadida dalillar, argumentlarni keltirish. Argumentlashning maqsadi – ilgari surilgan holatlarning auditoriya tomonidan qabul qilinishiga, konstruktiv munosabatlarning shakllanishiga erishishdir; auditoriyani uning e'tiboriga havola qilinayotgan holatning, fikrning adolatli ekanligiga ishontirishdir, uni shu fikrni qabul qilishiga va shunga muvofiq harakat qilishiga erishishdir. Argumentlashda «haqiqat-yolg'on», «ezgulik-yovuzlik» dilemmalari muhim emas. Muhimi, ilgari surilgan fikrga nisbatan ishonchni shakllantirish, ishontirishdir. Tinglovchilar yoki kuzatuvchilarni ishontirish, e'tiqodini shakllantirish uchun nafaqat verbal (nutq orqali), balki noverbal (harakat, yuz ifodasi, ko'rgazmali vositalar va b.) usullardan ham foydalaniladi. Argumentlashning tarkibida tezis – mulohaza yoki mulohazalar tizimi va dalil yoki argument – tezisni asoslash uchun keltirilgan fikr, mulohazalar ajratiladi. Argumentlash til vositasida ta'sir qilish bo'lib, biron-bir fikrni ma'qullash yoki rad etish uchun dalillar, argumentlarni o'z ichiga qamrab oladi. U avvalo inson ongiga qaratilgan bo'lib, inson o'ylab, bu fikrni qabul qilishi yoki rad etishi mumkin. Argumentlashga quyidagilar xos:

- argumentlash hamma vaqt til vositasida amalga oshiriladi;
- argumentlashning vazifasi kimningdir e'tiqodini, ishonchini kuchaytirish yoki susaytirishga yo'naltirilgan faoliyatdir;
- argumentlash ijtimoiy faoliyatdir, Chunki u faqat insonga va insonlarga qaratilgan bo'lib, boshqa tomonning keltirgan dalillariga o'zining faol munosabatini bildirishni – dialogni nazarda tutadi;
- argumentlash retsiyentlarning aqliy faolligini, ya'ni argumentlarni o'ylab qabul qilishi yoki qarshi chiqishini nazarda tutadi.

Argumentlashning tuzilishi va usullari bilan tanishishdan avval isbotlash va rad etishning mohiyati, tuzilishi, usullari va qoidalarini bilib olish zarur, Chunki ular argumentlashning xususiy ko'rinishidir.

Isbotlash – bir mulohazaning chinligini u bilan bog'liq boshqa chin mulohazalar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amal. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstratsiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan mulohaza, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimi, yoki teoremlar, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalari, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan iborat bo'ladi.

Argumentlar (lot. argumentum – isbot asosi) – dalillanishi (isbotlanishi) talab qilingan tezis (mulohaza, nazariya)ni asoslash uchun keltiriladigan bir yoki undan ortiq mulohazalardir.

Isbotlash usuli – demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Argumentlash (isbotlash)ning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash.

Bevosita argumentlash (isbotlash)da tezisning chinligi to'g'ridan to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan mulohazalardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani

ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan mulohaza (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita argumentlash (isbotlash)da esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan mulohazaning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. **Apagogik argumentlash (isbotlash)** tezis (a) va antitezis (a) o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. Masalan, «muloqot insonlarni birlashtiradi», degan mulohazaning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «muloqot insonlarni birlashtirmaydi», degan mulohaza olinadi.

Apagogik argumentlash (isbotlash)da antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natija keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va **demak**, tezisning chinligi isbotlanadi.

Ayiruvchi argumentlash (isbotlash)da tezis sof ayiruvchi mulohazaning (kuchli diz'yunktsiyaning) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, «Bu xatni do'stlarimdan A, yo B, yo C yozgan», degan fikr tekshirilib, «xatni B ham, C ham yozmaganligi»ligi aniqlanadi va shu tariqa «Xatni A yozgan», degan mulohazaning chinligi asoslanadi. Bu misolda isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan. Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari.

Raddiya – argumentlash (isbotlash)ni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun

ziddiyani argumentlash (isbotlash)ning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham argumentlash (isbotlash) kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan mulohaza), argumentlar (tezisni rad qiluvchi mulohazalar) va demonstratsiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I. Tezisni rad etish

II. Argumentlarni rad etish

III. Demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealar, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Bu qo'lyozma XVII asrda yozilgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun yozuv usuli, qog'ozning turi, qaysi alifboda yozilganligi kabi faktlarga asoslanamiz va tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha: $(a \rightarrow b) \rightarrow ((a \rightarrow b) \rightarrow a)$.

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi.

II. Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi. Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin. Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llanadi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ular buzilganda kelib chiquvchi xatolar

Tezisga aloqador qoidalar:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosaga bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi va ular uch turga bo'linadi:

I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar:

1. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarish shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining torayishi yoki kengayishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2. Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponenning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlar yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan B kelib chiqsa, lekin B hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis B hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (B) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar.

2. Argumentlashning strategiyasi va taktikasi. Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar.

Argumentlashning strategiyasi — argumentlashning maqsadi bo'lib, ishontirish, g'alaba qozonish, kelishish, yechimni topish, o'ziga nisbatan ishonchni mustahkamlash va shu kabilarda namoyon bo'ldi. Mantiq qonunlari, isbotlovchi muhokama yuritish argumentlashning strategik prinsiplari hisoblanadi. Konkret vaziyatga mos bo'lgan kommunikativ modelni tanlash ham argumentlashning strategiyasiga kiradi. Argumentlashning strategiyasi ishtirokchilarning maqsadi orqali aniqlanadi. Shunga ko'ra haqiqatga, ishonchni shakllantirishga, g'alabaga va kelishuvga qaratilgan strategiyalarni farqlash mumkin. Ba'zan bu strategiyalar birlashib ketishi kuzatiladi.

Argumentlash strategiyasi ma'ruza, suhbat, dialog, bahs-munozara, yozma argumentlash, o'zi uchun argumentlashda turli xil bo'ladi. Argumentlash strategiyasini belgilab olganda argumentlovchi dalillar asosiy va qo'shimcha turlarga ajratiladi, asosiy dalillar yetarli bo'lmasa qo'shimchalaridan foydalanish yoki asosiy dalillar yetarli bo'lsa, qo'shimchalarini qo'llamaslik rejalashtiriladi.

Argumentlashning taktikasi deb, argumentlarni eng unumli qo'llash usuli; raqibning qarshi argumentlariga munosabat shakli; argumentlashning strategik maqsadlariga erishish uchun qo'llaniladigan usul va vositalar majmuyiga aytiladi.

Argumentlashning taktikasi turli usullarni o'z ichiga oladi:

- argumentlarni tanqid qilish (opponentning yolg'on tezisini ishonchli faktlar bilan rad etish);
- dushmanning qurolini o'ziga qarshi qo'llash prinsipi (opponentning fikrlarini o'ziga qarshi ishlatish);
- isbotlash yukini raqibiga ag'darish (haqiqat sukut saqlashdadir);
- pala-partish so'zlash;
- hamma narsani rad etib, o'zini aqlli ko'rsatish;
- «bema'nilikka olib kelish» usuli (opponentning fikri bema'ni ekanligini istehzo va kinoya bilan isbotlash);
- «shaxsga murojaat qilish» (tezisni almashtirish);
- bumerang usuli (qarshi tomonning argumentini o'ziga qaytarib qo'llash);
- isbotlash usulini rad etish;
- savollar hujumini uyushtirish va boshqalar.

Bahsda qo'llaniladigan hiylalar:

- yolg'on uyatga qo'yish (opponentning atrofdagilar oldida obro'si to'kilishidan xavotirlanishini bilib, undan foydalanish);
- argumentlarni «yog'lash» (opponentga oshkora xushomadgo'ylik qilish);
- yosh, ma'lumot va mavqeni pesh qilish (masalan, avval diplom oling, keyin gapiring);
- gapni boshqa tomonga burish;
- qat'iy ohangda so'zlash;
- ataylab bahsni to'xtatish va boshqalar.

Fikrni asoslashda uchraydigan xatolar turli-tuman bo'lib, ulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Sofizm so'zi «ayyorlik», «soxta donolik» degan ma'nolarni bildiradi. Bunday ishlar bilan shug'ullanuvchilar, ya'ni rostni yolg'on, yolg'onni rost deb tasdiqlovchi, o'zini dono, boshqalarni esa nodon qilib ko'rsatuvchi kishilar sofistlar-safsatabozlar deb ataladi. Sofistlar chin fikrni xato, xato fikrni esa chin deb isbotlovchi kishilar bo'lib, o'z maqsadlarini amalga oshirishda o'ziga xos isbotlash usullaridan foydalanadilar.

Forobiy «Falsafatu Aristutolis» nomli risolasida safsatabozlar qo'llaydigan quyidagi olti usulni ko'rsatadi: «1) tanbeh berish; 2) dovdiratish; 3) tuhmat qilish; 4) nutqda duduqlanishga majbur qilish; 5) bema'ni narsalardan foydalanish, safсата; 6) suhbatdoshga so'z bermaslik». Sofistik muhokamalarga chalkashtirish, yanglishtirish, aldash, noto'g'ri to'g'ri, to'g'ri noto'g'ri deb bilish xosdir.

Sofistik muhokamalar so'zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashinish jarayonida, suhbat va bahs yuritishda qo'llaniladi. Bunday muhokamalardan maqsad suhbatdoshining yolg'on gapirayotganligini ko'rsatish, uning fikrini yuzaki rad etgan holda, hamma tomonidan qabul qilingan fikrlarga nisbatan zid fikrga olib kelish, fikrni chalkash bayon qilishga va (suhbatdoshini) hadeb bir fikrni qayta takrorlashga (ezmalik qilishga) majbur etishdir. Sofistlar o'z maqsadlarini amalga oshirishda insonning ruhiy holatidan, tafakkurida o'rnashib qolgan fikrlaridan, odatlaridan, Shuningdek biror g'oyaning tarafdori ekanligidan ustalik bilan foydalanadilar. Masalan, «Kal» sofizmi:

— Agar odamning boshidan bir dona sochi to'kilsa, u kal bo'ladimi?

— Yo'q.

— O'n dona to'kilsa-chi?

— Kal bo'lmaydi.

— Bittadan boshdagi hamma sochlar to'kilgandachi?

— Unda kal bo'ladi.

— Sen o'z so'zingga o'zing qarshi chiqayapsan. Hozirgina bitta sochi to'kilsa kal bo'lmaydi degan eding. Bu sofizmدا bir dona

soch tolasining to'kilishi bilan bittadan hamma soch tolasining to'kilishi bir hodisa deb ko'rsatiladi.

Bahs-munozara jarayonida mantiqiy qonun-qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan va bilmasdan yo'l qo'yilgan mantiqiy xato – paralogizmlar deb ataladi. Masalan: «Missioner» paralogizmi. Bir missioner (dinni targ'ib qiluvchi odam) kannibal (odamxo'r) lar orasiga tushib qolibdi. Kanniballar uni qanday qilib yeyish masalasida bahslashib qolishibdi. Ba'zilari qovurish kerak desa, boshqalari qaynatish kerak debdi. O'zaro kelisha olmay bir qarorga kelishibdi. Ular missionerga: «Sen biror gap aytgin. Agar gaping to'g'ri bo'lsa, seni qaynatib, noto'g'ri bo'lsa, qovurib yeymiz» – deyishibdi. Missioner ularga «Meni qovurib yeysizlar» – deb javob beribdi». Missionerning javobi kanniballarning o'zaro tortishuviga sabab bo'libdi. Chunki qovurib yesalar, u to'g'ri gapirgan bo'ladi va uni qaynatish kerak bo'ladi. Agar qaynatib yesalar, unda noto'g'ri gapirgan bo'ladi va shartga muvofiq uni qovurish kerak bo'ladi. Kanniballarning tortishuvidan foydalanган missioner qochib qutuilibdi.

Chinligini ham, xatoligini ham birdek isbotlash mumkin bo'lgan fikrlarga esa paradoks deyiladi. Masalan, «Buning isboti yo'qligi isbotlangan», «Hech qachon «hech qachon» so'zini aytma», «O'yinning faqat bitta qoidasi bor, u ham bo'lsa, hech qanday qoida yo'q».

Yuqorida qayd etilgan holatlarni bilib olish insonga bahs-munozara jarayonida dadil ishtirok etib, o'z qarashlarini himoya qilishga, mustaqil nuqtayi nazarga ega bo'lishga va boshqalarning zararli ta'sirlaridan saqlanishga yordam beradi.

3. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya.

Bilish jarayonida inson voqea va hodisalarning mohiyatini tushunib boradi. Inson qancha ko'p bilimga ega bo'lmasin, bilmagan narsalari undan ham ko'proq bo'ladi. Bilmagan, noma'lum narsalarni bilish uchun hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yetarli bo'lmaydi. Bilish jarayonida mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat

paydo bo'лади. Bunday ziddiyatlar, ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilish, fanda esa tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'лади. Masalan, kompyuter viruslariga qarshi himoya tizimini yaratish shunday muammolardan hisoblanadi. Meditsina sohasida rak kasalligini davolash, avtomobilsozlikda yoqilg'ini tejoychi vositalarni ixtiro qilish, ekologiya bilan bog'liq muammolar va boshqa sohalarga oid muammolar mavjud. Hozirgi kunda bu muammolarni hal qilish uchun mavjud qonun va prinsiplarning yetarli emasligi, fanda yangi izlanishlar olib borishni talab qilmoqda.

Ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi vaqtda matematikada to'plam nazariyasi bilan bog'liq muammolarni hal qilish zaruriyati bunga misoldir.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlar yetarli darajada tizimga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, muammoli vaziyat bilish taraqqiyotining turli bosqich va bo'g'inlarida olam hamda uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning obyektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Muammoni qo'yish va hal etish.

Muammo — javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba'zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirib topishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surish va muhokama qilish xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Ko'lamiga ko'ra shaxsiy, hududiy, bir davlat yoki bir necha davlat miqyosidagi va umuminsoniyat muammolarini ajratish mumkin. Bu muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol muammoning yarim yechimi hisoblanadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi yetarli emas. Har qanday muammoning yechimi ilmiy asoslangan bo'lishi kerak. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish muhim ahamiyatga ega.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Odatda, ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlar tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalarning yoshlar ongiga salbiy ta'siri muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Ma'lumki, OAV, Internetdagi ayrim ma'lumotlar endigina ma'naviy olami shakllanayotgan, shaxsiy tajribasi haqiqatni yolg'on, uydirmadan farqlashga yetarli bo'lmagan yoshlarda hayotiy tushunchalarning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yosh avlod ma'naviy olamining daxlsizligini asrash jamiyatimiz oldida turgan muammolardan biridir. Bu muammo faylasuflar, gumanitar fan vakillari tomonidan tadqiq etilmoqda.

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil tomondan yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juziy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juziy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida, jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni

bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishi va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi va uning yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani o'zgartirish va muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalar aniqlanadi;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilib, ularga baho beriladi;

d) muammoni hal qilish turi, maqsadi, olingan natijani tekshirish yo'llari belgilab olinadi;

e) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlari ko'rsatiladi.

Bu ishlar amalga oshirilgandan keyin bevosita muammoni yechishga kirishiladi.

Barcha muammoning yechilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la yechimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi.

Ba'zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo'lmazlikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa yechishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Gipoteza (faraz) — bilimlarning mavjud bo'lish va taraqqiy etish shakli. Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi. **Gipoteza (faraz) — o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiruvchi asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.**

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma'noda u bilimlarning mavjud bo'lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi. Chin, ishonchli bilimlar hosil bo'lgunga qadar qo'yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo'lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida mavjud bo'ladi.

Gipotezani qurish o'rganilayotgan hodisani tushuntiruvchi taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat bo'ladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo'lgan qonuniyatlar haqidagi mulohazalar yoki mulohazalar tizimi tarzida bo'ladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza)da, odatda, gipotezaning bosh g'oyasida aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida, atrofida quriladi va ma'lum bir ishchi gipotezalar — vaqtinchalik, mo'ljalni to'g'ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish hisoblanadi. Shuningdek, gipoteza ba'zi hollarda qat'iy xulosa chiqarish shakllarida ham ilgari surilishi mumkin.

Gipotezada ilgari suriladigan mulohaza empirik materiallarni tahlil qilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, umumlashtirish, talqin etish natijasida paydo bo'ladi. Ana shuning uchun ham gipoteza — bu har qanday taxmin emas, balki o'zining muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza, ma'lum bir darajada asoslangan farazdir.

Ilgari surilgan gipoteza, albatta, asoslanishi zarur. Bu bosqichda gipotezadan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi va ularning mavjud faktlarga (yoki boshqa ishonchli bilimlarga) muvofiqligi aniqlanadi.

Gipoteza rad qilinishi ham mumkin. Bu gipotezadan kelib chiqadigan natijalarning mavjud faktlarga nomuvofiqligini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Gipotezaning natijalarini topa olmaslik, bu gipotezaning mavqeini ancha pasaytirsa-da, lekin uni rad eta olmaydi. Gipotezaning chinligi undan kelib chiqadigan natijalarga zid bo'lgan holatlar aniqlangandagina uzil-kesil rad etiladi. Masalan, Ptolomeyning Yerning harakatlanmaydigan markaz ekanligi haqidagi gipotezasi Kopernikning geliotsentrik nazariyasi asoslanadigan faktlarga zid kelganidan keyin rad etildi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, o'rganilayotgan hodisa haqida bir vaqtning o'zida bir qancha gipotezalar ilgari surilishi mumkin. Gipoteza tasdiqlanmaguncha o'zining bilishdagi ahamiyatini yo'qotmaydi. Rad etilsa, o'rniga boshqa gipoteza quriladi va bu hoi to gipotezalardan birortasi tasdiqlanmaguncha, ya'ni muammoning yechimi topilmaguncha davom etadi.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashgan bo'lishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juziy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi.

Juziy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarning kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Arxeologik qazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oid ekanligi haqidagi taxminlar juziy gipotezaga misol bo'ladi.

Mantiqda ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishchi gipoteza tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin bo'lib, o'z oldiga o'rganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qo'ymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

Shunday qilib, gipoteza muammoning yechimini topish uchun xizmat qiladigan fikrlarning, bilimlarning mavjud bo'lish va rivojlanish shaklidir.

Nazariya bilimlarning mantiqiy tizimi sifatida. Har bir fan sohasida turli nazariyalar mavjud bo'ladi. «Nazariya» atamasi keng

ma'noda amaliyotdan farq qiluvchi aqliy faoliyat turini ifodalaydi. Tor ma'noda esa, nazariya ma'lum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalalar, gipotezalarni tizimga soladigan, shu sohani yaxlit tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklidir. Nazariya ilmiy bilishning shakli sifatida empirik va nazariy bosqichlarning birligini ifodalaydi.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to'planadi, o'rganiladi, tizimga solinib, turli xil jadvallar, shakllar, grafiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin o'zaro aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamental tushunchalar, umumiy qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog'liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o'rtasida zaruriy aloqadorlik mavjud. Nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o'rtasida mantiqiy aloqalar o'rnatishga, predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilish, uning mohiyatini tushuntirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, nazariyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **Nazariya ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.**

Har bir nazariya o'z tushunchalari va ta'riflash qoidalariga ega. Bunga misol qilib kimyo fanidagi atom, molekula, ishqor kislota kabi tushunchalarni olishimiz mumkin. Xuddi Shuningdek, har qanday nazariya xulosalar tarzidagi o'z natijalariga ega. Demak, ilmiy nazariyaning tarkibida uning har bir elementi o'z o'rniga ega.

Muammoni aniqlash va yechimini asoslashda savol-javobning o'rn. Inson dunyoqarashini kengaytiruvchi va chuqurlashtiruvchi

eng asosiy vositalardan biri – savol-javob (dialog)dir. Savol-javobni tashkil eta bilish insonda voqelikka mos (adekvat) tushunchalarning shakllanishiga, mulohazalarini to'g'ri qurishga va xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Savol-javob, dialog erotematik (grek. yerotematikos – savol shaklida) mantiqda o'rganiladi. Savol mantiqiy reallikning o'ziga xos alohida ko'rinishidir. Savol berish, ya'ni fikrni to'g'ri javobga yo'naltirish san'ati – tafakkurlash madaniyatining zaruriy elementidir. Mantiqan to'g'ri savollarni qo'ya bilish aqllilik, farosatlilikning muhim belgisidir. Savol nima? Savol – keng ma'noda tafakkur shakli bo'lib, uning yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ma'lum turdagi bilimlarning yetishmaslik (tanqislik) holati tilda ifodalanadi¹. Inson bilimi predmet va hodisalar haqida avvalgi hosil qilingan mulohazalardan yangi, ularni to'ldiradigan, kengaytiradigan mulohazalarni yaratishga qarab taraqqiy etib boradi. Bu jarayon ma'lum bir savollarni qo'yish va ularga javob qidirish tarzida sodir bo'ladi. Savol so'roq gap yordamida ifoda qilingani uchun, undagi ma'lumot yakunlanmagan bo'ladi. Mulohaza va so'roq gap bilishda turlicha vazifalarni bajaradi. Mulohazaning vazifasi predmet haqidagi mavjud bilimlarni qayd qilishdan iborat bo'lsa, savol uning yangi xususiyatlari, aloqalarini qidirib topishga, aniqlashga, o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Savollar iltimos yoki talab qilib beriladi. Demak, savol avvaldan ma'lum bo'lgan axborot asosida qo'shimcha axborot olish uchun iltimos yoki talabni ifodalovchi nutq shaklidir. Savolda ma'lum bir boshlang'ich bilim mujassamlangan bo'ladi, ya'ni savol berish uchun ma'lum bilimga ega bo'lish talab qilinadi.

Savol va javob insonlarning dialog ko'rinishidagi muloqot shaklidir. Uning muhim funksiyalaridan biri kommunikativlikdir. Axborotni qidirish vositasi sifatida ham savolning ahamiyati beqiyosdir. Savol bo'lmasa bilish ham bo'lmaydi. Lingvistikadan

¹ Федоров Б.И. Эротетическая логика. //Логика. Учебник для бакалавров. Под ред. А.И.Мигунова, И.Б.Микиртумова, Б.И.Федорова. – Москва: Проспект, 2015.С. 428 – 429.

yaxshi ma'lumki, gapning har bir bo'lagiga nisbatan va umuman gapning o'ziga nisbatan savol berish mumkin. Masalan, «Professor Azlarov 314-auditoriyada fizikadan 3-kurs talabalariga ma'ruza o'qiydi». Ushbu gap bo'yicha 9ta savol tuzish mumkin. Mantiqda savollarning tasnifi lingvistik tasnifdan farq qiladi. Savollarni chin yoki yolg'on deb tasniflash mumkin emas. Buning uchun ko'proq o'rinli-o'rinsiz, ma'noli-ma'nosiz, to'g'ri-noto'g'ri, to'liq-to'liqsiz kabi tasniflardan foydalaniladi.

Mantiqda savollar har xil asoslarga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi:

1. Oddiy va murakkab savollar. Tarkibida boshqa savol bo'lmasa, oddiy savol, bo'lsa — murakkab savol deb yuritiladi. Murakkab savollar o'z navbatida qo'shuvchi, ayiruvchi, shartli turlarga bo'linadi. Masalan, Konsertda G.Yoqubov bilan O.Nazarbekov ham ishtirok etdimi? Xatiga javob yozdingmi yoki yozmadingmi? Agar aytganingni qilsam, shartimga rozi bo'lasanmi?

2. Aniqlovchi va to'ldiruvchi savollar. Masalan, «Sen o'qishni bilasanmi?» degan savol aniqlovchi, «Sen qaysi qo'shiqni kuylamoqchisan?» degan savol to'ldiruvchi savoldir.

3. Mantiqan o'rinli va mantiqan o'rinsiz qo'yilgan savollar. Bitta bo'lsa ham to'g'ri javob bersa bo'ladigan savol mantiqan o'rinli savoldir. Bema'niligi tufayli javobsiz qolgan savol o'rinsiz savoldir.

4. Ilmiy va ilmiy bo'lmagan savollar. Ilmiy savollarning remasida, ma'lum bir kontekstda empirik yoki abstrakt obyektlarning sinfini ifodalovchi, hech bo'lmaganda bitta ilmiy termin bo'ladi. Ilmiy bo'lmagan savollarda bunday termin bo'lmaydi.

Har qanday savolda axborotni aniqlashga qaratilgan element mavjud bo'lib uni tekshirish, baholash va faollashtirish kerak bo'ladi. Savollarni bilib tanlash, tuzish va muayyan tartibda berish orqali muammoni hal qilish uchun yordam beruvchi sharoitni tug'dirish va yechimini tezroq aniqlashga imkoniyat yaratiladi.

Javob — qo'yilgan savolga muvofiq holda avvalgi bilimni aniqlashtiradigan, to'ldiradigan yangi mulohazadan iborat. U savolning asosini tashkil etuvchi bilimga tayanilgan holda yangi bilim olishga imkon beradi. Javob savolda mavjud bo'lgan

noaniqlikni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Inson o'zining shaxsiy tajribasiga, olgan bilimlariga, dunyoqarashiga mos holda savolga javob qidiradi. Ular yetarli bo'lmasa, bilimning konkret sohalariga, turli manbalarga murojaat qiladi. Ular javobni qidirish sohasi, deb ataladi. Mantiqda javobning bir qancha turlari ajratiladi:

1. **Bevosita** (aynan so'ralgan savolga javob berish) va **bilvosita javoblar** (so'ralgan savolga taalluqli boshqa ma'lumotlarni qo'shib javob berish).

2. **To'liq** (savolning barcha elementlari haqida ma'lumotlar berilgan) va **to'liqsiz** (savolning ba'zi elementlari haqida ma'lumotlar berilmagan) **javoblar**.

3. **Chin** (voqelikni adekvat aks ettirgan) va **xato** (voqelikni adekvat aks ettirmagan) **javoblar**.

4. **Qisqa** (ha, yo'q, bilmadim) va **batafsil** (savolning har bir elementi takrorlanadigan) **javoblar**.

5. **Aniq** (tushunchalar, so'zlarning mazmuni va ma'nosi konkret va ravshan bo'lgan) va **noaniq** (ikki xil ma'noli tushunchalar, so'zlar ishlatilgan) **javoblar**.

Savol va javobga qo'yiladigan umumiy talablar:

– savol ham javob ham grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi;

– savol ham javob ham aniq, ravshan va iloji boricha ixcham bo'lishi;

– savol ham javob ham yetarli darajada asoslangan bo'lishi zarur.

Yuqoridagi ko'rsatmalar bilim olish, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil qilish uchun muloqot olib borishda nihoyatda ahamiyatlidir.

Tayanch tushunchalar: argumentlash, tezis, asos-dalil, isbotlash, rad etish, tanqid, argumentlashning strategiyasi, argumentlashning taktikasi, paralogizm, sofizm, paradoks, kommunikativ model, proponent, opponet, muammo, savol, javob, muammoli vaziyat, muammoni qo'yish, muammoni hal etish, gipoteza, ishchi gipoteza, nazariya.

Takrorlash uchun savollar

1. Muammoli vaziyat qanday vujudga keladi?
2. Muammo nima?
3. Muammolar ko'lamiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. Muammoni hal etish uchun nima qilish kerak?
5. Gipoteza nima?
6. Nima uchun gipotezalarni mantiqiy qurish vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish hisoblanadi?
7. Gipotezalarning qanday turlari bor?
8. Nazariya nima?
9. Nazariyaning ilmiy bilishdagi ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
10. Savol nima?
11. Savolning qanday turlari bor?
12. Qanday savollar ilmiy savol bo'ladi?
13. Javobning qanday turlari bor?

UCHINCHI BO'LIM. ETIKA: AXLOQ FALSAFASI

13-mavzu. «Etika» fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati

Etika fanining mohiyati va predmeti. Etika fani bir necha ming yillik tarixga ega qadimiy fan. U bizda «axloq ilmi», «odobnoma» kabi nomlar bilan atalgan. Axloq – inson ma'naviy kamoloti sar-chashmalaridan biri bo'lib, u tufayli jamiyat ravnaq topadi, fuqarolarning baxt-saodat haqidagi orzu-umidlari ro'yobga chiqadi. U o'zining paydo bo'lish tabiatiga ko'ra ijtimoiy-tarixiy hodisa hisoblanadi. Odamzod ijtimoiy mavjudot sifatida shakllana boshlagan kundanoq axloq paydo bo'lgan. Aniqrog'i, odamzodning o'zi ular o'rtasidagi axloqiy munosabatlarning hosilasi sifatida shakllana borgan. Odamlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar negizida jamiyatning axloqiy hayoti ijtimoiy borliqning tarkibiy qismi sifatida qaror topgan.

Inson va jamiyat hayotida axloq talab qiluvchi, tartibga soluvchi, boshqaruvchi, yo'naltiruvchi kuch bo'lganligi uchun ham buyuk mutafakkirlar, shoirlar, olimlar, davlat va jamoat arboblarning diqqatini o'ziga tortib kelgan. Axloqning mohiyatini, tabiatini tadqiq qilish tarixiylik va mantiqiylik, tizimli yondashuv usullari (metodlari) orqali ish ko'rishni taqozo etadi. Axloq ilmini o'rganishga bag'ishlangan xorijiy va o'zbek tilidagi adabiyotlarda «axloq», «etika», «moral» degan tushunchalar ko'plab ishlatiladi. «Etika» so'zi qadimgi yunonistonlik mutafakkirlar tomonidan fanga kiritilgan. O'z vaqtida Gomer «ethos» (etos) so'zidan «birgalikda yashaydigan joy, uy, g'or, uya, in, makon» ma'nosida foydalangan bo'lsa, eramizdan avvalgi IV asrda yashagan yunon faylasufi Arastu «etos» so'zidan ikkita: «Etika» (axloq) va «Etikaviylik» (axloqiylik) degan tushunchalarni keltirib chiqaradi. U «axloqiylik»ni inson qalbining takomillashgan sifatlari – xotirjamlik, og'irlik, vazminlik, bosliqlik, mardlik, botirlik, jasurlik, qahramonlik, o'rtachalik, mo'tadillik va hokazolarni ifodalovchi tushuncha deb bilgan. Shu asosda u etikani-yaxshi fazilatlarga (xislatlar) ega bo'lgan kishilarni yoki kishilarning yaxshi sifatla-

ilmi, ya'ni xayrli, saxovat va himmatli, ezgu ishlarini o'rgatuvchi ilmi sohasi deb tushungan.

Darhaqiqat, Arastu etikaga; insonlar o'rtasidagi munosabat doirasi va oqil ijtimoiy hayvon (individ)ning axloqini o'rganuvchi ilmi deb, ta'rif bergan. Bu haqda «Nikomax etikasi», «Evdem etikasi», «Katta etika» kitoblarini yozib «etika» faniga asos solgan¹. Demak, G'arbiy Yevropada bundan 2500 yil oldin axloq masalasi ilmi sohasi sifatida o'rganila boshlangan.

Axloqshunoslik ilmi tarixida axloq va uning mazmun-mohiyatiga doir juda ko'plab ta'riflar berilgan. Jumladan, «Falsafa: qomusiy lug'at»ida: «Axloq (arab. Xulqning ko'pligi; lot. Moralis — xulq-atvor) — ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, Shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi»², — deb ta'riflangan.

Ba'zi mualliflar «axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega ekanligini, ya'ni umumiy tushuncha sifatida u fanning predmetini anglatrsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildirib, jamiyat, zamon, huzan insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan umum-bushariy ahamiyatga ega ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa ekanligini ta'kidlaydi³.

Har bir insondan umri davomida jamiyatda qabul qilingan urf-odat, an'ana va qonun-qoidalarga amal qilishi talab etiladi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan obyektiv aloqadorlik, ya'ni ijtimoiy munosabat — xulq atvor, uloh, xatti-harakat, prinsip va normalarning majmuasi axloq-

¹ Аристотель. Никомахова этика / Аристотель. Сочинение. В 4 х-т. Т. 4. — М.: Мысль, 1984. С. 55 — 62.

² Falsafa: Qomusiy lug'at / Tuzuvchi va mas'ul mi harrir Q.Nazarov. — T.: Ghuroq, 2004. — 40 b.

³ Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. — T.: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. — 8 b.

ning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Binobarin, axloqning manbai jamiyat ehtiyoji va manfaatlaridan iborat.

Etika axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. «Axloq» so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuyini, fe'lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha sifatida u fanning tadqiqot obyekti anglatilsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi.

Demak, axloq deb, avvalo inson bilan inson, so'ngra inson bilan jamiyat o'rtasidagi obyektiv va subyektiv aloqadorliklar tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh, millat, elatning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan, yaxshi ezgu niyatlar sari yo'naltiradigan, qadriyat maqomini olgan muayyan xulq-atvor, odob, xatti-harakat, tamoyil va normalarning majmuyiga aytiladi.

Jamiyatning axloqiy hayotini o'zida aks ettiruvchi axloqni ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida tarkibiy tuzilishi bo'yicha uchta:

– birinchidan, kishilarning kundalik hayotida sodir etadigan axloqiy xatti-harakatlaridan iborat bo'lgan amaldagi axloq, ya'ni axloqiy amaliyot;

– ikkinchidan, muayyan qadriyatlar asosida fikr yuritish, baholash, qadr-qimmatini belgilashni o'z ichiga oluvchi axloqiy ong;

– uchinchidan, o'zini o'zi axloqiy anglash – mavjud vaziyatni axloqiy jihatdan tahlil qilishni, ya'ni qalban o'zi bilan gaplashish, o'zicha baholash, o'zini nazorat qilish, o'zini o'zi takomillashtirish, boshqa odamlar bilan birga ich-ichidan aziyat chekish; aniq vaziyatda yaxshi va yomonni qalban his qilish, yaxshi va yomondan birini tanlashga irodaviy jihatdan tayyor turish kabi darajalarga ajratish mumkin.

Ana shu uchta darajadan o'tgan ijobiy xatti-harakatlar, xususan, yaxshilik, mehr-muruvvat, fidoyilik, saxovat, o'zaro hurmat,

beg'arazlik, **shijoat**, sadoqat va hokazolar **asta-sekinlik bilan** axloqiy qadriyatlarga aylanib boradi.

Inson va jamiyat hayotida **axloq** quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Axloqning tartibga solish, boshqarish funksiyasi — odamlar o'rtasidagi munosabatlarni jamiyat tomonidan qabul qilingan, o'rnatilgan axloqiy normalar orqali tartibga solinishi va boshqarishi bilan ifodalanadi. Unda axloqiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita vazifasini **axloq tamoyillari, normalari, jamoatchilik fikri, el-yurt o'rtasidagi obro'-martaba, an'ana, urf-odat, o'git, pind-nasihat va boshqalar tashkil qiladi. Tartibga solish, boshqarish esa bevosita moslovchi-norma, talab qiluvchi-norma, taqiqlovchi-norma, chegaralovchi-norma, namunali-norma va hokazolar orqali amalga oshiriladi.**

Qadriyat maqomini olgan axloq ana shu jarayonda o'zining tabiiy kuchini namoyish qiladi.

Axloqning aksiologik funksiyasi — bu «axloqiylik va axloqsizlik», «yaxshilik va yomonlik» nuqtayi nazaridan odamlarning xatti-harakatlariga, niyati, maqsadi, o'y-xayollariga, vaj-sabablari-ga, axloqiy qarashlari va shaxsiy xislatlariga baho berish asosida ularni qadrlashni amalga oshiradi. Axloqning ana shu funksiyasi axloqiy qadriyatlarning qanchalik hayotiy yoki hayotiy emasligini ifodalovchi vositalardan biri hisoblanadi. Xuddi shu joyda axloqiy va estetik qadriyatlarning uyg'unligi ham ko'zga tashlanadi.

Axloqning maqsadga yo'naltirish funksiyasi — bu jamiyat hayotida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan axloqiy qadriyatlar tizimining kelgusidagi istiqbollarini belgilab beruvchi yo'lchi yulduz ishini bajaradi. Axloqning bu funksiyasi har bir jamiyat uchun o'ta zarur bo'lgan axloqiy qadriyatlar tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Shu tufayli ba'zi bir axloqiy qadriyatlar umuminsoniy yoki milliy darajaga ega bo'ladilar.

Axloqning bilish funksiyasi — bu odamlardagi yaxshi va yomon fazilatlarni anglab olish asosida voqelik to'g'risida muayyan bilimlarni hosil qilish ishini o'taydi. Ma'lumki, axloqiy bilim, prinsip, norma, kodeks, nizom va boshqalarda ijtimoiy axloqiy qadriyatlar haqida ko'plab axborot-ma'lumotlar o'z aksini top-

gan bo'ladi. Ana shu axborot-ma'lumotlarga ega bo'lish odam, jamiyat uchun eng qiyin, og'ir damlarda birdan bir to'g'ri axloqiy tanlovni amalga oshirishga yordam beradi.

Axloqning tarbiyaviy funksiyasi — bu jamiyatda mavjud bo'lgan tarbiya tizimini umuminsoniyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy norma, urf-odat, an'analarga moslashtirish va shu asosda fuqarolarni axloqiy jihatdan tarbiyalash ishlarini tashkil etishni amalga oshiradi.

Axloqning kommunikativ funksiyasi — bu umumiy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqish uchun odamlar o'rtasida fikr almashish, bir-birini tushunib umumiy xulosalarga kelishda o'zaro aloqa qilish vositasi vazifasini bajaradi. Xullas, axloq tufayli xalqlar, elatlar, millatlar bir-birlari bilan aloqada bo'lib, fikr almashib, o'zlariga xos, manfaatlariga mos keladigan umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni ishlab chiqadilar hamda ularga og'ishmay amal qilishni yo'lga qo'yadilar.

Yuqoridagi fikrlar axloqning jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallashidan dalolat beradi.

Axloq tuzilmasida uch omil — asos — axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy xatti-harakatlar muhim o'rin tutadi.

Axloqshunoslik tizimida uchta asosiy unsur, ya'ni odob, xulq va axloq tushunchalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Odob — inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq — oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmuyi.

Axloq — jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Etikaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Etika va estetika. Etika boshqa ijtimoiy va falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning estetika bilan

aloqasi qadimiy va o'ziga xos. Avvalo, insonning har bir xatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik), ham nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi.

Etika va dinshunoslik. Etikaning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo — axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelguniga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazgan.

Etika va huquqshunoslik. Etikaning huquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq me'yorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin.

Etika va pedagogika. Etika pedagogika bilan ham chambuchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnomadarslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois, etika o'zining nazariy va, ayniqsa, amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi.

Etika va ruhshunoslik. Qadimdayoq etikaning ruhshunoslik bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtayi nazardan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asoslarning ruhiy tabiati va shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, etika esa ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Etika va sotsiologiya. Etikaning sotsiologiya bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy murvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin etikaning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommaviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Etika esa, o'z mo-

hiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqining yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, istisnoli xatti-harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Etika va siyosatshunoslik. Etikaning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini taqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'rta chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda etika ham, siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir.

Etika va ekologiya. Keyingi paytlarda etikaning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan etika ko'proq insonning o'zi, o'zgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin keyingi davrlarda, ayniqsa, XXI asrda tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondashuvlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik buhron manzarani o'zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko'proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtayi nazarlariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi.

Shuningdek, etika fani uning nazariy asoslari bo'lmish mezoniy tushunchalar (muhabbat va nafrat, g'azab, rashk, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, adolat, burch, vijdon, nomus, ideal, hayotning ma'nosi), tamoyillar (insonparvarlik va erkparvarlik, vatanparvarlik va millatparvarlik, fidoyilik va ziyolilik, mehnatsevarlik, tinchlikparvarlik, jo'mardlik, o'zbekchilik) hamda me'yorlar (halollik va rostgo'ylik, insoflilik, xushfe'llilik, shirinsuxanlik, kamtarinlik va bosiqlik) kabi etikaning tadqiqot obyektini aniq va keng qamrovli tasavvur qilishga yordam beradi.

Gedonizm va evdemonizm talimotlari. Qadimgi davr axloqshunosligida paydo bo'lgan falsafiy-axloqiy ta'limotlardan biri gedonizm bo'lib, uning mohiyatiga ko'ra inson faqat jismoniy

rohatlanmasdan, ruhiy huzurlanish xususiyatiga egadir. Gedonizm ta'limotining asoschisi Aristippdir (e.av. 435–355-yy.). U Suqrotning zamondoshi bo'lib, insonning ruhiy holati ikki turda bo'lishini aniqlaydi. Birinchisi, inson ruhining rohatlanishi bo'lsa, ikkinchisi noxush og'riqli holatidir. Insonning butun hayot mazmuni rohatlanishdan, huzurbaxshlikdan iborat, degan g'oyani ifoda etadigan tushuncha bu gedonizm (qad. yun. hedone – zavqlanish, rohatlanish)dir. Gedonizm ta'limotiga ko'ra, inson o'z hayotining tabiiy ehtiyoji, asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida huzurbaxshlikka, rohat-farog'atga intiladi. Aristipp fikricha, rohatlanish yengil, yoqimli va huzurbaxshlik bilan kechsa, ruhiyatning noxush og'riqli holati esa azob va qiynoqlardan iboratdir. Aristipp fikricha, inson og'riqdan qochishi va iloji boricha rohatlanishga intilishi oqibatida baxtga erishishi mumkin, jismoniy ehtiyojlarni qondirish esa inson hayotining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bu ta'limotga binoan, huzur-halovat, rohatlanish baxsh etmaydigan harakatga e'tibor qaratish va kuch sarflash arzimaydi.

Gedonizmning psixologik talqinida insonni harakatga undovchi asosiy kuch bu – zavqlanish va rohatlanishga intilish, deya e'tirof etiladi. Axloqiy gedonizmda esa, inson o'zining yoki o'zga kishilarning rohatlanishi uchun yashashi kerak, degan g'oyani targ'ib etuvchi turli xil falsafiy yondashuvlarni o'zida mujassamlashtirgan. Masalan, gedonizmni huzurbaxshlik, rohatlanish sifatida targ'ib etuvchi yondashuvlardan birining asoschisi Epikur insonning yotsirashdan va jirkanishdan xalos bo'lishi bu – xohish-istaklarni qondirish, deya talqin etadi. Bu yondashuvda inson ehtiyojlarining qondirilishi emas, balki azob va baxtsizlikdan xalos bo'lish maqsadi ifoda etilgan. Inson hayotini gedonistik yondashuv asosida talqin qilish falsafa tarixida markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan va ko'plab faylasuf-mutafakkirlar ijodida o'ziga xos tarzda ifoda etilgan. Fransuz faylasufi I. Bentamning yozishicha, «Tabiat insonni ikki asosiy borliq: azob va rohat girdobiga tushirgan. Ular bugun biz nima qilishimiz va ertaga nima bilan shug'ullanishimizni belgilab beradi. Hatto haqiqat va yolg'on, sabab va oqibat me-

zonlari ham ana shu ikki asosiy negizga tayanadi». Gedonizm ta'limotida insonning mayl va ehtiyojlari jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga qarama-qarshi qo'yiladi, inson erkinligini cheklovchi va uning o'ziga xos xususiyatlarini namoyish etishga to'sqinlik qiluvchi har qanday ijtimoiy shart va me'yorlar inkor etiladi. Ular faqat shaxsiy ehtiyojlarni qondirish hayotining mazmuni deb biladi va bu yo'lda mavjud ijtimoiy qonun-qoidalarga bepisandlik bilan qarash, hatto ularni inkor etishgacha boradi.

Evdemonizm (yun. *yeudaimonia* – baxt-saodat, rohat-farog'at) esa, baxt-saodat, rohat-farog'atni kishilar hayotining oliy maqsadi, deb hisoblaydigan axloqiy yo'nalish bo'lib, bu ibora etimologik jihatdan, birinchidan, qoniqish hissining subyektiv holatini, ikkinchidan, qoniqishga xizmat qiladigan obyektiv sharoit, ya'ni tashqi ne'matlarni anglatadi. Bu ikki jihat uzviy bog'liq bo'lsa-da, ba'zan ular bir-biridan farq qilishi, masalan, barcha moddiy ne'matlarga ega odam baxtsiz bo'lishi va aksincha, qashshoq, ustboshi yupun inson o'zini baxtli his etishi mumkin. Evdemonizm yunon etikasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u Suqrotning shaxs ichki erkinligi, insonning tashqi dunyoga qaram emasligi to'g'risidagi g'oyasi bilan uzviy bog'liq. Evdemonizm baxt-saodatni jismoniy va ma'naviy huzur, lazzat bilan tenglashtirmaydi, balki uni keng ma'noda, barcha jismoniy va ma'naviy (ko'pincha fuqarolikka ham oid) qadriyatlarining majmuyi tarzida tushunadi.

Bu ta'limotga ko'ra, o'z shaxsiyatida ana shu qadriyatlarni mujassamlantira olgan kishigina chinakam baxt-saodat sohibidir, shunday baxtgina insonga haqiqiy lazzat, farog'at baxsh etadi. Qadimgi yunon allomalari Demokrit va Epikur evdemonizmning yorqin namoyandalaridir. Yunon mutafakkirlarining qarashlarida «baxt» tor, individual axloq doirasida (xususan, baxt inson ijodi bilan bevosita bog'liq holda) talqin etilgan bo'lsa, nasroniy axloqda baxt haqidagi axloqiy me'yor va tushunchalar ongdan tashqarida bo'lgan diniy tasavvurlar bilan bog'liqligi asoslanadi. Boshqacha aytganda, inson axloqi va ma'naviyatining mazmun-mohiyatini belgilab beradigan chinakam baxtga qadr-qimmat va uning mahsuli bo'lgan baxt o'rtasida ziddiyat bo'lmagan dunyo-

chagina erishish mumkin. Evdemonizm yoʻnalishi namoyandalari qarashlarida inson uchun eng buyuk neʼmat baxt sanaladi. Uning asosida yunon faylasufi Arastuning baxt haqidagi taʼlimoti yotadi. Uning fikricha, baxt bu «biz doimo uning oʻzi uchun oʻzini tanlaydigan, boshqa narsa uchun uni tanlamaydigan» axloqiy tushunchadir¹. Oʻrta asrlar tafakkurida evdemonizm (baxtga yetiluv taʼlimoti) akviniyalik Foma taʼlimotiga yoʻnaltirilgan boʻlib, yuksak baxt Xudoni anglash va hayoti davomida Uni tan olmoqdir, degan gʻoyani tasdiqlar edi.

Evdemonizm yoʻnalishidagi huzurbaxshlik taʼlimotini yoqlovchilar Epikur, Gassendi, Lametri, Volter, Golbaxlar baxt va huzurbaxshlikni uygʻunlashtiradilar. Ammo gedonizmdan farqli oʻlaroq huzurbaxshlik bu yerda insonning axloqiy faoliyati bilan bevosita bogʻlanadi. Misol uchun, Epikur nazdida yuksak darajadagi huzur tuban jismoniy lazzatda emas, balki nafis muʼnaviylikdadir. Faqatgina mutlaq sokinlik va ataraksiya holatidagina inson haqiqiy baxt egasiga aylanadi. Yangi davrda evdemonizm koʻplab faylasuflar tomonidan rivojlantirilgan.

Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, meʼyorlari. Etika fanida qoʻllaniladigan barcha tushunchalarni uch guruhga boʻlish maqsadga muvofiq. Bularning birinchisi — axloqiy bilish bilan real hayot oʻrtasidagi eng muhim aloqa va munosabatlarni inʼikos ettiruvchi, axloq ilmining mezonini ifodalovchi tushunchalar, axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari yoxud kategoriyalari, ikkinchi guruh tushunchalarini — axloqiy tamoyillar, uchinchi guruhni esa axloqiy meʼyorlar deb olish mumkin. Birinchi guruh tushunchalari umumlashtiruvchilik, mushtaraklik xususiyatiga ega, ular faqat nazariyaga taalluqli. Ikkinchi va uchinchi guruh tushunchalari esa amaliy etikaga tegishli boʻlib, nisbatan muayyan, for qamrovga ega; ular birinchi guruh uchun «moddiy asos» vazifasini oʻtaydilar.

Muhabbat va nafrat. Muhabbat inson axloqiy hayotining choʻqqisi, komillik belgisi, muhabbat — oliy tuygʻu, shu muʼnoda u oliy tushuncha. Muhabbat bosh mezoniy tushuncha

¹ Arastu. Axloqi kabir. — T.: Sharq, 2005. — 123 b.

sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o'z «hissa»siga ega. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov: «Juda ko'p irfoniylar tushuncha – istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», – der ekan, ayni haqiqatni aytadi¹. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi ko'pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi – nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo'ladi, obyektidan chetlashishni, undan begonlashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko'rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligidir.

Ezgulik va yovuzlik. Ezgulik – eng muhim axloqiy kategoriyalardan biridir. Ezgulik inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan ezgulik insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi qadriyat sifatida baholanadi. Ezgulikning o'ziga xos xususiyati shundaki u insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi va bevosita axloqiy xatti-harakat natijasida yuzaga chiqadi. Bundan tashqari ezgulikda manfaatdan ko'ra umummanfaat ustuvor hisoblanadi.

Ezgulik yuksak axloqiylik sifatida jamiyatning ijtimoiy taraqqiyot hodisasi nuqtayi nazaridan bir qator xususiyatlarga ega. U:

– stixiyali ko'r-ko'rona ishlar emas, balki insonning shaxsiy manfaatlaridan jamiyat va xalq manfaatining yuksakligiga asoslangan oqilona xatti-harakatlar natijasi;

– majburiylik emas, balki vijdon amri bilan amalga oshiriladigan axloqiy voqelik;

– inson axloqiy idealiga muvofiq keladigan real axloqiy munosabatning ijobiy mazmuni;

¹ Komilov N. Tasavvur. I-kitob. – T.: Yozuvchi, 1996. – 48 b.

— inson ziynati va yuksak qadriyatga aylangan ijtimoiy hodisa.

Ezgulik barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan «Avesto»da Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu a'mol uchligi zardushtiylikning mohiyatini anglatadi. Yovuzlik ezgulikka qarshi tushuncha bo'lib zardushtiylik ta'limotiga ko'ra yovuzlik sabablari va uning oqibatlari narsa-hodisalarning mohiyatidan kelib chiqadi. Yovuzlikni bartaraf etishda imon-e'tiqodli kishilar katta jonbozlik ko'rsatishi da'vat etilgan.

Ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tamoyil bir-birini tamomila inkor etibgina qolmay, ular o'rtasida hayot-mamot kurashi ketadi va bu abadiy kechadigan jarayon sifatida olamni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ezgulikning ma'nomohiyati yovuzlikka qarshi kurashda o'z ifodasini topadi. Ezgulik axloqiy barkamollik negizidir. Ezgulik ijtimoiylik xususiyati bilan muhim ahamiyatga ega. Ezgulik amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik tamoyillarini ham o'z ichiga oladi. Ezgulik ijtimoiy, shaxsiy xulq-atvor va xatti-harakatni ma'naviy jihatdan baholashning muhim mezonidir.

Yaxshilik va yomonlik. Ezgulik va yovuzlik haqida gap bor-ganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug'iladi. Bu tabiiy. Chunki hozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha etikaga doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor-yo'g'i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To'g'ri, yaxshilik tushunchasining ko'pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olinib inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «tingishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi.

Bu ikki juftlik tushunchalar orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. Yaxshilik asosan shaxsning odobi-gi, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisa. Zero, unda mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajas-mun topadi. Biroq unga asos bo'lgan amaliy xatti-harakatlar

qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag'ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul-maoniy»dek, «Xamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu – ezgulik, u ma'lum ma'noda abadiylik xususiyatiga ega, Chunki Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq-shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, Navoiyning o'zi bevosita ko'plab yaxshiliklar qildi – muhtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzlardan kechib yubordi va h.k. Uning bu yaxshiliklari ajoyib ijobiy hodisa bo'lgani holda, o'tkinchilik tabiatiga ega, Shuningdek, istisnoli hollarda namoyon bo'luvchi qahramonlik ham, buyuk jasorat ham emas. Demak, ezgulik asosan bilvosita amalga oshiriladigan, uzoqni ko'zlovchi, kelajakka ham mo'ljallangan, ya'ni strategik ahamiyatga molik axloqiy xatti-harakatlar majmuyi; yaxshilik esa, odatda, bevosita shu kun uchun dolzarblik xususiyatiga ega, ya'ni taktikaviy axloqiy faoliyatdir. Shunday qilib, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa – ezgulik bilan aynanlashtirish to'g'ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, voqe bo'lgan ezgulik hech qachon yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo'lib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas: biror obyektga qilingan yaxshilik boshqa bir obyekt uchun yoki yaxshilik qilgan subyekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin:

– yaxshilik – bu faqat inson va jamiyat hayotiga xos bo'lib, stixiyali, ko'r-ko'rona sodir etiladigan xatti-harakat emas, balki biron-bir inson, jamiyat manfaatini o'ylab, ko'zlab bajariladigan, ezgulikka yo'g'rilgan amaliy ishdur;

– yaxshilik – bu majburlashning mahsuli emas, balki vijdon amri bilan sodir etiladigan mutlaqo erkin xatti-harakatdir. Yaxshilik qilishga majburlash – yomonlikdir;

– yaxshilik – bu inson axloqiy idealiga muvofiq keladigan real axloqiy munosabatdir, uning ijobiy mazmunidir. Yaxshilik axloqiy idealning amaldagi ifodasidir.

Adolat — odillik, adolat bilan ish ko'rish, qonun asosida, jamiyatda shakllangan ustuvor insoniy munosabatlar doirasida barchaga teng va xolis munosabatda bo'lishdir.

«Adolat» turlicha talqin qilinadigan, xilma-xil tarzda namoyon bo'ladigan tushunchadir. Ba'zi axloqiy-huquqiy me'yorlar umumiy adolat mezonini sifatida qaraladi. Bu, o'z navbatida, adolat mezonlarining jamiyat rivojiga, insoniyat taraqqiyotiga, muayyan mamlakat qonun-qoidalariga mos yoki mos emasligi bilan belgilanadi.

Adolat jamiyatning muayyan shaxsga munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Insonning jamiyatdagi o'rnini, qadr-qimmatini adolat mezonini hisoblanadi. Hayotning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy sohalarida sodir bo'ladigan barcha voqea va hodisalar bu jarayonga bevosita yoki bivosita ta'sir qiladi. Bu ta'sir inson erki va irodasini belgilaydi, alohida shaxs uchun ma'naviy mezon vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy adolat, demokratiya, barqaror taraqqiyot va farovonlik tamoyillarini ro'yobga chiqarishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiluvchi muhim tamoyil. Insonparvar jamiyat g'oyasini o'zida mujassam etgan ijtimoiy adolat va demokratiya tamoyillari bu jarayonda o'z mohiyatini to'la namoyon qila boshlaydi.

Insonparvarlik g'oyalarining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan adolatlilikning barcha ko'rinishlariga qadim davrlardan katta e'tibor berib kelingan. O'tmishdagi Sug'd va Xorazm, Somoniylar, Xorazmshohlar, Qoraxoniylar va Temuriylar davlatlari tarixidan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin, xususan, Amir Temur saltanatida amal qilingan «Tuzuklar»da, eng avvalo adolat va har ishda adolatlilik tamoyillariga so'zsiz amal qilingan. Davlat «Kuch adolatdadir» shiori ostida tuzildi va ravnaq topdi.

Vijdon. Insonga xos yuksak ma'naviy fazilat, kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat hissini anglatuvchi tuyg'u vijdonli inson har bir qilgan ishi, odamlar bilan bo'lgan muloqoti, faoliyati va fikrlarini sarhisob qiladi. Nohaqlikka, adolatsizlikka

murosasizlik bilan qarshilik ko'rsatadi. Vaholanki, vijdotsiz odamning adolatparvar, sadoqatli, or-nomusli inson bo'lishi amrimahol. Vijdon eng avvalo, o'zgalarga nisbatan burch va mas'uliyatni teran his etishni taqozo etadi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti ta'kidlaganidek, «Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar yetkazadigan yovuz xatti-harakatlarga hech qachon chetdan jim qarab turlamaydi, o'z yurti va xalqida nisbatan xiyonat va sotqinlikni aslo qabul qilolmaydi. Bunday holatlarni ko'rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo'lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo'lsa, bu yo'lda hatto jonini ham fido qiladi.

Burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U, yuqorida aytganimizdek, vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti-harakati zamirida burch tushunchasi - burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud.

Shafqat. Shafqat istilohi hozirgacha etikaga doir asosiy o'quv adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda asosiy mezoniy tushuncha sifatida taqdim etilmaydi. Vaholanki shafqatning ildizi inson shaxsiga bo'lgan muhabbatga borib taqaladi, u ham muhabbat kabi qamrovli hissiyot. Agar muhabbat mehrga asoslansa, shafqat muruvvat bilan bog'liq. Lekin u ayni paytda muruvvatdan jiddiy farq qiladi. Muruvvat bir insonning ko'p hollarida o'ziga aloqasi yo'q boshqa bir insonga achinish hissi orqali yordamga qo'l cho'zishi bo'lsa, shafqat kishining o'ziga aloqador odamga, aybdor, gunohkor, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy

jazolanishga loyiq kimsaga kechirimlilik orqali insonparvarlik ko'rsatishdir.

Shafqat hissi shafqatga muhtoj kishi o'rniga xayolan o'zini qo'yib fikr yuritish orqali vujudga keladigan, o'zga bir inson iz-tiroblarini yengillatishga qaratilgan axloqiy hodisadir. G'azab insondagi hayvoniy xislat bo'lsa, shafqat insoniylik belgilaridan biridir.

Ideal. Inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy-hayotiy komillikni qo'lga kiritadi.

Dunyoviy ideal bilan, to'g'rirog'i, ijtimoiy-axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa-da, aslida keskin farq qiladi. Chunonchi, musulmonlar uchun — Muhammad (s.a.v.), nasroniylar uchun — Hazrati Iso, yahudo dinidagilar uchun — Hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy-axloqiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin — eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilinardi. Hozir esa «Kuch — adolatda!» degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy-axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining namunaviy timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy-axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin.

Hayotning ma'nosi. Inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosi nimada? Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. Shu bois u axloqshunoslikning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko'p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas,

Chunki hayotning ma'nosi maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o'z ichiga o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog'i, u muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. Shu bois kimningdir biror-bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma'nosiz» deb bo'lmaydi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu-intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin. Mazkur kishi — «hayot egasi»ning bunday tabiati jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o'z hayoti ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy-badavlat, to'kin-sochin yashashda deb tushunadi: harom-xarishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqmaydi yoki qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldiga hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam» deydi. Boshqa birov esa qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi. Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog'laydilar va jamiyatda yuksak axloq egasi, go'zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliy ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o'zidan keyin qoldiradigan «ikkinchi umr»da ko'radilar.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan toifalar ikki umumiy ijtimoiy-ma'naviy guruhning biriga, ta'bir joiz bo'lsa, shartli ravishda dunyoviy deb ataladigan qismiga mansub.

Ikkinchi guruhni esa e'tiqodiy-diniy deb nomlash mumkin. Bu guruh hayotning ma'nosini xudoni topishda, unga yetishishda deb biladi. Bunda goho cherkov yoki shariat aqidalari orqali emas, balki muhabbat vositasida ham xudoga murojaat qiladilar.

Ma'lum bo'lyaptiki, hayotning ma'nosini tushunishda har ikki ijtimoiy-ma'naviy guruhda ham turli qarashlar mavjud. Lekin ular bir masalada yakdil: ular hayotning ma'nosi o'z manfaatlarini o'zgalar manfaati bilan bog'lab, oliy qadriyatlar va yuksak aqidalarni ichki shior qilib yashashdadir, degan axloqiy qoidaga binoan umr kechiradilar.

Baxt. Hayotning ma'nosi ideal bilan bog'liq bo'lgani kabi baxt atamasini ham hayotning ma'nosi tushunchasidan ajratib olingan holda tahlil etish mumkin emas. Zero, baxt inson o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushungani va shu ma'nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir. Har bir insonda qoniqish hissi undagi maqsadlarning takomilga yetganidagina ro'y beradi. Faqat bu takomilga yetish jarayoni bir umr davom etadi. Shu ma'noda buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt — har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», — deganida ko'p jihatdan haq edi.

Faqat bu qoniqish ham davomiylik tabiatiga ega ekanini unutmaslik lozim, uni lazzat bilan aynanlashtirish to'g'ri emas. Lazzat oniylik xususiyatiga ega, o'zini faqat jarayondagina namoyon etadigan hodisa va u moddiy hayotdagi real, ammo o'tkinchi ehtiyojlardan kelib chiqadi. Masalan, gastrologik yoki shahvoniy lazzatni olib ko'raylik: deylik, siz kabobni xush ko'rasiz va lazzatlanib yeya boshlaysiz, lekin biroz muddat o'tgach, to'yasiz, boshqa yeingiz kelmay qoladi; shahvoniy lazzat ham shunday. Baxt esa ma'naviy ehtiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin-ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boya aytganimizdek, bir umr to'xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o'z ichiga oladi.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy-ehtirosli shakli sifatida ko'zga tashlansada, aslida undan farqli o'laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro'yobini anglatadi. Har bir intilishning ro'yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi.

Baxt haqida gap ketganda, albatta, omad to'g'risida to'xtalib o'tish lozim. Omad ham lazzatga o'xshash oniylik tabiatiga ega. Lekin bu oniylikda lazzatdagidek takrorlanish xususiyati yo'q: odamga omad hayoti mobaynida kamdan-kam kulib boqadi. Omadning ana shu jihati haqida qrim-tatarlarning qadimgi asotiri bor. Unga ko'ra, omad ma'buda ekan, kunlardan birida uning o'g'li yerni tomosha qilaman deb osmondan tushibdi-yu, qaytib chiqmabdi. Shu-shu omad yerga tushib, hanuz bolasini qidirarmish. Ma'budaning yuzi yo'q, faqat qoq miyasi ustida bit-tagina ko'zi bor ekan. Shu bois u to'g'ri kelgan o'tkinchini tutib

olib, o'g'limmikan deb, balandga ko'tarib, ko'ziga olib borib qararkan va o'g'li emasligiga ishonch hosil qilgach, osmonu falakdan pastga qaratib itqitib yuborarkan. Omad o'z qo'liga tushganlarning hammasiga shunday munosabatda bo'lar ekan.

Darhaqiqat, mazkur asotirda omadning o'tkinchilik mohiyati juda chiroyli va majoziy ochib berilgan; bir umr omadli odam yo'q, omad – tasodif, baxt – zaruriyat; omad – istisnoli, baxt – qonuniy hodisa. Omad - shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi, baxt esa inson nimaga erishmog'i lozim, degan savolga bir umr mobaynidagi amaliy javobdir.

Axloqiy tamoyillar ham inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab tarzida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti-harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmuyi, shaxs erki, qadr-qimmatini, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonchdir. Rostgo'ylik Insonning yuksak ijtimoiy maqomini belgilaydigan, bu boradagi diniy va dunyoviy, g'oyaviy-mafkuraviy, milliy va umumbashariy qarashlar, mezonlar, qadriyatlar va an'analar tizimini ifodalovchi tushunchadir.

Insonparvarlik – odamiylikdir. Uning tub mohiyati inson zotini hurmat qilish, qadr-qimmatini bilish hamda baxt-iqboli yo'lida doimo fidokorlik bilan kurashish va g'amxo'rlik ko'rsatishdan iboratdir.

Insonparvarlik – odamzodning qadri, erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotni ta'minlashdir.

Chinakam insoniylik viqori kishida hamdo'stlik, hamkorlik, hamdardlik, hamjihatlik, adolatlilik, adolatparvar, tinchlik, totuvlik, rahmdillik, ko'ngilchan, bag'rikenglik va boshqa yuksak ma'naviy komilliklarni jamlagandagina namoyon bo'ladi.

Erkparvarlik. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi — erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir.

Erkparvar inson qullikning, mutelikning har qanday ko'rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma'nodagi jangchisiga ham aylanadi. Bu jangchi bir tomondan, har bir shaxsning o'z erkinligi, o'z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqi, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomondan, butun-butun millatlar erki masalasini o'rtaga tashlar ekan, ma'lum ma'noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi.

Vatanparvarlik — insonning o'z tug'ilgan joyiga cheksiz mehr-muhabbat qo'yib, uning xizmatida bo'lishdir. Vatan inson uchun or-nomus, shon-shavkat va g'urur-iftixor manbai hisoblanadi. Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliyjanob faoliyatni anglatadigan tushuncha vatanparvarlik nihoyatda serqirra bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi. Vatan manfaatli, qadrlash qimmatli, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qancha chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarning yangi-yangi qirralari namoyon bo'lib boradi. Haqiqiy vatanparvar, Vatanga, ona zamanga, o'z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaatli yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu — millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli.

Shu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga

buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar — milliy o'zligini anglab yetgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining — millatparvarlikning ilmiy-nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko'rinishini, uning mafkuraviy jihatlari-ni O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov shunday ta'riflaydi: «Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor».

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat yo'lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur».

Fidoyilik — boshqalar manfaati yo'lida o'z qonuniy manfaatlarini, hatto hayotini qurbon qilishga tayyor turadi, jamiyat uchun umumiy bo'lgan oliy maqsad va ideallarni deb o'zidan kechadigan kishilar xatti-harakatlarini ifodalovchi ma'naviy tushuncha fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. Vatanga, xalqiga bo'lgan hurmat, muhabbat, ishonch tuyg'usi muayyan umumiy manfaatlar, maqsadlar asosida shakllanib, kishilar qalbidan chuqur o'rin oladi hamda faoliyatiga ta'sir qilib, ularni mas'uliyatli vazifalarni bajarishga safarbar etadi. Fidoyi o'z taqdirini Vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilatdir.

Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushuncha ma'nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keldi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari o'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma'rifatparvarlar hayotida shakllanganini e'tirof etmoq lozim. Ya'ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual — aqliy taraqqiyot bilan bog'liq.

Vaholanki, ziyolilik tamoyili tabaqa yoki guruhga mansublik ma'nolarini anglatmaydi. Oddiy fermer-dehqon ham, haydovchi ham, farrosh ham ziyolilik tamoyili bilan ish ko'rishi va atrofda-yilar tomonidan: «Ha, falonchimi, juda ajoyib, ziyoli odam-da», degan yuksak ijtimoiy bahoga loyiq bo'lishlari mumkin. Bunda u odamning kasbidan qat'i nazar, ham bilim, ham fahm-farosat, ham oliy maqsadlar egasi ekani tushuniladi. Shunday qilib, ziyolilik asosida insonning ma'naviy-ma'rifiy yuksakligi, qalbidagi ichki nur, atrofni ham nurlantira oladigan ziyosi bilan belgilanadigan xatti-harakatlar yotadi.

Ziyolilik tamoyiliga oddiy fuqarolarning munosabatida esa ikki xil yondashuv ko'zga tashlanadi. Ularning faol va ilg'or qismi, millatning o'zagini tashkil etadigan ko'pchilik odamlar ziyolilarga havas bilan qaraydilar, ziyolilarning xatti-harakatlarini nafaqat ma'qullaydilar, balki o'z farzandlari va yaqinlariga namuna qilib ko'rsatadilar. Ammo oddiy aholilik majburiyatidan boshqa narsani bilmaydigan, tarixdan «omma» deb atalib kelinadigan ijtimoiy qatlam kishilari, ularning ma'lumotlari oliy yoki o'rtaligidan qat'i nazar, ziyolilarga istehzo bilan, «hokimiyat bilan o'ynashgan esi pastlar» deb qaraydilar. Ana shu xudbin va mahdud «omma» qaysi yerda kamayib borsa, o'sha jamiyatda taraqqiyot yuksak darajaga ko'tariladi. Zero, ziyolilik keng ma'nodagi fidoyilikdir. Shu bois mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq bizda ziyolilik tamoyilini har bir fuqaroga singdirish uchun muntazam kurash olib borilmoqda. Uni singdirish esa ma'naviyatni yuksaltirish orqali ro'yobga chiqadi.

Mehnatsevarlik — ijtimoiy foydali mehnat uchun o'z vaqti va kuchini berishga tayyorlik holati. Mehnatsevarlik mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatning namoyon bo'lishidir. Shaxs man-

faati nuqtayi nazaridan, mehnatsevar insonning o'z hayotida muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lsa, axloqiy nuqtayi nazardan xalq farovonligini ta'minlash uchun zarur faoliyatdir. Mehnatsevarlikning yo'qligi va dangasalik esa nuqson sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ishga haddan tashqari ruju qo'yish ijtimoiy manfaatlar nuqtayi nazaridan biroz qoralanadi ham. Bunday mehnat, ya'ni o'zaro munosabatlar evaziga mehnatga ruju qo'yish, shaxsning o'z egoistik maqsadi yo'nalishidagi faolligi deb qaraladi. Shuning uchun mehnatga baho berishda masalaning ma'naviy jihati ustunlik qiladi.

Tinchlikparvarlik — shaxs axloqi va ma'naviyatini belgilovchi fazilatlardan biri bo'lib, u urushlarga yo'l qo'ymaslik, davlatlararo nizo va mojarolarni siyosiy vositalar bilan hal etish, mamlakat ichidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'llar bilan bartaraf qilish, inson huquqi va qonun ustuvorligini ta'minlash tamoyillarini ifodalovchi tushunchadir.

Tinchlikparvarlikning yana bir ko'rinishi bu totuvlik bo'lib, 1) tor ma'noda — odamlar, oila, mahalla yoki guruh a'zolari orasidaga o'zaro ma'naviy-murosaviy munosabat; 2) keng ma'noda fuqarolarning ma'naviy-axloqiy mezonlari, xatti-harakatlari, hayotga munosabatlarida ko'zga tashlanadigan ma'naviy hodisa. Totuvlik jamiyatda turli xil ijtimoiy qatlam va guruhlarining turli millat, irq va dinga mansub kishilarning o'zaro munosabatlarida, ularning muayyan davlat siyosatiga bo'lgan munosabatlarida hamfikrlilik tamoyili asosidagi umumiylikni anglatuvchi tushuncha hamdir.

Axloqiy me'yorlar ham inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. **Halollik** - vijdon, adolat va burch kabi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari bilan bog'liq, insonning o'zgaga munosabati o'ziga munosabatidek sof, pokiza bo'lishini talab qiladigan axloqiy me'yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning yemak-ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar'iy me'yor bo'lib amal qilgan, uning ziddi — harom diniy nuqtayi nazardan salbiy hisoblangan xatti-harakatlarga nisbatan qo'llanilgan. Ko'rib o'tganimizdek, har bir diniy e'tiqodning asosida axloqiylik yota-

di va u ko'p hollarda ibodatdan baland qo'yilgan: solih bandalari, «Qur'on»da aytilganidek, eng avvalo go'zal axloq egalari. Shu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor shar'iy qobiqdan chiqib, asta-sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy me'yorga aylandi, teran ma'naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat bo'lib qoldi. Masalan, hozirgi kunda ixtisoslashgan mehnat taqsimotining takomillashuvi, ilm-fan taraqqiyotining yuksalishi natijasida biz kasbiy halollik ilmiy halollik, iqtisodiy halollik va boshqalar haqida gapirishimiz mumkin.

Insoniyat jamiyatida haromlik yoxud nopoklikning halollikka nisbatan kam uchramasligi doimo axloqshunoslarni tashvishga solib kelgan. Chunonchi, Imom G'azzoliyning harom yeyish haqida to'xtalib, mana bunday deyishi bejiz emas: «Chunonchi, Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida, hayoni – dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir, u iffatning pardasi, vijdonning niqobi deb ataydi».

Kamtarlik – shaxsning o'ziga va atrofdagilarga samimiy munosabatini ifoda etadigan axloqiy hodisa, inson axloqini bezaydigan fazilatlardan biridir. Kamtarlik o'zini o'zgalardan yuqori qo'ymaslik, o'z kuch-qudratini namoyish qilib maqtanmaslik, o'zini boshqalardan ustun deb hisoblamaslik.

Kamtarlikning ziddi manmanlik, takabburlik eng tuban illatdir. Kamtarlik insonni yuksaklikka ko'taradi, manmanlik esa tubanlashtiradi. Manmanlik, takabburlik jamiyatning olg'a intilishiga to'siq bo'ladigan illatlardan biridir. Manman kishi o'zi haqida juda yuqori fikrda bo'ladi, atrofdagilarni mensimaydi, o'z manfaatini o'zgalar manfaatidan yuqori qo'yadi va oqibatda shuhratparastlik, xudbinlik to'riga ilinadi, jamiyatda obro'sini yo'qotadi.

Kamtar inson o'zgalardan kamchilik axtarmaydi, o'z kamchiliklarini ko'ra biladi, uni bartaraf etishga harakat qiladi. Kamtarlik bilan sabr-toqat yonma-yondir. Kamtar inson yaxshi-yomon kunga sabr-qanoat qiladi, o'zligini yo'qotmaydi. Xalqimiz orasida «Kamtar kam bo'lmas», «Kamtarga kamol, manmanga

zavol» kabi maqollar ushbu axloqiy fazilat insonni yuksaklikka ko'tarishi, xalq hurmatiga sazovor etishini anglatadi.

XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati. XXI asrda global etosfera, sayyoramizda etosfera – axloqiy muhitni yaratish dolzarb masalaga aylandi. Ma'lumki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi.

XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda inson o'z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani – texnikaviy muhitni yaratdi. Mana, hozirgi kunda, qarang, ertalabdan kechgacha biz o'z texnikaviy kashfiyotlarimiz ichida yashaymiz – yeymiz, ichamiz, yuramiz, uxlaymiz, ularsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Bular metro, avtobus, televizor, radio, telefon, eskalator, pleyer, lift, kompyuter, poyezd, teploxod, gaz plitalari, elektr asboblari, zavodlar, lokatorlar, kimyoviy dori-darmonlar va h.k. Bugun videotelefondagi gaplashar ekanmiz, yuzlab chaqirim naridagi suhbatdoshimizni ko'rish va u bilan gaplashish uchun ot-ulovda yoki piyoda boradigan bo'lsak, necha kunlab yo'l bosishimiz kerakligi haqida o'ylab o'tirmaymiz, to'g'rirog'i, bu esimizga ham kelmaydi. Chunki texnika bizning yashash muhitimizga aylanib qolgan.

Faqat bugina emas. Inson endilikda o'zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta'sir ko'rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo'lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o'zgarishlarning asosiy sababiga aylandi. Noosfera ta'limoti asoschilaridan biri rus olimi V.V.Vernadskiy ilmiy tafakkur va inson mehnati ta'siri ostida biosfera yangi holat bo'lmish noosferaga o'tayotganligini, butun geologik davr mobaynida yaratilgan, o'z muvozanatlarida barqarorlashgan biosfera inson ilmiy tafakkuri bosimi ostida tobora kuchliroq va teranroq o'zgarishga kirishganini ta'kidlaydi: «Sayyoramiz yuzi – biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda keskin kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda, – deb yozadi u. – Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havu qobig'ini, uning barcha tabiiy

svularini o'zgartirmoqda... Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz»¹.

Bu muammolarning hal etilishi faqat atrof-muhitni kimyoviy zuhardan ekologik tozalashnigina emas, balki, eng avvalo, global ma'noda XXI asr kishisi ongini texnokratiya zaharidan foyig'lantirishni taqozo etadi. Ya'ni ular insoniyat oldida endilikda ekologik hodisa emas, balki tom ma'nodagi axloqiy muammolar sifatida ko'ndalang bo'lib turibdi. Mashhur avstriyalik etolog olim, Nobel mukofoti laureati Konrad LDorensning: «Yoppasiga va tez yoyilib borayotgan jonli tabiatga begonalashish hodisasi uchun asosan sivilizatsiyamiz kishisidagi estetik va axloqiy to'poslik aybdordir», — degan so'zlari shu nuqtayi nazardan diqqatga sazovordir².

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa bitta: kelajakda inson o'zini va o'z sayyorasini muqarrar halokatdan qutqaraman desa — XXI asrdan boshlab etosfera davriga o'tishi kerak; axloqiylik har birimiz uchun har qadamda bugungi texnikaviy muhit kabi zaruratga aylangandagina bunga erishish mumkin. Bunda etika fanining o'rni nihoyatda beqiyos.

Tayanch tushunchalar: axloq, odob, xulq, kategoriya, axloqiy me'yorlar, tamoyillar, ezgulik, yovuzlik, yaxshilik, yomonlik, muhabbat, nafrat, burch, vijdon, or-nomus, hayotning ma'nosi, mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik, hasad, hayo, kamtarlik, millatparvarlik, insonparvarlik, adolat, muruvvat, qadriyat, vatanparvarlik.

Takrorlash uchun savollar:

1. Etika fanining tadqiqot doirasini izohlang.
2. Shaxs hayotida axloqiy me'yorlar qanday o'rin tutadi?
3. Etika fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

¹ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. — М.: Сов. Россия, 1989. С. 186 — 187.

² Лоренц К. Восемь смертных грехов цивилизованного человечества. // «Вопросы философии». № 3, 1992 — 42 с.

4. Etika boshqa qaysi ijtimoiy fanlar bilan aloqadorlikda ish olib boradi?

5. Etikaning asosiy kategoriyalari haqida ma'lumot bering.

14-mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni

Nikoh – eng qadimgi axloqiy munosabat shakli. Nikohning qonuniy va diniy jihatlari. Nikoh o'z mohiyatiga ko'ra axloqiy hodisa. Nikoh – erkak va ayolning teng huquqli, erkin va ixtiyoriy ittifoqi bo'lib, u fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida tuziladi va oila tuzish maqsadiga xizmat qiladi. Oila jamiyatning dastlabki bo'g'ini sanaladi va davlatning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilada tug'ilib, tarbiya topayotgan yosh avlod jamiyatning, davlatning ertangi kunini, istiqbolini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyasidagi nufuzini oshirishga ko'maklashish hamda mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etish uchun asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasida oilaning jamiyat taraqqiyotidagi nufuzi haqida: «Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqsadlari, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda», – deb ta'kidlagan edilar.

Bir qancha respublika va xalqaro miqyosdagi normativ huquqiy hujjatlarda ona va bola huquqlari mustahkamlab qo'yildi. Jumladan, respublikamiz konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan bo'lib, bu yerda oila va nikoh munosabatlari, ona-

lik va bolalik davlat tomonidan to'la muhofaza qilingan. Qonun-
ga binoan nikoh tuzish shartlaridan eng muhimlari — nikohga
kiruvchilarning o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetgan-
liklari. Bizda yigitlar uchun — 18, qizlar uchun — 17 nikoh yosh-
lari qilib belgilangan.

1998-yili Oila kodeksini O'zbekiston Respublikasi Oliy Maj-
lisi tomonidan tasdiqlanishi oila va nikoh masalalarini tartibga
solishda va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bir
so'z bilan aytadigan bo'lsak oila va nikoh munosabatlari har doim
davlatimiz himoyasida bo'lgan va davlatimiz siyosatining ustuvor
yo'nalishlaridan biri sifatida qarab kelingan. Yurtimizda oila
va nikoh munosabatlari davlat qonun-qoidalari hamda avloddan
avlodga o'tib kelayotgan go'zal an'analar asosida amalga oshirib
kelinmoqda. Xususan, huquq sohasiga oid an'analar mustaqil-
lik davrida o'tmish merosimizdagi va milliy mental xususiyatlar
asosida tobora mukammallashtirilib, optimallashtirish choralari
ishlab chiqilmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasida belgilangan oi-
la-nikoh munosabatlariga oid qonun-qoidalar majmuyi davlat
g'amxo'rligiga olinib, o'zbek xalqining bu boradagi milliy va
diniy qadriyatlarini ham nazarda tutgan holda «Mehnat kodeksi»,
«Oila kodeksi», «Fuqarolik va jinoyat kodeksi» hamda «Sog'lom
avlod» kabi qonunlarida o'z ifodasini topgan. Ularda oila-nikoh
masalalariga ma'naviy jihatdan ham yondashilib qonun darajasiga
ko'tarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 8-moddasida oila-
viy munosabatlarda urf-odat va an'analarga amal qilish to'g'risida
alohida so'z yuritiladi: «Qonun hujjatlarida oilaviy munosabat-
larni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda,
O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmagan
mahalliy urf-odat va an'analar qo'llaniladi¹. Darhaqiqat, Kodeks-
da davr sinovidan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar bilan etno-
madaniy an'analar, o'zbek xalqining mentaliteti o'z ifodasini
topgan. Ushbu milliy va diniy urf-odatlar, an'analar orasida

¹ O'zbekiston Respublikasining oila kodeksi. — T.: Adolat, 1998. — 8 b.

shundaylari borki, ular oila-nikoh masalasidagi qonun hujjatlariga zid kelmaydi. Aksincha, ular asrlar davomida tarix sinovlaridan o'tib, oilani mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.

Oila, nikoh haqida, uning mustahkamligi to'g'risida diyori-mizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarimiz Imom al-Buxoriy, Imom al-Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqalar o'z asarlarida qimmatli fikrlarini keltirib o'tganlar. Xususan, fiqh (musulmon huquqshunosligi) ilmining sultoni Burhoniuddin Marg'inoniyning oilani mustahkamligi va farovonligini oshirishga xizmat qiladigan, oila va nikoh masalasida chiqarilgan ayrim hukmlarini ta'kidlash lozim.

Burhoniddin al-Marg'inoniyning shoh asari «Hidoya»da «Nikoh kitobi» va «Taloq kitobi» bevosita oila va nikoh masalalariga bag'ishlangan. Marg'inoniy oilaning moddiy va ma'naviy jihatdan mustahkamlanishi uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan holatlarni nazarda tutgan holda mahr berish borasida ayrim yengilliklarni o'z hukmlariga kiritadi: Chunonchi, «nikohda garchi mahr aytilmasa ham, nikoh durust bo'laveradi»¹, «... mahr ayol kishining xolis haqqidir. U nikohning boshidayoq mahrni bekor qilishi mumkin bo'lgani kabi nikoh tugagandan keyin (ya'ni eri o'lgandan keyin) ham o'z haqidani voz kechishi mumkin»², «Nikoh faqat juftlanish uchun emas, balki undan ko'zda tutilgan maqsadlarni ro'yobga chiqishi uchun mashru' qilingandir»³, deb chiqargan hukmlari fikrimizning isbotidir.

Ushbu hukm haqiqatan ham insoniy mehr-muruvvat, bag'rikenglik ruhida chiqarilganligi bilan katta ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Bu hukmlarning ma'naviy tomoni shundaki, nikoh qandaydir moddiy manfaatlar evaziga emas, balki oila mustahkamligiga xizmat qilmog'i lozim. Zero, oiladagi go'zal qadriyatlar, jumladan sevgi-muhabbat, far-

¹ Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. 1-jild. Nikoh kitobi. — T.: Adolat, 2000. — 690 b.

² O'sha asar. 692 b.

³ Burhoniddin Marg'inoniy. Hidoya. 1-jild. Nikoh kitobi. — T.: Adolat, 2000. — 732 b.

zandlar xursandchiligi va insoniy go'zal mehr barcha narsadan ustun turadi hamda oila mustahkamligiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari «Hidoya»da g'ayrishar'iy nikoh holatlari haqida ham diqqatga sazovor hukmlar keltirilgan. Marg'inoniy tomonidan g'ayrishar'iy deb hukm chiqarilgan holatlar — ma'naviyatga va axloqiy me'yorlarga zidligi sabablidir. Alloma asaridagi ushbu holat bugungi kun bilan chambarchas bog'langandir. G'arb mamlakatlarida oilaning qadrsizlanishini va axloqan buzuvchi bo'lgan bir jinsli nikohning kundan kunga ko'payib borayotganligini amerikalik siyosatshunos Patrik Byukenen o'zining «G'arbning halokati» deb nomlangan asarida kuyunch bilan e'tirof etadi. G'arb davlatlari orasi shiddat bilan kamayib borishi, bugungi kunda Yevropaning o'n yetti davlatida o'lish tug'ilishga nisbatan ancha yuqori ekanligi, nikohlar soni kamayib ajrimlar oshib borayotganligini keltirib chiqarmoqda. Eng achinarlisi Yevropa aholisining katta qismi bugungi kunda bir jinsli nikoh tarafdori ekanligi vaziyatning naqadar ayanchli ahvoldaligidan dalolat beradi. Endi esa Yevropa davlatlari tezda bu muammolarga yechim topmasa o'z-o'zidan yemirilib yo'q bo'lishi hech gap emasligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham fiqh bunday nikohlarni «botil» va «fosiq» nikohlar deb hisoblaydi. «Botil» iborasi asossiz, o'z kuchini yo'qotuvchi ma'nolarini anglatadi¹. «Fosiq» iborasi axloqiy buzuvchi, nuqsonli ma'nolarini anglatadi². Demak, bunday nikohlar Marg'inoniy nazdida ma'nadan hech qanday kuchga ega bo'lmagan, buzuvchi nikohlar hisoblanadi.

Marg'inoniy fikricha, shaxsni ma'naviy tubanlikka olib kelishi, jamiyat uchun ijtimoiy falokatga aylanishi mumkin bo'lgan har qanday nikoh holatlari axloqiy jihatdan qattiq qoralanadi va g'ayrishar'iy nikohlar deb hukm chiqariladi, garchi bu nikohlar rasmiyatchilik qonun-qoidalari asosida amalga oshirilgan bo'lsa ham. Rasman nikoh deb atalgan, lekin Marg'inoniy tomonidan noshar'iy deb hukm chiqarilgan ana shunday «botil» nikohlardan biri — mut'a nikohidir. Ushbu nikohning g'ayriaxloqiy mohiyati

¹ Qarang: Арабско-русский словарь. — М.: 1962. — 91 с.

² O'sha kitob. С. 765.

va «botil»ligi haqida «Hidoya»da shunday deyiladi: «Mut'a birorta ayolga: men sendan falon muddatga faloncha pul evaziga (jinsiy) foydalanaman» — deyishdir.

Oilaning psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitining farzand tarbiyasiga ta'siri. Oila nomusi va sha'nini saqlashda ota-ona va farzandlar mas'uliyati. Har bir insonning shakllanishi, voyaga yetishi, o'zini shaxs sifatida namoyon etishida u tarbiya topgan oiladagi tarbiyaning, ma'naviy-ruhiy muhitning o'rni kattadir. Shuning uchun ham ajdodlarimiz qurilajak oilaning mustahkamligini ta'minlaydigan jihatlarga alohida e'tibor qaratganlar. Yetti pushtini surishtirishdan tortib, oilaviy tutumini, mahalladoshlarining bo'lajak qudalar, kuyov yoki kelin haqidagi fikrlarini, kasbu korini batafsil o'rganishgan. Yosh oila asoschilarining oila qurishga tayyorgarligini hisobga olish esa eng muhim omil sanalgan.

Haqiqatan ham, yoshlarning jismonan yetuklikka erishgani hali ularni oila qurishga tayyorligini bildirmaydi. Qachonki, ikki yosh ham kichik jamiyat, ya'ni oilani barpo etishga ruhan tayyor bo'lsalar, shundagina to'kis oila bunyod bo'lishi mumkin. Mutaxassislarning fikrlariga qaraganda, bugungi kunda ayrim otanonalar orzu-istaklarini tezroq ro'yobga chiqarish maqsadida yoki farzandi oldidagi mas'uliyatdan qochish uchunmi, farzandlarini erta turmush qurishga undashmoqda. Ming afsuski, bu ko'pincha ajralishlar bilan tugamoqda.

Oilada er-xotin bir-biri bilan nafaqat sevgi-muhabbat rishtalari orqali bog'langan, balki iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-tarbiyaviy, eng muhimi avlodlarni dunyoga keltirish, tarbiyalash va jamiyatga yetkazib berishdek o'ta mas'uliyatli vazifa bilan ham o'zaro bog'liqdirlar. Chunki «oila hayotning, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i»¹. Bunda ularning maqsad-muddaolari uyg'un, intilishlari mushtarak bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi.

Oila insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga sharoit tug'diradigan, ruhan orom oladigan makoni bo'lishi bilan

¹ Falsafa qisqacha izohli lug'at. — T.: Sharq, 2004. — 241 b.

birga «asosiy ishxonasi» desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerda er ham, xotin ham o'z vazifasini og'ishmay bajarsagina farzandlari qobil, dasturxonni to'kin, el-yurt o'rtasidagi obro'si yuksak bo'ladi. Har tomonlama yetuk, barkamol avlod sog'lom muhitda, ma'rifatli, mehnatkash, uzoqni ko'ra oladigan ota-onalarning qo'l ostida voyaga yetadi.

Milliy tarbiya tizimida oila ma'naviyati, undagi ota-onaning o'rniga ajdodlarimiz alohida e'tibor berishganlar. Chunonchi, milliy ma'naviyatning shakllanishiga beqiyos hissa qo'shgan, o'zbek oilalarida azaldan sog'lom turmush tarzi, muomala madaniyati mavjudki, bu, o'z navbatida ota-ona va farzandlar o'ziga xos axloqiy qadriyatlarga munosabatlarida, ro'zg'orni saranjom tutish, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish tamoyillarida o'z ifodasini topgan. Milliy an'analarimiz ichida bola tarbiyasiga doir urf-odatlar ayniqsa, muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, xalqning sof holda ko'rinishi bolalarda namoyon bo'ladi. Qachonki bolalarda milliylik o'lar ekan, bu millat o'limining boshlanishini bildiradi. Tarbiyada milliylik qancha ko'p saqlanib qolgan bo'lsa, shu millat shuncha kuchli madaniyatga ega, ma'naviy boy hisoblanadi¹.

Oiladagi to'g'ri tarbiya dastlab ota-onaning namunali, ularning o'zaro iliq va samimiy munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Oiladagi ota-ona va boshqa oila a'zolarining gazeta va jurnallar, badiiy asarlarni o'qishi, ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarni ko'rishini hamda ularga oilaviy munosabatlarini bildirishi yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi. Oila o'rnini bosuvchi boshqa ijtimoiy institut hali kashf etilgani yo'q. Oila shaxs, davlat, jamiyat va boshqa ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlarda vositachi o'rnini o'taydi. Oilaning o'z vazifalarini bajarishi avlodlar tarixiy izchilligining saqlanishi, shaxs va jamiyat rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. Oilaviy tarbiya — bu, avvalo ota-onaning o'zini tarbiyalash demakdir. Ota va ona oila deb atalmish muqaddas qo'rg'onning ustunlari. Ular qanchalik

¹ Волков Г.Н., Баубекова Г.Д. Этнопедагогика.— Т.: Фан, 2000. 38-бет.

pishiq va puxta bo'lsa, bu qo'rg'on ham shunchalik mustahkamlanib boraveradi.

Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarning o'рни. Azaliy qadriyatlarimizda tani sihatlik va ma'naviy butunlik uyg'un bo'lib kelgan. Tani sihatlik insonning tabiiy va jismoniy salomatligi mezonlarini, ma'naviy butunlik inson qalbining salomatlik mezonlarini mujassam etgan. O'zbek oilalarida insoniy munosabat, izzat-ikrom, hurmat, e'zoz, muomaladagi ochiqlik, mehmonnavozlik bag'rikenglik, tinch va osuda hayot, xursandchilik kabi xususiyatlarni amalda ko'rsata olib hayot mezoniga aylantira olishni anglatgan. Demak, oilaning bugungi kundagi vazifalari birinchidan, farzandining axloqiy-estetik, huquqiy, diniy madaniyati uchun jamiyat oldida javobgarlik, ota-onalik burchiga e'tibor bilan qarash, fuqarolik mas'uliyatini his etish, muhim ijtimoiy burchni bajarish, ikkinchidan, farzandlarga turmush muammolarini mustaqil hal etish usullari, o'zini ta'minlash va yashashning munosib darajasiga erishish imkoniyatlarini o'rgatish; uchinchidan, hayotning mushkul vaziyatidan chiqib olish uchun resurslar, harakatlar ko'rsatadigan tizimlar bilan uzviy aloqada bo'lish, Shuningdek bu tizimlarning samarali va tashkiliy ishlariga ko'maklashishdan iborat.

Oiladagi qadriyatlar, undagi psixologik, ijtimoiy-ma'naviy muhitning farzand tarbiyasiga ta'siri buyuk mutafakkir va al-lomalarimizning bizgacha yetib kelgan ilmiy meroslarida alohida e'tirof etilgan. Bu xususda Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'kidlab o'tilgan. Unga ko'ra oila sog'lom avlodning paydo bo'lishi, benuqson naslning tug'ilishi, sog'lom turmush tarzi, zurriyodning pokizaligi, uning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy, ma'naviy tarbiyasida alohida o'rin tutgan. Unda ta'kidlanishicha o'smirlar o'n besh yoshga to'lgandan keyingina yetmish ikki xil rangli ipak iplardan to'qilgan belbog' bilan bellarini o'rash va o'zlarini yaxshilik yo'liga baxshida etish uchun turmush qurish huquqiga ega bo'lgan. Lekin yoshlarning o'zboshimchalik bilan oila qurishlariga yo'l qo'yilmagan.

Oila qurish jamoa, ota-ona izmida bo'lgan. Shu sababli, jamoa va ota-onalar bo'lajak kelin-kuyovlarni tanlashda obdon o'ylab ish ko'rganlar. «Avesto»ning «Vendidod» bobida bayon etilishicha nasl sog'lomligining irsiy jihatlariga alohida e'tibor berilib, yaqin qarindoshlar o'rtasida farzandlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Sog'lom avlodning tug'ilishi uchun ota-onalar sharob ichmaslikka, giyohvand moddalar va boshqa hushdan ketkazuvchi vositalarni iste'mol qilmaslikka da'vat etilgan. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra katta oilalar jamoa oqsoqoli tomonidan himoya qilinib, egizak farzand ko'rgan ayollarga bir juft sigir yoki sariq tuya hadya qilingan va davlat xazinasidan nafaqa berilgan.

«Avesto»da har qanday axloqsizlik va g'ayritabiiy xatti-harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi ta'kidlanadi. Fohishabozlik, turmush o'rtog'iga xiyonat qattiq qoralanadi. Bu kabi jinoyatlar sirasiga nafaqat oilani buzadigan va oila qoidalarini zaiflashtiradigan, balki bola tug'ilishi, yosh avlod tarbiyasi, nasl pokligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan oila xiyonati ham ko'rsatilgan. Begona ayol bilan yashash, nikohsiz farzand ko'rish qat'iy ta'qib ostiga olinganki, ushbu qarashlar bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu kabi jinoyatlar qamchi yoki tayoq bilan 800 zarba urish bilan jazolangan¹.

«Avesto»ning bugungi ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy talablarga hamohang bo'lgan eng muhim tamoyillardan biri — bergan so'zining uddasidan chiqish, ahdga sodiqlik, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida to'lash, aldanchilik va xiyonatdan xoli bo'lish kabi iymonlilik sifatlaridan iborat. «Avesto»ning ko'plab tadqiqotchilari, bu nodir kitobda yuksak ma'naviyatlilik va axloq masalalari yoritilganini ta'kidlaydilar. Yuksak ma'naviy sifatlilik Zardushtiylikda jaholatning, yomonlikning oldini olishdir. «Avesto»ning ma'naviy qoidalariga nafaqat sog'lik va jismoniy kuch, balki ma'naviy poklikka ham alohida o'rin ajratiladi. Ma'naviyatlilik me'yori sifatida o'z vaqtida to'g'ri ovqatlanish buyuriladi. «Avesto»da bola tarbiyasi va ta'limiga katta ahamiyat berilib «Tarbiya hayotdagi

¹ Homidov H. Avesto fayzlari. — T.: 2001. — 31-b.

eng muhim tayanch sanalishi lozim, har bir yoshni shunday tarbiyalash kerakki, avval o'qishni, keyin yozishni o'rganib olgach, eng yuqori darajaga ko'tarilsin»¹.

Yurtimizda yetishib chiqqan Sharq uyg'onish davri mutafakkirlari qatorida Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy o'z asarlarida inson, uning ma'naviy kamolotida oila va undagi tarbiya, ilm, ma'naviy muhitning muhim ahamiyatga egaligini bir necha bor ta'kidlab o'tadilar.

Abu Rayhon Beruniy shaxs tarbiyasida mehnatga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha hayot va baxtni mexnatsiz tasavvur etib bo'lmaydi, mehnat bilan tarbiyalash — inson hayotining asosidir. Alloma ma'naviy tarbiyada ilmning rolini birinchi o'ringa olib chiqadi. Amir Temur va temuriylar davriga oid tarixiy manbalar ham oila tarbiyasi jamiyatdagi tarbiya jarayonining eng muhim va nozik jihati bo'lganligini ko'rsatadi. Sog'lom avlod mamlakat kelajagini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini yaxshi anglagan Amir Temur raiyatning tinch-osuda hayot kechirishini, xonadonlarning daxlsizligini, yangi barpo bo'layotgan oilaning har jihatdan benuqson va poklik asosiga qurilishini davlat ahamiyatiga molik masala deb qaragan. -

Shaxsning ma'nan yetukligi uning oilada topgan tarbiyasiga bog'liqligi xususida XX asr ma'rifatparvarlari ham o'z asarlarida bir necha bor ta'kidlab o'tganlar. Jumladan, Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida bola tarbiyasi xususida juda qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Muallif bola tarbiyasida yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning roli katta ekanligini ko'rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Tarbiya bolaning axloqiga, xulq atvoriga kuchli ta'sir etishini e'tirof etadi va ota-onalarni o'z bolalari tarbiyasida mas'ul ekanligini e'tirof etadi. Uning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badan tarbiyasi muhim ahamiyatga ega. Xususan, sog'lom badanga ega

¹ Ochilov S., Hoshimov H. O'zbek pedagogikasi ontologiyasi. 2-jild. — T.: 1999. — 126-b.

bo'lish uchun muallif kishining jismoniy tomoniga zarar keltiradigan narsalardan saqlanishni tavsiya qiladi.

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikriy tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bolalarni jasoratli, qo'rqmas, dovyurak qilib tarbiyalashda «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida muallif g'oyat muhim fikrlarni beradi. Bu asarning «Shijoat» bobida bolani jasoratli qilib tarbiyalashni ilgari suradi va qo'rqoqlikni qoralaydi. Jadidchilik namoyandalarining fikricha yangi davr yangi tuzum uchun kurashda, eng avvalo, oilani isloh qilishdan boshlamoq zarur deb hisobladilar. Ularning fikricha, oila asosini to'g'ri qurmay turib va yosh avlodni to'laqonli to'g'ri yo'lda tarbiyalamasdan turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas¹.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev boshchiligida demokratik huquqiy davlat qurish, davlat va jamiyatimizning barcha jabhalarini modernizatsiya qilish hamda yangilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Xalqimiz uchun munosib turmush shart-sharoitlarini yaratish, bunyodkorlik salohiyatini oshirish, ming yillik an'alarimizni tiklash va yanada rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash hamda faxr-iftixor tuyg'usini mustahkamlashga qaratilgan mamlakatimizda inson manfaatlarini ta'minlash yo'lida o'tkazilayotgan islohotlarning o'ziga xos jihatlaridir. Jumladan, «Harakatlar strategiyasi»da oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishlarini kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish, jismoniy baquvvat va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni kamol toptirish masalalariga alohida

¹ Alqarov I.Sh. va boshqalar. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. – T.: 2009. – 16 b.

ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralgan.

Yoshlar psixologiyasida oilaga munosabatning ma'naviy, axloqiy tamoyillarini shakllantirish. Ajralish va uning axloqiy kamolotga salbiy ta'siri. Yoshlar psixologiyasida oilaga munosabatning ma'naviy, axloqiy tamoyillarini shakllantirish ayniqsa bugun dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Oilada kishi xarakterining, uning mehnatiga, eng muhim ma'naviy, g'oyaviy va madaniy boylıklariga munosabatining asosi shakllanadi. Shuning uchun ham jamiyat oilaning mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom bo'lishidan g'oyat manfaatdordir. 2012-yilga «Mustahkam oila yili» deb nom berildi. Mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish borasida yangi qarorlar, dasturlar qabul qilindi. Bugun ham ushbu dasturlarda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilmoqda. Chunki oila mamlakatimizdagi eng oliy qadriyat sanaladi. Oilaning eng muhim vazifasi esa tarbiya hisoblanadi.

Oila – tarbiya maskani, aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni oladi, balki ulardagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi. Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi qadriyatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, xatti-harakati mazmuniga singib boradi.

Ta'lim-tarbiyaning hamda ma'naviy va axloqiy fazilatlarining rivojlanishida oila uning negizi, ya'ni tayanchi hisoblanadi. Oilada farzandlarning yetuk inson sifatida kamolga yetishi ko'p jihatdan ota-onaga bog'liq. Farzand tarbiyasining bu qadar muhimligi shunda namoyon bo'ladiki, hozirgi yoshlar ertaga butun yurtning egalari, merosxo'rlari, davomchilari bo'lishadi va shu sababdan ham butun yurtning kelajagi hozirgi yoshlarga bog'liqdir. Agar oiladagi muhit yaxshi bo'lsa hamda farzandga alohida e'tibor berilib unda salbiy xislatlarning paydo bo'lishining oldi olinsa, yaxshi xulq bilan shakllanib boradi. O'zbek oilasida bola ongida sog'lom g'oya bilimlar shakllanishi jarayonida oilaning kattalari – bobolar, momolar, yaqin qa-

qarindosh urug'lari ham bevosita ishtirok etadi. Udumlarimizga binoan bola tarbiyasida ota-onadan ham ko'ra buva va buvilar-ning ta'siri kuchliroq bo'ladi. Ular oiladagi ma'naviy muhitning boshqaruvchilari hisoblanadi.

Bolaning aqliy, axloqiy, estetik, iqtisodiy, ekologik, jismoniy, ma'naviy tarbiyasida oila asosiy omil va vosita hisoblanadi. Shu boisdan ham «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi»da bu masalaga alohida urg'u berilgan.

Ya'ni:

– «oila oilaviy an'analarni hamda ma'naviy-axloqiy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchi;

– jamiyatning eng kichik bir qismi bo'lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlari o'sishini va sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi;

– bolaning xulq-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;

– hayotning barcha jabhalarida yosh avlodning doimo maslahatchisi, yo'l-yo'riq ko'rsatguvchisidir», deyiladi.

Oilada ba'zida farzandlar bilan bog'liq muammolar tufayli, qarindosh-urug'larning o'rinli va o'rinsiz oilaga aralashuvlari tufayli, kasalliklar, yetishmovchiliklar tufayli qiyin vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Mana shunday damlarda mavjud holatni axloqiylik bilan baholab, bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilish er-xotinning irodasiga, bilimiga, hayotiy tajribasiga bog'liqdir. Mana shu jihatlarning yetishmasligi sababli ham ajralishlar ko'paymoqda. Bundan tashqari, sotsiologlar ajralishlarning bir qancha sabablarini sanab o'tishgan: «Badavlat kishilarning bir qismini hisobga olmaganda, bugungi kunda nikoh odamlarning o'z mulki va mavqeiini keyingi avlodga o'tkazish maqsadidagi sa'y-harakatlari majmuyi bo'lmay qoldi. Ayollar iqtisodiy mustaqilligining ta'minlanishi bilan nikoh qachonlardir bo'lganidek, iqtisodiy sheriklik zaruriyatining natijasi hisoblanmay qoldi»¹.

¹ Giddens E. Sosiologiya. – T.: «Sharq», 2002. – 442 b.

Oiladagi ruhiy-ma'naviy muhitning buzilishi, ota-onasi o'rtasidagi kelishmovchiliklar bolalarda o'zining juda yomon asoratlarni qoldiradi. Chunki oilada kamol topayotgan farzandlar ham ularning muomala-munosabatidan, o'zini tutishidan namuna oladi. Muammolarni obyektiv baholab, hal etish o'rniga ota so'kinishni odat qilsa, ichkilikka ruju qo'ysa, ona sabr-toqatni unutib, andishasiz gap-so'zlarga erk bersa, farzandlar tarbiyasiga befarq bo'lsa, bunday oilaning poydevori darz ketishi shubhasiz. Falsafa fanlari doktori Viktor Alimasov bu haqda shunday yozadi: «Zavjasi bebaxtu o'zi baxtiyor erni ham, eri bebaxtu o'zi baxtiyor xotinni ham uchratmadim. Baxt ham, bebaxt ham ahlda barobar taqsimlanadi»¹. Demak, oilaviy baxtda ham uyg'unlik, bir-birini tushuna olish muhimdir.

Bugun mahallalardagi komissiyalar tomonidan oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga oid masalalar yuzasidan bir qator ijobiy ishlar, xususan oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini manzilli qo'llab-quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Komissiyalar tomonidan olib borilgan amaliy ishlar natijasida oilaviy ajrimlar soni 50 foizga, notinch oilalar 30 foizga qisqarganini ta'kidlash lozim. Bir kun janjal chiqqan joydan qirq kun baraka ketadi, deydi xalqimiz.

Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda, uning mustahkamlovchi kafolatli omillarining rolini o'rganish, ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Mamlakatimizda 2017-yil davomida 306197 ta oila jamiyatimizga qo'shilgan bo'lsa, shu yilgacha qayd qilingan nikohlarni 31930 tasi bekor qilingan. Taqqoslash uchun 2016-yilda 275048 ta nikoh qayd qilingan va 29321 ta nikoh bekor qilingan. Ajralishlar soni 2016-yilga nisbatan 2609 taga yoki 8,1% ko'paygan. Ushbu ajralishlar FXDYO organlari orqali 621 taga (1,9 %) va sud qarori asosida 1988 taga (6,2%) ko'paygan.

¹ Alimasov V. Topgan va topingan bitiklarim. — T.: Falsafa va huquq. 2007. — 71 b.

2017-yil nikohi bekor qilingan oilalarni tahlil qilinganda 1–8 yilgacha o‘zaro er-xotin sifatida yashab keyin ajrashganlar soni 18575 ta yoki 58%, shundan 2 yildan 3 yilgacha birga yashab 5174 ta (16,2%), 4 yildan 5 yilgacha birga yashab 5524 ta (17,3%) si ajrashgan. 50 yil birga yashab «Oltin to‘ylari» bo‘lgan 23 ta oila ajrashgan. 60, 63, 65 va 67 yil yashagan bittadan oila ajrashgan¹.

Oila hayoti shunday murakkab jarayonki, har bir holat yetti o‘lehab, bir kesishni taqozo qiladi. Yengil-yelpilik, o‘zi bo‘larchilik ketmaydi. Oilaviy hayotda qo‘yilgan bittagina noto‘g‘ri qadam bir umrga tatishi mumkin. Tinchlik-osoyishtalik bo‘lmagan oilada harkamol farzand voyaga yetishi juda qiyin. Bunday oilada farzand ko‘ngli o‘ksik, ruhi siniq bo‘lib o‘sadi. Qush inida ko‘rganini qiladi deganlaridek, ota-ona farzandiga o‘rnak bo‘la olishi har qanday tarbiya vositalaridan ustun va ishonchlidir. Bolalar ota-onasiga taqlid qilishni yaxshi ko‘radi, oiladagi bolaga aytib, gapirib, pand-nasihat berib tarbiya berilganidan ko‘ra, amalda ko‘rsatib, namuna bo‘lib tarbiyalash har doim ham samarali kechgan.

Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta‘minlashdagi o‘rni. Jamiyatning tinchligi, barqarorligi, taraqqiyoti yoki tanazzuli, tom ma‘noda aytganda ekzistensiyasi, ya‘ni mavjudligini ta‘minlovchi ijtimoiy me‘yorlar yaralishiga ko‘ra moddiy-iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy omillar bilan belgilanishi mumkin, ammo uning avloddan-avlodga uzluksiz o‘tib borishining birlamchi negizi avvalo tarbiyadir.

«Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlariga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi. Odam va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi»². Demak berilgan ta‘rifdan ham bilsa bo‘ladiki, insoniyatning bu-

¹ Adliya vazirligining t/mehuquqiy axboroti.

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –272 b.

tun borlig'i, ekzistensial mohiyati tarbiya tufayli ro'yobga chiqadi va voqelikka aylanadi.

Yosh avlodning, umuman jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkum. Buni hech kim inkor qila olmaydi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov: «Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan o'zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Albatta, farzandga mehr qo'yish, ularning qornini to'q, ustini but qilish o'z yo'li bilan, lekin bolalarimizni yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish biz uchun doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bu masalaga e'tibor bermaslik nafaqat ayrim ota-onalar, balki butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ham ko'pgina hayotiy misollarda ko'rish mumkin»¹, deganida haqli edi.

E'tibor bersak xalqimizning lug'at boyligida inson tarbiyasi bilan bog'liq bir qator so'z va iboralarni uchratamiz: aqliy tarbiya, ruhiy tarbiya, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, g'oyaviy tarbiya, siyosiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va hokazo. Diqqat bilan nazar solinsa tarbiyaning aksariyat shakllari tom ma'noda kishining ma'naviy tarbiyasiga qaratilganini ko'rish mumkin. Ma'naviy tarbiya negizini esa birinchi navbatda aqliy, ruhiy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish tashkil etadi.

Jamiyatimiz, xalqimiz ongi bunday salbiy tushunchalardan xoli. Farzand tarbiyasi xalqimizning o'z qo'lida. Biroq jamiyatning, hayotning bugungi jadal rivoji, munosabatlarning tezligi ba'zan kishini chalg'itib, muhimni-nomuhimdan ajratib olishida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Bizni o'rab turgan muhitda tarbiyaga ta'sir e'tuvchi omillar salmog'i ortib bormoqda. Masalan, televideniya va radio, kino va video mahsulotlari, turli reklama afishalari, internet kabilar shular jumlasidandir.

Bugungi g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning, chetdan kirib kelayotgan turli tahdidlarning nishoni ham birinchi navbatda yoshlar, ya'ni ularning ongi va qalbini egallash. Agarki, ota-ona-

¹ Karimov I.A. Yusak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: Ma'naviyat, 2008. — B. 55–56.

lar saodatli umr kechirishni istasa, xalq kelajagi porloq bo'lishini o'ylasa, mamlakat tinchlik va barqaror taraqqiyotni maqsad qilgan bo'lsa tarbiya, tarbiya va yana tarbiya masalasi dolzarb bo'lib qolaveradi. Zero, ulug' ajdodimiz A.Avloniy ta'kidlaganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Oila shartnomasini tuzishning axloqiy jihatlari. Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan taraqqiyot zamonning o'zgarishiga unga mos ravishda jamiyat a'zolariga bo'lgan talablarning o'zgarishiga olib keldi. Shu munosabat bilan inson hayotiga, uning turmush tarziga turli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yangi tushunchalar kirib kelayapti. Ayniqsa, xususiy mulkchilik paydo bo'lgach, tafakkurimizda, ongimizda juda ko'p o'zgarishlar ro'y berdi. Zamon talablariga javob berishning bir ko'rinishi sifatida turmush tarzimizga «Nikoh shartnomasi» degan atama ham kirib keldi. Aslida bu ko'proq G'arb olamiga xos bo'lib, u yerda turmush qurgan paytda er-xotin o'rtasida nikoh shartnomasi tuziladiki, bir yil yoki ikki yildan so'ng ajralishsa qancha tovon to'lanadi yoxud farzand bo'lsa yoki bo'lmasa qancha tovon to'lanishi va boshqalar lozimligi haqida oldindan kelishib olinadi. Yoxud o'rtadagi mulk kimga tegishli bo'lishi xususida avvaldan belgilab qo'yiladi.

Nikoh shartnomalari (inglizcha «marriage kontrakt») hozirgi davrda G'arbiy Yevropa davlatlarida, AQSH, Kanadada keng ommalashgan. Bu tadbir, dastlab ming yillar ilgari Gretsiya va Rimda kelib chiqqan, ya'ni erkak va ayol nikoh tuzishdan avval mulkiy munosabatlari – kelgusida orttiradigan mulk va meros masalalari haqida kelishuvni rasmiylashtirishgani haqida ma'lumotlar mavjud. Dastlab biz uchun g'ayritabiiy tuyilgan ushbu holat bugungi kunda hayotimizdan o'rin olmoqda. Bizning jamiyatimizda nikoh shartnomasi avvalo, mentalitetimizdan kelib chiqqan holda, birinchi navbatda ayolni himoya qilishga qaratilgan. Chunki aksariyat ayollarimiz o'z haq-huquqlarini yaxshi bilishmaydi, ajrashmoqchi bo'lgan chog'ida bolalarini yetaklaganicha, «uyingni yelkamning chuquri ko'rsin» deb chiqib ketaverishadi. Bizning tushunchamizda erkak kishi mardlarcha bola-chaqasiga mol-mulkni qoldirib (agar kelin-kuyov qaynona-qaynotasi bilan emas,

alohida yashayotgan bo'lsa) yelkasiga choponini tashlab chiqib ketishi lozim, deyiladi. Biroq ayrim hollarda buning aksiga duch kelayapmiz.

Shu bois, bugungi kunda nikoh shartnomasi dolzarb masala hisoblanadi. Nikoh shartnomasining axloqiy ahamiyati shundaki, u mulkiy munosabatlarni tartibga solish orqali oilani mustahkamlaydi, er-xotinni bir-biriga tegishli mulkdan to'g'ri foydalanishga va uni yaxshi saqlashga, mulkiy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga undaydi va shu bilan birgalikda fuqarolarning axloqiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi, sud orqali mulkni bo'lishdek ko'ngilsiz tortishuvlarning oldini oladi. FHDYO xodimlari va notariuslar tomonidan huquqiy targ'ibotning kuchaytirilishi, nikohlanuvchilarning nikoh shartnomalari qoidalari bilan tanishtirilishi kelgusida nikoh shartnomalarining rivojlanishi va oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajrimlarni bartaraf etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tayanch tushunchalar: oila, nikoh, munosabat, qonun, oila psixologiyasi, davlat, ota-ona, farzand, oila nomusi, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy, axloqiy, ijobiy, salbiy, oqibat, oilaviy muhit, tamoyil, psixologiya, milliy, oila shartnomasi, kamolot, an'anaviy, noan'anaviy, tarbiya.

Takrorlash uchun savollar

1. Nikoh va uning mohiyatan axloqiy munosabat ekanini qanday asoslay olasiz?
2. Nikoh va muhabbatning o'zaro munosabatlari haqida qanday fikrdasiz?
3. Oilaning ijtimoiy-ma'naviy muhit sifatidagi mohiyati.
4. Oila, jamoa va jamiyatdagi namunaviylik tamoyilining axloqiy tarbiyaga ta'siri.
5. Nikoh va oilaga doir milliy qadriyatlar haqida gapiring.
6. Yoshlar psixologiyasida oilaga munosabatning ma'naviy-axloqiy jihatlarini izohlang.
7. Davlatning oila tinchligi va barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini qanday?

15-mavzu. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar

Axloqiy madaniyat. Madaniyat taraqqiyoti tarixida inson madaniyati avvalo uning axloqiy madaniyati bilan belgilanganligini kuzatish mumkin. Modomiki, axloqiy madaniyatda madaniy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, shu bilan birga, ayni uning o'ziga xos xususiyatlari gavdalanar ekan, ularni madaniyat falsafasi negizida qarab chiqish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Axloqiy madaniyat madaniyat turlari ichida keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Axloqiy madaniyat jamiyat a'zolari tomonidan axloqiy tushuncha, tamoyil me'yorlar, ideallarni o'zlashtirish asosida axloqiy kamolotga yetishishdir. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va ulardan o'z tajribalarida foydalanish, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish singari jihatlarni qamrab oladi; shu bilan shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi hamda davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi. Darhaqiqat, shaxsni mas'uliyatli, siyosiy jihatdan idrokli, axloqan pok va ma'naviy barkamol bo'lishida axloqiy madaniyatning ahamiyati katta bo'lib, u inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlari bilan bog'liqdir.

Muomala madaniyati va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati. Axloqiy madaniyatning muomala odobi, etiket, kasbiy odob kabi tarkibiy qismlari mavjud bo'lib inson hayoti, faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Muomala madaniyati axloqiy madaniyatning tarkibiy qismidir.

«Muomala» iborasi ijtimoiy taraqqiyotning deyarli barcha sohalarida insonning kundalik faoliyatida hamda insonlararo munosabatlarga nisbatan bevosita yoki bilvosita qo'llaniladi. Muomala madaniyati keng ma'noda insonning butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadigan jarayon bo'lib, u oilada, jamiyatda, jamoada shakllanadi. Muomala madaniyati insonning ijodiy kuchi va aqliy qobiliyati, tafakkur salohiyati va dunyoqarashining muayyan darajasi hisoblanadi. Muomalaning «madaniyat» atamasi bilan bog'liqligi ham uning ma'naviy hayot sohasiga daxldorligidadir. Muomala — bu insonlar o'rtasidagi aloqalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ularning hayot

faoliyatidagi ehtiyojning murakkab jarayoni bo'lib, o'zga kishilar bilan ma'lumot almashish, ularni tushunish va idrok etishning hamkorlikdagi strategiyasidir.

Muomala madaniyatida xushfe'llik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik singari axloqiy me'yorlar muhim sanaladi.

Muomala odobi boshqa kishilarning qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yish bo'lib, ko'pchilik oldida bir kishiga aytiladigan gap boshqalarni noqulay ahvolga solib qo'yadi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatini tashkil etadi.

Asosiy axloqiy qadriyatlar. Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmuyi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Axloqiy qadriyatlar esa har bir kishi, millat, elat, xalqning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy, kundalik maishiy turmush faoliyatida nisbatan turg'un, barqarorlik kasb etib, o'zligini bildirib, namoyon etib nihoyatda qadrlanadigan, ardoqlanadigan yuksak darajada shakllangan axloqiy sifat va fazilatlardan iborat.

Axloqiy qadriyatlarga insonparvarlik, jamoatchilik, adolat, qonuniylik, vatanparvarlik, xushmuomalalik va odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, ochiq ko'ngillik va mardlik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, sabr-qanoat, hayolilik va pokizalik, homiylik va saxovat, fidoyilik, sadoqat, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, sihat-salomatlik, jasurlik va boshqalar kiradi.

Axloqiy qadriyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Axloqiy qadriyatlarning mazmuniga ko'ra burch, or-nomus, vijdon, qadr-qimmat, sabr-qanoat, kamtarlik, sobitqadamlik, rostgo'ylik va hokazolarga; shakliga ko'ra esa ijobiy yoki salbiy, ya'ni yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, baxt va baxtsizlik, hayo va behayolik kabilarga ajratish mumkin.

2. Axloqiy qadriyatlarni amal qilish doirasiga ko'ra:

– shaxsiy axloqiy qadriyatlar – kasbiy burchni bajarish, sevgisiga sadoqatli bo‘lish, halol rizq topish, so‘zining ustidan chiqish, oila sha’nini saqlash, haromdan hazar qilish;

– milliy axloqiy qadriyatlar – mehmondo‘stlik, kattalarga nisbatan hurmat, saxovat, homiylik, ota-onani e‘zozlash, bolajonlik va hokazolar;

– mintaqaviy axloqiy qadriyatlar – do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, o‘zaro hurmat va boshqalar;

– umuminsoniy axloqiy qadriyatlar – insonparvarlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, o‘zaro hurmat, qonuniylik, jamoatchilik kabi turkumlarga bo‘lish mumkin.

3. Axloqiy qadriyatlarni axloqning tarkibiy tuzilishiga ko‘ra:

– axloqiy ongda barqaror shakllangan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar: jamiyat tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilayotgan kodekslar, normalar, tamoyillar, mafkuraviy g‘oyalar. Masalan, «Harbiy qasamyod», «Shifokor qasamyodi», «Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb odobnomasi» va h.k;

– axloqiy amaliyotda bevosita qo‘llaniladigan axloqiy qadriyatlar: yaxshilik yoki yomonlik, adolat yoki razolatdan iborat maqsadni ko‘zlab, uni amalga oshirishning ixtiyoriylik yoki majburlash vositalarini qo‘llab pirovard natijaga olib keluvchi qadriyatlar;

– axloqiy munosabatlar tufayli zohir bo‘ladigan axloqiy qadriyatlar: burch, shartni bajarish, halollik, saxiylik, kamtarlik, uddaburonlik, tadbirkorlik, kelishuvchanlik, murosas va hokazolarga ajratish mumkin.

Yangi axloqiy qadriyatlar yuzaga kelishi O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlatni qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda axloqiy qadriyatlar barcha fuqarolarni, millati, dini, tili, irqidan qat’i nazar o‘zbek xalqi o‘zining milliy axloqiy qadriyatlari – sabr-qanoat, jamoatchilik, o‘zaro yordam, saxovat, tinchlikni ardoqlash, shukronalik kabi axloqiy fazilatlarini namoyish qilish orqali tinch-totuv yashashga chorlaydi va uni ta‘minlaydi.

Qadriyatlar tizimida diniy qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi va ular axloq, axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq. Diniy qadriyatlarning mavjudligi diniy ta‘limotlarga asoslansa-da uning

rivojlanishi jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy taraqqiyoti bilan mustahkam bog'langan. Ular xalqimizning turmush tarzi va jamiyat hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosini tadqiq etish, asarlarini nashr qilish, yubileylarini nishonlash mamlakatimizda odat tusiga kirib, millatimizning har tomonlama uyg'onib, kamol topishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Xususan, islom falsafasi asarlarini, diniy ulamo va allomalarning merosini nashr qilish, o'rganish, targ'ib etish xalqimizni islomiy qadriyatlardan bahramand qilishga katta yo'l ochdi.

Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi. Kasb etikasi (odob-axloqi) – odamlarning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarning axloqiy yig'indisidir. Tarixda kasb odobining shakllanishi qadimga borib taqaladi. Ilk kasbiy-ma'naviy talablarni qadimgi Misrda paydo bo'lgan «Pxatotep o'gitlarida» uchratish mumkin. Ushbu pandnomada mehnat orqali boylik va yuqori mavqega erishish uchun o'z vazifasini vijdonan bajarish lozimligi ta'kidlangan. Shuningdek, Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan Gippokrat qasami ham kasb odobi kodeksi zaruriyati, unga ehtiyoj avvaldan bo'lganligi, birinchi navbatda, u kasbiy faoliyatni axloqiy jihatdan izga solish, ma'lum qoidalar doirasida ish yuritish, turli murakkab holat va vaziyatlarda kasbiy-insoniy nuqtayi nazarlardan to'g'ri xatti-harakat qilish mezonlarini yaratish, Shuningdek, kasblarning jamiyatdagi o'rni, mavqei, salohiyatini mustahkamlash maqsadida paydo bo'lganidan dalolat beradi.

Sharqda ham kasb odobi masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Husayn Voiz Koshifiyning «Futuvvatnomai Sultoniy» asari beshinchi bobining o'n to'rtinchi, o'n beshinchi va o'n oltinchi fasllari turli kasb egalari odobiga bag'ishlangan. Masalan, o'n to'rtinchi fasl «Kasb-kor va savdo-tijorat odobi haqida» deb nomlanadi va umuman kasb egasi, ayni paytda, savdo-tijorat ahli odobi qonun-qoidalarini bayon etadi. ««Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida-adablar mavjud, Shuningdek, har bir kasb uchun alohida odob ham bor. Agar barcha kasblar uchun

zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so'rasalar, sakkizta deb aytgil: o'z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag'dan pok saqlasin; rizq-ro'zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug'ullansin, kasbni mol-dunyo to'plashga sarflamasin; kasbni obro' olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin; moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rilar, qimorbozlar, kazzob do'kondorlar) bilan muomala qilmasin...»¹.

Koshifiy sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar (xizmatkorlar) odobi, maddohlar odobi singari masalalarda ham xuddi shunday asosli fikrlar bildiradi. Sotishning sakkiz odobi, sotib olishning o'n ikki odobi borligini bayon etadi. Sotish odobi haqida xaridorga muloyim gapirish, dag'allik qilmaslik, o'lchovdan, ya'ni turozidan urmaslik, xaridorni aldamaslik kabilarni aytib o'tadi. Sotib olish odobida esa molni halol pulga sotib olish, qalbaki, soxta pul bermaslik, sotuvchiga qo'pol gapirmaslikni ta'kidlab o'tadi². Kasbiy odobning barcha uchun birdek taalluqli hisoblanmagan, balki muayyan kasb-kor egalarigagina mansub bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor qoidalari, me'yorlari mavjuddir. «Kasb odobi» atamasi «kishilar o'rtasidagi kasb faoliyati bilan bog'liq munosabatlarga ma'rifiy tus beradigan xulq-atvor kodeksidir»³.

Kasb axloqi kasb odobiga nisbatan keng tushuncha. Chunki kasb odobi kasb axloqi tarkibiga kirib unga shaxs xulq-atvori asos bo'lsa, kasb axloqi xulq-atvor bilan birgalikda, umuminsoniy axloqiy kasbiy me'yorlarga asoslanadi. Kasbiy axloq insonning kasbiy burchlari o'z kasbga bo'lgan munosabatini belgilaydigan axloqiy me'yorlar majmuyi bo'lib, u kishilarni u yoki bu kasbga mansubligiga qarab birlashtiradi.

Masalan, rahbarlikning axloqiy jihatlari borasida ta'kidlash joizki, bu boradagi kasb odobi qonun-qoidalari faqat kabinetlarda emas, balki, xalq bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Rahbar xodimlar faoliyatidagi kamchilik sifatida O'zbekiston Prezidenti

¹ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniyy Axloqiy Muhsiniy. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. —T. 2011, —B. 83.

² O'sha manba. —B. 84.

³ Словарь по этике. —М.: Политиздат, 1981.—С. 274.

Sh.Mirziyoyev «Ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda», — deya ta'kidlagani bejiz emas¹. Zero, kasbiy omilkorlik, o'z ishini yaxshi bilish, qaysi kasbdan qat'i nazar axloqiy me'yorlarning ibtidosidir. Kasb odobi me'yorlarining mazmuni, ularning amaliyligi u yoki bu masalalarni yechishda yordam beradi.

Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. Tibbiy tarbiya har doim ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan bo'lib kelgan. Chunki u inson mavjudligining shartlaridan biri jismoniy sog'lomligi bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun qadimdan ham insonning jismoniy jihatdan sog'lig'i, mehnat, tozalik, ozodalik bilan bog'liqlikda qaralgan. Bu xususda bebaho qadriyatlarimizdan biri «Avesto» kitobida ham to'xtalib o'tilgan. Ya'ni naslning, zurriyodning sog'lom bo'lishi borasida bundan 3000 yil ilgari ajdodlarimiz qayg'urishgan.

Fan-texnika taraqqiyoti, aholi sonining ortib borishi, jamiyatning tabiatga ta'sirini kuchaytirib, ekologik vaziyatni murakkablashtirmoqda. Shunga ko'ra, ekologik muvozanatni barqarorlashtirish hozirgi davrning eng muhim muammolaridan biriga aylandi. Zero, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Inson tabiat bilan birga yashaydi. U tabiatga ta'sir etibgina qolmasdan, unga bog'liq hamdir. Ana shu holat kishilarning atrof-muhitga, tabiatga bo'lgan munosabatlarini muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetkazilmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiyligicha qoldirish — bugungi kunning muhim vazifasi.

Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi orasida avloddan avlodga o'tib kelgan bir qoida mavjud. Bu har qanday sharoitda ham: eng kam miqdorda xomashyo, vaqt

¹ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom, shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. —T.: O'zbekiston, 2017. —10 b.

hamda kuch sarflab, ko'proq mahsulot olish qoidasidir. Buning tejamkorlik, ekologik jihati xalq orasida «uvol» degan so'zning juda keng tarqalganligi va unga amal qilinishidan iborat.

Insonning har qanday ekologik faoliyati o'zini va o'zi yashayotgan tabiiy-ijtimoiy muhitni axloqiy hamda estetik o'zlashtirish jarayonidir. Shu jumladan, ekologik madaniyatni yuksaltirish insonning tabiatni maqsadga muvofiq axloqiy hamda estetik o'zlashtirishdan iborat maxsus faoliyatidir.

Sog'lom turmush tarzining barkamol avlod axloqiy tarbiyasidagi ahamiyati. Jismonan sog', ma'nan barkamol, zararli ta'sirlardan, kalbiy xislat, illatlardan xoli, toza, pok, sog'lom fikrli avlodni, sog'lom naslli, jismoniy baquvvat, ruhi tetik, fikri tiniq, iymone'tiqodli, ma'naviyatli, mard va jasur, vatanparvar shaxsni tarbiyalashda har bir jamiyat a'zosi olib borayotgan turmush tarzi juda katta rol o'ynaydi. Sog'lom bolaning tug'ilishi, eng avvalo, ota-onaning sog'lig'iga bog'liq. Sog'lom oila bo'lmasa, barkamol avlod ham, istiqboli porloq millat ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham mamlakatimizda bu masalaga nihoyatda katta e'tibor berib kelinmoqda.

Inson uzoq umr ko'rish va tinch hayot kechirish maqsadida sog'lom, tetik va baquvvat bo'lish, o'z yoshligi, husni va ishchanlik qobiliyatini saqlashga harakat qiladi. Bunga erishishning asosiy omillaridan biri jismoniy harakatdir.

Sog'lom turmush inson farovon hayot kechirayotganidan dalolat beruvchi omillardan biridir. Sog'lom turmush kechirish uchun organizmni tabiiy muhitning turli sharoitlariga chiniqtirish talab etiladi. Salomatlik insonning ruhiy osoyishtaligi va tashqi muhitning zararli ta'sirlariga qarshi tura olish qobiliyatidir. Organizmni chiniqtirish, jismoniy mashqlarni bajarish, sovuq suvda cho'milish tashqi muhitning zararli ta'sirlariga organizmning qarshiligini kuchaytirish omillari hisoblanadi. Chiniqish — bu organizmni suv, quyosh va havo ta'sirida sekin-asta moslashtirib borish mexanizmidir.

Zamonaviy axloqiy tarbiyada kosmopolitizmga moyillik. Hozirgi paytda globallashtirish jarayoni hayotimizga tez sur'atlar bilan kelmoqda. Uning ijobiy tomonlari birinchi navbatda turli sohalarda

(jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyat sohalarida) davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishiga xizmat kundan-kunga kengayib va rang baranglashib bormoqda. Shu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olib boradi, deyish qiyin. Ba'zilar buzg'unchi kuchlar uchun jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunda «ayni muddao» bo'ldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham o'z qabih niyatlari yo'lida ishga solish harakatiga tushdilar.

Taraqqiyotga tahdidning zamonaviy ko'rinishlaridan biri bu «Ommaviy madaniyat» bo'lib, u o'tgan asrning ikkinchi yarmida G'arbda «pop kultura» nomi bilan vujudga kelgan. Uning asosiy maqsadi insonning ma'naviy yuksalishiga to'sqinlik qilish, milliy madaniyatlar chegarasini buzib, bir xillikni o'rnatishdan iboratdir. U millat, ma'naviyat, qadriyat kabi tushunchalarni inson ongidan butunlay o'chirib tashlab, manqurtga aylangan olomoni shakllantiradi. Bugungi kunda «ommaviy madaniyat» G'arb dunyosidagi madaniy hayotni izdan chiqarib, oila, nikoh, axloq bilan bog'liq qadriyatlarga putur yetkazgan holda butun olamga giyohvandlik, gomoseksualizm, SPID, egoizm, sadizm kabi illatlarni tarqatmoqda. Bu kabi illatlarni o'zida mujassam etgan «ommaviy madaniyat» globallashuv sharoitidagi axborotning shiddatli oqimidan foydalanib, milliy madaniyatlar qiyofasini o'zgartirishga va xalqlar turmush tarzini yaqinlashuviga sabab bo'lmoqda. Bir so'z bilan aytganda «ommaviy madaniyat» dunyoda bir xillikni shakllantirmoqda. Inson hayotida bir xillik zerikarli va mazmunsiz yashashga olib keladi.

Globallashuvning eng dolzarb bo'lgan madaniyatlararo munosabatlardagi bu tendensiyalari bizning davrimizda ziddiyat ko'rinishini kasb etmoqda. Ana shunday «madaniy qarash»lardan biri kosmopolitizm (yun. kosmorolites — dunyo, olam, dunyo fuqarosi) bo'lib, bu oqim tarafdorlari yagona dunyo, universalizm g'oyasini ilgari suradilar. «Yagona dunyo erkin fuqarosi»ning bu g'oyasi go'yoki har qanday millat va mamlakat manfaatlari-dan ustun turadi. Ularning qarashlariga ko'ra hech qanday millat yoki mamlakat yo'q, hamma bir xil dunyo xalqlaridir. Bu g'oya ham «Ommaviy madaniyat»ning ko'rinishlaridan biridir.

Milliy madaniyatimiz har doim tahdidlarga uchrab kelgan. XX asrgacha gegemonlikni istagan bosqinchi kuchlarning qarshiligiga uchrab kelgan bo'lsa, endilikda mafkuraviy qurol birlamchi bo'lgan global zamonamizda hudud tanlangan qator muammolar tahdid solmoqda. Bu muammolar madaniy chegaralarni buzib, milliy birliklarga ba'zan oshkora, ba'zan esa yashirin ravishda o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. «Ommaviy madaniyat» millat va xalq tanlamaydi. Shu bois ko'p millatli O'zbekiston xalqi uning har qanday shakllariga yo'l bermasdan yagona milliy mafkura atrofida birlashishi maqsadga muvofiqdir.

Yuksak axloqni tarbiyalashda texnologiyaning ijobiy va salbiy ta'siri. XX asrda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida biosfera ichida noosfera, ya'ni texnikaviy muhit paydo bo'ldi, insoniyat «tabiat-jamiyat-inson-texnika» munosabatlari uyg'unligining yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi. Bu tarixiy davr o'z real imkoniyatlari, obyektiv taraqqiyot qonuniyatlari bilan jamiyat oldiga turli muammolarni qo'ymoqda. Texnika qudrati oshgan sayin unga moslashish, u bilan hamkorlik ham murakkablashib bormoqda. Avtomatlashtirilgan aqlli mashina bilan hamkorlik jarayonida ularga bo'lgan munosabat o'zgarib bormoqda. Yaqin-yaqingacha inson texnikani nazorat qilardi, ammo u murakkablashib borgan sayin ishlash prinsipini tushunish qiyinlashib, harakatlarini bilish murakkab bo'lib bormoqda. Kompyuter, mobil telefonlar paydo bo'lganidan buyon inson jahldor va asabiy bo'lib borayotgani tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanmoqda.

Texnik taraqqiyotni, uning jamiyatdagi o'rni va rolini to'xtatish, inkor etish mumkin emas. Shunday ekan, texnogen sivilizatsiyada inson texnogen madaniyat-fan amaliyoti, texnikaning yangidan-yangi shakllari, ularni ishlata bilish uquvi va mahoratiga ega bo'lishi taqozo etiladi. Ayni paytda inson ma'naviyatining substansiyasi, ijodiy kuch quvvati va o'z o'rnida har bir inson ijodiy quvvatining in'ikosi bo'lgan mehnatda texnikaning o'rni va ahamiyati ortib borayotgani barchaga ma'lum.

Texnika rivojining ko'p yillik tarixi bizning texnik bilimlarimiz, ixtirochilik, konstruktorlik qobiliyatimiz fan, inson ehtiyojlari, yashash muhiti rivojiga muvofiq doimiy mukammalashib

borishini ko'rsatmoqda. «Inson va mashina» munosabatlari tobora yangicha mazmun kasb etib bormoqda. Ammo har qanday rivojlangan texnika ham ijtimoiy masalalarni insonsiz hal eta olmaydi. Mamlakat taraqqiyoti taqdirini texnikaviy bilimi, hozirgi zamonning murakkab texnologiyalarini egallash bilan birga ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol odamlar hal qiladi.

Bioetika – amaliy etikaning nazariy asosi. Texnik va texnologik jihatdan rivojlangan zamonda ilm-fan rivoji jamiyatning barcha sohalariga ta'sir etib qolmasdan iloj yo'q. Taraqqiyot biokimyoy, biofizika, bioetika kabi yangi fanlarni yuzaga keltirdi. «Hozirgi zamon fanida bioetika tirik mavjudotlar shu bilan birga, insonga ham bo'lgan munosabatlarning axloqiy regulyativi deb qaraladi. Bioetikani maqsadlaridan biri shaxsni turli holatlarga solish imkoniyatlarini yaratuvchi, inson xatti-harakati ruhiyatini o'zgartirish mumkin bo'lgan, uning ustidan o'tkazilayotgan xilma-xil tadqiqotlarni cheklash mezonlarini ishlab chiqadi»¹.

«Bioetika» atamasini amerikalik mashhur onkolog shifokor, olim va insonparvar Van Ranseler Potter (1911–2001) ilmiy muomalaga kiritdi. «Bioetika» atamasini Potter «Bioetika – kelajakka ko'prik» deb atalgan mumtoz kitobida birinchi marta qo'llagan. Potterning asosiy g'oyasi yer yuzida hayotni saqlab qolish muammolarini hal qilish uchun gumanitar fanlar va biologiya fanining sa'y-harakatlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Potterning fikriga ko'ra, bioetika insoniyatning yashab qolishini ta'minlash va butun kishilik jamiyatining sog'liqni saqlash uchun tibbiyot etikasi bilan atrof-muhit etikasi (ekoetika)ni jahon miqyosida birlashtiruvchi ko'prik bo'lishi lozim.

«Bioetika» tushunchasi insonning butun tiriklikka munosabatini ko'rib chiqadigan masalalar sohasini nazarda tutadi. Biologiya va tibbiyot sohasidagi bilimlarning taraqqiyoti, tibbiyot yangi imkoniyatlarining rivojlanishi an'anaviy etika ilgari duch kelmagan muammolarni keltirib chiqardi. Amalda bioetika amaliy etikaga aylandi va asosiy e'tiborni amaliy tibbiyotning axloqiy muammolariga qaratdi.

¹ Falsafa qomusiy lug'ati. – T.: Sharq, 2004. – 56 b.

Bugungi kunda zamonaviy bioetikaning eftanaziya, klonlashtirish, abort bilan bog'liq muammolari mavjud.

Yaratuvchanlik va bunyodkorlik fazilati Alloh yaratgan barcha jonzotlar ichida eng mukarrami hisoblangan insonga ko'proq berilgan. Ba'zida esa fazilatni o'rnini o'ziga bog'liq holda buzg'unchilik illati egallab oladi. Bu holat individ darajasidan inson darajasiga shakllanayotgan ona qornidagi bolaga nisbatan ayolni o'ziga bog'liq va bog'liq bo'lmagan holatlarda homilaning rivojlanishini sun'iy yo'l bilan to'xtatish (abort) bilan bog'liq holatlar tibbiy axloqiy muammo sifatida bugungi kunda juda ham ko'p uchrab turadi. Masalan, «Yevropada uchta mamlakat Shimoliy Irlandiya, Malta va Irlandiya Respublikasida abort taqiqlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, abortlar soni tug'ilishlar sonidan kam emas. Ba'zi mamlakatlarda esa qayd etilgan abortlar soni tug'ilishlardan ko'p. Rossiyada ba'zi tug'ruqxonalarda abort miqdorining keskin ortishi tufayli ruhoniylarga yordam so'rab murojaat qilishgan. Hatto shifokorlar ayollarga operatsiyadan oldin rohib bilan suhbatlashishni shart qilib qo'yishmoqda. Shuning ta'sirida abortdan voz kechganlar soni ortgani ta'kidlanmoqda»¹.

Bioetika tadqiqotlar sohasi, ijtimoiy munozaralar va axloqiy qarorlar qabul qilish maydoni sifatida mamlakatimizda o'zining dastlabki qadamlarini tashlamoqda. Jahonning ko'pgina atoqli mutafakkirlari insoniyat yangi ming yillikda yashab qolishi uchun vayronkor an'analar va ajralishdan yangi umumbashariy dunyoqarashga yo'l topishi zarurligini ko'rsatmoqda. Ularning mazkur qarashlari Xalqaro Insonparvarlik Akademiyasi tomonidan 2000-yilda chiqarilgan insonparvarlik manifestida aks ettirildi. Unda quyidagi so'zlar bor: «Yangi dunyoqarash inson huquqlarini himoya qilishi, insonning erkinligi va qadr-qimmatini yanada oshirishi, Shuningdek, bizning butun insoniyat oldidagi majburiyatlarimizni qayd etishi lozim».

Tayanch tushunchalar: muomala odobi, axloqiy madaniyat, kasbiy odob, sog'lom turmush, san'at, «ommiy madaniyat», tib-

¹ Qarang: Узбекистан. Общая оценка страны. ООН. 2003. -3 с.

biy tarbiya, ekologiya, ekologik tarbiya, qadriyat, bioetika, yuksak axloq, barkamol avlod, kosmopolitizm, dunyoqarash, texnologiya, madaniyat, texnika, shaxs.

Takrorlash uchun savollar

1. Muomala odobining axloqiy asosi nimada?
2. Ziyolilik va madaniyatlilik tushunchalari o'rtasidagi farqni izohlang.
3. Bugungi kun yoshlarining axloqiy dunyoqarashiga xos qadriyatlarni tushuntiring.
4. Yoshlar axloqiy tafakkuriga tahdid soluvchi illatlarni ko'rsating.
5. Axloqiy madaniyat kasbiy odobda qanday namoyon bo'ladi?
6. «Ommaviy madaniyat»ning g'ayriaxloqiy ko'rinishlari haqida gapiring.

TO'RTINCHI BO'LIM. ESTETIKA: NAFOSAT FALSAFASI

16-mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari

«Estetika» fanining falsafiy mohiyati va u haqidagi qarashlar. Estetika eng qadimgi falsafiy fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Lekin faqat XVIII asr o'rtalariga kelib «Estetika» (yunon. aisthetikos – his qilinadigan) atamasini dastlab Germaniyadagi Volf maktabining faylasufi Aleksandr Gotlib Baumgarten (1714–1762-yillar) 1735-yilda yozgan «Poetik asarga doir ba'zi masalalar xususida falsafiy mulohazalar» nomli asarida ilmiy muomalaga kiritdi va uning san'atda yorqin namoyon bo'lishini ko'rsatib berdi.

Dastlab estetika «San'at falsafasi» va «go'zallik falsafasi» sifatida talqin etilgan. Chunki, san'at estetikaning obyekti bo'lib, unda estetik xususiyatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Estetika badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga yetib borgunigacha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Lekin, san'at bu fanning yagona tadqiqot obyekti emas. Hozirgi paytda estetika dizayn, atrof-muhitni go'zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham estetika shug'ullanadi.

Estetikaning «Go'zallik falsafasi» sifatida talqin etilishining ma'nosi shundaki, u faqat san'atdagi go'zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go'zallikni ham o'rganadi. Chunki, estetikaning asosiy tadqiqot obyekti – go'zallik, biroq, san'at ham o'z navbatida estetikaning go'zallik kabi keng qamrovli tadqiqot obyekti hisoblanadi. Estetika fani vujudga kelgan dastlabki davrda estetik tafakkur tarixi, estetikaning nazariy-metodologik muammolari, san'at, estetik tarbiya kabi masalalarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lsa, bugungi kunda uning tadqiqot obyekti kengayib bormoqda. Xususan, ekoestetika, ishlab chiqarish estetikasi, maishiy turmush estetikasi, dizayn, zamonaviy shaharsozlik estetikasi, tabiat estetikasi va hokazo.

Estetika – falsafiy fan sifatida barcha san'atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar

asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga yetishtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, estetika ishlab chiqqan qonun-qoidalar barcha san'atshunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega. Har bir fanning inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati bor: estetika ham bundan mustasno emas. Avvalo, u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish borasida katta ahamiyatga ega. Erkin, demokratik jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlari lozim. Haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviy-chilik san'ati»ni rad qila olishlari lozim. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, estetika jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega.

Estetikaning falsafiy mohiyatini uning san'at asariga yondashuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir san'atshunoslik ilmi o'z tadqiqot obyektiga uch tomonlama – nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bo'lgan badiiy qonuniyatlarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy-badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy-badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham va boshqa san'at turlarida ham shunday. Estetikada esa tadqiqot obyektiga yondashuv uch emas, birgina nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi.

Estetika fan sifatida ilmiy, ma'rifiy, badiiy taraqqiyotning o'ziga xos muammolari doirasida bahs yuritadi, tahlil qiladi, o'rganadi va o'rgatadi. Estetikaning eng asosiy funksiyalaridan biri dunyoqarashni shakllantirish bo'lib, ushbu funksiya badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilar va ijodiy faoliyat uchun juda zarur. Ayniqsa, ranglar jilosini his qilish, musiqa sehrini anglash, asardan xulosa chiqarish aynan ushbu funksiyaning ta'sirida ro'y beradi. Zero, dunyoqarash ijodkorni boshqaradi, ijod jarayoni rivojiga ko'mak beradi. Estetikaning bilish funksiyasi esa san'at asarini bilish va

buholash faoliyati natijalarini, semantik va pragmatik axborotni yetkazib berish, haqiqiy badiiy asar bilan saviyasi past asarni farqlay bilishlari, «ommaviychilik san'ati»ni rad qila olishda muhim ahamiyatga ega.

Yangi ko'rinishdagi iqtisodiyotning estetik asoslariga, tadbirkorlik faoliyatiga estetik tus berishga, bunyodkorlikni namoyon etishga imkon beradigan funktsiya bu yaratuvchanlikdir. Ayniqsa, go'zal qadriyatlarni dunyoga tanitish, xalqning boy va betakror estetik dunyosini aks ettiradigan personajlarni yaratish orqali insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi. Estetikaning eng muhim funktsiyalaridan yana biri, metodologik funktsiya bo'lib, ushbu funktsiya badiiy asarda aks ettirilgan voqea-hodisaning mohiyatini o'quvchiga to'laqonli yetkazish imkonini beradi, asarni bilish va uni xuddi hayotdagidek idrok qilinishini osonlashtiradi. Bundan tashqari, bu funktsiya estetik masofani taqozo etadi: masofa tufayli badiiy reallik idrok etiladi.

Estetika fani o'z maqsadi va vazifalarini uyg'unlik, yaxlitlik, ilodalilik va maqsadga muvofiqlik tamoyillari orqali amalga oshiradi. Ushbu tamoyillar orasida estetik munosabatlarda ko'proq ko'zga tashlanadigan uyg'unlik va maqsadga muvofiqlikning mohiyati haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin.

Odatda, fanga tegishli qonunlar hodisalarning hamma xususiyatlarini emas, balki hodisalardagi umumiylikni aks ettiradi va undagi mustahkam barqarorlikni ifodalaydi. Biroq, hodisalar ayni bir vaqtda bir-biriga o'xshaydi va bir-biridan farq qiladi. Xususan, voqelikni estetik o'zlashtirishning oliy shakli bo'lgan san'atga umumiy va xususiy qonunlar tegishli bo'lib, ularga badiiy ijod jarayoni ham, san'atning ijtimoiy olami ham taa'luqlidir. Ular san'atning antropologik, genetik va gnoseologik mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Shunga asosan «Estetik faoliyat qonuni», «Badiiy ijod qonuni», «Badiiy jarayon qonuni», «Badiiy idrok qonuni», «Estetik idrok qonuni» kabi qonuniyatlar tizimi shakllangan.

Ushbu qonunlar olamni estetik o'zlashtirish jarayonining mohiyatini izohlaydi va quyidagi natijalarga olib keladi:

1) voqelikning estetik xususiyatlari inson tomonidan olam hodisalarini tasavvur qilish, anglash hamda tajribaga tayan-gan holda insoniyat oldiga qadriyatlarni o'rganishni vazifa qilib qo'yadi;

2) estetik faoliyat predmetlar olami va insoniy idealni botiniy tuyg'ular asosida o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi, u umum-insoniy qadriyatlarga oqilona munosabatni shakllantiradi hamda erkin ijodkorlik muhitini yaratishga ko'mak beradi.

Estetika fanida ko'p amal qiladigan qonunlardan yana biri «Badiiy ijod qonuni» hisoblanadi. Badiiy ijod jarayoni boshqa barcha aqliy mehnat turlaridan katta farq qiladigan mehnat turi bo'lib, unda mehnat qandaydir sirli ruh bilan amalga oshadi, deydi. Chunonchi, badiiy ijod jarayonining ibtidosi san'atkorning muayyan g'oyani yoki g'oyalar tizimini badiiyat orqali boshqalarga yetkazish istagi bilan bog'liq bo'lib, bu g'oyaviy niyatda aks etadi. G'oyaviy niyat ko'zga ilg'amaydigan darajada nozik va ko'z ilg'amaydigan darajada miqyoslikka ega. Chunki g'oyaviy niyat o'z nomi bilan g'oyaga taalluqli, u ijodkorning dunyoqarashining mevasi, butun asarning poydevori. U badiiy asarning mavzui, shakli, mazmuni, «tili», badiiy vositalari qanday bo'lishi kerakligini belgilab berish uchun ular bilan «kurash olib boradi». Ba'zan ularni o'ziga bo'ysundiradi, ba'zan esa ularga biroz yon berib, ma'lum nuqtalarda o'zgaradi, «sharoitga moslashadi». G'oyaviy niyatni shu bois hech qachon to'liq amalga oshgan estetik hodisa sifatida tasavvur qilish mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda «Badiiy ijod qonuni»ning asosiy kamponenti hisoblangan «ijod»ni inson taraqqiyoti uchun ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Ya'ni ijod: a) muayyan badiiy uslub yordamida shaxs va jamiyatning madaniyatini yuksaltiradi; b) obrazli tafakkur yordamida badiiy olamning asl va betakror mohiyatini anglash imkonini beradi; d) olam go'zalligidan zavqlanish, iztiroblardan forig' bo'lish va yaratuvchanlikka rag'batni paydo qiladi.

Estetikaning qonuniyatlari narsa-hodisalar va voqelikdagi jarayonlarning estetik mazmunini turli rakursda o'rgansa-da, este-

tika uchun umumiy bo'lgan metagonun — «Insonning voqelikka estetik munosabati qonuni»ga amal qiladi. Bu qonun yordamida estetika o'z tadqiqot obyektining predmetini konkretlashtiradi, funksiyalarini belgilaydi.

Estetikaning ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Etika va estetika fanlari shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ular yetarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki insonning xatti-harakati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi. Shu sababli Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni — ichki go'zallik, nafosatni — tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar.

Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi; odam toki harakatsiz ekan, biz uning ni yaxshiligini, na yomonligini bilamiz. Muayyan xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakatsiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko'kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakatsizligidan uning go'zalligiga putur yetmaydi. Bundan tashqari, axloqning qonun-qoidalari, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlilik xususiyatiga ega. Estetika esa muayyanlikni, aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga — ayolga ham, erkakka ham, yosh-u qariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Estetikada esa «go'zal odam» tushunchasi yo'q; yo «go'zal yigit», yo «go'zal qiz» degan tushunchalargina mavjud. Demak, axloq uchun — umumiylik, nafosat uchun esa — muayyanlik mavjudlik sharti hisoblanadi.

Estetika psixologiya (ruhshunoslik) bilan uzviy bog'liq. Ma'lumki, insonning ruhiy hayotini o'rganar ekan, ruhshunoslik, hissiyotlar masalasiga katta o'rin beradi. Go'zallikni, san'at asarini yaratish va idrok etish ham ma'lum ma'noda hissiyotlar bilan bog'liq. Masalan, oddiy xarsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg'otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo'l ur-

ganidan so'ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufura boshlaydi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahza insoniy tuyg'ularning jamlanganidadir. Boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o'zi tomoshabinga yetkazishni maqsad qilib qo'ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san'at asariga aylantiradi. Agar ijodkor — haykaltarosh ana shu hissiyotlarni o'zi mo'ljallagan darajada tomoshabinga yetkaza olsa va tomoshabinda o'sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg'ular uyg'ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Estetika haykaltaroshdan haykalga, haykaldan tomoshabinga o'sha hissiyotlarning qay darajada o'tgan-o'tmaganligini, ya'ni, badiiy qiyofa qanchalik puxta yaratilganligini o'rganadi va shu asosda asarni baholaydi. Ruhshunoslik esa ana shu hissiyotlarning o'zini o'rganadi. Bundan tashqari, ruhshunoslik asar g'oyasidan tortib, to badiiy asar — estetik qadriyat vujudga kelgunga qadar bo'lgan ijodkorning hissiyotlar olamini tadqiq etadi. Albatta, bunday tadqiq va tahlillar o'rganishlar alohida-alohida, muxtor holda emas, balki ikkala fanning bir-biri bilan hamkorligi, birining ikkinchisi hududiga o'tib turishi vositasida ro'y beradi. Shu bois, ruhshunoslikka ham, estetikaga ham teng aloqador bo'lgan san'at ruhshunosligi va badiiy ijod ruhshunosligi deb atalgan yo'nalishlar mavjud.

Sotsiologiya (ijtimoiyshunoslik) fani bilan aloqadorligi. Ma'lumki, har bir san'at asari alohida inson shaxsiga e'tibor qilingani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq etadi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham ijtimoiylik jamiyat a'zosi — muallif qarashlarining bilvosita in'ikosi bo'lmish uslubda o'zini ko'rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o'zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo'lib turolmaydi. Shuningdek, yirik asarlar sotsiologik tadqiqotlar uchun o'ziga xos material bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sotsiologiya jamiyat bilan san'atning o'zaro aloqalarini, san'atning ijtimoiy vazifalarini o'rganadi; san'atkorning jamiyatdagi o'rni, mavqei, o'quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy-demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylashuvida san'atkor va san'at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Bu

muammolarni atroflicha o'rganish uchun maxsus san'at sotsiologiyasi sohasi ham mavjud. U ham ijtimoiyshunoslikka, ham estetikaga birday tegishlidir. Ayni zamonda, muayyan san'at asarlari, janrlari va turlarining jamiyatdagi mavqeini aniqlab beruvchi maxsus sotsiologik so'rov usullari ham mavjudki, ular shubhasiz, san'at taraqqiyotiga, estetikaning san'at sohasida to'g'ri yo'nalish tanlashiga ko'maklashadi.

Dinshunoslik fani bilan aloqadorligi. Din, estetika va san'at doimo bir-birini to'ldirib keladi va ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o'z tasarrufidagi» san'at turlari bor: buddachilik uchun haykaltaroshlik, nasroniylik uchun tasviriy san'at, musulmonchilik uchun badiiy adabiyot. Shuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o'z ibodatxonalarini taqozo etadi. Ibodatxonalarning esa me'morlik san'ati bilan bog'liqligi ham-mamizga ma'lum.

Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san'at turlari bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Asrlar mobaynida ana shu aloqalar natijasi o'laroq, san'at asarining o'ziga xos ko'rinishi — diniy-badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», Shohizinda me'morlik majmuyi, Kyoln jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi-Xitoy mintaqasidagi Buddha ibodatxonalari ana shunday diniy-badiiy asarlardir. Ularda diniy g'oyalar badiiyat orqali ifoda topgan. Estetika bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo'q: u o'sha diniy g'oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san'at oldiga qo'ygan talablarini yaxshi bilmog'i va hisobga olmog'i lozim.

Pedagogika fani bilan aloqadorligi. Ularning aloqadorligi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma'lum ma'noda nafosat tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, muxtor qismlarga bo'lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya'ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o'quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi va h.k. Pedagogika ana shu sohalar va yosh bo'yicha olib

borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o'rganadi. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi, ya'ni, inson tug'ilganidan boshlab to o'lgunigacha bosib o'tadigan bosqichlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko'radi. Demak, rus nafosatshunosi M. Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo'lsa, estetika uning strategiyasidir.

Semiotika (belgilar va belgilar tizimi haqidagi fan) fani bilan aloqadorligi. Ma'lumki, san'at asarida belgilar va badiiy ramzlar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, harflar, notalar va h.k. Boshqacharoq qilib aytganda, bilish va baholash faoliyati natijalarini, ya'ni semantik va pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan. Ana shu san'atning belgi bilan bog'liq tomonini, kommunikativ-vositachilik jihatini semiotika o'rganadi. Ayni paytda, estetikada tuzilmali-semiotik estetika deb ataladigan nazariya ham mavjud. Unda san'at maxsus til yoki belgilar tizimi, alohida san'at asari esa ana shu tizim belgisi yoki o'sha tizim belgilarining izchilligi sifatida olib qaraladi. Zero bunda belgi san'at asarini idrok etuvchiga uni yetkazib beruvchi hodisa tarzida o'rganiladi.

Bundan tashqari, estetika kibernetika, ekologiya va yuqorida aytib o'tganimizdek, barcha san'atshunoslik fanlari bilan ham yaqin aloqadorlikda ish olib boradi. Chunonchi har bir san'at turining «o'z estetikasi» mavjud: so'z san'ati estetikasi, teatr estetikasi, musiqa estetikasi va hokazo.

Har bir fanning o'z oldiga qo'ygan vazifalari bo'lgani singari estetika fani ham bundan mustasno emas. Zotan, biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim va uning nafosat tarbiyasi to'g'ri yo'lga qo'yishda estetika muhim ahamiyatga ega. Zero, estetika orqali biz faqatgina ko'rganlarimizning shakliy go'zalligini emas, balki ayni paytda shakl bilan birga uning falsafiy mohiyatini ham idrok etamiz.

Estetika kategoriyalari va ularning tasnifi. Falsafaning birorta kategoriyasini ham voqelikdan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Chunki, bu kategoriyalar (butun, qism, zaruriyat, tasodif, mohiyat, sifat va h.k.) insonni o'rab turgan olamda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar haqida aniq xulosalar chiqarishga, ularni to'g'ri tahlil etishga ko'mak beradi.

Estetika ham falsafiy fan sifatida o'zining qonun va kategoriyalariga ega. Estetika kategoriyalarining yaxlit tizimini ishlab chiqish muammosi ko'p yillardan buyon olimlar e'tiborida. Bu borada go'zallik, ulug'vorlik, fojaviylik, kulgulilik, hunuklik kabi an'anaviy ko'rinish ko'pgina adabiyotlarda o'z aksini topgan. Bugungi kunda go'zallik – ulug'vorlik – fojaviylik – kulgulilik; estetik ideal – estetik did – estetik tuyg'u; san'at – badiiy obraz – ijodkorlik ko'rinishdagi tizim estetika fanining kategoriyalar tsnifida kengroq qo'llanilmoqda.

Biroq, kategoriyalar tizimi qanday ko'rinishda bo'lmasin, ularning har birida go'zallik markaziy kategoriya sifatida ishtirok etadi. Go'zallik nima? Bu savolga estetik tafakkur rivoji tarixida juda ko'plab javoblar berilgan, xilma-xil nazariya va qarashlar ishlab chiqilgan.

Juda ko'p yillardan buyon estetika kategoriyalarini yaxlit tizimga solish olimlar e'tiborini jalb etib kelayotgan bo'lsada, lekin keltirilgan an'anaviy va zamonaviy tasniflardan ko'rinib turibdiki, go'zallik metakategoriya sifatida estetikada muhim ahamiyat kasb etadi.

Go'zallik kategoriyasi va uning muqobillari. Ma'naviy va moddiy xususiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa-hodisalarning uyg'unligi, hamohangligi, mutanosibliigi, maqsadga muvofiqiligiga asoslangan qadriyat shakli «go'zallik» tushunchasida ifodalanadi. U estetikaning markaziy mezoniy tushunchasi – asosiy kategoriyasi sifatida barcha estetik tushunchalar uchun asos vazifasini bajaradi. Chunki estetika bilan bog'liq har qanday savolning javobi go'zallik mahsuliga borib taqaladi.

Go'zallik o'z-o'zidan vujudga keladigan hodisa emas, balki shakli, mazmuni va xususiyatiga ko'ra ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi. Birinchi ko'rinishi go'zallik ontologiyasi bilan bog'liq. Go'zallik tafakkur va tabiat mahsuli. Kulol loydan, naqqosh yog'ochdan, misgar misdan, zargar tillodan shunday buyum

yaratadiki, uning jozibasi insonni hayratga soladi. Yoki tabiatdagi purviqor tog'lar, yuksak cho'qqilar, dengiz-u ummonlarning go'zalligini inson takrorlashga ojiz.

Ikkinchi ko'rinishi go'zallik gnoseologiyasi bilan bog'liq. Ya'ni go'zallik ayni paytda bilishning mahsuli. Voqelikdagi har qanday narsa-hodisaning go'zalligi uning ishonchlilik, qiziqarlilik, haqqoniylik mezonlari bilan o'lchanadi. Inson go'zallikni chinakam his etganda, uning mohiyatini bilgandagina zavqlanadi, huzur qiladi. Zero, go'zallikni bilish, idrok etish insonning badiiy-estetik tafakkurini o'stiradi.

Go'zallikni tadqiqot doirasiga ko'ra tabiat, jamiyat, san'at hodisasi sifatida tabiatdagi, jamiyatdagi hamda insondagi go'zallik turlariga ajratib o'rganish mumkin. Tabiatdagi go'zallik – bu tabiatdagi narsa, hodisa, jarayonlardagi uyg'unlik, mukammallikning insonda yorqin va uzviy his-hayajon uyg'onish jarayonidir. Bu go'zallik inson uchun tabiatni asrash, undan bahra olishning manbayi bo'lib, tabiatni estetik qadriyat sifatida qadrlashni taqozo etuvchi kuch, vosita bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatdagi go'zallik – bu shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg'unligini ta'minlovchi adolat, insonparvarlik va tenglikka asoslangan ijtimoiy munosabatlar majmuyi hisoblanadi. Insondagi go'zallik – bu undagi ma'naviy va jismoniy vujudning uyg'unligidir.

Go'zallik tabiat, jamiyat, inson tafakkuri mahsuli sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

a) go'zallik obyektiv mazmunga ega bo'lgan subyektiv obrazlar, tasavvurlar, idroklar, tafakkurlarning hosilasidir. Go'zallik obyektivlik va subyektivlikning o'zaro mutanosibligi, uyg'unligidir;

b) go'zallik – bu narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning insonni ruhlantiradigan, ilhom bag'ishlaydigan, yuksak oliyjanob maqsadlar sari yetaklaydigan, jo'shqinlik baxsh etib jonlantiradigan tomonlaridir. Go'zallik xuddi shu ma'noda jism va ruhning uyg'unligidir. Ruhni oziqlantirib, jismni yanada ulug'vor qiladigan narsa, hodisa, voqea, jarayonlarning xossasidir;

d) go'zallik – bu insonning erkin faoliyatidir. Hayotda o'z huquqini, erkini, qadrini topgan insongina go'zaldir. Erkin ijod, mehnat bo'lmagan joyda go'zallik yo'qdir;

e) go'zallik — bu odamlarning jamiki yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan voqelikdir. Zero, shunday ekan go'zallik mavhum emas, balki muayyan shakl-shamoyil, ma'no-mazmunga, mohiyatga ega bo'lgan real narsa, hodisadir.

Go'zallikda mujassamlashgan ana shu xususiyatlar uni oliy estetik qadriyat darajasiga ko'taruvchi kuchdir. Ana shu kuchni axloqiy qadriyatlarning kuchi bilan uyg'unlashtirish zamonaviy estetik tafakkurning bosh vazifalaridan biridir.

Go'zallikning elementlari. Go'zallikning namoyon bo'lishi, shakllanishi va his etilishida muayyan unsurlar mezoniy vazifasini o'taydi. Bular — me'yor, maqsadga muvofiqlik, tartiblilik, uyg'unlik, hamohanglik, moslik, yaxlitlik, birlik, mutanosiblik, tenglik va hokuzo. Mazkur tushunchalar narsa-hodisalarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etib, undagi go'zallikni namoyon ettiradi. Masalan, bahor faslining go'zalligi tabiatning uyg'onishi, ko'klamning yuz ochishi bilan, qish fasli esa oppoq qor bilan o'ziga xos go'zallikni namoyon etadi. Tabiatning ikkala faslida ham go'zallikning moslik va mutanosiblik unsuri muhim ahamiyat kasb etadi.

Go'zallikning sifatlari tug'yoniqlik, maftunkorlik, foydalilik, mo'jizaviylik singari tushunchalar orqali izohlanadi.

Go'zallikning xususiyatlari qulaylik, manfaatdorlik, yoqimlilik, chiroylilik tushunchalari bilan belgilanadi. Elementlar, sifatlur va xususiyatlar uyg'un bo'lgan narsa-hodisalargina chinakam go'zallikni aks ettirishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiy jarayonlar bilan bo'ladigan munosabatlarda go'zallik nisbiylik xususiyatiga ega bo'ladi. Bu holat ayniqsa, go'zallikning moddiy va ma'naviy qadriyatlar tizimidagi o'rnida yuqqol ko'zga tashlanadi. Chunki, go'zallikning har qanday tahlili shaxs va jamiyat munosabatlari bilan muqoyasa qilingandagina uning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatlari yanada oydinlashadi. Shu bois go'zallikning ma'naviy va moddiy qadriyatlar tizimidagi o'rniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ma'naviy qadriyatlarniag go'zalligi. Ma'naviy qadriyatlar tizimida go'zallik quyidagi jihatlari bilan belgilanadi:

— sog'lom ruhiyat va hayot haqidagi tasavvurlarni vujudga keltirish;

- real hayot haqiqatini in'ikos ettirish;
- jonli insoniy tafakkur va dunyoqarash manbayini yaratish;
- ongli dunyoqarashga asoslangan ijod erkinligini, mustaqil fikrlash hamda zamon bilan hamnafaslik ruhini singdirish;
- yangilanayotgan hayot jarayonlariga yaqinlashish va uning ilg'or tomonlarini yoritish, ularni mazmunan boyitish;
- yangicha uslub va badiiy usullardan foydalanish, san'at asarida shakliy go'zallikka erishish.

Moddiy qadriyatlarining go'zalligi. Har qanday nazariya amaliyot bilan uyg'un bo'lsagina yashay oladi. Bu qoida go'zallik tushunchasiga ham tegishli. Ma'lumki, estetik faoliyatning qator turlari amaliyot bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Masalan, me'morlik o'zida ham moddiy, ham ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Chinakam me'moriy obidaning go'zalligi faqat tashqi ko'rinishi bilangina emas, balki mexanika qonunlarining yangi materiallar bilan boyitilganligi, me'morlikning qadimiy an'alarini yangi ko'rinishlar orqali namoyon qilish natijasida yuzaga keladi. Me'moriy obida shahar o'z ko'rki va go'zalligini quyidagi estetik xususiyatlar orqali namoyon etadi, degan fikrga kelish mumkin:

- shaharda qadimiy me'moriy obidalarining saqlanganligi va uning ko'rki;
- binolarning aholi turmush tarzi uchun qulayligi va mos kelishi;
- shaharda bunyod etilgan binolar, yo'llar xalq manfaati bilan muvofiqligi;
- shaharning geografik jihatdan joylashuvi – suv va havosining musaffoligi, tabiiy manzaralarga boyligi.

Insonning go'zalligi. Insondagi go'zallik aksariyat hollarda uning xulqi, odobi, axloqi va fazilatlari bilan belgilab kelinadi. Estetik tafakkur tarixida inson go'zalligi jism (tana) va ruhiyat masalalari bilan izohlangan. Bu boradagi fikr-mulohazalarning asosida insonning tashqi ko'rinishi hamda axloqiy fazilatlariga bo'lgan munosabat masalasi yotadi. Inson go'zalligiga bu tariqa yondashuvning muayyan sabablari bor. Birinchidan, go'zallikning inson shaklidagi ko'rinishida yagona, mutlaq va tugal timsol

mavjud emas. Ikkinchidan, insonlarning go'zallik haqidagi qarashlari turlicha bo'lib, ular vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, ya'ni nisbiylik tabiatiga ega. Kishilarning go'zallik haqidagi ideal ana shu o'zgarishlarning birlamchi sababidir. Odatda insonning tashqi go'zalligiga nisbatan yuzaki munosabat bildiriladi; tashqi go'zallik shaxsning chinakam «Men»ini namoyon qilishiga to'sqinlik qiluvchi, o'tkinchi hodisa sifatida qaraladi. Ammo, inson go'zalligiga nisbatan bunday yondashuv bahsli. Chunki, insonning tashqi go'zalligi muayyan holatlarda shaxsning o'zigagina emas, balki boshqalarning faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonning botiniy go'zalligi uning odob, xulq va axloqiy fazilatlarini bilan belgilanadi. Bu nafosat ilmida xulqiy go'zallik deb ataladi. Inson xulqiy go'zalligining takomillashuvida axloq falsafasining muhabbat va ezgulik kabi tushunchalari asosiy mezon hisoblanadi.

Ulug'vorlik kategoriyasining falsafiy mohiyati. Ulug'vorlik — insonning narsa-hodisalarga estetik va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg'usini hosil qiluvchi ma'naviy hodisa. Ulug'vorlikning ko'lami go'zallik ko'lami kabi cheksiz bo'lib, o'zida hajm, miqdor, ko'lam va buyuklikni mujassam etadi. Shuning uchun ulug'vorlik muhokamasi yuksak darajada madaniyatni talab qiladi. Ulug'vorlik tabiat, jamiyat, inson va uning faoliyati mahsulotlarida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy tushunchadir. Ulug'vorlik belgisiga ega bo'lgan barcha narsa va hodisalarga xos bo'lgan umumiylik — me'yoriy barkamollikdir.

Tabiatdagi ulug'vorlik baland tog'lar, qudratli sharsharalar, cheksiz okeanlar, mavj urayotgan dengizlar, tubsiz osmon va h.k. timsolida namoyon bo'ladi. Bu yerdagi umumiylik — ularning keng ko'lamligi, ulkanligi, buyukligi va tuganmasligidir. Tabiatdagi ulug'vorlik insonda o'zidagi zaiflikni emas, balki tabiat bilan qo'shilib ketishga intilish hissini uyg'otadi va kuchli ta'sir etadi. Tabiatdagi ulug'vorlik ruhimizga hayrat, hayajon va jo'shqinlik bag'ishlaydi. Tabiatdagi ulug'vorlik matematik va dinamik xususiyatga ega. Matematik xususiyatida — hajm, dinamik xususiyatida — kuch ustuvor ahamiyatga ega.

Jamiyatsdagi ulug'vorlik milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqparvarlik va bunyodkorlik tushunchalari bilan izohlanadi. Barqarorlik, farovonlik, adolat, qonun ustuvorligi, hurfiylik jamiyat ulug'vorligini ta'minlovchi mezoniy tushunchalardir.

San'atsdagi ulug'vorlik teatr, kino va badiiy adabiyotdagi fojia-viylik bilan yonma-yon turadi. Bunday ulug'vorlik badiiy mazmun va shaklning barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g'oya o'ynaydi. Muhim ahamiyatli g'oya yuksak ruhlangan, mukammal shaklning zarurligini yuzaga keltirib, san'at asari darajasining yuksakligini belgilab beradi.

Ulug'vorlik hissi o'z-o'zidan quvonch, hayratlanish, ehtirom, tan berish tuyg'ularini o'z ichiga qamrab oladi, ruhiy ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Ulug' ishning tagzamini esa niyatning, maqsadning ulug'vorligidir. Masalan, Amir Temur ulug' saltanat qurish sohasida ulug'vorlik namunasini ko'rsatgan bo'lsa, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy turkiy tilda jahonshumul badiiy asarlar yozib, o'z xalqining ma'naviy olamini yuksaklikka ko'tardi, ona tilining qudratini baralla namoyish eta oldi. Shu kabi ilmiy kashfiyotlari bilan jahonga nomi ketgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar ham ulug'vorlik shohsupasidan o'rin olgan. Bu zotlar ilmu fan, hikmat va ijod pahlavonlari, Sharq Uyg'onish davrining buyuk siymolari sifatida hozir ham bizga ibratdir. Ulug'vorlik tuyg'usiga faqat miqyos o'lchovi bilan erishilmaydi. Agar ayrim obidalar, masalan, Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr ehromlari va shu kabilar o'zlarining miqyos ko'lami bilan hayron qoldirsa, boshqalari o'zining nafisligi, nozik ifodali ranglar, qismlar hamohangligi, atrof-muhit bilan uzviy qo'shilib ketganligi bilan alohida ahamiyat kasb etgan (Go'ri Amir, Shohizinda, Mustaqillik maydoni, Ichanqal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi va b.). Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari tufayli ulug'vorlik kasb etayotgan obidalar jahonga yuz tutmoqda. Mamlakatimizda Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy kabi ajdodlarimizga haykallar qo'yildi. Shu kabi Mustaqillik maydoni, unda qad ko'targan ramzlar, Baxtiyor ona haykali ham ulug'vorlikka misoldir.

Demak, ulug'vorlik tarix, xalq, millat, ozodlik, mardlik, fi-doyilik bilan hamohangdir. U insonning orzu-armonlari, ideal-larini aks ettiradi va rivojlantiradi, buyuk ishlarni amalga oshi-rishga chorlaydi, yaratuvchanlik va ijodkorlikka ilhomlantiradi, hayotga ma'no-mazmun bag'ishlaydi, inson zotining ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Tubanlik kategoriyasi. Tubanlik – insonda kuchli nafratlanish tuyg'ularini hosil qiluvchi estetik kategoriyadir. Tubanlik mohi-yatan insonga xos bo'lib, uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Ta-biatda tabiat, hayvonot va nabotot olamida uchramaydi. Tubanlik inson fe'l-atvoridagi yovuzlik maylining qo'zg'alishi natijasida yuzaga keladi.

Fojiaviylik (tragediya) kategoriyasi – voqelikning eng muhim, chuqur ziddiyat va to'qnashuvlari: hayot va o'lim, ozodlik va mute-lik, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy munosabat-larni o'ziga xos tarzda ifoda etuvchi falsafiy tushuncha. Deyarli barcha buyuk ijodkorlar yaratgan asarlarda fojiali ohanglar mavjud. Har qanday fojia zamirida muayyan fojiali to'qnashuv, ziddiyat yotadi. Gegel fojiaviylikni mohiyatli kuchlar to'qnashuvining nati-jasi sifatida bejiz ta'riflamagan. Chunki, bu to'qnashuvlar kurashi qanday yakun topishi bilan insoniyat istiqboli, axloqiy taraqqiyot uzviy bog'liqdir. Bu hol fojiani san'atning falsafiy jihatdan eng muhim turiga aylantiradiki, u ijodkorga insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub hayotiy masalalarni o'z oldiga qo'yib, hal qilish imkoniyatini yaratdi.

Fojia qahramoni ko'pincha ijobiy qiyofada tasvirlanadi, u davrning ilg'or orzu-umidlarini o'zida mujassamlashtirgan kuch-li, yorqin, ulug'vor shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Lekin fo-jia to'qimasida boshqa turdagi qahramonlar ham aks ettirilgan bo'lib, Shekspirning Makbet va Richard, B.Brextning Kurajona-ga o'xshash qahramonlari o'z taqdirlari bilan tomoshabinda o'ta ziddiyatli his-tuyg'ular uyg'otadi. Ular sodir qilayotgan mudhish kundikorliklar qat'iy norozilik, jirkanish, shu bilan birga, achi-nish tuyg'usini uyg'otadi. Odatda, fojia mazmunida qahramon-ning mavjud shart-sharoitlarni tubdan o'zgartirishga faol intilishi namoyon bo'ladi. Fojianing tarixiy shakli qadimgi dunyo fojiasi

(Esxil, Sofokl, Evripid) eski patriarxal tartibotlar yemirilib, tarixda ilk sinfiy jamiyat shakllanishi jarayonida vujudga keldi. Unga xos bo'lgan «qismat ohangi» tabiiy va ijtimoiy qonunlar haqidagi tasavvurlarni aks ettirdi. O'rta asrlarda G'arb xristian mafkurasi fojia ruhiga butunlay qarshi chiqqani bois bu davrda biror-bir arzigulik san'at asari yaratilmaganini bilamiz.

Fojia rivojining yangi bosqichi Uyg'onish davrida boshlandi. Shekspir asarlarida fojia viylik butun hayot, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni qamrab oladi. Uning fojia viy asarlarida kuchli, jasoratli, g'ururli, erkin inson timsoli yaratildi. Shekspir o'z qahramonlarining o'zligini anglashga, inson ruhini sindirib halokatga yetaklayotgan tuzum sharoitida ozodlikka intilishini ifodalaydi. M.Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» dramasini ham asosiy badiiy ohangi, undagi ehtirosli to'qnashuvlar ruhi, ulkan hissiy ta'sir kuchi, qahramonlarning taqdiri jihatidan o'ta fojia viy asardir. Unda o'sha davrdagi ildiz otgan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolar qalamga olinadi. Asar qahramoni fojiali dramatik jarayonning asosiy subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Uning faolligi, o'z orzu-armonlari, hatto o'zini qurbon qilib bo'lsa ham, davlatda tinchlik va barqarorlikni qaror toptirishga intilishi faoliyatining mohiyatini belgilaydi. San'atda namoyon bo'ladigan fojia viylik to'qnashuvlar, qiyofalar, vaziyatlarni to'la va chuqur badiiy in'ikos etish ehtiyojidan kelib chiqadi. Sofokl fojialari Shekspirnikidan, Shekspir asarlari Rasinnikidan qanchalik farqlanmasin, ular o'rtasida o'ziga xos mushtaraklik, umumiy jihat ko'zga tashlanadi.

Har qanday fojia zamirida keng ko'lamli, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan muayyan fojiali to'qnashuv yotadi. Fojia viylik san'atda turdicha talqin etilishi mumkin. Bu hol mazkur janrga xos umumiy xususiyatlarni inkor etmaydi. Fojia uslubining umumiy belgilari qatoriga keng umumlashmalarga intilish, tafakkur boyligi, soddalik va yaxlitlik, hayajon va ehtirosning yuksakligi kabilar kiradi. Fojia tarixiy davrning burilish paytlarida, eski ijtimoiy aloqalar va munosabatlar barbod bo'lib, qarashlar, estetik va axloqiy aqida-qoidalar qayta baholanayotgan sharoitda ravnaq topadi.

Fojia viylik har doim estetik tafakkur tarixida dolzarb muammo sanalgan. Shuning uchun deyarli barcha buyuk ijodkorlar

yaratgan asarlarda fojiali ohanglar mavjud. Fojialilikni mohiyatli kuchlar to'qnashuvining natijasi, deb bilgan nemis faylasufi Gegel, bu to'qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi pirovardida insoniyat istiqboli, taqdiri bilan bog'lanib ketadi deya ta'kidlagan. Shuning uchun fojiaviylik estetika kategoriyalari orasida ulug'vorlik bilan yaqin aloqador: haqiqiy ulug'vorlik fojiaviylikning davomi hisoblanadi. Qolaversa, ulug'vorlikning barcha xususiyatlari fojiaviylikning ham u yoki bu ko'rinishi orqali namoyon bo'ladi. Fojiaviylik kategoriyasining estetikadagi markaziy muammosi — insonning qahramonlik, buyuklik, jasorat kabi tushunchalar haqidagi tasavvurini har tomonlama kengaytirish hamda hayotdan qoniqish va shukronalik hissini rivojlantirishdan iboratdir.

Kulgililik kategoriyasi. Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o'rganilgan tushuncha hisoblanadi. Jumladan, Aflotun oqiz va layoqatsiz odamlarni kulgili deb hisoblagan bo'lsa, Arastu kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor yetkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi, deydi. Olmon mumtoz nafosatshunoslaridan Immanuel Kant kulgililikning tabiatini latifa misolida ochib berishga harakat qiladi, Fridrix Shiller hajviyani veallik bilan ideallik orasidagi qarama-qarshilik orqali ko'rsatib o'tadi. Heorg Hegel kulgililikning asosini zohiriy ishonch va botiniy to'laqonli orasidagi qarama-qarshilik orqali ifodalaydi.

Insondagi layoqatsizlik, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, izzatlablik, shuhratparastlik kabi illatlar kulgililikning obyektlaridir. Shuningdek, kulgi — axloq hududlarini bezarar buzishdir. Har qanday ozod inson hazil bilan ro'baro' kelishi mumkin. Bu holatda kulgi insonning shaxsiy ehtiyojini qondiradi. Inson kulishga va kuldirishga qodir bo'lgan yagona mohiyatdir. Kulgililik boshqa estetik hodisalar singari faqat obyektiv tomonga ega bo'lmay, subyektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning subyektiv tomoni — keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir.

Kulgi o'z tabiati jihatidan demokratik xususiyatga ega. U turli ko'rinishlarga boyligi bilan san'atning me'morchilikdan boshqa deyarli barcha turlarida namoyon bo'ladi. Biroq, u o'zining eng

to'la bo'lgan estetik ifodasini komediyada topadi. **Kulgililik**—yuksak taraqqiy etgan tanqidning ibtidosini o'zida namoyon qiladi. Kulgi — tanqidning estetik shaklidir. Kulgi tabiatiga ko'ra tabaqalanishga qarshi, mansab va amal oldida bo'yin egmaydi. Kulgi tengsizlik, zo'ravonlik, manmanlik, amalparastlik, nodonlikning barcha shakllariga qarshi kurashuvchi buyuk kuch sifatida maydonga chiqadi. Abdulla Avloniyning «Hajviyot»idagi «Ko'rning uzri», «Bir munofiq tilidan», «Bilimsiz oliftalarga», «Haqiqiy ma'nosi», «Dangasaman», «Soqovraport» kabi maqolalarida asrimiz boshida xalqimiz ahvoli to'g'ridan to'g'ri kulgi ostiga olinadi.

Kulgining **badiiy shakllari orasida satira** alohida o'ringa ega. Umumnazariy ma'noda satira voqelikni badiiy tasvirlash turi bo'lib, unda hayotning salbiy hodisalari ustidan kulish — bunday hodisalar asosida yuksak insonning orzulariga zid ekanligini bo'rttirib ko'rsatish maqsadi yotadi. Satira har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Unga lirika ham, epos ham, drama ham begona emas. Satira markazida doim hayotning salbiy voqea-hodisalari joylashgan bo'lib, butun fosh qilish kuchi ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun komediya san'atiga xos tanqidiylik, yo'nalganlik satirada eng to'la va eng aniq ifoda topadi. Satirani asosan kulgi fosh etib qo'yadi, lekin kulgi bu jarayonda qahr-g'azabdan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Hajviya — jamiyat, inson faoliyatidagi illatlar va ularning oqibatlarini, olam mukammalligi va inson ideallariga nomuvofiq kelishini ko'rsatib beruvchi kulgi turidir. Lekin masxara, mazah kabi kulgi turlari ham borki, ular estetik tarbiya vositasi bo'lolmaydi. Aksincha, ular mohiyatan insonni qoralashga, uni xafa qilishga, obro'sizlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bu kulgining o'ta ziddiyatli va g'ayriaxloqiy ko'rinishidir. Shu bois masxara fisq-u fasodning muqaddimasi sanaladi. Mazah qilish ibosiz so'z bilan insonga daxl etmoq demakdir. Mazah qilish, kalaka qilish, o'zganing ustidan, jismoniy kamchiligidan kulish masxaraning real voqelikdagi ko'rinishlaridir.

Kulgililikning barcha shakllari ular qanchalik erkin namoyon bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lib borsalar, shunchalik ko'p ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan hazil tuyg'usi, hayotning kulgili

tomonlarini nozik ilg'ab olish va fahmlash qobiliyati rivojlanib borgan sari shaxsning ma'naviy-ruhiy sog'lomligi hamda barkamolligi yuksalib boraveradi.

Umuman olganda, estetikaning tushunchalari (kategoriyalari) doimiy hamkorlikda mustahkamlanib boradi. Ayniqsa, bu jarayonda go'zallik kategoriyasi bog'lovchilik vazifasini bajaradi. Shuning uchun fojaviylikda, ulug'vorlikda, hunuklikda ham go'zallik unsurlarining uchrashi bejiz emas

Tayanch tushunchalar: estetika, estetika obyekti, nafosat, go'zallik, san'at, go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, nafosat tarbiyasi, semiotika, kategoriya, go'zallik, chiroylilik, xunuklik, ulug'vorlik, tubanlik, fojaviylik, forig'lanish, fojaviy qahramon, kulgililik, kulgili holat, hazil, mutoyiba, kinoya, hajviya.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Estetika»ning fan sifatidagi falsafiy mohiyatini tushuntiring.
2. Estetika qaysi fanlar bilan o'zaro yaqin aloqador?
3. Estetika kategoriyalarining tasnifini izohlab bering.
4. Nima uchun go'zallik estetikaning asosiy mezoniy tushunchasi hisoblanadi?
5. Ulug'vorlik tabiatda qanday xususiyatlarga ko'ra namoyon bo'ladi?
6. Tubanlikning illat sifatida ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'siri nimalarda ko'rinadi?
7. Fojaviylikning falsafiy mohiyatini tushuntirib bering.
8. Kulgulilik kategoriyasining estetik xususiyatlari nimada?

17-mavzu. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi

Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi. Ma'lumki, qadim-qadim davrlardan beri kishilar o'zlarini qurshab turgan tabiat, unda sodir bo'ladigan turli-tuman o'zgarishlarni kuzatganlar. Borliqni asosiy shakllaridan bo'lgan tabiiy borliq, uning o'ziga xosligi, tabiatni tashkil qilgan narsa va hodisalar, bircha organik va noorganik moddalar olami, o'simliklar va hay-

vonot dunyosi insoniyatni qiziqtirgan eng asosiy muammolardan bo'lgan. Nafaqat tabiat balki tabiat go'zalligi, uning estetik tarbiyaviy ahamiyati masalalari ham qadimdan mutafakkir va donishmandlarni qiziqtirib kelgan. Insoniyat ma'naviy yuksalishidagi eng buyuk nuqtalardan biri uni tabiat va odamzod hayotidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikning mavjudligini idrok etish, tabiat va dunyoning tartibli yaratilishi haqidagi tushuncha bo'lgan.

Go'zallik haqidagi ilk tasavvurlar ham tabiat bilan bog'liqdir. Tabiatdagi organizmlarning har biri o'z holicha emas, balki boshqa organizmlar bilan bog'liq holda yashaydi. Nabotot olami ham, hayvonot olami ham quyosh, suv, havo, tuproq ta'sirida yashaydi, rivojlanadi.

O'zbek xalqi tabiatga tarixan uzoq davrdan buyon mehr bilan qarashga, uni asrab-avaylashga o'rganib kelgan. Bu milliy bayram, qadimiy an'ana, urf-odatlarda ham yaqqol ko'rinadi. Xususan, O'rta Osiyo xalqlarining har yili nishonlanadigan Navro'z bayrami, asrlar davomida ona Yerga va tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni ardoqlash tuyg'ularini tarbiyalagan.

Tabiatga estetik munosabat xususida Qadimgi Xitoy daochilik ta'limotida ham o'ziga xos yondoshuv mavjuddir. Daosizm ta'limotida Inson mavjud olam kabi dao qonunlari asosida vujudga kelgan, u tabiatning bir qismi, uning vazifasi fazilat (de) yo'lidan borish. Har qanday sun'iy aralashuv, tabiatning muvofiqlik tartibini o'zgartirishga intilish odamlar uchun halokatli, barcha yovuzliklarning, son-sanoqsiz baxtsizliklarning manbayi tabiat joriy etgan qonunlardan chekinishdir. Shu sababli, Laoszi nazdida faoliyat — daoga qarshi qaratilgan va xalqqa zarar keltiradi, uning asosiy axloqiy tamoyili «uvey»- faoliyatsizlik, donishmand kishining «dao»si — bu kurashsiz faoliyat. Lekin bu kurashsiz faoliyat aslida tabiatga qarshi bo'lmagan faol xatti-harakat, faqat daoga xos, tabiat qonunlariga mos faoliyatdir. Tabiat go'zalligini asl holda saqlash va uni ko'rish, his qilish daochilikda muhim ahamiyat kasb etgan.

Go'zallik haqidagi tasavvurlarning tabiat bilan bog'liqligi yunon falsafasida ham namoyon bo'ladi. Qadimgi yunonlar olam-

ning tartibli ekanligini, uyg'unlik va go'zallik bilan bog'liq idrok etishgan. Tabiatdagi go'zallik bu qarama-qarshilikning kelishuvi, bu osoyishtalikdir. Tabiatning dialektik taraqqiyoti, undagi go'zallikning o'ziga xosligi tahlil etilgan.

Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda Islom qonun va qoidalari, shariat ahkomlari bilan bir qatorda atrof-muhitni toza saqlash, tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalanish, ularni isrof qilmaslik, insonning yashash tarzi, shaxsiy gigiyenasi, zurriyotni tozaligiga, o'simlik-hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan.

Tabiatdagi eng oddiy narsa va hodisalar mazmuni va shakli uyg'unligi bilan go'zaldir. Go'zallik bu voqelik (tabiat, jamiyat, san'at) hodisasi bo'lib, aniq hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanish, to'la ma'naviy qoniqish holati vujudga kelishiga imkon yaratadi. Go'zallik doimo foydalidir, lekin bu foydalilik jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga mo'ljallangan bo'ladi.

Tabiatdagi go'zallik ijtimoiy hayot go'zalligidan, foydali amaliy faoliyatidagi go'zallik badiiy ijoddagi go'zallikdan farq qiladi. Lekin go'zallik qanchalik o'zining rango-rangligi bilan ajralib turmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy tub belgilarga ega bo'lib, mana shu umumiy tub belgilar tufayli ularning barchasini maxsus ilmiy-falsafiy istiloh-go'zallik tushunchasi orqali talqin etish imkoniyati mavjud.

Insonda tabiatga qanday munosabatda bo'lish tuyg'usi birdaniga paydo bo'lmagan, albatta, u sekin-asta, inson zoti va tabiati rivojlanib borgani sari shakllanib borgan. Inson atrofidagi tabiatni o'zlashtira boshlashi bilan tabiat boshqacha ijtimoiy orzu mezonlari bilan baholanadi, o'lchanadi, inson uchun tabiatning go'zallik va xunuk tomonlari ayon bo'la boshlaydi.

Biz yashab turgan asrda insoniyat ulkan vayron qilish qudratiga ega bo'lgan ishlab chiqarish kuchlariga ham ega bo'lib qoldi. Shu narsa aniq-ravshan bo'lib bormoqdaki, tabiatga faqat moddiy manfaatdorlik nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lish salbiy oqibatlarga ham olib keladi. Insoniyat hozir tabiatni, atrof-muhitni himoya qilib, undan oqilona tarzda foydalanib, ayni vaqtda, tabi-

iy hamohanglik sirlari ichiga yanada chuqur kirib borib, o'ziga uning yangidan-yangi mo'jizalarini ochmoqda, undan ta'lim-saboqlari olmoqda.

Tabiatning estetik jihatlari. Darhaqiqat estetik go'zalliklarning xilma-xil ko'rinishilari orasida tabiat go'zalligi inson uchun hammadan ko'ra yaqinroq va tushunarliroqdir. Tabiat bilan yaqin bo'lishga ichki bir intilish, undagi go'zallik, nafasat olamiga oshno bo'lish barcha uchun xosdir. Tabiat butun tabiiy xilma-xilligi bilan bizni o'rab turgan dunyo demakdir. Jonli va jonsiz tabiat o'zining murakkab qonunlari asosida yashaydi va rivojlanadi.

Tabiat estetikasi insonga tabiiy go'zallik va uyg'unlikni ko'rish va qadrlashni o'rgatadi. Tabiatdagi har bir hodisaning go'zal va takrorlanmasligini sezish mumkin. Inson tabiatdagi go'zallikni avvalo ko'rish orqali idrok etadi, uni tabiatdagi ranglar va shakllarning uyg'unligi, tabiiyligi zavqlantiradi. Masalan, bahorda olamning gulga burkanishi, yozda o'rmonlarning yashillika burkanishi, kuzda esa olovdek tovlanishi, barglarning qizg'ish rangi, qishda oppoq qorga burkangan qir-adirlar barchaga estetik zavq beradi.

Tabiat go'zalligini his etish va idrok etish uchun uning uch jihatini tushunish lozim. Bu tabiiy organizmning o'ziga xos tuzilishi, uzaro mutanosibligi, doimiy harakatda, rivojlanishda bo'lgan jonli organizmning o'ziga xos xususiyatini, tabiiy obyektlarga xos bo'lgan dekorativ go'zallik, masalan, kapalak qanotlari, yoki tovuş patlaridagi ajib bir uyg'unlik va go'zallikni ajrata bilish lozim. Bu ayniqsa san'at orqali yetkazib beriladi.

Tabiat estetikasi tabiatni sevishni, uning go'zalligiga beg'araz munosabatda bo'lishni o'rgatadi, ya'ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umum-olamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi.

Mustaqillik yillarida shahar va qishloqlarimizning qiyofasi butunlay o'zgardi, yangidan-yangi inshootlar qad ko'tardi. Barpo etilayotgan yangi ko'chalar, yo'llar, maydonlar, insonda yuksak mas'uliyat, go'zalliklarni asrash va vatanparvarlik ruhiyatini uyg'otishi bilan birga dizaynning insonparvarlik mohiyatini namoyon qiladi.

Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi. Globalashuv jarayonida yangi estetik qadriyatlar qaror topib bormoqda. Bu insonning tabiatga va jamiyatga bo'lgan munosabatida aks etadi. Nemis faylasufi Immanuel Kant tabiatni axloqiylik bilan bog'laydi: «Kimniki bevosita tabiat go'zalligi qiziqтира, bu uning fikrlash tarzida, yo'q deganda, axloqiylikka, ezgulikka qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi», — deydi u¹. Ammo Hegelning, tabiatda ideal yo'q, shu sababli u ikkinchi darajali go'zallik turi, degan fikri estetikada hukmronlik qilib keldi, ayniqsa, bu fikr tabiatni «bo'ysundirishni» targ'ib qilgan marksizm ta'limotida keng e'tirof etildi. Natijada uzoq yillar mobaynida tabiat estetikasiga e'tibor qaratilmadi. Biz me'moriy obidalarni asrash, tiklash haqida qayg'urdik, ularni estetik qadriyatlar deb e'lon qildik, lekin landschaft estetikasini chetga chiqarib qo'ydik.

Hozirgi kunda shu narsa aniq bo'ldiki, tabiatni eng ulug' va mangu estetik qadriyat deb bilmaslik borib turgan estetik savodsizlikdir. Aniqrog'i, bugun tabiatsiz estetikani tasavvur qilish mumkin emas. XXI asrda olamni bilish, voqelikni estetik o'zlashtirish bilan bir qatorda uni qadriyat sifatida e'zozlashga alohida e'tibor berilmoqda. Endilikda odamlarning yaratuvchanlik faoliyati yuksalishi barobarida estetik qadriyatlarga nisbatan munosabati tubdan o'zgarimoqda. Bu o'z navbatida inson mohiyatan eng oliy qadriyat ekanligi, inson manfaatlarining ustuvorligini ta'minlash barcha islohot va evrilishlarning bosh maqsadiga aylanganligi bilan belgilanadi.

Insoniyatni o'rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof-muhit, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga egadir. Bunday qadriyatlar jamiyat uchun hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy, mutlaq va muqaddas qadriyatlardir.

Ekoesetikaning XXI asr taraqqiyotidagi o'rni. Insoniyat hozir o'z tarixining mas'uliyatli davrida yashamoqda. Biz «tabiat-jamiyat-inson» munosabatlari uyg'unligining yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydik. Bu tarixiy davr o'z real imkoniyat-

¹ Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5. — М., Мысль, 1966. — С.314.

lari, obyektiv taraqqiyot qonuniyatlari bilan jamiyat oldiga turli muammolarni qo'ymoqda.

Bulardan eng muhimi tabiatni asrashdir. Tabiat alohida bir xalq va millatniki emas. Tabiat muqaddas bir dargoh, inson ko'z ochib ko'rgan dunyo, ona zamin, insoniyatning umumiy uyi. Shunday ekan uni avaylab-asrash, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, umumdavlat, umuminsoniyat ishidir. Ekologik muammoni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir. Bu esa odamlarning, xalqlar va millatlarning ma'naviyatini yuksaltirish, tabiatga estetik munosabatini shakllantirishni taqozo etadi. Negaki voqelikka estetik munosabatda bo'lish tabiatga bo'lgan muhabbatdan boshlanadi. Tabiat uning o'zini gavdalantiruvchi barcha san'at turlari uchun bitmas-tuganmas shakllar manbai bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Inson bilimining ortishi, tabiat hodisalarining mohiyatini aniqlash, qonuniyatlarini o'rgana borish, texnikaning taraqqiyoti inson qudratini oshirishi natijasida tabiat ustidan hukmronlik o'rnatishga intilishi boshlandi. Va bu salbiy oqibatlariga olib keldi. XXI asrga kelib tabiat va inson o'rtasida yangicha muloqot vujudga kelmoqda. Inson tabiatning hukmroni emas, uning bir bo'lagi ekanligi tabiatga nisbatan qilingan har qanday yomonlik oqibatida insonga qilingan yomonlik ekanligini anglab yetdi.

Hozirgi zamonning eng katta muammolaridan biri ekologiya ekanligi, uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqligi hammamizga ayon haqiqat. Xalqimiz yaqin o'tmishda boshidan o'tkazgan totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida atrof-muhitga bepisand munosabatda bo'linib, tabiat boyliklaridan ochko'zlarcha foydalanishga zo'r berilgan edi. O'sha davr bizga o'simlik va hayvonot dunyosi genofondiga salbiy ta'sirni, biologik xilma-xillikning qisqarishi, katta hajmdagi sanoat va boshqa chiqindilarning ko'payishi, cho'llanish, yer va suv resurslari degradatsiyasi, Orol dengizi halokati kabi mintaqaviy va global miqyosda yechilishi

zarur bo'lgan muammolarni meros qilib qoldirdi. Bu muammolar inson hamda uning manfaatlari himoyasi, birinchi navbatda, sog'lom va musaffo atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash jarayoni amalga oshirilayotgan islohotlarning o'zagini tashkil etgan O'zbekiston uchun atrof tabiiy muhitni asrab-avaylashni va uni sog'lomlashtirishni yanada dolzarb qilib qo'ydi.

Texnogen sivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri. XX asrda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida biosfera ichida noosfera ya'ni texnikaviy muhitning paydo bo'lishi inson hayoti va faoliyatining asosi bo'lgan mehnatga katta ta'sir ko'rsata boshladi. Bugun uyali aloqa, kompyuterlarsiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi. Bu esa texnika hayotimizga tobora chuqur kirib borayotganini ko'rsatadi. Albatta, biosferadagi barcha o'zgarishlarning sababchisi inson — uning tafakkuri ekanligi barchaga ayon. XXI asr yuqori texnologiyalar, axborotlar asri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa kishilarning ongi, faoliyati mana shu tezkorlikka moslashishi lozimligini taqozo etadi.

Texnika rivojining ko'p yillik tarixi bizning texnik bilimlarimiz, ixtirochilik, konstruktorlik qobiliyatimiz fan, inson ehtiyojlari, yashash muhiti rivojiga muvofiq doimiy mukammallashib borishini ko'rsatmoqda. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir. U industrial sivilizatsiya yoki texnogen jamiyati deb atalmoqda.

Inson va jamiyat «texnosfera»da joylashgan bo'lib, texnika bir joyda to'xtab turmaydi. Texnika innovatsiyasi inson hayotini to'xtovsiz o'zgartirib turuvchi katalizator — harakatga keltiruvchi sifatida inson ongidan joy oldi. Mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ijtimoiy hayotga, iqtisod, siyosat va mafkuraga kirib keldi. «Inson va mashina» munosabatlari tobora yangicha mazmun kasb etib bormoqda.

Har qanday rivojlangan texnika ham ijtimoiy masalalarni insonsiz hal eta olmaydi. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnika asrida taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani epallash qobiliyati ma'naviy barkamollik va mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Texnik taraqqiyotni, uning jamiyat-

dagi o'rnini va rolini to'xtatish, inkor etish mumkin emas. Shunday ekan, texnogen sivilizatsiyada inson texnogen madaniyat-fan amaliyoti, texnikaning yangidan-yangi shakllari, ularni ishlata bilish uquvi va mahoratiga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Maishiy turmush estetikasi. Turmush bu ijtimoiy hayot sohasiga oid tushuncha bo'lib, u inson, millat va xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, rasm-rusum majmuyi, obyektiv reallik, moddiy, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, sog'liqni saqlash, shuningdek, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat. U azaldan madaniy qadriyatlarni vujudga keltiradigan va asraydigan muhim makon bo'lib kelgan. Turmush madaniyati inson hayoti va ijtimoiy muhitda iqtisodiy, ijtimoiy, estetik mezonlarni ko'rsatish bilan birga estetik madaniyatni ham shakllantiruvchi hodisadir.

Turmush madaniyatining o'ziga xosligi mehnat, oila, Vatan, kattalarga hurmat, o'zini tutish me'yorlari kabi tabiiy, sodda ammo, asosiy qadriyatlarni singdirishida namoyon bo'ladi. Turmushga singgan qadriyatlar nisbatan mutlaq bo'ladi, juda kam o'zgaradi. Ushbu fazilatlar, qadriyatlarni har bir shaxs o'zi bilan oilasiga olib o'tadi va uning abadiyligini ta'minlaydi. Turmush estetikasi dizayn, ekoestetika, atrof-muhit estetikasi, estetik tarbiya bilan bevosita bog'liq bo'lib, moddiy va badiiy madaniyatni integratsiyalashning eng ta'sirchan vositalaridan biridir.

Turmush estetikasi insonni voqelikka estetik munosabatini namoyon etadigan sohalardan bo'lib, u bevosita tashqi ko'rinishi, kiyinish va muomala madaniyati, narsa va buyumlarga, turar joylariga munosabatini aks ettiradi. O'z o'rnida insonni o'rab turgan narsa va buyumlar olamining go'zalligi inson hayotining uyg'unligini ta'minlaydi va uni estetik tarbiyalaydi. Turar joyi, tashqi ko'rinishi, kiyim ko'rkamligi orqali inson yashayotgan, mansub bo'lgan jamiyat haqida estetik tasavvur olish mumkin. Va aksincha turmushda tartibsizlik, palapartishlik estetik madaniyat pastligidan dalolat beradi.

Turmush estetikasining insonni o'rab turgan narsa va buyumlar, turar joylariga munosabatini o'z ichiga oladi. Insonning dizaynerlik, ijodkorlik qobiliyatlari dastavval turmushda shakllanib boradi. Bunda ma'lum bir xalqning tarixi, mentaliteti,

avvaldan shakllanib kelgan turmush tarzi muhim o'rin tutadi. Kiyinishidan tortib, oilaviy an'analar, oilaviy makongacha bo'lgan hodisalarda odamlarning narsalar dunyosiga, go'zallik va ulug'vorlik orqali qarashlari, estetik didga, ijtimoiy ideallarga o'ziga xos munosabatlari namoyon bo'ladi va bu pirovard natijada turmush madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida madaniy-hordiq infrastrukturasidagi islohotlar, bolalar uchun sport maktablari, madaniyat saroylari va barkamol avlod saroylari, fitnes klublar, tikish-bichish, kasb-hunar o'rganish bilan bog'liq to'garaklar aholi turmush estetikasiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi. «Ma'lumki, aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayotdan rozi bo'lib yashashiga erishish bugungi zamonaviy davlatchilik taraqqiyotidagi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Yaqinda ayni shu ko'rsatkichlar bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida AQSHning Kolumbiya universiteti sotsiologlari tomondan ijtimoiy so'rov va tadqiqotlar o'tkazilib, shu asosda «Butunjahon baxt indeksi»ning («World Happiness index») yangi reytingi e'lon qilindi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu ro'yxatda O'zbekiston 158 mamlakat orasida 44-pog'onada, Mustaqil Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlar orasida birinchi o'rinda qayd etildi»¹.

Turmushning ijtimoiy-estetik mohiyatini tahlil qilish uch narsaga e'tibor berishni taqozo qiladi. Bular — inson hayot kechiradigan rang-barang predmetlar olami; insonning boshqalar bilan muloqotda o'zligini namoyon qilish holatlari; insoniy munosabatlarning odob-axloqda aks etish imkoniyat va xususiyatlari. Bulardan birinchisi bevosita dizayn bilan bog'liq.

Turmush estetikasining muhim jihati insonni o'rab turgan narsa va buyumlar yaratish va unga bo'lgan munosabatida aks etadi. Qadimgi odamlar turli narsalardan loy, yog'och, tosh va tabiatning boshqa predmetlaridan o'ziga xos mo'jizalar yaratganligi ma'lum. Bu narsalar dizayn faoliyati jarayonida yaratila borib turmush madaniyatining muhim xususiyatini tashkil qiladi.

¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir. — T.: O'zbekiston. 2015. -12 b.

Inson turmush estetikasining muhim tarkibiy qismlaridan biri insonning kiyinishi bilan bog'liq bo'lib bu modaga borib taqaladi. Ma'lumki, moda deganda tashqi madaniyat shakllarining vaqti-vaqti bilan qisman o'zgarish va takrorlanib turishini tushunamiz. Bunday takrorlanishlar va o'zgarishlar iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy, estetik omillar kabi ijtimoiy asosga ega bo'ladi. Modani asosiy ko'pchilik e'tirof etadi, u o'zini faqat kiyinishda emas, ishlab chiqarishda ham, siyosatda ham, san'atda ham, fanda ham, hatto mafkurada ham namoyon qila oladi. U ijtimoiy-estetik mezon sifatida baholash xususiyatiga ega va shu bilan odamlarga nima kerakligini belgilab beradigan hukmron didga aylanadi. Moda odamlarning yashash tarzidan (uslubidan) kelib chiqib, doimiy ravishda o'zgarib boradigan hayot mazmuniga mos shaklni taklif etadi. Zotan u ommaviy estetik didning darajasi va o'ziga xosliklarini zamon ko'zgusida aks ettirish xususiyatiga ega. Shu jihatdan u, yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zgaruvchanlik tabiatiga ega.

Inson qaddi-qomatiga estetik ko'rinish berishi bilan ham estetik taassurot qoldira oladi. Inson chehrasi va tanasining tabiiy tuzilishiga oid ba'zi nuqsonlarni kosmetika, jismoniy tarbiya va tibbiyotning ayrim sohalari yordamida «tartib»ga keltirish mumkin. Biroq bu yerda me'yor asosiy mezon hamda ijtimoiy ong darajasi bilan bevosita bog'langan bo'lishi lozim. Bugungi kunda estetik jarrohlik insonga «kosmetik bezak» bermoqda, «chiroy» baxsh etmoqda, o'ziga ishonchni orttirmoqda. Ammo, qalb go'zalligi insoniy go'zallikning asosi bo'lishi lozim. Shu bois turmush estetikasi shaxs badiiy-estetik madaniyatini shakllantirishda asosiy ijtimoiy manba va omil bo'lib xizmat qiladi.

Inson faoliyatining barcha shakl va mahsulotlariga estetik salohiyat xos bo'lganligi bois turmush uning estetik gavdalanishini mazmundor qiladi va rang-baranglashtiradi. Bu o'rinda dizayning turmush estetikasiga ta'sirini alohida ta'kidlash joiz. Shu ma'noda insonni qurshagan predmet va narsalar muhiti uyg'unlik, shinamlilik va qulaylik xususiyatlari bilan insonda zavq, ko'tarinki kayfiyat, xotirjamlik kabi hissiyotlarni uyg'otishi; insonga o'z hayotidan mamnunlik uyg'otishi, ruhiy muammolar yechimini hal

etishda yordam berishi mumkin. Binobarin, me'morlar, amaliy san'at namoyandalari, dizaynerlar, umuman ijodkorlar bu estetik qulayliklarni nafaqat moddiy balki insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratadi.

Turmush estetikasi inson faoliyati sohalari, narsalar olami, interyerning tarkibiy qismlari, uning shakllanish qonuniyatlari, ish joylar muhitini shakllantirish kabi masalalarni hal etishda zamonaviy ilm-fan bilan bog'liq bo'lib yangi texnik va texnologik ishlanmalar, dizaynga tayanadi. Narsa va buyumlarni qulay, shinam joylashtirish va ulardan to'g'ri foydalanish kundalik hayotimiz yuqori turmush madaniyatiga daxldor bo'lib bormoqda va ijtimoiy hayot markazida turibdi.

Mamlakatimizda yoshlarning mehnat va estetik tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'cha, mahalla va turar joylarni bezashda maktab, litsey va kollej talabalari qatnashmoqda. Shu orqali yoshlarning voqelikka estetik munosabatini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, «Barkamol avlod» bolalar markazlarida o'lkashunoslik va ekologiya, dizaynerlik to'garaklarining mavjudligi bolalarda dizaynerlik qobiliyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning dizaynga oid bilim va ijodiy tafakkuri boyib bormoqda, dizaynerlik kasbining dastlabki ko'nikmalari shakllanmoqda.

Allomalarning insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak, degan ta'rifi shu o'rinda o'z ma'nosini ko'rsatadi. Kiyim-kechak, libos, narsa va buyumlar nafaqat moddiy, shu bilan birga, badiiy-estetik ahamiyatga ham ega predmetlar majmuyi bo'lib, insonning tashqi qiyofasi, didi, o'ziga bahosi, ixtisosligi, ijtimoiy mavqei ham gavdalantiradi, bugina emas, tashkiliy va ruhiy vaziyatni ham ifodalaydi. Va nihoyat, kiyim-kechak, libosning yarashiqli, narsa, predmetlarning ko'rkamligi kishilarda muayyan estetik mamnunlik va xushnudlik uyg'otishini ta'kidlash lozim.

Zamonaviy shaharsozlik estetikasi inson kamolotida muhim o'rinni egallaydi. Har bir viloyat, shaharning o'ziga xos shaharsozlik an'analari mavjud bo'lib, ular davrlar mobaynida takomillab, milliy va zamonaviy an'analarni uyg'unlashtirib boradi.

Mustaqillik yillarida shaharsozlik beqiyos o'zgarishlarga, taraqqiyotga yuz tutdi. Shaharlarda nafaqat tarixiy obidalar qayta tiklandi, balki ziyoratgohlar obodonlashtirildi, qator zamonaviy kasb-hunar kollejlari, maktablar, zavodlar, fabrikalar, sport maydonlari, shifoxonalar, mehmonxonalar, istirohat bog'lari, xiyobonlar, bozorlar, yo'llar, ko'priklar, savdo majmualari, favvoralar, gulzorlar barpo etildi.

Ayniqsa keyingi yillarda bu sohada muhim o'zgarishlar bo'ldi. Turar-joylarni takomillashtirish, badiiy loyihasini muhandis, dizayner mutaxassislar yordamida qulay, chiroyli, shinam bo'lishiga erishish uchun maxsus loyihalar qabul qilinmoqda. Zamonaviy shaharsozlik dizaynini takomillashtirish uchun «Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tizimini tubdan qayta tashkil etish, shaharsozlikning eskirgan metodologiya va normativlari, kapital qurilishdagi nomutanosiblik va muammolarni bartaraf etish, Shuningdek, loyiha institutlarining samarasiz faoliyatini qayta ko'rib chiqish»¹ taqozo etiladi.

Bugun O'zbekistonning barcha shaharlarida katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Viloyat markazlari Nukus, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Buxoro, Guliston, Qarshi, Termiz kabi shaharlarni zamonaviy me'morlik talablari asosida tubdan qayta qurish ishlari amalga oshirilmoqda. Ana shunday keng ko'lamlı ishlar natijasida Samarqand shahri jahondagi inson o'z umri davomida albatta borib ko'rishi zarur bo'lgan 50 shaharning biriga aylandi. Buyuk Britaniyaning «Ekonomist» jurnalida e'lon qilinishicha Toshkent shahar obodligi va yashash uchun qulayligi jihatidan dunyo reytingida 140 ta shahar orasida 58 o'rinni egalladi. Bu misollarning barchasi madaniy makonda dizaynning o'rne va roli ortib borayotganini ko'rsatadi. Nafaqat Toshkent, balki butun O'zbekistonning go'zalligi dunyoga namoyon qilinmoqda. Bunda funkcionallik va badiiylik, foydalilik va go'zallik, tejamkorlik

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.-B. 22-23.

va ta'sirchanlik, qulaylik va shinamlilik kabi dizayn paradigma-
lari madaniy makonni shakllantirishning asosiy omili bo'ladi va
dizaynning insonparvarlik maqsadini namoyon etadi. Bu milliy-
lik va umuminsoniylik uyg'unligi, urf-odat va an'analar, tarixiy
tajribaga asoslangan holda sog'lom turmush tarzi va qulay sharoit
yaratib berish, bir so'z bilan aytganda yurtimizdagi obodlik va
farovonlik bilan belgilanadi.

Dizaynning estetik xususiyatlari. Italiyanchada loyiha, rasm
ma'nolarini anglatuvchi disegno so'zi o'rta asrlarda inson tabi-
atida mavjud bo'lgan ijodkorlik xususiyatlarini ham ifodalagan.
Ammo, «ingliz tilidagi design so'zi birinchi marta 1919-yil ing-
liz rassomi Djozef Sineo tomonidan sanoatda ishlab chiqarilgan
narsalar namunasiga nisbatan qo'llanilgan. Bunda u aniqroq ifo-
dalash uchun industrial so'zini kiritib «industrial design» sano-
atga, uning taraqqiy etgan mashina texnikasi va seriyali ishlab
chiqarishga yo'naltirilgan yangi badiiy predmetli ijod sohasini
anglatuvchi so'z birikmasini qo'llaydi. Vaqt o'tishi bilan bu ter-
min xalqaro ahamiyatga ega bo'lib bordi»¹.

Dizayn avval narsa va buyumlar olamini estetik va funksional
sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoli-
yati bo'lsa bugunga kelib inson faoliyatining barcha yo'nalish va
ko'rinishlarini qamrab olib, nufuzli, keng tarqalgan ijodiy faoli-
yatga aylandi. Narsa va predmetlar, atrof-muhitni loyihalar ekan
dizayner ayni paytda inson va uning hayot tarzini ham loyiha-
laydi.

Dizaynning eng asosiy estetik xususiyatlaridan biri, mahsulot
sifatini oshirishning ta'sirchan vositasi ekanligidadir. U ilmiy ta-
lakkurning so'nggi muvaffaqiyatlarini o'zida gavydalantiradigan,
eng yuksak texnikaning iqtisodiy, estetik va boshqa iste'molchilik
talablariga javob beradigan, jahon bozorida raqobatbardosh
bo'lishi kerak, bunda esa hal qiluvchi omil dizayndir.

Dizayn bu ijodiy faoliyat bo'lib, uning maqsadi sanoat mahsu-
lotlari shakli va sifatini belgilab berishdir. Bu xususiyatlar mah-

¹ Медведев В.Ю. Научные аспекты дизайна. — СПб.: СПГУТД, 2014.
С.4.

sulotning tashqi belgilarini qamrab oladi, shu bilan birgalikda mahsulotni xaridor-iste'molchi nuqtayi nazarida ham, tayyorlab-yetkazib beruvchi nuqtayi nazaridan bir butunlikka olib keluvchi funksional va strukturaviy aloqadorligini ham o'z ichiga oladi. Dizayn amaliy san'at sohalari sanoat olamiga ham tatbiq etib, mahsulot shaklini faqat mantiqiy tuzilish, maqsadga muvofiq emas balki, hissiyotlarga ta'sir etishini ta'minlaydi.

Dizayn bugun jamiyatning ilmiy-texnik va estetik darajasini ham ko'rsatadi. Bu biz kundalik amaliyotimizda qo'llaydigan mehnat qurollaridan tortib, uy jihozlari-yu, kommunikatsion vositalar televizor, kompyuterlarda ham namoyon bo'ladi.

Bugungi kunga kelib dizayn kirib bormagan sohaning o'zi yo'q. Shaharsozlikdan tortib, xonadonimiz interer (ichki ko'rinishi) va ekstereri (tashqi ko'rinishi), transportdan tortib, mehnat vositalarigacha, maishiy turmush buyumlar olamidanda tortib, liboslar, daftar-kitobdan tortib, gazeta-jurnallargacha ularning ishtiroki zaruriyatga aylanib qolgan. Dizayn so'zining o'zi inglizcha chizish, loyihalash ma'nosini anglatadi. U inson moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol buyumlari olamini uyg'unlashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.

Mustaqillikdan so'ng aholi turmush darajasining yuksalayotganligi, estetik madaniyatning takomillashib borayotganini kuzatish mumkin. Bunda dizayn katta rol o'ynamoqda. Bugungi dizayn moddiy ishlab chiqarish muhitini estetik qayta qurish, uni xalqimiz manfaatlari va ehtiyojlariga mos keltirishga xizmat qilmoqda.

Xalq amaliy san'ati va dizayn. Ma'lumki, mavjud barcha san'at asarlari o'z o'quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabiniga o'tkazadigan badiiy, estetik, ruhiy ta'siri orqali bilim beradi, tarbiyalaydi. Shu o'rinda amaliy san'at turlarining xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. Ya'ni bunday san'at asarlari ayni chog'da ham badiiy, ham amaliy vazifalarini bajara olishi ularning ahamiyatini belgilaydi.

Shuning uchun xalq amaliy san'atiga e'tibor kuchayib bormoqda. Mustaqillikdan so'ng kandakorlik, kashtado'zlik, zardo'zlik kabi amaliy san'at turlariga e'tibor ortdi. «Xalq amaliy san'ati

va hunarmandchiligini kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari to'g'risida»gi farmon, «O'zbekiston xalq ustasi» unvonining ta'sis etilishi, sohaga oid xalqaro konferensiyalarning o'tkazilishi bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining 2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish masalasini Davlat dasturi ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Amaliy-bezak san'ati va hunarmandchilik bozor iqtisodiga moslashib, uning tur va janrlari bozor iqtisodi bilan bog'liq holda rivojlanmoqda. Shaxsiy ustaxona va korxonalar tashkil etilmoqda. Mustaqillik yillari yog'och o'ymakorligi, uning maishiy va monumental turlarining keng rivojlanish davri bo'ldi. Mahobatli yog'och o'ymakorligi keng rivoj topdi. Barpo etilgan me'moriy majmualarda bu san'at o'zining salmoqli o'rnini egalladi.

O'zbekistonda muntazam o'tkazilayotgan ko'rgazmalarda ham xalq amaliy san'atining bir qancha turlari namoyish etilmoqda. Misgarlik, kashtado'zlik, yog'och kandakorligi buyumlari-da qadim ustalarimiz an'alarining zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashtirilgani turmush estetikasining yuksalishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu buyumlar xorijliklarning ham e'tiborini tortmoqda. Bugun milliy hunarmandchiligimiz nafaqat O'zbekistonda balki jahonga ham mashhur bo'lib bormoqda. Hindiston, Xitoy, Shuningdek, Yevropa mamlakatlarida xalq amaliy san'ati ko'rgazmalari tashkil qilinayotgani fikrimiz dalilidir. Dizayner va ustalarimiz nafaqat respublikamizdagi zamonaviy inshootlarda, balki chet ellarda masjid va madrasalar, islom san'ati muzeylari interyerlarini bezashda muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqdalar.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy san'ati yodgorliklari o'tmish ajdodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho asarlarning namunalari bo'lib, salqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi. Xalq amaliy san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, ba-

diiy-estetik didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalqi amaliy san'ati kishilarning badiiy, axloqiy, umuminsoniy jihatdan tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ham madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy inshootlar kabi turar-joylarda amaliy san'atning bir qancha turlarini ko'rish mumkin. Turar-joylarning turli-tuman badiiy-texnologik usullarda namoyon etilgan badiiy bezak turlari, O'zbekiston me'morchiligida ham muhim o'rin tutadi. Interyerlarning badiiy bezatilishda asosiy ahamiyat devoriy naqqoshlikka qaratilgan bo'lib, bu o'zbek xonadonini bezatishda muhim jihatlardan hisoblanadi.

Yog'och o'ymakorligi faqat intereraning sirtida namoyon bo'lib qolmay turli shakl va kompozitsiyalarda ham aks etadi. Bu interyer uchun ishlangan stol, stullar, xontaxtaning nafaqat shaklining bejirimligi balki yog'och fakturasining go'zalligi va ularga berilgan ishlov hamda naqshlarning betakror va yengilligi kishiga zavq bag'ishlaydi. Toshkent turar-joy me'morchiligida O'rta Osiyo me'morchiligi amaliyotida qo'llanilgan badiiy bezaklarning deyarli barcha turlari mavjud: suvalgan devor ganch naqqoshligi hamda o'ymakorligi shular jumlasidandir.

Interyerining badiiy bezalishida asosiy ahamiyat devoriy naqqoshlikka qaratilgan bo'lib, bu o'zbek xonadonini bezatishda muhim jihatlardan hisoblanadi. Ko'pincha naqqoshlik ganch o'ymakorligi bilan muvofiqlikda bajariladi. Ayniqsa, Toshkentda keng tarqalgan o'simlik naqshlari — majnuntol, anor, xrizantema butalarining yoyilgan shoxlarini ko'plab uchratish mumkin. Bu lavhalar faqatgina bezak emas o'z falsafiy ma'nosiga egadir. Masalan, majnuntol — sevgi sog'inchi, anor — serhosillik, lola — bahor, gulsafsar osoyishtalik va uzoq umrni anglatgan.

An'anaviy badiiy hunarmandchilik buyumlari patnislar, ko'zachalar har biri o'zining betakror xislatlariga ega bo'lib, ularni xarid qilishgina emas, balki ulardan zavqlanish, ularning donoligini tushunish va ularning badiiy qimmatiga baho berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yodgorliklar estetik kechinmalar manbayi hamdir. Hech bir o'zbek xonadoni yo'qki unda

kulolchilik, badiiy kashtachilik, zargarlik buyumlari bilan bezatilmagan bo'lsin. O'rta asr Sharq miniatyuralari rangtasviridan olingan bezaklar interer dizayniga ham kirib kelishi milliy turmush estetikasining yuksalishida muhim ahamiyat kasb etib qolmay, yangi-yangi an'analarni vujudga keltirmoqda.

Tayanch tushunchalar: ekoestetika, tabiat, ilmiy-texnik taraqqiyot, texnogen sivilizatsiya, inson go'zalligi, san'at, turmush estetikasi, ishlab chiqarish estetikasi, estetik idrok etish, qadriyat, ekologiya, estetik tarbiya, estetik munosabat, shaharsozlik estetikasi, fan, dizayn, amaliy san'at.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tabiatga estetik munosabatning mohiyati haqida tushuntirib bering.
2. Ekologik estetikaning qadriyatli maqomi nimalardan iborat?
3. Ekoestetikaning falsafiy mohiyatini izohlab bering.
4. Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usullari qanday?
5. Texnosivilizatsiyaning ishlab chiqarish estetikasi va fan taraqqiyotiga qanday ta'siri bor?
6. Maishiy turmush estetikasining inson turmush tarzida tutgan o'rni qanday?
7. Zamonaviy shaharsozlik estetikasining bugungi rivoji haqida gapirib bering.
8. Dizayn estetik xususiyatlarini tushuntirib bering.
9. Xalq amaliy san'ati va dizaynning o'zaro aloqadorligini izohlab bering.

18-mavzu. Estetikaning zamonaviy muammolari va estetik tarbiyaning dolzarb masalalari

Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari. Estetik tarbiya o'z-o'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas va ayni paytda birdan to'xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin-asta inson tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko'nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Qolaversa, es-

estetik tarbiya ijtimoiy taraqqiyotning muayyan jabhalarida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ish olib boradi. Bundan tashqari tarbiyaning mazkur shakli ayrim kishilarning yoxud biror-bir guruhning turli xil faoliyatlari natijasida yuzaga keladi.

Estetik tarbiya mohiyatan inson omili bilan bog'liq bo'lib, bu omil nafis didga, yuksak farosatga va pokiza tuyg'ularga egaligi bilan ajralib turadi. Jamiyatda yashayotgan biror-bir shaxs estetik jarayonlardan chetda turmaydi, aksincha, o'zining muayyan xatti-harakati bilan mazkur jarayonlarga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyaning maqsadi ana shunday ta'sirlarni go'zallik, ulug'vorlik, fojaviylik, kulgililik asosida yo'naltirishdan iborat.

Har bir inson jamiyatda o'z o'rnini bilishi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his qilishi lozim. Endilikda mafkura dunyosida paydo bo'ladigan bo'shliq pirovardida jamiyat, inson va mamlakat uchun naqadar katta xavf solishi anglanmoqda. Tarbiyaning estetik shakli esa mazkur jarayonlarda yosh avlodni go'zallik haqidagi tuyg'ularini, tabiatga bo'lgan munosabatini, badiiy adabiyotga qiziqishini, jamiyat ma'naviy rivojidagi yangicha qarashlarni go'zallik va ulug'vorlik asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifani amalga oshirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari:

– kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

– jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

– tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;

– o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

– ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir.

Estetik tarbiya juda keng ko'lamga ega bo'lib, insonni bir butun shaxs sifatida namoyon qiladi. Shuning uchun har qaysi davr, tuzum, jamiyat estetik tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq, bu jarayon pedagoglar zimmasiga juda katta vazifa yuklaydi. Ayniqsa, bugungi kunda oliy ta'lim muassasasida katta ehtiyojga aylanmoqda. Biroq, ko'pgina muassasalarda bu fanga nihoyatda jo'n va primitiv yondashuv mavjudligini alohida e'tirof etish zurur.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari. San'at — estetik tarbiyaning muhim vositasi. Ma'lumki, hissiyotlar, tuyg'ular, kechinmalar insonning tirikligidan dalolat beradi. Chunonchi, ijobiy fazilatlar, badiiy-estetik ideallar inson hayotining mazmuniga ko'rk bag'ishlaydi. Tarbiyada ayniqsa, estetik tarbiyada hayotning mazmuni va maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Gohida maqsad mavhum tushunchaga aylanib shaxsning tabiatiga mutlaqo zid bo'lgan holatlarni keltirib chiqaradi. Pirovardida inson bunday maqsadlarning ta'siridan zarar ko'radi. San'at shu ma'noda zamonaviy insonni estetik jihatdan tarbiyalashdagi asosiy vositaki, u insonning estetik tuyg'ularini maqsadli, ijobiy tomonga yo'naltiradi, uning kelajakda buyuk ishlarni amalga oshirishiga ko'mak beradi.

Shaxsning estetik tarbiyasini san'at vositasida amalga oshirishning afzal tomonini ikki xususiyat bilan ifodalash mumkin. Birinchidan, san'at ijtimoiy anglashning boshqa shakllariga qaraganda insonga birmuncha yaqinroq hamda tezroq ta'sir ko'rsata olish imkoniga ega. Ikkinchidan, san'at insonni estetik jihatdan kamolotga yetkazish jarayoniga muayyan mafkuraviy mazmun bag'ishlashi bilan birga inson ma'naviy qadriyatlarini ro'yobga chiqarishda yaqindan yordam ko'rsatadi.

San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning tadqiqot obyekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi. San'atning inson estetik tafakkurini yuksaltirishdagi ahamiyati yana shu bilan izohlanadiki, san'at avvalo; voqelikni badiiy qiyofalar yordamida aks ettiradi, o'zida moddiylik va ma'naviylikning estetik mazmunini namoyon qiladi, ijtimoiy hayotga yangicha ko'rk bag'ishlaydi,

ularni qaytadan tashkil etadi va o'zgartiradi. Ana shunga ko'ra, insonning bilimlilik tomoni san'atning ko'rinishlarini namoyon ettirish holatlarini amalga oshiradi. Mazkur holatlar natijasida estetik tarbiyaviylik xususiyati o'z ifodasini topadi.

Elektron axborot vositalar – estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi. Hozirgi kunda estetik tarbiyaning shunday vositalari mavjudki, uning ma'naviy jarayonlarga ko'rsatayotgan global ta'siriga befarq bo'lish aslo mumkin emas. Ana shunday ta'sirlardan biri – bu elektron axborot vositalardir. Elektron axborot vositalari muhim estetik tarbiya vositasi sifatida qator xususiyatlarga ega. Bular:

- narxining arzonligi;
- asosiy mahsulot – bilim, axborot, moda va imidj;
- yangi iqtisodiyot – u axborotga ega bo'lishni xohlaydigan odamlarga imtiyoz beradi;
- chinakam global xarakterga ega ekanligi.

Mehnat – estetik tarbiyaning asosiy vositasi. Mehnat ham moddiy, hamda ma'naviy go'zalliklar yaratish bilan estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. Bu jarayon ijtimoiy-foydali mehnatning badiiylik bilan aloqasi ta'sirida vujudga keladi. Mazkur munosabat pirovardida mehnat vositalarining insonga keltiradigan zararini kamaytiradi. Qolaversa, mehnatga ijodiy yondashuv jamiyat ma'naviy qiyofasini belgilovchi omil hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi – ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Ushbu jarayonda eng muhim va dolzarb vazifa insonlarda mehnatga bo'lgan yangicha estetik munosabatni shakllantirishdan iborat. Tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish, odamlarda mulkka egalik hissiyotini tarbiyalash o'z navbatida mehnatga bo'lgan estetik munosabat orqali ro'yobga chiqadi.

Ommaviy axborot vositalari estetik tarbiyaning ta'sirchan vositasi. Bu vosita insonga yaqindan ta'sir qiluvchi qudratli va faol kuchdir. Ayniqsa, televideniya shaxs hamda ommani estetik dunyoqarashini shakllantirishda, ularni nafosatli jihatdan tarbiyalashda yuksak ahamiyat kasb etadi. Rang-barang mavzulardagi ko'rsatuvlar badiiy va hujjatli filmlar, ijtimoiy-

ma'naviy mazmundagi reklamalar, telemarafonlar nafosatli tarbiyani maqsadli yo'naltirishda, insonlar tafakkurida go'zallikka bo'lgan yangicha munosabatni shakllantirishda salmoqli ahamiyat kasb etadi.

Sport — estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi. Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e'tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog'lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Sport va sport musobaqalari mohiyatan inson nafosatli dunyoqarashini, tafakkurini sog'lomlashtirishga qaratilgan.

Estetik tarbiya omillari. Mahalla — estetik tarbiyaning muhim omili. Mahallaning shaxs estetik tarbiyasiga ta'siri nihoyatda katta. Chunki, mahalla jamiyat ichidagi kichkina jamiyat bo'lib, u bugun shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, uning ijtimoiy-huquqiy madaniyatini shakllantirishga ko'mak beruvchi makon sifatida ham yuksak ahamiyat kasb etadi. Mahalla shaxs nafosatli tarbiyasiga yaqindan ta'sir ko'rsata olishi bilan boshqa omillardan ajralib turadi. Mahalla o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni bajarishi bilan zamonaviy insonni nafosatli jihatdan tarbiyalaydi. Chunonchi mahalla:

- o'ziga qarashli hududning tozaligi, obodligi, ko'rkamligini hamda fuqarolarning hamjihatligini ta'minlashi;
- turmush nafosati va muomala estetikasini shakllantirib, insonlar qalbida ijobiy tuyg'ular, yaxshi orzularni namoyon ettirishi;
- mahalliychilik va millatchilik singari salbiy holatlarga yo'l qo'ymasligi hamda qo'shnichilik madaniyatini kamol toptirishi;
- san'at, madaniyat, ma'rifat arboblari, ilm ahllari ishtirokida bo'ladigan rang-barang mavzulardagi ma'ruzalarni, suhbatlarni uyushtira olishi;
- isrofgarchilikka, dabdababozlikka yo'l qo'ymagan holda urf-odatlar, an'analar, marosimlar, tantanali shodiyonalarni tartibli, chiroyli o'tishini ta'minlashi va hokazo shu kabilar bilan inson estetik tafakkurini shakllantirishda muhim maskan bo'lib hisoblanadi.

Estetik tarbiyaga ta'sir o'tkazuvchi global tahdidlar. Milliy ma'naviyatga ta'sir o'tkazuvchi tashqi tahdidlar ayni paytda estetik tarbiya jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ijtimoiy-ma'naviy munosabatlar tizimida estetik tarbiyani maqsadli yo'naltirishni taqozo etmoqda.

Internet. Bugungi kunda estetika niqobi ostida turli xil ko'rinishdagi «yengil hayot tarzi», «musaffo tuyg'ular», «huzurbaxsh axloq», «maftunkor ko'rinish», «yangi imidj»ni targ'ib qiluvchi tarmoqlar estetik tarbiyaga jiddiy xavf solmoqda. Bunday tahdidlar odatda, insonning tashqi va ichki ko'rinishidagi mutanosiblikni buzishga qaratilganligida ko'rinadi. Bu avvalo, insonning fahmi, farosati va didiga jiddiy zarar yetkazadi. Natijada didsizlik va farosatsizlik odamning asl qiyofasini bilishga, uning niyatini anglashga qolaversa, ma'naviy to'poslikka olib keladi. Zero, har qanday chiroyli ko'ringan narsa ham inson manfaatiga xizmat qilavermaydi.

Inson ruhiyatiga ta'sir etish ham estetik tarbiyaga tahdidning ko'rinishlaridandir. Bu ong osti hodisasi orqali namoyon bo'ladi. Bular:

Sezgilar. Ya'ni, 5 ta sezgi ilg'amagan narsani ong osti ilg'ash qobiliyatiga ega. Uzluksiz jarayonni tuyg'ular xotiraga uzluksiz yozadi. Ammo biz ularning hammasini ajrata olmaymiz.

Kuzatish. Bunga reklama mahsulotlari va uning estetik tabiatini misol qilish mumkin. Mahsulotga bo'lgan qiziqish reklamada ko'rsatilgan shaxsga ixlos tufayli ortadi.

Tashviqot. Ongosti tashviqotga tabiiy holda eshitilmaydigan ovozlar orqali ta'sir qiladi. Supermarket, kafe-bar, bozor hamda ko'ngilochar maskanlarda qo'yiladigan musiqalarda ham xaridorlarni chorlash maqsadi ko'zlanadi.

Yashirin kadr orqali ta'sir qilish. Bu insonning ong osti hislariga yashirin ta'sir qilishda ko'rinadi. Mutaxassislarining fikricha, bu turdagi tashviqot har doim ham ezgu yo'lda ishlatilavermaydi, bu aksariyat holatlarda shum niyatli insonlarga qo'l kelishi mumkin. Misol uchun kino yoki seriallarda, «agar bir insonga davomli ravishda «Qo'shningni o'ldir!» shaklidagi yashirin kadr bilan ta'sir qilinsa, u hech ikkilanmasdan qotillikka qo'l urishi mumkin ekanligini tibbiyot psixologiyasi isbotlab berdi.

Estetik tarbiyada fan, ta'lim va madaniyatning o'zaro aloqasi. Shaxsning estetik kamolotini fan, ta'lim va madaniyatning, xususan estetik madaniyatning uyg'unligisiz tasavvur etish qiyin. Chunki, estetik madaniyat – bu inson ehtiyojlarining murakkab tizimi bo'lib, unda odamzod hissiyotlari, malakalari, ko'nikmalari, bilimlari, me'yorlari, maslaklari bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketganligi.

Estetik madaniyat murakkab ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat miqyosida tabiatni estetik o'zlashtirish jarayonlari va natijalari, mehnat faoliyati, turmush, ijtimoiy munosabatlarning estetik jihatlari, sinf va ijtimoiy qatlamlarning estetik qarashlari, did va manfaatlarining muayyan holati, estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti, kishilar ijtimoiy-estetik faolligining rang-barang namoyon bo'lishini anglatadi. Bunda estetik madaniyatning ko'proq insonning ehtiyojlariga bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. U rang-barang faoliyat hamda estetik munosabatlar tizimi sifatida badiiy ijodning professional hamda havaskorlik turlari, moda, dizayn, ommaviy axborot vositalari, estetik idrok madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq jarayonlarni ham qamrab oladi.

Kasb estetikasi estetik madaniyatning eng yuksak shakllaridan biridir. Har bir kasb o'ziga xos axloqiy me'yorlariga ega bo'lgani kabi, o'z mehnat faoliyati taqozo etadigan estetik me'yorlarga ham egadir. Kasb etikasi kabi kasb estetikasi xususida Kaykovus, Alisher Navoiy, Umar Xayyom kabi mutafakkirlarimiz o'z qarashlarini bayon etishgan. Xususan, Kaykovus «Qobusnoma» asarida bir qancha kasblar xususida fikr bildiradi. «Hofiz va sozandalik zikrida» bobida «Ey farzand, agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok, mutayyab va xushzabon bo'lg'il va o'z ishingga mashg'ul bo'lgil, yaramas xulq qo'pol bashara bo'lmag'il» deb ta'kidlaydi.

Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida kishilar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan hamkasblar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Mana shu vaziyatda kasb estetikasi muhim rol o'ynaydi. Kasb etikasi va kasb estetikasi o'zaro

bog'liqdir. Barcha kasb uchun umumezon bo'ladigan axloqiy me'yorlar rostgo'ylik, halollik, xushfe'llik xulq go'zalligini tashkil etadi. Xulq go'zalligi esa kasb etikasigagina emas, balki kasb estetikasining ham muhim tarkibiy qismi desak xato bo'lmaydi. Bu shifokor, o'qituvchi, jurnalist kabi barcha kasb egalari uchun muhimdir.

Har bir kasb o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu kasb estetikasida ham o'z aksini topadi. O'qituvchi faoliyati, mehnat mahsuli muhandisnikidan farq qiladi. Uning mehnat mahsuli o'quvchining axloq odobi, bilim darajasi, estetik didi bilan belgilanadi. Muhandis estetik didi esa u yaratgan avtomobilning qulay, chiroyli, foydaliligi bilan belgilanadi. O'qituvchining yurish-turishi, estetik fazilatlarini uning o'quvchilarida aks-sado bersa, muhandisning mehnat mahsuli inson uchun qulaylik yaratadi, moddiy madaniyatimizga hissa qo'shadi. Albatta, bunda muhandis tabiiy fanlar qatori estetika, ruhshunoslik kabi fanlarni ham egallagan va estetik didga ega bo'lishi lozim.

Bugungi kunda jahon miqyosida sodir bo'layotgan globallashuv jarayoniga binoan, bir tomondan, fan, ta'lim va madaniyat sohasida mushtarak tamoyillariga yo'l ochilsa, ikkinchi tomondan, ayrim xalqlar milliy qadriyatlarini, madaniyat turlari va estetik tasavvurlariga salbiy ta'sir etadigan jihatlar ko'zga tashlanishi tabiiy bo'lib qoldi. Demak, ana shunday obyektiv va subyektiv sabablar, sharoitlar natijasi bo'lgan globallashuv davrida ma'naviy hayotda, madaniyat jabhalarida nihoyatda sezgirlik va ogohlik bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi.

Mehnat — turmush estetikasining muhim omili. Insonning aqliy yoki jismoniy kuchi bilan amalga oshiriladigan maqsadli faoliyati mehnat deb atalishi ma'lum. U ma'naviy va moddiy jihatdan odamzod hayotini farovonlashtirish, ma'naviy hamda moddiy qadriyatlarini yaratish vositasi. Mehnatda inson ayni paytda ham aqliy, ham jismoniy tomondan tarbiyalanib, ma'naviy yuksalib boradi. Biroq mehnat og'ir majburiyatga aylangan joyda uning bu xususiyatlari yo'qoladi. Shu sababli mehnat har jihatdan yuksak samara berishi uchun erkin bo'lishi, mehnat jarayoni ijodiy va qiziqarli kechishi lozim. Agar mehnat erkin va ijodiy

bo'lsa ko'plab yuksak asarlar, mukammal mahsulotlar yaratiladi. Va aksincha, mehnat asarlari xunuk bo'lsa insonning mehnat qilish zavqi va baxtidan mosuvo ekanligi, bu esa ular yashayotgan jamiyatning ma'naviy qashshoqligini ko'rsatadi.

Mehnat estetikasi deganda mehnat sharoiti, mehnat vositalari, mehnat natijalarida estetik qonuniyatlarning namoyon bo'lishi tushuniladi. Mehnatning estetik jihatlari shaxsning ijodiy faoliyat potentsiali uning ma'naviy, aqliy, axloqiy-estetik tomonlari bilan umumiyli va mehnat natijalaridan beg'araz lazzatlanishiga bog'liqdir. Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi uchun avvalo obyektiv omillar, ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liq. Albatta bu o'rinda mehnatkashlarning madaniyati, estetik didi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mehnatning estetik mohiyati u kechadigan ijtimoiy shart-sharoitlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bozor munosabatlari sharoitida raqobat amal qilishi moddiy ne'mat ishlab chiqaruvchilardan har tomonlama keng ijodiy faoliyat ko'rsatish, sifatli mahsulotlar yaratish, iste'molchilarning badiiy-estetik didi va ehtiyojlariga mos tovarlar yetishtirishni zaruriy ehtiyojga aylantirdi. Moddiy va ma'naviy ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va rivojlantirish shaxs, millat va jamiyat taraqqiyoti garovlaridan biridir.

Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi avvalo obyektiv omil — ishlab chiqarish jarayoniga ham bog'liq. Albatta, bu o'rinda mehnatkashlarning madaniyati, axloqi, estetik didi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, mehnat insonga kuchli va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatib, uning faoliyatiga estetik ma'no-mazmun baxsh etadi, ma'naviy kamol topishiga ko'maklashadi. Bunda ijod ustuvorligi quncha yuqori bo'lsa, uning estetik mohiyati ham shuncha barqaror, ma'naviy ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach mehnatning mohiyati ham tubdan o'zgardi. «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun» tamoyili mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar avvalo inson hayotini farovon, turmushini obod bo'lishi, mehnatning erkin va ijodiy tabiatiga bog'liqligi ifodasidir.

Insonning tabiiy, axloqiy va estetik didining mutanosibligi. Inson dunyoga kelar ekan, atrof-*muhitga va unda kechayotgan voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati orqali uning tabiiy didi shakllansa, voqea-hodisalarning estetik sifatlarini idrok etishi va baholashi jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg'usi va estetik mezoni orqali uning estetik didi namoyon bo'ladi. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ijod mahsulotlarida o'z ifodasini topadi. Aynan shu uyg'unlik insonning tabiiy, axloqiy va estetik didining mutanosibligini anglatadi.

Estetik did zaminida go'zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg'araz shodlanish hamda lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did odamlarning dunyoqarashidan, ayniqsa, estetik qarashlaridan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik bilimlar va qarashlar didda ifodalanishi uchun ular shaxsning ichki dunyosiga, idrok qilish jarayonining o'ziga singib ketishi, shaxsning mustahkam axloqiy e'tiqodiga aylanishi lozim.

Estetik did o'zida bevosita va bilvosita, hissiy va aqliy, yakka odam va jamiyat estetik didi qarama-qarshiliklari birligini mujassamlashtiradi. Estetik didning ziddiyatli tabiati haqida dastlab Kant munosabat bildirgan edi. Kant nazarida did yakka odamga xos bo'lgan insonning tug'ma qobiliyatidir. Did shu qadar yakka tartibda ifoda topadiki, uni hech qanday dalillar bilan inkor etib bo'lmaydi. Did mulohazasi nihoyatda shaxsiy tabiatga molikdir. Shu boisdan ham «did to'g'risida bahslashmaydilar». Lazzatlanish obykti bo'lgan hissiylik, nafosat barcha uchun barobar darajada ahamiyatlidir, u faqat mazkur shaxsning o'zigagina emas, balki hammaga yoqadi. Inson o'ziga yoqqan narsalarni boshqalarga ham yoqadi deb o'ylaydi. Demak, didlar uchun umumiy hisoblanadigan tomonlari ham bor. Shu sababli did to'g'risida bahslashish asoslidir. Kant ikkala mulohazani antinomiya sifatida ta'riflaydi. Inson amaliyotining boy va xilma-xilligi ma'naviy munosabatlarning ham boy va xilma-xil bo'lishiga olib keladi, did esa, ularning eng muhim namoyon bo'ladigan tuyg'ularidan hisoblanadi.

Alohida shaxsning estetik didi uning betakror hayotiy tajribasi zaminida shakllanadi. Tabiiyki, alohida tarbiya sharoitlari,

hayotiy tajriba, tabiati va ehtirosi ta'siri ostida u yoki bu estetik qadriyatlar tabiat hodisalari, inson moddiy faoliyati mahsulotlari, badiiy qiymatlarga ko'proq moyillik vujudga keladi. Estetik ong bilan badiiy ongni tenglashtirib bo'lmaganidek, estetik did bilan badiiy didni ham tenglashtirish mumkin emas. Estetik did badiiy did bilan bog'liq bo'lib, ko'p jihatdan uning ustiga quriladi, lekin u bilan qo'shilib ketmaydi. Badiiy va estetik did o'rtasidagi tafovut ularning turlicha idrok etish obyektlariga ega bo'lishi bilan bog'liqdir. Ikki did o'rtasidagi farqni hisobga olish bilan birga, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'ymaslik lozim. Badiiy did hamma vaqt estetik didga asoslanadi, undan kelib chiqadi.

Xuddi Shuningdek, estetik did axloqiy did bilan mutanosiblikda rivojlanib boradi. Zero, insonning qalb nafasoti va ezgu axloqiy qiyofasi uyg'unlikda uning go'zalligini yaxlitlikda namoyon qiladi.

«Ommaviy madaniyat»ning yoshlar estetik didiga ta'siri. XXI asr ommaviy madaniyati zamonaviy qiyofada go'yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish niqoblari ostida namoyon bo'lmoqda. Bu niqoblar ostidagi salbiy holatlar va ular shakllantirishi mumkin bo'lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglay bilish zamon talabidir. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoyev: «Ammo farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat manbayi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki biz uchun yet bo'lgan g'oyalarni yoshlarimiz ongiga singdirayotgan zararli axborotlar asosida shakllanishiga men mutlaqo qarshiman»¹, — deb ta'kidlaydi. Ommaviy madaniyat eng avvalo, milliy estetik tarbiyaga zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdan chiqarishi bilan xatarli hisoblanadi. Estetik tarbiya aynan shunday holatga qarshi maqsad yo'lida yosh avlodni milliylikka zid bo'lmagan estetik ideal timsolida, yuksak didli qilib tarbiyalash bilan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. «Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. — T.: O'zbekiston, 2017. —469 b.

zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir. Shu sababli yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni giyohvandlik, axloqsizlik, chetdan kirib kelayotgan har xil zararli ta'sirlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostidagi tahdid va xatarlardan asrash masalalari bir zum ham e'tiborimizdan chetda qolmasligi darkor¹. «Ommaviy madaniyat» illat sifatida haqiqat, go'zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste'molchilik ehtiyoji bilan bog'lab, iste'mol va tovar sifatida xaridorgir bo'lishiga qaratilgan maqsadni targ'ib qiladi. Bu esa pirovardida «bozor adabiyoti», «bozor san'ati» degan ma'naviyatga tahdid soluvchi hodisalarning «gullab-yashnashi» uchun imkon yaratadi.

XX asrning 70-yillarida ko'plab sotsiologlar, faylasuflar, san'atshunoslar «ommaviy madaniyat»ning ijtimoiy taraqqiyotga, ayniqsa umummadaniy jarayonlarga ta'siri haqida bir qator tadqiqotlarni olib borgan edilar. Xususan, sotsiolog Ch.Reych o'zining «Gullayotgan Amerika» kitobida «Isyonkor yoshlar o'zlarining shaxsiy «madaniyat»larini yaratmoqdalarki, bu madaniyatning asosini kiyim, musiqa va narkotiklar tashkil etmoqda. Yosh «isyonkorlar» madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq falsafiy, axloqiy, estetik ahamiyatidan hamda muomala va muloqot madaniyatidan yuz o'girgan holda o'zlariga mos qadriyatlarni yaratmoqdalar va ularni himoya qilmoqdalar. Bu kabi «yangi odam» uchun mazkur qadriyatning asosi — bu o'zini mavjud tizimdan tashqarida his qilishga bo'lgan layoqatidir», — degan fikrni bayon etgan edi.

«Ommaviy madaniyat»ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo'lgan olomoni shakllantirish bo'lgani bois, u ma'naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o'quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamining kengayishiga xizmat qiladigan asar-

¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish — eng oliy saodatdir. — T.: O'zbekiston, 2015. — B. 267—268.

larni yaqiniga yoʻlatmaydi. Shuning uchun «ommaviy madaniyat» namunalari badiiy-estetik qimmatga ega emas. Demak, bugun estetikaning zamonaviy muammolari inson—tabiat, inson—inson, inson—texnika bilan bogʻliq boʻlib,

— ekologiya tizimlari, landshaftlar va noyob tabiat obyektlari xilma-xilligini saqlab qolish va koʻpaytirish;

— tabiat obyektlari bilan bogʻliq madaniy merosni asrab qolish va avlodlarga yetkazish;

— inson oʻzini «goʻzallashtirishi» orqali oʻzligini yoʻqotishi va millat (qiyofasiga) genofondiga zarar yetkazishini anglashi;

— insonning texnikaga va atrof-muhitga munosabati, «ommaviy madaniyat»ning har qanday koʻrinishiga hamda «fetish estetik» va «bozor sanʼati» kabi tahdidlar eʼtibordan chetda qolmasligi lozim.

Sport va uning maʼnaviy-estetik jihatlari. Jismoniy tarbiya va sport insonga xushkayfiyat, estetik ruh, harakatchanlik, epcillik, chaqqonlik, jismoniy faollik baxsh etadi. Bu xususda B.Lou oʻzining «Sport goʻzalligi» degan kitobida F.Kinonning «Teatr, tomoshabinga suyanib rivojlanadigan sanʼat turi... Sport musobaqalarida tomoshabinlar oʻzlarini xuddi spektakl tomoshasidagidek tutadilar: ular yuksak mahorat egalariga qarsak ehaladilar va yomon oʻyin koʻrsatganga nisbatan salbiy munosabatlarini yashirmaydilar. Sportda ham, teatrdam ham biz «oʻyin» haqida gapiramiz»¹ degan fikrini keltirar ekan sportning axloqiy-estetik tarbiyaviy ahamiyatga egaligini nazarda tutadi. Shuningdek B.Lou H.Slyusherning «Sport va ekzistensiya» kitobidagi «Sport — toki haqiqiy sport ekan, u estetik fazilat va nafislikka erisha oladi. U sportchi uchun chuqur maʼnoga boy holat... sport botiniy yaxlitlikni va yuksak darajadagi hissiy koʻtarinkilikni talab qiladi» bu bilan H.Slyusher sportchi his etadigan estetik zuvq haqida² taʼkidlaydi, deb fikr bildiradi. Bundan ham koʻrinib turibdiki sport shaxsda jismoniy goʻzallikni his qilish qobiliyatini tubiyalashi uning kamolotida katta oʻrin tutadi. Bu sohada amal-

¹ Лой Б. Красота спорта. — М.: Радуга, 1984. — С.92.

² Oʻsha manba. — S. 177.

ga oshirilayotgan ishlar sog'lom va barkamol avlodning jismoniy go'zalligi, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgandir.

Zero, jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda jismoniy madaniyat muhim ahamiyat kasb etib, insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradi, uni ma'nan yuksaltirib ezgu ishlarga safarbar etadi. Bu yerda gap professional sportchining jismoniy madaniyatiga oid talablar haqida emas, balki tabiiy harakatchanligi, kelishgan qaddi-qomati, jismoniy fazilati bilan ajralib turuvchi sog'lom inson haqida bormoqda. Binobarin, sog'lomlik bebaho boylik, moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish asosi, oliy qadriyat sanalgan inson kamolotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish aholi salomatligini ta'minlashning muhim omili bo'lib, avvalo, yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega»¹.

Ma'naviy va jismoniy sog'lom inson ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlariga ega, kayfiyati yuqori, ijodkor bo'ladi. Bu narsa uning nafaqat jismoniy mehnat sohasi, balki estetik qadriyatlarni yaratishdagi faolligida ham ko'zga tashlanib turadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik vazifa etib belgilandi. 1998-yil 6-sentyabrda Toshkentda 28 davlat vakillari Kurash xalqaro assotsiatsiya (KXA)ga asos solishdi. O'tgan yillar davomida 711 ta sport inshooti qurilib, bolalar ixtiyoriga topshirildi, ularning 161 tasi yangidan bunyod etildi, qurilish-tiklash ishlariga 9,8 milliard so'm, ularni zamonaviy asboblardan jihozlashga 1,7 million AQSH dollari miqdorida mablag' ishlatildi. Birgina 2008-yilning o'zida kasb-hunar va akademik litseylar qurish uchun 382,4 mlrd so'm sarflandi. Jahonning eng zamonaviy stadionlari bilan tenglasha oladigan «Bunyodkor» stadioni ham O'zbekistonning sportga bo'lgan munosabatining yorqin namunasidir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jismoniy tarbiya va

¹ Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – B. 475–476.

sportning o'ziga xos yangi tizimi shakllandi. Maktab o'quvchilari o'rtasida «Umid nihollari», litsey va kollej o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod», oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida «Universiada» musobaqalari doimiy tus oldi.

Sport irodani mustahkamlashda, aniq maqsad sari intilishda, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan yengishda juda katta ahamiyat kasb etishini, u inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini tarbiyalaydi. Ayniqsa, «Barkamol avlod» musobaqalari sport sohasida yangi an'analarni boshlab berdi. Yoshlarning nafaqat jismoniy chiniqishlariga, balki halol bel-lashuvlar ishtiyoqi, g'alabalar quvonchi bilan yashashiga, xalqimizga xos mardlik, tantilik va bag'rikenglik hislarini ko'rsatib, ma'naviyatlarining yuksalishiga ham xizmat qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, sport nafaqat yoshlarning jismoniy jihatdan chinakam sog'lom bo'lishi, o'z tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish vositasi bo'lib qolmay, balki har tomonlama kamol topishi, ma'naviy-ruhiy, siyosiy-mafkuraviy va badiiy-estetik salohiyatlarini, ongi va tafakkurini vatanparvarlik, milliy g'urur va milliy iftixor ruhida shakllantirish va rivojlantirish omili sifatida ham ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, sport — milliy va umuminsoniy estetik madaniyat ramzi sifatida xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik tuyg'ularini mustahkamlashda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Buning yorqin misolini bir qator milliy va ommaviy sport o'yinlarida ko'rishimiz mumkin. Xususan, o'zbek milliy kurashi o'zida estetik madaniyatning yuqori kechinmalarini namoyon etishi, kurashayotgan kurashchilarning nozik harakatlarida kishini ilhomlantiradigan va zavqlantiradigan estetik qiyofaning aks etishi milliylik va umuminsoniylik xususiyatlarini namoyon etadi. Sportning nozik va barchaning o'ziga estetik zavq bilan jalb etadigan turlaridan yengil atletikada ham bu jarayon yaqqol gavdalana-di. Sport o'yinlari ichida umumbashariy ahamiyat kasb etadigan futbol millionlar o'yini sifatida yuksak estetik madaniyatning namunasi-dir.

Voqelikka estetik munosabatning milliy va umumbashariy ahamiyati. Nafosat olamining obyektiv va subyektiv tomonlari mav-

jud bo'lib, unda odamlarning voqelikka estetik munosabatda bo'lish jarayonida yaratilgan «ikkinchi tabiat», ishlab chiqarish texnologiyasi, turmush tarzi, oila, bog'cha, ta'lim-tarbiya muassasalari obyektiv omil hisoblanib, shaxs va uning his-tuyg'usi, didi, tasavvur va xayollari subyektiv tomonlarni tashkil qiladi. Nafosat olamidagi ana shu obyektivlik va subyektivlik estetik qadriyatlarning vujudga kelishi, rivojlanishi, ahamiyatini belgilab beradi. O'zbekiston demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ushbu maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri — bu xalqimiz qalbi va ongida yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlarga mehr-muhabbatni kuchaytirish, axloqiy va diniy qadriyatlarni estetik tuyg'ular, kechinmalar va tasavvurlar bilan uyg'unlashtirishdan iboratdir. Umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlar negizida qurilgan ma'naviy-ma'rifiy-madaniy hayot har bir shaxsning o'zligini anglab, umumbashariy va milliy ma'naviy merosni o'rganib, olijanob fazilatlar asosida o'z hayotini tashkil etishni taqozo etadi. Milliy ma'naviyat — bu muayyan millatning tarixiy o'tmishi, dini ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi hamda dunyoqarashining ifodasi. Unda milliy urf-odatlar, an'analar, moddiy-madaniy meros, tarixiy yodgorliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy ma'naviyat esa — barcha xalqlarga xos bo'lgan, ularning barcha ijtimoiy ideallarini aks ettiruvchi an'analar, g'oyalar, intilishlar, maqsad-muddalarni ifodalovchi qadriyatlar tizimidir. Bunday qadriyatlar biror-bir davlat, jamiyat, mafkura tomonidan yaratilmaydi, u barcha insonlarning orzu-umidini ifodalaydigan, ularga birdek manzur bo'lgan, yovuz g'oyalarga qarshi yagona kuch sifatida qaror topadigan qadriyatlar tizimidir. Tinchlik, erk, istiqlol, demokratiya kabi tushunchalar bashariyatning azaliy qadriyatlaridir. Voqelikka estetik munosabatni milliy va umumbashariy ahamiyati shaxs ma'naviyatining yuksak bo'lishi, uning umuminsoniy va milliy ma'naviyat bilan qanchalik mushtarakligiga bog'liq.

Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Uni industrial sivilizatsiya yoki texnogen jamiyati

deb atalmoqda. Texnologiya — texnika bilan uzviy bog'liqdir. «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, predmetlarga ta'sir etish ishlov berish, tayyorlash, o'zgartirish metodlari majmuyi degan ma'noni bildiradi. Agar texnika insonning obyektga nima vositasida ta'sir ko'rsatishini anglatasa, texnologiya insonning obyektga qanday ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Osvald Shpengler XX asrning 30-yillarida «Inson va texnika» asarida inson olamning hukmdori edi, u mashinaning quli bo'lib qoldi, deb yozgan edi. Texnika inson borlig'ining barcha sohalariga: iqtisod, siyosat va mafkuraga kirib keldi. «Inson va mashina» munosabatlari yangicha mazmun kasb etyapti. Asrimiz boshida ijtimoiy-texnika taraqqiyotining ibtidosidayoq olimlar, yozuvchilar texnika va texnologiya uning tabiatga inson hayotiga ta'siri masalariga o'z munosabatlarini bildirishgan. Bu xususda noosfera ta'limotining asoschilaridan bo'lgan akademik Vernadskiy «Sayyoramiz yuzi—biosfera inson tomonidan ongli va asosan ongsiz ravishda kimyoviy o'zgarishlarga duchor etilmoqda. Inson quruqlikning fizikaviy va kimyoviy havo qobig'ini, uning barcha tabiiy suvlarini o'zgartirmoqda. Hozir biz biosferadagi yangi geologik evolyutsion o'zgarishlarni boshdan kechiryapmiz. Biz noosferaga kirib boryapmiz»¹ deb ta'kidlaydi. Noosferaning atrof-muhit, tabiatga ta'siri har doim ham kutilgan natijani beravermasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Atom bombasining yaratilishi, ballistik raketalarning havo qatlamini teshib o'taverishi natijasida azon qatlamining kengayib borayotganligi, kimyoviy zavod-fabrikalarning ko'payishi natijasida atmosferaning zaharlanishi nabotot, hayvonot dunyosigina emas insoniyatga salbiy ta'siri kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Hozirgi globallashuv sharoitida yuqori texnologiyalar, yangi axborotlar asri sifatida namoyon bo'lmoqda. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli ortib kishilar ongi mana shu tezkorlikka moslashishi lozimligini taqozo etmoqda.

¹ Вернадский В.И. Начало и вечность жизни. — М.: «Сов. Россия», 1989. — С.186-187.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, inson tafakkuri noosferaning turli-tuman yo'nalishlarini vujudga keltirmoqda. Nanotexnologiyalar bugun hayotimizga kirib kelmoqda. Tabiat va nanotexnologiyaning o'zaro munosabati murakkab bo'lib va ko'p ma'noli xususiyatlarga ega. Uning o'ziga xosligi shunda ko'rinadiki, nanotexnologiyaning ba'zi bir obyektlari tabiat obyektlaridan farq qiladi. Tabiatda mavjud bo'lmagan nanomahsulotlar sun'iy dunyoni paydo qilib tabiatga nisbatan munosabatni qiyinlashtiradi. Shu bilan birgalikda nanotexnologiya nafaqat sun'iy dunyoni yaratadi, balki tabiat bilan yangi munosabatlarni o'rnatadi. Bu muammolar bugun insoniyat oldiga turli-tuman hal etilmagan masalalarni ham qo'ymoqda. Texnika insoniylashuvi, inson ma'naviyati bilan uyg'unlashuvi, inson manfaatlari har bir insonning ongi va faoliyatiga singishi lozim. Negaki ular inson ma'naviy olami, estetik ongi va didi, estetik ehtiyojlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli muhimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Buni kompyuter texnologiyalari, internetning farzandlarimizga ta'siri orqali ko'rishimiz mumkin. EAV va kommunikatsiya texnologiyalaridan ma'lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtayi nazaridan yetkazilishi, ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma'lumotlarni ketma-ket berish orqali oxir-oqibatda yoshlarning idrokini susaytirishga olib keladi. Internet va uning shakllari bo'lgan internet-televideniya, internet-radio, elektron pochta, onlayn-video, ijtimoiy tarmoqlar kabi ko'plab axborot tarqatish texnologiyalari imkoniyatlaridan yoshlarning ma'naviyati va bilim darajasini oshirishda maqsadli va oqilona foydalanish zarur.

Shu o'rinda reklamalarga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Reklamaning estetik jihatlari va g'ayriestetik holatlar mavjudligi hech kimga sir emas. Ayrim firma va kompaniyalar o'zlarining sifatsiz ayni paytda zararli mahsulotlarini reklama qilishda ustalik bilan foydalanmoqda. Bunday reklamalarni ko'rgan yoshlar maqtalgan «o'sha» narsalarni tatib ko'rishni xohlaydi. Bu reklama beozor ko'ringani bilan ma'lum mamlakat turmush tarzini ham yoshlarga yetkazayotgani, ularda qiziqish uyg'otayotganini unut-

maslik lozim. Shunday ekan, ijtimoiy voqelikdagi hodisa hamda jarayonlarga yoshlarda ongli munosabatni shakllantirish, ularning erkinlik haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy mas'uliyatga munosabatlarini tarixiylik va zamonaviylik o'zaro uyg'unligini ta'minlash asosida quyidagilarni yoshlar turmush tarziga singdirib borish zarur:

– jamiyatning har bir fuqarosini global jarayonlarni mulohazakorlik bilan tahlil qilishga o'rgatish, ularning axloqiy mas'uliyatni chuqur his qilishiga erishish;

– shaxs erkinligi oila, mahalla, davlat va jamiyatni o'zaro uyg'unligida ro'yobga chiqqani, xoriждан eksport qilinayotgan, razolat va tubanlikka yetaklovchi «ommaviy madaniyat» millat axloqi, urf-odati, dinu-diynati, imon-e'tiqodiga mutlaqo yo'l ekanligini, ular ruhiyatiga muntazam singdirib borish;

– sharq kishisiga xos fazilatlarni yuksaltirish asosida har bir shaxsning erkinlik va mas'uliyatni chuqur anglashga safarbar etish o'z amaliy faoliyatida demokratik qadriyatlarga tayanish ko'nikmasini hosil qilish;

– ayni paytda erkinlikni tom ma'noda mohiyatan anglashda uning g'arbona (Yevropacha) tamoyillariga ko'r-ko'rona asoslanishiga yo'l qo'ymaslik muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday taqlid yuqorida ta'kidlaganimizdek, kutilmagan oqibatlarga, xususan erkinlik niqobiga o'rangan mas'uliyatsizlikka, demokratiya niqobiga o'rangan parokandalikka, bosh-boshdoqlikka olib kelishi mumkin.

Nima bo'lganda ham globallashtirish jarayoni ijobiy ta'sirini e'tirof etgan holda o'tmish qadriyatlarimiz bilan zamonaviy tamaddun o'zgarishlarni muntazam o'rganib borish milliy qiyofasizlik, didsizlik, axloqsizlik, mas'uliyatsizlik kabi salbiy holatlarga zamin yaratuvchi global ta'sirlardan yoshlarni imkon darajada asrash, bugungi kundagi eng muhim vazifadir.

Tayanch tushunchalar: estetik tarbiya, fan, ta'lim, sport estetikasi, estetik did, «ommaviy madaniyat», madaniyat, estetik munosabat, estetik anglash, voqelik, turmush estetikasi, mehnat estetikasi, reklama, texnologiya.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetik tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntirib bering.
2. Estetik tarbiyaning asosiy vositalariga nimalar kiradi?
3. Milliy estetik tarbiyaga mahallaning ta'siri qanday?
4. Estetik tarbiyada san'atning tutgan o'рни haqida gapirib bering.
5. Estetik tarbiyada mehnatning roli qanday?
6. Globallashuv sharoitida estetik tarbiyaga tahdidlarning o'ziga xos ko'inishlarini sharhlab bering.
7. Internet va uning estetik tarbiyaga ta'siri xususiyati haqida gapiring. «Ommaviy madaniyat»ning namoyon bo'lish shakllarini ayting.

XULOSA

Ma'lumki, insoniyat azal-azaldan olam va odam nima, ular qanday paydo bo'lgan, qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi, degan savollarga javob izlab kelmoqda. Umrning mazmuni nimadan iborat, ajdodlar ortidan avlodlar kelib-ketaverishida qanday ma'no bor, degan savollar ham necha asrlardan buyon ko'pchilikni o'ylantiradi. Har bir kishi uchun abadiy ahamiyatga molik ana shunday masalalar, olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va umrning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning azaliy va barcha zamon faylasuflari shug'ullanadigan asosiy mavzulari hisoblanadi.

Shu ma'noda, falsafa insoniyat yaratgan eng qadimgi fanlardan biri, odamzod hayotining ilk davrlaridan boshlab uning doimiy yo'ldoshi bo'lib kelmoqda. Bu sohada to'plangan hikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari insoniyat yaratgan ma'naviy qadriyatlar orasida muhim o'rin egallaydi. O'z zamoni, yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu-intilishlarini falsafiy ta'limotlarida ifoda etgan buyuk donishmandlar o'rtaga tashlagan ezgu g'oyalar jamiyat farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qilgan. Odamlarni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bu g'oyalar muayyan davr va xalqlarning maqsad-muddaosiga, ularning mualliflarini esa insoniyat qadrlaydigan donishmand va allomalarga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etgani shubhasiz.

Bu esa falsafaning barcha fanlar va xalqlarning yutuqlaridan oziqlanadigan umuminsoniy va universal fan ekanidan dalolat beradi. Uning hayotiyligi dunyo xalqlari tarixi va tabiatiga, turmush va tafakkur tarziga nechog'li mos ekani, ularning manfaatlari va intilishlarini qay darajada aks ettira olishiga bog'liq, albatta. Bu esa jahon falsafasining umuminsoniyligi va milliyligi, muayyan xalq yoki mintaqaga xos tafakkur tarzining mohiyati va ahamiyatiga nisbatan xolisona qarashni taqozo etadi, falsafani zamonaviy mazmun bilan boyitib, bugungi talablar asosida rivojlantirishni zaruratga aylantiradi. So'z falsafa haqida borar ekan, bu haqiqat yanada katta ahamiyat kasb etadi. Zero, umuminsoniylikni milliyliksiz to'g'ri tushunib bo'lmagani kabi, milliylikning mohiyatini ham umuminsoniy mezonlarsiz chuqur anglab bo'lmaydi.

Ushbu masalalarni tahlil qilish jarayonida biror-bir g'oya, oqim, yo'nalish yoki falsafiy ta'limotni mutlaqlashtirish, boshqalarining ahamiyatini kamsitish yoki yo'qqa chiqarish haqiqatdan yiroq va bugungi

davr talablariga javob bermasligi shubhasiz. Aksincha, ularning barchasini xolis talqin etish, falsafa fani, uning mazmun-mohiyati, jamiyat va inson hayotidagi o'rni va ahamiyati, xilma-xil falsafiy oqimlar, faylasuflar va ularning ta'limotlari haqida to'g'ri va ilmiy tasavvurni shakllantirish har qanday tadqiqotning asosiy mezonini va bu boradagi yutuqlar omili bo'lib qolaveradi.

Lekin ushbu fan tarixi faqatgina ilmiy yutuqlar, ezgulikning mutlaq g'alabasi, falsafaning doimiy kamolotidan iborat emas. U jamiyat uchun nihoyatda katta ahamiyat kasb etgan g'oya va ta'limotlar, turli-tuman falsafiy yo'nalishlar, oqim va maktablarning vujudga kelishi, kamoli yoki zavoliga ko'p bora guvoh bo'lgan. Ularning ba'zilari xalqlar va davlatlarni taraqqiyotga yetaklagan, ezgulik va adolatga xizmat qilgan bo'lsa, boshqalari tanazzulga sabab bo'lgan, odamlarni qabohat va jaholat tomon boshlagan.

Falsafaning o'ziga ham barcha zamonlarda bir xil munosabat bo'lmagan. Ba'zi davrlarda u davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan, ma'naviy hayotda yakka hukmronga aylangan bo'lsa, boshqa davrlarda unutilishga, ikkinchi darajali fanga aylantirishga mahkum qilingan. Muayyan tarixiy burilish davrlarida «Falsafa nima o'zi?», «Uning qanday foydasi bor?» degan masalalar dolzarb ahamiyat kasb etgan. Tarixda «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ham ko'p bo'lgan. Ana shunday davrlarda kishilar falsafaning mohiyati, uning maqsad va vazifalarini yangicha idrok etishga harakat qilganlar, undan zamonaviy tashbehlar izlaganlar. Qanday bo'lmasin, zamonlar o'tishi bilan odamzod baribir falsafaga ehtiyoj sezgan va u insonning ma'naviy kamolotida beqiyos ahamiyat kasb etishiga qayta-qayta ishonch hosil qilgan.

Shu bilan birga o'z davrining qonun va xususiyatlarini zukkolik bilan anglagan, hayot qonuniyatlaridan voqif bo'lgan ba'zi yetuk faylasuf va allomalarning hayoti ham bir tekis kechavermagan, ularning g'oya va qarashlar, jamiyat va millat kamoli uchun harakatlari hamma tomondan ham bir xil qabul qilinavermagan. Bu boradagi tajriba shundan dalolat beradiki, falsafa tarixi bunday kishilarning nomini eslash va ularni sahifalarida saqlab qolishni xush ko'rmaydi, kimning kim ekani haqida xulosa chiqarishni esa odamlarning o'ziga va kelajakka havola qilib qo'ya qoladi.

Shu tariqa kishilik jamiyati hech qachon bir tekis va silliq taraqqiy etavermagan. Rivojlanish ortidan inqiroz, yutuqlar ketidan mag'lubiyatlar farovonliklar izidan zavolga yuz tutishlar uni ta'qib etgan. Muayyan jamiyat taraqqiyot borasida inqirozga duch kelar ekan, undan chiqib ketish uchun ilg'or falsafiy ta'limotlarga ehtiyoj sezgan, albatta. Bu esa

buyuk falsafiy ta'limotlar, bir tomondan, madaniy-intellektuat rivojlantirish samarasi, ikkinchi tomondan, tub ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar taqozosi ekanidan dalolat beradi.

Bu masalaning falsafa fani va uni o'rganish uchun hozirgi davrdagi turli falsafiy g'oya va mafkuralar, ta'limot va nazariyalar bilan bog'liq yana bir muhim jihati ham bor. Globallashib borayotgan bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi, ro'y berayotgan g'oyaviy kurashlarning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil qiladigan ushbu mavzuning tarixi, tavsifi va ahamiyati falsafaning o'zi kabi qadimiy va nihoyatda dolzarb ekanligiga shubha yo'q. Insoniyat ibtidosidan boshlangan ana shu azaliy kurashda ezgulikning g'alaba qilishi, sog'lom tafakkur ustuvor bo'lishi targ'ib etilsa-da, bunday muvaffaqiyatni qo'lga kiritish hamma vaqt ham oson kechmagan. Afsuski, asrlar osha odamlarni ezgu va xayrli ishlarga boshlab kelayotgan, umuminsoniy ahamiyatga molik bunyodkor g'oyalar bilan birga, mazmun-mohiyati buzg'unchilik va g'ayriinsoniylikdan iborat vayronkor mafkuralar, shaxsiyatparastlik mayllari ham rang-barang shakllarda namoyon bo'lib turadi. Falsafiy tafakkur rivoji shu tariqa, muayyan g'oyalar ustuvor bo'lgan necha-necha zamonlar almashinuvi, turli mafkuralar kurashidan iborat uzluksiz jarayon sifatida davom etib kelmoqda.

Mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat barpo etilayotgan hozirgi sharoitda tinchlik va totuvlikka, barqarorlik va bag'rikenglikka rahna soluvchi buzg'unchi mafkuralarning maqsad-muddaolarini o'z vaqtida anglash, ularga qarshi kurashish, ezgu g'oyalarni amalga oshirishga qaratilgan bunyodkorlik ishlarida faol va mas'uliyatli bo'lish bu boradagi faoliyatimizning asosiy mezonidir.

Xullas, falsafiy tafakkur taraqqiyoti insoniyat rivoji bilan uzviy bog'liq va jamiyat hayotdagi voqea-hodisalar ijtimoiy ongda, xususan falsafada ham o'ziga xos tarzda aks etadi. Taraqqiyot jarayonida davr o'zgarishi, yangi zamon boshlanishi bilan unga mos ma'naviy, huquqiy, siyosiy va falsafiy mezonlar ham shakllana boshlaydi. Lekin bu jarayon faqat stixiyali tarzda, o'z-o'zidan yuz beravermaydi. Chunki, inson tafakkurining yangi davrga xos o'zgarishi, dunyoqarashning yangicha tamoyillarga ega bo'lishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Falsafiy tafakkur rivoji bilan bog'liq bunday holat hozirgi davrda ham yuqori namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, bugungi kunga mos dunyoqarash va zamonaviy tafakkurni shakllantirish falsafaning eng asosiy vazifalaridan biriga, barchamiz uchun ulkan mas'uliyatga aylangani shubhasiz.

MUNDARIJA

MUQADDIMA	3
----------------------------	----------

BIRINCHI BO'LIM. FALSAFA. **7**

1-mavzu. Falsafa fanining mazmun-mohiyati, mavzulari va jamiyatdagi o'rni	7
---	---

2-mavzu. Falsafiy tafakkur tarixi. Sharq falsafasi	29
--	----

3-mavzu. Falsafaning taraqqiyot bosqichlari. G'arb falsafasi	63
--	----

4-mavzu. Borliq – falsafaning fundamental kategoriyasi.	89
---	----

5-mavzu. Olamning universal aloqalari va rivojlanish. Falsafaning qonun va kategoriyalari.	110
--	-----

6-mavzu. Bilish nazariyasi: asosiy muammolari va yo'nalishlari	136
--	-----

7-mavzu. Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadriyatlari. Jamiyat va tarix falsafasi.	146
--	-----

8-mavzu. Falsafiy antropologiya. Inson falsafasi	169
--	-----

9-mavzu. Globallashuv va umumbashariy muammolarning falsafiy jihatlari	188
--	-----

IKKINCHI BO'LIM. MANTIQ FALSAFASI (LOGIKA) **202**

10-mavzu. Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida.	202
---	-----

1. Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari	209
--	-----

2. Tushunchalar o'rtasida munosabatlar	214
--	-----

3. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar	216
--	-----

4. Fikr yuritishda tushunchalar bilan bog'liq xatoliklar	220
--	-----

11-mavzu. Mulohaza va xulosa chiqarish	221
--	-----

12-mavzu. Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari	246
---	-----

UCHINCHI BO'LIM. ETIKA:	
AXLOQ FALSAFASI	266
13-mavzu. «Etika» fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati.	266
14-mavzu. Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, ertug yoshlar tarbiyasidagi o'rni	292
15-mavzu. Axloqiy madaniyat va qadriyatlar	309
TO'RTINCHI BO'LIM. ESTETIKA: NAFOSAT FALSAFASI	321
16-mavzu. Estetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari	321
17-mavzu. Tabiat va texnogen sivilizatsiya estetikasi	339
18-mavzu. Estetikaning zamonaviy muammolari va estetik tarbiyaning dolzarb masalalari	355
XULOSA	375

Q. Nazarov, D. Fayzixo'jayeva, M. Nurmatova, A. Sher,
N. Abdullayeva, E. Qalqonov, B. Qandov

FALSAFA ASOSLARI

o'quv qo'llanma

Muharrir *M. Tursunova*

Musahhih *H. Zakirova*

Dizayner-sahifalovchi *A. Aubakirov*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 25.05.2018. «Uz-Times» garniturasida. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆. Shartli bosma tabog'i 24,0. Nashriyot bosma tabog'i 23,75. Adadi 2000 nusxa.
Buyurtma № 12

«AVTO-NASHR» XK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.